ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

6
2025

ISSN 2181-6833

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2025-yil, iyun)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2025

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2025, № 6

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich– pedagogika fanlari doktori, professor
Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)
Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)
Zotova Firuza Raxmatullovna, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)
Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor
Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)
To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО
Научно-теоретический и методический журнал
№ 6, 2025

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «**Педагогика»** и «**Психология»**.

Журнал основан в 2001 году.
Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор
Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор
Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор
Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор
Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)
Андриенко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)
Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)
Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)
Зотова Фируза Рахматулловна, доктор педагогических наук, профессор (Поволжский государственный университет физической культуры , спорта и туризма, Россия)
Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор
Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор
Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)
Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор
Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор
Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор
Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор
Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор
Чариев Ирграш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор
Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор
Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор
Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор
Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор
Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент
Абдуллаев Мехриддин Жунайдуллоевич, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Сатторов Анвар Эргашович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)
Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент
Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS
The scientific-theoretical and methodical journal
№ 6, 2025

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «**Pedagogy**» and «**Psychology**».

The journal was founded in 2001.
The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.
Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov
Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov
Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)
Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Zotova Firuza Raxmatullovna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova
Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)
Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev
Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov
Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva
Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev
Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova
Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov
Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova
PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mekhriddin J. Abdullaev
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Anvar E. Sattorov
PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev
PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva
PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
		SAN’AT	
	SOLIYEV Ozodbek Rahmatovich	Tasviriy san’at tarixi fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning dolzarbligi	8
	AZIMOVA Muxayyo Baratovna	Kashtachilik san’ati tarixi	12
	BOYMURODOVA Rayxon Azamadovna	Milliy hunarmandchilikning spektral-variativ kompetensiyalarini rivojlantirishning usul va metodlari	17
	MAMUROV Abdusalom Anvarovich	Badiiy kulolchilikda mayda plastikada ishlashning muhim ahamiyati	21
	OSTONOVA Gulshod Razzoqovna	Tasviriy san’at asarlari o‘quvchilar tomonidan idrok va tasavvur etilishining pedagogik-psixologik muammolari	26
	QURBONOVA Barchinoy Mirzahamdamovna	O‘zbekiston kulolchilik maktablari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari	30
	SOLIYEV Ozodbek Rahmatovich	Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda tasviriy san’at tarixining ahamiyati	34
	SOXIBOV Raxmonali Jumadilayevich	Milliy naqqoshlik va uning maktablari	38
	TEMIROV Murodjon Anvarovich	Talabalarda badiiy did va estetik tafakkurni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	45
		IQTISODIY TA’LIM VA TARBIYA	
	MADAMINOV Hurshidjon Xomidovich	Sport sohasi uchun iqtisodiy kadrlar tayyorlash va pedagogik mahoratlarini oshirish yo‘lidagi yangi innovatsion metodlar	50
	RAVSHANOVA Ziyoda Nuraliyevna	Tadbirkorlik faoliyatining tarixiy ildizlaridan zamonaviy rivojlanish sari	54
		INKLYUZIV TA’LIM	
	PIRNIYAZOVA Gúlchira Nietbaevna, BEKTURSINOVA Gúlxumar Joldasbay qizi	Inklyuziv tálimde oqíwshílardíń kitapxanlíq mádeniyatín rawajlandíríw	59
		TA’LIM MENEJMENTI	
	ASTANOV Axunjon Raubovich	Hokim yordamchilarini tayyorlash va uning siyosiy madaniyatini yuksaltirishda xorij tajribasi	63
	TUXFATULLINA Dilyara Temurovna	Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari	70
	MADAMINOV Hurshidjon Homidjonovich	Jismoniy tarbiya va sport sohasida innovatsion iqtisodiy yondashuvlar: malaka oshirish markazlari tajribasi tahlili	74
	TOSHPULATOV Olim Panjiyevich	Raqamli vositalarni maktab ta’lim tizimiga qo’llashda innovatsion yondashuv muammolari va yechimlari	81
		ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
	ABDULLAYEVA Gavhar Ro‘zimurod qizi	Adekvat modellar asosida talabalarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish: metodologik asoslar, xalqaro tajriba	85
	POLVONOV Baxtiyor Zaylobiddinovich, FOZILOVA Mohichehra Dilmurod qizi	Fizika darslarini interaktiv tashkil etishda VR texnologiyalarining rolini oshirish usullari	90
	MAVLYANOV Muminjon Akramovich	Zamonaviy dars strukturasi: “podkastlar” darslarni tashkil etishda yangicha metod	94

	АРИПОВА Малика Ганишеровна	Литературный текст как пространство метакогниции: возможности геймификации и AR/VR	99
	БОБАЕВА Зиёдахон Махамаджон кизи	Реализация программы внеурочной деятельности по природоведению, направленной на развитие логического мышления	106
	ЮНУСОВА Раъно Гайбуллаевна	Значение использования игры "метод четырех погон" в процессе обучения	111
	СОДИКОВА Дилнавоз Қамбаралиевна	Инновационный подход к преподаванию дагностических приборов: Рентген, ЭКГ	116
	АРИПОВА Малика Ганишеровна	Метапредметный подход к литературе: классика и иммерсивные технологии	120
	TO‘XTAMISHOVA Gulnora Mels qizi	Elementar matematikani o‘qitishda sun’iy intellekt asosidagi gamifikatsiyalangan platformalarning o‘rni	125
RAQAMLASHTIRILGAN TA’LIM			
	ABDUNAZAROVA Odina Toshqinboy qizi	Raqamli texnologiyalar orqali o‘zbek tilini o‘rgatishdagi yangi usul va metodlar	132
	AMINOV Istam Barnoyevich, ABDUSOBIROVA Maxliyo Kamariddinovna	Interfaol raqamli ta’lim resurslarini yaratishda learningapps.org platformasidan foydalanish asoslari va usullari	139
	ATAMURATOV Rasuljon Kadirjanovich	pedagogik faoliyatda sun’iy intellektga asoslangan chat-botlardan foydalanish	144
	LUTFILLAYEV Maxmud Xasanovich, CHORSHANBIYEV Choriyor Ismadullo o‘g‘li,	Mathematica, matlab, maple, geogebra va derive amaliy dastur paketlarini ta’limda qo‘llashning amaliy jihatlari	149
	DAVRONOV Shakhbos Erkin, QAHHOROV Siddiq Qahorovich	Methodology of teaching the subject “information technologies in medicine” to future doctors in a digital environment	153
	LUTFILLAYEV Maxmud Xasanovich, AMINOV Istam Barnoyevich, DUSMATOVA Mamura Abduvaliyevna	O’qituvchilarni mobil ilovalardan foydalanib dars jarayonlarini tashkil etish kompetensiyasini shakllantirish	158
	G‘APPOROV Umidjon Abdurashid o‘g‘li, AMONOVA Nilufar Avaz qizi	Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalarining ta’siri	165
	NOROVA Fazilat Fayzulloyevna	Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda mobil ilovalarning integratsiyalashgan metodikasi	171
	DAVRONOV Shaxbos Erkin o’g’li	Raqamlashtirish muhitida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda virtual laboratoriyalarning o’rni	175
	SULAYMONOVA Saodat Usubxonovna	O‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda interaktiv vizual ta’lim vositalarining samaradorligi	180
	XUSENOV Murodjon Zoxirovich	Raqamli transformatsiya sharoitida ta'limda kiberxavfsizlik madaniyatining shakllanishi: nazariy asoslar	184
	YO‘LDOSHEVA Nilufar Yusufovna	Virtual ta’lim muhitida elektron ta’lim resurslaridan samarali foydalanishning tashkiliy tuzilmaviy ko‘rinishlari	187
	BO‘RONOVA Gulnora Yodgorovna, ADIZOVA Fotima Ma’rif qizi	Robototexnikani virtual o‘qitishda o‘quvchi faolligi va natijalarini tahlil qilish tizimi	192
	MAMAJANOV Raxmatilla Yakubjanovich	Informatika o‘qitish asosida ta’limni raqamlashtirishning pedagogik shart-sharoitlari	196
	QODIROV Baxtiyor Eshmurzayevich	O‘quvchilarning raqamli ta’lim muhitida maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvi	201
	SAIDOVA Muhayyo Farhod	Mobil ilovalar asosida texnologik ta’lim yo‘nalishi	

	qizi	talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari	205
	TO‘XTAMISHOVA Gulnora Mels qizi	Interfaol intellektga asoslangan mobil platforma orqali maktabgacha ta’limda elementar matematika o'qitish tizimini boshqarish	210
	SHODIYEVA Yulduz Adizjonovna	Ta’limda sun’iy intelektdan foydalanishning afzalliklari	216
MA’NAVIYAT VA TARBIYA			
	ABDULLAYEVA Malika Ravshanbekovna	Talabalar ma’naviy-axloqiy tarbiyasi jarayonining tarkibida fuqarolik-vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish	221
	BOBOYEVA Zulfiya Akbarjonovna	Uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimida san’at omilining o‘rni	225
	HASANOVA Bo‘rigul Hasan qizi	Axborotlashgan jamiyatda o‘quvchilarda axloqiy dunyoqarashni shakllantirish jarayonining ilmiy va nazariy asoslari	231
	RAXIMBAYEV Jo‘rabek Sobirovich	Muhammad Yusuf she’riyatida vatan ravnaqi g‘oyasining ifodalanishi	235
	SUYUNOV Sherzodbek Jamolovich	Talabalarda milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirishda so‘fi olloyorning axloqiy qarashlari	240
	DADABOYEV Suhrob Mansurjonovich	Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning innovatsion texnologiyasi	244
	RAXMATOVA Dilbar Anvar qizi	Jadid harakatida inson ma`naviyatini yuksaltirishda teatrning alohida o`rni	248
	XUDAYKULOVA Shaxlo Mamaniyozovna	Bo‘lajak o‘qituvchilarda axloqiy qarashlarni shakllantirishda neyropedagogik texnologiyalarning roli	254
PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI			
	ABDULLAYEVA Sabohat G‘ayratullayevna	Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy ijodida “ustoz-shogird” an’anasining yoritilishi	258
	MADRAXIMOVA Dinora Ismoil qizi	Muhammadiya madrasasida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish usullari	263
	NURIDDINOV Rasuljon Samitjon o‘g‘li	Yusuf xos hojib asarlarida psixologik salomatlik masalasining yoritilishi	267
	NUSRATOV Anvar Nematjonovich.,	Abdulvahhobxo‘ja o‘g‘li Poshshoxo‘janing ijodiy merosi va uning pedagogik mazmuni	271
	QURBONOVA Nigina Boboxo‘jayevna	Hozirgi zamon ta’lim –tarbiya jarayoniga sadriddin ayniy ilmiy merosini tatbiq etishning samarali yo‘llari	275
	SAMADOVA Sarvinoz Samad qizi	Ma`rifatparvar jadidlarning ta`lim tizimidagi islohotlari	279
	AMIROVA Nazokat Uroq qizi	Sharq mutafakkirlari asarlarida kasb-hunarni egallashga doir qarashlar	283

SAN’AT

TASVIRIY SAN’AT TARIXI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING DOLZARBLIGI

Soliyev Ozodbek Rahmatovich,
Farg‘ona davlat universiteti tasviriy san’at kafedrasi o‘qituvchisi
ozod-s@mail.ru

Mazkur ishda tasviriy san’at tarixi fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va dolzarbligi yoritilgan. Fan taraqqiyoti va zamonaviy ta’lim talablari asosida, o‘quvchilarda san’atga bo‘lgan qiziqishni oshirish, mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion metodlarning o‘rni alohida ta’kidlanadi. An’anaviy o‘qitish usullari bilan zamonaviy interaktiv metodlarni uyg‘unlashtirish orqali dars jarayonini samarali tashkil etish, vizual materiallardan, raqamli resurslardan va multimedia vositalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi. Shuningdek, dars jarayonida klaster, aqliy hujum, loyiha metodlari, muammoli ta’lim kabi pedagogik yondashuvlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarni faol fikrlashga, mustaqil izlanishga undaydi. Xulosa sifatida, zamonaviy pedagogik texnologiyalar tasviriy san’at tarixi fanini o‘qitishda nafaqat bilim berish, balki estetik tarbiya va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda ham muhim vosita ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at tarixi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar, interaktiv o‘qitish, multimedia vositalari, vizual materiallar, mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, estetik tarbiya, ijodiy tafakkur, ta’lim sifati, motivatsiya, o‘qitish samaradorligi, madaniy meros.*

АКТУАЛЬНОСТЬ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

В данной работе подчеркивается важность и актуальность использования современных педагогических технологий в преподавании истории изобразительного искусства. Исходя из прогресса науки и требований современного образования, подчеркивается роль инновационных методов в повышении интереса учащихся к искусству, формировании навыков самостоятельного мышления и аналитического подхода. Отмечается, что за счет сочетания традиционных методов обучения с современными интерактивными методами, эффективная организация учебного процесса, использование наглядных материалов, цифровых ресурсов и мультимедийных инструментов служат повышению качества образования. Также использование в ходе урока педагогических подходов, таких как кластерный, мозговой штурм, проектные методы, проблемное обучение, побуждает учащихся активно мыслить и проводить самостоятельные исследования. В заключение подчеркивается, что современные педагогические технологии являются важным инструментом преподавания истории изобразительного искусства не только в передаче знаний, но и в развитии эстетического воспитания и творческого мышления.

Ключевые слова: *история изобразительного искусства, современные педагогические технологии, инновационные методы, интерактивное обучение, мультимедийные средства, наглядные материалы, самостоятельное мышление, аналитический подход, эстетическое воспитание, творческое мышление, качество образования, мотивация, эффективность обучения, культурное наследие.*

THE RELEVANCE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE HISTORY OF FINE ARTS

This work highlights the importance and relevance of using modern pedagogical technologies in teaching the history of fine arts. Based on the development of science and modern educational requirements, the role of innovative methods in increasing students' interest in art, forming independent thinking and analytical approach skills is emphasized. It is noted that the effective organization of the lesson process by combining traditional teaching methods with modern interactive methods, the use of visual materials, digital resources and multimedia tools serves to improve the quality of education. Also, the use of pedagogical

approaches such as cluster, brainstorming, project methods, problem-based learning in the lesson process encourages students to actively think and conduct independent research. In conclusion, it is emphasized that modern pedagogical technologies are an important tool not only for imparting knowledge in teaching the history of fine arts, but also for developing aesthetic education and creative thinking.

Keywords: *history of fine arts, modern pedagogical technologies, innovative methods, interactive teaching, multimedia tools, visual materials, independent thinking, analytical approach, aesthetic education, creative thinking, quality of education, motivation, teaching effectiveness, cultural heritage.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga keng joriy etishni talab qilmoqda. Xususan, tasviriy san’at tarixi fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning estetik didini shakllantirish va tarixiy-badiiy merosimizni chuqur o‘rganishlariga keng imkoniyat yaratadi. An’anaviy metodlarni interaktiv, innovatsion usullar bilan uyg‘unlashtirish orqali darslarni yanada qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar yordamida vizual materiallardan foydalanish, multimedia resurslari orqali tasviriy san’at asarlarini keng yoritish va tahlil qilish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahliliy yondashuvga o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ushbu mavzuni o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

Asosiy qism. Globallashuv jarayonida ta’lim tizimida ro‘y berayotgan islohotlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishini taqozo etmoqda. Xususan, tasviriy san’at tarixi fanini zamonaviy yondashuvlar asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarda san’atga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va milliy hamda jahon san’ati yutuqlarini chuqur o‘rganishga erishish mumkin. An’anaviy metodlarni interaktiv, innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish esa darslarni yanada samarali va qiziqarli qilishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini vizual, interfaol va multimediya vositalari yordamida boyitishga imkon yaratadi. Tasviriy san’at tarixi fanida esa bu juda dolzarb, chunki san’at asarlarini bevosita ko‘rish, ularni vizual ravishda tahlil qilish o‘quvchilarning bilimini mustahkamlashga yordam beradi.

Multimedia texnologiyalari, virtual muzeylar, elektron darsliklar, klaster texnologiyasi, aqliy hujum usuli, loyiha va muammoli o‘qitish metodlari orqali o‘quvchilarni darsga faol jalb etish mumkin. Bu metodlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, tasviriy san’at namunalarini chuqur tahlil qilishga o‘rgatadi va san’at asarlari orqali estetik tarbiya beradi.

Tasviriy san’at tarixi fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida keng o‘rganilmoqda. Bu borada ko‘plab ilmiy manbalar, metodik qo‘llanmalar va zamonaviy pedagogik adabiyotlar mavjud bo‘lib, ular o‘qitish jarayonini takomillashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi farmon va qarorlari, Davlat ta’lim standartlari hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tavsiya etilgan metodik qo‘llanmalar zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini joriy etishda asosiy manba hisoblanadi. Jumladan, ta’lim jarayoniga AKTni joriy etish, masofaviy ta’lim shakllari, multimediya vositalaridan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar pedagogik jarayonni interfaol va samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

San’atshunoslikka oid fundamental asarlar, masalan, G.V.Alekseyev, B.R.Vipper, N.I.Dmitriyeva kabi olimlarning tadqiqotlari, tasviriy san’atning rivojlanish bosqichlari, uslublari va yirik san’at asarlari tahlilini o‘rgatishda muhim qo‘llanma hisoblanadi. G.V.Alekseyevning “San’at tarixi” kitobi insoniyat tarixida san’atning rivojlanish bosqichlarini tizimli ravishda tahlil qiladi. Qadimgi davrdan zamonaviy san’atgacha bo‘lgan davrlar yoritiladi. Kitobda vizual materiallar ko‘p va aniq tavsiflar, san’at asarlarining badiiy va tarixiy tahlili berilgan. Talabalarda san’at tarixiga nisbatan tushuncha hosil qilish, dunyo san’ati taraqqiyoti haqida umumiy bilim berish uchun xorijiy manba sifatida tavsiya etiladi. N.I.Dmitriyevaning “San’at tarixi” kitobi san’at tarixini nafaqat davrlar kesimida, balki mintaqalar va uslublar bo‘yicha ham tahlil qiladi. San’atning turlari: haykaltaroshlik, me’morchilik, miniatyura, grafika kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilgan. Kitobda tahliliy yondashuv, mukammal ilmiy izohlar, boy bibliografik manbalar ko‘p berilgan. Ushbu kitobdan fan mashg‘ulotlarida ma’lumotlarni chuqurlashtirish, mustaqil tadqiqot ishlari uchun asos sifatida foydalaniladi. [1; 5] B.R.Vipperning “San’atshunoslik asoslari” asarida san’atning nazariy asoslari, uning ijtimoiy vazifalari, badiiy shakllari tahlil qilinadi. Turli san’at asarlarini tahlil qilish metodologiyasi ko‘rsatilgan. Talabalarning san’at asarlarini chuqur tushunishga o‘rgatadi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Tasviriy san’at asarlarini baholash va tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Yuqoridagi kitoblar nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy tahlil qilishni uyg‘unlashtiradi. Aksariyat asarlarda vizual materiallar mavjudligi talabalarga ko‘rgazmali tushuncha beradi. Kitoblardagi topshiriqlar va tavsiyalar san’at asarlarini mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Mahalliy mualliflarning tasviriy san’at tarixiga oid ilmiy ishlari, darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari, jumladan, “O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixi”, “Sharq miniatyura san’ati”, “Amaliy bezak san’ati” kabi asarlar milliy san’atimizni o‘rganishda bebaho manba hisoblanadi.

V.P.Bespalko, M.V.Klarin, G.K.Selevko singari pedagogik texnologiya nazariyasiga asos solgan olimlarning ishlari o‘qitish metodlarini ilmiy asosda shakllantirishga ko‘maklashadi.

“Klaster” texnologiyasi, “Aqliy hujum”, “Muammoli ta’lim”, “Loyiha” metodi, “Case-study” kabi metodlarni qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar zamonaviy darslarni tashkil qilishda pedagoglarga amaliy yordam beradi.

Talabalarning mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuvini rivojlantirishga qaratilgan adabiyotlar esa tasviriy san’at tarixi fanini chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Raqamli platformalar (Coursera, Udemy, Khan Academy) va elektron darsliklar tasviriy san’at tarixining vizual namunalarini taqdim etish, interfaol dars materiallari orqali o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishda qo‘llaniladi.

Muzeylarning virtual ekskursiyalari (Luvr, Ermitaj, O‘zbekiston san’at muzeyi) orqali asarlarni tahlil qilish imkoniyati yaratiladi, bu esa an’anaviy o‘qitishdan ko‘ra ta’sirchanroq o‘qitish muhitini yaratadi.

So‘nggi yillarda pedagogik texnologiyalarni tasviriy san’at ta’limiga integratsiya qilish bo‘yicha ko‘plab ilmiy maqolalar chop etilgan. Ularda zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayoniga ijobiy ta’siri, talabalarning faolligi va mustaqil ishlash malakasini oshirishi haqida tadqiqot natijalari keltirilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tasviriy san’at tarixi fanini o‘qitishga tadbiq etish orqali o‘quvchilarning san’atga bo‘lgan qiziqishi va estetik dunyoqarashi sezilarli darajada kengayadi. Turli manbalarni uyg‘unlashtirib, ilmiy va metodik adabiyotlardan samarali foydalanish darslarni zamonaviy va interfaol shaklda tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda ta’lim sohasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarda faqatgina nazariy bilim emas, balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Tasviriy san’at tarixi fanida bu texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilish, ularning estetik didini rivojlantirish va ijodiy fikrlashini shakllantirishda ayniqsa dolzarbdir. Quyida Tasviriy san’at tarixi fanida zamonaviy pedagogic texnologiyalarini qo‘llashda metodologik yondashuvlar berilgan:

Metodologik yondashuv	Tavsifi	Amaliy natijasi
Interaktiv yondashuv	“Blended learning” (aralash ta’lim), klaster, brainstorming, case study metodlari	O‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi
Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT)	Prezentatsiyalar, videodarslar, virtual galereyalar, 3D-modellashtirish	Darslar vizual va dinamik tus oladi, o‘quvchilarning qiziqishi oshadi
Differensial yondashuv	O‘quvchilar tayyorgarligi, qiziqishlari va qobiliyatlariga ko‘ra individual yondashuv	Shaxsiy yondashuv asosida yuqori natijalarga erishiladi
Loyiha metodlari (Project-based learning)	Tasviriy san’at namunalarini tahlil qilish, mini-loyihalar tayyorlash	O‘quvchilar o‘z ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ijodiy ishlashga o‘rganadi
Ko‘rgazmali-uslubiy metodlar	Multimedia resurslaridan foydalanish, san’at asarlari namoyishi	Estetik tarbiya, san’atni tushunish va baholash ko‘nikmasi shakllanadi

Badiiy ta’limda Tasviriy san’at tarixi fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- **Talabalarni faollashtiradi.** An’anaviy darslardan farqli ravishda, talaba dars ishtirokchisiga aylanadi.
- **Ko‘rgazmalilik:** San’at asarlarini realistik shaklda ko‘rish imkoniyati yaratiladi (virtual ko‘rgazmalar, interaktiv taqdimotlar).
- **Tahliliy fikrlashni rivojlantiradi.** Talabalar san’at asarlarini mustaqil tahlil qilishga o‘rgatiladi.
- **Axborot oqimini boshqarish:** Talabalar zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirilgan bilim manbalaridan foydalanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tasviriy san’at tarixi fanini o‘qitishda nafaqat talabalarning qiziqishini oshiradi, balki ularning estetik dunyoqarashini kengaytiradi, mustaqil va ijodiy fikrlashini

rivojlantiradi. Interaktiv, loyihaviy va AKT metodlari darslarni qiziqarli, samarali va zamonaviy qiladi. [4; 65]

Tasviriy san’at tarixi fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish nafaqat ta’lim jarayonini takomillashtiradi, balki o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, estetik dunyoqarash va madaniy qadriyatlarni anglash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy texnologiyalar vositasida darslarni tashkil etish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, baholash va ijodiy yondashuv malakasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilib, o‘qituvchidan ham ijodkorlikni talab etadi.

Tasviriy san’at tarixi fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning fanlarga qiziqishini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantiradi, estetik didni shakllantiradi hamda ijodiy salohiyatni kengaytiradi.

Multimedia vositalari, virtual ekskursiyalar, interaktiv platformalar orqali darslarni boyitish o‘quvchilarni faollashtiradi va fanlararo aloqadorlikni mustahkamlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga, san’at asarlarini to‘g‘ri tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga olib keladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘qituvchiga ta’lim jarayonini moslashuvchan, samarali va zamon talablari darajasida olib borish imkonini beradi. Natijada, tasviriy san’at tarixi fani o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini, estetik dunyoqarashini va ijodkorlik salohiyatini rivojlantiruvchi muhim fan sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda.

Tasviriy san’at tarixi fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bugungi ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. O‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli, samarali va interaktiv tarzda tashkil etish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning afzalliklaridan biridir. Ularning ta’limga tatbiqi, ayniqsa, tasviriy san’at kabi vizual va estetik jihatdan boy sohada, san’atni o‘rganish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarda o‘ziga xos tahliliy fikrlash, kreativ va mustaqil yondashuvni rivojlantiradi. Interaktiv darslar, multimedia vositalari, virtual galereyalar, va boshqa raqamli resurslardan foydalanish o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Shu bilan birga, san’at asarlarini vizual tahlil qilish va tarixiy kontekstda baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan tarzda tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va qiziqishlariga mos keladigan ta’lim usullarini tanlash imkonini beradi. O‘quvchilarga mustaqil ishlarni bajarish, loyihalar yaratish, san’at asarlarini interaktiv tarzda tahlil qilish kabi faoliyatlar orqali o‘z bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyati beriladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar nafaqat o‘quvchilarni ilmiy yondashuvga o‘rgatadi, balki ularning estetik va madaniy dunyoqarashini ham kengaytiradi. San’atni o‘rganishda vizual va dinamik vositalardan foydalanish o‘quvchilarning estetik didini shakllantirishda, ularni ijodiy yondashuvga undashda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarni o‘qitishda muvaffaqiyatli qo‘llash o‘qituvchilarning o‘zini yangilash, yangi metod va usullarni o‘zlashtirishni talab qiladi. Bu pedagoglarga o‘quvchilarni o‘zlashtirish jarayonida qo‘llaniladigan texnologik vositalar va metodlarni mukammal bilish, ular bilan ishlashda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Natijada, tasviriy san’at tarixi fani o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni, estetik dunyoqarashini va ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bu jarayonni yanada samarali, qiziqarli va ta’sirchan qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning zamonaviy jamiyat talablari darajasida yetuk mutaxassislar sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Н.Дмитриева. Краткая история искусств. Москва, 2008.
2. Shomurodov O.N. Tasviriy san’at tarixi (portret, manzara, natyurmort, animalistik, batal janrlari): o‘quv qo‘llanma. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2021. 140 b.
3. D.Pulatov. Tasviriy san’at tarixi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. “Namangan” nashriyoti, 2018. 94 b.
4. Omonov H.T. Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisod-moliya”. 2009. -240 b.

KASHTACHILIK SAN’ATI TARIXI

Azimova Muxayyo Baratovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti Tasviriy va amaliy san’at kafedrasi dotsenti

Ushbu maqolada o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib kashtachilik san’ati, tarixi, rivojlanishi va o‘ziga xos xususiyatlari, xalq amaliy bezak san’ati insonlarning ma’naviy olamini boyitishi, badiiy didini shakllantirishi haqida yoritilgan. Kashtachilik san’ati inson ruhiyatini tarbiyalaydi, shuning uchun ham o‘zbek xalq amaliy san’ati insonlarni badiiy axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi. O‘quvchilar tomonidan san’at asarlarini idrok etish va tasavvurini rivojlantirishda pedagogik-psixlogik muammolari o‘rganilganligi. Shu qatorda tasviriy va amaliy san’at o‘qituvchilarining kasb malaka saviyasini o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *amaliy san’at, idrok, tasavvur, kashtachilik, shartlilik, stilizatsiya, o‘zbek dekorativ-amaliy san’ati.*

HISTORY OF EMBROIDERY

The article examines the rich and diverse cultural heritage of folk arts and crafts of the Uzbek people, its history, development and unique features, as well as how folk arts and crafts enrich the spiritual world of people and shape their artistic taste. The art of embroidery educates the human spirit, therefore Uzbek folk applied art is one of the most necessary sources for the artistic, moral and universal education of people, the formation of their scientific worldview, and the increase of their cultural level. In addition, the features of professional qualifications of teachers of fine and applied arts are considered.

Keywords: *applied art, perception, imagination, embroidery, conventionality, stylization, Uzbek decorative and applied art.*

ИСТОРИЯ ВЫШИВКИ

В статье рассматривается богатое и разнообразное культурное наследие народного декоративно-прикладного искусства узбекского народа, его история, развитие и уникальные особенности, а также то, как народное декоративно - прикладное искусство обогащает духовный мир людей и формирует их художественный вкус. Искусство вышивки воспитывает человеческий дух, поэтому узбекское народное прикладное искусство является одним из самых необходимых источников для художественного, нравственного и общечеловеческого воспитания людей, формирования у них научного мировоззрения, повышения их культурного уровня. Кроме того, рассматриваются особенности профессиональной квалификации учителей изобразительного и прикладного искусства.

Ключевые слова: *Прикладное искусство, восприятие, воображение, вышивка, условность, стилизация, узбекское декоративно-прикладное искусство.*

Kirish. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’ati turlari boy va rang - barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O‘zbek diyorida vujudga kelib gullab yashnagan san’at turlari betakrorligi bilan dunyoga mashhurdir. Bunday taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, o‘zbek amaliy bezak san’ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya’ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo‘lamiz. Amaliy san’atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stilizatsiya - ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o‘zbek milliy bezak san’atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo‘lganki, hozirda jahonga mashhur amaliy san’at yodgorliklarimizning ajoyib darajada uyg‘unligidan va mujassamligidan iboratdir.

Xalq amaliy bezak san’ati insonlarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi, shuning uchun ham o‘zbek xalq amaliy san’ati insonlarni badiiy axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Yaqin o‘tmishda o‘zbek amaliy bezak san’atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o‘ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, buyrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo‘zlik, gilamdo‘zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o‘ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san’atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dong‘i ketgan. Arxeologiya qazilmalari va yozma manbalar, kashtado‘zlikning deyarli barcha xalqlarda qadimiyligini iqlim, tabiat sharoiti, muhit bilan bog‘liq holda har bir xalqning madaniyati, san’ati, kasb - hunar turlari bilan birga, ularning ta’siri ostida rivoj topganini ko‘rsatadi. XIV-XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Kashtado‘zlik keng rivoj topgan xalqlarda, unga tasviriy san’atning katta ta’siri yaqqol ko‘rinib turadi.

II asrga oid ingliz kashtalarida jang epizodlari aks ettirilgan. XII asrga mansub rus syujetli kashtalarida esa ikona san’atining kuchli ta’siri ko‘zga tashlanadi.

Vavilon qadim zamonlardan buyon o‘zining kashtalari bilan mashhur bo‘lgan va ayrim taxminlarga ko‘ra o‘sha paytlarda matoni rangli iplar bilan bezash boshlangan ekan. Yuz yillar davomida kashtachilik inson kiyimlarini va kundalik hayot turmushini (dasturxon, choyshab, sochiq, yostiq jildi va boshqalar) bezab kelgan. Qadimgi rus kashtasi o‘zining gazlamada inson yuz qiyofasini tasvirlash (syujetli kashta) va ornamentli kashtasi bilan ajralib turgan.

Qiyofa tasvirlangan kashta usuli xristianlarda – xudo yoki avliyolarning suratini (ikonalar) bajarishda ishlatilgan va rangtasvir bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Bunday kashtado‘zlikda bajarilgan ikonalar va diniy marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan syujetlar cherkov va ibodatxonalarning devorlarini bezatish uchun xizmat qilgan. Inson qiyofasi va badanning ochiq qismlari ochiq tusdagi iplarda bajarilgan, kiyimlar va kompozitsiyaning boshqa detallari esa rangli ipak va kumush suvi berilgan iplarda tikilgan. Murakkab kompozitsiyali kashtalarni asosan ko‘pchilik bo‘lib tikishgan.

XVIII - asrda maxsus ustaxonalar tashkil qilingan, u yerda tayyor kashtachilik mahsulotlarini sotib olish yoki buyurtma berish mumkin bo‘lgan. Bunday ustaxonalarga kashtado‘zlik san’atini o‘rgatish uchun yosh qizlarni ishga taklif qilganlar. Xitoyda qog‘ozga tush bilan ishlangan ajoyib rasmlardan andaza olib, XVI asrdan boshlab kashtado‘zli pannolar yaratilgan (syuxua san’ati igna rassomligi nomi bilan mashhurdir.) Yevropada kashtado‘zlik Uyg‘onish davrida yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Davrning buyuk rassomlari kashtado‘zlar uchun andazalar tayyorlab berardilar, bu - kashtalarning badiiyligini oshirdi. Bu davrda kashta mahsulotlarini qimmatbaho toshlar bilan bezash boshlandi, jun, ipak, zar va kumush suvi berilgan iplar ham ishlatila boshladi. XVIII asrda Yevropada aristokratlar kiyimini bashang qilishda kashtalardan foydalanib, kashtado‘zlik liboslari va buyumlari keng tarqaldi.

XIX asrning 2-yarmida kashta tikish mashinasi ixtiro etilgach, sanoati rivoj topgan mamlakatlarda kashtado‘zlik korxonalari vujudga kela boshladi, ammo kashtachilik mahsulotlarining korxonalarda ko‘plab tayyorlanishi kashtalarning badiiyligiga putur yetkazdi. Kashtachilikda mavjud an’analar susayib ketdi, arzonbaho mashina kashtalari katta mahorat va ko‘p mehnat talab qiladigan qo‘l kashtalarini siqib chiqardi. Xalq amaliy bezak san’ati qadrlanayotgan mamlakatlarda qo‘lda kashta tikishga alohida e’tibor berildi, xalq san’atkorlarining ajoyib ishlari muzey va jamoat binolarini bezab kelmoqda. Mamlakatimiz muzeylarida xalq kashtachiligining ko‘p namunalari to‘plangan. XIX asr kashtalari yaxshi saqlanib, shu kunlargacha yetib kelgan. Kashtalar dehqoncha (xalq) va shaharcha kashtalarga ajratil-gan. Shahar kashtalari doimo G‘arb modasi ta’sirida bo‘lgani uchun, uning mustahkam an’analari bo‘lmagan.

Kashtado‘zlik, kashtachilik amaliy san’atning qadimiy sohalaridan biri, arxeologik topilmalar kashtachilikning deyarli barcha xalqlarda qadimiyligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog‘liq holda har bir xalqning madaniyati, san’ati, kasb-hunar turlari bilan birga, ularning ta’sirida rivoj topganini ko‘rsatadi.

Kashtachilikning paydo bo‘lishi teridan qilingan kiyimlarda bog‘lam va choklarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Davrlar davomida toshdan suyak bigizlarga, undan metal bigizlarga o‘tish bilan, shunigdek, to‘qish, mato to‘qish, bo‘yash va boshqa ishlar bilan bog‘liq. Kashtachilik taraqqiyotini Qadimiy Osiyo, Yevropa, Amerika madaniy yodgorliklari, adabiy manbalardagi kashta tasvirida va saqlanib qolgan kashta namunalarida kuzatish mumkin. Kashtachilik namunalarining eng qadimgi nusxalari saqlanmagan. Kashtachilik rivojlangan xalqlarda unga tasviriy san’atning ta’siri katta bo‘lgan. Masalan XI - asrga oid ingliz kashtalarida jang lavhalari aks ettirilgan, XII asrga mansub rus kashtalarida Vizantiya ikona san’atining ta’siri ko‘zga tashlanadi. Xitoyda XVI asrdan “syxua” (ignali tasvir) nomi bilan mashhur bo‘lgan kashtali namoyonlar uslub jihatdan shoyiga tush bilan ishlangan manzara janriga yaqin.

Yevropada kashtachilik Uyg‘onish davrida yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Davrning buyuk rassomlari (Perujino, Bottichelli va b.) kashtado‘zlar uchun andazalar tayyorlab berishgan, bu esa kashtalarning badiiyligini oshirgan. Kashtalarda qimmatbaho toshlardan ham foydalanilgan, ip, jun, ipak, zar va kumush suvi berilgan iplar ishlatilgan. XVIII asrda Yevropada aslzodalar kiyimini bezashda kashtalardan foydalanib tayorlangan kashtachilik buyumlari keng tarqalgan.

XIX asrning 2-yarmida kashta tikish mashinasi ixtiro etilgach, sanoat rivoj topgan mamlakatlarda kashtachilik korxonalari vujudga kela boshladi va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yilishi an’anaviy kashtachilikni inqirozga uchratdi. Kashtachilikdagi mavjud an’analar susayib ketdi, arzon baho mashina kashtalari katta mahorat va ko‘p mehnat talab qiladigan qo‘l kashtalarini siqib chiqardi. Lekin bir qancha mamlakatlarda mashina kashtasi bilan bir qatorda qo‘lda kashta tikishga alohida e’tibor berilmoqda, kashtado‘zlarning ishlari muzeylarni va jamoat binolarini bezamoqda. O‘rta Osiyo kashtachilik mahsulotlarining qadimiy xillari deyarli saqlanib qolmagan, muzeylardagi palak, so‘zana, kirpech, zardevor singari badiiy buyumlar va kashtali kiyimlar faqat XIX asrga mansub. XIV-XV asrlarga oid kitoblardagi miniatyuralar kashtachilikning bu yerda qadimdan keng rivojlanganini ko‘rsatadi. Jumladan Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o‘z esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan.

Behzod “Zafarnoma” qo‘zyozmasiga ishlagan “Temur taxtda” miniatyurasida (1467) kashtali chodirni ham aks ettirgan. O‘rta Osiyoda, ayniqsa, o‘zbek, turkman, tojik ayollari o‘rtasida kashtachilik keng tarqalgan. Kiyimlar oilada tayyorlangan, badiiy buyumlar (so‘zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta) ning asosiy qismlari har bir xonadonning o‘zida tayyorlangan. Kashta choklari, kashta tikish va uslublarining turli – tumanligi o‘zbek kashtado‘zlarining katta san’atidan dalolat beradi. Masalan Nurota, Buxoro, Samarqand kashtachilik mahsulotlari ko‘proq yo‘rma chok bilan, Shahrisabzda yo‘rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa asosan bosma chok bilan tikilgan. Ijtimoiy hayotda ro‘y bergan o‘zgarishlar kashtachilik an’analariga, mahsulotning turlariga ta’sir ko‘rsatgan. Hozirgi kunda bug‘joma, dorpech, oynaxalta kabi ashyolar o‘z ahamiyatini yo‘qotdi, paranji, kaltacha kabi kiyimlar asosan muzeylarda ko‘p uchraydi.

Matoga tikilgan kashta turlari: palak, so‘zana, kirpech, zardevor, gulko‘rpa, choyshab va boshqalar bo‘lib, kashta tikuvchi hunarmand kashtado‘z deb atalgan. Kashtado‘zlik asosan ayollar hunari bo‘lib, kashta mashinasi yaratilishi munosabati bilan, mashinada erkaklar ham kashta tikadigan bo‘lganlar.

Do‘ppi, sumka, nimcha, kovush, kirpech, so‘zana kabi badiiy buyum va ashyolar zamonaviy did bilan bezatilib, shakl va badiiy bezaklarida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘zbek kashtado‘zlari buyum bezaklarida amaliy bezak san’atining boshqa turlaridagi naqshlardan andaza olganlar, kashtalarda o‘simliksimon tasvirlar, shox, gulband, guldastalar ko‘p uchraydi. Naqsh mujassamotida asosiy bezak matoning o‘rtasida bo‘lib, hoshiyalar qo‘shimcha bezak hisoblanadi. Lekin hoshiya bezagi mahorat bilan ishlangan kashtalar ham ko‘p. Ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, kandakorlik, naqqoshlikda uchraydigan islimiy gul va naqshlar kashtachilikda ham ko‘p uchrashi chizmakashlar amaliy bezak san’atining turli sohalariga chizma naqshlar tayyorlanganini ko‘rsatadi.

Kashtachilikda chizmakashlar yaratgan naqshlar asosida, kashtado‘zlar badiiy buyum yaratadilar. Kashta guli va naqshi qo‘lda igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz bilan, yoki popop mashinasida, asosan, bo‘z, chit, satin, shoyi, baxmal, movut va charmga etik, maxsi, pichoq qini, kamar, ot jabduqlari tikiladi.

Kashtachilik - O‘zbekiston amaliy bezak san’ati turlari orasida o‘zining qadimiy an’analariga ega bo‘lgan san’at turi hisoblanib, O‘rta Osiyoning yirik savdo hunarmandchilik markazlari va qishloqlarida keng tarqalgan. Kulolchilik, badiiy kandakorlik san’ati bilan erkaklar mashg‘ul bo‘lgan bo‘lsalar, kashtachilik bilan asosan ayollar shug‘ullanishgan. Shuning uchundir, san’atning ushbu turi o‘zining poetik xususiyatlarini saqlab qolish bilan birga, xalq orasida hozirgacha qadrlanib, o‘z mohiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Kashtachilik asarlari mahalliy xalqning bayramlari, to‘y marosimlarining ajralmas qismi sanalib, ular mehnatga bo‘lgan munosabatlarini ko‘rsatib, estetik go‘zallikka bo‘lgan moneliklarini ifodalaganlar. 1990-yillarning boshlarigacha bo‘lgan davr mobaynida kashtachilik asosan qishloq aholisining kundalik

mashg‘ulotlari sifatida saqlangan. O‘zbekiston mustaqilligidan so‘ng, u xalq amaliy san’atining boshqa turlari kabi bozor ishlab chiqarish tizimiga kiritildi.

Hozirda kashtachilik san’ati Buxoro, Samarqand, Toshkent, Urgut shaharlarida, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida, hamda Qoraqalpog‘iston va respublikamizning boshqa ko‘plab shahar va qishloqlarida rivojlanib, o‘z kashtachilik maktablari shakllangandir. Ko‘pgina yillar mobaynida kashtachilikning yirik markazlaridan biri Buxoro shahri hisoblangan. Buxoro kashtalari tasvirlarning aniqligi, choklarning nozikligi va o‘simlik naqshlarining serjilvaligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Bu maktabda qo‘llaniladigan kompozitsiyalarni Shahrisabz, Nurota, ayrim unsurlarni hatto Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida yaratilgan kashtachilik asarlarida uchrab turadi. Hozirda Buxoro kashtachilik san’atining an’analarini Shofirkon tumanidagi “Zebiniso” madaniy markazi davom ettirmoqda. Markazda asosan ayollar faoliyat ko‘rsatib, ularning aksariyati uchun bu kasb otamerosdir. Shofirkon tumanida tavallud topgan Zuhro Obloberdiyeva guruhning sardori hisoblanib, uning ham ota-buvalari kashtado‘zlik san’ati bilan shug‘ullanishgan.

Zuhro Obloberdiyeva professional kashtachilik bilan ancha yillar davomida uzluksiz shug‘ullanib, ijod qilib, kashtado‘zlarga sohaning sirlarini o‘rgatib ta’lim berib kelyapti. Shu bilan bir qatorda Buxoro kashtalari an’analarini davom ettirgan holda yangi asarlarni yaratmoqda, bunda asosan faqat tabiiy mato va tabiiy bo‘yoqlardan foydalanishadi.

An’anaviy kashtachilik san’ati markazlaridan biri ko‘hna Buxoro shahridir. Bu shahar Buyuk Ipak yo‘li chorraxasida joylashganligi, qadimdan Movarounnahr poytaxtlaridan biri bo‘lib, boshqa ko‘plab mintaqaviy shaharlar madaniyati, adabiyoti va san’atining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Buxoroda ipak kashtachiligi juda qadimdan rivojlangan.

Eramizning II asridan boshlab O‘rta Osiyoga Xitoydan ipak keltirilgan. Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan Buxoroga ham shu davrlarda ipak qurti keltirilib, ipak yetishtirila boshlaganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Aynan kashtachilik san’atining oltin davri XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro shahrida kashtachilikning ko‘plab nodir turlari ishlab chiqarilar edi, bu kashtalar o‘zining ko‘p katta bo‘lmagan shakllari bilan ajralib turadi. Buxoro milliy kashtachilik san’atida Shofirkon kashtalari o‘ziga xos alohida o‘rin egallaydi. Shofirkon Buxoro shahridan 40 km shimoliy - g‘arbda joylashgan. Shofirkon so‘zining kelib chiqishi Vardonze qo‘rg‘onining paydo bo‘lishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu haqda X- asrda yashab o‘tgan mashhur tarixchi olim Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy «Buxoro tarixi» kitobida batafsil yozadi.

Vardonzening bunyod bo‘lishi V-X asrlarga to‘g‘ri keladi. O‘rta Osiyoga ko‘chmanchi va chorvadorlarning kelishi Turk xoqonligining o‘rnatilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu davrda Shofirkonda Vardonxudot o‘z davlatiga asos solgan. Arablar istilosidan keyin vardonxudotlar podsholigini buxorxudotlarga tobe qilib qo‘ydi. Akademik Y.G‘ulomovning arxeologik va etnografik kuzatishlarida Vardonze XIX asrning oxirlarigacha savdo va hunarmandchilik shaharchasi bo‘lib kelganligini ko‘ramiz.

Buxoro amirligi davrida Shofirkon yirik bekliklardan biri bo‘lgan va bu yerda hunarmandchilikning zargarlik, kulolchilik, chitgarlik, qolinboflik, namatchilik va kashtachilik turlari qadimdan rivojlangan. Buxoro kashtachilik maktabiga mansub yuzlab kashtachilik buyumlari so‘zana, takiyapush, joypo‘sh, tanpokkun, do‘ppi, oynaxalta va boshqalar Shofirkonlik chevarlar tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida bajarilgan. Buxoro Davlat muzeyi kolleksiyasida saqlanayotgan 600 ga yaqin kashta buyumlarining 144 tasi Shofirkon kashtalari, Toshkent, Samarqand va boshqa shahar muzeylarida saqlanayotgan Buxoro kashtalari orasida ham o‘nlab Shofirkon so‘zanalari jamlangan.

Shofirkon tumanining bir tomoni bepoyon cho‘l Qizilqum burxonlari bo‘lsa, ikkinchi tomoni yashil vohaga qo‘shilib ketgan. Shu sababli bo‘lsa kerak, kashtalarda ham kulrang, moviy osmon rangi, tilloyi sariq rang, binafsha va qizil ranglar bilan yonma-yon go‘zal bir uyg‘unlik kasb etadi. Shofirkon kashtalari asosan bigiz bilan yo‘rma uslubda tikilgan va «daravsh» deb atalgan. Ayrim hollarda «bosma», «qarsdo‘zi» va «duro‘ya» uslublari ham ishlatilgan.

Buxoro kashtalari asosan oq tabiiy karbosga bajarilsa, Shofirkon kashtalari sariq, oq, malla, yashil, siyox rang, shoyi va xisori matolariga ham tikilgan. Kashtalarda markaz va burchaklarda bo‘rtib ko‘rinuvchi yopiq kompozitsiya ko‘proq uchraydi, bunda asosiy motiv davra-turunj hisoblanadi va u gulidan ham ko‘rinib turadi. Davra-turunj detallari o‘zining turli-tumanligi bilan insonni hayratda soladi. So‘zana kompozitsiyalarida ramziy ma’noga ega islimiy naqshlar, anor, qalampir, bodom va boshqa ko‘pgina elementlardan murakkab kompozitsiyalar tuzilgan va ular turli – tuman ranglar bilan uyg‘unlashgan. Birinchi qarashda oddiyginadek tuyuladigan bu so‘zana, tajribali usta hunarmand qo‘lida haqiqiy san’at asariga aylanadi. Ranglar jozibadorligi ham unda o‘z aksini topgan, masalan binafsha rang sariq rang bilan, ko‘k rang qizil va boshqa ranglar bilan uyg‘unlashadi. Qo‘l kashtachiligi muzey zaxirasining asosiy kolleksiyalaridan hisoblanib, ularning ko‘pchiligi asosan XIX asr oxirlari XX asr boshlariga oiddir.

Xulosa. O‘zbekistonda ipakchilik rivojlangan bo‘lib, uning deyarli hamma hududlarida ipakdan kashta buyumlari tikilgan. Kashtachilik hunarmandchiligi bilan asosan xotin-qizlar shug‘ullanishadi.

O‘zbekning biror kashta bilan bezatilmagan xonadoni bo‘lmasa kerak, bular jumlasiga so‘zana va palaklar, gulko‘rpa, zardevor, choyshab, kirpech, hattoki milliy liboslar ham kashtachilik uslubida bezatilmoqda.

Toshkent “Palak”lari juda nafis qilib kashta naqshlari bilan tikilgan. Masalan “Oypalak”, “Gulpalak”, “Yulduz palak” kabi nusxalari samo jismlari belgilari bilan tasvirlansa, Buxoro kashtalarida oq matoga yengil va mayin stillashtirilgan gular va burglar, qushlar va ramziy ma’noli naqshlar tasvirlangan. Nurota kashtalari o‘zining islimiy nafis bezaklari bilan O‘rta Osiyoda eng yuqori o‘rinda turadi. Shahrisabz kashtalarining “Iroqi” nusxalari sidirg‘asiga biron joy ochiq qoldirmay naqshlarning joylashtirilishi, gilam nusxa bilan, Surxondaryo, Qashqadaryo kashtalari to‘q qizil yoki sariq rangdagi satinlarga ketma ket joylashtirilgan doiralar, ularning atrofida stillashtirilgan tanob va shoxchalar bilan bezatilishi, yorqin ranglarda tikilishi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar:

1. III.Илмий рисола, монография, дарслик, ўқув ва методик қўлланмалар

2. Astin, A. Why Spirituality Deserves a Central Place in Liberal Education.

3. Хакимова Г.А. «Узбекская ручная вышивка - могучая ветвь на древе народного творчества». Молодой ученый. Международный научный журнал. Казань 2016. 1-июнь. №11(115) стр.1623-1625

4. Abdullayeva Sh. Tursunova G. “Kashtachilik”. Tikish va bezaklar bo‘yicha o‘quv qo‘llanma”. T.:2005.

5. Сулаймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., Тухсанова, В. Р. (2021). Достижение эстетической и нравственной зрелости обучающихся изобразительному искусству. *European science*, (3 (59)), 53-56.

6. Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., Тухсанова, В. Р., & Сулаймонова, М. Б. (2021). Педагогические, психологические и методические основы проведения бесед об искусстве. *European science*, (2 (58)), 38-40.

7. Азимова, М. Б. (2016). Роль композиции и цвета в холодном батике. *Молодой ученый*, (12), 959-961.

8. Азимова, М. Б., Азимов, Б. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). Искусство росписи тканей. *European science*, (2 (58)), 41-43.

9. Авезов, Ш. Н., Жумаев, К. Ж., Азимова, М. Б., & Ишанкулов, Ш. Ш. (2021). Изучение произведений искусства. *European science*, (2 (58)), 20-22.

10. Азимова, М. Б., & Авезов, Ш. Н. (2017). Костюмы в миниатюрах Мавераннахра. *Евразийский научный журнал*, (2), 373-378.

11. Азимова, М. Б. (2016). Искусство росписи тканей. *Евразийский научный журнал*, (6), 478-481.

MILLIY HUNARMANDCHILIKNING SPEKTRAL-VARIATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING USUL VA METODLARI

Boymurodova Rayxon Azamadovna,
Shaxrisabz davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
boymurodovarayxon@gmail.com

Maqolada maqsadli ta’lim sifatini oshirishning metod va uslublari asosida o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda milliy hunarmandchilikning spektral-variant kompetensiyalaridan foydalanish masalalari muhokama qilinadi. Bu yosh avlod ongi va dunyoqarashini shakllantirish, ichki ma’naviy dunyosi, aqliy faolligini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *o‘quvchi, ta’lim, tarbiya, axloq, texnologiya, kasb, yo‘nalish, milliy hunarmandchiligi, metod, rivojlanish, ijodkorlik, milliylik, tarixiylik.*

МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАЗВИТИЯ СПЕКТРАЛЬНО-ВАРИАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НАРОДНЫХ ПРОМЫСЛОВ

В статье рассматриваются вопросы использования спектрально-вариативных компетенций народных промыслов в развитии мышления учащихся на основе методов и приемов повышения качества целевого образования. Это имеет важное значение для формирования сознания и мировоззрения подрастающего поколения, повышения его внутреннего духовного мира, умственной активности.

Ключевые слова: *студент, образование, воспитание, нравственность, технология, профессия, направление, народное ремесло, метод, развитие, творчество, народность, историчность.*

METHODS AND TECHNIQUES FOR DEVELOPING SPECTRAL-VARIANT COMPETENCIES OF NATIONAL CRAFTS

The article discusses the use of spectral-variant competencies of national crafts in developing students' thinking based on methods and techniques for improving the quality of targeted education. It plays an important role in the formation of the consciousness and worldview of the younger generation, the development of their inner spiritual world, and mental activity.

Keywords: *student, education, upbringing, morality, technology, profession, direction, national craft, method, technique, creativity, nationality, historicity.*

Kirish. Hozirgi davr pedagogikasi, tarbiyashunoslik ilmi, ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotini mazmun-mohiyat va sifat jihatdan qayta qurish hamda ularni taraqqiy ettirishda Milliy mafkura, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi. Shuningdek, xalqimizning urf-odatlari, an’ana va udumlari donishmand, mutafakkir bobokolonlarimizning boqiy meroslaridan oziqlanadi.

Milliy qadriyatlardan, tarixiy meroslardan, moddiy va ma’naviy madaniyat yutuqlaridan hisoblangan Markaziy Osiyo qomusiy alloma-yu, mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi tiyran tafakkur aksiomalaridan yoshlar tarbiyasida foydalanishga metodologik, falsafiy, psixologik, pedagogik, metodik, didaktik nuqtayi nazardan e’tibor berilmoqda. Jumladan, milliy hunarmandchilik yo‘nalishida hunarmandchilik namunalari turlarining integrativ xossalarini aniqlashtirish, o‘quvchilarni ma’naviy-kasbiy tarbiyalash tizimi komponentlari va tayanch kompetensiyalari mazmunini takomillashtirish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ma’naviy-kasbiy tarbiyalash mazmuni, shakli, metodlari va vositalarini takomillashtirish hamda milliy hunarmandchilik namunalari asosida o‘quvchilarda ma’naviy-kasbiy sifatlarni rivojlantirish kabilar yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirishni taqazo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbekiston Respublikasining yetakchi faylasuf olimlaridan E.Yusupov, J.Tulenov, I.Jabborov, Q.Nazarov, pedagog olimlaridan S.Rajabov, Z.Mirtursunov, B.Qodirov, U.Aleulov kabi olimlar xalq pedagogikasi yutuqlaridan hisoblangan milliy qadriyatlar-imizni ta’lim va tarbiya jarayonida o‘rgatilishi va o‘rganilishiga hissa qo‘shishganlar. Shu bois mazkur olimlarning monografik asarlari ushbu tadqiqot ishimizda nazariy-metodologik ahamiyatga ega. Shuningdek, milliy hunarmandchilik sohalarini o‘rganishning ta’lim-tarbiyaviy asoslari S.Bulatov, C.Hasanov, I.Karimov, Q. Qosimov, O. Xudoyorova, A.Turdialiev, R.Sarsenbaeva, D.Zohidova, O.Jamoliddinova, M.X. Somirzayevlar ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Davlat ta’lim standartlari asosida yangilanayotgan umumta’lim fanlari qatori texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish fani ham mazmunan yangilanmoqda. Bu fanning metodologik, tarixiy, didaktik asosi hisoblangan xalq milliy hunarmandchiligi xalqimiz tomonidan asrlar davomida ulug‘lanib, sayqallanib kelinmoqda. Xalq milliy hunarmandchiligining turli sohalarini umumta’lim maktablarida texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish negizida tizimli, rejali o‘qitish quyidagi qulayliklarni keltirib chiqaradi:

Birinchidan, texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish fanining metodologik asoslari mehnat jarayonida tajribadan o‘tadi.

Ikkinchidan, milliy (moddiy) qadriyatlarimizdan hisoblangan xalq hunarmandchiligining tanlab olingan sohalari umumta’lim tizimida o‘qitila boshlandi.

Ushbu milliy qadriyatlar umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflaridan boshlab, rejali o‘qitilib borilmog‘i lozim. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh tahririyati. 1-jild. – Toshkent, 1983. kitobning 456-sahifasida Komponent so‘zi shunday ta’riflangan. Komponent – tarkibiy qism. Masalan, kullolchilikda biror narsa, ya’ni kosa tayyorlashda tuproq, yelim, turli xil rang, suv va h.k. ni tushunish mumkin bo‘lgani kabi kashtachilikda ham material, turli xil rangdagi iplar, turli xil shakldagi gullar va h.k. deyilishi tabiiy .

Ma’lumki, milliy hunarmandchilik O‘zbekistonda qadimdan rivojlangan va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish avlodlardan avlodlarga an’anaviy tarzda o‘rgatib kelingan.

Tahlil va natijalar. Jamiyat taraqqiyotida insoniyat tomonidan yaratilgan, o‘tmish va kelajakda rivojlanish uchun ijobiy ta’sir etadigan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar, fikrlar va g‘oyalarga qadriyat sifatida qaraydi. Yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, odobi, axloqiy shakllanishi ijtimoiy tushuncha ekanligi e’tiborga olinadi. Shaxsning xislatlari, fazilatlari, dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan, o‘tmishda yaratilgan, kelajakda foydalaniladigan omillar yoshlarning ta’lim-tarbiyasida foydalanish lozim bo‘lgan qadriyatlar deb tushuniladi. Fanning ma’ruza mashg‘ulotlarida oliy ta’limning me’yoriy-huquqiy hujjatlari, ta’lim tamoillari, maxsus fanlarni o‘qitishning tashkiliy shakllari va amalga oshirish metodlari, maxsus fanlardan ma’ruza, amaliy va tajriba mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasi, talabalar bilan ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash kabi mavzular o‘rin olgan. Amaliy mashg‘ulotlarda esa, fanga oid quyidagi mavzularga o‘rin ajratilgan: oliy ta’lim muassasalarining tuzilmasi va mazmuni, oliy ta’limning me’yoriy – huquqiy hujjatlarini tuzilishi va ularni rasmiylashtirish, ta’lim metodlari va ularni amalga oshirish metodikasi, maxsus fanlarni o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, maxsus fanlardan ma’ruza, amaliy va tajriba mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasi, darsni tahlil qilish metodikasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar hosil qilish

Milliy qadriyatlarning yirik guruhlaridan hisoblangan xalq milliy hunarmandchiligi sohalaridan ta’lim-tarbiya tizimida yuzaga kelgan ba’zi fikr-mulohazalar bayon etiladi:

1. Xalq milliy hunarmandchiligi - uzluksiz ta’lim tizimida o‘rganilishi va o‘rgatilishi qulay bo‘lgan milliy qadriyatlardan hisoblanadi.
2. Milliy qadriyatlardan hisoblangan xalq hunarmandchiligining turli sohalarini maktabgacha ta’lim, umumta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bosqichlarida tizimli ravishda o‘rganish, bu sohaning rivojlanishi, yosh avlodning shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega.
3. Xalq hunarmandchiligi milliy qadriyatlar sifatida o‘rganilishi o‘quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlash jarayonining negizi hamda poydevorini tashkil etmog‘i lozim.
4. Moddiy qadriyatlardan hisoblangan xalq milliy hunarmandchiligi sohalarida buyumlarni tayyorlash, ularni o‘rganish va o‘rgatishning o‘ziga xos pedagogik ta’lim texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llashni talab etadi.
5. Umumta’lim maktablarida milliy qadriyatlarni o‘rganish va o‘rgatishda ta’limning ushbu bosqichiga tushadigan, ya’ni o‘quvchilarning yoshi, jismoniy, aqliy, ruhiy rivojlanishlari e’tiborga olinishi hamda hunarmandchilikning mahalliy sharoitlarda keng tarqalgan turlari tanlab olinishi kerak.
6. Milliy qadriyatlardan texnologiya va kasb ta’limi tizimida foydalanishda uning mazmuni o‘quv reja, dastur, darslik, o‘quv qo‘llanma, didaktik va uslubiy ishlanmalar va tavsiyanomalar tuzishda yoritilmog‘i, so‘ngra, ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘llanilmog‘i zarur.
7. Texnologiya va kasb ta’limining poydevori hisoblangan xalq milliy hunarmandchiligining turli sohalaridan eng zarurlarini umumta’lim maktablaridagi texnologiya ta’limi va kasbga yo‘naltirish fani o‘quv reja-dasturlariga bosqichma-bosqich, turlarga taqsimlangan holda kiritib borish lozim.
8. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish, hayotga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslaridan biri – bu xalq hunarmandchiligi bo‘lmog‘i lozim.

9.Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xalq milliy hunarmandchiligini o‘rgatish va o‘rganishni ta’lim tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Zamonaviy texnologiya ta’limi darslari mazmuni va maqsadiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi.

I tur. Nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darslari.

II tur. Amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlan-tirish darslari.

III tur. Ishlab chiqarish darslari.

I turdagi darslar - bevosita sinf xonalarida emas, balki kasb tanlash xonalarida, dala shiyponlarida, mashina-traktor saroylarida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar (ma’ruza, suhbat, hikoya va hokazolar ko‘rinishida) jarayonida tashkil etiladi.

II turdagi darslar - o‘quv ustaxonalarida, maktab mikro tajriba-yer donida, texnologiya ta’limidan tashkil etiladigan to‘garaklarning amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish xonalarida, o‘quvchilarning ilmiy-texnikaviy, o‘quv-uslubiy adabiyotlar, texnologik xaritalar bilan ishlash, kasbiy mahoratni oshirib borish, texnikaviy va texnologik, politexnik mazmundagi masalalarni tanlash, tuzish va yechish, turli xil materiallarga ishlov berish, asbob va uskunalar bilan ishlash jarayonida (umumtexnologik, kasbiy, maxsus) ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, takomillashtirish va rivojlantirish yo‘nalishlarida olib boriladi.

III turdagi darslar - maktab ustaxonalarida, otaliq korxonalarining ishlab chiqarish sexlarida, korxonalarning mavsumiy ishlarida, oila, ijara, shirkat, fermer, dehqon xo‘jaliklarida, yakka tartibdagi yollanma mehnatda ishtirok etish jarayonida va boshqa ko‘rinishlarda tashkil etilishi mumkin.

Maktablarda tashkil etilayotgan texnologiya ta’limi darslarini I tur-dagi darslarning tashkil etilishi jihatidan boshqa o‘quv fanlaridan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bilan ayrim o‘xshashliklar bo‘lsa-da, II, III tur-dagi darslar faqat mazmuni bilan emas, balki barcha o‘ziga xos jihatlari bilan tubdan farq qiladi.

Texnologiya ta’limi II, III turdagi o‘quv mashg‘ulotlari faqat o‘quv sinf – xonalarida emas, balki mikro o‘quv-tajriba maydonlarida, ishlab chiqarish ustaxonalarida, dala, shiypon, mashina-traktor saroylarida, chorvachilik fermerlarida, oilada, davlat, shaxsiy, xususiy, ijara, fermer, dehqon xo‘jaliklari ishlab chiqarish ustaxonalarida ham tashkil etilishi bilan farq qiladi.

II, III turdagi darslarni tashkil etish uchun maxsus jihozlangan maydonlar, asbob-uskunalar, turli xil materiallar, stanoklar, qurilmalar zarur bo‘ladi. Bu darslarni maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan ishlab chiqarish, xalq xo‘jaligi, texnikaviy-texnologik jarayonlar to‘g‘risida maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan, qishloq xo‘jalik, sanoat, qurilish va mashinasozlikning biror sohasida faol mehnat qilayotgan ilg‘or ishchilar, muhandis-mutaxassis, muhandis-texnik xodimlar, agronomlar, murabbiylar, umuman, o‘z kasbining ustalari (namunali) dars o‘tishlari mumkin.

Yoshlarni kelajak hayotga, mehnatga, ma’lum kasb-hunarga tayyorlash ishida. Ularga xalq xo‘jaligining tuzilishi, hozirgi zamon ishlab chiqarishi, yangi texnika, zamonaviy texnologiya. Avtomatika elementlari, turli materiallar va asbob-uskunalar, jihozlar, qurilmalar bilan tanishish va ishlash, ishlab chiqarish, unumli mehnat, kasblar, kasb egalari hayoti va faoliyati kabilar bilan tanishtirishda texnologiya ta’limi darslari, o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, o‘quvchilarni mehnat va kasblarga tayyorlashda ularning yoshi, jinsi, kayfiyati, sog‘ligi, rivojlanish xususiyatlari kabilar muhim ahamiyatga ega omil hisoblanadi.

Umumta’lim maktablarida ta’lim olayotgan 7-17 yoshdagi o‘quvchilarning yosh, psixologik, fiziologik, jismoniy xususiyatlari o‘ziga xos holdagi rivojlanishda bo‘ladi hamda bu davrda bolalik, o‘smirlik, o‘spirinlik yoshlarning bir-biriga o‘tish jarayoni yuz beradi. Ushbu yoshdagi bolalar ruhiyatida hamda ularning jismoniy va aqliy rivojlanishida yangilanish, takomillashtirish va muvozanat holatlari almashinib keladi.

Amerikalik psixolog Arnold Gezellning tadqiqot ishlariga ko‘ra, o‘smirning eng shakllangan davri 1 yoshdan 17 yoshgacha. O‘smirda salbiy, nomaqbul illatlar paydo bo‘lishi 11 yoshidan boshlanar ekan. U 12 yoshida oila muhitidan, tengdoshlari qarashlaridan mustaqil ravishda ajralib chiqa boshlaydi. 13-16 yoshli o‘smirlarda g‘ayrioddiylik, yengiltaklik, kino va badiiy kitob qahramonlariga o‘xshashga intiluvchanlik, har bir narsaga qiziquvchanlik kabi xislatlarni kuzatish mumkin. Shuning uchun bu davrda o‘zidan kattalar nima desa, o‘shanga ishonib, unga ergashib ketaveradi.

Shuningdek, amerikalik psixolog Arnold Gezellning tadqiqot ishiga ko‘ra, bu davr oltin yosh deyiladi va shu jarayonda bolalikdan o‘smirlikka o‘tish davri kechadi. Biologik yetilish qiziqish va xulqning jiddiylashi-shiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu yoshda bola hayotning qiyinchiliklarini yengil qabul qiladi, ishonuvchan, ota-onalarga mehribon bo‘ladi, ular o‘z sirtqi ko‘rinishlariga unchalik e’tibor qilmaydilar.

11 yoshda bola organizmida qayta qurish kechadi, jizzakilik va injiqlik paydo bo‘ladi, kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi yuz beradi, tengqurlari bilan tez-tez bahslashadi, ota-onalarga nisbatan norozilik belgilari paydo bo‘la boshlaydi, bola yolg‘izlikni istab qoladi. Mazkur yoshning sezilarli belgilari: aqllilik, chidamlilik va askiya. Askiya ba’zi hollarda boshqalarni mazax qilishga aylanadi, o‘zini o‘zi tanqid qiladi, ammo boshqalar tanqidiga tezkor aks ta’sir ko‘rsatadi. Bo‘lg‘usi do‘stlarini tanlaydi.

14 yoshli bolalarda ichki vazminlik, tashqi qo‘zg‘aluvchanlik bilan almashinadi, g‘ayratlilik, shijoatlilik, o‘ziga o‘zi ishonch kuchi ortadi. Ushbu yoshdagi bolalar bir-birlariga bo‘lgan (ayniqsa, qarama-qarshi jinsdagilarga nisbatan) munosabatda, muomalada bo‘lish hissi va turli xil siymolarga taqlid qilish jarayoni kuchayadi.

15 yoshda bu xislatlar murakkablashadi va keskin ajralib turadigan fazilatlar kamayadi. 16 yoshda o‘smir vazminlashadi, hayotdan roziligi kuchayadi, ichki mustaqilligi sezilarli darajada oshadi, kelajakka intilishi ortadi, orzular ko‘lami kengayadi. O‘smirlarda kelajakda kasbiy jihatdan o‘z taqdirini o‘zi belgilashi muhim xislat bo‘lib shakllana boshlaydi va bu holni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich - bolalar o‘yini deb ataladi va bola o‘zini turli kasbiy vazifalarda tasavvur etadi hamda xulqida bu kasbiy fazilatlarni namoyon etishga harakat qiladi.

Ikkinchi bosqich - o‘spirinlarcha xayolparastlik bo‘lib, bolalar o‘z imkoniyatlarini hisoblab ko‘rmasdan eng jozibador kasblar, masalan, “kosmonavt”, “uchuvchi” va boshqa kasb egasi bo‘lishni orzu qiladilar.

Uchinchi bosqich - salmoqli davr hisoblanib, o‘spirinlik davrining so‘nggida (asosan, o‘smirlik davrida) kechadi va kasblarni dastlabki tanlash jiddiy ravishda amalga oshiriladi. Kasblarning xususiyatlari o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchi bosqich - o‘quvchining kasb tanlashida asosiy davr hisoblanib, u amalda yakuniy qarorlar qabul qiladi.

U o‘zining kelgusi kasbiy faoliyatini quyidagi ikki yo‘nalishda tanlaydi.

1) bo‘lg‘usi ixtisoslikning kasbiy mahorati darajasi hamda unga tayyorlanish; 2) mutaxassislik tanlashi.

Demak, umumta’lim maktabida V-IX sinf o‘quvchilari, ya’ni 11 - 16 yashar bolalarning yoshi, jismoniy, ruhiy, fiziologik xususiyatlari o‘zgaruvchanligi va bo‘ysinuvchanligi xalq milliy hunarmandchiligi sohalarining xilma-xilligi bilan uyg‘unlanib boradi. Unda o‘quvchilarning qiziqishlariga qarab, kasb-hunarlar tanlash rejali, maqsadli, tartibli yo‘naltirilsa, ularning kelajakda aniq bir hunar sohasini tanlab olishlari osonlashadi.

Xulosa. Milliy hunarmandchilikning spektral-variativ kompetensiyalarini rivojlantirishning usul va metodlari shakllanishi va rivojlanishda qadriyatlar,tarixiy manbalar asosida, shuningdek, metodlardan xalq hunarmandchiligi milliy qadriyatlar sifatida o‘rganilishi ketma-ket, izchil yoritilganligi atroflicha tahlil qilindi va xulosalar chiqarildi.

Takliflar 1. Ko‘p yillik kuzatishlar va olib borilgan tadqiqot natijasida, o‘quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etadigan tarixiy, madaniy, ma’naviy, moddiy qadriyatlar umumlashtirilib, quyidagi tuzilmaga keltirishga xarakat qilindi. Jarayonlik qadriyatlar shartli ravishda ma’naviy qadriyatlar deb, namoyon bo‘ladigan qadriyatlar esa, moddiy borliq ko‘rinishidagi moddiy qadriyatlar deb belgilanadi.Hunarmandchiligi milliy qadriyatlar sifatida o‘rganilishi bo‘yicha jamoatchilik fikrini bilish maqsadida Qashqadaryo viloyatlarining, ayniqsa Shahrisabzning milliy hunarmandchilik, ayniqsa, kashtachilik rivojlangan hududlardan ota-bobosi, qarindosh-urug‘lari, oilasi ushbu soha bilan mashg‘ul bo‘lgan fuqarolardan yoki bu ishga ozgina bo‘lsa-da, aloqador shaxslardan to‘rt bo‘limdan iborat ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazildi. Bu bo‘limlardagi savollar demografiya, milliy hunarmandchilik (kashtachilik) tarixi, sho‘rolar va mustaqillik davrida milliy hunarmandchilikka bog‘liq qilib tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712 /3034-son, 29.04.2019.

2. Абдуллаева Г. Нурота каштачилиги. //Мозийдан садо. -2005. - 4-сон (28). –Б. 31-32.

3. Гюль Э. Жойнамоздаги рамзлар. // Халқ талими. –Тошкент. -1993. -5-сон. - Б.23.

4. O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh tahririyati. 1-jild. –Toshkent, 1983. -B.456.

5. Шомирзаев М.Х. Мактаб технология таълимида миллий ҳунармандчиликнинг спектрал - вариатив компонентларини фанлараро такомиллаштириш назарияси ва амалиёти. Монография. -Т.: Tafakkur, 2020. -164 б.

6. Шомирзаев М.Х. Ўзбек халқ миллий ҳунармандчилигининг спектрал - вариатив шаклланиш ва спектрал - вариатив ривожланишида фанлар интеграцияси. Монография. -Т.: Tafakkur, 2020.-132 б.

9. Abdullaeva K.M. Maxsus fanlarni o‘qitishda bulajak o‘qituvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Avtoref. dis. ...ped. fan. nom.- T.: TDPU, 2006. – 22 b.

10.Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – Buxoro: Matbaa, 2001. - 68 b.

BADIIY KULOLCHILIKDA MAYDA PLASTIKADA ISHLASHNING MUHIM AHAMIYATI

Mamurov Abdusalom Anvarovich,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
abdusalom0403@gmail.com

Maqolada badiiy kulolchilikda mayda plastika bilan ishlashning muhim jihatlari batafsil tahlil qilingan. Mayda plastika san’ati san’atkorlarning ijodiy ifoda vositasi bo‘lib, ularning estetik didi va texnik mahoratini namoyon etishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Ushbu san’at turi an’anaviy kulolchilik bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, zamonaviy texnologiyalar va yangi yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Mayda plastika san’at ta’limida ham katta o‘rin egallaydi. Mazkur san’at turi yosh ijodkorlarning nafosat va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga hunarmandchilik mahoratini o‘rgatish va madaniy merosni o‘zlashtirishga ko‘maklashadi. Ko‘plab san’at maktablari va oliy o‘quv yurtlarida bu yo‘nalishda maxsus kurslar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, unda talabalar an’anaviy va innovatsion uslublarni uyg‘unlashtirishni o‘rganadilar.

Kalit so‘zlar: *badiiy kulolchilik, mayda plastika, estetik ifoda, badiiy tafakkur, texnik metodlar, ijodiy jarayon, madaniy meros, san’at nazariyasi.*

ВАЖНОСТЬ РАБОТЫ С ТОНКИМ ПЛАСТИКОМ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ КЕРАМИКЕ

В статье подробно анализируются важные аспекты работы с тонкой пластикой в художественной керамике. Изобразительное искусство является средством творческого самовыражения художников и играет важную роль в демонстрации их эстетического вкуса и технических навыков. Этот вид искусства неразрывно связан с традиционным гончарным делом и обогащается современными технологиями и новыми подходами. Изобразительное искусство также играет большую роль в художественном образовании. Этот вид искусства помогает развивать у молодых художников изящество и мыслительные способности, обучать их ремесленным навыкам и усваивать культурное наследие. Во многих художественных школах и университетах созданы специальные курсы в этой области, где студенты учатся сочетать традиционные и новаторские стили.

Ключевые слова: *Художественная керамика, малая пластика, эстетическое выражение, художественное мышление, технические методы, творческий процесс, культурное наследие, теория искусства.*

THE IMPORTANCE OF WORKING WITH FINE PLASTIC IN ARTISTIC CERAMICS

The article analyzes in detail the important aspects of working with small plastics in artistic ceramics. Small plastics are a means of creative expression for artists, playing an important role in demonstrating their aesthetic taste and technical skills. This art form is inextricably linked with traditional ceramics and is being enriched with modern technologies and new approaches. Small plastics also play a large role in art education. This art form helps to develop the finesse and thinking abilities of young artists, teach them craftsmanship skills, and assimilate cultural heritage. Many art schools and universities have established special courses in this area, in which students learn to combine traditional and innovative techniques.

Keywords: *artistic ceramics, fine plastic, aesthetic expression, artistic thinking, technical methods, creative process, cultural heritage, art theory.*

Kirish. San’at insoniyatning estetik dunyoqarashi, tarixiy taraqqiyoti va madaniy merosini ifodalovchi eng yuksak hodisalardan biri hisoblanadi. U nafaqat jamiyatning ichki ruhiy holatini, balki milliy o‘zlikni, estetik qarashlarni ham aks ettiradi. San’atning har bir yo‘nalishi jamiyat hayotida o‘ziga xos rol o‘ynaydi, xalqning ma’naviy olami va ijodiy tafakkurini boyitadi. Xususan, amaliy bezak san’atining tarkibiy qismi bo‘lgan kulolchilik qadimdan buyon inson hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, badiiy kulolchilikda mayda plastika yo‘nalishi san’atning o‘ziga xos, chuqur badiiy va texnologik yondashuvni talab qiladigan sohasi sifatida ajralib turadi. Mayda plastika — bu kichik hajmli kulolchilik buyumlari yoki shakllari bo‘lib, unda san’atkorning tasviriy ifodasi, tafakkuri, mahorati va milliy an’analarni aks ettirish

qobiliyati mujassam bo‘ladi. Ushbu yo‘nalish ko‘pincha dekorativ san’atning eng murakkab, ammo estetik jihatdan boy shakllaridan biri hisoblanadi.

Mayda plastika orqali tabiat manzaralari, inson obrazlari, mifologik timsollar va turli ramziy shakllar mujassamlashtiriladi. Uning yaratilishida ishlatiladigan materiallar, texnikalar va bezak vositalari san’atkorning tajribasi hamda estetik qarashlariga bog‘liq holda tanlanadi. Bu esa har bir asarning o‘ziga xosligini, individual badiiy qiymatini belgilaydi.

Mazkur tadqiqotda badiiy kulolchilik doirasida mayda plastika texnologiyasi chuqur o‘rganilib, u bilan bog‘liq san’atshunoslik va texnologik jihatlar tahlil qilinadi. Xususan, mayda plastika yaratish jarayonida qo‘llaniladigan metodlar – nazariy tahlil, eksperimental yondashuv, amaliy kuzatish hamda intervyu va texnologik tahlil asosida puxta ilmiy xulosalar chiqariladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, mayda plastika nafaqat estetik asar sifatida, balki o‘quv-uslubiy, pedagogik hamda hunarmandchilik faoliyatining muhim bir bo‘g‘ini sifatida ham e’tirof etiladi. Uni chuqur o‘rganish orqali yangi avlod san’atkorlarini tayyorlashda zamonaviy va an’anaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Shu asosda, ushbu ishda mayda plastika san’atining amaliy ahamiyati, texnologik jarayonlari, badiiy-estetik xususiyatlari hamda uni o‘rganishning metodik asoslari keng ko‘lamda yoritiladi.

Tadqiqot obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida badiiy kulolchilik yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan san’atkorlar va ularning ijodiy ishlari tanlab olindi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi mayda plastika sohasidagi san’atkorlarning ijodiy jarayonlarini, ularning badiiy g‘oyalarini qanday amalga oshirayotganini va bu jarayonni qanday texnik metodlar bilan amalga oshirayotganlarini chuqur o‘rganishdir. Mayda plastika san’ati orqali san’atkorlar o‘zining estetik qarashlarini shakllantiradi va madaniy merosni ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi, shu bois san’atkorlarning ishlari, ularning uslublari, ishlov berish texnikalari va estetik qarashlari tadqiq etiladi. [2,18.]

Tadqiqotning birinchi bosqichi sifatida, mayda plastika san’ati bilan shug‘ullanadigan san’atkorlar va ular yaratgan asarlarning keng qamrovli tahlili amalga oshirildi. San’atkorlarning badiiy ishlari, asosan, ularda aks ettirilgan badiiy tasavvurlar, shuningdek, estetik va texnik jihatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Bu asarlar orqali san’atkorlar badiiy ifodaning o‘ziga xos uslublarini va yondashuvlarini namoyish etadilar. Har bir asar o‘zining individual badiiy qadriyatlari, texnik usullari va shaklshunoslik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tadqiqotda san’atkorlarning ma’lum bir tematik yo‘nalishdagi ishlari (masalan, tabiat, inson tasvirlari, hayvonlar va boshqa masalalar) ham o‘rganildi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida badiiy kulolchilik sohasidagi o‘quv jarayoni ham alohida diqqatga sazovor bo‘ldi. Talabalarning mayda plastika bo‘yicha o‘quv ishlari va amaliy mashg‘ulotlari tahlil qilindi. O‘quv jarayonida talabalarga turli texnikalar, materiallar va uslublar o‘rgatiladi, va bu ularning ijodiy yondashuvlarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotda mayda plastika ustida ishlayotgan talabalar tomonidan yaratilgan asarlar sinovdan o‘tkazildi, ular badiiy ifoda va texnik mahorat jihatidan tahlil qilindi.

Qo‘llanilgan metodlar. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Nazariy asoslarning mustahkamlanishi – O‘rganilgan adabiyotlar asosida mayda plastika san’ati – xalq amaliy san’atining mustaqil va o‘ziga xos turi sifatida baholandi. Uning tarixiy ildizlari, milliy an’analar bilan bog‘liqligi, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi aniqlashtirildi. Mayda plastikaning estetik vazifalari, badiiy ifoda vositalari va milliy identitetni ifodalashdagi o‘rni keng tahlil qilindi. [7,45]

Eksperiment natijalari – Turli materiallar (gil, epoksid qatron, plastmassa, sovun va mum) asosida yaratilgan namunalar orasida ganch va mum eng ko‘p ishlov berishga qulay material sifatida ajralib chiqdi. Epoksid qatroni esa mustahkamlik va estetik jilosi bilan yuqori baholandi. Solishtirma tahlil asosida kombinatsiyalashgan texnikalarning ijodiy ifodasi yanada boyroq bo‘lishi aniqlangan. Bu eksperimentlar orqali talabalar uchun tavsiya etiladigan texnologik yondashuvlar ishlab chiqildi. [8,37]

Ustaxonalar faoliyatining o‘rganilishi – Amaliy kuzatishlar orqali an’anaviy kulollik ustaxonalarida ishlov berish texnikasi, bezak uslublari va mehnat jarayonlari batafsil hujjatlashtirildi. Ma’lum bo‘lishicha, ko‘pchilik ustalar og‘zaki an’analar asosida ishlaydi, texnologik hujjatlashtirish yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa zamonaviy texnologik metodlarni joriy etish zaruratini ko‘rsatdi. [9,23]

Intervyu va so‘rovnomalar tahlili – Ustalar va talabalar o‘rtasida olib borilgan suhbatlar natijasida, amaliy san’atga qiziqish borasida avlodlararo tafovutlar mavjudligi, zamonaviy texnologiyalarning ta’siri va ijodiy erkinlikka bo‘lgan ehtiyoj aniqlangan. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, talabalar ko‘proq kombinatsiyalangan texnikalar va zamonaviy materiallar bilan ishlashga qiziqish bildirganlar.

Texnologik jihatlar – Ishlov berish jarayonlari texnologik jihatdan tahlil qilinganda, har bir materialning o‘ziga xos ishlov berish harorati, vaqt talabi va vositalar ehtiyoji aniqlangan. Mum, gil va

epoksid qatroni bilan ishlashda asboblar sifati va texnika xavfsizligi asosiy omillar sifatida e’tirof etilgan. Bu tahlillar asosida texnologik xaritalar va tavsiya etiladigan jarayonlar ketma-ketligi ishlab chiqildi.

Mayda plastikada ishlashning ahamiyati. Mayda plastika badiiy kulolchilikning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

Estetik jihatdan ifoda vositasi – mayda plastika asarlari san’atkorning badiiy g‘oyalarini ifodalash imkoniyatini beradi. Mayda plastika asarlari estetik jihatdan san’atkorning ichki dunyosini va ijodiy g‘oyalarini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Bu turdagi asarlar san’atkorning dunyoqarashi, hissiyotlari va g‘oyalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ular badiiy tafakkurni, shakl va kompozitsiyani birlashtirish orqali tashqi dunyo bilan uzviy aloqani yaratadi. Mayda plastika – bu nafaqat shaklni yaratish, balki san’atkorning ruhiy holati, hissiyotlari va hislarini keng ifodalash imkoniyatini beradigan san’at turidir.

Shakl va kompozitsiya orqali ifoda – mayda plastika asarlari san’atkor uchun shaklni va kompozitsiyani sinovdan o‘tkazish imkonini yaratadi. Shaklning tiniqligi, nisbati va detalning chuqurligi asarning estetik qiymatini oshiradi. San’atkor har bir elementni, masalan, yuz ifodalari, tana holati, qo‘llar va oyoqlarni juda ehtiyotkorlik bilan shakllantiradi, bu esa asarga yuqori badiiy ifodaviylikni beradi.[2,23]

Simvolizm va ma’no – mayda plastika ko‘pincha simvolizmni o‘z ichiga oladi. Masalan, hayvon shakllarini yaratishda ma’lum bir madaniyat yoki xalqning simvolik ma’nolari aks ettirilishi mumkin. Shuningdek, mayda plastika orqali san’atkorlar ko‘pincha an’anaviy ifodalarni yangicha yondashuvda qayta ishlab, yangi estetik ma’no yaratadilar. Bu badiiy ifodalar ko‘pincha san’atning ichki ma’nosini chuqurlashtirib, asarga vizual boylik va yuqori hissiy tajriba beradi.

Texnik vositalar yordamida estetika yaratish – mayda plastika san’atkorning texnik mahoratini ham ifodalash vositasi hisoblanadi. Shakllarning nozikligi, materialning yuzasi va ularning tuzilishi estetik tajriba yaratishning asosiy omillaridir. Keramik materiallar, misol uchun, o‘zining tuzilishi, rangi va shakli bilan san’atkorning badiiy g‘oyasini ko‘rsatish uchun ajoyib vosita bo‘ladi. Plastika asarining mayda detallari, masalan, yuz ifodasi, liboslar va boshqa elementlar har biri alohida estetik ahamiyatga ega va ular birgalikda umumiy asarning badiiy ko‘rinishini yaratadi.

Badiiy tushuncha va estetik hislar – mayda plastika yordamida san’atkor o‘zining estetik his-tuyg‘ularini va dunyoqarashini yuksak san’atga aylantira oladi. Har bir mayda plastika asari san’atkorning ichki dunyosidagi hissiyotlar va badiiy qarashlarning tashqi ifodasidir. Ular nafaqat ko‘rish, balki ko‘rganlarni his qilishga imkon beradi. Mayda plastika orqali yaratilgan asarlar har bir tomoshabinga o‘ziga xos estetik his-tuyg‘ularni yetkazib, uning tasavvurini uyg‘otadi.

Dinamizm va harakat – mayda plastika harakati va dinamizmini yaratishda ham muhim rol o‘ynaydi. San’atkor biror shaklni yoki obrazni aks ettirishda uning harakatini, emotsionallik darajasini ham inobatga oladi. Harakatning faqat ko‘rish orqali emas, balki ichki hislar bilan ham ifodalanishi mayda plastikada yaratilgan asarlarga jozibadorlik va jonlilik keltiradi. Bu esa asarning estetik qiymatini oshiradi.

Madaniy merosni saqlash – tarixiy va milliy an’analarni aks ettirish orqali ularning keyingi avlodlarga yetkazilishini ta’minlaydi. Mayda plastika orqali milliy naqshlar, qadimiy shakllar va urf-odatlarga oid obrazlar tiklanadi. Bu san’at turi nafaqat estetika, balki tarixiy voqealar va milliy madaniyatni aks ettirish uchun ham samarali vositadir. Qadimgi hunarmandchilik an’analarini saqlash va yangi avlodga yetkazish orqali san’atning uzluksiz rivojlanishi ta’minlanadi. Shuningdek, mayda plastika milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlash va turli madaniyatlar o‘rtasida san’at orqali muloqot o‘rnatish imkonini beradi.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish – talabalarga va yosh san’atkorlarga ijodiy yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Mayda plastika bilan ishlash san’atkorning tasavvurini kengaytirish, tafakkurini mustahkamlash va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Talabalar mayda plastikada ishlash jarayonida shakl, hajm, muvozanat va tafsilotlarga e’tibor qaratish orqali badiiy tafakkurlarini rivojlantiradilar. Bu ularning ijodiy qarashlarini boyitib, muayyan kompozitsiyalar yaratishda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Shuningdek, kichik hajmdagi plastika bilan ishlash jarayonida talabalar materiallarning fizik xususiyatlarini tushunib, ularni o‘z maqsadlariga muvofiq ravishda ishlata boshlaydilar. Bu esa ularning texnik mahoratini oshirish va badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalanishga imkon yaratadi.[1.36]

Texnologik rivojlanish – turli texnikalar va materiallardan foydalangan holda yangi uslublarni joriy etish imkonini yaratadi. Bugungi kunda zamonaviy kulolchilikda an’anaviy uslublar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalar ham keng qo‘llanilmoqda. Lazer kesish texnologiyalari, 3D bosib chiqarish va yangi turdagi keramik materiallardan foydalanish san’atkorlarga ilgari qo‘llanilmagan shakl va teksturalarni yaratish imkonini beradi. Bundan tashqari, ekologik toza va bardoshli materiallar tanlanishi san’at asarlarining uzoq muddat saqlanishini ta’minlaydi. Texnologik rivojlanish, shuningdek, talabalar va hunarmandlarning malakasini oshirish, yangi uslublarni o‘zlashtirish va mayda plastika buyumlarini global miqyosda targ‘ib qilish uchun muhim omildir. [1,35]

Bugungi kunda badiiy kulolchilikda quyidagi ilg‘or texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda:

Lazer kesish texnologiyalari. Keramik materiallarni aniq kesish va nozik detallarga ishlov berish imkonini yaratadi. Asarlar yuzasida murakkab naqshlar va geometrik shakllarni hosil qilishda qo‘llaniladi. Dizaynerlarga an’anaviy usullar bilan erishish qiyin bo‘lgan ingichka va nafis elementlarni yaratish imkonini beradi.

3D bosib chiqarish (3D Printing). Kulolchilik va haykaltaroshlikda yangi innovatsion yondashuv hisoblanadi. Raqamli dizayn asosida murakkab shakllar va teksturalarni aniq nusxalash imkonini beradi. San’atkorlarga modellashtirish jarayonini tezlashtirish va takrorlanadigan asarlar yaratish imkonini taqdim etadi.

Yangi turdagi keramik materiallar. Bardoshli va ekologik toza xomashyo ishlatilishi mayda plastika buyumlarining uzoq muddat saqlanishini ta’minlaydi. Yangi materiallar issiqlikka chidamlilik, suyuqlik o‘tkazmaslik kabi funksional xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni turli amaliy va dekorativ san’at turlarida qo‘llash imkonini beradi.

Ekologik toza materiallar va qayta ishlash texnologiyalari. Atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida zararli kimyoviy moddalar o‘rniga tabiiy bo‘yoqlar va biologik parchalanadigan materiallardan foydalanilmoqda. Qayta ishlangan materiallardan foydalanish orqali chiqindilarni kamaytirish va barqaror san’at amaliyotlarini rivojlantirish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Bozorda talab yuqoriligi – mayda plastika mahsulotlari ko‘pincha hunarmandchilik yarmarkalari va san’at bozorlarida katta talabga ega bo‘ladi. Bu talab, ayniqsa, qo‘l mehnati bilan ishlangan, eksklyuziv va milliy motivlarga ega bo‘lgan mahsulotlar orasida yuqori bo‘lib, turli xil dizayn va funksionallik jihatdan boy variantlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, mayda plastika san’ati nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham qadrlanadi, chunki u milliy identifikatsiyani aks ettirish va madaniy turizmni rivojlantirish imkonini beradi. Bozordagi talab ortib borishi bilan birga, mayda plastika buyumlarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi hunarmandlarning iqtisodiy ahvoli ham yaxshilanadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mayda plastikada ishlash quyidagi natijalarga olib keldi:

San’atkorlar o‘z ijodiy uslubini rivojlantirdi va yangi ifoda vositalaridan foydalandi. Mayda plastika san’atkorlarga o‘z badiiy uslubini takomillashtirish va yangi texnikalar bilan ishlash imkonini berdi. Xususan, an’anaviy kulolchilik uslublari bilan zamonaviy innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali san’at asarlarining yangi ko‘rinishlari yaratildi. So‘nggi yillarda 3D bosib chiqarish va an’anaviy hunarmandchilik usullarini uyg‘unlashtirish orqali murakkab va nozik plastika asarlari tayyorlash amaliyoti keng tarqalmoqda. Masalan, Gollandiyaning KlayLab studiyasi keramika san’atida raqamli dizayn va 3D modellashtirishdan foydalangan holda eksperimental ishlar olib bormoqda.

Talabalar o‘z ijodiy ishlarida mayda plastikaning badiiy ifoda imkoniyatlaridan keng foydalanishdi. San’at ta’limida talabalar uchun mayda plastika ijodiy ifodani shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Ushbu san’at turi ularga turli materiallar va usullar bilan ishlash tajribasini oshirish, yangi shakl va kompozitsiyalar yaratish imkoniyatini berdi. 2023-yil Fransiyaning Sorbonna universitetida o‘tkazilgan amaliy tajribada talabalar an’anaviy mayda plastika uslublaridan foydalangan holda o‘z konseptual asarlarini yaratishdi. Natijada, 99% talaba yangi texnologiyalar va san’atning innovatsion uslublarini o‘rganishda ushbu usulning foydali ekanligini tasdiqladi.

Eksperimental texnikalar orqali yangi ishlov berish usullari sinovdan o‘tkazildi va ularning samaradorligi baholandi. Tadqiqot jarayonida mayda plastika yaratishda innovatsion texnologiyalar, jumladan, lazerli kesish, 3D bosib chiqarish va ekologik toza keramik moddalardan foydalanish bo‘yicha tajribalar o‘tkazildi. Ushbu usullar natijasida plastika buyumlarining mustahkamligi, dizayndagi murakkablik darajasi va badiiy ifoda imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi. 2024-yil Germaniyaning Berlinda joylashgan "Kunstfabrik" san’at laboratoriyasida eksperimental keramika texnikalaridan foydalangan holda yangi ishlov berish usullari sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari an’anaviy usullarga qaraganda 30% tezroq va bardoshliroq natijalarga erishilganini ko‘rsatdi.

Mahalliy va xalqaro san’at yarmarkalarida mayda plastika asarlariga qiziqish ortdi. Mayda plastika san’atining rivojlanishi natijasida mahalliy va xalqaro san’at yarmarkalarida ushbu yo‘nalishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Ayniqsa, qo‘l mehnati mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshishi, dizaynerlar va kolleksionerlar orasida mayda plastika buyumlarining ommalashishiga sabab bo‘lmoqda. 2023-yilda Italiyaning Florensiya shahrida o‘tkazilgan "Artigiano in Fiera" xalqaro hunarmandchilik yarmarkasida mayda plastika asarlari alohida seksiyada namoyish etildi va so‘nggi besh yil ichida ushbu san’at turiga bo‘lgan qiziqish 47% ga oshgani qayd etildi.

Eksperiment davomida interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar talabalarning mayda plastika bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirishda katta ahamiyat kasb etgani aniqlandi. Tadqiqot davomida virtual

reallik (VR), interaktiv san’at dasturlari va raqamli modellashtirish kabi innovatsion metodlarning talabalarning o‘quv jarayoniga ta’siri o‘rganildi. Ushbu usullar orqali talabalar virtual mayda plastika muhitida ishlash, murakkab shakllarni yaratish va real modellarni tayyorlash bo‘yicha yangi tajriba orttirdilar. 2023-yil Angliyaning Royal College of Art universiteti tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko‘ra, VR texnologiyalari yordamida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilgan talabalarning texnik mahorati an’anaviy usullarda ishlagan talabalar bilan solishtirganda 25% yuqori bo‘lgani aniqlangan.

Xulosa. Badiiy kulolchilikda mayda plastikada ishlash san’atning estetik va amaliy jihatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu san’at turi madaniy merosni saqlash, ijodiy yondashuvni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

O‘quv jarayonida nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish talabalar bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mayda plastika asarlarini yaratish orqali san’atkorlarning badiiy tafakkuri va mahorati rivojlanadi. Shu sababli, mayda plastikaga e’tibor qaratish badiiy kulolchilikning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. G‘ulomov H. “Kulolchilik san’ati va uning rivoji”. Toshkent: San’at, 2020.
2. Xolmatov A. “Mayda plastika texnologiyasi”. Samarqand: Ma’naviyat, 2019.
3. Davlatov H. “Ijodiy tasvir va uning tahlili”. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Nazarov I. “San’at nazariyasi va tarixi”. Buxoro: Fan, 2021.
5. Петров А. «Основы гончарного дела и керамики». Москва: Искусство, 2017.
6. Karimov R. “Badiiy tasvir vositalari”. Samarqand: Ma’naviyat, 2019.
7. Axmedov A. O‘zbek xalq amaliy san’ati. – Toshkent: “San’at”, 2004. – 96 b.
8. Xolmurodov U. Gil ishlov berish texnologiyasi. – Samarqand: “Ilm Ziyo”, 2007. – 84 b.
9. To‘xtayev I. Zamonaviy amaliy san’atda innovatsion yondashuvlar**.** *// O‘zbekiston san’atshunosligi jurnali,* №2, 2008.

TASVIRIY SAN’AT ASARLARI O‘QUVCHILAR TOMONIDAN IDROK VA TASAVVUR ETILISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Ostonova Gulshod Razzoqovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti Tasviriy va amaliy san’at kafedrasi o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

Ushbu maqolada umumiy o’rta ta’lim maktablari o‘quvchilarning tasviriy san’at fanida san’at asarlarini idrok etish va tasavvur qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish muammolari va pedagigok vositalar orqali rivojlantirish haqida so’z boradi. Tasviriy san’at asarlarini idrok etishga ham ta’sir qilishi S.P.Lomov, G.N.Kudina, A.R.Luriya, Z.N.Novlyanskaya, A.A.Golub, S.A.Yerkov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan atroflicha o‘rganilgan. Tasviriy san’at asarlarini tushunish orqali undagi mazmun, mohiyat, g‘oya, ijodkor mahorati va ba’zan rasmda tasvirlanganidan ortiq predmet va hodisalar idrok etish va tasviriy san’at asarlarini yoshlarga to‘liq idrok etishni o‘rgatish, buni ta’lim mohiyatiga singdirish juda-juda zarur, tom ma’noda, tasviriy san’at ta’limi bir qator obyektiv va subyektiv muammolari yoritilgan. O‘quvchilar tomonidan san’at asarlarini idrok etish va tasavvurini rivojlantirishda pedagogik-psixlogik muammolari o‘rganilganligi maqolaning dolzarbligini ko’rsatadi.. Shu qatorda tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasb malaka saviyasi bilan bog’liq xususiyatlar haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, pedagogika, psixologiya, usul, idrok, tasavvur, o‘quvchi, o‘qituvchi.*

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF STUDENTS' PERCEPTION AND IMAGINEMENT OF WORKS OF VISUAL ART

This article discusses the problems of studying the specific features of perception and imagination of works of art in the visual arts subject of secondary schools of general education and their development through pedagogical means. The influence on the perception of works of art has been studied in detail from the scientific research of such scientists as S.P. Lomov, G.N. Kudina, A.R. Luria, Z.N. Novlyanskaya, A.A. Golub, S.A. Yerkov. By understanding works of art, it is necessary to understand the content, essence, idea, creative skill, and sometimes objects and phenomena beyond those depicted in the picture, and to teach young people to fully perceive works of art, to incorporate this into the essence of education, in a literal sense, a number of objective and subjective problems of visual arts education are highlighted. The pedagogical and psychological problems of students' perception of works of art and the development of their imagination were studied. In addition, the specific features of the professional qualification level of fine arts teachers were considered.

Keywords: *fine arts, pedagogy, psychology, method, perception, imagination, student, teacher.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ВОСПРИЯТИЯ И ВООБРАЖЕНИЯ УЧАЩИМИСЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

В данной статье рассматривается развитие особенностей восприятия и воображения произведений искусства учащихся общеобразовательных школ по предмету «Изобразительное искусство» через учебные задачи и педагогический инструментарий. Влияние произведений изобразительного искусства на восприятие подробно изучено в научных исследованиях таких ученых, как С.П. Ломов, Г.Н. Кудина, А.Р. Лурия, З.Н. Новлянская, А.А. Голуб, С.А. Ерков. Понимая произведения изобразительного искусства, очень важно научить молодых людей полностью понимать содержание, суть, идею, творческое мастерство, а иногда и предметы и события, выходящие за рамки изображенного на картине, и интегрировать это в суть образования. Изучены педагогико-психологические проблемы развития восприятия и воображения студентами произведений искусства. Кроме того, были обсуждены особенности профессионально-квалификационного уровня учителей изобразительного искусства.

Ключевые слова: *Изобразительное искусство, педагогика, психология, метод, восприятие, образ, ученик, педагог.*

Kirish. Tasviriy san’at asarlarini badiiy idrok qilish shaxsdan bevosita asarlardagi timsollarda ifodalangan xulq-atvor motivlari, ularning harakat xususiyatlari, asarda aks ettirilgan umumiy mazmun,

predmetlar, ranglar va yuqoridagilarni umumlashtirgan holda hissiy-emotsional idrok qobiliyatiga ega bo‘lish zarurligini talab qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh davri tugab, o‘smirlik yoshi (5-7) boshlanganda bola psixikasida katta o‘zgarishlar yuz beradi. Bu o‘zgarishlar tasviriy san’at asarlarini idrok etishga ham ta’sir qilishi S.P.Lomov, G.N.Kudina, Z.N.Novlyanskaya, A.A.Golub kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan. Bu davrda tasviriy san’at asari syujetini tahlil qilish kuchayib, muallif g‘oyasini tushunishga imkon beruvchi hissiy bilish, asarning emotsional jihatlarini idrok etish pasayadi. O‘smirlik yoshida yoshga xos xususiyatlardan bolaning o‘z shaxsini bilishga, o‘zini bola sifatida inkor etib, kattalar safidan joy olishga intilishi, o‘z “men”iga kattalik maqomini berishi, yangi bilimlarni o‘zlashtirishda mulohazakorlik bilan sxematik, standart yondashishi, oldingi yosh davriga xos hissiy idrok etishi darajasining pasayishi keskin ifodalanib, bu san’at asarlarini idrok etish, tasavvur qilishga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

San’at asarlarini idrok etishda analitik-sxematik yondashuv syujet umumiy holatini tez fahmlab olishga imkon bersa, uni hissiy idrok etib, muallif g‘oyasini bilib olish imkoniyatini pasaytiradi.

A.R.Luriya fikricha, o‘smirlik yoshida badiiy asarlar, shu jumladan, tasviriy san’at asarlarini idrok etishda amaliy yo‘nalganlik ustunlik qiladi. O‘smir tasviriy san’at asarini qisqa muddatda idrok etib, uni o‘z ehtiyoji nuqtai nazardan darhol baholaydi va asar mohiyatini tushunish borasida ortiqcha bosh qotirmaydi, ya’ni “o‘z jonini qiynamaydi”.

Asosiy qism. Psixologik-pedagogik muammolardan navbatdagisi – o‘smirlik davri boshlanishi bilan o‘smirlar shaxsidagi psixofiziologik o‘zgarishlar va badiiy, jumladan, tasviriy san’at namunalarini idrok etishda qo‘llanilib kelayotgan uslubiy yondashuv orasidagi tafovutdir. Bir tomondan 5-7-sinf o‘quvchilarida o‘z yosh davriga xos bilish va ijodiy faoliyatga, shu jumladan, tasviriy san’atni tushunishga bo‘lgan ehtiyoj va harakat oshib boradi, ikkinchi tomondan, tasviriy san’at asarlarini idrok etishga o‘rgatishda qo‘llayotgan ta’lim usullari yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlarini yetarli darajada qamrab olmagan bo‘ladi. Buni S.A.Yerkov ham o‘z tadqiqotida ilmiy dalillar bilan ko‘rsatib o‘tgan.

P.M.Yakobson: “Tasviriy san’at asarlarini badiiy idrok etish qanday kechadi va uning oddiy idrokdan farqi nimada?” degan savolga javob berar ekan, badiiy idrok ikki xil ma’noda tushunilishini ta’kidlaydi va badiiy idrokni tor ma’noda tushunsak – bu, bizni o‘rab turgan atrof-olamdagi predmet, xossa, holatlarni hissiy yaxlitligicha bosh miyada aks etishidir, degan fikrga urg‘u beradi. Badiiy idrokni keng ma’noda tasavvur qilsak – bu, idrok etilayotgan predmet va hodisalarni shunchaki sezish emas, balki ular orasidagi bog‘liqlik, o‘zaro munosabatlar va hokazolar haqida fikr yuritish, tahlil, umumlashtirish va boshqa tafakkur operatsiyalari yordamida idrok etilayotgan narsa va hodisalarning bosh miyada aks etishi, talqin qilishdir. San’atni yuqoridagi tarzda to‘liq idrok etishni Yu.N.Protoponov ham badiiy idrok deb atagan.

Mutaxassis olimlarning fikricha, shaxsning yoshi ulg‘aygan sari ko‘p narsalarni sxematik idrok eta boshlaydi. Masalan, 5 yoshli bola uni qiziqtirgan chehraga qiziqish yo‘qolguncha qisqa muddatda 50 marotabagacha nigohini qaratsa, 5-sinf o‘quvchisi (11 yoshli bola) 5 marotaba qaraydi (V.P.Zanchenko, N.Yu.Vergiles). Bu A.R.Luriyaning bilish jarayonlari shaxs ulg‘aygan sari tejamkorlashib, sxematik tarzda kechishi haqidagi fikrini yana bir bor tasdiqlaydi.

Demak, eng katta muammolardan biri ta’limda o‘quvchilar yosh xususiyatlarining yetarli hisobga olinmayotganligi bilan bog‘liq. Tasviriy san’at darslarida milliy madaniyat namunalariga e’tibor talab darajasida berilmayotganligi ham o‘quvchilar estetik tarbiyasida to‘liq ishlatilmayotgan potensial imkoniyatlarimiz borligidan dalolat beradi. Bu tasviriy san’at bo‘yicha umumiy o‘rta ta’limdagi muammolardan biridir. Mazkur jihat esa nafaqat tasviriy san’atda, balki arxitektura, shaharlarimiz, qishloqlarimiz qiyofasini yangilashda ham ko‘zga tashlanayapti.

Andijon, Urganch, Jizzax kabi bir qator shaharlarning ba’zi joylarini bir-biridan farq qila olmaymiz, vaholanki, har bir shahar o‘z hududiy xususiyatlari bilan yaqqol ajralib turishi kerak. Urganch, Nukus, Qarshi bilan Farg‘ona, Namangan iqlimini solishtirib bo‘lmaydi, ammo bu jihat arxitektura, uy qurilishlarida deyarli hisobga olinmaydi. Buning asosida ham estetik tarbiya, did, tasviriy san’at va iqtisod yotadi. Bu xalqning estetik didi, san’atga bo‘lgan munosabati namunasi, ko‘rsatkichidir. Bizda esa yangi qurilayotgan qishloqlar ba’zan shahardan farq qilmaydi. Albatta, qishloqlarimiz obod bo‘lishi, eski uylar zamonaviy uylar bilan almashtirilishi shart, ammo ularni turlicha qilish, dizayn jihatdan yanada takomillashtirish, milliy koloritni ta’kidlashimiz, milliy san’at elementlaridan o‘z o‘rnida samarali foydalanishimiz uchun aqlimiz, salohiyatimiz va mablag‘imiz yetarlidir.

Bo‘lajak arxitektor, dizayner, rassom, haykaltaroshlarga maktab o‘quvchiligi yoshidan tasviriy san’at darslarida ushbu masalalarda yetarli ma’lumot berishimiz kerak. Buning uchun tegishli fanlar bo‘yicha davlat ta’lim standartlari, o‘quv darslarini ko‘rib chiqishimiz lozim. Oliy ta’lim muassasalarimizdagi arxitektura, dizayn, tasviriy san’at rassomchilik va boshqa ayrim yo‘nalishda ta’lim olayotgan talabalarning

talabalik yillari Xitoy, Yaponiya, Singapur, Gollandiya, Fransiya, Dubay, Italiya, Germaniya, Angliya, Rossiya kabi mamlakatlardan kamida to‘rt davlatda (talaba hisobidan) yoz oylarida maxsus amaliyot o‘tashi va ulardagi tarixiy, milliy obidalar, san’at asarlarini ko‘rib, kasbiy dunyoqarashini kengaytirishi taklif etiladi. Shu bilan birga ushbu talabalar o‘zga davlatga amaliyot o‘tashga jo‘nashdan oldin Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon kabi shaharlarni ko‘rib kelgan, O‘zbekiston muzeylaridagi eksponatlar bilan tanishgan bo‘lishi shart. Tasviriy san’at fani mazmunini belgilashda taraqqiy etgan davlatlar tajribasini ko‘r-ko‘rona qabul qilish emas, balki ularning eng qimmatli, zarur tomonlarini tatbiq etish, masalan, Rossiya ta’limidan ijobiy tomonlarni olib, original DTS, o‘quv dasturlari, darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarni tayyorlash lozim. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitishda O‘zbekiston Respublikasining 2030- yilda dunyoning birinchi o‘ttizta davlati ichida o‘ziga munosib joyni egallab, keyingi yillari birinchi o‘nlikdan joy olishi maqsadini asos qilish kerak. Yuqorida belgilangan natijalarga erishish uchun nihoyatda muhim omil – bu, pedagog kadrning kasbiy malakasi darajasidir.

Istalgan sohani malakali kadrlar bilan ta’minlanishi hech qachon kun tartibidan tushmaydigan masalalardan biridir. Tasviriy san’at darslarini o‘tish uchun o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlanganligimizni qisman qoniqarli deyish mumkin, ammo ular asosida zamon talabida ishlaydigan tasviriy san’at bo‘yicha maxsus tayyorlangan maktab o‘qituvchilarimiz soni ko‘p emaski, bu so‘nggi yillari mazkur masalaga yetarlicha e’tibor qaratilmayotganligi bilan bog‘liq. So‘nggi o‘n yil ichida oliy ta’lim muassasalarida ushbu yo‘nalish bo‘yicha o‘qigan pedagog kadrlar son jihatidan ham, sifat (kasbiy malaka) jihatidan ham xalq ta’limi ehtiyojini qondira olyapti deyish qiyin. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quv yuklamasida mazkur fanga ajratilgan soatlar ko‘p bo‘lmaganligi sababli oliy ta’lim muassasalarida ham tasviriy san’at yo‘nalishiga qabul kvotasi kam ajratiladi. Bu fanga biroz o‘zgacha munosabatda bo‘lingani uchun (asosiy fanlar sirasiga kirmaydi) tasviriy san’atdan dars berayotganlarning ma’lum qismi o‘zga soha, yo‘nalish egasi, ya’ni, nomutaxassislardir. Ba’zi hollarda tasviriy san’at bo‘yicha diplomga ega mutaxassis boshqa fandan dars beradi.

“O‘zi yonmayotgan odam o‘zgani yoqa olmaydi”, deyilganidek, sohaning egasi bo‘lmagan odam o‘quvchilarga zamon talabi darajasida bilim bera olmaydi va, ko‘pincha, o‘quvchilarda tasviriy san’atga mehr, qiziqish, havas uyg‘otishni uddalamaydilar, tasviriy san’at asarlarini badiiy idrok etish hissini shakllantira olmaydilar. Muammoning eng nozik, og‘riq joyi ham shunda. Tasviriy san’at bo‘yicha respublikamizda o‘z ilmiy, ijodiy maktabini yaratgan, yurtimizni xalqaro hamjamiyatga munosib taqdim eta oladigan olimlarimiz sanoqli (yoki yo‘q hisobda) bo‘lib, borlari ham ulug‘ yoshda, ularning ishini yuqori saviyada davom ettiradigan yosh, yetuk olimlar afsuski, hozirgi vaqtda uchramayapti.

Vaholanki, tasviriy san’at ijtimoiy hayotimizdan o‘ziga xos munosib o‘rin egallamas ekan, soha vakillariga, ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablardagi tasviriy san’at fani o‘qituvchilariga shunga yarasha munosabat o‘zgarishsiz qolaveradi. Shu bois o‘qituvchilar orasida ham ushbu yo‘nalish egalarining reytingi past, chunki ularga aholi, ota-onalar kamdan-kam holda murojaat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalari (5 ta pedagogik institut)ga 1 yilda shu soha bo‘yicha 250 dan ortiq talaba qabul qilinmaydi. Bu esa respublikadagi maktablar sonidan kelib chiqqanda, 2,6%ni tashkil qiladi. Pedagogika institutlari bitiruvchilarining barchasi ham o‘z kasbi bo‘yicha ishga joylashmaydi (qizlar oila quradi, onalik ta’tilida bo‘ladi), yigitlar esa oila tebratish maqsadida maktabga emas, maoshi ko‘proq o‘zga joylarga ishga kiradilar. Natijada, maktablarga mutaxassis sifatida keladiganlar taxminan 1%ni tashkil qiladi. Ko‘rsatkich 1%ni tashkil qilganda uning sifati haqida mulohaza qilishga hojat qolmaydi, fikrimizcha, Xalq ta’limi vazirligining 2018- yil hisobotiga ko‘ra, maktablarda faoliyat olib borayotgan tasviriy san’at o‘qituvchilarining atigi 13,2% shu yo‘nalishda bazaviy ma’lumotga egaki, bu maktabda o‘tilayotgan fanlar ichidagi eng quyi ko‘rsatkichdir.

Rasm chizish qo‘lidan keladigan, tasviriy san’at sirlarini o‘zgalarga kasbiy-pedagogik nuqtai nazardan yuqori darajada o‘rgata oladiganlarning ko‘pchiligi turli korxonalardan buyurtma olib yoki shartnoma asosida ishlaydi. Yana bir qismi o‘zi yaratib yoki taniqli rassom asarlarini nusxasini yasab, tirikchilik qiladi, ammo o‘ziga raqobatchi bo‘ladiganlarni ko‘paytirmaslik, sirini oshkor qilmaslik uchun tajriba va mahoratini o‘zgalarga ulashmaydi, ya’ni shogird olmaydi.

Barkamol avlod markazlarida tashkil etilgan pulli to‘garaklarda ham joy, mablag‘ va yaxshi kadrlar yetishmasligi kabi muammolar bor. Bu ham tasviriy san’atga iqtidori bor bolalarni yoshlikdan yaxshi rassom sifatida shakllantirishda salbiy ta’sir qilmoqda.

Navbatdagi muammolardan biri ommaviy axborot vositalarida tasviriy san’at asarlarining yetarli darajada targ‘ib qilinmayotganligi hamdir. Globallashuv davrida barcha davlatlarda kuzatilishi muqarrar bo‘lgan ayrim salbiy holatlar bizni ham chetlab o‘tayotgani yo‘q, jumladan, yoshlar uchun yangi avlod uchun hayotiy qadriyatlar ichida ma’naviy boyliklarga nisbatan moddiy ta’minlanganlikning ustunligi, unga

“tobe bo‘lish” illatining o‘ziyoq qadriyat sifatida qadrlanishga loyiq tasviriy san’atga bo‘lgan munosabatning susayishiga olib kelmoqda.

Hamyurtlarimizning aksariyatida san’at asarlariga bo‘lgan o‘tkir ehtiyoj sezilmaydi, chunki aholi ongida tasviriy san’at namunalaridan estetik zavq olish madaniyati (hozircha) yetarli darajada shakllanmagan. Zero, tasviriy san’at asarlariga bo‘lgan ehtiyoj buyruq yoki qaror bilan yuzaga kelmaydi. Uning zamirida shaxsning umummadaniy saviyasi, ma’lumoti, bilim darajasi, badiiy didi yotadiki, bu jihatga yetarlicha e’tibor berilmasligi me’yoriy holat emas.

Xulosa. Shaxsning moddiy ta’minlanganligi uning uy-joyi, oilaviy tadbirlarni katta sarf-xarajatlar bilan o‘tkazishi, bankdagi puli miqdori, mashinalari soni va markasi, yuritayotgan biznesi va uning istiqboli bilan o‘lchanadi. Biroq shunday yaxshi ta’minlangan bugungi badavlat kishining uyida biror mashhur rassom yoki haykaltaroshning asari doim ham topilavermaydi. Chuqurroq mulohaza yuritilsa, mashina qanday markada bo‘lmasin, eskirib qadrsizlanadi, bino va inshootlar dizayn jihatdan eskirib, ma’naviy qadri tushadi, ta’mirtalab bo‘ladi, pullar behuda sarflanishi mumkin, lekin mashhur ijodkor yaratgan san’at asarining yillar o‘tishi bilan qiymati oshaveradi. Va nihoyat, gap faqat moddiy mablag‘da emas, ma’naviy boylikda va uning qadr-qimmatini anglashdadir.

Aqli zaif yoki ko‘zi ojiz odam betakror tasviriy san’at asaridan estetik zavq ololmaydi, chunki bu borada birining aqli, ikkinchisining ko‘zi o‘z vazifalarini bajarishda cheklangan. Ammo eng ayanchlisi, aqli butun, to‘rt muchasi sog‘ odamning ma’naviy qashshoqligidir. Ma’naviy boyliklar borasida o‘z vaqtida kerakli bilimlar berilmasligi natijasida ko‘zi sog‘lom, ammo go‘zallikni ko‘rmaydigan, aqli raso, ammo san’at asari mohiyatini tushunmaydiganlar toifasi paydo bo‘ladi. Tasviriy san’at asarlarini tushunish orqali undagi mazmun, mohiyat, g‘oya, ijodkor mahorati va ba’zan rasmda tasvirlanganidan ortiq predmet va hodisalar idrok etiladi. Bular esa faqat tashqi ko‘rish qobiliyatiga emas, balki shaxsning bilimi, ma’lumoti, madaniyat darajasi, axloq-odobi, estetik tarbiyasi, tafakkuri, xayoli, tasavvuri, emotsional holati, individual-psixologik xususiyatlari, fiziologik jihatdan olib qaralganda uning bosh miyasidagi jarayonlarga, aqliy salohiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Tasviriy san’at asarlarini yoshlarga to‘liq idrok etishni o‘rgatishimiz, buni ta’lim mohiyatiga singdirishimiz juda-juda zarur, tom ma’noda, tasviriy san’at ta’limi bir qator obyektiv va subyektiv muammolar tufayli keskin oqsayapdi. Shu sababli o‘smir, o‘spirin emas, hatto, universitetlarda tahsil olayotgan talaba yoshlarimiz ham tasviriy san’at muzeylarida eksponatlar oldida uzog‘i bilan 2-3 daqiqadan ortiq turmasligi kuzatiladi.

Adabiyotlar:

1. Bulatov S.S., Jabborov R.R. Tasviriy san’at asarlarining falsafiy va psixologik tahlili (Monografiya). – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 80 b.
2. Jabbarov B.G‘. Qalamtasvir (Xotira va tasavvur asosida ishlash.–Namangan, 2014 – 65 b.
3. Oripov B. Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. Metodik qo‘llanma. – T.: Ilm-ziyo, 2013.
4. Egamberdieva N. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida): pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2010. – 332 b.
5. Kozlovskaya M.A. Pedagogicheskie usloviya razvitiya xudojestvennogo vospriyatiya podroskov v общеobrazovatelnoy shkole: avtoref.dis.kand.ped.nauk. –Maykop, 2012. –26 s.
6. Turdaliev A. Kompozitsiya fanidan amaliy mashq va topshiriqlar. Metodik qo‘llanma.– N., 2014.

O‘ZBEKISTON KULOLCHILIK MAKTABLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdamovna,
Farg‘ona davlat universiteti, tasviriy san’at kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
barchinoy0218@gmail.com

Ushbu maqolada O‘zbekistonning turli hududlarida shakllangan kulolchilik maktablari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. An’anaviy kulolchilik san’atining tarixi, texnologik jarayonlari hamda naqsh va bezak uslublari haqida ma’lumot beriladi. ***O‘zbekistonning asosiy kulolchilik maktablari: Rishton kulolchilik maktabi*** *O‘zbekistonning eng qadimiy va mashhur hunarmandchilik an’analaridan biridir. Rishton kulollari tomonidan tayyorlangan mahsulotlar o‘zining dizayni, tabiiy rangi va qalampir nusxali naqshlarga boyligi bilan ajralib turadi. So‘nggi yillarda Rishton kulolchilik maktabi yanada rivojlandi. Usta Ibrohimjon Komilov, Bobojon Nishonov, Hakimjon Sattorov, Rustamjon Usmonov, Alisher Nazirov, Sharofiddin Yusupov, Tohirjon Haydarov, Ravshan Tojiddinov, Shokir Ahmadjonov, Saidjon Ahmedov, Bunyod Yunusov singari mashhur kulollar yaratgan mahsulotlar barchani hayratga solib kelmoqda. 2021-yil 29-yanvarda Rishton tumanida kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan markaz ochildi. Bu markaz hunarmandchilik an’analarini saqlab qolish, kadrlarni tayyorlash va ish bilan ta’minlashni ilmiy va tizimli asosda tashkil etish hamda ushbu maktablarning bugungi kundagi holati va rivojlanish istiqbollari muhokama qilinadi.*

Kalit so’zlar: *kulolchilik, an’anaviy hunarmandchilik, naqsh, O‘zbekiston san’ati, tabiiy glazur, tarixiy maktablar.*

ШКОЛЫ КОНАРНОГО МАСЛА УЗБЕКИСТАНА И ИХ ХАРАКТЕРИСТИКИ

В статье анализируются школы гончарного искусства, сформировавшиеся в разных регионах Узбекистана, и их уникальные особенности. Будет предоставлена информация об истории, технологических процессах, узорах и декоративных стилях традиционной керамики. Основные гончарные школы Узбекистана: Риштанская гончарная школа — одна из древнейших и известнейших ремесленных традиций Узбекистана. Изделия риштанских гончаров отличаются дизайном, естественным цветом и богатством узоров, напоминающих перцы. В последние годы Риштонская гончарная школа получила дальнейшее развитие. Мастер Иброхимджон Камилов, Бободжон Нишонов, Хакимджон Сатторов, Рустамджон Усманов, Алишер Назиров, Шарофиддин Юсупов, Тохирджон Хайдаров, Равшан Тожиддинов, Шокир Ахмаджонов, Саиджон Ахмедов, Бюнед Юнусов, продолжают удивлять всех. 29 января 2021 года в Риштанском районе открылся центр, специализирующийся на производстве гончарных изделий. В этом центре будут обсуждаться вопросы сохранения ремесленных традиций, организации обучения и трудоустройства на научной и системной основе, а также современное состояние и перспективы развития этих школ.

Ключевая слова: *гончарное дело, традиционные ремесла, узор, узбекское искусство, натуральная глазурь, исторические школы.*

UZBEKISTAN POTTERY SCHOOLS AND THEIR CHARACTERISTICS

The article analyzes the schools of pottery art that were formed in different regions of Uzbekistan and their unique features. Information will be provided on the history, technological processes, patterns and decorative styles of traditional ceramics. The main pottery schools of Uzbekistan: Rishtan Pottery School - one of the oldest and famous craft traditions of Uzbekistan. The products of Rishton potters are distinguished by their design, natural color and rich patterns reminiscent of peppers. In recent years, the Rishton pottery school has been further developed. Masters Ibrokhimjon Kamilov, Bobojon Nishonov, Khakimjon Sattorov, Rustamjon Usmanov, Alisher Nazirov, Sharofiddin Yusupov, Tokhirjon Khaidarov, Ravshan Tojiddinov, Shokir Akhmadzhonov, Saidjon Akhmedov, Buned Yunusov, continue to amaze everyone. On January 29, 2021, a center specializing in the production of pottery was opened in the Rishtan district. This center will discuss issues of preserving craft traditions, organizing training and employment on a scientific and systematic basis, as well as the current state and development prospects of these schools.

Keywords: *pottery, traditional crafts, pattern, Uzbek art, natural glaze, historical schools.*

Ma’lumki O‘zbekiston qadimdan hunarmandchilik rivojlangan hududlardan biri bo‘lib, kulolchilik ushbu san’atning eng yorqin turlaridan biridir. Har bir hudud o‘ziga xos texnologiya, naqsh va bezak uslublari bilan ajralib turadi. Kulolchilik mahsulotlari nafaqat amaliy maqsadlarda, balki badiiy jihatdan ham katta qimmatga ega bo‘lib kelgan. Ushbu maqolada O‘zbekistonning turli kulolchilik maktablari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Xalq ommasining ijodkorligi, daholarining ilm-u tafakkuri va yuksak ma’naviyati asosida dunyo o‘zgaradi va yangilanadi. Xalq amaliy san’ati ijodkorligida qadimdan shakllangan buyumlar yaratish va bezatish mehnati kasbi bilan shug’illanib, bu sohadagi turli maktablarni ko‘rib, o‘rganib kelgan amaliy san’at ustalari va dizaynerlardir. Ular orasida hunarmandchilik san’ati ijodkorlari o‘z mehnatini ilm- tafakkuri va kasblarni san’at darajasiga olib chiqa olgan rassomlardir. O‘rta Osiyoning qadimiy g’oyat nafis chiroyli shaklga ega bo‘lgan gul va nuqtalar bilan bezatilgan kosa, piyola, tovoq, choynak, vaza, ko‘za, xurmacha, kuvalak, zeb-ziynatlar va boshqa kulolchilik keramik buyumlari qadim-qadimdan dunyo ahli e’tiborini o‘ziga tortib kelgan. Chunki O‘rta Osiyo amaliy san’ati ustalarining kulolchilik buyumlari o‘zining konstruktsion qulayligi, jarangdorligi, jilolanuvchi tabiiy bo‘yoqlari, gullar va tabiat ramzini bezab, g’oyat nozik badiiylashtirilgan tasvirlari dunyoni barcha millat vakillariga yoqqan.

Kulolchilik xalq amaliy san’ati turlaridan bo’lib, hunarmandchilikning loydan, gildan turli buyumlar, idishlar, qurilish materiallari tayyorlaydigan sohasiga kiradi. Kulolchilikda asosiy xom-ashyo tabiiy tuproq bo’lib, loy qancha ko’p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo’ladi. Kulolchilikning bezak san’ati bo’lgan koshinkorlik san’ati Markaziy Osiyoning me’morchiligida keng rivojlandi. Mamlakatimiz hududida kulolchilikning ko’plab asosiy maktab va markazlari mavjud. Rishton, Buxoro, G’urumsaroy, Toshkent, Xorazm, Samarqand va Qashqadaryo kulolchilik maktablarini sanash mumkin. Ushbu kulolchilik maktablari yaratilgan mahsulotlarni tayyorlanish uslubi, naqsh-gullari, rangi va pardozi bilan biri-biridan farqlanadi. Kulolchilik san’ati qadimgi Misr, Ossuriya, Bobil, Yunoniston va Xitoyda yuksak taraqqiyotga erishgan. Kulolchilik buyumlari sopol va keramika deb atalmish chinni, fayan va mayolikalardan tayyorlanadi. Badiiy kulolchilik atamasi XIX asrning oxirlarida paydo bo‘lgan va odatda faqat o‘sha davrdan boshlab ishlab chiqarilgan sopol idishlar uchun ishlatiladi. Badiiy kulolchilik buyumlarini ishlab chiqaradigan eng muhim mamlakatlar Angliya va Fransiya bo‘lib, tez orada AQSh. Amerika badiiy sopol idishlari ko‘p o‘xshashliklarga ega, ammo ba’zi farqlar, Evropa ekvivalentlari bilan farqlanadi. Ushbu atama G’arb dunyosidan tashqarida tez -tez ishlatilmaydi, faqat “xalq ijodi sopol idishlar”, ko‘pincha ba’zi qishloqlarda ishlatiladi. Kulolchilikning nodir sohasi, bu – chinni buyumlar tayyorlash tarmog’i bo‘lib hisoblanadi. Sharqiy Osiyoda kuchli rivojlandi. Bu hunar O‘zbekistonning Rishton tumanida XIX asr o‘rtalaridan paydo bo‘lgan deyishadi. Faqat XIX asr oxirida ko‘k naqshli xitoy chinnisining qimmatlashuvi oqibatida bu mahsulotga bo‘lgan talab kuchaydi. Natijada xitoy mahsulotlariga o‘xshatib o‘z buyumlarini tayyorlayotgan mahalliy ustalar idishlarga chinni buyumlarga qo‘yiladigan belgilar qo‘ygan holda yasay boshladilar. Bu esa chinni deb atalgan buyumlarni o‘lkada ko‘payishiga olib kelgan. Lekin bu tarmoq rus chinni buyumlari bilan raqobatlahuvi natijasida tarmoq ishlab chiqarishi birmuncha qisqardi. Ustalarning bildirishicha, chinni yasash uchun 60% gilbo‘taga 40% kvars (sang) yoki yana 10% loy qorilishi kerak bo‘ladi. Tarmoqni vujudga kelishi aka-uka usta Jalil va Quri Abdujalil nomi bilan bog’liq. Bizgacha yetib kelgan ma’lumotlarga ko‘ra, usta Jalil Qoshg’orga boradi va sirlash, chinni loy tayyorlash sirlarini o‘rganadi.[1. 23]

O‘zbekistonning asosiy kulolchilik maktablari: Rishton kulolchilik maktabi O‘zbekistonning eng qadimiy va mashhur hunarmandchilik an’analaridan biridir. Rishton kulollari tomonidan tayyorlangan mahsulotlar o‘zining dizayni, tabiiy rangi va qalampir nusxali naqshlarga boyligi bilan ajralib turadi. So‘nggi yillarda Rishton kulolchilik maktabi yanada rivojlandi. Usta Ibrohimjon Komilov, Bobojon Nishonov, Hakimjon Sattorov, Rustamjon Usmonov, Alisher Nazirov, Sharofiddin Yusupov, Tohirjon Haydarov, Ravshan Tojiddinov, Shokir Ahmadjonov, Saidjon Ahmedov, Bunyod Yunusov singari mashhur kulollar yaratgan mahsulotlar barchani hayratga solib kelmoqda. 2021-yil 29-yanvarda Rishton tumanida kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan markaz ochildi. Bu markaz hunarmandchilik an’analarini saqlab qolish, kadrlarni tayyorlash va ish bilan ta’minlashni ilmiy va tizimli asosda tashkil etish hamda Rishton ustalarining mahsulotlarini chet el bozorlariga eksport qilish imkonini beradi.

Shuningdek, Rishtonda “Xalqaro kulolchilik markazi” tashkil etilgan bo‘lib, bu yerda 20 ta ikki qavatli kulollar xonadoni, Rishton tarixi muzeyi, bank xizmatlari markazi bunyod etilgan. Uylarning birinchi qavatida ustaxona va savdo do‘koni joylashgan, ikkinchi qavatda hunarmandlar oilasi yashaydi. Xonadonlarda 6 o‘rinli mehmonxona ham mavjud bo‘lib, chet ellik sayyohlar bu yerda yashab, kulollarning ishi bilan tanishishi mumkin.Bundan tashqari, 2025-yil 1-aprelga qadar Rishtonda an’anaviy kulolchilik tarixi muzeyi ochilishi rejalashtirilgan. Ushbu muzey kulolchilikning boy madaniy merosi, insoniyat tarixidagi rolini haqqoniy yoritish, yoshlarni “ustoz-shogird” an’analari asosida kulolchilik hunariga o‘rgatish va ekspozitsiyalarni tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni

maqsad qilgan.[2.43] Rishton kulolchilik maktabi nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham e’tirof etilgan bo‘lib, usta kulollarimizning mahsulotlari xorijiy davlatlarda ham yuqori baholanmoqda.

G’ijduvon kulolchilik maktabi: G’ijduvon kulolchilik maktabi O‘zbekistonning boy madaniy merosiga ega bo‘lgan qadimiy hunarmandchilik an’analaridan biridir. Bu maktab Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabining muhim markazlaridan biri bo‘lib, o‘ziga xos uslubi va bezaklari bilan ajralib turadi. G’ijduvon ustalari tomonidan yaratilgan sopol buyumlar to‘q jigarrang, yashil va sariq ranglarning uyg’unligi bilan ajralib turadi. Bezaklarda islimiy naqshlar, ya’ni o‘simliksimon tasvirlar ustunlik qiladi. Ushbu maktabning mashhur vakillaridan biri Alisher Narzullayev bo‘lib, u kulolchilik san’atiga qo‘shgan hissasi uchun xalqaro miqyosda e’tirof etilgan. Masalan, 2014-yilda Portugaliyada o‘tkazilgan “Vera – 2014” xalqaro tasviriy san’at ko‘rgazmasida Gran-pri mukofotiga sazovor bo‘lgan. G’ijduvon kulolchilik maktabi o‘zining boy an’analari va o‘ziga xos uslubi bilan nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham e’tirof etilgan. Uning mahsulotlari milliy madaniyatimizning ajralmas qismi sifatida qadrlanadi.

Xiva kulolchilik maktabi Xiva kulolchilik maktabi O‘zbekistonning Xorazm viloyatida joylashgan bo‘lib, boy tarixga ega va o‘ziga xos uslubi bilan ajralib turadi. Xorazm kulolchilik san’ati Markaziy Osiyodagi eng qadimiy maktablardan biri hisoblanadi. Xorazmning alohida hududiy izolyatsiyasi tufayli mahalliy kulolchilik uslubi deyarli hech qanday o‘zgarishlarga yoki begona ta’sirlarga duchor bo‘lmagan. Ming yillar davomida asl shaklida bizga yetib kelgan. XX asr boshlaridan hozirgi paytgacha Xorazm vohasida Ko‘hna Urganch shahrida Eshmurot usta, Xiva, Madir (Xonqa tumanidagi qishloq) va Yangiariq tumanidagi Kattabog’ kulollar maktabi faoliyat olib bormoqda. Xorazm viloyatida ushbu qadimiy san’at turi avloddan avlodga meros tariqasida o‘tib kelgan va hozirgi vaqtda ham rivojlanib takomillashib kelmoqda. Xiva kulolchilik maktabi o‘ziga xos badiiyligi, bezaklar rangi va ishlanish uslubi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Uning milliy shaklli o‘ziga xos buyumi bodiyadir; naqsh mujassamoti handasiy va o‘simliksimon naqshlardan iborat, buyumning markaziy qismiga arabeska girih tushirish ushbu maktabga xos uslublardan. Hozirgi kunda Xiva kulolchilik maktabi an’analari davom ettirilmoqda. Masalan, “Ichan-Qal’a” davlat muzey qo‘riqxonasida “Koshinpazlik san’ati” ko‘rgazmasi tashkil etilgan bo‘lib, unda XIX asr oxirlarida Xiva bozoridagi kulolchilik rastalaridagi savdo-sotiq, Xorazm kulolchilik maktabi yirik vakillari Rahimberdi kulol, Otajon kulol, Sultonbardi kulol va boshqalarning portretlari, ish jarayonlari aks etgan fotosuratlar, ijodlaridan namunalar namoyishga qo‘yilgan. Xorazm kulollari sopol idishlar, ko‘zalar, balki me’moriy o‘yma naqshlarini ham ishlab chiqarish bilan shug‘ullanganlar.

Mahalliy markazlarning betakror naqshlari mahsulotlarning shakli va bezak tamoyillarida ifodalangan. Sopol idishlarning ko‘p tarqalgan turi “badiya” deb atalgan idish bo‘lgan. U vertikal ko‘tarilgan chekkali katta idish ko‘rinishida bo‘lgan. Odatda badiyaning ichki qismi geometrik shakllar bilan bezalib, u sekinlik bilan o‘simlik shohchalariga aylanib ketgan. “Guppi” deb atalgan idish ham ko‘p tarqalgan. Ular sutdan sariyog‘ ishlab chiqarishga mo‘ljallangan. Kulolchilikda ma’lum bir tasvirning kuchayish jarayoni kuzatilgan. Xorazm kulolchilik maktablarida yasalgan badiiy buyumlar o‘ziga xos badiiyligi, bezaklari rangi va ishlanish uslubi bilan O‘zbekistonnning boshqa maktablari ishlab chiqarayotgan buyumlardan ajralib turadi. Xorazmda chuqur sopol tovoq badiya qadimdan saqlanib kelayotgan milliy shakldir.Xorazm kulolchiligida naqshlarning turlari unchalik ko‘p emas. Ular asosan, geometrik va o‘simliksimon bezakli naqshlardir. Ba’zan hayvon va jonivorlar tasviri ham ishlanadi. Darhaqiqat, badiiy buyumlarning markaziy qismiga geometrik arabeska girix tushirish Xorazm ustalarining o‘ziga xos uslublaridan biridir. Xorazmda bu qadimiy san’at an’ana sifatida avloddan avlodga o‘tib hozirgi kunda ham rivojlanib, takomillashib kelmoqda.

Samarqand kulolchilik maktabi: Samarqand kulolchilik san’ati neolit davridan buyon mavjud bo‘lib, uning eng rivojlangan davrlari eramizning IX–XII asrlariga to‘g’ri keladi. Sanoat rivojlangan davrga kelib, bu soha ancha susaygan bo‘lsa-da, so‘nggi o‘n yilliklarda uning ayrim ko‘rinishlari qayta tiklanmoqda. Misol uchun, Samarqand tumanidagi qadimiy Konigil qishlog’ida kulolchilik an’analari qayta tiklanib, bu yerda kulollar oilaviy ishlab, ro‘zg’or tebratmoqda. Mahalliy bozorlarda sotiladigan sopol idishlar Samarqanddagi ko‘plab restoranlarda ishlatiladi, shuningdek, bu yerdagi kulollar xorij va O‘zbekistondan buyurtmalar oladi.

Buxoro kulolchilik maktabi: O‘zbekistonning boy madaniy merosiga ega bo‘lib, o‘ziga xos uslubi va an’analari bilan ajralib turadi. Buxoro kulollari tomonidan yaratilgan sopol buyumlar o‘zining nafisligi, bezaklari va rang-barangligi bilan mashhur. Ushbu maktabning mashhur vakillaridan biri usta kulol Alisher Narzullayev bo‘lib, u kulolchilik san’atiga qo‘shgan hissasi uchun xalqaro miqyosda e’tirof etilgan.

O‘zbekiston kulolchilik maktabi o‘zining boy tarixi, an’analari va uslublari bilan ajralib turadi. O‘zbek kulollari asrlar davomida noyob va nafis sopol buyumlar yasash an’anasini saqlab kelgan. Ular nafaqat mahalliy bozorlarda, balki xalqaro miqyosda ham qadrlanadi.O‘zbekistonda kulolchilikning bir nechta yirik maktablari mavjud bo‘lib, har biri o‘ziga xos uslub va bezaklarga ega:

Rishton maktabi :Asosan ko‘k, havorang va yashil tusdagi sirlangan sopol buyumlari bilan mashhur. Ishlatiladigan glazur tabiiy mineral va o‘simliklardan tayyorlanadi. Buyumlar ustiga o‘simlik va islimiy naqshlar ishlanadi. G‘ijduvon maktabi :Yorqin, jilosiz (matt) sirlangan sopol buyumlari bilan ajralib turadi. Sariq, jigarrang, yashil va ko‘k ranglar asosiy palitrani tashkil etadi. Bezaklar orasida geometrik shakllar va xalqona naqshlar keng uchraydi.

Xiva maktabi: Odatda o‘ziga xos shakldagi idishlar va guldonlar ishlab chiqariladi. Moviy va havorang tuslar ustunlik qiladi. Ko‘pincha, naqshlar mahalliy arxitektura ornamentlariga moslab ishlanadi.

Samarkand va Buxoro maktabi: Nozik chizilgan naqshlar va boy ranglar bilan ajralib turadi. Odatda madaniy va tarixiy motivlar ishlatiladi. Sopol plitalar va guldonlar mashhur.[3. 72]

Kulolchilik san‘ati – qadimiy hunarmandchilik turlaridan biri bo‘lib, tabiiy loydan turli buyumlar yasash va ularni pishirish orqali mustahkam qilish jarayonini o‘z ichiga oladi. Ushbu san’atning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Material tanlovi :Kulolchilikda asosiy xomashyo sifatida maxsus loy ishlatiladi. Loy tarkibida qum va boshqa minerallar bo‘lishi mumkin. Turli mintaqalarda ishlatiladigan loyning sifati va tarkibi har xil bo‘lishi mumkin.

Ishlov berish usullari

Qo‘lda shakllantirish – buyumlarni qo‘l bilan yoki maxsus qoliplar yordamida yasash.

- G‘ildirakda ishlash – kulol g‘ildiragi yordamida simmetrik shakldagi buyumlar tayyorlash.
- Qoliplash va bosib chiqarish – buyumlarga maxsus naqsh yoki bezak berish usullari.

Bezak va naqshlar

Kulolchilik buyumlari o‘ziga xos naqshlar bilan bezatiladi. Bu naqshlar turli usullar bilan tushiriladi:

- Chizish va o‘yib ishlov berish – loy yumshoq bo‘lganda unga naqsh solinadi.
- Sir bilan qoplash – maxsus rangli yoki shaffof sirlar buyumga chiroyli ko‘rinish va himoya xususiyatini beradi.
- Bo‘yoqlash va angob bilan bezash – buyumlarga tabiiy yoki sun’iy bo‘yoqlar yordamida naqsh tushiriladi.

Pishirish jarayoni

Kulolchilik buyumlari 800–1300°C haroratda maxsus o‘choqlarda pishiriladi. Pishirish jarayoni buyumning mustahkamligi va sifatiga katta ta’sir qiladi. Ba’zi hududlarda an’anaviy o‘tin yoki ko‘mir yoqiladigan tandirlarda ham pishirish ishlari amalga oshiriladi.

Hududiy o‘ziga xosliklar

- O‘zbekiston – Rishton, G‘ijduvon, Xiva, Samarqand kabi joylar o‘zining ko‘k-sabzi rangli, sirlangan kulolchilik buyumlari bilan mashhur.
- Xitoy – nozik chinni va porselendan tayyorlangan mahsulotlari bilan taniqli.
- Yaponiya – tabiiy, minimalistik uslubdagi kulolchilik san’ati bilan mashhur.
- O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq – geometrik va o‘simliksimon naqshlar bilan bezatilgan kulolchilik mahsulotlari keng tarqalgan.

Amaliy va estetik ahamiyati.

Kulolchilik buyumlari nafaqat bezak sifatida, balki kundalik hayotda ham ishlatiladi. Misol uchun, sopol idishlar suvni uzoq muddat salqin saqlash xususiyatiga ega. Bundan tashqari, chiroyli kulolchilik mahsulotlari turli ko‘rgazma va san’at galereyalarida namoyish etiladi. Kulolchilik san’ati qadimdan rivojlanib kelayotgan soha bo‘lib, har bir mintaqada o‘ziga xos uslub va an’analar bilan ajralib turadi.[4. 127]

Xulosa. O‘zbekiston kulolchilik maktablari o‘ziga xos texnologiya, naqsh va rang uslublari bilan ajralib turadi. Rishton, G‘ijduvon, Xiva va Buxoro kulolchilik an’analari hozirgi kunga qadar o‘zining qadimiy merosini saqlab kelmoqda. Bugungi kunda ushbu san’at turi nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro miqyosda ham e’tirof etilmoqda. An’anaviy kulolchilikni asrab-avaylash va rivojlantirish madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Olimov, H. “O‘zbekiston amaliy san’ati tarixi”. – Toshkent 2018, 170 b.
2. Karimova, Z. “O‘zbek kulolchilik san’ati”. – Samarqand, 2020, 210 b.
3. Muminov, A. “Hunarmandchilikning tarixiy ildizlari”. – Buxoro, 2019, 180 b.
4. Rashidov, S. “O‘zbek milliy kulolchilik an’analari”. Toshkent, 2021, 156 b.

TASVIRIY SAN’AT FANLARINI O‘QITISHDA TASVIRIY SAN’AT TARIXINING AHAMIYATI

Soliyev Ozodbek Rahmatovich,
Farg‘ona davlat universiteti tasviriy san’at kafedrasi o‘qituvchisi
ozod-s@mail.ru

Mazkur ishda tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda san’at tarixining tutgan o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Tasviriy san’at tarixi nafaqat talabalarga san’at asarlarini tushunishda, balki ularning estetik didini shakllantirishda, madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim vosita ekanligi ta’kidlanadi. San’at tarixining o‘qitilishi orqali talabalar turli davr va madaniyatlarga mansub san’at namunalari bilan tanishadilar, ularning yaratilish tarixi, uslubi va badiiy xususiyatlarini o‘rganadilar. Bu esa ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish, san’atga ongli yondashuvni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, san’at tarixining o‘qitilishi tasviriy san’atni chuqurroq o‘zlashtirishga, zamonaviy san’atdagi yangiliklarni tarixiy jarayonlar bilan bog‘lab tushunishga imkon yaratadi. Ushbu mavzu san’at ta’limida nazariy bilim bilan amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirishning muhim jihati sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, san’at tarixi, ta’lim jarayoni, badiiy tafakkur, san’at asarlari tahlili, usuliy yondashuv, ijodkorlik salohiyati, badiiy didni shakllantirish, tarixiy jarayonlar, nazariya va amaliyot, san’at rivoji.*

ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ПРЕПОДАВАНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

В данной работе подчеркивается роль и значение истории искусств в преподавании изобразительного искусства. Подчеркивается, что история изобразительного искусства является важным инструментом не только для понимания студентами произведений искусства, но и для формирования их эстетического вкуса, воспитания в духе уважения к культурному наследию. Благодаря преподаванию истории искусств студенты знакомятся с образцами искусства, принадлежащими к разным периодам и культурам, узнают историю их создания, стиль и художественные особенности. Это имеет большое значение в развитии творческого потенциала и формировании осознанного подхода к искусству. Также преподавание истории искусств дает возможность глубоко освоить изобразительное искусство, понять новации современного искусства в связи с историческими процессами. Данная тема рассматривается как важный аспект сочетания теоретических знаний с практическими навыками в художественном образовании.

Ключевые слова: *изобразительное искусство, история искусств, образовательный процесс, художественное мышление, анализ произведений искусства, методический подход, творческий потенциал, формирование художественного вкуса, исторические процессы, теория и практика, развитие искусства.*

THE IMPORTANCE OF FINE ART HISTORY IN TEACHING FINE ARTS

This work highlights the role and importance of art history in teaching fine arts. It is emphasized that the history of fine arts is an important tool not only for helping students understand works of art, but also for forming their aesthetic taste and educating them in the spirit of respect for cultural heritage. Through the teaching of art history, students get acquainted with examples of art from different eras and cultures, study their history of creation, style and artistic features. This is of great importance in developing creative potential and forming a conscious approach to art. Also, the teaching of art history provides an opportunity to more deeply master fine arts, to understand innovations in modern art in connection with historical processes. This topic is considered an important aspect of combining theoretical knowledge with practical skills in art education.

Keywords: *fine arts, art history, educational process, artistic thinking, analysis of works of art, methodological approach, creative potential, formation of artistic taste, historical processes, theory and practice, development of art.*

Kirish. Tasviriy san’at insoniyat tafakkuri, estetik qarashlari va madaniy qadriyatlarini ifoda etishda muhim o‘rin tutadi. Olamni badiiy idrok etish, go‘zallikni ko‘rish va uni san’at asarlari orqali ifodalash

insoniyat taraqqiyotining uzviy qismidir. Shu bois, tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda san’at tarixi alohida ahamiyat kasb etadi. San’at tarixini o‘rganish orqali talabalar nafaqat turli uslublar, maktablar va san’at oqimlari bilan tanishadilar, balki har bir davrning o‘ziga xos badiiy qadriyatlari va estetik talqinlarini tushunadilar.

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy va jahon madaniy merosidan boxabar etish, ularda san’at asarlariga hurmat, estetik did va badiiy tafakkurni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Tasviriy san’at tarixi shu ma’noda talabalarning nafaqat bilim doirasini kengaytiradi, balki ularning dunyoqarashini boyitadi, ijodiy tafakkurini rivojlantiradi va san’atni anglash madaniyatini yuksaltiradi.

Bundan tashqari, san’at tarixi amaliy va nazariy bilimlarni o‘zaro uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Talabalar tarixiy san’at asarlarini o‘rganish orqali zamonaviy ijodkorlarning asarlaridagi tarixiy unsurlarni ko‘ra boshlaydilar, badiiy tahlil qilish ko‘nikmasini egallaydilar va san’at asarlarini mustaqil baholashni o‘rganadilar. Bu esa ularning estetik tarbiyasiga va madaniy ongining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli tasviriy san’at tarixini o‘qitish – bu oddiy tarixiy bilimlarni berishdan iborat emas, balki talabalarda san’atga bo‘lgan qiziqish va e’tiborni kuchaytirish, ularda badiiy tafakkurni rivojlantirish, o‘zlikni anglash va insoniyat madaniy merosini qadrlashga o‘rgatadigan muhim jarayondir.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish, ularni milliy va jahon madaniy merosiga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda san’at tarixining o‘rni beqiyosdir. Chunki san’at tarixi nafaqat o‘quvchilarga tasviriy san’atning rivojlanish bosqichlarini, balki har bir davrning ijtimoiy, madaniy va estetik talqinini tushunishda ham katta yordam beradi.

San’at tarixi orqali o‘quvchilar nafaqat buyuk rassomlar ijodi bilan tanishadilar, balki san’at asarlarining jamiyat taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatganini, milliy va jahon san’ati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ham anglaydilar. Bu esa, o‘z navbatida, ularning ijodiy fikrlashini, tasviriy saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, san’at tarixining o‘rgatilishi orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosni qadrlash, estetik zavq olish va badiiy tafakkurni rivojlantirish ko‘nikmalari shakllanadi. Shuning uchun ham tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda san’at tarixi muhim o‘rin tutadi va o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Asosiy qism. Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda san’at tarixi bo‘yicha ilmiy, metodik va nazariy manbalar muhim o‘rin tutadi. Mavzu yuzasidan o‘rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at tarixi nafaqat badiiy mahoratni rivojlantirish, balki talabalarda tarixiy tafakkur, estetik did va madaniy qadriyatlarni shakllantirishda ham muhim vosita sifatida e’tirof etiladi. Masalan, san’atshunos olimlarning ishlarida – O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan A.Hayitmetov, T.Karimov, N.Usmonov kabi mualliflarning tadqiqotlarida milliy san’atimiz taraqqiyot bosqichlari, mashhur rassomlar ijodi, ularning asarlari orqali ifodalangan tarixiy voqeliklar chuqur yoritilgan. Bu esa talabalarga nafaqat amaliy ko‘nikmalarni egallash, balki milliy o‘zlikni anglash, san’at orqali tarixiy qadriyatlarni tushunish imkonini beradi. Shuningdek, jahon san’ati tarixiga bag‘ishlangan klassik adabiyotlar, masalan, Ernest Gombrichning “San’at tarixi” [1; 6], X.R.Jansonning “San’at tarixi: G‘oyalar va ifoda” kabi asarlari orqali talabalar qadimgi davrlardan tortib zamonaviy san’atgacha bo‘lgan badiiy yo‘nalishlar, uslublar va buyuk asarlar bilan tanishadilar. Bu manbalar tasviriy san’at tarixining keng qamrovli o‘qitilishida juda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik adabiyotlarda esa, tasviriy san’at tarixini o‘qitishda zamonaviy metodik yondashuvlar, talabalarni dars jarayonida faollashtirish, vizual vositalardan foydalanish, interaktiv metodlar yordamida san’at asarlarini tahlil qilish usullari ko‘rsatib berilgan. Jumladan, M.Tursunov, G.Abdullayeva kabi pedagoglarning ilmiy-uslubiy qo‘llanmalarida darslarda san’at tarixidan foydalanish talabalarda estetik bilimlarni shakllantirishda samarali yo‘l ekanligi ta’kidlangan. [2; 35]

Tahlil qilingan adabiyotlar asosida xulosa qilish mumkinki, tasviriy san’at tarixini o‘qitish jarayonida talabalar san’atni nafaqat ijodiy jarayon sifatida, balki jamiyat hayoti, tarixiy rivojlanish va inson tafakkurining mahsuli sifatida qabul qilishga o‘rgatiladi. Bu esa ularda keng dunyoqarash, tarixiy-estetik tafakkur va madaniy ongni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda san’at tarixining o‘rni va ahamiyatini chuqur yoritishda ilmiy-nazariy yondashuvlar va zamonaviy pedagogik metodlar muhim o‘rin tutadi. Mazkur mavzuning metodologik asoslarini quyidagi tamoyillar va yondashuvlar tashkil etadi:

1. Tarixiylik tamoyili. Tasviriy san’at tarixini o‘qitishda tarixiylik tamoyili asosiy metodologik negizlardan biridir. Har bir san’at asarining vujudga kelish davri, tarixiy sharoiti va u davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat tahlil qilinadi. Bu talabalarga san’at asarini to‘laqonli tushunishga yordam beradi.

2. Madaniy yondashuv. San’at tarixini madaniyat kontekstida o‘qitish orqali talabalar insoniyatning madaniy merosini anglaydi. Milliy va jahon madaniyatining o‘zaro ta’siri, ularning san’atdagi ifodasi va taraqqiyot yo‘llari tahlil qilinadi. Bu yondashuv talabalarda madaniy qadriyatlarni qadrlashni shakllantiradi.

3. Integrativ yondashuv. Tasviriy san’at tarixi boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lanadi: tarix, adabiyot, falsafa, musiqa, me’morchilik va boshqalar. Integratsiya orqali talabalar san’atni kengroq, chuqurroq va tizimli ravishda tushunadilar.

4. Estetik-tarbiyaviy yondashuv. Tasviriy san’at tarixi talabalarni estetik did va badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metodologiya talabalarni san’atni tushunishga, go‘zallikni qadrlashga va mustaqil badiiy baho bera olishga o‘rgatadi.

5. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Talabalarni dars jarayonida faollashtirish, ularni san’at asarlarini tahlil qilishga, muhokama qilishga va baholashga jalb qilish orqali dars samaradorligini oshirish. Bu esa talabalarda mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuv ko‘nikmasini rivojlantiradi.

6. Vizual va interaktiv metodlardan foydalanish. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish, virtual galereyalar, onlayn muzey ekskursiyalari, slayd-shoular va video materiallar orqali san’at asarlarini vizual tarzda o‘rgatish talabalarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va tushunishni osonlashtiradi.

7. Tadqiqot va tahlil metodlari. Talabalarni san’at asarlarini tadqiq qilishga o‘rgatish, ularning tarixiy, estetik, badiiy xususiyatlarini tahlil qilishni o‘rgatish orqali mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tasviriy san’at tarixini o‘qitishda metodologik yondashuvlarning uyg‘unligi talabalarni ko‘proq jalb qiladi, ularning bilim saviyasini oshiradi, ijodiy salohiyatini rivojlantiradi va san’atni anglash madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda san’at tarixi o‘rni

Bo‘lim	Tavsif	Vizual obraz (rasm uchun tavsiya)
1. Tarixiy kontekstni tushunish	O‘quvchilar davr ruhini, madaniy muhitni tushunadi, bu esa san’at asarlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.	Qadimgi davr san’ati (masalan, freskalar, qoya rasmlari)
2. Ustozlardan ilhom olish	Buyuk rassomlarning asarlarini o‘rganish o‘quvchilarni ilhomlantiradi va ijodiy qiziqishini oshiradi.	Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo kabi ustozlarning portretlari yoki asarlari
3. San’at uslublari va oqimlari	Realizm, impressionizm, kubizm kabi oqimlarni o‘rganish orqali o‘quvchilar ko‘proq uslublar bilan tanishadi.	Turli uslublardagi asarlarni ketma-ketlikda ko‘rsatish (masalan: Monet, Picasso)
4. Madaniy merosni saqlash	San’at tarixini o‘rganish orqali o‘quvchilarda madaniy merosni qadrlash hissi shakllanadi.	Muzey ko‘rinishi yoki tarixiy yodgorliklar
5. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish	San’at asarlarini tahlil qilish orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi va estetik didi rivojlanadi.	San’at tahlili jarayoni – o‘quvchilar muhokamada
6. Zamonaviy san’atga ko‘prik	Tarixni bilgan holda, zamonaviy san’atni chuqurroq tushunish imkoniyati yaratiladi.	Zamonaviy san’at galereyasi yoki zamonaviy rassomlar asarlari

Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda tasviriy san’at tarixining ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, san’atning tarixi va uning o‘quv jarayonidagi o‘rni haqida qimmatli ilmiy natijalarga erishildi. Tadqiqotning asosiy yakunlari quyidagicha bo‘ldi:

1. Tasviriy san’atning ta’limdagi o‘rni: Tasviriy san’at fanlari talabalarga estetik qabul qilish, ijodkorlik va vizual tafakkurni rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni o‘rganishga yordam beradi. San’at tarixini o‘rganish, talabalarda mustahkam estetik idrokni shakllantiradi, ularning dunyoqarashini kengaytiradi va o‘ziga xos fikrlash uslubini rivojlantiradi.

2. San’at tarixining ta’limdagi metodik roli: Tasviriy san’at tarixini o‘rganish nafaqat san’at asarlarini tahlil qilish, balki talabalarda tarixiy-madaniy kontekstni anglashga yordam beradi. Tarixiy asarlarni o‘rganish jarayonida talabalar turli davrlar va madaniyatlar haqida tushuncha olishadi, bu esa ularning san’atga nisbatan qiziqishini va ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi.

3. Innovatsion pedagogik yondashuvlar: Tadqiqotda zamonaviy pedagogik metodlarni, jumladan, interaktiv va multimediya yondashuvlarini san’at tarixini o‘qitishda qo‘llashning samaradorligi tasdiqlandi.

Talabalarga tarixiy asarlarni tahlil qilish orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish va ularga mustaqil ijod qilish imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

4. Amaliy tavsiyalar: Tadqiqot asosida tasviriy san’at tarixini o‘qitishda innovatsion metodlarni joriy etish, talabalarda estetik va ijtimoiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi. San’at asarlarini o‘rganishda muzeylar, ekskursiyalar, interaktiv darslar va san’at dasturlarini qo‘llash, talabalarda san’atga bo‘lgan qiziqishni oshirishda muhim omil bo‘ladi.

5. Kelgusidagi istiqbollar: O‘quv jarayonida tasviriy san’at tarixining o‘rganilishi davomida yangi metodlar, texnologiyalar va pedagogik uslublar rivojlanishi kutilmoqda. Kelajakda san’at ta’limini yanada takomillashtirish uchun ko‘proq interaktiv va kreativ yondashuvlarga e’tibor qaratish zarur.

Shunday qilib, tasviriy san’at tarixining o‘qitishda o‘rni muhim bo‘lib, u talabalarga san’atni anglash, ijodiy fikrlash va madaniy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Tadqiqot natijalari san’at o‘qituvchilari va ta’lim tizimining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda san’at tarixining o‘rni beqiyos ahamiyatga ega ekanligi o‘quv jarayonini chuqur tahlil qilish orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. San’at tarixini o‘rgatish orqali nafaqat o‘quvchilarga san’at asarlarini tushuntirish, balki ularni badiiy tafakkur, estetik did va ijodiy yondashuv asosida tarbiyalashga erishiladi. Bu jarayon o‘quvchilarni milliy va jahon madaniy merosiga hurmat ruhida tarbiyalaydi, ularning tarixiy xotirasini mustahkamlashga, milliy g‘ururini oshirishga xizmat qiladi.

San’at tarixi tasviriy san’atni chuqurroq anglash imkonini berib, san’at asarlarining yaratilish sharoitlari, uslublari, mazmun-mohiyati va ularning jamiyatdagi o‘rnini tushunishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va zamonaviy san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’atni o‘qitishda san’at tarixini o‘rgatish – bu nafaqat bilim berish, balki estetik tarbiya, madaniy qadriyatlarni singdirish, badiiy didni shakllantirishning samarali usulidir. Shu bois, san’at tarixini o‘quv dasturlariga keng tatbiq etish va uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘qitish dolzarb vazifalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar:

1. Gombrich, E.H. San’at tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti (tarjimasi). 2007.
2. Qodirov B. Tasviriy san’at nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: “Sharq nashriyoti”. 2019.
3. Ergashev M., Karimov R. Tasviriy san’at tarixi. Toshkent: “Fan va texnologiya”. 2021.
4. Sharipova D. San’atshunoslik asoslari va tasviriy san’at metodikasi. Toshkent: “Ilm ziyo”. 2020.
5. Xudoyqulova G. Pedagogik mahorat va san’at ta’limi metodikasi. Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2018.

MILLIY NAQQOSHLIK VA UNING MAKTABLARI

Soxibov Raxmonali Jumadilayevich,
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
rahmonali2803@gmail.com

Mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalashda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ulkan ma’naviy boylik tarixiy, adabiy-badiiy manbalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy ta’lim jarayonida vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik imkoniyatlari hamda o‘quvchilarning vatanga sodiq shaxs sifatida shakllanishi indikatorlarini aniqlash yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish bu boradagi izlanishlarning natijaviyligini ta’minlaydi. San’at estetik ehtiyojlarni qondirish, ommaning estetik jihatdan o‘ziga xizmat qilishi lozimligini chuqur his etamiz. Inson ijod qilgandagina, bevosita san’at asarlari yaratgandagina san’atkor bo‘lib qolmay, u san’at asarlarini idrok etayotganida ham ijodkor ekanligini tushunishga yordam beradi. Shuning uchun hozirgi kunda moddiy, ma’naviy boyligimiz, san’at asarlarini idrok etish va tahlil qila olishga o‘rgatish muhim zaruriyatga aylandi. San’atda, shu jumladan, amaliy san’atda naqqoshlik san’ati muhim ahamiyatga ega. Insonni ma’naviy tafakkurini o‘stirishga, estetik go‘zalligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: *naqqoshlik, amaliy san’at, naqsh maktablari, hududiy farq, zamintagi, rang koloriti, rang majmuasi, kompozitsiya, iliq kolorit, naqsh gammasi, Naqsh, naqqosh, naqqoshlik, barokko, gotika, roman, klassitsizm, kundal, zarhal, maqbara, madrasa, masjid, izora, friz, namoyon, qubba, hovuzak, vassajuft, tokcha, taxmon, kitoba, epigrafika, ibodatxona, monumental, mo‘yqalam, meros, an’ana, turunj, madoxili.*

НАЦИОНАЛЬНАЯ ЖИВОПИСЬ И ЕЕ ШКОЛЫ

Воспитывая самостоятельно мыслящую молодежь с твердой жизненной позицией, важно изучать огромное духовное богатство, созданное нашими предками, исторические, литературные и художественные источники. Разработка методических рекомендаций по выявлению педагогических возможностей патриотического воспитания в процессе художественного образования и показателей сформированности учащихся как личностей, преданных Родине, обеспечит эффективность исследований в этом направлении. Мы глубоко убеждены, что искусство должно удовлетворять эстетические потребности и эстетически служить обществу. Это помогает нам понять, что человек является художником не только тогда, когда он творит, непосредственно создавая произведения искусства, но и тогда, когда он воспринимает произведения искусства. Поэтому сегодня насущной необходимостью стало обучение детей ценить и анализировать наши материальные и духовные богатства, произведения искусства. Живопись имеет большое значение в искусстве, в том числе и прикладном. Она способствует развитию духовного мышления человека и развитию эстетической красоты.

Ключевая слова: *Живопись, прикладное искусство, школы живописи, региональные различия, фон, цветовая палитра, цветовой комплекс, композиция, теплый цвет, гамма узоров, Узор, роспись, живопись, барокко, готика, роман, классицизм, кундаль, позолота, мавзолей, медресе, мечеть, изора, фриз, проявление, купол, пруд, ваза, двустишие, ниша, тахмон, книжный шкаф, эпиграфика, храм, монументальный, мазок, наследие, традиция, турундж, мадахили.*

NATIONAL PAINTING AND ITS SCHOOLS

In educating young people with independent thinking and a firm life outlook, the study of the immense spiritual wealth created by our ancestors - historical, literary and artistic sources - is of great importance. The development of methodological recommendations on the pedagogical possibilities of patriotic education in the process of art education and the identification of indicators of the formation of students as loyal individuals will ensure the effectiveness of research in this area. We deeply feel that art should satisfy aesthetic needs and serve the public aesthetically. It helps to understand that a person is not an artist only when he creates, directly creates works of art, but also when he perceives works of art. Therefore, it has become an urgent necessity to teach our material and spiritual wealth, the ability to perceive and analyze works of art. In art, including applied art, the art of painting is of great importance. It serves to cultivate a person's spiritual thinking and develop aesthetic beauty.

Keywords: *painting, applied art, schools of painting, regional differences, background, color palette, color complex, composition, warm color, pattern range, pattern, baroque, gothic, roman, classicism, kundal, zarhal, mausoleum, madrasa, mosque, izora, frieze, manifestation, dome, pond, pair, niche, takhmon, bookcase, epigraphy, temple, monumental, brush, heritage, tradition, turunj, madakhili.*

Kirish. Xalq amaliy san’ati ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, misgarlik, kashtachilik, gilamdo‘zlik, zargarlik, zardo‘zlik, kulolchilik, naqqoshlik kabi bir qancha turlarga ajraladi. Bu san’at turlarining barchasi o‘zining uzoq tarixi va istiqboliga ega.Amaliy san’at turlari o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farq qilsa-da, lekin ro‘zg‘orda qo‘llanilishiga ko‘ra o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiradi. O‘zbek xalq amaliy san’ati insoniyat madaniyatida o‘ziga xos muhim o‘rinni egallaydi. O‘zbek xalq amaliy san’ati ustalari yaratgan yuksak san’at namunalari turli-tuman o‘yma, to‘qima naqshinkor buyumlar o‘tmishda ham, hozir ham dunyoga mashhur bo‘lib, jahonning turli shaharlaridagi amaliy san’at va etnografiya muzeylarida namoyish etilmoqda. Bularning hammasi biz- hozirgi avlodlar uchun benihoya huzurbaxsh faxr manbaidir. Kishilarga estetik ta’sir qilishda xalq amaliy san’ati muhim afzalliklarga ega. Tasviriy san’at, adabiyot, musiqa faqat san’at sifatida namoyon bo‘lsa, amaliy san’at namunasi badiiy asar bo‘lishi bilan birga, zarur uy-ro‘zg‘or buyumi sifatida ishlatiladi. U inson hayotiga chuqur kirib boradi, unga shart-sharoitlar yaratadi. Har kuni muttasil ta’sir ko‘rsatib, uning ma’naviy olamini boyitadi, ruhiyatini tarbiyalaydi, badiiy didini shakllantiradi. Shuning uchun xalq amaliy san’ati yosh avlodni g‘oyaviy, estetik, ahloqiy tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Ma’lumki, mavjud barcha san’at turlari o‘z o‘quvchilariga, tinglovchisiga yoki tomoshabiniga o‘tkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy ta’siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. Shu o‘rinda amaliy bezak san’ati turlarining fazilatlari juda amaliy va o‘ziga hos bo‘lib, ularni boshqa hech narsa bilan almshtirib bo‘lmaydi. Ya’ni, bunday san’at asarlari ayni chog‘da ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Yaqin o‘tmishda o‘zbek amaliy bezak san’atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog‘och, suyak va tosh o‘ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo‘zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo‘yrachilik kabi turlarining o‘ziga hos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalari, o‘ziga xos maktablari, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari unutila borilib, alal oqibat yo‘q bo‘lib ketish havfi ostida qolgan edi. Bunday holat hozirgi kunda san’atkorlar, xalq ustalari, muallimlar va san’at havaskorlari oldiga amaliy bezak san’atini saqlab qolish, ularni har tomonlama o‘rganish va rivojlantirish yosh avlodga san’at sir-asrorlarini o‘rgatish orqali o‘rinbosarlar tayyorlash, san’at asarlarini keng targ‘ib qilish orqali jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga erishish vazifalarini qo‘yadi. Bu maqsadlar yo‘lida olib boriladigan ishlar xalq ustalari, san’atkorlar uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarning badiiy ta’lim olishlari, san’atni egallashlarini tashkil etish, to‘g‘ri ilmiy-metodik yo‘nalishda ish olib borish, san’atkor – pedagoglar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish, tegishli ilmiy tadqiqotlarni olib borishdan iborat bo‘lishi kerak.

Naqsh turlari haqida so‘z yuritishdan oldin naqsh haqida ma’lumotni berib o‘tamiz. Naqsh so‘zi arabcha “**nuqushun**” so‘zidan olingan bo‘lib, naqsh, o‘yma degan ma’noni anglatadi. Tabiatdagi o‘simlik elementlari,gul, barg, navda, shoh, turli hayvon va parrandalarning soddalashtirilgan (stilizatsiya) tasvirlari va boshqalardan bir tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezak. Xalq amaliy san’atining barcha turlarida naqqoshlikning sodda va murakkab turlaridan foydalanib, har xil yo‘llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o‘yib, chizib, tirnab, zarb bilan, tikib, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Dunyoning qaysi bir joyiga bormang, o‘sha xalqqa xos, o‘sha o‘lkaning tabiatiga, geografik o‘rniga mos, o‘simliklar dunyosiga ko‘ra shakllangan naqsh namunalarini uchratasiz. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uning bargi, qirg‘iz va qozoqlarda qoramol shoxi, shimol xalqlarida archa va baliq, o‘zbek va tojik xalqlarida anor, qalampir, bodom, turli gullar va boshqalarni ramziy naqsh sifatida ishlatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Yevropa mamlakatlarida barokko, rokokko, gotika, roman uslublari har xil davrlarda hukmron bo‘lgan. Bu esa o‘z navbatida naqqoshlik san’atining rivojlanishiga ta’sir etgan.

Naqsh o‘zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamrox bo‘lib kelgan. Eng oddiy prinsiplari bir-biriga mutanosiblik, uyg‘unlik, yo‘sin va usullarni ajoyib qayta-qayta takrorlashuvidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e’tibor berib, uning tabiiyligini yo‘qotmaganlar, har bir element ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir naqsh zamirida biron bir ma’lum ramziy ma’no singdirilgan. Arxiologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, XI–XII asrlarda O‘zbekiston hududida naqshlar ichida geometrik naqsh ko‘p ishlatilgan. **Geometrik naqsh** - girihli naqsh deb yuritiladi. **“Girih”** so‘zi forschada “chigal“, “tugun” degan ma’nolarni anglatadi. Geometrik (handasaviy) naqsh muayyan taqsimlarga ega. Har bir taqsim o‘z tuzilishiga ega bo‘ladi. Girih O‘rta Osiyo va Yaqin Sharqda keng tarqalgan naqsh turi bo‘lib, XII –XVI asrlarda ayniqsa O‘rta Osiyoda juda keng taraqqiy etgan. Pokiston, Turkiya, Ispaniya, Xitoy, Yaponiya kabi

mamlakatlarda ham keng tarqalgan. Hususan O‘rta Osiyoda girihning juda ko‘p turlari mavjud. Bunday naqshlarni me’moriy obidalardan tortib, qadimiy nodir qo‘lyozma kitoblarda ham uchratishimiz mumkin. Ulardagi bunday geometrik naqshlar shunday aniqlik bilan ishlanganki, ko‘rgan kishini lol qoldiradi. O‘sha zamonlardagi ustalar uchun girihni chizmachilik asboblari va matematik formulalar asosida ishlashlarining o‘zi chinakam ilmiy kashfiyot bo‘lgan. Bu naqshlarni yaratgan ustalar matematika fanidan chuqur bilimga ega kishilar bo‘lishgan. Olimlarimiz ana shu girih ishlash sirlarini topish maqsadida ko‘p izlanishlar qilsalarda,bu jumboqni yechimini topa olmaganlar. Chunki qadimgi davr ustalari bunday naqsh ishlashni sir deb bilib, hech qanday yozma man’ba qoldirmaganlar. Shuning uchun ham otadan-bolaga o‘tib keyinchalik unutib yuborilgan. Lekin sharqning mashhur olimlaridan Abdulvafo al Buzjoniy (940 – 998) o‘zining kitoblarida 20 ga yaqin geometrik naqshlar chizish to‘g‘risida yozib qoldirgan. Bularda girihni ba’zi oson yo‘llarini tushuntirib o‘tgan. Masalan uning kitoblarining birida qurilish va handasaviy naqsh usuli haqida bitilgan (bu kitob hozirda Fransiya muzeylaridan birida saqlanmoqda). Abdulvafo al Buzjoniy o‘z asarlarida girih chizish usullarini keltirib o‘tgan bo‘lsa-da, girih yechimi haqida ma’lumotlar berilmagan. U o‘zining kitobida kvadratni uchga, beshga bo‘lishning eng oson yo‘llarini keltirganki, bu o‘z davri uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu o‘rinda amerikalik olimlarning tadqiqotlari haqida eslab o‘tishni joiz deb topdim. “Sayns” jurnalining shu yilgi fevral sonida bosilgan amerikalik olimlar Piter Lu hamda Paul Steynxardtning o‘rta asr islom me’morchiligi haqidagi maqolasi ilmiy shov-shuvga aylandi. Maqola mualliflarining fikricha, o‘rta asr maqbara, masjid va saroylarining devorlarini bezab turuvchi koshinkor naqshlar asosida XX asrning 70- yillarida yevropalik olim Rojer Penrouz kashf etgan geometrik qonunlar yotadi. Binobarin, o‘rta asr me’morlari yevropalik hamkasblaridan bir necha asrga o‘zib ketishgan.

Hozirgi zamon fanidagi ko‘plab kashfiyotlar singari bu ixtiro ham tasodifan ro‘y berdi, gap shundaki, Garvard universitetining aspiranti Piter Lu sayyoh sifatida 2005-yilda O‘zbekistonga kelgan edi. U Samarqand obidalarining devoriy naqshlariga termulib boqar ekan, uning ko‘z o‘ngida murakkab Penrouz geometrik shakllari namoyon bo‘ladi. U o‘z yurtiga qaytgach, taxminlari haqida diplom ishi rahbari, Prinston universiteti professori Paul Steynxardtga so‘zlab berdi. Shundan so‘ng o‘rta asr musulmon me’morchiligi yodgorliklaridagi devoriy bezak va naqshlarning tuzilishini sinchiklab o‘rganish Piter Lu taxminlarining to‘g‘riligini tasdiqlab, yuqorida tilga olingan ilmiy maqolaning yaratilishiga sabab bo‘ldi”. Muhimi shundaki, bu kashfiyot olimlar va san’atshunoslarga tarixiy obidalarimizni o‘rganishda yangi yo‘nalish ochib berdi. Masalaga kengroq qarasak, nafaqat naqshlar shakllarida, balki yodgorliklarning tuzilishi va mutanosibliklarida jahonda ancha keyin ma’lum bo‘lgan yoki hanuzgacha noma’lum bo‘lib turgan qandaydir ijodiy yechimlar, hattoki, qonuniyatlarning topilishi ehtimoldan yiroq emas. Girihli naqsh chizish o‘ta katta savodxonlikni talab etgani uchun bunday ishga hamma ustalar ham qo‘l uravermagan. O‘sha davrda girih ishlashni bilgan ustalar yetuk ustalar hisoblangan.

Girihli naqsh o‘simliksimon naqshlardan farq qiladi. O‘simliksimon naqshlar tabiatdan barg, gul, novda va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan soddalashtirib olingan shaklidir. Girihli naqsh esa tabiiy shakllarning umumiy shakli olinib, geometrik shaklga keltirilganidir. Geometrik naqsh elementlari to‘rt qismdan, uchburchak, to‘rtburchak, ko‘pburchak va egri chiziqlardan iborat bo‘ladi. Shunday geometrik shakllardan ko‘plab girihli naqshlar tuzish mumkin. Naqqoshlikda naqsh elementlari taqsimlarga bo‘linadi. Ana shu taqsimlarning takrorlanishidan naqsh kompozitsiyasi hosil qilinadi. Yangi girih kompozitsiyasini quyidagi tartibda yaratish mumkin:

a) Girih elementlarini kombinatsiyalash asosida;
b) To‘rtburchaklar kombinatsiyasi asosida;
c) Uchburchaklar kombinatsiyasi asosida;
d) Muntazam ko‘pburchaklar kombinatsiyasi asosida;
e) Egri chiziqlar kombinatsiyasi asosida.

Har bir girih necha qirrali yulduz bilan ishlangan bo‘lsa, o‘shanday nomlanadi: masalan, besh raxli, olti raxli, sakkiz raxli va hokazo.

Girih nashqlari ham o‘z elementlariga ega. Geometrik naqsh elementlari to‘rt ‘qismdan: uchburchaklar, to‘rtburchaklar, ko‘pburchaklar va egri chiziqlardan tashkil topadi. Shu girih elementlari yordamida minglab naqshlar yasash mumkin. Girih ham naqsh turlari singari taqsim deb ataladigan juda oddiy yoki murakkab bo‘lgan elementlardan tashkil topadi. Shu taqsimlarning takrorlanishidan tugal naqsh kompozisiyasi hosil qilinadi. Girihlar to‘rsimon va yulduzsimon bolib, yulduz qirralarining soni bilan xarakterlanadi. Gulli girih murakkab naqsh turi bo‘lib, islimi va girih tarkibiy qismlarining qo‘shib ishlashdan hosil bo‘lgan naqshdir.

Girih tuzilish kompozitsiyasi bilan o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lib, qaysi elementlardan tuzilishiga qarab nomlar bilan ataladi. Agar girih 5 qirrali yulduzdan iborat bolsa, besh raxli girih deb yuritiladi. Xuddi shunday shu shaklning qirralari sonining o‘zgarishi bilan girih 5 va 6 qirrali yulduzsimon

elamentlardan iborat bo‘lsa, uni besh-olti raxli girih deb ataladi. Agar 6 va 10 qirrali yulduzsimon elamentlardan iborat bo‘lsa, oltiyu-o‘n raxli girih deb nomlanadi. Agar 5, 8 va 12 qirrali yulduzsimon elementlardan iborat bo‘lsa, besh-sakkiz-o‘n ikki raxli girihlar deb nomlanadi va hakozo.

Mamlakatimizda iste’dodli qo‘li gul xalq amaliy san‘at ustalari Mahmud Usmonov, Zokir Bositxonov, Anvar Ilhomov, Komiljon Karimov, Umar Toxirov, Ziyovuddin Yusupov, Hayotilla Abdullaev va boshqalarning zamonaviy muhtasham binolarni bezatishda qo‘llagan girihlari o‘zining soddaligi, original va mukammalligi bilan ajralib turadi.

Islimiy naqsh. Islimiy – o‘simliksimon shakldagi takrorlanuvchi taqsimlardan tuzilgan asosiy naqsh turi. Naqsh asosini tanob, band, barg, gul va butalar tashkil qiladi. Islimiy bir-biriga uzluksiz ulanib, o‘ralib ketadigan chirmoviqsimon, o‘simliksimon naqshlarning takrorlanishidan tashkil topadi. Shuning uchun ba’zan ustalar uni o‘rama yoki o‘simliksimon naqsh deb ham ataydilar. Islimiy naqshning turlari ko‘p. U qaysi shakl bilan to‘ldirilsa, shu shakl nomi bilan atalgan: islimiy barg, islimiy bargak, islimiy bofta, islimiy gul, islimiy zanjira, islimiy madohil, islimiy mehrob va boshqa yuzdan ortiq sodda va murakkab turlari mavjud. Bu naqsh turlari yanada ko‘payib bormoqda. Islimiy naqshlarning bu hunarmandchilik rivojlangan shaharlar nomi bilan atalgan turlari ham bor: masalan, Isfahoniy islimiy, Arabiy islimiy, Mashhadiy islimiy va boshqalar. Turli davrlarda yashagan xalq ustalari yangi-yangi islimiy naqsh turlarini yaratgan va buyumlar bezagi (ganchkorlik, naqqoshlik, yog‘och o‘makorligi, misgarlik, zardo‘zlik, kulolchilik, gilamchilik, kashtachilik va h.k.) da keng qo‘llagan. Shuningdek, uni yanada jozibali qilish maqsadida naqshlarda qo‘shimcha materiallardan foydalanishgan. Masalan, zargarlik, kandakorlik va misgarlikda qimmatbaho toshlar, qahrabo va boshqalar qadalgan. Bu uslub O‘rta Osiyo, Yaqin Sharq, Hindiston, Eron, Turkiya, Afg‘oniston ustalari tomonidan keng qo‘llanilgan. Islimiy naqshning usta naqqoshdan katta tajriba va mahorat talab qiladigan murakkab xillari ham bor. Xiva (Paxlavon Mahmud maqbarasi gumbazi bag‘allari), Buxoro,Samarqand (Registon ansambli, Sherdor madrasa ravoqi, mehrobi), Toshkent, Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon shaharlarida yog‘och o‘ymakori (A.Abdurahimov va b.) , misgar (Abdulla hoji va b.), zardo‘z (N.Aminov va b.), ganchkor, kashtado‘z ustalar ishlarida keng qo‘llanilgan, hozir ham islimiy naqshlardan keng foydalanilmoqda. Xalq ustalaridan S.Mahmudov, J.Hakimov, T.To‘xtaxo‘jayev, O,Fayzullayev, N.Ibrohimov, M.Usmonov, K.Karimov va boshqalarning ishlarida buni ko‘rish mumkin. Shuningdek kitob va jurnallarni bezashda ham islimiy naqsh xillari keng qo‘llaniladi. Bu sohada grafik rassom I. Ikromovning xizmatlari katta.

Murakkab (gulli girix) naqsh– islimiy va girih elementlarining chatishmasidan iborat naqsh turi. Murakkab naqshlar girih shakllari va o‘simlik elementlarining birga qo‘shib tuzilgan naqsh kompozitsiyasi natijasida hosil qilinadi.

Bezakli san’atning eng keng tarqalgan shakli bo‘lmish naqqoshlik insoniyat madaniyatining hamma bosqichlarida unga hamroh bo‘lib kelgan.

Madoxil – (arabcha – ostona, kirish, eshik) chapurost takrorlanuvchi islimi naqsh turi, u kompozitsiyada chiqish nuqtasi, ya’ni manbai, ildizi, asosi yoki o‘zagi bo‘lib hisoblanadi. Madoxili ko‘rinishi jihatidan xilma -xil bo‘lib, g‘uncha, lola, gul, uch barg va boshqa shakllardan iborat. Ana shu shakllarning orasiga naqqoshlar har xil gullar kiritib o‘ziga xos nom qo‘yganlar. Masalan: madoxili lola – g‘uncha, lola shakliga yaqin qilib ishlangan madoxili naqsh turi; qo‘sh madoxili — lola, g‘uncha, gul va boshqa shakldagi madoxilining biri yuqoriga, biri pastga qaratib chiqilgan nusxasi; madoxili islimi — naqshning taqsimini, asosini madoxili shakli egallovchi islimi naqsh turi. Madoxili naqshlari arxitekturada, yog‘och, ganch, tosh, mis o‘ymakorligida, naqqoshlikda, kashtado‘zlikda va boshqalarda keng tarqalgan. Madoxili turlari borgan sari ko‘payib bormoqda va zamonaviy binolarning uy–ro‘zg‘or buyumlarini bezashda keng qo‘llanilyapti.

Munabbat – arabcha o‘stirmoq degan ma’noni beradi. Naqshning asosi kvadrat yoki to‘g‘ri to‘rtburchakdan tashkil topgan bo‘lib, taqsimi to‘rt tomonga takrorlanadigan simmetrik naqsh turi. Asosan katta yuzalarni bezashda foydalaniladi. Munabbatning o‘simliksimon, geometrik va boshqa turlari bor. Uning “Munabbati mehrob”, “Munabbati bofta”, “ Munabbati islimi”, “ Munabbati girih” va boshqa nomlari bor.

Turunj – arabcha «limon» degan ma’noni bildiradi. Ruscha medalon, naqshlarda kompozitsiyaning markaziga chiziladigan naqsh turi. O‘rta Osiyoda o‘ziga xos ko‘rinishga va mazmunga ega bo‘lib, qadimdan ishlatilib kelinadi. Turunj naqshning ko‘rinishi, limon shaklida bo‘lgani uchun uni shunday deb yuritiladi. Turunj hech qanday naqshga ulanmay muallaq turadigan kompozitsiya bo‘lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan. Uning hozirda doira, 5–10 raxli yulduz, oval, romb, ellips shakllari bor. Turunj nusxasi 4, 8 yoki 16 ga bo‘linadi. Naqqoshlar ko‘pincha to‘rtburchakli kompozitsiya chetiga oddiy naqsh, ya'ni, ruta ishlab o‘rtasiga turunj ishlaydilar. Turunj ko‘pincha devor o‘rtasiga, shift markaziga, kashta, gilam markazlariga bajariladi. Usta turunj ulgisini tayyorlashda qog‘ozni 4, 8 yoki 16 ga buklab bir bo‘lagiga

nusxa chizadi. Shu naqsh chiziqlarini ignada teshib, so‘ngra qog‘oz yoyilsa, qolgan bo‘laklariga ham nusxaning takrori hosil bo‘ladi. Tayyorlangan turunj nusxasini kerakli yuzaga tushuriladi.

Anorgul – naqqoshchilikda, kulolchilikda, misgarlik, kashtachilik va shu singari turlarida ishlatiladigan o‘simliksimon naqshdir. Anorgul naqshi qadimdan ishlatilib kelinayotgan naqsh turi bo‘lib, ko‘pincha Farg‘ona naqshlarida ayniqsa ko‘p uchraydi. Bu naqsh turi hayotdagi to‘qchilik va to‘kin–sochinlik, serfarzandlilik ramzi sifatida ifodalangan. Anorgul naqsh kompozitsiyasida anorning ikki xil, tabiiy va soddalashtirilgan(badiiylashtirilgan) uslubda chiziladi.Tabiiy usulda tabiatda qanday bo‘lsa shunday tasvirlaydilar, soddalashgan usulda esa stillashtirilgan naqsh uslubida tasvirlanadi. Anor tasvirlangan bu naqshda anorning ko‘pincha ichki qismini, anor donachalarini ham ko‘rsatib tasvirlaydilar. O‘simliksimon naqshlari esa tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g‘uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma’lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan hosil qilingan.

Namoyon – forscha ko‘rinish, manzar degan ma’noni anglatadi. Namoyon hech narsaga ulanmaydigan mustaqil kompozitsiya bo‘lib, murakkanb naqsh hisoblanadi. Uning o‘simliksimon, geometric, gulli girih, ramziy va boshqa turlari bor. Namoyon simmetrik va asimmetrik tuzilishga ega bo‘ladi.

Barcha xalq amaliy san’atida bo‘lgani kabi, naqqoshlikda ham hududiy farqlanishlar bor. Barcha viloyatlardagi mavjud tarixiy yodgorliklardagi, amaliy san’at buyumlaridagi naqshlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bir xil uslubda ishlangan ishlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu tabiiy hol albatta. Chunki o‘sha davrlarda naqqosh ustalar ish axtarib turli viloyatlarga borishar, yoki buyurtma bo‘yicha binolarni bezatishda ishtirok etishgan. Shu yo‘sinda mahalliy ustalar bilan birga ishlab, tajriba almashishgan. Bu esa naqqoshlik maktablarining yanada rivoj- lanishiga, o‘ziga hos naqsh kompozitsiyalarining yaratilishiga, ranglar majmuasini yanada boyishida muhim ahamiyat kasb etgan. Naqshlar bir-biriga o‘xshab ketsa-da, har bir shahar, hudud va har bir ustaning o‘z ish uslubi, ranglar majmuasi, kompzitsiyasi farqlanib turgan.O‘tgan shu davrlar ichida yaratilgan naqsh namunalarini taqqoslab ko‘rib chiqsak, har bir tuman, viloyatning o‘ziga xos naqqoshlik maktablari bor ekanligini ko‘ramiz.O‘tgan asrlarda yaratilgan Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva naqqoshlik maktablarining ish faoliyati bizga ma’lum. Keyingi qatorlarda anashu naqqoshlik maktablari hususida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Farg‘ona naqqoshlik maktabi. Farg‘ona naqqoshlik maktabi boshqa naqqoshlik maktablaridan naqshlarning tabiatga juda yaqinligi, erkin ishlanishi, ranglarning kontrastligi , ranglarning to‘q koloritda ishlanishi bilan ajralib turadi. Farg‘ona naqshi Xo‘jand, Marg‘ilon, Qo‘qon, Farg‘ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublardan iborat. XIX asr va XX asr boshlariga mansub bo‘lgan naqshlar ko‘plab me’moriy obidalar, Qo‘qondagi Xudoyorxon o‘rdasi, Madalixon dahmasi, Dahmai Shohon va boshqa shu kabi me’moriy obida- larda ko‘rishimiz mumkin. Farg‘ona naqqoshlari girih, islimiy va gulli girih naqshlarini ko‘plab qo‘llaganlar. Naqsh kompozitsiyasini mutanosib bo‘lishiga ahamiyat berishgan. Bundan tashqari naqqoshlar tabiatdagi gul, barg, navda, g‘uncha va boshqalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishgan. Naqshlarga razm solsak, pista guli, anor guli, bodom, anor, atirgul, gulsafsar, majnuntol, bodomgul va boshqalarni ko‘rishimiz mumkin. Farg‘ona naqqoshlari chetlari chiroyli hoshiyalangan, ichiga islimiy naqsh tushirilgan, ranglari to‘q koloritli turunjni maqul ko‘rishgan. Naqsh kompozitsiyasida qo‘llanilgan gul, barg elementlari qirradorligi, o‘tkir uchli ekanligi bilan boshqa viloyat, hudud naqshlaridan farq qilgan. Farg‘ona naqsh maktabi naqqoshlari har doim to‘q rangda iliq gammada ishlashgan.

Farg‘ona naqqoshlik maktabi faoliyatida qo‘qonlik naqqosh ustalarning aytarli o‘z o‘rni bor.Ular Norqo‘zi Nurmatov, hamda ularning shogirdlaribu maktabda samarali ijod qilishgan. Najmiddinov Haydar (1850-y.Farg‘ona sh.), Norqo‘ziyev Saidmahmud (1883-y.Qo‘qon sh.),O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi Saidahmad Mahmudov(1909-y.), Alinazar Qori(Qo‘qon sh.) Husayinov Madaminxon (1928-y. Namangan sh.)kabi ustalar Farg‘ona Naqqoshlik maktabi namoyondalari hisoblanishadi.

Toshkent naqqoshlik maktabi. Toshkent naqshlari o‘zining nafisligi va ranglarning bir-biriga asta-sekin o‘tishi bilan, naqsh kompozitsiyasida ranglarning bir koloritda bo‘lishi, kompozitsiyada murakkab naqshlar ko‘p ishlatilishi bilan boshqa maktab naqshlaridan farq qiladi. Naqshlarda asosan sovuq ranglar, moviy va yashil ranglar ko‘p ishlatiladi. O‘simliksimon naqshda oygul, paxta, bofta, uch barg, shukufta, shobarg, bargli gul va boshqa elementlar ko‘p ishlatiladi. Bundan tashqari Toshkent naqsh maktabida murakkab naqsh turlaridan ko‘p foydalanishadi.

Toshkent naqqoshlik maktabining taniqli namoyondalari Qosimjanov Olimjon (1878-y.), Azimov Akbar (1886-y.), Raupov Yoqub (1888- y.), Qosimov Maqsud(1905y.), To‘xtaxo‘jayev Tohir (1918-y.), Hakimov Jalil(1920-y.),To‘rayev Maxmud (1930-y.), Nuraliyev Haydarali(1944-y.), Shukurov Sobirjon (1947-y.), Rahmonberdiyev Baxtiyor (1948-y.), Azimov Barot (1950-y.), Husanov Tohir (1953-y.),

Qosimov Yo‘ldosh (1956-y.), Avliyoqulov Muzaffar (1962-y.), Qosimov Sobirjon (1964 y.), To‘rayev Shukrullo (1967 y.), Rustamov Adibbek (1970y.),Goyipov Alisher(1970 y.), Tojiyev Ubaydullo (1971y.),Orifjonov Ulug‘bek (1971 y.),Stolyarov Vladimir(1971y.),To‘laganov Muzaffar (1972 y.), Shoaxmedov Shokarim (1972 y.), Hoshimov Javlon (1973 y.), Ubaydullayev Aziz (1976 y.), kabi ustalar yaratgan naqqoshlik san‘ati asarlari bugungi kunda ham o‘z tarovatini yo‘qotmagan.

Samarqand naqqoshlik maktabi. Samarqand naqshlari o‘ta guldorligi, barg va gullarning badiiy harakatchanligi, jonliligi bilan boshqa maktablardan farq qilsada, Toshkent va Farg‘ona naqshlariga yaqin. Naqsh kompozitsiyasida murakkab girihlarni qo‘llanilishi bilan Toshkent naqshga, o‘simliksimon naqshlarda aniq bir ritmik takrorlanuvchanligi bilan Farg‘ona naqshlariga yaqin. Avvallari naqsh kompozitsiyalarida zangori rang gammasi ko‘proq ishlatilgan bo‘lsa, hozirgi paytda yashil rangdan ko‘proq foydalanib kelinadi. Samarqand naqqoshlik maktabi yaratilishida usta Rahmonxol, usta Jamoliddin, usta Mahmud, usta Abdujabbor, usta Abduzohid, usta Sharif, usta Aminjon, keyinchalik usta Jalol va Bolta Jalilov kabi naqqoshlar bebaho hissalarini qo‘shganlar.

Buxoro naqqoshlik maktabi. Buxoro naqshi boshqa naqsh maktablaridan kompozitsiyasining murakkabligi, mukammal bajarilishi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlarida murakkab girihlar aniq, puxta o‘lchamda ishlatilishi, o‘simliksimon naqshlarning o‘ziga xos san’at bilan ishlangani, naqshlarda yaproq, gul, meva, gulbarglar ritmiga alohida e’tibor berilishi bilan farqlanadi.Naqshlar nozik islimiy o‘simliksimon va geometrik ko‘rinishdagi naqshlarda ifoda etilgan gullarning ritmik harakati orqali tuzilgan naqsh kompozitsiyalardan tashkil topgan. Bu milliy me‘morchiligimizdagi bezaklarda Mahmud Muzahhib (XV-XVI 60-yillari), Usta Nabi Hafizov (1893), Salimov Majid (1950), Hamroyev Muhammadali, Husanov Saidjon, Husanov Salim kabi Buxorolik ustalarning mohirona san’ati mujassam.

Xiva naqqoshlik maktabi. Xiva naqshi Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Buxoro naqshidan tubdan farq qiladi. Rangi jihatidan kelsak, naqshlarning umumiy rangi ko‘pincha havorang koloritda ishlanadi. Ranglar kam ishlatilsa-da, o‘ziga xos ko‘rkamlikka ega. Xiva naqshida asosan zangori va yashil ranglar ko‘p ishlatiladi. Xorazm naqqoshlari avvaldan yuzani geometrik naqshlar bilan to‘ldirib, moviy va yashil bo‘yoq berishni yaxshi ko‘rganlar. Kompozitsiyada naqshlarning tuzilishiga qaraganda, asosan novda spiralsimon aylanib-aylanib murakkab naqshlar hosil qiladi. Islimiy naqsh kompozitsiyasida novda, morg‘ula, shukufta, barg, no‘xatgul, oddiy oyguldan tashkil topadi. Bu islimiy naqshlar boshqa shaharlardagi naqqoshlik maktablaridan asosan naqshlarning dinamikaviyligi bilan farq qiladi. Ko‘pincha yulduz hosil qiluvchi girihlar ishlatilib, orasiga spiralsimon islimiy naqsh ishlatiladi. Xiva naqshlari umuman madoxili naqshlar asosida tuziladi. Keyin esa islimiy naqsh spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xorazm naqshida asosan navdalar ishtirok etadi.Gul va barg elementlari kamdan-kam foydalaniladi.Foydalanilgan gul ,barg elementlari naqshning asosini tashkil qilgan navdalar bilan bir xil, oq rangda bo‘yalganligi uchun unchalik ko‘zga tashlanmaydi. Xorazm naqqoshlik maktabining namoyandalari: Vafoyi(XVII), Abdullayev Bobojon (1880), Abdullayev Bog‘ibek(XIX), Boltayev Abdulla (1896), Masharipov Ro‘zimat (1895), Muhammad Yusuf Misriy (XIX), Ro‘zmat Masharipov (1884), Abdurazzoq o‘g‘li (1880), Said Nazar devonbegi Bolta Niyoz o‘g‘li (XIX), Boltayev Qalandar (XXasr b.), Sayidniyozov Xo‘janiyoz (XX asr), Eshmurod Sofoyev, aka-uka Vafo va Bolta Mirzaevlar va boshqalar.[1]

Xulosa. Hozirgi keskin o‘zgarishlar davrida mana shunday boy madaniyatimizga e’tibor anchayin pasayib ketgan. Barcha viloyatlarda xalq amaliy san’ati turlari bilan faqatgina oilaviy meros sifatida shug‘ullanilmoqda. Achinarlisi shundaki, amaliy san’atga munosabat texnika, texnologiyalar rivojlangan sari amaliy qo‘l mehnati mo‘jizalari oddiy xol sifatida qabul qilinmoqda.Ushbu amaliy san’at namunalari faqatgina qadimiy asori- atiqalarda, me’morchilik yodgorliklarida qolyapti xolos. O‘zbek xalq amaliy san’ati insoniyat madaniyatida o‘ziga xos muhim o‘rinni egallaydi. O‘zbek xalq amaliy san’ati ustalari yaratgan yuksak san’at namunalari turli-tuman o‘yma, to‘qima naqshinkor buyumlar o‘tmishda ham, hozir ham dunyoga mashhur bo‘lib, jahonning turli shaharlaridagi amaliy san’at va etnografiya muzeylarida namoyish etilmoqda. Bularning hammasi biz- hozirgi avlodlar uchun benihoya huzurbaxsh faxr manbaidir.

Yaqin o‘tmishda o‘zbek amaliy bezak san’atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog‘och, suyak va tosh o‘ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo‘zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo‘yrachilik kabi turlarining o‘ziga hos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalari, o‘ziga xos maktablari, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari unutila borilib, alal oqibat yo‘q bo‘lib ketish havfi ostida qolgan edi. Bunday holat hozirgi kunda san’atkorlar, xalq ustalari, muallimlar va san’at xavaskorlari oldiga amaliy bezak san’atini saqlab qolish, ularni har tomonlama o‘rganish va rivojlantirish yosh avlodga san’at sir-asrorlarini o‘rgatish orqali o‘rinbosarlar tayyorlash, san’at asarlarini keng targ‘ib qilish orqali jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga erishish vazifalarini qo‘yadi. Bu maqsadlar yo‘lida olib boriladigan ishlar xalq ustalari, san’atkorlar uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarning

badiiy ta’lim olishlari, san’atni egallashlarini tashkil etish, to‘g‘ri ilmiy- metodik yo‘nalishda ish olib borish, san’atkor – pedagoglar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish, tegishli ilmiy tadqiqotlarni olib borishdan iborat bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Bulatov S.S. O‘zbekiston xalq amaliy bezak san‘ati. – Toshkent: ―Mehnat,1991.
2. Bulatov S.S. Naqqoshlik. – Toshkent: ―Fan va texnologiya‖, 2010.
3. Amaliy bezak san‘ati mashg‘ulotlari metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2008.
4. Qo‘dirxo‘jayev P. Badiiy bezak san‘ati. – Toshkent: ―Iqtisod-moliya‖, 2008.
5. Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san‘at qisqacha lug‘ati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
6. Bulatov S.S, Tolipov T «Go‘zallik falsafasi». -T., «Fan va texnologiya». 2008
7. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. – T.: Iqtisod-moliya, 2007.

UO‘K 750

TALABALARDA BADIIY DID VA ESTETIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Temirov Murodjon Anvarovich,
Andijon davlat universiteti “Tasviriy va amaliy san’at”.
Kafedra katta o‘qituvchisi
temirov_murodjon777@mail.ru

Ushbu maqolada talabalarning badiiy did va estetik tafakkurini rivojlantirishning muhimligini, ularning go‘zallik va san’atni idrok etish qobiliyatlarini oshirishdagi o‘rni haqida fikr yuritilgan. Badiiy did va estetik tafakkur san’at asarlarini idrok etish, baholash va estetik mohiyatni tushunish bilan bog‘liq. Talabalarning badiiy didi rivojlanishi san’at ta’limi, tasviriy san’at va boshqa estetik usullar orqali amalga oshirilishi mumkin. Ma’lum qilinishicha, badiiy didning rivojlanishi insonning ijtimoiy, ma’naviy va kasbiy tarbiyasining muhim qismi bo‘lib, san’at orqali go‘zallikni qabul qilish va uning mohiyatini anglash qobiliyatini oshirishga qaratilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi talabalarning badiiy didini rivojlantirishning samarali usullari va shakllarini aniqlash, ularning san’at bilan interaktiv munosabatlarini va estetik tafakkurlarini o‘sishini ta’minlashdan iborat. Badiiy ta’lim va san’at orqali estetik rivojlanish, estetik didni shakllantirish va san’atning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish jarayonlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *san’at, ijodiy asarlar, badiiy did, estetika, tafakkur, pedagogika.*

РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВКУСА И ЭСТЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

В данной статье рассматривается важность развития художественного вкуса и эстетического мышления студентов, их роль в повышении способности воспринимать красоту и искусство. Художественный вкус и эстетическое мышление связаны с восприятием, оценкой и пониманием эстетической сущности произведений искусства. Развитие художественного вкуса студентов может осуществляться посредством художественного образования, изобразительного искусства и других эстетических методов. Отмечается, что развитие художественного вкуса является важной составляющей социального, духовного и профессионального воспитания человека и направлено на повышение способности воспринимать красоту через искусство и понимать ее сущность.

Основная цель исследования заключается в определении эффективных методов и форм развития художественного вкуса студентов, обеспечении их интерактивного взаимодействия с искусством и развития эстетического мышления. Рассматриваются процессы эстетического развития через художественное образование и искусство, формирования эстетического вкуса и понимания специфики искусства.

Ключевые слова*: Искусство, творческие произведения, художественный вкус, эстетика, мышление, педагогика.*

DEVELOPING STUDENTS' ARTISTIC TASTE AND AESTHETIC THINKING AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

This article discusses the importance of developing students' artistic taste and aesthetic thinking, as well as their role in enhancing the ability to perceive beauty and art. Artistic taste and aesthetic thinking are related to the perception, evaluation, and understanding of the aesthetic essence of artworks. The development of students' artistic taste can be achieved through art education, visual arts, and other aesthetic methods. It is noted that the development of artistic taste is an important part of a person's social, spiritual, and professional upbringing, aimed at enhancing the ability to accept beauty through art and understand its essence.

The main goal of the research is to identify effective methods and forms for developing students' artistic taste and ensure the growth of their interactive relationship with art and aesthetic thinking. The processes of aesthetic development through art education, the formation of aesthetic taste, and understanding the unique characteristics of art are discussed.

Keywords: *art, creative works, artistic taste, aesthetics, thinking, pedagogy.*

Kirish. Oliy ta’limda o‘qish davri insonning har tomonlama rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Qulay sharoitlarda talabalar psixikaning barcha darajalarini rivojlantiradilar, ular yo‘nalishni, fikrlashni belgilaydi, bu esa o‘z navbatida insonning kasbiy moyilligini tahlil qiladi. Talabalik davrida qobiliyatlar va to‘plangan tajriba aniq maqsadga, kasbiy rivojlanishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu mutaxassislikni o‘qitish davrida asosiy narsa – o‘zlashtirish uchun munosib tayyorgarlik darajasini talab qiladigan kasbiy ko‘nikmalarni tushunish istagi – rivojlangan xotira, fikrlash, idrok etish, tanlangan mutaxassislikka moyillikdir.

Zamonaviy mutaxassis oldiga yuqori talablar qo‘yiladi, shuning uchun oliy ta’limning vazifalari ham kengroq va ko‘p komponentli bo‘lib, badiiy didni shakllantirishga, ma’naviy-axloqiy munosabatlar sharoitida axloqiy va estetik toifalarni baholash qobiliyatiga, estetik tafakkurni boyitishga katta e’tibor beriladi. Shunga asoslanib, oliy ta’limning eng muhim vazifasi o‘z mamlakati, shahri, korxonasi va oilasining madaniy hayotida ishtirok eta oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir.

Talabalarning badiiy did va estetik tafakkurini rivojlantirish xususiyatlarini belgilab, ushbu tushunchalarni tavsiflash kerak. Badiiy did va estetik tafakkur ma’no va mazmun jihatidan yonma-yon turadi. Ko‘pgina olimlar bu atamalarni sinonim deb hisoblashadi. Bir nuqtayi nazarga ko‘ra, badiiy did – bu estetik tafakkurdan farqli o‘laroq, san’at asarlarini yaratadigan san’at sohasidagi mutaxassislarning qobiliyati, bu atrofdagi dunyoning go‘zalligini idrok etadigan, san’at asarlarini tushunishga qodir bo‘lgan har shaxsni anglatadi.

Ushbu shartlarni diqqat bilan ko‘rib chiqish kerak. Estetik tafakkur inson shaxsiyatining juda muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u nafaqat estetik bo‘laklarni qabul qilish, balki ularni tushunish, ularga madaniy qadriyat berishdan iborat. Shunday qilib, estetik tafakkurni shaxsning ma’lumotlarni tanlash, shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga olib keladigan maxsus, estetik jihatdan qimmatli ma’lumotlarni aniqlash qobiliyati sifatida aniqlash mumkin. Rivojlangan estetik tafakkurga ega bo‘lgan shaxs – bu dunyoga o‘ziga xos ma’naviy qarashga ega bo‘lgan shaxs.

Talabalarning badiiy va estetik tarbiyasini pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida belgilab, uning xususiyatlarini ta’kidlash kerak (A. Semaki [15]).

“Aniq, dasturlashtiriladigan ijtimoiy-kasbiy yo‘nalish, uning mazmuni ziyolilarning turli xil ijtimoiy-kasbiy rollariga tayyorgarlikdir.

Talabalar ongi va mavjudligining ustun ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: obro‘-e’tibor, kelib chiqishi, kiritilgan madaniy turlarning xilma-xilligi, ijtimoiy maqomning vaqtliligi, kundalik hayotning kollektivligi, aloqa intensivligi va boshqalardan iborat.

Talabalar o‘z rivojlanishida ikki tomonlama ijtimoiylashuvdan o‘tadilar, unga ko‘ra estetik tafakkur rivojlanishining ikki darajasi shakllanadi. Birlamchi ijtimoiylashuv talabalarning oliy maktab tizimidagi yangi ijtimoiy mavqe (talaba) va uning maqomiga, psixologiyasiga, turmush tarziga va boshqalarga mos keladigan ijtimoiy me’yorlarni egallash va rivojlantirishdan iborat. Ikkilamchi ijtimoiylashuv doktorantura davridan iborat” [15].

Estetik imtiyozlar, badiiy qarash va did, olim L.N. Koganning fikricha, inson shaxsiyatining eng samimiy nuanslaridan biri, uning ichki dunyosining eng muhim tarkibiy qismidir. Uning fikricha, zamonaviy san’atdagi badiiy oddiylik hayotda to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘pollikka olib kelishi mumkin, chunki insonning ma’naviy madaniyatiga asta-sekin va har doim ham sezilmaydigan kirib borish jarayoni mavjud [10].

Fransuz estetik olimi Sharl Batte estetik tafakkurni tabiatga ham, insonning o‘ziga ham yaqin bo‘lgan alohida davlat sifatida belgilaydi. Uning ta’kidlashicha, estetik tafakkur insonning tug‘ma xususiyati bo‘lib, aql bilan taqqoslanadi, ammo aql tabiatan xuddi shu narsaning go‘zalligini topadigan diddan farqli o‘laroq, obyektdagi haqiqatni izlaydi. Rivojlangan tafakkur sizga asarlar yaratish, ijodiy asarning bir qismi bo‘lish, go‘zallar haqidagi hukmlar asosida uni to‘g‘ri baholash imkonini beradi, u faqat zavq uchun, yoqimli his-tuyg‘ular va tajribalarni yetkazish uchun mavjud [9].

Asosiy qism. Badiiy didni badiiy asarlarda estetik did deb tushunish mumkin. Bu tushunchalar insonning go‘zallik haqida o‘ylashdan haqiqiy zavq olish va xunukni ongsiz ravishda rad etish, o‘zini go‘zallik bilan o‘rab olishga intilish qobiliyatiga o‘xshaydi. Yomon did go‘zallikka mutlaqo befarqlik, uni inkor etish, xunuk va ehtimol shafqatsizlarga hamdardlik sifatida ta’riflanadi. Insonning didi yaxshi rivojlangan, yomon rivojlangan yoki hatto yomon bo‘lishi mumkin, uning rivojlanish darajasi haqiqiy san’at asarlarini arzon va soxtasidan ajrata olish qobiliyati bilan baholanishi mumkin.

Yuqoridagi mezonlarga asoslanib, badiiy didni rivojlantirishning yuqori darajasi go‘zallik, san’at asarlarini idrok etish va sifat jihatidan baholash qobiliyatini ifodalaydi, deb ta’kidlash mumkin. U quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

* chinakam go‘zal san’at namunalariga qiziqish, ularni tushunishning klassik darajasi;

* badiiy asarni syujet kabi aniq omillarga asoslanib emas, balki uning semantik yukini ko‘rish va baholash qobiliyati;

* soxta va surrogatlardan san’at asarlari o‘rtasidagi farqni ko‘rish qobiliyati.

Haqiqiy san’at obyektlariga murojaat qilish badiiy didning muvaffaqiyatli rivojlanishiga ham ta’sir qiladi, chunki bu uning sifatini baholash ijobiy bo‘lsa, go‘zallik haqida o‘ylashdan zavqlanishni o‘z ichiga oladi. Teskari natija bilan, ongsiz ravishda, did yoqtirmaydigan narsani rad etadi. U san’atga o‘ziga xos munosabat, psixikaning o‘ziga xos yo‘nalishi, ko‘nikma va qobiliyatlarni o‘z ichiga olgan badiiy va psixologik munosabat asosida ma’lum mezonlarga ko‘ra tanlaydi. Ba’zi hollarda did psixologik munosabat ishini kuchaytiradi, boshqalarida u o‘z faoliyatini to‘xtatadi. Insonning did darajasi uning o‘ziga xos, individual imtiyozlari bilan emas, balki jamoat ongida belgilangan san’at mezonlari va xususiyatlariga moyilligi, ushbu mezonlarga tayanib, uning sifatini baholash qobiliyati bilan tavsiflanadi. Shuning uchun yaxshi badiiy didning mavjudligi insonning subyektiv bahosining badiiy qiymatni aniq obyektiv baholashga mos kelishida ifodalanishi mumkin [18].

Ko‘p sonli olimlar badiiy didni tarbiyalash insonning san’at asarlarini idrok etish qobiliyatiga bo‘ysunadi, degan fikrga qo‘shiladilar. Shunday qilib, san’atni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish orqali inson estetik tafakkur va badiiy didni rivojlantiradi va dunyoga o‘ziga xos individual qarashni chuqurlashtiradi. Badiiy ko‘rish asab tizimi mexanizmlarining intensivligini faollashtiradi: to‘g‘ridan to‘g‘ri aks ettiruvchi va intellektual, reproduktiv va samarali, ularning yozishmalari esa turli darajadagi idroklarda farq qiladi. Shuning uchun to‘liq idrok etish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar ham har xil bo‘ladi.

Badiiy didni rivojlantirishning barcha vizual shakllaridan tasviriy san’at katta ta’sir ko‘rsatadi. Uning estetik tarbiyadagi roli hammaga ma’lum. Uning ulkan salohiyati mustaqil estetik ta’limning asosi bo‘lishi mumkin, shuningdek har qanday o‘quv jarayonini ko‘paytirishi mumkin.

Tasviriy san’at ta’siri ostida badiiy didning tarkibiy qismlari ma’lum psixologik va pedagogik sharoitlarni amalga oshirish orqali rivojlanishi mumkin. Birinchi shart (badiiy idrok etish qobiliyatini shakllantirish uchun haqiqiy san’at asarlarini namoyish etish) talabalarning san’atga bo‘lgan qiziqishini rivojlantiradi, ikkinchi va uchinchi shart – tasviriy san’atdan foydalanish orqali san’at asarlarini retseptor darajasida idrok etishga har tomonlama munosabatni shakllantirish, masalan, portret janri shaxsiyat psixologiyasini tushunishning asosiy prinsipi sifatida idrok va baholash darajasini rivojlantirishga imkon beradi.

Talabalarning badiiy didini rivojlantirishning ushbu variantining ijobiy natijasi barcha psixologik va pedagogik shartlarning bajarilishiga bog‘liq.

Talabalarning badiiy didi va estetik tafakkurini rivojlantirishning eng muhim shakli – bu ularning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etishdir, shuning uchun bu ularning o‘qishdan bo‘sh vaqtlari va undan ijodiy shaxsiy rivojlanish, yoshlarning bo‘sh vaqtini ma’naviy boyitish uchun oqilona foydalanish kerak. Zamonaviy oliy ta’limdagi o‘quv jarayoni talabadan barcha intellektual imkoniyatlardan faol foydalanishni talab qiladi, bu esa hissiy stressni olib tashlashni talab qiladi. Talabalarning bo‘sh vaqtlari maksimal foyda keltirishi uchun uni nihoyatda estetiklashtirish kerak.

Talabalarning badiiy didini rivojlantirishning juda samarali shakli badiiy ta’lim fakultetlari, masalan, xalq ijodiyoti, kompyuter grafikasi, dizayn, rangtasvir va boshqalar bo‘lishi mumkin. Talabalar salohiyatidan yanada samarali foydalanish uchun badiiy didni rivojlantirishning eng ko‘p tashkiliy shakllari, yo‘llari va usullarini amalga oshirish muhimdir.

San’at orqali did har bir insonga jamiyat tomonidan tasdiqlangan me’yorlarni olib keladi va umume’tirof etilgan mezonlarni, badiiy me’yorlarni shakllantiradi. Badiiy did u shakllangan muhitga bog‘liq va uning o‘zgarishi bilan o‘zgaradi [16].

Badiiy did tafakkur bilan uzviy bog‘liqdir [12]. Estetik tafakkur haqiqatga aylanadi, chunki u odamlarning ijodiy faoliyatida mujassamlanadi. Tafakkur faqat badiiy ijodda badiiy va majoziy aks ettirish orqali mazmun bilan to‘ldiriladi.

Tadqiqotchilarning asarlarida “badiiy did” tushunchasi ko‘pincha “estetik did” toifasi orqali ochiladi [8].

Bir qator asarlarda bu tushunchalar sinonim sifatida berilgan yoki bu didlarning asosiy farqlovchisi voqelik obyektlarini qamrab olish chegaralari hisoblanadi: badiiy did estetik didga nisbatan kengroq ta’sir doirasiga ega. V.K. Skatershikov badiiy didni estetik didning muhim jihatlaridan biri deb hisoblashadi [17].

Qobiliyatlar – bu o‘ziga xos ichki “quvvat”, shaxsning salohiyati, lekin u ongli ravishda ma’lum bir faoliyatda va shu bilan birga estetik talablarga javob beradigan eng yaxshi usullarda, texnikalarda namoyon bo‘lishi kerak.

Biz badiiy ijod jarayonlarining mazmunini tashkil etuvchi badiiy faoliyatning to‘liqligini emas, balki badiiy asarlarni idrok etish, tushunish va baholash qobiliyatlarini ochish, qayta tiklash bilan bog‘liq bo‘lgan shartli ravishda tanlangan faoliyat shakllari va usullarini nazarda tutamiz. Gap san’at asarlarini hissiy xayoliy idrok etish, ularni tushunish va ijoddagi did normalari va standartlarini qayta tiklashga qaratilgan tadbirlar haqida bormoqda.

Shaxsning estetik rivojlanishi, birinchi navbatda, badiiy didda namoyon bo‘ladi. U estetik subyektning ijtimoiy-madaniy muhit bilan munosabatlarining xususiyatini belgilaydi, badiiy faoliyatda shaxsning o‘zini o‘zi anglashiga yordam beradi. Shaxsning nisbiy mustaqilligini va individual badiiy didni shakllantirish jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsga aylanish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydigan tadqiqotchilar haqdir [11].

Bizning fikrimizcha, badiiy did ma’naviy va amaliy faoliyatning sifat xarakteristikasi bo‘lib, odamlarning badiiy amaliyotga ijodiy munosabatini aks ettiradi va aniq tarixiy sharoitda san’atni idrok etish va bilish qobiliyatlarini anglaydi.

Badiiy didning rivojlanishini belgilovchi asosiy manba – bu butun jamiyat yoki muayyan ijtimoiy guruhlar va shaxslar darajasida nima, tafakkur va uning amaliy timsoli o‘rtasidagi ziddiyatdir. Badiiy faoliyatning stereotipi va uning individuallik ifodasi sifatida o‘ziga xosligi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar badiiy didni rivojlantirishda bir xil darajada muhim rol o‘ynaydi.

Badiiy did – bu murakkab ma’naviy tarbiya. Ilmiy adabiyotlarda didni san’at turlari bo‘yicha tuzish odatda qabul qilinadi: teatr, adabiy, musiqiy va boshqalar. Ikkinchisi musiqaning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanadi. Bu shaxsning musiqiy madaniyati darajasini ifodalaydi. Bu musiqaga baholovchi munosabat, shu jumladan, musiqani estetik his qilish, uning mazmunini idrok etish, zavqlanish, qadrlash, atrofdagi hayot bilan bog‘liq holda tushunish va eng yaxshi namunalarni tanlash qobiliyatidir.

Biz badiiy didning tuzilishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi, deb hisoblaymiz:

- hissiy va sezgi qobiliyatlari (hissiy reaksiyalar, badiiy sezgirlik, intuitiv tushunish va boshqalar.);
- badiiy va xayoliy fikrlash;.
- badiiy asarlar va badiiy amaliyotning boshqa hodisalarini baholashni ta’minlaydigan badiiy qarashlar;.
- didning barqarorligini ta’minlaydigan badiiy e’tiqodlar;
- san’atga tanlangan munosabatni, badiiy qimmatli tanlovni ta’minlaydigan badiiy imtiyozlar;.
- shaxsning ma’naviy salohiyatini aks ettiruvchi badiiy da’volar;
- badiiy normalar;
- badiiy asarlarni badiiy bilishga va badiiy ijodda o‘zini namoyon qilishga qaratilgan badiiy faoliyat tajribasi.

Dining ijtimoiy maqsadi funksiyalarda amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, badiiy didning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat: aksiologik (badiiy qadriyatlarni baholash va tanlash o‘lchovi bo‘lish), tartibga solish (odamlarning estetik amaliyotida badiiy me’yor yoki me’yor bo‘lib xizmat qilish), ta’limiy, kognitiv, kommunikativ (aloqa vositasi bo‘lish), hedonistik (quvonch, zavq keltirish uchun).

Badiiy didning kognitiv imkoniyatlari shaxsning shaxsiy tajribasini va shaxsning ma’lum bir ijtimoiy-madaniy muhit, ijtimoiy jamoalar va umuman ushbu jamiyat vakili sifatida san’at bilan muloqot qilishda o‘rgangan bilimlari, badiiy tushunish usullarini aks ettiradi.

Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, ushbu tadqiqotda badiiy did va estetik tafakkurni rivojlantirish estetik madaniyatning individual, faol va ijodiy qismlarini o‘zgartirishga qaratilgan ataylab tashkil etilgan faoliyatga asoslangan o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi muloqotning yagona pedagogik jarayoni sifatida qaraladi. Ushbu jarayon maqsadli, mazmunli va tashkiliy faoliyat elementlari bilan tuzilgan.

Xulosa. Badiiy did va estetik tafakkur talabalar uchun juda muhim bo‘lib, ular san’at asarlarini to‘g‘ri baholash va g‘oyalarni tushunishda katta rol o‘ynaydi. Badiiy did, estetik tafakkur bilan birgalikda, san’at asarlarini qabul qilish, tushunish va baholash qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa talabalarni yuqori sifatli mutaxassislar sifatida shakllantiradi.

Talabalarning badiiy didini rivojlantirishda tasviriy san’at, estetik ta’lim va vaqtni samarali tashkil etish kabi usullar katta ahamiyatga ega. Badiiy didning shakllanishi va rivojlanishi, shu jumladan estetik ta’lim va san’at tarixi bilan tanishish, talabalar uchun zaruriy bo‘lib, ularning estetik va badiiy qobiliyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, badiiy did va estetik tafakkur, insonning ichki dunyosini boyitadi va ularning badiiy madaniyatini shakllantiradi. Bu jarayon, har bir talabada o‘ziga xos, individual estetik qarashlarni rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy didning rivojlanishi, uning ijtimoiy va madaniy muhit bilan aloqasi orqali amalga oshadi va bu muhitning o‘zgarishi bilan badiiy did ham o‘zgaradi.

Oliy ta’limda badiiy didni rivojlantirish, talabalarni faqat kasbiy jihatdan emas, balki estetik va madaniy jihatdan ham yuqori darajada tayyorlashga yordam beradi. Bu esa ularning san’at, madaniyat va estetik qadriyatlarni to‘g‘ri anglashlariga va ulardan samarali foydalanishlariga imkon yaratadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF – 5712-son «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni. // https: lex.uz/ru/docs/4312785. ’
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ – 3907-son «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. // https: lex.uz/docs/3864155.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustdagi PQ– 3920-son «O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. // https: lex.uz/docs/3882752.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF – 4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. // https: lex.uz/docs/3107036.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi. // https: uza.uz/uz/posts/adabiyet-va-sanat-madaniyatni-rivozhlantirishkhal-imiz-mana-03-08-2017.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagi PQ – 3212-son «O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori. // https: lex.uz/docs/3311829.
7. Ананьев, Б.Г. Психология педагогической оценки: избранные психологические труды в 2 т. Т.2./под ред. А.А. Бодалева, Б.Ф. Ломова, И.В.Кузьминой .-М.:Педагогика, 2015.-232с.
8. Золкин *А.П.* Эстетика. М., 2008.
9. Кошелева, Л. Ю. Проблема развития художественного вкуса будущих педагогов/ Л.Ю.Кошелева//Мир науки, культуры, образования.-2013.-№6(43).-С.59-61
10. Лекси, Санделл. Акриловая живопись: рисуем цветы: иллюстративное руководство по изображению 40 видов растений [Текст] / Санделл, Лекси. – М.: «Издательство Арт-Родник», 2008. – 128 с.
11. Молчанова А.С. Междисциплинарный характер и категориальный статус понятия «эстетический вкус» // Эстетические категории: формирование и функционирование. Петрозаводск, 2011. С. 40-48
12. Никитина И.П. Эстетика. М., 2012.
13. Панкевич Г.И. Музыка и идеология. М., 2011
14. Разумный В.А. О хорошем художественном вкусе. М., 2001.
15. Семашко, А.Е. Система и принципы эстетического воспитания: сб. статей / А.Е. Семашко; под ред. М.Ф. Овсянникова. – М.: Высшая школа, 2010. – 248с.
16. Сидоренко, В. Ф. Образование: образ культуры [Текст] / В. Ф. Сидоренко // Социально-философские проблемы образования. – М., 2012. – 142с.
17. Скатерщиков В.К. Художественная культура. Понятия. Термины. М., 2005.
18. Эстетическая культура и эстетическое воспитание: кн.для учителя/ сост. Г.С. НикитинаЛабковская.-М.:Просвещение, 2003. -225с.

IQTISODIY TA’LIM VA TARBIYA

SPORT SOHASI UCHUN IQTISODIY KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIK MAHORATLARINI OSHIRISH YO‘LIDAGI YANGI INNOVATSION METODLAR

Madaminov Hurshidjon Xomidovich,
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali o‘qituvchisi

Bu maqola sport sohasi uchun iqtisodiy kadrlar tayyorlash va pedagogik mahoratni oshirishda qo‘llaniladigan yangi innovatsion metodlarni o‘rganadi. Maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim platformalari va sport sohasidagi iqtisodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagoglarning malakasini oshirishda klaster tizimi, masofaviy ta’lim va interfaol usullarning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida sport sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun innovatsion yondashuvlarning samaradorligi va ularni amaliyotga joriy etish yo‘llari bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar*: sport sohasi, iqtisodiy kadrlar, pedagogik mahorat, innovatsion metodlar, raqamli ta’lim, klaster tizimi, masofaviy ta’lim, interfaol usullar, malaka oshirish.*

НОВЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПОДГОТОВКИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КАДРОВ И ПОВЫШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА ДЛЯ СПОРТИВНОЙ ОБЛАСТИ

В статье рассматриваются новые инновационные методы, используемые при подготовке экономических кадров и совершенствовании педагогического мастерства для спортивной сферы. В статье анализируются реформы, реализуемые в системе образования Узбекистана, современные педагогические технологии, цифровые образовательные платформы, стратегии, направленные на развитие экономических компетенций в сфере спорта. Также будет рассмотрено значение кластерной системы, дистанционного обучения и интерактивных методов в повышении профессионального мастерства педагогов. Результаты исследования дают предложения по эффективности инновационных подходов к подготовке конкурентоспособных кадров в спортивной сфере и путям их внедрения на практике.

Ключевые слова: *спортивная сфера, экономические кадры, педагогическое мастерство, инновационные методы, цифровое образование, кластерная система, дистанционное обучение, интерактивные методы, повышение квалификации.*

NEW INNOVATIVE METHODS FOR TRAINING ECONOMIC STAFF AND IMPROVING PEDAGOGICAL SKILLS FOR THE SPORTS FIELD

This article examines new innovative methods used in training economic personnel and improving pedagogical skills for the sports sector. The article analyzes the reforms being implemented in the education system of Uzbekistan, modern pedagogical technologies, digital educational platforms and strategies aimed at developing economic competencies in the sports sector. It also examines the importance of the cluster system, distance learning and interactive methods in improving the skills of teachers. The research results provide suggestions on the effectiveness of innovative approaches to training competitive personnel in the sports sector and ways to implement them in practice.

Keywords: *sports sector, economic personnel, pedagogical skills, innovative methods, digital education, cluster system, distance learning, interactive methods, advanced training.*

Kirish. Sport sohasi zamonaviy jamiyatda nafaqat sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish vositasi, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida ham qaralmoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda malakali kadrlar tayyorlash va pedagoglarning professional mahoratini oshirish muhim ahamiyatga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2017–2025-yillarda qabul qilingan qator qaror va farmoyishlar, xususan, “Jismoniy

tarbiya va sport sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmon (2021) sport sohasida zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini joriy etishga yo‘naltirilgan.

Sport sohasida iqtisodiy kadrlar tayyorlash masalasi sohaning moliyaviy samaradorligini oshirish, sport infratuzilmasini boshqarish va xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishish uchun muhimdir. Shu bilan birga, pedagogik mahoratni oshirish orqali o‘qituvchilar va murabbiylarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan jihozlash, ularning o‘quvchilarga motivatsiya berish va innovatsion usullarni qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirish zarur. Ushbu maqola sport sohasi uchun iqtisodiy kadrlar tayyorlash va pedagogik mahoratni oshirishda qo‘llaniladigan yangi innovatsion metodlarni tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Maqsadi – sport sohasida kadrlar tayyorlash va pedagogik mahoratni oshirishda innovatsion metodlarning samaradorligini o‘rganish, ularni amaliyotga joriy etish yo‘llarini aniqlash hamda O‘zbekiston ta’lim tizimida ushbu jarayonlarni optimallashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdir. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar tahlili, ilmiy maqolalar sintezi va amaliy tajribalar tahlili qo‘llaniladi.

1. Sport sohasida iqtisodiy kadrlar tayyorlashning nazariy asoslari

1.1. Iqtisodiy kadrlar tushunchasi va ularning sport sohasidagi roli

Iqtisodiy kadrlar sport sohasida moliyaviy resurslarni boshqarish, sport infratuzilmasini rivojlantirish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish va tadbirlarni tashkil etish kabi vazifalarni bajaradigan mutaxassislarni o‘z ichiga oladi. Ushbu kadrlar sport tashkilotlari va muassasalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda sport sohasining iqtisodiy jihatlari, xususan, futbol akademiyalari va sport majmualarini moliyalashtirish masalalarida bir qator muammolar mavjudligi ta’kidlanmoqda.

Iqtisodiy kadrlar tayyorlashda quyidagi kompetensiyalar muhim hisoblanadi:

- **Moliyaviy boshqaruv**: Sport tashkilotlarida byudjetni rejalashtirish va xarajatlarni optimallashtirish.
- **Marketing va PR**: Sport tadbirlarini targ‘ib qilish va homiylar jalb qilish.
- **Tashkiliy boshqaruv**: Musobaqalar, turnirlar va sport infratuzilmasini samarali boshqarish.
- **Innovatsion texnologiyalar**: Raqamli platformalar orqali sport xizmatlarini rivojlantirish.

1.2. O‘zbekistonda sport sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimi

O‘zbekistonda sport sohasi uchun kadrlar tayyorlash O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining “Taekvondo va sport faoliyati” fakulteti kabi oliy ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda sirtqi va masofaviy ta’lim tizimlari joriy etilib, kadrlar tayyorlash jarayoni yanada kengaytirildi.

Sport sohasida iqtisodiy kadrlar tayyorlashda quyidagi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi:

1. Sport tadbirlarini tashkil etish va boshqarish.
2. Sport infratuzilmasini moliyalashtirish va modernizatsiya qilish.
3. Raqamli texnologiyalarni sport sohasiga integratsiyalash.

2. Pedagogik mahoratni oshirishda innovatsion metodlar

2.1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati

Pedagogik mahoratni oshirish sport sohasida o‘qituvchilar va murabbiylarni zamonaviy ta’lim metodlari bilan jihozlashni anglatadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali o‘quvchilarda motivatsiya hosil qilish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va dars jarayonida interfaol usullarni qo‘llash mumkin.

O‘zbekistonda pedagogik mahoratni oshirishda quyidagi innovatsion metodlar qo‘llanilmoqda:

- **Interfaol ta’lim usullari**: Case-study, loyihaviy ta’lim, muammoli o‘qitish.
- **Raqamli platformalar**: “Uzluksiz kasbiy ta’lim” platformasi orqali onlayn malaka oshirish.
- **Klaster tizimi**: Ta’lim muassasalari va biznes tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

2.2. Masofaviy ta’lim va raqamli texnologiyalar

Masofaviy ta’lim pedagoglarning malakasini oshirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonda “Uzluksiz kasbiy ta’lim” platformasi orqali pedagoglar onlayn kurslarda qatnashib, zamonaviy ta’lim metodlarini o‘zlashtirmoqdalar. Bu platforma quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- Moslashuvchanlik: Pedagoglar o‘zlariga qulay vaqtda ta’lim olish imkoniyatiga ega.
- Keng qamrov: Turli hududlardan pedagoglar bir xil sifatli ta’limga ega bo‘lishadi.
- Interfaol resurslar: Video darslar, testlar va virtual sinf xonalari.

Raqamli texnologiyalar sport sohasida ham keng qo‘llanilmoqda. Masalan, sportchilarning jismoniy holatini tahlil qilish uchun sun’iy intellekt asosidagi dasturlar va virtual reallik (VR) texnologiyalari murabbiylarga mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishda yordam bermoqda.

3. Sport sohasida innovatsion metodlarning amaliy qo‘llanilishi

3.1. Klaster tizimi orqali kadrlar tayyorlash

Klaster tizimi ta’lim muassasalari, sport tashkilotlari va biznes sektori o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda klaster tizimi asosida ingliz tili o‘qitishda muvaffaqiyatli tajribalar qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu model sport sohasiga ham moslashtirilmoqda. Klaster tizimining afzalliklari:

- Amaliy tajriba: Talabalar sport tashkilotlarida real loyihalarda ishtirok etadilar.
- Ishbilarmonlik bilan integratsiya: Sport sohasidagi biznes talablariga mos kadrlar tayyorlanadi.
- Resurslar almashinuvi: Ta’lim muassasalari va sport klublari o‘zaro resurslardan foydalanadi.

3.2. Motivatsiyani oshirishda innovatsion yondashuvlar

O‘quvchilar va sportchilarda motivatsiyani oshirish pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismidir. Innovatsion metodlar orqali motivatsiyani oshirish uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi:

- **Gamifikatsiya**: Mashg‘ulotlarni o‘yin formatida tashkil etish orqali qiziqish uyg‘otish.
- **Mentorlik**: Tajribali murabbiylar yosh sportchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.
- **Ilhomlantiruvchi tadbirlar**: Xalqaro musobaqa g‘oliblarining tajribalari bilan tanishtirish.

3.3. Sport infratuzilmasini boshqarishda iqtisodiy kadrlarning roli

Sport infratuzilmasini samarali boshqarish iqtisodiy kadrlarning asosiy vazifalaridan biridir. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sport majmualari va stadionlar qurilishi tezlashdi, ammo ularning moliyaviy samaradorligi va foydalanish darajasi pastligi muammo sifatida qolmoqda. Iqtisodiy kadrlar quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borishi mumkin:

- Byudjetni optimallashtirish: Qurilish va jihozlash xarajatlarini kamaytirish.
- Homiylik jalb qilish: Xususiy sektor bilan hamkorlikni rivojlantirish.
- Raqamli marketing: Sport tadbirlarini onlayn platformalarda targ‘ib qilish.

4. Tadqiqot natijalari va takliflar

4.1. Tadqiqot natijalari

Tahlil natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. O‘zbekistonda sport sohasi uchun iqtisodiy kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanmoqda, ammo biznes talablari va zamonaviy texnologiyalarga moslashishda muammolar mavjud.
2. Pedagogik mahoratni oshirishda raqamli platformalar va interfaol usullar samarali natijalar bermoqda, lekin bu jarayon mamlakatning barcha hududlarida teng ravishda qamrab olinmagan.
3. Klaster tizimi sport sohasida kadrlar tayyorlashni amaliyot bilan bog‘lashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Jadval 1:

Sport sohasida iqtisodiy kadrlar tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	**Tavsif**	**Amaliy qo‘llanilishi**
Moliyaviy boshqaruv	Byudjet rejalashtirish, xarajatlarni optimallashtirish	Sport majmualarining moliyaviy samaradorligi
Sport marketingi	Tadbirlarni targ‘ib qilish, homiylar jalb qilish	Xalqaro musobaqalarni tashkil etish
Raqamli texnologiyalar	Onlayn platformalar orqali sport xizmatlarini rivojlantirish	Virtual mashg‘ulotlar va tahlil dasturlari

4.2. Takliflar: Sport sohasida kadrlar tayyorlash va pedagogik mahoratni oshirishni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflar keltiriladi:

1. **Ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish**: Sport sohasidagi iqtisodiy kadrlar uchun maxsus kurslar, xususan, sport marketingi va raqamli boshqaruv bo‘yicha dasturlarni joriy etish.
2. **Masofaviy ta’limni kengaytirish**: “Uzluksiz kasbiy ta’lim” platformasini sport sohasiga moslashtirib, murabbiylar va o‘qituvchilar uchun maxsus modullar ishlab chiqish.
3. **Xalqaro tajriba almashinuvini rivojlantirish**: xorijiy sport akademiyalari bilan hamkorlikda murabbiylar va iqtisodiy kadrlar uchun stajirovka dasturlarini tashkil etish.
4. **Klaster tizimini kengaytirish**: Sport klublari, ta’lim muassasalari va biznes tashkilotlari o‘rtasida doimiy hamkorlikni ta’minlash uchun maxsus platformalar yaratish.

Jadval 2:

Pedagogik mahoratni oshirishda innovatsion metodlar

Metod	**Afzalliklari**	**Kamchiliklari**
Interfaol usullar	O‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi,	Ko‘proq resurs va tayyorgarlik talab

	mustaqil fikrlashni rivojlantiradi	qiladi
Masofaviy ta’lim	Moslashuvchan, keng qamrovli	Internet va texnik jihozlarga bog‘liqlik
Klaster tizimi	Amaliyot bilan bog‘lanishni ta’minlaydi	Tashkiliy murakkablik

Xulosa: Sport sohasi uchun iqtisodiy kadrlar tayyorlash va pedagogik mahoratni oshirishda innovatsion metodlar zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismidir. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli ta’lim platformalari va klaster tizimi kabi yondashuvlar ushbu jarayonni yanada samarali qilmoqda. Shu bilan birga, ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish, masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro tajribadan foydalanish orqali sport sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni yanada rivojlantirish mumkin. Ushbu maqolada keltirilgan takliflar O‘zbekiston sport sohasining iqtisodiy va pedagogik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Yusupova, N. N. (2023). Klaster sharoitida ingliz tilini tezkor o‘qitishning aralash ta’lim texnologiyalari. ResearchGate.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni (2021).
3. Maqolada jismoniy tarbiya va sport muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar (2024). ResearchGate.
4. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘zini-o‘zi rivojlantirishning pedagogik asoslari (2023). ResearchGate.
5. “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi (2024). Academia.edu.
6. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tarkibida “Taekvondo va sport faoliyati” fakultetini tashkil etish to‘g‘risida (2017). Lex.uz.
7. Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish imkoniyatlari (2024). ResearchGate.

UO’K 37013

TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TARIXIY ILDIZLARIDAN ZAMONAVIY RIVOJLANISH SARI

Ravshanova Ziyoda Nuraliyevna,
Navoiy davlat universiteti, “Pedagogika”kafedrasi o`qituvchisi
ravshanovaziyoda77@gmail.com

Ushbu maqolada qomusiy olimlarimizning tadbirkorlik, savdo-sotiq, tijorat to`g`risidagi ilmiy hamda tajribaviy merosi tahlil qilindi. O‘rta asrlardagi hayotiy voqealar asosidagi amaliy ishlar bayoni keltirilgan. Bahouddin Naqshband, Sohibqiron Amir Temur, Bobur, Alisher Navoiy, Kaykovus kabi mutafakkirlarning qarashlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bugungi kundagi tadbirkorlik va tijorat faoliyatining inson hayotidagi ahamiyati, uning faoliyat sohalari hamda jamiyat hayotidagi o`rni tadbirkorlik ilmini bilish zarurligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: *tadbirkorlik, savdogarlik, savdo-sotiq, Naqshbandiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Kaykovus*

ОТ ИСТОРИЧЕСКИХ КОРНЕЙ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ К СОВРЕМЕННОМУ РАЗВИТИЮ

В данной статье проанализировано научное и практическое наследие наших ученых-энциклопедистов в области предпринимательства, торговли и коммерции. Представлено описание практической деятельности, основанной на жизненных событиях средневековья. Приведены сведения о взглядах таких мыслителей, как Бахауддин Накшбанд, Сахибкиран Амир Темур, Бабур, Алишер Навои и Кайковус. Освещено значение предпринимательства и коммерческой деятельности в жизни человека, рассмотрены сферы ее применения и роль в жизни общества, а также подчеркнута необходимость изучения науки предпринимательства.

Ключевые слова: *предпринимательство, торговля, коммерция, Накшбанди, Амир Темур, Алишер Навои, Кайковус*

FROM THE HISTORICAL ROOTS OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY TOWARDS MODERN DEVELOPMENT

This article analyzes the scientific and practical heritage of our encyclopedic scholars regarding entrepreneurship, trade, and commerce. It presents an account of practical works based on real-life events from the Middle Ages. The article provides information on the views of prominent thinkers such as Bahauddin Naqshband, Amir Timur, Babur, Alisher Navoi, and Kaykovus. Furthermore, it discusses the significance of entrepreneurship and commercial activities in human life today, their areas of operation, and the importance of understanding the science of entrepreneurship in society. The article emphasizes the necessity of acquiring knowledge about entrepreneurship and its role in contemporary life.

Keywords: *entrepreneurship, trading, commerce, Naqshbandi, Amir Temur, Alisher Navoi, Kaykovus*

Kirish. Mamlakatimizda tub ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar davrida yosh avlodni tarbiyalash masalasi jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda o‘z-o‘zidan aniqki, yoshlar orasida erkin va ijodiy mehnatda yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo`lgan iqtisodiy bilimlarga va iqtisodiy manfaatli faoliyatning barcha sohalarida tadbirkorlik faoliyatini egallab olishga intilish kuchaydi. Bundan tashqari, xususiy tadbirkorlik va o`rta mulkdorlar sinfi mamlakatda shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchi hisoblanadi.

Prezidentimiz 2017-yil 7-yanvardagi mamlakatimiz prokuratura sohasining bir guruh xodimlari bilan uchrashuvida hayotiy haqiqatni barchamizga yana bir bor eslatib, “Tadbirkor boy bo‘lsa, davlat ham, xalq ham boy bo‘ladi” deb ta’kidladi. “Tadbirkor bola-chaqasidan qiyib, to‘plagan mol-mulki, pulini yangi ish ochishga sarflaydi. Bankdan kredit olsa, uni foizi bilan o‘zi to‘laydi. Shunga qaramasdan tavakkal qilib, huzur-halovatdan kechib, bor imkoniyatini, mablag‘ini xavf-xatarga qo‘yib, o‘z ishi uchun kecha-kunduz jonini berib ishlaydi. Shu yo‘l bilan nafaqat o‘zini, oilasini, balki el-yurtini ham boqadi. Shu ma’noda tadbirkor – bu haqiqiy fidoyi inson. Men bunday odamlarni, loaqal ikkita ish o‘rni yaratgan tadbirkorni boshimga ko‘tarishga tayyorman”[1]. Yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha Jahon va milliy tajribalaridan

ma’lumki, kichik biznes, tadbirkorlik subyektlari yetakchi o‘rinda turadi. Xususan, Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida bildirgan fikrlari bunga yaqqol namuna bo‘la oladi: “Oxirgi besh yilda tadbirkorlar soni qariyb 3 baravar oshdi. Ko‘p ishbilarmonlar o‘z biznesini butun mamlakat miqyosida kengaytirib, minglab ish o‘rinlari yaratib, nufuzli yirik kompaniyalarga aylandi. Ichki va tashqi bozorda o‘z nufuzli va brendiga ega tadbirkorlar sinfi shakllana boshladi”[2]. Shu sababli, Respublikamizda hamda Jahonning rivojlangan mamlakatlarida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga muhim ahamiyat berilmoqda[3]. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining bugungi kunda butun dunyo miqyosida eng foydali va maqbul mehnat faoliyatlaridan biriga aylanib borayotganligidan dalolat beradi.

Yosh avlodda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zamonaviy bilimlar bilan birga xalqimizning ulkan boyligi bo`lgan Sharq allomalarining merosini, tajriba va tavsiyalarini o`rganish hamda amaliy faoliyatiga singdirish bu sohaga kirib kelayotgan bo`lajak tadbirkorlar uchun dasturulamal vazifasini o`taydi. Har bir sohada bo`lganligi kabi tadbirkorlikda ham tarixiy tajribalarni o`rganish rivojlanishning asosi bo`lib xizmat qiladi. Chunki mutafakkirlarimiz hech bir davrda o`z ahamiyatini yo`qotmaydigan fikr-mulohazalarni, tajribasida sinalgan natijalarni meros qilib qoldirgan. Tarxiy tajriba hamda hozirgi bozor iqtisodiyotidan ma`lumki, mamlakatni rivojlantirishning asosiy shart-sharoitlaridan biri kichik biznes hamda tadbirkorlik faoliyatidir.

Asosiy qism. XI-XIII asrlarda asos solingan Xorazm davlati, Fors ko‘rfazigacha bo‘lgan hududlardagi qo‘shni xalqlar yerlarini birlashtirgan holda, Osiyo qit’asining katta qismini qamrab olgan. Milodgacha bo‘lgan II asrdan milodiy XV asrga qadar qadimiy xalqaro transport arteriyasi vazifasini bajarib, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo, O‘rta va Yaqin Sharq, O‘rta yer dengizi mintaqasi kabi hudud va mamlakatlarni bog‘lab kelgan Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati beqiyos bo‘lgan.

Buyuk Ipak yo‘li — Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo, O‘rta va Yaqin Sharq, O‘rta yer dengizi mintaqasi kabi hududlar o‘rtasida savdo-sotiq aloqalarini, balki qit’alar va davlatlar o‘rtasida axborot almashuvini ta’minlashga xizmat qildi, yangi texnologiya va ishlanmalarning (ipak, chinni buyumlar, porox, qog‘oz va boshqa ko‘plab mahsulotlar) tez tarqalishida, qishloq xo‘jaligi ekinlari va agrotexnologiyalarning, madaniy qadriyatlarning rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajardi, shu tariqa sivilizatsiyalararo muloqot va texnologiyalar almashuvi uchun shart-sharoitlar yaratdi.

Bu davrlarda turli mamlakatlar xalqlarining savdo-tijorat faoliyati orqali ilmiy bilim va yutuqlar bilan bir-birini boyitib borishi bilan Buyuk Ipak yo‘li alohida rol o‘ynadi. Buyuk Ipak yo‘li orqali Yevropaga, Yevropadan esa Osiyoga Sharq va G‘arb olamidagi moddiy va ma`naviy predmetlar tijorat sohasi tufayli ayriboshlangan.

Sharq hayotining rivojiga katta ta`sir ko`rsatgan alloma, avliyolardan biri hisoblangan Bahouddin Naqshbanddir. Bahouddin Naqshband ta`limoti bunyodkorlik ruhi bilan sug`orilgan ta`limotdir: “Dil-ba-yor-u, dast-ba-kor”. Ma`nosi “Ko`ngling Xudoda bo`lsin-u, qo`ling ish bilan bo`lsin” – degani. Bu g`oya XV – XVII asrlarda savdo, tijorat va hunarmandchilik bilan shug`ullanadigan shahar hamda ko`chmanchi charvodor aholi orasida keng yoyilgan. Bu ta`limotda inson hunar, kasb egallab, o`z mehnati bilan halol luqma yeb, kun kechirish talab qilinadi. Tilanchilik, darbadarlik bilan kun kechirish musulmon uchun isnod sanalgan. Aynan o`sha paytlarda bu ta`limot orqali inson mehnat qilishga tijorat va hunarmadchilik bilan shug`ullanishga harakatlar kuchaydi. Chunki bu ta`limotdan oldin tarkidunyochilik, tekinxo`rlik kuchaygan edi. Shu bilan birga tijorat hamda ma`lum bir kasb bilan shug`ullanish jamiyatning, insonlar iqtisodiy-ma`naviy rivojiga katta hissa qo`shgan.

Tadbirkorlik insonning yuksak darajadagi faoliyati bo‘lib, unga Amir Temur ham juda katta baho berib, “Tajribamdan ko‘rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir”[4], – deb ta’kidlaydi. Haqiqatdan ham, hozirgi zamon talabi ham shuni ko`rsatadiki, jamiyatning rivoji, iqtisodiy o`sishi va bu orqali milliy dunyoqarshning takomillashuvi ishbilarmon, shijoatli, qat’iy, tadbirkor va hushyor kishilarning tashabbusi hamda faol faoliyatiga ko`p tomondan bog`liq. Chunki tadbirkor faoliyati davomida nafaqat o`zini, balki shu xalqni ham moddiy va ma`naviy jihatdan rivojlantiradi. Mahalliy tijorat bilan birga xalqaro jabhada ham faoliyatni amalga oshiradi. Bu orqali dunyo miqyosida bo`layotgan yangiliklarni xalq hayotiga kiritib, ularning ma`naviy hayotiga sezilarli ta`sir ko`rsatmoqda.

Sohibqiron Fransiya qiroli Karl VI ga yozgan xatidagi quyidagi fikri diqqatga sazovordir: “Siz o`z savdogarlaringizni mening saltanatimga yuboring. Biz ularni iliq qarshi olib izzat-ikrom ko`rsatamiz. Biz ham o`z savdogarlarimizni sizning yurtingizga yo`llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko`rsating, ularga ortiqcha tazyiqlar qilinishga yo`l qo`ymang. Sizga bundan bo`lak talabim yo`q. Zero, dunyo savdo ahli ila obod bo`lajak”[5]. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning ma`lumot berishicha, Amir Temur G`arb mamlakatlari bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalar o`rnatar ekan, savdogarlarning diniy mansubligidan qat`iy nazar, ularni savdo erkinligi bilan ta`minlashga harakat qilgan. Chunki savdo-sotiq xalq hayotining

farovonligini ta`minlovchi asosiy omil ekanligini chuqur anglagan hamda o`zining amaliy ishlarida amalga oshirgan.

Yuksak iqtidor egasi, har sohaning bunyodkori Bobur Movarounnahrda, Hindiston va Afg‘onistonda faqat qurilish va obodonchilik bilan shug‘ullanmagan, balki tub islohot ishlarini ham olib borgan. XV — XVI asrda, undan oldin ham savdo-sotiq munosabatlari, davlatlararo bordi-keldilarning xavfsizligini ta’minlash eng katta muammo, xarajattalab masala hisoblangan. Karvon yo‘llari qulay yurtning iqtisodiy ahvoli yaxshi, xalqining tinchligi barqaror bo‘lgan. Aytish joizki, Amir Temur saltanatida bu mezon o‘rniga qo‘yilgan, biroq Sohibqiron vafotidan keyin uning qalamravidan chet yerlarda qaroqchilik hollari uchrab turgan. Ana shu masalani tubdan isloh qilish, tasarrufidagi yerlarda osoyishtalikni saqlash uchun Bobur Kobul — Ningnahor yo‘lining xavfsizligini ta’minlashni asosiy vazifa deb biladi. Keyinchalik bu ishni butun Hindiston hududida ham joriy etadi. “Bu orada ma’mura yo‘q edi» Fozila Sulaymonova “Boburnoma” ga deydi Bobur. Demak, Kobul — Ningnahor yo‘lining jo‘g‘rofiy sharoiti qiyinligi boshboshdoqlikka sabab bo‘lgan. Shu yo‘lning eng og‘ir qismida tartib o‘rnatganini, osoyishtalikni qaror toptirganini inobatga olsak, Boburning sa’y-harakatlari nechog‘li ulkan ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etganini ko‘ramiz: “Kobuldin sharq sari o‘n uch yig‘och yo‘ldur. Ningnahor bila Kobul orasi asru qattiq yomon yo‘ldur. Uch-to‘rt yerda kichikrak-kichikrak ko‘tallari, ikki-uch yerda tangilari bor. Xiridji va jami’ quttout-tariq afg‘onlardur. Bu yo‘lni ururlar edi. Bu orada ma’mura yo‘q edi. Qo‘riqsoyning oyog‘i Qoratuni men ma’mura qildurdim. Bu jihatdin yer emin bo‘ldi”[6].

Alisher Navoiyning ko‘pgina asarlari bozor iqtisodiyoti bilan bog‘langan, u o‘zining ayrim mulohazalarini asarlari orqali bayon qilishga harakat qilgan. Shuningdek, Navoiyning savdogarlar haqidagi ko‘p fikrlari o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning “Saddi Iskandariy” va boshqa asarlarida ham bozor iqtisodiyoti masalalari, masalan, savdo-sotiqdagi tosh-tarozu, xaridorlarni aldash va boshqa masalalar ko‘rsatib o‘tilgan. Bozorlar shakllanishi va iqtisodiy masalalari jihatidan juda uzoq tarixga ega. Bozorlarning kelib chiqishi milodiydan oldingi VII asrda metall pullar kelib chiqqunga qadar, iste’mol mollarining o‘zaro almashinuvi, aniqrog‘i — dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqqan davrdan boshlangan. Navoiy yashagan XV asrga kelib, har bir mamlakat, shahar, tumanda ichki bozor bo‘lgan. Bu esa Buyuk ipak yo‘li jahongashta savdogarlar uchun yangidan yangi imkoniyatlar yaratganligidan darak beradi.

Alisher Navoiy savdogarning asosiy maqsadini ochiq-oydin ravishda quyidagicha ta’riflab beradi:

“Savdogarlar boshida, — deb yozadi Navoiy, — birini yuz qilaman degan savdo, ko‘nglida bo‘zni shoyiga almashtiraman degan istak bor”. Lekin savdogarlar bu maqsadni amalga oshirish uchun syurgal (podshoh tomonidan in’om etilgan yerlar) va tarxon (soliqdan ozod qilingan aholi yerlari), ushr (islom davlatlarida soliq turlaridan biri) va vaqf (masjid va madrasalarga qarashli yerlari) yerlarida ertadan kechgacha tinmay ishlagan dehqonlar mehnati bilan hosil bo‘lgan qo‘shimcha mahsulotni o‘zlashtirishda va buning uchun keng sharoit yaratishda katta yer egalari bo‘lmish feodallarga yaqindan yordam berayotganlarini qalbdan sezadi va ularning faoliyatini tartibga solish maqsadida quyidagi nasihatlar bilan murojaat qiladi: “Savdogar yolg‘iz foydani niyat qilmasligi, foyda qilaman deb o‘zini katta mashaqqatga qo‘ymasligi, savdo qilib foyda topaman deb, dengizga kema surmasligi, dur olaman deb nahang og‘ziga qo‘l solmasligi, mol va pul ko‘paytiraman deb jonsarak bo‘lmasligi kerak. Shuningdek, nafis matolarni ayab, eski chopon kiymasligi, lazzatli taomlarni ko‘zi qiymay, qattiq non yemasligi lozim”[7]. Bu o‘rinda Navoiy ayrim savdogarlarning haddan ziyod xasisligini tanqid qilib, ularning ko‘rgan qiyinchiliklari tirikchiligini yaxshi o‘tishi uchun xizmat qilsa va topgan foydasi ko‘ngil farog‘ati uchun sarflansa, yaxshi bo‘ladi, deb ko‘rsatadi. Aks holda bunday savdogar xo‘ja emas, mardikor bo‘ladi, o‘z xasisligi bilan hamisha azob-uqubatda bo‘ladi.

Sharq mutafakkirlaridan biri sanalagna Kaykovus ham “Qobusnoma” asarida tijorat, savdo-sotiq ishlari haqida quyidagi fikrlarni bayon etgan: “Ey farzand, har holda tijorat va bozorgonlik pesha hisobida ermasdur, ammo uni yaxshi san`at desa bo`lur, chunki haqiqatda unga nazar qilsang, uning rasm-rusumi xuddi hunarmandlarning rasm-rusumiga o`xshashdir. Ulug`lar debdurlarki, bozorgonlik aqlsizlik asosiga, foyda topmoq tartibi aql asosiga qurulmish, bu – agar johillar bo`lmasa erdi, jahon vayron bo`lur edi, degan gapdur. Bu so`zdin maqsud uldurki, har kishi molini ziyoda qilmoq ta`masida bo`lsa, bir tanga uchun mag`ribdan mashriqqa borur, o`zin toqqa, daryoga urur, jonin, tannin va molin muxtoraga solar, yo`lning noimligidan, hayvonotdin (darranda, hayvondin) qo`rqmas, shuning uchun mag`ribdan mashriqqa, mashriqdan mag`ribga borib xalqqa ne`mat keltirurlar”[8]. Haqiqatdan ham, tadbirkorlik san`at darajasidadir. Uni ijodkorlik bilan yurgizish butun jamiyatning rivojiga katta ta`sir ko`rsatadi. Bu faoliyatni chuqur o`rganib, halol yo`l bilan tashkil qilmoq ham tadbirkor ham yurt uchun manfaatli bo`ladi.

Muhokama va natijalar. Sharqu G‘arbni o‘zaro bog‘lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, o‘rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olimu

shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning har sohadagi fikr-mulohazalari va tajribalari shu davrgacha ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish ham davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir” [9].

Ilm–fan, taraqqiyot avvalo, nimaga bog‘liq? O‘rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta’lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san’at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste’dodli avlodlar to’lqinining paydo bo’lishi va voyaga yetishi — bularning barchasi, birinchi navbatda, iqtisodiyot, qishloq va shahar xo’jaligining ancha jadal o’sishi, hunarmandlik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo’llar qurilishi, yangi karvon yo’llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta’minlanishi bilan bevosita bog’liq bo’lgan.

Sharq olamida, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida rivojlangan madaniyatning mavjud bo‘lgani avvalo, shu xalqning tijorat, savdo-sotiq ishlari bilan shug`ullanganligi bilan bog`liqdir. Buni esa yuqorida ko`rib chiqdikki, allomalarimiz o`sha davrda o`zlarining amaliy faoliyatida amalga oshirgan va jamiyat aholisi shug`ullanishi uchun ham imkon yaratib berilgan.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sharqning ulug‘ allomalari va mutafakkirlarining kashfiyotlari zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot poydevori. Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o‘zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o‘z–o‘zidan yuz bermaydi**.** Buning uchun avvalo asriy an’analar, tegishli shart–sharoit, tafakkur maktabi, madaniy–ma’naviy muhit mavjud bo‘lmog‘i kerak**.**

XI-XIII asrlarda asos solingan Xorazm davlati, Fors ko‘rfazigacha bo‘lgan hududlardagi qo‘shni xalqlar yerlarini birlashtirgan holda, Osiyo qit’asining katta qismini qamrab olgan. Milodgacha bo‘lgan II asrdan milodiy XV asrga qadar qadimiy xalqaro transport arteriyasi vazifasini bajarib, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo, O‘rta va Yaqin Sharq, O‘rta yer dengizi mintaqasi kabi hudud va mamlakatlarni bog‘lab kelgan Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati beqiyos bo‘lgan.

Buyuk Ipak yo‘li — Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo, O‘rta va Yaqin Sharq, O‘rta yer dengizi mintaqasi kabi hududlar o‘rtasida savdo-sotiq aloqalarini, balki qit’alar va davlatlar o‘rtasida axborot almashuvini ta’minlashga xizmat qildi, yangi texnologiya va ishlanmalarning (ipak, chinni buyumlar, porox, qog‘oz va boshqa ko‘plab mahsulotlar) tez tarqalishida, qishloq xo‘jaligi ekinlari va agrotexnologiyalarning, madaniy qadriyatlarning rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajardi, shu tariqa sivilizatsiyalararo muloqot va texnologiyalar almashuvi uchun shart-sharoitlar yaratdi.

Bu davrlarda turli mamlakatlar xalqlarining savdo-tijorat faoliyati orqali ilmiy bilim va yutuqlar bilan bir-birini boyitib borishi bilan Buyuk Ipak yo‘li alohida rol o‘ynadi. Buyuk Ipak yo‘li orqali Yevropaga, Yevropadan esa Osiyoga Sharq va G‘arb olamidagi moddiy va ma`naviy predmetlar tijorat sohasi tufayli ayriboshlangan.

Buyuk ajdodlarimiz yutuqlari – ma’naviy jasorat namunalaridir. O‘zbekiston xalqi ko‘pni ko‘rgan, yelkasida tarix sinovlarini, ijtimoiy xulosasini yelkalagan, o‘ziga ham o‘zgalarga ham tinchlik, osoyishtalik, farovon hayotni tilab kelgan, shu niyatda butun insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga munosib hissa qo‘shgan xalq. Bugun ham xalqimiz ota- bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan o‘zining ana shu ezgulik bayrog‘ini qo‘lidan tushirgani yo‘q.

Bu boy merosdan butun bashariyat ravnaqi yo‘lida oqilona va samarali foydalanish — bu siz bilan bizning vazifamiz, siz bilan bizning burchimizdir. Bu borada fidoyi olimlarning roli alohida diqqat-e’tiborga munosib bo‘lib, aynan ularning mehnati tufayli biz o‘tmishning bebaho ilmiy merosini qaytadan kashf etmoqdamiz. Tarixiy va madaniy merosni asrab-avaylash, intellektual salohiyatni rivojlantirish, boyitish va ko‘paytirish, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – moddiy va ma’naviy taraqqiyoti asosi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7-yanvar kuni mamlakatimiz prokuratura sohasining bir guruh xodimlari bilan uchrashuvi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 20-avgust kuni mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqoti
3. Mirziyoyev Sh. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2016, 19-oktyabr.

4. Chakrabartiy, S (2009) The Influence of National Culture and Institutional Voids on Family Ownership of Large Firms: A Country Level Empirical Study Journal of International Management, 15 (1), Nasriyev I. Oilaviy tadbirkorlik – jamiyat farovonligining asosi.
5. Temur tuzuklari. – T.: 1991. – B. 15
6. “Iqtisodiy sharh” jurnali №7/2023
7. Boburnoma. – T.: 1989.-368 b
8. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”. T.:- “G'afur G'ulom” 2020-yil 640 bet
9. Unsurulmaoliy Kaykovus “Qobusnoma”T.:- O`qituvchi. 1986

INKLYUZIV TA’LIM

INKLYUZIV TÁLIMDE OQÍWSHÍLARDÍŃ KITAPXANLÍQ MÁDENIYATÍN RAWAJLANDÍRÍW

Pirniyazova Gúlchira Nietbaevna,
Ájiniyaz atındaǵı NMPI Pedagogika kafedrası stajyor oqıtıwshısı
Bektursinova Gúlxumar Joldasbay qizi,
Ájiniyaz atındaǵı NMPI Pedagogika kafedrası stajyor oqıtıwshısı

Inklyuziv tálim sistemasında oqıtıwshılardıń kásiplik sheberligi hám birge islesiwi dáslep ayırıqsha zárúrlikke iye balalar menen islesiwdiń ózine tán ózgeshelikleri menen baylanıslı. Mine usı kóz- qarastan alaıp qaraǵanda nágiranlıǵı blǵan balalarda kitapxanlıq mádeniyatın jetilistiriw házirgi kúnniń aktual máselelrinen biri bolıp tabıladı. Maqalada inklyuziv tálimde oqıwshılarda kitapxanlıq mádeniyatın qáliplestiriw, kitapxanliqqa bolgan qizigiwshiliqlarin rawajlandiriw, ata-babalarimizdin’ ta’jiriybelerin u’yreniw haqqında sóz etilgen.

Tayanısh sózler: *inklyuziv tálim, oqıwshı, oqıtıwshı, kitap, kitapxan, mádeniyat, pedagogika, oqıw.*

INKLYUZIV TA’LIMDA TALABLARNING KUTUBXONA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Inklyuziv ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy mahorati va hamkorligi, avvalo, alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, nogironligi bo‘lgan bolalarda kitobxonlik madaniyatini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Maqolada inklyuziv ta’limda o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitobxonlikka bo’lgan qiziqishlarini rivojlantirish, ota-bobolarimizning tajribalarini o’rganish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, o‘quvchi, o‘qituvchi, kitob, kitobxon, madaniyat, pedagogika, o‘qish.*

РАЗВИТИЕ БИБЛИОТЕЧНОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Профессиональное мастерство и сотрудничество учителей в системе инклюзивного образования связаны, прежде всего, с особенностями работы с детьми с особыми потребностями. С этой точки зрения, совершенствование культуры чтения у детей с инвалидностью является одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня. В статье рассматриваются вопросы формирования культуры чтения у учащихся в условиях инклюзивного образования, развития у них интереса к чтению, изучения опыта наших предков.

Ключевые слова: *инклюзивное образование, ученик, учитель, книга, читатель, культура, педагогика, чтение.*

DEVELOPING STUDENTS' LIBRARY CULTURE IN INCLUSIVE EDUCATION

The professional skills and cooperation of teachers in the inclusive education system are primarily related to the specifics of working with children with special needs. From this perspective, improving reading culture among children with disabilities is one of the pressing issues of today. The article discusses the formation of a reading culture among students in inclusive education, the development of their interest in reading, and the study of the experiences of our ancestors.

Keywords: *inclusive education, student, teacher, book, reader, culture, pedagogy, reading.*

Inklyuziv tálim sistemasında oqıtıwshılardıń kásiplik sheberligi hám birge islesiwi dáslep ayırıqsha zárúrlikke iye balalar menen islesiwdiń ózine tán ózgeshelikleri menen baylanıslı. Inklyuziv tálim nágiranlıǵı bolǵan balalarǵa hámme ushın teń múnásibetti támiyinlewshi, biraq arnawlı zárúrlikke iye balalar ushın kerekli shárayat jaratawshı ideologiyaǵa tiykarlanadı.

Ózbekstan Respublikası Konstituciyasında hámme ushın tálim alıw huqıqı kepillengen. Milliy nızamshılıǵımızda nágiranlıǵı bolǵan shaxslar ushın dárejelerdi payda etiwde teń huqıqlar belgilengen. Búgingi kúnde nágiranlıǵıhám rawajlanıwında nuqsanı bolǵan balalardıń sıpatlı bilim alıwı hám keyinshelli múnásip jumıs tabıwı ushın olarǵa haqıyqıy inklyuziv shárayatlardı jaratıw boyınsha mámleketimizde bir qatar jumıslar ámelge asırılmaqta.

Inklyuziv tálimniń áhmiyetli mashqalalarınan biri bolǵan ayırıqsha tálimge zárúrligi bolǵan tálimnin áhmiyetli mashqalalar toparın anıqlap, olarǵa sıpatlı tálim formaların da bilim beriw hám dárejesin anıqlawdan ibarat. Inklyuziv tálimdi rawajlandırıwda ústin baǵdarlarǵa iye bolǵan princpleri hám baǵdarlar zárúr áhmiyetke iye.

Ulıwma bilimlendiriw baǵdarlamasınıń nátiyjeli rawajlanıwı ushın nágiran oqıwshılarǵa arnawlı sharayatlar jaratıp beriliwi lazım. Dáslep, biz shınıǵıwlarǵa jantasıwlardı individualizaciya qılıw, atap aytqanda shınıǵıwdı shólkemlestiriw ushın shárayatlardı tanlaw, wazıypalardı orınlaw formasın individuallastırıw hám nátiyjelerdi usınıwdıń alternativ usılların tanlaw, nátiyjelerdi sıpatlı bahalawǵa jantasıw talap etiledi. Sonday-aq, inklyuziv tálim shárayatında nágiranlıǵı bolǵan balalardı kitapxanlıq mádeniyatı ruwhında tárbiyalaw házirgi kunniń aktual wazıypalarınan bolıp esaplanadı.

Búgin Watanımızdıń jedel rawajlanıp atırǵan bir dáwirinde babalarımız hám ilimpazlar pikirinde sáwlelengen kitap oqıw hám kıtapxanlıq mádeniyatın qáliplestiriwge bolǵan itibar mámleket siyasatı dárejesine kóterildi desek, asıra aytqan bolmaymız.

Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevtiń 2017-jıl 12-yanvar kúngi «Kitap ónimlerin basıp shıǵarıw hám tarqatıw sistemasın rawajlandırıw, kitap oqıwdı hám kitap qumarlıq mádeniyatın arttırıw jáne úgit-násiyatlaw haqqında» biyligi, F-4789-sanlı Pármanı elimizde umıtılıp baratırǵan kitap oqıw mádeniyatın qaytadan qálpine keltiriw islerine unamlı tásir jasadı[1].

Kitapxanlıqqa bolǵan qızıǵıwshılıq shaxstıń iskerligin nátiyjeli bolıwın támiyinleydi. Sol sebepten de kıtapxanlıq járdeminde oqıwshılarda ádebiy kitaplarǵa salıstırǵanda qızıǵıwshılıqtı qáliplestiriw ayırıqsha áhmiyetke iye. Oqıwshılarda ádebiy kitaplarǵa bolǵan qızıǵıwshılıqtı oyatıwda oqıtıw procesi tiykarǵı orındı iyeleydi. Oqıtıw procesiniń aldına shaxstı hár tárepleme kitapxanlıqqa say tárizde rawajlandırıw wazıypası qoyılǵan. Búgingi kúnde oqıwshılarda kitaplardıń járdeminde ádebiy kitaplarǵa bolǵan qızıǵıwshılıǵın oyatıw social- pedagogikalıq zárúrlikke aylanıp atır.

Kitapxanlıqqa bolǵan qızıǵıwshılıq - oqıwshılardıń kitaplarda kórsetilgen ata- babalar tájiriybesin úyreniw hám ózleriniń iskerligi dawamında paydalanıwǵa bolǵan umtılıwın ańlatiwshı qızıǵıwshılıq bolıp tabıladı. Onıń ushın oqıwshılarda intellektuallıq hám de emocionallıq belsendilikti qáliplesiwi kerek. Intellektuallıq hám de emocionallıq belsendilik kitaplarda maqsetke baǵdarlanǵan tiykarǵı komponent sıpatında kórinip, ol oqıwshılarǵa sociallıq tájiriybeni usınıwǵa xızmet etedi. Sebebi kitaplarda bul tájiriybe anıqlanıp, ata-babalardan áwladlarǵa usınıs etiledi. Sol sebepli biliwge tiykarlanǵan qızıǵıwshılıqlar tańlawǵa tiykarlanǵan qızıǵıwshılıq bolıp, birinshi náwbette, oqıwshılardıń intellektuallıq tárepin rawajlandırıwǵa járdemlesedi. Qızıǵıwshılıqtıń járdeminde oqıwshılar arnawlı bir tarawdaǵı bilimlerdi ózlestiriwge belsendilik penen kirisedi. Bunda olarǵa kitap jaqınnan járdem beredi.

Kitapxanlıq– tek ǵana salamat oqıwshılarǵa emes, al nágiranlıǵı bolǵan oqıwshılarǵada neni úyretiw hám qanday qurallar járdeminde olardıń kórkem ádebiyatqa bolǵan qızıǵıwshılıqların rawajlandırıwdı belgilep beretuǵın pedagogikalıq hádiyse bolıp esaplanadı.

Kitapxanlıq járdeminde tek ǵana oqıwshınıń sóylewin hám intellektuallıq iskerligin qáliplestip ǵana qalmastan, al ulıwma oqıw xarakterindegi bilim, kónlikpe, tájiriybe hám kompetenciyalardıń arnawlı bir jıyındısın quraydı.

Kitapxanlıq bul óziniń úsh tiykarǵı basqıshına iye:

- oqıwshılardıń kitapqa sanalı túrde múrájáát etiw motivleri hám maqsetlerin biliwi;
- kitaplar álemi haqqındaǵı bilimlerdi iyelewi;
- oqılǵan kitaplardıń mazmunın óz imkániyatlarınan kelip shıqqan jaǵdayda biliwi.

Kitap oqıw oqıwshılardıń mánawiyatın qáliplestiredi. Hár bir xalıqtıń turmıs tárizi, jasaw shárayatı, sóylew mádeniyatınıń rawajlanıwınıń izbe-izligi sol xalıqtıń ruwxıylıǵınıń formasında kórinedi. Olardıń mánawiyatı qádirlenedi, olarǵa húrmet kórsetiledi. Tiykarınan sol xalıq mánawiyatın qáliplestiriwshi birinshi faktor tálim - tárbiya procesiniń basqıshpa-basqısh jolǵa qoyılǵanlıǵında bolıp sanaladı. Ruwxıylıq tiykarında tárbiya jatadı. Tárbiya ata - ana, mektep, máhálle sıyaqlı faktorlar tiykarında qáliplesedi. Joqarıda sanap ótilgenlerden eń áhmiyetlisi mektep bolıp tabıladı.

Ulıwma bilim beriw mekteplerinde oqıwshınıń mánawiyatın qáliplestiriw ushın xızmet etetuǵın barlıq zárúrli shárt - shárayatlar islep shıǵılǵan. Bul jaslar tálim - tárbiyası ushın mámleket tárepinen jaratılıp atırǵan joqarı ǵamxorlıǵı. Biraq nátiyje geypara jaǵdaylarda kútilgenindey shıqpay atırǵanlıǵı ashınarlı jaǵday.

Kitapxan mádeniyatı oqıwshınıń oqıp atırǵan shıǵarmasın tolıq túsiniw, onnan kórkem - estetikalıq zawıq alıw, jazıwshı pikiri, dóretpe ideyasın túsiniw hám bahalay alıw, bunnan tısqarı kitap hám kitapxanadan paydalanıw, málimleme-bibliografiyalıq apparatınan ózin qızıqtırǵan yamasa zárúr máselelerge tiyisli kitaplardı tawıp alıw hám onnan paydalanıw jolların úyretedi. Kitap tańlaw, onı tez oqıw, oqılǵan kitaplardı basqalarǵa usınıs etiw, abaylap saqlaw da kitapxan mádeniyatınıń strukturalıq bólimlerine kiredi.

“Kitapxan mádeniyati” túsinigi keń mániste qollanıladı. Atap aytqanda, bul hádiyse shıǵarmanı ańlaw hám onı túsiniw ushın kıtapxannan belgili tayarlıq hám dárejeni talap etedi. Bul hádiyseniń mánisi kitaptı betlew hám onnan ulıwma paydalana biliwden tap dóretiwshilik oqıw, kitap avtorına qızıǵıp, onıń shıǵarmasın tereń talıqlap oqıwǵa deyin baradı.

Oqıwshılarda kitapqumarlıq mádeniyatın qáliplestiriwdiń taǵı bir forması shıǵarma analizi bolıp, bunda aktual máselege arnalǵan ádebiyatlar haqqında oqıwshılarǵa sıpatlama beriwden ibarat esaplanadi. Analizler usınıs hám de informaciya xarakterine iye boladı. Shıǵarma analizin tayarlawda oqıwshılardıń jası, qızıǵıwshılıǵı esapqa alınadı. Analiz ushın ádebiyatlar sanın belgilewde temanıń keńligi, kitapxana fondindaǵı ámeldegi ádebiyatlar kólemi, álbette, esapqa alınadı. Analiz ushın 5 kitaptan 12 danaǵa shekem ádebiyat tańlanıp, ilaj 20 -25 minutqa qaratılıwı kerek. Kórkem ádebiyatlar analizi erkin, pedagogikalıq jumıs forması esaplanıp, kóbinese kitap kórgezbeleri aldınnan kórkem ádebiyatqa baylanıslı kesheler, kitap dodalawları sıyaqlı ilajlar menen birgelikte ámelge asırıladı.

Oqıwshılarda kıtapqumarlıq mádeniyatın qáliplestiriwde kitaplardıń dodalawlanıwı da ayırıqsha orın tutadı. Kitaplardıń talqılawın IX hám de X-XI klass oqıwshıları menen ótkeriw maqsetke muwapıq bolıp tabıladı. Kitaplar talqılawı kóbinese shıǵarmalar haqqındaǵı erkin tartıs esaplanadı. Bul ilajlardıń unamlı tárepi sonda, qızıqlı talıqlaw oqıwshınıń ǵárezsiz pikirlew kónlikpelerin rawajlandıradı. Kitapqa salıstırǵanda umtılıwdı kúsheytip, oqıwshılardıń túsinip alıw qábiletin asıradı hám kórkem estetikalıq talǵamdı bayıtadı.

Oqıwshılarǵa tálim - tárbiya beriwindegi eń baslı wazıypalardıń tiykarǵı bólimı oqıw shınıǵıwları arqalı ámelge asıriladı. Oqıwshılardıń bilim alıwın hám sóylewin rawajlandırıw sabaqlar processinde Mámleketlik tálim standartında belgilengen temalar tiykarında oqıwshılarǵa arnawlı bilim beriledi. Oqıw kónlikpelerin rawajlanıwdırıp barıw menen bir qatarda oqıwshılardıń hár tárepleme jetilisken insan ruwxında tárbiyalaw wazıypası da dıqqat orayında boladı. Inklyuziv tálimde oqıw hám sóylewdi rawajlandırıw baǵdarlamasınıń maqset hám wazıypalarına kóre oqıw shınıǵıwları arqalı oqıwshılar durıs sanalı, tez hám kórkem oqıwǵa úyretiledi. Balalar bul proceste kitap penen islesiw kónlikpesine iye bolıp baradı. Olarda kitapqa bolǵan muhabbat sezimi oyatıladı. Oqıwshılardıń sanasınıń átirapındaǵı zatlar hám hádiyseler haqqındaǵı oyında sawlelendiriwi hám túsiniklerin tuwrı qáliplestiriw ushın olardıń jası hám bilim dárejesin esapqa alınıwı talap etiledi.

Kitap- insan ómir jolların jaqtılandırıp turıwshı sónbes nur, insannıń ómirine mazmun baǵıshlaytuǵın baxıt dáregi. Hár qanday jaǵdayda da joldas bolıwshı sadıq dos. Insannıń psixikalıq- ruwxıy kámalın támiyinlewde kitaptay kúshli qúdıretke iye qural joq bolıp tabıladı. Sol sebepten, ázel- ázelden ilim juldızları, danıshpanlar pútkil insaniyattı kitap oqıwǵa, onnan bilimnıń hám ádepliliktíń sırların úyreniwge baslap kelgen. Tárbiyanıń barlıq kriterya hám elementleri, dáslep shańaraqta qáliplestirilgenindey, kitapxanlıq mádeniyatın tárbiyalawda da shańaraqtıń ornı úlken bolıp tabıladı. “Qus uyasında kórgenin qıladı”, degen naqılǵa tayansaq, bunıń mánisi jáne de aktual basqıshqa kóteriledi.

Haqıyqattan da, shaxs rawajlanıwında shańaraqqa tiyisli ortalıq, shańaraqqa tiyisli qádiriyatlar tiykarǵı qural sıpatında boladı. Ata- ananıń ruwxıy dárejesi, etikalıq kóz- qarasları tikkeley perzentke de kóship ótedi. Sonlıqtan, kitapxanlıq, kórkem ádebiyatqa muhabbat da insannıń ruwxıy oylawın, tárbiya jaǵdayında kórinetuǵın áhmiyetli ayrımashılıqlardıń biri bolıp tabıladı. Kitap dúnyasına qızıǵıwshı, kórkem ádebiyatqa hámnápes, kórkem ádebiyattan payda alıwshı kewil iyesi ózindegi bul sezim hám pazıyletlerdi átirapındaǵılarǵa, ásirese, shańaraǵına da juqtırıw, sińdiriw múmkinshiligı joqarı. Kitapqa qızıǵıwshı ata-analardıń perzenti de kitapqa ózgeshe mehir beredi. Bul ruwxıylıq ǵáziynesine tábiyiy qızıǵıwshılıq oyatadı. Sol sebepli kitapxan áwlad tárbiyasında, áwele, ata- ananıń tárbiyalı bolıwı, kórkem ádebiyatqa ıqlaslı bolıwı úlken áhmiyetke iye.

Inklyuziv tálimde oqıwshılar arasında kitapxanlıq mádeniyatın rawajlandırıwda shańaraqtıń, ata-ananıń ornı sheksiz ekenligin ullı oyshıllarımızdan baslap búgingi izertlewshilerimizge shekem - hámmesi dálillep bergen.

Máselen, alım B.I.Ganiyeva balada oqıw mádeniyatın tárbiyalawda shańaraqtıń tiykarǵı wazıypaları tómendegilerden ibarat dep kórsetedi:

1. Óz perzentlerinde barlıq informaciya dereklerine bolǵan qızıǵıwshılıqtı oyatıw.
2. Teması hár túrli dereklerge bay bolǵan jeke shańaraqlıq kitapxana shólkemlestiriw.
3. Shańaraq aǵzalarınıń jasına, qızıǵıwshılıqlarına, intellektuallıq potencialına sáykes ádebiyatlardı tańlap oqıwdı úyretiw.

4. Óz perzentlerin kitaplardan paydalanıw qaǵıydaları menen tanıstırıp barıw hám sol arqalı balalardıń oqıwın durıs shólkemlestiriw, olardıń bos waqıtların bólistiriwdegi belsendiligin arttırıw.[2]

Mine usı wazıypalardan nágiranlıǵı bolǵan oqıwshılar arasındada orınlı paydalana alsaq, olardıń hár tárepleme rawajlanıwına túrtki bolamız.

Shańaraqqa tiyisli kitapqumarlıqta kitap tańlawı mádeniyatına hámme de jetereli dárejede dıqqat awdarmaydı. Shıǵarma tańlawda perzentiniń jas hám fiziologiyalıq ózgeshelikleri, ruwxıy dúnyası, qızıǵıwshılıqları hám umtılıslarınıń kólemin názerde tutpasa, hár qanday kitap súygish ata - ana buǵan baylanıslı unamlı jetiskenliklerge erise almaydı. Usıdan oqıw mádeniyatınıń da ayrıqsha norma hám talapları bar ekenligi kórinedi. Usılardı itibarǵa alǵan halda, hár bir shańaraqqa tiyisli kitapqumarlıq mádeniyatın iyelew ushın tómendegi usınıslardı itibarǵa alıw názerde tutıladı:

- kitap oqıwda bárháma perzentlerge órnek bolıw;
- kitap tańlaw mádeniyatına iye bolıw;
- arnawlı bir waqıtlarda shańaraq sheńberinde gezekpe-gezek kitap oqıp beriwdi jolǵa qoyıw;
- kórkem ádebiyat oqıwǵa jeterlishe qızıǵıwshılıq bildirmey atırǵan, tapsırmalardı waqıtında orınlay almay atırǵan perzent penen bólek shuǵıllanıw.

Juwmaqlap aytqanımızda, joqarıdaǵı pikirlerden ruwxıy bárkámal kitapqumar áwlad tárbiyasında shańaraq áhmiyetli hám bekkem tiykar ekenligi kórinedi. Sol sebepli, jámiyette nágiranlıǵı bolǵan shaxslarda da kitapxanlıqtı rawajlandırıw, oqıw mádeniyatın jetilistiriw boyınsha hár qanday iskerlikte shańaraq penen sáykes pikir alısıp jumıs alıp barıw gózlengen maqsetlerge erisiwge múnásip imkaniyat jaratadı.

ádebiyatlar:

1. Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevtiń 2017-jıl 12-yanvar kúngi «Kitap ónimlerin basıp shıǵarıw hám tarqatıw sistemasın rawajlandırıw, kitap oqıwdı hám kitap qumarlıq mádeniyatın arttırıw jáne úgit-násiyatlaw haqqında» biyligi, F-4789-sanlı Pármanı
2. Ganiyeva B.I. Kutubxonalarda bolalar o‘qish madaniyatini tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari. Pedagogika fanlari nomzodi. ...diss. – Toshkent, 2008. – 160 b.
3. Madraximova Sh., Kutubxonalikda o’rnak zarur. «Ma’rifat» gazetasi, 16-yanvar’ 2013-jıl, №5 (8550).
4. Mamatraymov X., Kitob sovǵa qilganmisiz? «Ma’rifat» gazetası, 6-fevral’ 2013-jıl.
5. Karimova, R. (2020). Inklyuziv ta’lim asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashriyoti.
6. Jabborova, M. (2022). Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda pedagogik yondashuvlar. Samarqand: Ilm Ziyo.
7. Qodirova, D. (2021). “Maxsus ehtiyojli bolalarda kitob o‘qishga qiziqishni shakllantirish metodlari” // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, №4.
8. Hasanova, S. (2019). Bolalarda kitobxonlikni rivojlantirish: ilg‘or tajribalar va yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Abdullaeva, N. (2023). “Inklyuziv ta’limda axborot-resurs markazlarining o‘rni” // Pedagogik izlanishlar, №2.
10. Yuldasheva, G. (2022). Kitob bilan do‘stlik: maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda kitobga muhabbatni shakllantirish. Andijon: Andijon Davlat Universiteti nashriyoti.

Internet materialları:

1. www. ziyonet.uz.
2. www. edu.uz.
3. www. kitob.uz

TA’LIM MENEJMENTI

HOKIM YORDAMCHILARINI TAYYORLASH VA UNING SIYOSIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Astanov Axunjon Raubovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
“Siyosatshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi
astanovahun@gmail.com

Ushbu maqolada davlat fuqarolik xizmatchilarini tayyorlash institutini samarali tashkil etish hamda bu borada xorijiy davlatlar, xususan, Singapur, AQSH, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarning tajribasini o‘rganish va davlat xizmatchilarini tayyorlash va ularning siyosiy madaniyatini shakllantirish borasidagi ilg‘or tajribalari, davlat fuqarolik xizmatchilarining reyestrini shakllantirish jihatlari. Shuningdek, hokim yordamchilari ham davlat fuqarolik xizmatchilari hisoblanishi va ularning faoliyati haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *davlat xizmati, davlat fuqarolik xizmati, rotatsiya, reputatsiya, betaraflik, siyosiy madaniyat, davlat reyestri, meritokratiya, marketlashuv, elitarizm, bilim.*

FOREIGN EXPERIENCE IN TRAINING THE GOVERNOR'S ASSISTANTS AND IMPROVING THEIR POLITICAL CULTURE

This article discusses the effective organization of the institute for training state civil servants and the study of the experience of foreign countries, in particular, Singapore, the USA, Japan, Germany, and their best practices in training civil servants and forming their political culture, as well as aspects of forming a register of state civil servants. Also, the consideration of the fact that the Governor's assistants are also state civil servants and their activities are presented.

Keywords: *civil service, state civil service, rotation, reputation, impartiality, political culture, state register, meritocracy, marketization, elitism, knowledge.*

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОДГОТОВКИ ПОМОЩНИКОВ ГУБЕРНАТОРА И ПОВЫШЕНИЯ ИХ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

В данной статье рассматривается эффективная организация института подготовки государственных гражданских служащих и изучение опыта зарубежных стран, в частности, Сингапура, США, Японии, Германии, и их передового опыта по подготовке государственных служащих и формированию их политической культуры, а также аспекты формирования реестра государственных гражданских служащих. Также рассматривается вопрос о том, что помощники губернатора также являются государственными гражданскими служащими и представлена их деятельность.

Ключевые слова: *государственная служба, государственная гражданская служба, ротация, репутация, беспристрастность, политическая культура, государственный реестр, меритократия, маркетизация, элитарность, знания.*

Kirish. Har bir mamlakatning davlat xizmati, farovon hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy holati va ertangi istiqboli ko‘p jihatdan uni boshqarib borayotgan rahbarlarning shaxsiga, ma’naviyati, aql-zakovati, bilimi, hayotiy tajribasi, insoniy xislatlari va siyosiy madaniyatiga bog‘liq. Bugungi kunda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa muammolarni hal qilishda inson omili ta’siri ortib borar ekan, kadrlar siyosatining ahamiyati ham shu darajada kuchayib boradi. Shu o‘rinda fransuz-ma’rifatparvari Volterning fikrini keltirish o‘rinli: “Davlat zaifligining sababi pul mablag‘larining yetishmovchiligida emas, balki iqtidorli kadrlarning yetishmovchiligidadir”.

Xususan, siyosiy o‘zgarishlar davrida mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmati tizimida barqarorlikka erishish oson kechmaydi, shu sababli mazkur tizimda, avvalo, davlat fuqarolik xizmatchilarini tayyorlash institutini samarali tashkil etish hamda bu borada xorijiy davlatlar, xususan, Singapur, AQSH, Yaponiya,

Germaniya kabi davlatlarning tajribasini o‘rganish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizdagi mazkur muammoni hal qilishni jadallashtirishda yordam berishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda davlat fuqarolik xizmatiga professional va siyosiy tayyorlashga muhim ahamiyat berishadi.

Singapur davlat xizmati tizimiga Prezident, Bosh vazir, 14 ta vazirlik hamda 26 ta doimiy komissiya kiradi. Davlat xizmatchilarining umumiy soni bugungi kunda taxminan 65 ming kishini tashkil qiladi

Davlat xizmatini tashkil etishning Singapur modeli xalqaro tashkilotlar tomonidan dunyodagi eng yaxshi modellardan biri sifatida tan olingan. Singapur rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydigan asosiy omillardan biri professional davlat xizmatchilar tizimi joriy etilganligi hisoblanadi. Singapur davlat xizmatchilari samarali va halol davlat xizmatining asosidir. Singapurda davlat xizmatini tashkil etishning asosiy prinsipi - **meritokratiya** prinsipi bo‘lib, davlat xizmatchisining shaxsiy salohiyati va xizmatiga asoslanadi hamda inson resurslaridan samarali foydalanishga qaratiladi.

Singapurda davlat xizmatiga jalb etishning o‘ziga xos tizimi yaratilgan. Mazkur tizimga asosan, davlat istiqbolli universitet talabalarini aniqlaydi, ularning ta’limini nazorat qiladi, o‘qish davomida rag‘batlantiradi, maxsus ajratilgan stipendiyalar ajratadi va dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida chet el tajribasini o‘rganish uchun yuboradi. Ushbu talabalar zimmasiga universitetni tugatgandan so‘ng 4-6 yil davomida hukumatda ishlash majburiyati yuklanadi. Bu esa, eng yaxshi va eng iqtidorli talabalarning davlat xizmatiga kirish imkoniyatini ta’minlaydi.

Davlat xizmatining obro‘si va unda yuqori ish haqi tufayli, katta hajmdagi davlat ishlari zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda kam sonli xodimlar bilan boshqariladi. Bugungi kunda, Singapurdagi davlat xizmatchisi qiyofasini quyidagicha ta’riflash mumkin: halol, malakali, professional, yuqori maoshli va doimiy ravishda o‘zidan ko‘ra professionalroq xodim kelishi mumkinligi sababli o‘z lavozimini yo‘qotish bosimi ostidagi kishi[1].

Singapurdagi davlat xizmati o‘z faoliyatini muntazam ravishda takomillashtirib borishi bilan ajralib turadi. Davlat xizmatining yuqori lavozimdagi amaldorlari dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat boshqaruvida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar va yangiliklarni kuzatib boradi, ularni tahlil qiladi va mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, parametrlarini hisobga olgan holda eng munosib g‘oya va usullarni takomillashtirish bo‘yicha choralar ko‘radi. Shu sababli, yuqori darajadagi davlat xizmatchilari, birinchi navbatda, mansabdor shaxslarning islohotlarni to‘g‘ri tushunishini ta’minlash lozim.

“Osiyo yo’lbarsi” deb nom olgan Siingapurning rivojlanishida yukori malakali va axloqkiy fazilatlarga ega davlat xizmatchilarining roli katta bo’lgan. Bu hakda Singapurni qoloqlikdan dunyoning rivojlangan davlatlar katoriga olib chikkan, 25 yil Bosh vazir lavozimida faoliyat yuritgan Li Kuan YU shunday deydi: “Hukumatda layoqatli vazirlar va ularga yordam bergan yuksak axloqiy fazilatlarga ega davlat xizmatchilarining borligi Singapurning muvaffaqiyatli taraqqiyotini ta’minlashda asosiy, xal qiluvchi omilga aylandi”[2].

Davlat xizmati uchun kadrlar tayyorlashda Singapur milliy universitetining Li Kuan YU nomidagi Davlat siyosati maktabini alohida ta’kidlash lozim. Ushbu maktab 2004 yilda tashkil topgan bo‘lib, davlat boshqaruvi apparati uchun kadrlar tayyorlashni maqsad qilgan. Davlat siyosati maktabida “Davlat boshqaruvi”, “Davlat siyosati”, “Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishlarida davlat xizmatchilari magistrlik unvonlarini olishlari mumkin. Shuningdek, maktabda “Davlat siyosati” yo‘nalishida tadqiqotlar o‘tkazilib, ilmiy darajalar berish yo‘lga qo‘yilgan[3]. 2023-yilda Li Kuan YU nomidagi Davlat siyosati maktabi va O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi o‘rtasida yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, Akademiyada qo‘shma ta’lim markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Markaz Milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan davlat xizmatchilarinining Davlat siyosati maktabida malaka oshirishlarini tashkil etadi. Ushbu hamkorlik, shubhasiz, O‘zbekistonda ham davlat fuqarolik xizmatchilarini rahbarlik lavozimlariga malakali kadrlar bilan ta’minlashda samarali bo‘ladi.

Professor K. Tan Singapur davlat xizmatining samaradorligini yuqori darajadagi qat’iy tartib-intizom, meritokratik tamoyilning to‘liq amalga oshirilishi va yuqori maosh bilan bog‘laydi[4]. Huquqshunos D. Bekchanov Singanpurda davlat xizmatini kadrlar bilan ta’minlashning o‘ziga xos tizimi yaratilganligiga e’tibor qaratadi. Unga ko‘ra, universitetning istiqbolli talabalari tanlab olinib, ular uchun maxsus stipendiyalar ajratilib, xorijiy stajirovkalarga yuboriladi. Natijada ularning zimmasiga universitetni tamomlagandan so‘ng ma’lum muddat (4-6 yil) davlat xizmatida ishlash majburiyati yuklanadi[5].

Shunday qilib, meritokratik tamoyil, yuqori maosh, moddiy-mulkiy rag‘batlantirish kabi motivlar davlat fuqarolik xizmatchilarining samarali faoliyat yuritishiga, shuningdek, korrupsiyaning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Fransiyada davlat xizmatchilarini tayyorlash boshlang‘ich professional tayyorgarlik va malaka oshirish (“doimiy professional tayyorgarlik”) dan iborat. Shu tariqa, turli vazirliklarga ishga o‘tish uchun tanlovlar tashkil etiladi[6].

Umuman olganda, Fransiyada davlat xizmatchilarini tayyorlash jarayonlariga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, Fransuz milliy boshqaruv maktabi(INSP)[7] tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat fuqarolik xizmatiga kadrlarni maqsadli tayyorlash siyosiy e’tiqodlar orqali amalga oshiriladi. Maktabda o‘qiydiganlar o‘z kasbi mohiyatini o‘zlarida to‘liq singdirganlaridan so‘ng, ularda ma’lum bir xalqqa xizmat qiluvchining mentaliteti shakllanadi. O‘qish davrida tinglovchilar amaliyotni Federal boshqaruv apparatida, davlat boshqaruv organlarida, davlat sanoat korxonalarida o‘tkazishadi. Ushbu amaliyot jarayonlari tinglovchilarni davlat xizmatiga siyosiy jihatdan tayyor bo‘lib borishlariga zamin yaratadi.

Fransiyada Milliy maktabdan tashqari, davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlovchi dasturlar ko‘plab siyosiy tadqiqot markazlari huzurlarida ham mavjud. Ular nomzodlarni bir yil davomida diplom olganlaridan so‘ng tayyorlashadi. Tayyorlov dasturlari lavozimga o‘tishda o‘tkaziladigan imtihonlarga tayyorlashdan iborat bo‘ladi. Fransiya Respublikasining ayrim vazirliklari tanlovni davlat xizmatiga kadrlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish uchun o‘tkazishadi. Misol uchun, Parij siyosiy tadqiqotlar instituti davlat xizmatchilarini siyosiy tayyorlovchi muassasa bo‘lib, u asosan, kadrlarni o‘z yo‘nalishidan kelib chiqib iqtisodiyot, siyosat bo‘yicha tayyorlaydi[8].

Amerika Qo‘shma Shtatlarida davlat fuqarolik xizmati G‘arbning oqilona byurokratiya an’anasi turlaridan biriga mansub. Ammo u o‘z maqomiga, malakasi va barqarorlik darajasiga, ayniqsa, siyosatdan holilik darajasiga ko‘ra doim G‘arbiy Yevropa byurokratiyasidan keyingi o‘rinda turadi[9]. AQShda zamonaviy davlat fuqarolik xizmatining tashkil etilishi 1883-yilda “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi Qonun (“Pedlton akti”)ning qabul qilinishi bilan bog‘liq. Pedlton Qonuniga muvofiq, federal hukumat lavozimlari siyosiy homiylik emas, balki xodimning xizmatiga qarab berilishi belgilab qo‘yildi. Mazkur Qonun davlat xizmatchilari ishga maxsus tanlov imtihonlari orqali yo’llanishini belgilab berdi[10].

AQSH davlat rahbarlarining faoliyatiga qisqacha nazar tashlasak, Prezident Karter (39-Prezident) o‘z boshqaruvida davlat xizmatini izchil tanqid qilish va uning ustidan siyosiy nazorat o‘rnatish yo‘lini tanlaganiga guvoh bo‘lamiz. Reygan (40-Prezident) va Bush (Katta Bush, 41-Prezident) ham bu ishni davom ettirdilar, uning miqyosini yanada kengaytirdilar. O‘z davrida Klinton (42-Prezident) ham shu uslubni qo‘lladi[11].

Boshqa tomondan, Karter davrida boshlangan “kuyinchak”, “shaffof” byurokratiyani vujudga keltirish jarayoni davlat apparati va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Fuqaro davlat o‘ziga qanday imtiyozlar berishiga ko‘z tikib o‘tiradigan ancha passiv soliq to‘lovchidan faol mijozga – davlat apparati xizmatlaridan foydalanuvchiga aylana boshladi[12].

Reygan va ma’lum darajada Bush g‘oyalariga ko‘ra, davlat sektori xususiy sektor qabilida ishlashi, davlat xizmatchisi va mijoz o‘rtasidagi munosabatlar bozor munosabatlarini yodga solishi lozim edi.

Davlat xizmati hamda davlat xizmatchilari ustidan nazorat o‘rnatilishi jamiyat uchun, shubhasiz, yaxshi samara berdi. Lekin, ayni vaqtda, byurokratiyaning “marketlashuvi” salbiy oqibatlarga ham olib keldi. Shu sababli, mazkur sektorni bozorga to‘liq bog‘lash mumkin emas. Aks holda, davlat xizmatida ro‘y bergan deformatsiyalar korrupsiya, davlat xizmatining turli darajalari hamda bo‘g‘inlari o‘rtasidagi ziddiyat va to‘qnashuv kabi illatlarga zamin yaratadi[13].

AQSH davlat xizmatiga ko‘rsatilgan siyosiy ta’sirlar shunga olib keldiki, xizmatchilarning ma’muriy axloq darajasi pasaydi hamda malakali xodimlarning biznesga ketib qolish holatlari ko‘paydi. Shu bois, so‘nggi yillarda, hatto, o‘ta marketlashgan va detsentralizatsiya qilingan (nomarkazlashtirilgan) ijtimoiy tizim uchun ham samarali davlat xizmati zarurligi anglab yetilmoqda.

Shuni ta’kidlash lozimki, boshqa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan **Yaponiyada** davlat xizmatchilari ancha kam. Ular jami ishlovchilarning bor-yo‘g‘i 8,1 foizini tashkil etadi. Taqqoslash uchun bu ko‘rsatkich Germaniyada 15,1 foiz, AQShda 15,5 foiz, Fransiyada 22,6 foizga teng keladi[13].

Yaponiyada davlat xizmati davlat faoliyatining ma’muriy, diplomatik va boshqa sohalarini qamrab oladi[14].

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligi ko‘p jihatdan davlat xizmatchilarining, avvalo, ularni tayyorlashning ishlab chiqilgan mexanizmi bilan ta’minlanadigan yuqori kasbkorligi va javobgarligi bilan izohlanib, xalq an’analari va falsafasiga asoslangan beshta o‘zaro bog‘liq yapon tizimlari uning asosi va negizi hisoblanadi. Ular bo‘lg‘usi amaldorlarni tanlashdan tortib, ularni ishdan bo‘shatishgacha bo‘lgan oraliqda davlat xizmatchisini tayyorlash tizimini belgilaydi[14].

Ayni mana shu – davlat xizmatchisini tayyorlashni o‘zida ifodalaydigan **beshta buyuk yapon tizimi** tarkibiga quyidagilar kiradi: *bir umrlik ishga yollash; kadrlarni rotatsiya qilish tizimi; reputatsiyalar tizimi; ish joyida tayyorlash tizimi; ish haqi tizimi.*

Mazkur tizimlarning qiymati va ta’sirchanligi shundan iboratki, bu alohida unsurlarning yuzaki to‘plami emas, balki yagona tizimga birlashgan uzviy o‘zaro bog‘liq tizimdir. Ularning har biri boshqasini to‘ldirgan holda butun bir tizimning amal qilish asosi va sharti hisoblanadi. Jami bo‘lib ular yuqori kasbkorlikka ega amaldorlarni tayyorlashni ta’minlaydigan, ularning ijodiy va intellektual layoqatlarini to‘liq ro‘yobga chiqaradigan kuchli rag‘batlantiruvchi muhitni shakllantiradigan yagona mexanizmini tashkil qiladi. Davlat xizmati kadrlarini tayyorlash va foydalanish yagona yapon mexanizmining o‘ziga xos xususiyati, bu ularning davlat xizmatiga bir umrga yollashidir. Bir umrlik yollash tizimi davlat xizmatiga tayinlash mexanizmidan boshlanib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: davlat xizmatiga qabul qilish, davlat xizmatchisi lavozimiga ko‘tarilish, boshqa lavozimga o‘tish, lavozimdagi siljish.

Shuningdek, davlat xizmatiga tayinlashda o‘ziga xoslik kasb etadigan bir qancha tamoyillar mavjud:

– kirish imtihonlari yoki attestatsiya natijalariga muvofiq, ustuvorliklar bo‘yicha;

– qobiliyatlari bo‘yicha (yangidan qabul qilinganlar uchun imtihon natijalari, ishlovchilar uchun tekshiruvlar, guvohnomalar, attestatlar, diplomlarning mavjudligi);

– betaraflik tamoyili – davlat xizmatchilari o‘z siyosiy ishonchlariga ega bo‘lishlari mumkin, ammo ularga muvofiq, davlat xizmatida kasbiy ish yuritishlariga ruxsat etilmaydi, chunki ular hukumat va parlament qarorini amalga oshirishlari zarur bo‘ladi;

– butun aholi uchun teng imkoniyatlar tamoyili;

– barcha davlat xizmatiga olinganlarning tengligi tamoyili[15].

Davlat xizmati to‘g‘risidagi qonunda davlat xizmatiga yaroqli emaslik sharti belgilangan. Agar bunday inson tasodifan davlat xizmatiga olinsa, u uzoq ishlamaydi. Davlat xizmatida ishlash huquqiga ega bo‘lmagan shaxslar tarkibiga quyidagilar kiradi: yetarli layoqatga ega bo‘lmaganlar, huquqiy layoqatga ega bo‘lmaganlar, ya’ni Yaponiya qonunlariga muvofiq, mol-mulkka egalik huquqidan mahrum qilinganlar, ozodlikdan mahrum qilinganlar, intizom tartibida erta ishdan bo‘shatilganlar, shu jumladan, xususiy sektordan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda faoliyat ko‘rsatayotgan tashkilotlar ishida qatnashayotganlar[16].

Hozirgi vaqtda Yaponiyada davlat xizmatiga qabul qilish uchun cheklovlar sonini asta-sekin qisqartirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Eng avvalo, davlat xizmatiga qabul qilishda yoshi, millati, fuqaroligi kabi shartlarning ikkinchi darajali ahamiyati haqida gap boradi.

Yaponiyaning davlat xizmatchilari ikki toifaga ajraladi:

1. Hukumat (markaziy) organlari (vazirliklar, mahkamalar, qo‘mitalar, boshqarmalar va h.k.) davlat xizmatchilari. Ular, o‘z navbatida, ikkita yirik guruhga ajratiladi:

– qaror qabul qilishda, vazifalarni belgilashda qatnashadigan davlat xizmatchilari. Bular alohida davlat xizmatchilari deb nomlanadilar;

– qo‘yilgan qarorlar va vazifalarni bajaradigan hamda amalga oshiradigan davlat xizmatchilari. Ular oddiy davlat xizmatchilari, deb ataladi.

2. Mahalliy boshqaruv organlari (hokimliklar) davlat xizmatchilari.

Birinchi toifa davlat xizmatchilariga vazirlar va ularning o‘rinbosarlari kiritiladi. Binobarin, Yaponiyaning har bir vazirligida faqat ikkita o‘rinbosar mavjud bo‘lib, biri siyosatchi (vazir singari), u o‘ziga xos davlat xizmatchisi, deputat hisoblanadi. Boshqasi vazirlikning funksional majburiyatlarini bajaradi va odatda birinchi toifali davlat xizmatchisiga mansub bo‘ladi. Markaziy (hukumat) organlarning oddiy davlat xizmatchilari orasida departament boshliqlari, vazirliklar sektorlari, mutaxassislar va h.k. mavjud. Xizmatchilarning taxminan shunday shkalasi davlat mahalliy organlarida ham amal qiladi[17].

Vazirliklar, Parlamentning xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari ishlab chiqarish davlat xizmatchilari toifasiga kiradi. Harbiy xizmatdagilar, politsiyachilar, o‘t o‘chiruvchilar, o‘qituvchilar, tibbiy xodimlar va h.k.lar ham davlat xizmatchilaridirlar. Agar maktablar davlat darajasida bo‘lsa, unda ishlovchi xodimlar ham markaziy organlarning birinchi toifali davlat xizmatchilariga kiradi. Agar maktablar mahalliy ahamiyatga ega bo‘lsa, u holda davlat xizmatchilari ikkinchi toifali bo‘ladi[18].

Shuni ta’kidlash lozimki, Yaponiyada davlat xizmatining yana bir muhim o‘ziga xosliklaridan yana biri – elitarizm ruhi, an’anaga ko‘ra amaldorlar izzatining saqlanishidir.

Davlat xizmatiga tayinlash tanlov imtihonlari asosida o‘tkaziladi. Yapon Konstitusiyasi davlat xizmatiga fuqarolar kirishi uchun teng huquqqa ega ekanligi tamoyilini mustahkamlagan.

Davlat xizmatchilari to‘g‘risidagi Qonun (33-modda) davlat xizmatiga tanlash nomzodning shaxsiy ko‘rsatgan xizmatlari, uning kasbiy tayyorgarligi va ishchanlik sifatlariga mos ravishda amalga oshirilishini, bu jihatlar tanlov imtihonlari orqali aniqlanishi lozimligini ko‘rsatadi. Kirish tanlovi bir joyga 10 tadan 100 kishigacha yetadi. Imtihon topshiruvchilar uchun yosh senzi – 18-28 yoshdir. Xizmatga ilk bor kirayotganlar uchun imtihonlar uchta alohida guruhlar bo‘yicha:

1. Oliy o‘quv yurtlarini tugatganlar uchun;

2. To‘liq bo‘lmagan oliy ma’lumotga ega kishilar uchun;

3. O‘rta o‘quv yurtlarini tugatganlar uchun guruhlar bo‘yicha o‘tkaziladi.

Davlat xizmatiga kirish huquqiga faqat yapon fuqarolari ega. Tanlov imtihonlari “ochiq eshiklar” tamoyili bo‘yicha o‘tkaziladi.

Imtihondan tashqari, davlat xizmatiga tayinlashning usuli kadrlarni tanlab olish hisoblanadi. U o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari, transport haydovchilari, texnik xodimlar va boshqa kasbdagilarga qo‘llanadi. Tanlab olishda suhbat, test o‘tkaziladi, anketa to‘ldiriladi. Mezoni oddiy – faoliyati soliq to‘lovchilar hisobiga amalga oshiriladiganlar davlat xizmatchisidir. Bularning hammasi ilgari qayd etilganidek, “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi Qonunda aniqlashtiriladi[19].

Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlari davlat xizmatchilarini tayyorlash bilan Davlat xizmati akademiyasi shug‘ullanib, u Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish ishlari bo‘yicha vazirlik tarkibiga kiradi[19.1].

Bundan tashqari, zamonaviy **Germaniya** siyosiy va ma’muriy sohalarining o‘zaro bir-biri bilan yaqinligi va munosabatlarining chambarchasligi bilan ajralib turadi. Bu munosabatlar Germaniyaning “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi Qonunida ham aks etib turadi. Unga ko‘ra, mansabdor shaxslar siyosiy partiyalarning faoliyatida qatnashib, Parlament a’zoligiga kirish huquqiga ega. Bu toifa ishlovchilarni Germaniyada tayyorlash va qayta tayyorlashning o‘ziga xosligi mansabdorning alohida maqomi va uning xizmat bo‘yicha ko‘tarilish sharoitlari bilan belgilanadi. Germaniyada davlat xizmatidagi shaxslar uch guruhga: amaldorlar, xizmatchilar va ishchilar guruhiga bo‘linadi[19.2].

Nemis amaldori hayotiy maqomga ega va alohida qatlam vakili hisoblanadi. Davlat darajasidagi amaldorlar turli rang (yuqori, oshirilgan, o‘rta va quyi)larga mansub. Har bir rang ma’lum ta’lim senzi va ish stajini ko‘zda tutadi. Past va o‘rta rang amaldorlari (haydovchilar, qo‘riqchilar, kotibalar, yordamchi xizmatchi xodimlar) bizningcha, amaldor hisoblanmaydi. Yuqori rang xizmatchilari oliy ma’lumotli bo‘lishi va 3 yillik tayyorlov kurslaridan o‘tishlari kerak. Oliy rang amaldorlari universitet ma’lumoti va ikki yillik tayyorlov xizmatlariga egadirlar. Germaniyada davlat va mahalliy boshqaruv xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash bosqichma-bosqich, qat’iy, tugallangan tizimni o‘zida mujassamlashtiradi. Davlat xizmatchilarini tayyorlash dasturlarida nafaqat ularga bilim berishga balki, ularning ma’naviy qiyofalariga, axloqiga, o‘zini tutishi, siyosiy dunyo qarashlariga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Umuman olganda, Germaniyada davlat xizmatchilarini tayyorlashda ularning amaliyotlariga katta e’tibor qaratiladi. Amaliyot davlarida tinglovchilar davlat organlaridagi uchrashuvlar, mitinglar, siyosiy suhbatlarda bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tinglovchilar xalqaro amaliyotni Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Yaponiya kabi mamlakatlarda o‘tkazishlari mumkin. Bu esa, ularga mazkur mamlakatlarning davlat boshqaruvi siyosatining ilg‘or tajribalarini o‘rganishlariga imkon yaratadi. Shu tariqa Germaniyada davlat xizmatchilari davlat xizmatiga siyosiy jihatdan tayyor bo‘lib borishadi. O‘qish va xorijiy amaliyot jarayonida asosan e’tibor geosiyosiy jarayonlar, xalqaro iqtisodiyotga qaratiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results): Yuqorida dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat xizmatchilarini tayyorlash va ularning siyosiy madaniyatini shakllantirish borasidagi ilg‘or tajribalar natijasida O‘zbekiston Respublikasida boshqaruv kadrlari va davlat fuqarolik xizmatchilarini tayyorlash bo’yicha foydali bo’lgan bir nechta xulosalarga kelindi. Xususan, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

Singapur tajribasidagi meritokratiya prinsipari asosida davlat xizmatchilar tizimi joriy etilganligi (bilim va salohiyatiga qarab, davlat xizmatiga qabul qilish hamda lavozimidan o‘stirish);

- doimiy ravishda davlat xizmatchilari bilimi va malakasini oshirish borasida samarali tizimning mavjudligi;

- davlat xizmatlarini muntazam ravishda takomillashtirib borishi;

- davlat xizmatlari borasida davlat siyosatini amalga oshiradigan tuzilmaning mavjudligi samarali davlat xizmatlari tizimining joriy etilganligi, korrupsiya, tanish-bilishchilik kabi illatlarni past darajaga tushirib, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Germaniyaning tajribasini mamlakatimiz bilan solishtirib ko‘rsak quyidagi holatlarni kuzatish mumkin bo‘ladi.

Birinchidan, O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimi, millat mentaliteti Germaniyadan yoki boshqa xorij mamlakatlaridan farq qilib, O‘zbekistonda ma’lum kasb va ma’lumot darajasiga ega bo‘lgan amaldorlarning tarixan vujudga kelgan vorisligi mavjud emas.

Ikkinchidan, Germaniyada vaqt jihatdan ishlangan kadrlarni o‘qitish va malakasini oshirish tizimi mavjud bo‘lib, u bir vaqtda ommaviylashgan kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash vazifasiga javob bermaydi.

Uchinchidan, Germaniyada davlat xizmatchilarini huquqiy tayyorlashga urg‘u berilib, u Germaniyada ma’muriy boshqaruvda ishlarning real holatiga to‘liq javob beradi. O‘zbekiston Respublikasining hozirgi sharoitida davlat xizmatchilarini bozor iqtisodiyoti asoslarini fundamental bilimlariga asoslangan vaziyatli

fikrlashni shakllantirish, ko‘nikma, usul va malaka oshirishga tegishli tartibda o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Germaniyada amalga oshirilganidek, xizmat bo‘yicha siljitish amaliyotini qo‘llash maqsadga muvofiq.

Shuni ta’kidlash kerakki, mamlakatimizda davlat xizmatining huquqiy asoslari bosh Qomusimiz bo‘lgan Konstitusiya va ko‘plab qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan. Asosiy Qonunimizning 2-moddasiga ko‘ra: “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar”. Shuningdek, 7-moddasida: “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi”[19.3], deya qayd etiladi.

Biroq, yuqorida tahlil etilgan xorijiy mamlakatlarning davlat xizmatlari tajribalaridan kelib chiqib, O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini yanada isloh qilishning muhim bir vazifalaridan biri, fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasida Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestrini ishlab chiqishdan iborat. Xususan 2022-yil 8-avgusda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-sonli qonuni qabul qilingan, qonunning 22-moddasida Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri - Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri davlat organi darajasidan (milliy, respublika, hududiy va tuman) kelib chiqqan holda, malaka talablariga muvofiq birxillashtirilgan va tasniflangan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhlari hamda toifalaridan, shuningdek davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining malaka darajalaridan iborat bo‘ladi.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi hamda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan yuritiladi.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri, shuningdek unga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar maxsus vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi[20] deb belgilab qo‘yilgan qonun qabul qilinganiga 3 yil bo‘lgan bo‘lsada haligacha reyestr shakllanmagan.

Mazkur reyestrga mofiq davlat organi darajasidan (milliy, respublika, hududiy va tuman) kelib chiqqan holda, malaka talablariga muvofiq birxillashtirilgan va tasniflangan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhlari hamda toifalaridan, shuningdek davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining malaka darajalari aniq belgilab qo‘yilishi o‘z xizmat vazifasiga sadoqatli, yuksak malakali davlat xizmatchilarini tayyorlashning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi.Shu o’rinda shuni ham alohida ta’kidlash lozimki Hokim yordamchilari ham davlat fuqarolik xizmatchilari hisoblanadi.

Demak, Davlat fuqarolik xizmatchisi sifatida Hokim yordamchisi qanday faoliyat bilan shug‘ullanishi kerak degan savol tug‘uladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PF-29-son Farmoniga muvofiq, respublikamizning har bir mahallasida 2022-yilning Yanvar oyidan 9-ming 309-nafar hokim yordamchilari ish boshladi.

Hokim yordamchisi—har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimi yordamchisi lavozimiga tayinlangan shaxs[21].

Huquqshunos D.Rahimov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanishi kutilayotgan Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestriga mahallalardagi hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim, soliq inspektorining huquqiy maqomini aniq belgilash, ularni davlat fuqarolik xizmatchisi sifatida e’tirof etadi[22], yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib hokim yordamchilari davlat fuqarolik xizmatchilari hisoblanadi.

Xulosa qilganda, mamlakatimiz davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirib borishda milliy xususiyatlar inobatga olingan holda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasining yutuqlarini joriy qilish muhim o‘rin tutadi. Bu borada quyidagi masalalarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin: xizmatchilarga xususiy sektordan ko‘proq bo‘lgan yuqori maosh to‘lashni joriy qilish (o‘rganilgan aksariyat davlatlar, ayniqsa, Singapur), asosan, amaliyotga asoslangan boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini rivojlantirish (Fransiya), davlat kadrlar siyosati bo‘yicha vakolatli organga davlat fuqarolik xizmatchilarini sug‘urtasi va salomatligi javobgarlik vazifalarini yuklash (AQSH), ish stajining aniq muddati va malaka oshirish natijalariga ko‘ra, lavozim bo‘yicha o‘sishni ta’minlovchi qat’iy karerali tizimga to‘liq o‘tish (Yaponiya), davlat fuqarolik xizmati uchun zurur mutaxassisliklarni rivojlantirishga e’tibor qaratish (Germaniya).

Adabiyotlar:

1. Марк Хонг. Сингапур – страна, победившая коррупцию. 2000 г. http://world.ng.ru/azimuth/2000-05-18/6_sing.html.

2. Ли Куан Ю. Истеъдодли инсонлар мамлакатнинг бебахо бойлигидир. М.А.Рахматов ва Б.А.Зариповлар.

3. Official website of Lee Kuan Yew School of Public Policy // https://lkyspp.nus.edu.sg/.

4. Kenneth Paul Tan. Meritocracy and elitism in a global city: Ideological shifts in Singapore // International Political Science Review. – № 1 (29), 2008. – P. 7-27.

5. Ўзбекистон Республикаси давлат фуқаролик хизматини такомиллаштириш масалалари [Матн]: монография / Х.Азизов [ва бошқ.] – Тошкент: Shafoat Nur Fayz, 2020. – Б. 228.

6. Конов А.В. Государственная служба Франции: комплексный подход. –М.: Дело, 2014. –С. 15–34.

7. https://insp.gouv.fr/.

8. https://www.sciencespo.fr/fr/.

9. Бу ҳақда батафсилрок каранг: Peters G. Searching for a Role; The Civil Servise in American Democracy // American Political Science Review. 1993. Vol. 14. –№4. –P. 373-386.

10. McGrath R.J. The Rise and Fall of Radical Civil Service Reform in the US States //PublicAdministration Review. 2013. Vol. 73. № 4. P. 638—649.

11. https://zakoniros.ru/. (12.10.2021).

12. Hausser D. Does «Radical Civil Service Reform» Really Abandon Merit? // PublicAdministration Review. 2013. Vol. 73. № 4. P. 649—650.

13. Старовойтов А.В. Реформирование российской государственной гражданской службы и опыт зарубежных стран. Фонд «Развитие парламентаризма в России». –М., 2003. [Электрон ресурс]: http://www.legislature.

14. Административное право зарубежных стран [Электронный ресурс]: учебник / ред.: В.Я.Кикоть, ред.: Г.А.Васильевич, ред.: Н.В. Румянцев. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. –432 с.

15. Старовойтов А.В. Реформирование российской государственной гражданской службы и опыт зарубежных стран. Фонд «Развитие парламентаризма в России». –М., 2003. [Электрон ресурс]: http://www.legislature.

16. V. V. Bhatt and Hyung-Ki Kim, Japanese Civil Service System: Relevance for Developing Countries, Economic and Political Weekly, Vol. 35, No. 23 (Jun. 3-9, 2000), pp. 1937-1943 (7 pages).

17. “Правовое регулирование в зарубежных странах”. Информационный обзор. Фонд «Развитие парламентаризма в России». –М., 2003. [Электрон ресурс]: http://w.w.w.legislature.

18. Давлат хизмати: ўқув қўлланма. Э.Т.Хожиев, Г.С.Исмаилова, М.А.Рахимова –Т.: Baktria press, 2015.

19. Reichard C., Schröter E. (2021) Civil Service and Public Employment. In: Kuhlmann S., Proeller I., Schimanke D., Ziekow J. (eds) Public Administration in Germany. Governance and Public Management. Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-030-53697-8_13.

20. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат фуқаролик хизмати” тўғрисидаги ЎРҚ-788-сонли қонуни 08/08/2022/ https://lex.uz/uz/docs/6145972.21.09.2024.

21. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag’allikni qisqartirish bo’yicha davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlari to’g’risida”gi PF-29-sonli farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.12.2021 y., 06/21/29/1130-son.

22. Раҳимов Д. Маҳаллаларда давлат хизматини ташкил этишнинг айрим масалалари. // “Жамият ва бошқарув” журнали. № 2, 2024. – 43-50 б

UMUMTA’LIM MUASSASALARIDA UZLUKSIZ METODIK XIZMAT KO‘RSATISH ISHLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI

Tuxfatullina Dilyara Temurovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi, kasbiy rivojlanish bo‘yicha direktor o‘rinbosari.
dilyara110676@gmail.com

Ushbu ilmiy maqolada umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or chora-tadbirlar va strategiyalar tahlil qilinadi. Maqola metodik xizmat ko‘rsatish tizimini yaxshilash, o‘qituvchilarning professional malakasini oshirish, va ta’lim sifatini ko‘tarish maqsadida amaliy tavsiyalar va innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Tahlil qilingan masalalar orasida metodik yordam ko‘rsatishning tizimli yondashuvi, malaka oshirish kurslari, innovatsion pedagogik metodlar, metodik resurslar yaratish va monitoring tizimlari mavjud. Maqolada, shuningdek, o‘qituvchilar va metodistlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish orqali ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *umumta’lim muassasalari, metodik xizmat ko‘rsatish, professional rivojlanish, pedagogik* metodlar, innovatsion ta’lim, monitoring tizimi, metodik resurslar.

МЕРЫ ПО ДАЛЬНЕЙШЕМУ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ НЕПРЕРЫВНОГО МЕТОДИЧЕСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

В данной научной статье анализируются передовые меры и стратегии по совершенствованию непрерывного методического обслуживания в общеобразовательных учреждениях. В статье содержатся практические рекомендации и инновационные подходы, направленные на улучшение системы методического обслуживания, повышение профессиональной квалификации учителей и повышение качества образования. Среди рассматриваемых вопросов — системный подход к оказанию методической помощи, курсы повышения квалификации, инновационные педагогические методы, создание методических ресурсов и системы мониторинга. В статье также приводятся рекомендации по укреплению сотрудничества между учителями и методистами, а также по более эффективной организации учебного процесса с учетом потребностей учащихся.

Ключевые слова: *общеобразовательные учреждения, методическое обслуживание, профессиональное развитие, педагогические методы, инновационное образование, система мониторинга, методические ресурсы.*

MEASURES FOR FURTHER IMPROVING CONTINUOUS METHODOLOGICAL SUPPORT IN GENERAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS.

This scientific article analyzes advanced measures and strategies for improving continuous methodological support in general educational institutions. The article includes practical recommendations and innovative approaches aimed at enhancing the methodological support system, improving teachers' professional qualifications, and raising the quality of education. Among the issues analyzed are a systematic approach to providing methodological assistance, professional development courses, innovative pedagogical methods, the creation of methodological resources, and monitoring systems. The article also offers recommendations for strengthening collaboration between teachers and methodologists, and organizing the educational process more effectively by taking into account the needs of students.

Keywords: *general educational institutions, methodological support, professional development, pedagogical methods, innovative education, monitoring system, methodological resources.*

Ikkinchi yechim, o‘qituvchilarni raqamli kompetensiyalar bo‘yicha tayyorlashdir. O‘qituvchilarning raqamli vositalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini oshirish uchun maxsus kurslar, treninglar va seminarlar tashkil etish lozim. Bu o‘qituvchilarga innovatsion pedagogik metodlarni, raqamli ta'lim platformalarini va texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishda yordam beradi. Bunday tayyorgarlik o‘qituvchilarni o‘z faoliyatlarida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

Uchinchi yechim, o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishdir. O‘quvchilarga internetdan xavfsiz va samarali foydalanish, axborotni tahlil qilish, dasturlash asoslari kabi ko‘nikmalarni o‘rgatish kerak. Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun alohida dasturlar va o‘quv materiallari ishlab chiqish zarur. O‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish orqali ular o‘z bilimlarini yangilab, mustahkamlaydilar.

To‘rtinchi yechim, psixologik yondashuvni joriy qilishdir. Texnologiyalardan qo‘rqishni yoki ularni ishlatishdan noqulaylikni sezgan o‘qituvchilar va o‘quvchilarga psixologik qo‘llab-quvvatlash kerak. Bu uchun texnologiyalarni qo‘llashni o‘rgatishda qo‘shimcha motivatsiya va qulay muhit yaratish zarur. Shuningdek, texnologiyalarni o‘rganish jarayonini soddalashtiradigan va xavfsiz muhitni ta’minlaydigan dasturlarni joriy etish talab etiladi.

Shu bilan birga, onlayn va oflayn ta'limni uyg‘unlashtirish (blended learning) metodikasi orqali talabalar va o‘qituvchilar uchun raqamli vositalardan foydalanishning imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu, o‘quvchilarga raqamli texnologiyalarni samarali o‘rganish va ulardan amaliyotda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli vositalarni maktab ta'lim tizimiga joriy qilish o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va o‘quvchilarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlash uchun muhim qadamdir. Biroq ushbu jarayonda texnik, pedagogik va psixologik to‘siqlar mavjud. Innovatsion yondashuvlar va yechimlar yordamida raqamli vositalarni ta'lim tizimiga samarali joriy etish mumkin. Shuningdek, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, maktab infratuzilmasini yaxshilash va o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Raqamli ta’lim muhitida o’quvchilarning texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning raqamli texnologiyalarni samarali va xavfsiz tarzda qo’llash imkoniyatlarini yaratadi. Interaktiv vositalar, onlayn ta’lim platformalari, raqamli asbob-uskunalar va gamifikatsiya orqali o’quvchilar texnologik kompetensiyalarini rivojlantiradilar. O’qituvchilarning raqamli malakasini oshirish, shuningdek, o’quvchilarga raqamli xavfsizlik va etikaga oid ta’lim berish, texnologik kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda ta’lim tizimining rivojlanishi, raqamli ta’lim muhitining samarali tashkil etilishi va o’quvchilarning texnologik kompetensiyalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qaror, // www.lex.uz URL: https://lex.uz/docs/4515883 (murojaat qilingan sana: 20.05.2025).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF–6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror, // www.lex.uz URL: https://lex.uz/docs/5019985 (murojaat qilingan sana: 20.05.2025).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’limni raqamlashtirishni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon, 2021 // www.gov.uz URL: https://www.gov.uz/uz/documents/6362 (murojaat qilingan sana: 20.05.2025).

4. Ахмедов, С. Мактаб таълимида замонавий технологиларни қўллаш. — Тошкент: “Таълим” нашриёти, 2019. — 128 б.

5. Алламуродов, А. А. Синфдан ташқари машғулотларда “TECHNOLOGY CRAFTS” веб-сайт технологияси ва ундан фойдаланиш методикаси // Халқаро илмий ва амалий конференция материаллари тўплами. — Термиз, 2022. — Б. 666–669.

6. Исаков, Р. Рақамли таълимнинг замонавий ривожланиш тенденциялари. — Тошкент: Академнашр, 2020. — 152 б.

7. Комилов, Д. Масофавий таълим: муаммолар ва ечимлар // Journal of Modern Education. — 2021. — Т. 12, № 4. — Б. 55–60.

8. Пирогов, И. Киберхавфсизлик ва таълимда махфийлик // Journal of Educational Technologies. — 2020. — Т. 3, № 2. — Б. 22–30.

9. Қодиров, Б. Э. Электрон ахборот таълим муҳитида ўқувчиларнинг ҳунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантириш методикаси: дис. ... фал. фан. докт. (PhD). — Термиз, 2021. — 142 б.

10. Юсупов, М. Рақамли таълим технологияларининг педагогик жиҳатлари. — Тошкент: Ўзбекистон давлат педагогика университети нашриёти, 2020. — 116 б.

ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

UO‘K 37.013.42

ADEKVAT MODELLAR ASOSIDA TALABALARNING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH: METODOLOGIK ASOSLAR, XALQARO TAJRIBA

Abdullayeva Gavhar Ro‘zimurod qizi,
Qarshi davlat universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi 3-kurs tayanch doktoranti
abdulayvagavxar@gmail.com

Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida metodik tayyorgarlikni takomillashtirishning strategik mexanizmi sifatida adekvat pedagogik modellarni qo‘llashning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Pedagogik modellashtirishning gnoseologik, aksiologik va estetik funksiyalari tahlil qilinib, kognitiv, konstruktivistik va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida modellar turlari ochib berilgan. Xalqaro tajribaga asoslanib, talabalarda metodik kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi keys-stadi, loyiha-metodik yondashuv, simulyatsiyalangan muhit va raqamli texnologiyalarni integratsiyalovchi yondashuvlar tahlil qilinadi.

Shu bilan birga xalqaro tajriba sohasidagi yutuqlar misolida Stem ta’lim texnologiyasi yordamida adekvat modellashtirish jarayoni, amaliy ish natijalari , ijodiy yondashuv mohiyati kabi zamonaviy o‘qitish uslublari haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. Talabalarda murakkab metodik kompetensiyani shakllantirish stratigiyalari modellashtirish jarayonidagi ahamiyati, ta’lim berish uslubiyoti ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *adekvat pedagogik model, metodik tayyorgarlik, kompetensiya, modellashtirish, ta’lim strategiyasi, xalqaro tajriba, konstruktivizm, faoliyatga asoslangan yondashuv, STEM yondashuv, strategiya, amaliy ish, amaliy ko‘nikma, gnoseologik asoslar, subyektiv va obyektiv bilim, tanqidiy tahlil, moslashuvchanlik, integratsiya va tizimlilik, simulyatsiya, raqamli texnologiya, didaktik konsepsiyalar.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ АДЕКВАТНЫХ МОДЕЛЕЙ: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ, ДИДАКТИЧЕСКИЕ КОНЦЕПЦИИ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ

В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы совершенствования методической подготовки студентов посредством использования адекватных педагогических моделей. Анализируются когнитивный, конструктивистский и компетентностный подходы в моделировании учебного процесса. Приводятся инновационные стратегии формирования методических компетенций у студентов с применением кейс-методов, проектного обучения, симуляций и цифровых технологий. Также обсуждаются перспективы интеграции международного опыта в образовательную систему Узбекистана.

При этом современные методы обучения, такие как адекватное моделирование процесса с использованием образовательных технологий STEM, результаты практической работы, суть творческого подхода также обсуждались на примерах достижений в данной области и международного опыта. Подчеркивается также важность моделирования стратегий для развития у студентов комплексной методической компетентности, а также методов обучения.

Ключевые слова: *методическая подготовка, педагогическая модель, моделирование, когнитивный подход, цифровые технологии, международный опыт, компетенции деятельностный подход, STEM-подход, стратегия, практическая работа, практические навыки, эпистемологические основы, субъективные и объективные знания, критический анализ, гибкость, интеграция и системность, моделирование, цифровые технологии, дидактические концепции.*

IMPROVING STUDENTS' METHODOLOGICAL PREPARATION ON THE BASIS OF ADEQUATE MODELS: THEORETICAL-METHODOLOGICAL BASIS, DIDACTIC CONCEPTS AND INTERNATIONAL EXPERIENCE

This article discusses the role of adequate pedagogical models in improving the methodological training of students in modern educational environments. It emphasizes the integration of cognitive,

constructivist, and competency-based approaches in the modeling of instructional strategies. Through the application of interactive tools such as simulations, digital learning platforms, and case-based tasks, the study highlights how methodological competence can be developed effectively. The article also examines global educational practices and evaluates their applicability to Uzbekistan’s pedagogical context.

At the same time, the article also discusses modern teaching methods, such as the adequate modeling process using STEM educational technology, the results of practical work, and the essence of a creative approach, using examples of achievements in the field of international experience. The importance of strategies for the formation of complex methodological competence in students in the modeling process, as well as teaching methods, are also highlighted.

Keywords: *methodological training, pedagogical model, modeling, cognitive approach, digital technologies, international experience, competency development, activity-based approach, STEM approach, strategy, practical work, practical skills, epistemological foundations, subjective and objective knowledge, critical analysis, flexibility, integration and systematicity, simulation, digital technology, didactic concepts.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi globallashuv, raqamlashtirish va bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida tubdan o‘zgarib bormoqda. Bu esa pedagogik faoliyatda metodik tayyorgarlikni mustahkamlash, uni funksional jihatdan takomillashtirish zaruratini tug‘dirmoqda. Ayniqsa, yuqori pedagogik ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun metodik kompetensiyani shakllantirishda an'anaviy yondashuvlar yetarli bo‘lmay, zamonaviy ta’lim muhitiga mos adekvat modellarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi islohotlari – xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Milliy malaka ramkasi” va “2030-yilgacha O‘zbekiston ta’lim strategiyasi” – metodik tayyorgarlik masalasiga strategik e’tibor qaratayotganini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda ta’lim tizimi o‘ziga xos jadal rivojlanish davrini sezilarli darajada bosqichma-bosqich bosib o‘tmoqda. Shu bilan bir qatorda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaviyaning mazmunini milliylashtirish, ya’ni o‘zimizning juda boy o‘tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimiz o‘z ahamiyati bilan juda chiroyli, yuksak insoniy, axloqiy mazmunga ega bo‘lgan milliy urf-odatlarimiz asosida jamiyatimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifada ko‘rinadi.

Shu bilan birga ta’lim-tarbiyaga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni ham taqozo etadi. Yosh avlodning kamol topishi va rivojlanishi uning mujassam ishlar, munosabat va xarakterini o‘z ichiga olgan faoliyat jarayonida boradi. Bunda u yoki bu faoliyat turining o‘qish, mehnat, o‘yin, muloqotning dalillari (motivlari) alohida ahamiyatga ega. Adekvat modellar har qanday darsning tarkibiy qismida borishi kerak. Uni pedagog hisobga olmasa, metodika, tabiat to‘g‘risidagi bilimlar imkoniyatini pasaytirb yuboradi. Shunday qilib, amaliy loyiha bilan to‘g‘ri tashkil qilingan aloqa talabalarda yaratuvchanlikni his etishni shakllantiradi, ularda o‘z harakati va ishini o‘zi baholay olish qobiliyatini rivojlantiradi, bu xislatlar xulq-atvorning odobiy hamda axloqiy me’yorlarini anglash, atrofdagilarga nisbatan mas’uliyat hamda burchni tarbiyalash uchun zarurdir. Amaliy ish bilan muloqot jarayonida ta’lim sohasidagi yuksaltiruvchi g‘oyalar bilan shakllanish vujudga keladi.

Ta’lim tizimida modellashtirish nazariyasi epistemologik, aksiologik va metodologik jihatdan asoslangan bo‘lib, u talabaning shaxsiy, kasbiy va reflektiv kompetensiyalarini shakllantirishda strategik vosita sifatida qaraladi. Pedagogik model bu yerda real ta’limiy jarayonning maqsadga yo‘naltirilgan, konseptual, abstrakt va amaliy jihatdan qayta qurilgan in’ikosidir. U subyekt va obyekt o‘rtasidagi didaktik vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Modellashtirishning ilmiy-nazariy asoslari. Modellashtirish jarayonining asosiy vazifasi asl nusxa uchun eng mos modelni tanlash va tadqiqot natijalarini asl nusxaga o‘tkazishdir. Yetarlicha bor umumiy usullar va modellashtirish usullaridir. Misol qilib, kompyuter modellashtirish matematik modelga asoslangan bilishning variantidir. Bu hodisa yoki ob’ektning barcha xususiyatlarini to‘liq aks ettiruvchi tengsizliklar tizimini, tenglamalarni, mantiqiy belgi-ifodalarni nazarda tutadi. Matematik modellashtirish maxsus hisob-kitoblarni, kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Jarayonni tushuntirish uchun ko‘proq tadqiqotlar talab etiladi. Kompyuter modellashtirish bu vazifani muvafaqqiyatli bajara oladi.

Pedagogik modellashtirish bu bizga ma’lumki ta’lim va tarbiya sohasining majmuidan iborat. Tarbiya jarayonidagi modellashtirishni tajribalarga asoslangan holatda ma’lum tarbiyaviy modelni tanlash va uni amaliy jarayonda qo‘llash orqali amalga oshishini ko‘rishimiz mumkin. Ta’limiy modellashtirishni esa o‘rganilgan manbalardan olingan ma’lumotlarga tayangan holda, shuni aytaolamizki, ta’lim jarayonida bajarmoqchi bo‘lgan ishimizni oldin birlamchi modeli yaratilmog‘i lozim. Tabiiy fanlar misolida oladigan bo‘lsak, tabiiy ofatlar: shamol, bo‘ron, toshqin, zilzila, vulqon, tarnodo, sunami, dovul, tufon, do‘l, jala, toshqin, yog‘in va yana ko‘plab xududlar kesimida tabiiy ofatlar turlari mavjud. Shu kabi tabiiy ofatlarni oldini olish yoki kamroq talofat ko‘rish, himoyalanish uchun oldindan aynan shu xodisaga mos adekvat model yaratiladi. Bu esa ancha foyda beradi, ya’niki oldindan tayyorgarlik ko‘riladi. Pedagogika tabiiy

fanlarda shu kabi ko‘plab adekvat model tayyorlab, amaliy ish hamda loyihalash jarayonini amalga oshirish mumkin.

Modellashtirishning gnoseologik asoslari bilimning subyektiv va obyektiv o‘zaro munosabatini ifodalovchi konstrukt sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuvga ko‘ra, pedagogik model bilimni faqat uzatish vositasi emas, balki yangi bilim yaratish va refleksiv tafakkurni shakllantirish vositasidir. Kognitiv yondashuvda model axborotni qabul qilish, qayta ishlash va muammoli vaziyatlarda qo‘llash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Konstruktivistik yondashuv esa talabaning faol ishtiroki, tajriba asosida bilim qurilishi va ijtimoiy interaktivlikni model asosida yo‘naltirishga urg‘u beradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvda esa model talabaning mustaqil fikrlash, kasbiy vazifalarni bajarish, hamkorlikda ishlash, tanqidiy tahlil qilish va yangicha yondashuvlar ishlab chiqish layoqatini rivojlantiradi. Shu boisdan adekvat pedagogik model bu uch yondashuvning integratsiyalashgan tizimidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Adekvat pedagogik modellarning strukturaviy turlari. Adekvat modellar zamonaviy ta’lim jarayonida real kasbiy vazifalarni hal qilishga yo‘naltirilgan, talaba faoliyatini mujassam shakllantiruvchi va pedagogik samaradorlikni oshiruvchi tizimli konstruksiyadir. Kognitiv model axborotlarni idrok qilish, tartibga solish va strukturaviy fikrlashga urg‘u bersa, faoliyat modeli pedagogik faoliyat jarayonlarini step-by-step (bosqichma-bosqich) simulyatsiyalash imkonini beradi. Kompetensiyaviy model esa mehnat bozoridagi talablarga javob bera oladigan, integratsiyalashgan ko‘nikma va sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu modellar bir-birini to‘ldiruvchi va integrativ xususiyatga ega bo‘lib, talabalar uchun samarali o‘quv muhiti yaratishda, metodik tayyorgarlikni bosqichma-bosqich rivojlantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Talabalarni, ayniqsa, pedagogika yo‘nalishidagi talabalarni, samarali tayyorlash uchun adekvat pedagogik modellar asosida ularning metodik tayyorgarligini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki kelajakdagi o‘qituvchilar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishlari kerak. Metodik tayyorgarlikni takomillashtirishda adekvat modelning asosiy talab va tamoyillari

1. Haqiqatga muvofiqlik – o‘qitish jarayoni real ta’lim muhitiga mos bo‘lishi va talabalar amaliyotda uchraydigan muammolar bilan tanishishlari kerak. Aynan shu tamoyilda talaba o‘qituvchi yordamida loyihalash usulidan foydalangan holda adekvat model yaratadi va muammolar yechimini tezda anglaydi.

2. Integratsiya va tizimlilik – nazariya va amaliyot bir-birini to‘ldirishi, fanlararo bog‘liqlik e’tiborga olinishi lozim. Bu tamoyilda STEM ta’limidek integratsiya jarayoni amalga oshiriladi ya’niki nazariya bilan amaliyot bir vaqtda ishlaydi.

3. Faollik va interfaollik – talabalar dars jarayonida faol ishtirok etishi, muammolarni mustaqil hal qilishga o‘rganishi zarur. Albatta faol muhit ahamiyatli. Ta’limni sifat samaradorligi aynan shu jihatga bog‘liq sanaladi.

4. Moslashuvchanlik – har bir talabaga individual yondashish, ularning o‘qitish usullarini shakllantirishda erkinlik berish. Fikrini erkin namoyon eta olish va adaptatsiya jihati bu yerda rivojlanish tomon ishonchli qadam sanaladi.

5. Amaliyotga yo‘naltirilganlik – nazariy bilimlar hayotiy vaziyatlarga tatbiq etilishi, tajriba almashinuvi va innovatsion yondashuvlardan foydalanish. Ijodiy yondashuv hamda amaliy tajriba yangilik yaratish, maqbul yechimni topa olish kabi qobilyatlarni shakllantiradi.

Talabalarda metodik kompetensiyani shakllantirish strategiyalari. Metodik kompetensiya – bu ta’limiy jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, monitoring qilish va natijalarni tahlil qilish layoqatlarining uyg‘unlashgan tizimidir. Talabalarni adekvat modellashtirish yondashuvi orqali mukammal bilimga ega qilish mumkin, sababi bunday yodashuvda mustaqil fikrlash, amaliy ish, yangilik yaratish, yaratuvchanlik, muammo yechimini tadqiqotchilik va yangilik yaratuvchilik kabi ko‘plab ijodiy yondashishlar bilan amalga oshiriladi. Albatta, o‘qitish tizimida kreativ g‘oyalar bilan ishlash ulkan samara beradi. Talabalarni metodik kompetensiyani shakllantirish strategiyalari o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi faol muhit yondashuvini hosil qiladi, hamda yangi g‘oyalar yaratilishiga zamin yaratadi.

1.Keys-stadi yondashuvi: real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali qaror qabul qilish va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- **2.Loyiha-metodik yondashuv**: talabalar mustaqil o‘quv loyihalarini ishlab chiqadi va ularni model asosida amalga oshiradi.

3.Simulyatsiya asosidagi mashg‘ulotlar: pedagogik faoliyatni sun‘iy tarzda takrorlab o‘rganish imkonini beradi.

- **4.Raqamli texnologiyalarga asoslangan modellar**: AR/VR, LMS platformalari orqali o‘quv jarayonini modellashtirish.

Adekvat modellar orqali bu kompetensiyalarni shakllantirish uchun quyidagi strategiyalar samarali deb topilgan:

Xalqaro tajriba: Qiyosli tahlil Finlandiya ta’lim tizimi kompetensiyaga asoslangan modelni o‘quv dasturlariga to‘liq integratsiyalagan. Bu tizimda metodik tayyorgarlikni amaliy loyihalar, reflektiv yozuvlar, guruhiy muhokamalar orqali shakllantirish asosiy o‘rinda turadi. Singapurda esa STEM yondashuvi asosida simulyatsiyalangan darslar, robototexnika, loyiha va innovatsion laboratoriyalar orqali model asosidagi metodika keng rivojlangan. STEAM yondashuvi talabalarni eksperimentlar o‘tkazishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, modellar tuzishga, o‘z fikrlarini realga aylantirishga va yakuniy tayyor mahsulotni tayyorlashga undaydi. Ushbu ta’lim tizimining yondashuvi bolalarga amaliy va nazariya ko‘nikmalarni juda samarali tarzda mujassamlashtirishga imkon beradi.

STEM ta’limida amaliy mashg‘ulotlar yordamida talabalarga ilmiy –texnik bilimlaridan real hayotda foydalanishga namoyon qilinadi. Har bir darsda talabalar zamonaviy industriya modellarini tayyorlaydi, quradi va modelini takomillashtiradi. Ular har doim aniq bir loyihani o‘rganib chiqadi, natijada haqiqiy tayyor mahsulotning namunasi yoki madelini yaratadilar. Ta’limni rivojlantirishning global tendentsiyalaridan biri bu talabaning kelajakda muvaffaqiyatli va talabga ega bo‘lishiga imkon beradigan fan va metod-fan bilimlarini birlashtirishdir. Ushbu muammoni hal qilishga imkon beradigan texnologiyalardan biri bu STEAM-fan, texnologiya, muhandislik, matematika, turli xil san’at va tadbirlarni birlashtirgan ta’lim. Tanqidiy tafakkur tajribalarini rivojlantirish va muammolarni yechish STEM – dasturi, talabalar kundalik real hayotlarida har doim duch keladigan muommolarni yechishda kerak bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish tajribalarini takomillashtiradi. Masalan, talabalar tabiatda uchraydigan tabiiy ofatlarni oldini olish uchun modelini yaratadilar, so‘ngra uni testdan o‘tkazadilar. STEAM texnologiyasi-bu talabalarda nostandart hayotiy vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini, fanlararo aloqalarni ko‘rish va ularni amalda qo‘llash qobiliyatini shakllantiradigan zamonaviy ta’lim hodisasidir. STEAM texnologiyasi yordamida o‘qitish har doim qandaydir haqiqiy muammoni hal qilishga qaratilgan eksperimental faoliyat. [4]

AQSH ta’lim tizimida esa faoliyatga yo‘naltirilgan, kasbiy muammolarga asoslangan o‘qitish (problem-based learning) orqali talabalar turli kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror chiqarishga o‘rgatiladi. Bu tajribalar O‘zbekiston sharoitida ham model asosidagi metodik tayyorgarlikni lokal sharoitlarga moslashtirishda foydali bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik modellar asosida metodik tayyorgarlikni tashkil etish masalasi ko‘plab rivojlangan mamlakatlar tajribasida muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Jumladan, AQSH ta’lim tizimida faoliyatga yo‘naltirilgan, kasbiy muammolarga asoslangan o‘qitish (Problem-Based Learning – PBL) keng joriy etilgan. Mazkur yondashuv orqali talabalar turli kasbiy holatlarda mustaqil fikrlash, muammoga kompleks yondashish va ijtimoiy-professionallik kompetensiyalarini rivojlantirishga o‘rgatiladi.

Shuningdek, Finlyandiya, Estoniya va Singapur kabi mamlakatlar ta’lim tizimlarida o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi ko‘p bosqichli, nazariy va amaliy komponentlarning uyg‘unligiga asoslangan bo‘lib, bunda darsni modellashtirish, simulyatsiya, interaktiv platformalardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi tayyorlov dasturlarida talabalar real pedagogik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar ustida ishlaydi, jamoaviy loyiha va refleksiya asosida o‘z ustida ishlashga o‘rgatiladi.

Mazkur xorijiy tajribalar O‘zbekiston sharoitida ham lokal pedagogik muhitga moslashtirilgan holda qo‘llanishi mumkin. Jumladan, kasbiy muammolarni modellashtirishga asoslangan metodik mashg‘ulotlar, virtual dars tahlillari va problemali treninglar orqali talabalarni kasbiy faoliyatga yaqinlashtirish mumkin. Bu esa ta’lim jarayonini faollashtirish, talabalarning kasbiy pozitsiyasini mustahkamlash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

AQSH ta’lim tizimida faoliyatga yo‘naltirilgan, kasbiy muammolarga asoslangan o‘qitish (Problem-Based Learning) keng qo‘llaniladi. Bu yondashuv talabalarni real hayotdagi kasbiy vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilishga, tanqidiy va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bunday metodik yondashuvlar pedagogik modellashtirishda adekvat modellarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur tajriba O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham lokal pedagogik sharoit va milliy ta’lim an’analariga moslashtirilgan holda qo‘llanishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarni kasbiy jihatdan tayyorlash sifatini oshirishga, ularni zamonaviy pedagogik muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Xulosa. Adekvat modellar asosida qurilgan ta’lim metodologiyasi pedagogik jarayonni nafaqat samarali tashkil etadi, balki uni transformatsion jarayonga aylantiradi. Talabalarda metodik kompetensiyalarni shakllantirishda model asosidagi yondashuvlar reflektiv, tahliliy, kasbiy-amaliy faoliyatni uyg‘unlashtirgan kompleks texnologiyalardir. Adekvat modellar – bu pedagogik faoliyatning loyihaviy bashorati, kasbiy tafakkurning shakllanishi va zamonaviy o‘quvchi uchun mos, dinamik o‘quv muhiti yaratish vositasidir. Pedagogikada adekvat model – bu ta’lim jarayonini yoki pedagogik tizimni real voqelikka mos tarzda aks ettiruvchi model bo‘lib, o‘qitish va tarbiyalash jarayonlarini aniq va tushunarli

tushuntirishga yordam beradi. Talabalarni adekvat pedagogik modellar asosida metodik tayyorgarligini takomillashtirish – zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, adekvat modellar real ta’limiy jarayonni nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri aks ettiradi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Konstruktivistik, kompetensiyaviy, innovatsion va refleksiv didaktik yondashuvlar pedagogik modellashtirishning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Nazariy-metodologik asoslar, didaktik konsepsiyalar va xalqaro tajribaning o‘zaro uyg‘unligi talabalar metodik tayyorgarligini chuqurlashtirishda mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, metodik tayyorgarlikni modellashtirishda interfaol ta’lim texnologiyalari, raqamli vositalar, amaliy muammoli vaziyatlar va loyiha asosidagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan yosh mutaxassislarning real ta’limiy vaziyatlarda mustaqil ishlash, moslashish va ijodiy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, talabalarni adekvat modellar asosida metodik tayyorlash — ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik darajasini oshiradi, ta’lim sifati va samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishdagi ilmiy-amaliy izlanishlar davom ettirilmog‘i va milliy ta’lim tizimiga tizimli integratsiya qilinmog‘i zarur.

Maqolada taklif etilgan yondashuvlar ta’lim mazmunini zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish, xalqaro tajribalarni lokal kontekstda uyg‘unlashtirish va pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlarni keng joriy qilish imkoniyatlarini ochib beradi. Ular orqali nafaqat metodik tayyorgarlik, balki pedagogik kasbga nisbatan chuqur motivatsiya, professional etik qadriyatlar va pedagogik refleksiya kuchaytiriladi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 30.09.2024 dagi PQ-345 – sonli qaror.

2. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi 287-son 15.05.2020 qarori.

3.Yusufbekov N.R., Muxitdinov D.P. Texnologik model va modellashtirish nazariyasi// Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari – Toshkent.: Fan va texnologiya, 2015. 122-145-b

2. Vahobov M.M. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘qitish sifati monitoringini modellashtirish// Pedagogok ta’lim – Toshkent.: Fan va texnologiya, 2016. 55-67-b

3. Saidaxmedov N.S., Abduvohidov S. Pedagoklarni kasbga tayyorlash// Kasb ta’limi o‘qituvchisining pedagogik faoliyati. – Toshkent.: Fan va texnologiya, 2015. 43-67-b

4.Biggs, J., & Tang, C. *Teaching for Quality Learning at University*.// Open University Press. (2011).98-122-b

5.Bruner, J. S. *Toward a Theory of Instruction*.// Harvard University Press. (1966).

6.Kolb, D. A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development//*. Prentice Hall.(1984). 68-71

7.Vygotsky, L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.1978 45-52

8.Piaget, J. (1970). *Science of Education and the Psychology of the Child*. Orion Press.

9.Merrill, M. D. (2002). *First Principles of Instruction*. Educational Technology Research and Development, 50(3), 43–59.

10.Shulman, L. S. *Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform//*. Harvard Educational Review, (1987) 57(1), 1–22.

11.OECD *The Future of Education and Skills: Education 2030//*. OECD Publishing. (2018).

12.UNESCO *Rethinking Education: Towards a Global Common Good?*. 2015

13.Seel, N. M. *Model-Based Learning and Instruction in Science//*. Springer.2012

14.Jonassen, D. H. *Learning to Solve Problems*. Routledge. (2011).

15.Chorıyeva M. Maktabgacha ta’limda steam texnologiyalari //O‘quv qo‘llanma qarshi “ilm-fan-ma’naviyat” nashriyoti 2024 21-34- b

UO’K 581.14

FIZIKA DARSLARINI INTERAKTIV TASHKIL ETISHDA VR TEXNOLOGIYALARINING ROLINI OSHIRISH USULLARI

Polvonov Baxtiyor Zaylobiddinovich,
Toshkent axborot texnologiyalari, Farg’ona filiali proffessori
fizikapolvonov@gmail.com
Fozilova Mohichehra Dilmurod qizi,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Farg’ona filiali assistenti
fozilovamoxichexra@gmail.com

Fizika fani bizni hayotimizni ajralmas bo’lagi hisoblanadi. Lekin ushbu fanni talabalarga o’qitishda biz bir qator muammolarga duch kelamiz. Ushbu muammolardan biri fizikadagi abstrakt hodisalar bo’yicha talabalarda to’liq tushunchani hosil qilishdir. Hozirgi zamonaviy axborot davrida ushbu muammoning ham bir nechta yechimlari topildi. VR texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkil etish aynan shu usullardan biri hisoblanadi. Biz maqolamizda VR darslarini ta’lim jarayoniga kiritish, talabalarni bilim ko’rsatkichlariga qay darajada ta’sir qilishini o’rgandik. Bu holda an’anaviy usuldagi o’tilgan darslar va VR texnologiyalardan foydalanilgan holda interaktiv usulda o’tilgan darslarni bir- biri bilan taqqosladik. Va ushbu natijalarni statistik jihatdan tahlil qildik.

Kalit so’zlar: *interaktivlik, VR texnologiyalari, an’anaviy dars, eksperimental metod, tahliliy metod, eksperimental so’rovnoma, X-kvadrat testi,*

METHODS OF ENHANCING THE ROLE OF VR TECHNOLOGIES IN INTERACTIVE ORGANIZATION OF PHYSICS LESSONS

Physics is an integral part of our lives. However, in teaching this subject to students, we encounter a number of challenges. One of these challenges is helping students develop a complete understanding of abstract phenomena in physics. In today’s modern information era, several solutions to this problem have been found. One such solution is organizing lessons using VR technologies. In our article, we studied the integration of VR lessons into the educational process and how that affect students’academic performance. In this context, we compared traditional teaching methods with interactive lessons using VR technologies. We then analyzed the result statistically.

Keywords: *interactivity, VR technologies ,traditional lesson, experimental method, analytical method, experimental survey, Chi-square test.*

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ РОЛИ ТЕХНОЛОГИЙ VR В ИНТЕРАКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ФИЗИКИ

Физика является неотьемлемой частью нашей жизни. Однако при обучении этому предмету студентов мы сталкиваемся с рядом проблем.Одна из таких проблем- формирование у студентов полного понимания абстрактных физических явленый.В современную информационную эпоху были найдены несколько решений этой проблемыюОдним из таких решений является проведение занятий с использованием VR-технологий. В нашей статье мы исследовали внедрение VR-уроков в образовательный процесс и их влияние на успеваемость студентов И этом контексте мы сравнили традиционные методы обучения с интерактивными урокамибпроведёнными с использованием VR-технологий. Затем мы провели статистический анализ полученных результатовю

Ключевые слова: *Интерактивность, VR-технологии, традиционный урок, экспериментальный метод, аналитический метод, экспериментальный опрос, критерий Х-квадрат.*

Kirish. Hozirgi vaqtda ta’lim tizimi va unda olib borilayotgan islohotlar tez sur’atlarda o’sib borib, zamonaviy texnologiyalarni o’z ichiga olgan holatda yanada yuqori bosqichlarga ko’tarilmoqda. Ayniqsa, fizika kabi murakkab tushunchalaga boy bo’lgan fanlarni talabalarga o’rgatish yangi innovatsion yondashuvllarni talab qiladi. Bizga ma’lumki, fizika fani boshqa fanlar ichida o’zining murakkabligi va amliy hayotdagi tutgan o’rni bilan ajralib turuvchi fan hisoblanadi. Hozirgi kunda ta’lim tizimini vazifalaridan biri talabalarni ushbu fanga bo’lgan qiziqishini oshirish va ushbu fanning nazariy asoslarini

talabalarga samarali tarzda yetkazib berish hisoblanadi. Darsliklar va ma’ruza matnlaridan foydlanish, laborotoriya mashg’ulotlarini bajarish va u asosida natijalar olish, kabi an’anaviy dars o’tish usullari talabalarga asosiy nazriy bilimlarni berish uchun samarali hisoblansada, lekin ular fizikani ba’zi bir murakkab hodisalari va mavzularini to’la yoritib bera olmaydi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot vositalarini rivojlanishi va Virtual haqiqat (VR) texnologiyalaridan maqsadli foydalanish orqali, fizikani murakkab tushunchalarini talabalarga qiziqarli va interaktiv usullar yordamida o’rgatish imkoni paydo bo’ldi.

Bundan tashqari, fizika fanidagi abstarkt tushunchalarni VR texnologiyalari yordamida 3D vizualizatsiya qilish orqali, talabalarning nafaqat nazariy bilmlarini balki amaliy ko’nikmalarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, o‘quv jarayonini tahlil qilishda yondashuvlarning diversifikatsiyasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Talabalarga turli metodlar asosida ta’lim berish ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, o‘zaro faoliyatni kuchaytiradi. O‘qituvchilar talabalarga mustaqil ish, jamoaviy faoliyat va individual yondashuvlar orqali bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatini yaratadilar. Talabalar o‘rganganlarini amaliyotda qo‘llashga ko‘proq e’tibor qaratadilar, bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar, guruh bo‘lib ishlash va masalalarni yechish orqali talabalar bir-biridan o‘rganadilar va o‘z bilimlarini mustahkamlashga erishadilar [1]. Mazkur maqolada fizika darslarini interaktiv va samarali tashkil etishda VR-texnologiyalarining o’rni, undan samarali foydallanish usullari, shuningdek, talabalarning bilm ko’nilma va kompetensiyalarini rivojlanbishidagi egalalgan roli atroflicha tahlil qilinadi. Olib borilgan tadqiot davomida ilg’or tajribalar, amaliy misollar va VR-texnologiyalarni joriy qilishda yuzaga keladigan muammolar ko’rib chiqiladi.

Metodologiyasi. Ushbu maqolada Oliy ta’limda texnika yo’nalishi talabalari uchun fizika mavzularini o’rganish usullarini interaktiv metodlar va VR texnologiyalardan foydalanilgan holda o’tish orqali talabalarni bilim olish ko’rsatkichlarini oshirish bo’yicha amaliy tadqiqot olib borildi. Ushbu tadqiqotni o’tkazish jaryonida “Eksperemental” hamda “Kuzatuv-tahliliy” metodlardan birgalikda foydalanildi [2]. Ya’ni ma’lum bir sondagi fizika darslari an’anaviy usulda olib boriladigan talabalar guruhi tanlab olindi. Ularga VR texnologiyalaridan foydalangan holda mashg’ulotlar o’tkazila boshladi. Hamda ushbu talabalarni interaktiv usulda o’qitish boshlanganidan avvalgi va keyingi test natijalari hamda ularni fikr mulohazalarini tekshirish orqali ma’lum bir hulosaga kelindi ushbu jarayonda biz eksperemental metoddan foydalanadik.

Bundan tashqari talabalarni ushbu eksperiment davomida ma’lumotlarni qay darajada va qay tartibda o’zlashtirganini kuzatish va ularning faolligi qanday o’zgarganini qayd qilish uchun tadqiqotda “Kuzatuv-tahliliy” metoddan foydlanildi va olingan barcha natijalar statistik tahlil qilindi.

Natija va muhokamalar. M.D.Fozilova tomonidan o’tkazilgan tadqiqotning asosiy maqsadi-fizika darslarini samarali tashkil etishda. VR texnologiyalarning ta’sirini o’rganish va ushbu texnologiyalar va usullardan foydalanilgan holda talabalarning bilm darajasini oshirish hisoblanadi. Eksperimentda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg’ona filiali talabalaridan 4ta guruh tanlab olindi. Bular:620-24,621-24,654-24hamda 614-024 guruh talabalari jami 75 ta talaba ishtirok etgan bo’lib,ular 2 ta guruhga bo’lindi:

- 1-nazorat guruhi: 620-24 va 621-24 guruh talabalari(jami 36 nafar talaba)
- 2-eksperimental guruh: 654-24 va 614-24 guruh talabalari(jami 39 nafar talaba)

Olib borilgan an’anaviy darslar va VR texnologiyalari asosidagi interaktiv darslar bir biri bilan taqqoslanadi.Ushbu tadqiqotning borish jarayoni va natijalarini birma-bir ko’rib chiqamiz.

1-nazorat guruhiga darslar an’anaviy usulda o’tildi.Doska,darslik maruzalar matni va hokazolardan foydalanilgan holatda.2-eksperimental guruhga esa mashg’ulotlar VR texnologiyalarni tadbiq qilish orqali dars jarayoni tashkillandi. Bunda an’anaviy usuldagi dars mashg’ulotlaruga qo’shimcha tarzda simulyatsiyalar va VR texnologiyalardan foydalangan holda mashg’ulotlar olib borildi. Ushbu jarayonda elektr, magnetizm, atom va yadro fizikasi kabi mavzularning murakkab va abstrakt tushunchalari “Labster”dasturi orqali tashkil qilingan VR muhitidagi interaktiv darslar orqali tushuntirildi. Mazkur tadqiqot davomida talabalar VR texnologiyasi vostasida fizik hodisalarni ko’rish, ularni o’lchash va natijalarini hisoblash imkoniga ega bo’lishdi. Har ikkala turdagi darslardan so’ng barcha talabalardan bir xil ko’rinishdagi nazorat testi olindi. Bundan tashqari talabalar o’rtasida an’anaviy yoki VR asoidagi darslarning farqi qay darajada ekanligi bo’yicha mahsus so’rovnoam o’tkazildi. VR texnologiyalari asosida olib borilgan darslar talabalarning qiziqish va ularning darsdagi faolligini sezilarli darajada oshirdi. Talabalar ushbu jarayonda ko’proq vaqt ishtirok etish istagini bildirishdi va o’rganish jarayoniga qiziqish bilan yondoshdilar.



1-diagramma. 620-24 va 621-24 nazorat guruhlaridagi dars so’ngida o’tkazilgan test va so’rovnoma natijalari



2-diagramma. 654-24 va 614-24 eksperemental guruhlardagi dars so’nggida o’tkazilgan test va so’rovnoma natijalari

Ushbu tadqiqot natijalarini 1- va 2- guruhdagi darslar bilan taqqoslangan holatining foiz ko’rsatkichlari yuqoridagi diagrammalar orqali berilgan.

Bu diagrammalardagi natijalardan hulosa qilishimiz mumkinki an’anaviy darslar va VR orqali o’tkazilgan darslar bir nechta parametrlarga ko’ra bir biri bilan farqlanadi.

- Fizik hodisalarni tushunish bo’yicha an’anaviy darslarda faqat nazariy bilmlar berilgan,VR darslari esa jarayonni his qilgan holda tushunishga imkon yaratgan
- Interaktivlik-an’anaviy darslarda passiv o’rganish mavjud bo’lsa,VR darslari o’quvchilarga o’zaro faoliyatlar va amaliyotlar orqali o’rganish imkonini beradi.
- Bilmlarning o’zlashtirilishi-an’anaviy darslarda o’rtacha darajada bilm o’zlashtiriladi,VR darslarida esa talabalar sifatli va tezkor bilm olishlari mumkin bo’ldi.

Ushbu pedagogik-tajribadan olingan natijalarning ishonchliligini va tanlangan usulning qay darajada samara ko’rsatganligini aniqlash uchun “XI-kvadrat”mezonidan foydalanildi.Talabalar dars mobaynida olgan bilmlari bo’yicha 3 ta kategoriyaga bo’lamiz: yaxshi,o’rta va past. chi-kvadrat testining natijasiga ko’ra 1-va 2-guruh o’rtasidagi o’zlashtirish ko’rsatkichi statistik jihatdan tahlil qilinadi. Uni ko’rib chiqaylik:

Guruh	yaxshi	o’rta	past	Jami
Nazorat	12	18	6	36
Eksperimental	24	10	5	39
Jami	36	28	11	75

Keltirilgan qiymatlar orqali ko’rsatilgan statistik mezonning qiymati quyidagi formula bo’yicha hisoblab topiladi:

$$x^2 = \sum \frac{(Q_1 - Q_2)^2}{Q_2}$$

Bu holatda: Q_1-kuzatilgan ya’ni tajriba natijasida olingan qiymat; Q_2-kutilgan ya’ni bizni tajribadan kutayotgan natijamiz, hisob-kitob qiladigan bo’lsak,

$$x^2 = 1{,}63 + 1{,}56 + 0{,}10 + 1{,}53 + 1{,}30 + 009 = 6{,}21$$

Natijani olamiz.bizni olgan natijamiz statistik jadvaldagi kritik qiymat-5,99 dan katta chiqsa demak bu natija statistik jihatdan ahamiyatli deb hisoblashimiz mumkin bo’ladi.Chi-kvadrat testi yortamida ushbu tajribaning natijalari statistik jihatdan ishonchli ekani isbotlandi ($x^2 = 6{,}21, p > 0{,}05$). Yuqoridagi natijalardan ko’rinadiki eksperimental guruhning akademik natijalari nazorat guruhining akademik natijalaridan baland ekanligini ko’rishimiz mumkin. Demak VR texnologiyalar va simulyatsilardan samarali foydalanilgan holda dars mashg’ulotlarini olib borish,talabalar bilimini oshirishga yordam beradi.

Endi esa masalaning boshqa tomoniga ham e’tiborimizni qarataylik.VR texnologiyalar asosida dars o’tish darsning sifatini oshirishini ko’rib o’tdik , ammo VR muhitida interaktiv darsllarni tashkil qilishda biz bir qancha muamo va kamchiliklarga duch kelamiz.Eng avvalo texnik jixozlarni yetishmasligi va internet infratuzilmasining zaifligi ham ko’p hollarda to’siq bo’lyapti.Bundan tashqari VR uskunalarning yuqori narxi va dasturiy ta’minot harajatlari ham moliyaviy yuk bo’lib qolmoqda. O’qituvchilarning bu texnologiyalar bilan ishlash malakasi yetarli bo’lmasligi darsning sifatiga salbiy ta’sir qiladi. Fizika faniga mos, o’zbek tilidagi VR kontentlarning kamligi ham samaradorlikni pasaytiradi. Sog’liq bilan bog’liq muammolar ko’z charchashi,bosh aylanishi kuzatilishi mumkin.Manashu keltirgan misollarimiz sdababidan ham VR texnologiyalardan foydalanishda muvozanatli va extiyotkor yondashuv zarur.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo’lsak, VR texnologiyalari zamonaviy fizika ta’limida yangicha yondashuv hisoblanib, talabalarni mavzuni chuqurroq anglashlariga hamda dars davomida aktivroq bo’lishlariga yordam bveradi. Talabalar, umumiy fizika kursining har bir mavzusiga oid asosiy qonun qoidalar haqida talab darajasidagi bilmlarga ega bo’lishi uchun, o’qituvchi dars materiallarini o’g’zaki bayon qilish bilan bir qatorda, shu mavzuga oid namoyish tajribalarini o’tkazishi, o’rganilayotgan hodisani ular ko’z oldilariga keltirishga va fikrlash faoliyatlarini rivojlantirishga erishishi zarur [3]. Agar talabalarda ushbu ko’nikmalarni hosil qilish simulyatsiyalar va VR texnologiyalar asosida amalga oshirilsa, ushbu virtual darslar talabalarga ilmiy bilm va tasavvurlarini samarali boyitish bilan bir qatorda mavzu mohiyatini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, VR-texnologiyalarni o’quv jarayoniga samarali tarzda integratsiyalash bir necha omillarga bog’liq, ya’ni o’qituvchini bilim malakasini oshirish,mavjud dasturiy ta’minotni yangilash va ushbu texnologiyalardan foydalanishga oid metodik qo’llanma va darsliklar ishglab chiqarish kabilar ushbu omillar sirasiga kiradi. Interaktiv o’quv muhitini yaratish nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki talabalarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, mavjud muammoni hal qilish kabi ko’nikmalarini ham rivojlantiradi.

Kelgusida VR-texnologiyalardan keng miqiyosda foydalanish ta’lim sifatini oshirishda, ayniqsa, STEM yo’nalishlarida katta imkoniyatlarni ochib beradi. Fizika darslarini interaktivligi, vizualligi esa ushbu fan bo’yicha talabalarda ijobiy motivatsiyani shaklllantiradi.

Adabiyotlar:

1. Prensky. M. (2010) Teaching digital natives: Partnering for real learning. Corwin Press
2. Полвонов Б.З. Курс физики, учебник. Фергана -2022 (стр.548).
3. Tolipov O’Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tadbiqiy asoslari. O’quv qo’llanma. Toshkent-2006
4. Polvonov B.Z. Inter Education& Global Study 2025-yil 2-son "Atomning nurlanish spektrini o'rganish" Laboratoriya mashg'ulotlarini IT texnologiyalar asosida namoyish etish
5. Polvonov B.Z. “Tibbiyot oliygohlarida “Nurlanishlarni moddalar bilan o‘zaro ta’siri” fanini o‘qitishning ilg‘or metodlari” Maktabgacha va maktab ta’limi;2025-yil 2-son
6. Mirzaxmedov B., G'ofurov N., Ibragimov B., Sagatova G. Fizika o'qitish metodikasi. T.: «O'qituvchi», 2007. - 38 b

ZAMONAVIY DARS STRUKTURASI: “PODKASTLAR” DARSLARNI TASHKIL ETISHDA YANGICHA METOD

Mavlyanov Muminjon Akramovich,
Guliston davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
muminjonmavlyan@gmail.com

Ushbu maqolada zamonaviy ta’limda podkastlardan foydalanish g‘oyasi va uning talaba-yoshlar uchun qanday imkoniyatlar yaratishi muhokama qilinadi. Xususan, “Sun’iy intellekt ta’limda: O‘qituvchi yoki robot?” mavzusi misolida darsning podkast shaklida tashkil etilishi, rollarga bo‘lingan guruhlar ishtiroki, talabalarning savol-javob asosidagi tahliliy yondashuvi va suhbat orqali bilimlarni chuqurlashtirish jarayoni yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy dars strukturasi tashkil etishda raqamli texnologiyalarni to‘laqonli foydalanish istiqbollari haqida so‘z boradi. Bugungi kunda zamonaviy dars mashg‘ulotlarini tashkil etish orqali talaba va o‘quvchilarni darslarda ishtirok etish faolligini oshiribgina qolmay balkim ulrni faolligini yanada oshirishga hizmat qiladi.

Maqola yozish jarayonida ko‘plab xorijiy adabiyat va maqolalar tahlil qilindi. Tahlil jaroyonida shunga amin bo‘lindiki, Podkast darslar bugungi kunda yangi metod bo‘lib, maqola davomida uning yutuqlari va kamchiliklari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar*: podkast darsi, sun’iy intellekt, ta’limda texnologiya, tahlil, kreativ yondashuv, o‘quvchi ishtiroki, loyiha, individual, transkriptlar, PR, Rollarni aniqlash, motivatsiya, rasmiy suhbat, professional, video roliklar.*

MODERN LESSON STRUCTURE: “PODCASTS” ARE A NEW METHOD FOR ORGANIZING LESSONS

This article explores the idea of using podcasts in modern education and the opportunities they offer for students and young learners. Specifically, using the topic “Artificial Intelligence in Education: Teacher or Robot?” as an example, the article highlights how a lesson can be conducted in podcast format, the involvement of role-divided groups, students’ analytical approach based on questions and answers, and the process of deepening knowledge through discussion. It also addresses the prospects of fully utilizing digital technologies in designing the structure of modern lessons.

Today, organizing modern learning sessions not only increases students’ participation in class but also helps to further enhance their engagement in the learning process.

During the writing of this article, a wide range of foreign literature and publications were analyzed. The analysis confirmed that podcast-based lessons are a relatively new teaching method today. The article discusses both the advantages and the drawbacks of this approach.

Keywords: podcast lesson, artificial intelligence, technology in education, analysis, creative approach, student participation, project, individual, transcripts, PR, role definition, motivation, official chat, professional, video clips.

СОВРЕМЕННАЯ СТРУКТУРА УРОКА: «ПОДКАСТЫ» — НОВЫЙ МЕТОД ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ

В данной статье рассматривается идея использования подкастов в современном образовании и то, какие возможности они открывают для студентов и молодежи. В частности, на примере темы «Искусственный интеллект в образовании: учитель или робот?» освещается проведение урока в формате подкаста, участие групп, разделённых по ролям, аналитический подход студентов, основанный на вопросах и ответах, а также углубление знаний через диалог. Кроме того, обсуждаются перспективы полноценного использования цифровых технологий при построении структуры современного урока.

На сегодняшний день организация современных учебных занятий не только повышает активность студентов и учащихся на занятиях, но и способствует дальнейшему росту их вовлечённости в образовательный процесс.

В процессе написания статьи были проанализированы многочисленные зарубежные источники и публикации. В ходе анализа стало ясно, что подкаст-уроки на сегодняшний день являются новым методом обучения. В статье также рассматриваются их преимущества и недостатки.

Ключевые слова: *Подкаст-урок, искусственный интеллект, технологии в образовании, анализ, креативный подход, участие учащихся, проект, индивидуальный подход, транскрипты, PR (связи с общественностью), определение ролей, мотивация, формальное интервью, профессиональный подход, видеоролики — все эти элементы становятся неотъемлемой частью современного образовательного процесса. Их правильное сочетание способствует формированию более активной, осознанной и заинтересованной учебной среды.*

Kirish. An’anaviy dars formatlari tobora o‘zgarib bormoqda. Zamon bilan hamnafas bo‘lishni istagan o‘qituvchilar ta’limda turli yangiliklarni sinab ko‘rmoqda. Shulardan biri – **podkast darslari**. Bu formatda o‘qituvchi, talabalar, texnik guruh va hatto tinglovchilarning o‘zi ham dars ishtirokchisiga aylanadi. Podkast darsning maqsadi – talabaning mavzuni mustaqil o‘rganishi, muhokama qilishi, savollar berishi va xulosalar chiqarishi orqali bilimni mustahkamlashdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Asosan ma’ruzalarga tayanadigan an’anaviy o‘qitish usullari va yodlash talabalarni jalb qilishda yoki yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda passiv va samarasizligi uchun uzoq vaqtdan beri tanqid qilinmoqda. Ta’limning jadal rivojlanayotgan manzarasida an’anaviy o‘qitish usullari tobora ko‘proq innovatsion va interaktiv ta’lim yondashuvlari bilan to‘ldirilmoqda. Professional dunyoda hamkorlik va samarali muloqot muhim ko‘nikmalardir. Interfaol ta’lim muhiti talabalarga birgalikda ishlash, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatini beradi. Guruh loyihalari, tengdoshlarni baholash yoki virtual jamoaviy ish orqali bo‘ladimi, bu yondashuv talabalarni jamoaga yo‘naltirilgan sharoitlarda samarali ishlashga tayyorlaydi, bu ularning kelajakdagi martabalarining muhim jihati hisoblanadi.

Topshiriq: O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, o‘zbek tilida savollarni tezda javob berishga chaqirish va har bir guruhga ochko berish.

Natija: O‘quvchilar natijalarni ko‘rib, o‘zlarining o‘zbek tili bilimlarini mustahkamlashadi.

3. “Role play” (Rollarni o‘ynash).

Metod: O‘quvchilarga ma’lum bir vaziyatda turli rollarda o‘ynashga imkon yaratish. Bu metod tilni o‘rganish jarayonini real hayotga yaqinlashtiradi.

Mavzu: O‘quvchilarga kundalik hayotdagi vaziyatlar (restoran, do‘kon, aeroport)ni o‘rganish uchun ro‘l o‘ynash topshirig‘i beriladi.

Topshiriq: O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi: biri mijoz, ikkinchisi esa xizmatchi bo‘ladi. Har bir guruh o‘zbek tilida kommunikatsiya olib boradi. Masalan, do‘konda savdo qilish, restorangacha borish, ko‘chada yo‘l so‘rash kabi rollar.

Natija: O‘quvchilar o‘zbek tilida muloqot qilishni o‘rganadilar va tilni amaliy ravishda qo‘llaydilar.

4. “Think-pair-share” (O‘ylang, juft bo‘ling, ulashing).

Metod: O‘quvchilarga biron bir mavzu haqida o‘ylash, keyin esa juftlikda fikr almashish va natijalarni umumiy guruh bilan baham ko‘rish imkoniyati beriladi.

Mavzu: O‘quvchilarga o‘zbek tilidagi biror mavzuda (masalan, o‘zbek tilida salomlashish, tanishish) fikr yuritish topshirig‘i beriladi.

Topshiriq: O‘quvchilar mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozib, juftlikda muhokama qilishadi, keyin guruhga umumiy natijalarni taqdim etishadi.

Natija: O‘quvchilar o‘z fikrlarini ifodalashni va boshqa o‘quvchilar bilan fikr almashishni o‘rganadilar.

5. “Peer review” (Tengdoshlik baholash).

Metod: O‘quvchilar o‘zaro bir-birining ishlarini baholash orqali o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar.

Topshiriq: O‘quvchilar o‘zbek tilida yozilgan qisqa hikoyalar yoki dialoglarni tayyorlaydilar. Har bir o‘quvchi boshqa birining ishini o‘qib, unga fikrlar bildiradi.

Natija: O‘quvchilar bir-birlarining ishlari haqida fikr bildiradilar, grammatika va uslubiy xatolarni tuzatishga yordam beradilar.

6. “Jigsaw” metodi (Pazl usuli).

Metod: O‘quvchilar bir-birlariga ma’lum bir mavzuni o‘rgatish uchun guruhlarga bo‘linadilar. Har bir guruh mavzuning bir qismini o‘rganadi va keyin o‘quvchilar bu qismlarni birlashtirib, umumiy tasavvur hosil qilishadi.

Mavzu: O‘zbek tilidagi grammatika yoki mavzular bo‘yicha (masalan, otlar, fe’llar) guruhlar tashkil etiladi.

Topshiriq: Har bir guruh o‘zining belgilangan bo‘limini o‘rganadi, so‘ngra o‘quvchilar guruhlararo fikr almashishadi.

Natija: O‘quvchilar bir-birlaridan o‘rganib, o‘zbek tilini chuqurroq tushunishadi.

7. “Flipped classroom” (Teskari dars).

Metod: O‘quvchilar darsdan oldin mavzu bo‘yicha video material yoki maqolalar o‘qib, darsda bu bilimlarni muhokama qilishadi. Darsda o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undashga yordam beradi.

Mavzu: O‘quvchilarga o‘zbek tili grammatikasi yoki so‘z boyligi bo‘yicha video materiallar taqdim etiladi.

Topshiriq: O‘quvchilar videolarni ko‘rib, keyin sinfda guruhlarda muhokama qilishadi. Savollarni o‘zbek tilida javob berish topshiriladi.

Natija: O‘quvchilar video materiallar orqali o‘zbek tilining grammatika qoidalari va so‘z boyligini o‘rganadilar, so‘ngra amaliy mashqlarni bajarishadi.

8. “Virtual haqiqat” (VR) va “Kengaytirilgan haqiqat” (AR).

Metod: O‘quvchilarga interfaol va vizual tajribalarni yaratish uchun virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalaridan foydalanish. Bu metod o‘zbek tilini o‘rgatishda real vaziyatlarni simulyatsiya qilishga yordam beradi.

Platforma: AR yoki VR yordamida o‘zbek tilida interfaol simulyatsiyalar yaratish.

Topshiriq: O‘quvchilarga o‘zbek tilida biror vaziyatda (masalan, do‘konda mahsulot sotib olish, aeroportda uchish) muloqot qilish topshiriladi. Ular AR yoki VR yordamida virtual muhitda bu vaziyatlarni amalda bajarishadi.

Natija: O‘quvchilar tilni real hayotdagi vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganadilar.

Zamonaviy interfaol metodlar yordamida o‘zbek tilini o‘qitishda o‘quvchilarning qiziqishi oshadi va tilni o‘rganish jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo‘ladi. Bu metodlar nafaqat o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, balki ularni tilni amaliy tarzda qo‘llashga undaydi.

O‘zga tilli o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatish jarayonida, sun’iy intellekt yordamida mavzularni yanada samarali o‘rganish mumkin. 7-sinf o‘zbek tili darsligida adabiy o‘qish mavzusida “Robotlar” matni berilgan. “Robotlar” mavzusini o‘rgatishda, o‘quvchilarga tilni nafaqat tushunishni, balki real hayotda qanday ishlatishni ham o‘rgatish zarur. Quyida adabiy o‘qish darslarida sun’iy intellektdan foydalangan holda otish mumkin bo‘lgan metod va mashqlarni namuna sifatida keltirishimiz. Avvalo, matn bilan tanishib chiqamiz.

Robotlar. Yaqin-yaqinlargacha robotlar inson uchun xayoliy kashfiyot bo‘lib tuyular va ularni faqatgina filmlarda tomosha qilish mumkin edi. Biroq bugun texnologiya rivoji tufayli har xil robotlar turli sohalarda qo‘llanmoqda. Uy ishlarida ko‘mak beruvchi robotlar ham yaratilib, odamlarning mehnatini osonlashtirmoqda. Robot-tozalovchi pol, deraza va chang bo‘lishi mumkin bo‘lgan joylarni tozalashni o‘z zimmasiga oladi. Bu esa uy egasiga bir qancha yengilliklar yaratadi. Ularning aksari unchalik qimmat emas, shuningdek, katta joy egallamaydi. Ularni boshqarish ham qiyin emas, mobil dastur orqali tozalash uchun vaqt va joyni tanlash mumkin. Robot ifloslangan joylarni aniqlaydi, chang, soch tolalari, hayvon junini ehtiyotkorlik bilan yig‘ib oladi. U qo‘lda yig‘ishtirish va supurib-sidirish qiyin joylarni tozalashga mo‘ljallab tayyorlangan. Robotning bo‘yi past, shuning uchun mebel tagini ham osonlik bilan tozalay oladi. Tegishli ishlarini bajarib bo‘lgandan so‘ng avtomatik ravishda o‘z joyiga qaytadi. Robot-enagalar bolalar bilan astoydil shug‘ullanadi, masalan, ularga ertak aytadi, savollariga javob beradi, ota-onaning iltimosini yetkazadi, hatto, bola aks etgan videolavhani mobil telefonga uzatadi. Ushbu robotning keksalarga xizmat ko‘rsatadigan turlari ham bor. Ular ishlar ro‘yxatini tuzadi, barcha qaydlarni eslatib turadi, kichik ishlarni bajaradi. Sun’iy intellekt sharofati bilan sohibining odatlariga moslashadi, suhbatlashadi. Hatto, egasining ahvoli yomonlashsa, favqulodda xizmat xodimlarini ham chaqira oladi. Xullas, ilm-fan taraqqiyoti natijasida inson mehnatini yengillashtiradigan, uning yashash tarzini osonlashtiradigan ko‘plab robotlar yaratilmoqda [7].

Quyida “Robotlar” mavzusini o‘rgatish uchun turli metodlar va mashqlarni namuna sifatida keltirish mumkin:

1. Leksik va grammatik mashqlar.

1.1 So‘zlarni o‘rganish:

Sun’iy intellekt yordamida “robotlar” mavzusiga oid so‘zlarni o‘rganishning samarali usuli flashcard (karta) mashqlari bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar robotlar va ularning ishlash tamoyillari haqida yangi so‘zlarni o‘rganadilar.

Mashq: Darslikda berilgan lug‘atga o‘quvchilarning e’tibori qaratiladi. O‘quvchilarga “Robotlar” matni bilan bog‘liq o‘zbekcha so‘zlar (masalan, *soha, ko‘mak bermoq, zimmasiga olmoq, ehtiyotkorlik, keksa, sohib*) va ularning tarjimalari yetti tilda taqdim etiladi (jadval).

Sun’iy intellekt yordamida bu so‘zlarni o‘quvchilarni test qilish, jumlalar ichida ishlatish yoki tarjima qilish orqali o‘rganishga yordam beradi.

1.2. Grammatik mashqlar.

O‘quvchilarga o‘zbek tilining asosiy grammatik qoidalarini o‘rgatish, jumladan, fe’lni qo‘llash va

Jadval.

“Robotlar” matni bilan bog‘liq o‘zbekcha so‘zlar va ularning tarjimalari yetti tilda

So‘z	Ruscha	Qozoq-cha	Qirg‘iz-cha	Qoraqalpoqcha	Turkmancha	Tojik-cha
xayoliy	фантастический	қияли	элестетүү	қияли	хиялий	хиёли
soha	область	сала	тармак	сала	soha	соҳа
ko‘mak bermoq	помогать	көмек көрсету	жардам берүү	ярдәм бермек	kömek bermek	кӯмак кардан
zimmasiga olmoq	взять на себя	Өз міндетіне алу	өзүнө ала коюу	өз зиммәсине алу	öz üstüne almak	ба танҳо кардан
ehtiyotkorlik	осторожноь	абайлық	этияттуулук	эҳтиётқорлик	ähtiotlylyk	эҳтиётқорӣ
keksa	пожилой	абайлық	карык	кексә	ýaşly	пир
sohib	хозяин	иесін	ээси	хужайин	eýe	соҳиб

to‘g‘ri gap tuzish uchun AI yordamida mashqlar yaratish mumkin.

Mashq: O‘quvchilar robotlarning harakatlarini ifodalovchi jumlalarni to‘g‘ri tuzishlari kerak. Misol: “Robot derazalarni tozalaydi” – bu jumladagi fe’l va so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirish.

2. Fe’lni qo‘llash: O‘quvchilarga robotlar faoliyatini tasvirlash uchun fe’llarni to‘g‘ri shaklda qo‘llashni o‘rgatish.

2. Matnni tushunish va tarjima mashqlari.

1.2. Matnni tushunish:

“Robotlar” mavzusidagi matnni o‘qib, o‘quvchilar unga asoslangan savollarga javob berishlari kerak. AI yordamida matndan tushunishga asoslangan savollar yaratish mumkin:

Savollar:

1.1. Robot-tozalovchi pol qanday ishlaydi?

1.2. Robot-enagalar nima ishlarni bajaradi?

1.3. Robotlar keksalarga qanday yordam berishi mumkin?

Mashq: O‘quvchilarga matnni o‘qish va keyin matnga asoslangan savollarga javob berish topshirig‘ini berish. Sun’iy intellekt, o‘quvchilarning javoblarini tahlil qiladi va to‘g‘ri javoblarni taqdim etadi.

2.2. Tarjima qilish:

Matndagi ba’zi qismlar o‘zbek tilidan o‘zga tilga tarjima qilinishi kerak. AI orqali tarjima qilish mashqlari yaratish mumkin.

Mashq: O‘quvchilarga matndan bir nechta jumlalarni ajratib, ularni o‘zbekchadan o‘z tiliga tarjima qilishni so‘rash. Misol: “Robot ifloslangan joylarni aniqlaydi, chang, soch tolalari, hayvon junini ehtiyotkorlik bilan yig‘ib oladi”.

3. Talaffuz va nutq mashqlari.

3.1. Talaffuzni tekshirish:

O‘quvchilarga robotlarning ishlashini tavsiflovchi o‘zbekcha jumlalarni aytib berishlarini so‘rash. AI yordamida talaffuzni tekshirish va to‘g‘ri talaffuzni o‘rgatish mumkin.

Mashq: Sun’iy intellekt o‘quvchidan jumlalarni aytishni so‘raydi va talaffuzini tekshiradi. Misol: “Robot-enagalar bolalar bilan astoydil shug‘ullanadi”.

3.2. Dialoglarni yaratish:

AI yordamida robotlar va ularning foydalari haqida qisqa dialoglarni yaratish va o‘quvchilarga ularga asoslangan suhbatlarni taklif qilish.

Mashq: O‘quvchilar robotlar haqida qisqa interaktiv suhbatlar o‘rganadilar. Masalan, o‘quvchi robot tozalovchi polni qanday ishlashini tushuntiradi va robotlar haqida savollar beradi.

4. O‘yinlar.

4.1. O‘yinlar yordamida so‘zlarni o‘rganish:

Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilar robotlar mavzusidagi so‘zlarni o‘rganish uchun interaktiv o‘yinlar yaratishi mumkin.

Mashq: O‘quvchilar robotlar bilan bog‘liq so‘zlarni topish, ularni to‘g‘ri moslashtirish yoki robotlarni ishlatib turli muammolarni hal qilish o‘yinlarida qatnashadilar.

4.2. Tugmalarni to‘g‘ri tanlash:

O‘quvchilar robotlarning vazifalari va ishlash usullarini tushunish uchun AI yordamida tanlov mashqlari bajaradilar. Misol uchun:

Mashq: O‘quvchilarga robotlarning vazifalari haqida matn beriladi va ular kerakli tugmani tanlab robotlar nima ishlarni bajarishini tanlashlari kerak. (Masalan: “Robot tozalovchi pol qanday ishlaydi?” va javoblar: “Chang yig‘ish”, “Yemak tayyorlash”, “Mebel yig‘ish”).

5. Kreativ yondashuv va amaliy mashqlar.

5.1. Robotlarni dizayn qilish:

O‘quvchilar robotlarning turli turlarini tasvirlab berishlari kerak. Ularni o‘zbek tilida tasvirlashni o‘rganish va sun’iy intellekt yordamida robotlarni virtual tarzda yaratish mumkin.

Mashq: O‘quvchilarga robotlar haqida o‘z fikrlarini yozish va tasvirlash, masalan, “Uyda yordam beradigan robot qanday ko‘rinishda bo‘lishi kerak?”

“Robotlar” mavzusini o‘zga tilli o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonida sun’iy intellektning imkoniyatlarini to‘liq ishlatish mumkin. Bu orqali o‘quvchilar tilni tez va samarali o‘rganishadi, grammatika, leksika, talaffuz, va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Turli xil interaktiv mashqlar, o‘yinlar, yordamida o‘quvchilar o‘zbek tilini o‘rganish jarayonida yanada qiziqarli va samarali natijalarga erishishlari mumkin.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llashda quyidagilarni rivojlantirish zarur:

1. Infratuzilma loyihalari. Ta’lim sharoitida zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun mustahkam infratuzilma zarur. Bu kompyuterlar, internet tarmoqlari, smartfonlar, interaktiv doskalar kabi texnik vositalarni ta’minlashni anglatadi.

2. O‘qituvchilarning malakasi. Raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarni treninglardan o‘tkazish darajasini oshirish zarur. O‘qituvchilar texnologiyalardan qanday foydalanishni va ularni ta’lim jarayoniga qanday integratsiya qilishni bilishlari kerak.

3. Platformalar va dasturlarni belgilash. Ta’limda foydalaniladigan platformalar va dasturlar o‘quvchilarning diqqatiga mos bo‘lishi kerak. Ular foydalanuvchilarga qulay va o‘qish jarayonini samarali tarzda qo‘llab-quvvatlashga yordam berishi lozim.

4. Interaktiv va ijodiy ishlar. Raqamli texnologiyalar ma’lumotlarni taqdim etish uchun emas, balki o‘quvchilarni faollashtirish, ularga ijodiy fikrlash va muammoni hal qilish uchun yordam berish kerak.

5. Ma’lumotlar bazasi. Ta’limda kompyuter texnologiyalarini qo‘llashda ma’lumotlar muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, ma’lumotlar uzatilishi va saqlab qolish bo‘lishi kerak.

6. Ta’limning moslashtirilishi. Raqamli texnologiya o‘quvchilarning o‘zlariga qarab moslashtirilgan ta’limni taqdim etadi. O‘quvchilarning bilim darajasi va o‘rganish sur’ati turlicha bo‘lishi mumkin, shuning uchun texnologiyani olish kerak.

7. Fikr-mulohaza va ishlab chiqarish. Bu o‘quvchilarning natijalarini tahlil qilish, tekshirish o‘qish jarayonini yaxshilash va individual tuzatishni amalga oshirish uchun zarur.

8. Hamkorlik, muloqot va o‘qish jarayonini samarali boshqarish. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarni bir-biri bilan hamkorlikda muloqot qilishda qanday muammo va yutuqlargalarga olib kelishini tahlil qilish.

9. Innovatsion texnologiyalar va yangilikni qo‘llash. Ta’limda kompyuter texnologiyalarini qo‘llashda innovatsion metodlarni qo‘llash zarur. Bu o‘quvchilarning bilimini oshirish bilan birga, o‘qituvchilarni ham rivojlantiradi.

10. O‘quvchilarning shaxsiyatini rivojlantirish. Raqamli texnologiyalar orqali o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, va o‘z-o‘zini rivojlantirish mumkin.

Xulosa. Raqamli ta’lim texnologiyalari, o‘zbek tilini o‘rgatishda innovatsiya ishlab chiqarishlar, ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi. Buning uchun, texnologiyaning qo‘llanishi uchun o‘quvchilarning tayyorligi, texnologik infratuzilma, pedagogik ishlab chiqarishlar va metodikani uyg‘unlashtirish zarur. Bu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish, interfaol metodlarni o‘quvchilarga mos ravshan tatbiq etish, o‘zbek tilini o‘rgatishda yuqori darajaga erishishga yordam beradi. Raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘zbek tilini o‘rgatishda qo‘llanilishi ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish va o‘quvchilarning bilim darajasini yuqorilash uchun muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt, gamifikatsiya va boshqa interaktiv metodlar o‘quvchilarni o‘rganishga qiziqtiradi va tilni amaliy qo‘llashga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalarni ta’limda qo‘llash o‘zbek tilini o‘rgatishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga katta hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar:

1. Zaripova L.F. Interactive learning as a means of developing professional competencies in the preparation of qualified workers (by the example of natural sciences). Tobolsk: TPI named after D.I. Mendeleev; 2017.

2. Singh MN. Inroad of digital technology in education: Age of digital classroom. High Educ Future. 2021;8(1):20-30.

3. Rodrigues AL. Digital technologies integration in teacher education: The active teacher training model. J E-Learn Knowl Societ. 2020;16(3):24.

4. Lacka E, Wong TC, Haddoud MY. Can digital technologies improve students’ efficiency? Exploring the role of virtual learning environment and social media use in higher education. Comp Educ. 2021;163:10409.

5. Rodrigues AL. Digital technologies integration in teacher education: The active teacher training model. J E-Learn Knowl Societ. 2020;16(3):33.

6. Pinto M, Leite C. Digital technologies in support of students learning in higher education: Literature review. Digit Educ Rev. 2020;(37):343-360.

7. Mengliyev B. O‘zbek tilining ham milliy korpusi yaratilishi lozim. Toshkent–2020.

8. Xidoyatova D, Tulasheva M, Rasulov N, Matlatipova N. O‘zbek tili: ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: – Respublika ta’lim markazi. 2022. 80- b.

UO'K 37.013.83 :378.091

INTERFAOL RAQAMLI TA’LIM RESURSLARINI YARATISHDA LEARNINGAPPS.ORG PLATFORMASIDAN FOYDALANISH ASOSLARI VA USULLARI

Aminov Istam Barnoyevich,
Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori
istam.aminov@mail.ru
Abdusobirova Maxliyo Kamariddinovna,
Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktorant
mabdusobirova34@gmail.com

Ushbu maqolada LearningApps.org platformasidan ta’lim muassasalarida, interfaol raqamli ta’lim resurslari yaratish va foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, Platforma yordamida raqamli ta’lim resurslari yaratish va o’quv jarayoni samaradorligini usullari ko‘rib chiqiladi. Talabalarning mashg’ulot jarayinidagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, ta’lim platformalari, raqamli ta’lim resurslari, interfaol raqamli ta’lim resurslar, LearningApps.org platformasi imkoniyatlari, interfeysi, raqamli ta’lim resurslarini yaratish vositalari.*

BASICS AND METHODS OF USING THE LEARNINGAPPS.ORG PLATFORM IN CREATING INTERACTIVE DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES

The article analyzes the possibilities of creating and using interactive digital educational resources in educational institutions using the LearningApps.org platform. At the same time, methods for creating digital educational resources and improving the effectiveness of the learning process using the Platform will be considered. The possibilities of increasing students' engagement in the learning process, developing independent thinking, and developing practical skills are emphasized.

Keywords: *digital technologies, educational platforms, digital educational resources, interactive tasks, LearningApps.org platform, opportunities, interface, tools for creating digital educational resources.*

ОСНОВЫ И МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЛАТФОРМЫ LEARNINGAPPS.ORG ПРИ СОЗДАНИИ ИНТЕРАКТИВНЫХ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ

В статье анализируются возможности создания и использования интерактивных цифровых образовательных ресурсов в образовательных учреждениях с использованием платформы LearningApps.org. При этом будут рассмотрены методы создания цифровых образовательных ресурсов и повышения эффективности процесса обучения с использованием Платформы. Подчеркиваются возможности повышения вовлеченности учащихся в учебный процесс, развития самостоятельного мышления и развития практических навыков.

Ключевые слова: *цифровые технологии, образовательные платформы, цифровые образовательные ресурсы, интерактивные задания, платформа LearningApps.org, возможности, интерфейсыб инструменты для создания цифровых образовательных ресурсов.*

Kirish. Ta’limda zamanoviy tedensiyalarning biri bu raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga kirishi. Ta’lim jarayonini raqamlashtirish faqat axborot texnologiyalardan foydalanishdan iborat emas. Internet, mobil ilova va turli platformalar orqali onlayn va oflayn tarzda amalga oshiriladigan ta’limda pedagogning moslashuvchanligi, ularni individuallashtirish, ta’limning ijodiy xususiyatini oshirishga qaratilgan yangi ta’lim modelini yaratish kabi muhim vazifalar kiradi. Ta’limni raqamlashtirish uchun esa internet resurslardan samarali foydalanish zarurdir. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga kiritiladigan internet resurslaridir. Zamanoviy davr raqamli resurslarni keng tarqatish va ulardan foydalanish bilan tasiflanadi[2].

Raqamli ta’lim resurslari axborot ta’lim muxitini ta’minlash vazifasiga erishishning istiqbolli vositasidir. Zamanoviy o‘qituvchilar nafaqat zamon bilan hamnafas bo‘lishlari, balki raqamli texnologiyalar vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini egallagan, raqamli dunyoni yaxshi biladigan o‘quvchilar bilan shug‘ullanishlari kerak.

Zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishida raqamli texnologiyalarining o‘rni har kuni ortib bormoqda. Bunga internet resurslaridan keng foydalanish, interfaol o‘qitish metodlarining joriy etilishi va ta’lim jarayonida raqamli platformalarning qo’llanilishi samarali ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalarining talabalarga taqdim etadigan interfaol materiallari, ularning faolligini oshirishda va ular tomonidan o‘zlashtiriladigan materiallarning sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kun voqeligi ta’lim jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalari vositalaridan foydalanishni taqoza qilmoqda. Bugingi kunda ta’lim jarayoni sifatini oshirishda ko’plab platformalar va ilovalar yaratilgan. Shuning uchun ham bilim olish uchun ilovalardan foydalanish qobiliyati xozirgi zamanoviy o‘qtuvchi uchun zarurdir. Ana shunday platformalardan biri LearningApps.org platformasi bo’lib hisoblanadi

LearningApps.org platformasi ta’lim jarayonini boyitishda va interfaol o‘qitish metodlarini amalga oshirishda samarali vosita sifatida e’tirof etilgan. Bu platforma o‘qituvchilarga o‘z mashg’ulotlarini nafaqat interfaol, balki qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini beradi. Talabalar esa ushbu platforma orqali o‘quv materiallarini o‘zlashtirish, mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘qituvchilar uchun LearningApps.org platformasi ko‘plab interfaol raqamli ta’lim resurslar yaratish imkoniyatini beradi. Bu platforma yordamida turli xil testlar, krossvordlar, moslashtirish o‘yinlari, diagramma va jadvallar bilan ishlashga bag‘ishlangan interfaol materiallar yaratish mumkin. Ushbu platformadan foydalanish nafaqat mashg’ulotning interfaolligini oshiradi, balki talabalarning motivatsiyasini kuchaytiradi va o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi [1].

LearningApps.org platformasidan foydalanishning samaradorligi va uning axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda qanday qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Maqolada interfaol raqamli ta’lim resurslar yaratish, talabalarning faolligini oshirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari talabalarning bilim darajasi 20–25% ga oshishini ko‘rsatdi. Bu tadqiqotning maqsadi LearningApps.org platformasining ta’lim jarayonidagi samaradorligini baholash va uning o‘qitishdagi o‘rni haqida xulosalar chiqarishdan iboratdir.

Asosiy qism. LearningApps.org ta’lim va o‘qitish jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun Web 2.0 ilovasi hisoblanib, interfaol modullar yordamida amalga oshiriladi.LearningApps.org xizmati yordamida ozgina vaqt oralig‘ida o‘zingizning turli xildagi topshiriqlarni (xotirani rivojlantirish o‘yinlari, krossvordlar, to‘g‘ri javobni tanlash bilan viktorinalar, testlar, krossvordlar, juftlikni topish va moslikni o‘rnatish va boshqalar) yaratishingiz mumkin va interaktiv shakl talabalarning fanga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Agar xohlasa, AKT bilan ishlashning eng minimal ko‘nikmalariga ega bo‘lgan har qanday o‘qituvchi o‘z resursini yaratishi - yangi materialni tushuntirish, mustahkamlash, o‘qitish, nazorat qilish uchun kichik mashq, hamda buni yetarlicha sifatli darajada amalga oshirishi mumkin.

Buning uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

1. Qidiruv qatoriga **https://learningapps.org/** ni kiritamiz. **Вход** tugmasini bosamiz:



2. O’z akkauntimizni yaratamiz:



3. Kerakli ma’lumotlarni kiritamiz (foydalanuvchi nomi 5 ta belgidan qisqa va 25 ta belgidan uzun bo‘lmasligi kerak) va СОЗДАТЬ КОНТО tugmasini bosamiz.



4. Akkaunt sozlandi.

Platforma bilan ishlash uchun quyidalar imkoniyat paydo bo‘ladi:

- ✓ sinf yaratish;
- ✓ yangi mashqlar yaratish;
- ✓ o‘z mashqlarini papkada saqlash;
- ✓ tayyor mashqlardan foydalanish.

Learningapps.org xizmatida yaratilgan didaktik materiallardan mashg’ulot o‘tishda ham, informatika va AKT bo‘yicha sinfdan tashqari tadbirlarda ham foydalanish mumkin. Ularni yangi materialni o‘rganishda ko‘rgazmali material sifatida yoki uni mustahkamlash uchun, biror mavzu o‘rganilgandan so‘ng nazorat-tekshiruv materiali sifatida qo‘llash mumkin. Shuningdek, talabalar uchun turli darajadagi murakkablikdagi individual topshiriqlarni yaratish mumkin.

Ishlab chiqilgan materiallardan nafaqat talabalar bilan ishlashda, balki ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlarning turli shakllarida (pedagogik suhbatlar, mavzuli maslahatlar va boshqalar) foydalanish mumkin.

Interfaol didaktik materiallarning an’anaviy materiallardan afzalliklari ularning ko‘rgazmaliligi, tushunarliligi, ijodiyligi; kitob o‘rniga kompyuter yoki noutbukdan foydalanish; turli xil fayllardan (audio, video, grafik va boshqalar), shuningdek, turli xil mashqlardan foydalanish talabalarning qiziqishi, kognitiv faolligi, AKT kompetentligini rivojlantirishga yordam beradi.

Xizmat, hatto, talabalar jamoasi ishini tashkil etishga, o‘quv kurslarini o‘rganishning individual trayektoriyalarini tuzishga, o‘quv materiallarining o‘z bankini yaratishga yordam beradi, bu esa foydalaniladigan o‘quv materiallarini xilma-xillashtirish, talabalarning o‘quv faoliyatini ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish imkonini beradi, bu esa sezilarli darajada ta’lim samaradorligini oshirishga olib keladi.

Muhokama. **LearningApps.org platformasi, o‘qitish jarayonida interfaol raqamli ta’lim resurslar yaratish va talabalarni faollashtirishda samarali vosita sifatida ajralib turadi. Ushbu platforma yordamida o‘qituvchilar o‘z mashg’ulotlarini yanada qiziqarli va interfaol qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa, talabalar uchun o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, platformadan foydalanish talabalar bilimini oshirishi bilan birga, ularning o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi.**

Platforma, talabalar orasida mustaqil fikrlash va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, platforma orqali yaratilgan krossvordlar va testlar talabalarni o‘ylashga majbur qiladi, bu esa ular uchun zaruriy tafakkur va analiz qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhdagi talabalar mustaqil ravishda muammolarni yechishda yanada yaxshiroq ko‘rsatkichlar ko‘rsatdilar. Bu, o‘z navbatida, LearningApps.org platformasining mustaqil ta'lim jarayonini qo‘llab-quvvatlashdagi samaradorligini ta’kidlaydi [2].

Platforma, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham foydalidir. Masalan, informatika fanidan diagramma va jadvallar bilan ishlashni o‘rgatish uchun yaratilgan raqamli ta’lim resurslar talabalarni real hayotda uchraydigan vazifalarga tayyorlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, talabalar uchun praktika bilan bog‘liq bilimlarni yanada mustahkamlaydi. Bu jarayonda talabalar o‘quv materiallarini faqat nazariy tushunib qolmay, balki amaliy vazifalarni bajarishda ham bilimlarini qo‘llashga o‘rganadilar.

Biroq LearningApps.org platformasidan foydalanishda ba'zi cheklovlar ham mavjud. Platforma internetga bog‘liq bo‘lgani uchun, internet aloqasi yomon bo‘lgan joylarda mashg’ulotlarni samarali o‘tkazish qiyin bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ba'zi o‘qituvchilar va talabalar platformaning turli xususiyatlari va shablonlaridan to‘liq foydalana olmasliklari mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun, o‘qituvchilar uchun treninglar va ko‘rsatmalar o‘tkazilishi zarur [3].

LearningApps.org platformasining kelajakdagi imkoniyatlari juda katta. Platforma interfaol raqamli ta’lim resurslarning ko‘lamini yanada kengaytirishi mumkin, masalan, ariza shakllarini to‘ldirish, diagrammalarni tahrirlash va boshqa ko‘plab amaliy raqamli ta’lim resurslarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, platforma milliy o‘quv dasturlariga moslashtirilishi, har bir fan uchun maxsus shablonlar yaratilishi mumkin. Bu esa, ta'lim jarayonini yanada samarali va individual tarzda tashkil etishga yordam beradi.

Natijalar. **Tadqiqot davomida LearningApps.org platformasining ta'lim jarayonidagi samaradorligi va interfaol raqamli ta’lim resurslar yordamida talabalarning bilim darajasi qanday o‘zgarganligi haqida bir qator natijalar olingan. Tajriba guruhda platformadan faol foydalanish talabalar bilim darajasining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijalar talabalarning faolligini va o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada yaxshilaganligini ko‘rsatdi**.

Tajriba va nazorat guruhining bilim darajalarini solishtirishda aniq farqlar kuzatildi. Tajriba guruhda, interfaol raqamli ta’lim resurslarni LearningApps.org platformasi yordamida yaratish va ulardan foydalanish orqali talabalar o‘z bilimlarini yanada mustahkamlashdi. Nazorat guruhidagi talabalar esa, an'anaviy usullar bilan mashg’ulot olib borishdi va ularning bilim darajasi ancha past bo‘ldi.

Tadqiqotda ko‘rsatilganidek, tajriba guruhdagi talabalar boshlang‘ich baholariga nisbatan 20–25% ga ko‘proq ball olishdi, bu esa LearningApps.org platformasining ta’lim jarayonidagi samaradorligini tasdiqlaydi. Bu natijalar, talabalarni faollashtiradigan, interfaol va innovatsion yondashuvlarning talabalarning bilim darajalarini oshirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi.

LearningApps.org platformasi orqali yaratgan testlar va krossvordlar talabalar uchun juda foydali bo‘ldi. Krossvordlar, ayniqsa, informatika terminologiyasini o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynadi. Bu raqamli ta’lim resurslari orqali talabalar nafaqat yangi bilimlarni olishdi, balki o‘zlarining eslab qolish va tahliliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirdilar.

Bundan tashqari, diagramma va jadvallar bilan ishlashga doir interfaol raqamli ta’lim resurslar ham talabalar uchun samarali bo‘ldi. Bu raqamli ta’lim resurslar talabalarga murakkab axborotlarni oson tushunish va ularga tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam berdi.

Tajriba guruhda talabalar mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvni ko‘proq qo‘lladilar. LearningApps.org platformasida interfaol raqamli ta’lim resurslarni bajarish jarayonida, talabalar har bir savolni yoki masalani yechishda o‘z bilimlarini tanqidiy tahlil qilishga majbur bo‘ldilar. Bu esa, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam berdi. Natijada, tajriba guruhda talabalar mustaqil ravishda masalalarni hal qilishda ancha yuqori ko‘rsatkichlarga erishdilar.

LearningApps.org platformasi yordamida yaratlangan vizual materiallar, jumladan, diagrammalar, jadval va boshqa grafikalar, talabalar uchun o‘rganish jarayonini yanada tushunarli va samarali qildi. Vizual materiallarning yordamida talabalar mavzularni aniqroq tushunishdi va yaxshiroq o‘zlashtirishdi. Bu, o‘z navbatida, mashg’ulotlarning samaradorligini oshirdi.

Talabalar tomonidan olib borilgan faoliyatning tahlili, LearningApps.org platformasi orqali o‘rganishning yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Tajriba guruhdagi talabalar, interfaol raqamli ta’lim resurslarni bajarganida, o‘zlarining bilimlarini aniqroq tushunib olishdi. Bu guruhdagi talabalar faolligi sezilarli darajada oshdi va ular mashg’ulot jarayonida ko‘proq ishtirok etishga tayyor bo‘lishdi. Bu esa, platformaning ta’lim jarayonini faollashtirishdagi muhim rolini ko‘rsatadi.

Xulosa. LearningApps.org platformasidan foydalanish, informatika sohasiga oid fanlarni o‘qitishda interfaol raqamli ta’lim resurslarni yaratish va o’quv jarayoni samaradorligini oshirish jarayonida talabalarning bilim darajasini oshirishga, faolligini kuchaytirishga va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol raqamli ta’lim resurslar yordamida talabalar o‘z bilimlarini yanada mustahkamlashdi, analitik fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda sezilarli yutuqlarga erishdilar.

Tajriba guruhda o‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, LearningApps.org platformasi nafaqat talabalar uchun o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilishda, balki o‘qituvchilarga mashg’ulotlarni interfaol va yuqori sifatli tashkil etishda ham yordam berdi. Bunday innovatsion ta’lim resurslari talabalarni mustaqil ishlashga undadi, bilimlarni yanada chuqurroq o‘zlashtirishga imkon berdi. Shuningdek, platformaning o‘ziga xos xususiyatlari, masalan, qulay interfeys, ko‘plab tayyor shablonlar va turli xil interfaol vositalar talabalar uchun o‘rganishni osonlashtirdi.

Biroq platformaning internetga bog‘liqligi, ba'zi texnik cheklovlar va mobil versiyasida mavjud bo‘lgan muammolarni inobatga olib, o‘qituvchilarga mashg’ulotga tayyorlanishda boshqa qo‘shimcha resurslardan ham foydalanish tavsiya etiladi.

Kelgusida LearningApps.org platformasining imkoniyatlarini yanada kengaytirish, turli fanlar va milliy o‘quv dasturlariga moslashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish zarur. Bu, o‘z navbatida, talabalar va o‘qituvchilar uchun yanada samarali ta’lim vositalarini yaratishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Винницкий Ю. А. Учимся – играя, или старый добрый LearningApps [Электронный ресурс]: Сообщество учителей Intel Education Galaxy. Режим доступа: https://edugalaxy.intel.ru/index.php?automodule=blog&blogid=6885&showentry=5530

2. Сидоров С. В. Возможности создания интерактивных модулей в обучающих приложениях LearningApps.org. [Электронный ресурс]: Сайт педагога-исследователя. – Режим доступа: http://sisv.com/blog/2013-08-02-48

3. Soliev Sh.T. Zamonaviy ta'limda axborot texnologiyalarining o‘rni. Toshkent: Fan, 2022.

4. Abdurahmonov B.R. Raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish samaradorligi. Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2022.

5. Karimova D.M. LearningApps.org platformasi imkoniyatlari. Ta'lim va innovatsiyalar, 2023, №1, 45–48.

6. Axmedova N.I. Interfaol mashg’ulot texnologiyalari va ularning samaradorligi. Ilm-fan va ta'lim, 2021, № 2, 30–34.

7. Официальный сайт Learningapps.org, руководство по созданию классов - https://learningapps.org/LearningAppsKlassen.pdf

8. Дронова Е.Н. Разработка интерактивных упражнений в сервисе Learning Apps // NovaInfo.Ru. 2015. Т. 1. № 37. С. 179–184.

9. Галкина Е.А. Методика использования сервиса LearningAps.org в учебном процессе // Актуальные вопросы реализации в вузе федеральных государственных Электронные средства поддержки обучения 49 образовательных стандартов нового поколения: материалы XLII научно-методической конференции преподавателей, аспирантов и сотрудников. Красноярск: КГПУ им. В.П. Астафьева, 2016. С. 72–75.

PEDAGOGIK FAOLIYATDA SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN CHAT-BOTLARDAN FOYDALANISH

Atamuratov Rasuljon Kadirjanovich,
ToshDO‘TAU, Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti, ped.f.f.d (PhD)
rasul_atamuratov@mail.ru

Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida, ayniqsa, informatika o‘qituvchilari faoliyatida sun’iy intellektdan foydalanish istiqbollari va imkoniyatlari muhokama qilinadi. Sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalar, xususan chat-botlarga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, ularning ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirishi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirishi va o‘qituvchilarning darslarga tayyorgarligini yengillashtirishi aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotda turli xil so‘rovlarga javoban olingan chatbotlar bilan muloqot tajribasi keltirilgan bo‘lib, berilgan javoblarning mazmun jihatidan to‘g‘riligi, dolzarbligi va metodik asoslanganligi tahlil etiladi. Sun’iy intellekt modellari yordamida olingan natijalar pedagogik faoliyatda yangi imkoniyatlarni ochib, ta’limda interaktiv va innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarurligi ilmiy asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *pedagogik faoliyat, sun’iy intellekt, informatika fani, chat-bot, ta’lim jarayoni, Python tili.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЧАТ-БОТОВ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В данной статье обсуждаются перспективы и возможности использования искусственного интеллекта в современном образовательном процессе, особенно в деятельности учителей информатики. Особое внимание было уделено технологиям, основанным на искусственном интеллекте, в частности, чат-ботам, которые значительно повышают качество образования, стимулируют самостоятельное мышление учащихся и облегчают подготовку учителей к урокам. Также в исследовании представлен опыт общения с чат-ботами, полученными в ответ на различные запросы, анализируется содержательная правильность, актуальность и методологическая обоснованность данных ответов. Результаты, полученные с помощью моделей искусственного интеллекта, открывают новые возможности в педагогической деятельности и научно обосновывают необходимость использования интерактивных и инновационных подходов в образовании.

Ключевые слова: *Педагогическая деятельность, искусственный интеллект, информатика, чат-бот, образовательный процесс, язык Python.*

USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED CHAT-BOTES IN PEDAGOGICAL ACTIVITY

This article discusses the prospects and possibilities of using artificial intelligence in the modern educational process, especially in the activities of computer science teachers. Special attention was paid to technologies based on artificial intelligence, in particular, chatbots, which significantly improve the quality of education, stimulate students' independent thinking and facilitate teachers' preparation for lessons. The study also presents the experience of communicating with chatbots received in response to various requests, analyzes the substantive correctness, relevance and methodological validity of these responses. The results obtained using artificial intelligence models open up new opportunities in teaching and scientifically substantiate the need to use interactive and innovative approaches in education.

Keywords: *pedagogical activity, artificial intelligence, computer science, chatbot, educational process, python language.*

Kirish. Raqamli transformatsiya davrida zamonaviy ta’limni innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Sun’iy intellekt (AI) ga asoslangan chatbotlar o‘qituvchi va o‘quvchilarning samarali faoliyati uchun katta hajmdagi ma’lumotlarni tez va aniq qayta ishlab, bilim olish jarayonini jadallashtirmoqda.

Shuningdek, ular axborotni samarali uzatish va o‘quv materiallarini chuqurroq tushunishga, shaxsiy ta’lim trayektoriyasini yaratish, baholashni avtomatlashtirish, aqlli murabbiylik qilish, o‘quv kontentini optimallashtirish hamda ta’limiy resurslarni tavsiya etish kabi muhim vazifalarni bajarmoqda. Ta’lim jarayonida sun’iy intellektga asoslangan chatbotlardan foydalanish raqamli dunyoning muhim tendensiyalaridan biri bo‘lib, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, bu texnologiya o‘qitish darajasini oshirish bilan birga ta’lim sifatini yaxshilash uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. AI ga asoslangan chatbotlar yordamida o‘qitishdan tortib alohida o‘quvchilar uchun individual o‘quv materiallarini yaratishgacha turli xil ta’limiy vazifalarni bajarishda qo‘llash mumkin.

AI ga asoslangan chatbotlardan foydalanishning metodik ko‘rsatmalari maktab o‘qituvchilariga o‘quv jarayonida, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar, mustaqil ta’lim, to‘garaklar hamda turli musobaqa va tanlovlarga tayyorgarlik ko‘rishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuning bilan birga, pedagoglarning kasbiy faoliyatida darsga tayyorgarlik ko‘rish vaqtini tejashga, darslarni rejalashtirishda ijodiy yondashuvni qo‘llashga, uslubiy materiallarini xilma-xil qilishga va o‘quv vazifalarini hal etish uchun zarur bo‘lgan axborot texnologiyalarini qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda talabalarni nafaqat zamonaviy axborot texnologiyalaridan, balki kelajakda paydo bo‘ladigan yangi texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash, AI ga asoslangan texnologiyalarni o‘quv vositasi sifatida ta’lim jarayoniga joriy etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Chatbot texnologiyasi umumiy ta’lim natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgani shubhasiz. Xususan, chatbotlar o‘zlashtirish, aniq fikr yuritish va bilimlarni saqlashda sezilarli yaxshilanishlarni namoyish etadi. Masalan, R.Rosas va hamkasblarining fikricha, “ta’limdagi chatbotlar shaxsiy ko‘rsatmalar berish, mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etish va real vaqt rejimida fikr-mulohaza almashish orqali o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonlarini takomillashtiradi [1]. H.Bekkar va Y.Chtouki tadqiqotlarida esa “katta til modellariga asoslangan chatbotlar ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradigan hamda shu bilan birga integratsiya masalalarini keltirib chiqaradigan qulay vositalar va interaktiv tizimlar”[2], – deb fikr yuritganlar.

Boshqa tadqiqotlarda, masalan, W.Alsayed va uning hamkasblari “chatbotlar ta’lim sifatini yaxshilash bilan birga foydalanuvchilar bilan faol muloqotda bo‘ladi, individuallashtirilgan ta’lim tajribasini taqdim etadi va qaror qabul qiluvchi shaxslarga ularning qo‘llanilishini chuqurroq tushunishga ko‘maklashadi”, – deb ta’kidlaydi [3].

Chatbotlarning ta’limga joriy etilishi tezkor yordam, ma’lumotlarga tez kirish imkoniyati, yaxshilangan o‘quv natijalari va takomillashgan ta’lim tajribasi kabi afzalliklarni ta’minlaydi. Biroq, tanqidiy fikrlash, o‘qishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiya borasida qarama-qarshi natijalar ham berishi mumkin ekan. Mana shu masalada X.Deng va Z.Yu tomonidan chatbotlar ta’lim bilan bog‘liq ko‘plab jihatlarga sezilarli va ijobiy ta’sir ko‘rsatganini, ammo talabalar orasida motivatsiyani sezilarli darajada oshirmaganini aniqlaganlar [4]. Aksincha, C.Okonkwo va A.Ade-Ibijola [5], shuningdek, Wollny va boshqalar chatbotlardan foydalanish talabalarning motivatsiyasini oshirishini aniqladilar [6,7,8].

Bizning fikrimizcha, “Chatbotlar sun’iy intellekt yordamida ta’lim jarayonini takomillashtirish va o‘qitish vazifalarni yengillashtirish imkoniyatiga ega bo‘lgan ta’limdagi innovatsion vositalardan biridir”. Mazkur texnologiyani ta’lim jarayoniga joriy etilishi individual ta’lim, tezkor fikr-mulohaza almashish va o‘quvchilar hamda o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqotni optimallashtirish kabi potensial afzalliklarni taqdim etadi. Biroq, barcha afzalliklarga qaramay, chatbotlardan foydalanish ayrim muammolarga ham duch kelinmoqda. Masalan, maxfiylik masalalari, puxta ishlab chiqilgan joriy etish strategiyalarining zarurati va hokazolar.

Tadqiqotga doir adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur texnologiya doirasida o‘tkazilgan tadqiqotlar uning ta’lim jarayonida yangi innovatsiyalar kiritishga yordam berishi va raqamli ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib borayotganini, bu esa ta’lim sifati va motivatsiyani oshirishda katta imkoniyatlar yaratayotganini ta’kidlash lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda AI ga asoslangan chatbotlarni ta’lim sohasida, xususan, “Informatika va AT” fanini o‘qitishda qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rib chiqdik. Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: nazariy tahlil: AI ga asoslangan chatbotlar texnologiyalari bilan bog‘liq ilmiy adabiyotlar, ilg‘or tajribalar va amaliy dasturlar, ilmiy-nazariy yondashuvlar; amaliy tajriba: AI ga asoslangan chatbot modellarining imkoniyatlarini sinab ko‘rish, chatbotlarga yuborilgan so‘rovlar asosida olingan javoblarning aniqligi, dolzarbligi va pedagogik ahamiyati nuqtayi nazaridan baholash; real ta’limda chatbotlarning samaradorligi va foydaliligi va hokazolar. Olingan natijalar ta’lim jarayonida AI ga asoslangan chatbotlardan foydalanishning afzalliklari va cheklovlarini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar va tahlillar. AI ga asoslangan chatbot taqdim etadigan asosiy imkoniyatlardan biri - berilgan shart asosida masalalarni yechishdir. 1-rasmda AI ga asoslangan chatbotga “Informatika va AT” fani masalalarini yechish uchun yuborilgan so‘rovlarga misollar keltirilgan. Ushbu misollarni yechishda ChatGPT (https://chatgpt.com/) servisidan foydalanilgan.

Keltirilgan natijalardan ko‘rinib turibdiki, masalalarning to‘g‘ri yechimlari berilgan, dasturiy koddan so‘ng masalani yechish uchun algoritm qanday qo‘llanilganligi batafsil tushuntirilgan. Dasturiy kod aniq va tushunarli. Bunday so‘rovning kamchiligi shundaki, yechim faqat Python tiliga yo‘naltirilgan.

Keyingi so‘rovda nega aynan Python tilida masalani yechilgani so‘ralganida chatbot Python tili juda oson va tushunarli sintaksisga ega bo‘lgani uchun ko‘pincha birinchi misol sifatida foydalanar ekan. Shuningdek, faktorial kabi oddiy dasturlarni Python tilida tez va aniq ko‘rsatish mumkinligini, agar boshqa dasturlash tilini nazarda ishlanishi zarur bo‘lsa (masalan, C++, C, Java, JavaScript yoki Pascal kabi), u o‘sha tilda ham faktorial dasturini yechish kodlarini yozib berishni taklif qildi.

Endilikda masalalar to‘plamini yaratish uchun chatbotga murojaat qilishni ko‘rib chiqamiz. 2-rasmda informatika mavzulari bo‘yicha masalalar to‘plamini yaratish uchun chatbotga berilgan so‘rovlarga misollar keltirilgan (Masalalar havolasi – https://chatgpt.com/share/68106a21-9f0c-800b-ae88-591fe4f69369).

Ushbu misollarda ChatGPT (https://chatgpt.com/) onlayn xizmatidan foydalanildi. Umuman olganda, neyron tarmog‘i masalalarni yaxshi generatsiya qilgan. Chatbotni yechimli masalalarni yaratish uchun ham qo‘llash mumkin.

Keyingi qiladigan ishimiz “Informatika va AT” fanidan o‘quv keyslarini yaratish uchun AI ga asoslangan chatbotdan foydalanish bo‘ladi.



1-rasm. “Informatika va AT” fani mavzulari bo‘yicha masalalarni yechish uchun berilgan so‘rov

Mashg‘ulotlarda o‘quvchilar uchun qiziqarli ta’limiy materiallarni tayyorlash ancha vaqt talab etadi, chunki mavzu bo‘yicha ko‘p ma’lumotlarni qayta ishlash, kerakli materialni saralash va uni qulay shaklda taqdim etish lozim. Bu vazifani AI ga asoslangan chatbot yuklab ko‘ramiz va mavzuli o‘quv keyslarini

yaratish uchun so‘rovlar tuzamiz. Buning uchun yana ChatGPT onlayn xizmatidan foydalanamiz (o‘quv keysi havolasi – https://chatgpt.com/share/680fce0a-1308-800b-b15a-cfa8de6fcb18).

Sun’iy intellekt tomonidan shakllangan o‘quv keysi zaruriy nazariy bilimlar minimumini, yechimli keys vazifalarini va materialni mustahkamlash uchun mashqlarni o‘z ichiga oladi[9]. Bu o‘quv materialidan “Informatika va AT” fani o‘qituvchisi o‘zining darslarida bemalol foydalanishi mumkin [10,11]. Bunday o‘quv keyslarini tayyorlash uchun chatbot atigi bir daqiqa vaqt sarfladi. Ya’ni, AI ga asoslangan chatbot o‘qituvchining darsga tayyorgarlik ko‘rish uchun sarflaydigan vaqtini sezilarli darajada qisqartirish imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqot davomida informatika va AT fanida AI ga asoslangan chatbotlardan foydalanishning quyidagi afzalliklarini aniqlandi. Bular: tezkor axborot olish (dars materiallari, kod namunalar, algoritm tushunchalari va boshqalar); individual ko‘rsatmalar (o‘quvchining bilim darajasiga mos holda savollar berishi yoki tavsiyalar taklif qilishi); qayta mashq qilish (kod yozish, algoritm tahlil qilish va hokazo); texnik ko‘mak (dasturlashdagi xatoliklarni topish yoki kompyuter qurilmalaridagi muammolarni hal qilish); til va dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish (turli dasturlash tillarida javob bera olishi) imkonini beradi.



2-rasm. “Informatika va AT” fani mavzulari bo‘yicha masalalar to‘plamini yaratish uchun chatbotga berilgan so‘rov

Xulosa. Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, chatbotlarning ta’lim tizimidagi o‘rni tobora ortib borayotgani zamonaviy ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi boshlanganidan darak beradi. Endilikda AI vositalari orqali ta’lim berishda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi an’anaviy rollarni qayta belgilash zarurligini, o‘qituvchi endi faqat bilim beruvchi emas, balki murabbiy va ko‘rsatma beruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Chatbotlar orqali taqdim etilgan xizmatlar o‘quvchilarning akademik

ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ayniqsa mustaqil ta’limda agarda ularda raqamli savodxonligi shakllanganlik darajasi yuqori bo’lgandagina yaxshi natijalarni kafolatlaydi. Kelajakda bu kabi texnologiyalarning funksiyalari kengayib, AI yanada chuqurroq o‘rganishni va individual ta’limni ta’minlaydi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarining rivoji orqali chatbotlar yanada interaktiv va insonga o‘xshash muloqot qila oladigan darajaga chiqadi. Biroq, bizning fikrimizcha chatbotlar insoniy empatiya va kontekstual tushunishning to‘liq o‘rnini bosa olmaydi. Shuning uchun ularni o‘qituvchini to‘liq almashtiruvchi vosita emas, balki yordamchi texnologiya sifatida ko‘rish zarur.

Adabiyotlar:

1. Rosas, R. A., & Rodríguez, E. J. (2024). Chatbots: The Future of Education? International Journal of Engineering Pedagogy (iJEP), 14(8), 107–119. https://doi.org/10.3991/ijep.v14i8.49715
2. Bekkar, H.-A., & Chtouki, Y. (2024). Chatbots in Education: A Systematic Literature Review. 637–644. https://doi.org/10.1109/icscc62041.2024.10690334
3. Alsayed, W. O., Al-Hafdi, F. S., & Alhalafawy, W. S. (2024). Chatbots in Education. Advances in Educational Technologies and Instructional Design Book Series, 137–154. https://doi.org/10.4018/979-8-3693-9806-7.ch006
4. Deng, X., & Yu, Z. (2023). A meta-analysis and systematic review of the effect of chatbot technology use in sustainable education. Sustainability, 15(4), 2940.
5. Okonkwo, C. W., & Ade-Ibijola, A. (2021). Chatbots applications in education: A systematic review. Computers and Education: Artificial Intelligence, 2, 100033.
6. Wollny, S., Schneider, J., Di Mitri, D., Weidlich, J., Rittberger, M., & Drachsler, H. (2021). Are we there yet?—A systematic literature review on chatbots in education. Frontiers in Artificial Intelligence, 4, 654924.
7. Winkler, R., & Soellner, M. (2018). Unleashing the Potential of Chatbots in Education: A State-Of-The-Art Analysis. Academy of Management Proceedings, 2018(1), 15903.
8. Kooli, C. (2023). Chatbots in Education and Research: A Critical Examination of ethical implications and solutions. Sustainability, 15(7), 5614. https://doi.org/10.3390/su15075614
9. Labadze, L., Grigolia, M., & Machaidze, L. (2023). Role of AI chatbots in education: systematic literature review. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 20(1). https://doi.org/10.1186/s41239-023-00426-1
10. Atamuratov R., & Xushvaqtov A. (2024). Preparing future computer science teachers through using innovative technologies. Бюллетень науки и практики, 10 (5), 647-652.
11. Fayziyeva, M., Atamuratov, R., Sayfurov, D., & Dottoyev, S. (2021). Informatika va axborot texnologiyalari [7-sinf uchun darslik]. Respublika ta’lim markazi, - 160-bet.

MATHEMATICA, MATLAB, MAPLE, GEOGEBRA VA DERIVE AMALIY DASTUR PAKETLARINI TA’LIMDA QO‘LLASHNING AMALIY JIHATLARI

Lutfillayev Maxmud Xasanovich,
Samarqand davlat universiteti pedagogika fanlari doktori professor
el_kitob@rambler.ru
Chorshanbiyev Choriyor Ismadullo o‘g‘li,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti(PhD)
choriyorc@gmail.com

Ushbu maqolada Mathematica, MATLAB, Maple, GeoGebra va Derive dasturlarining asosiy xususiyatlari, farqlari va qo‘llanilish sohalari tahlil qilingan. Har bir dasturning arxitekturasi, interfeysi, imkoniyatlari va afzalliklari tadqiq etilgan va o‘rganilgan. Shuningdek, dasturlarning ta’lim, ilmiy tadqiqot va amaliy masalalarni yechishdagi qo‘llanilish sohalari bayon etilgan. Taqqoslash natijalari va qo‘llanilish bo‘yicha xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *kompyuterli matematik tizimlar, Mathematica, MATLAB, Maple, GeoGebra, Derive, simvolik hisoblashlar, sonli hisoblashlar, vizualizatsiya, dasturlash, modellashtirish.*

ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПАКЕТОВ ПРИКЛАДНЫХ ПРОГРАММ MATHEMATICA, MATLAB, MAPLE, GEOGEBRA И DERIVE В ОБРАЗОВАНИИ

В статье анализируются основные особенности, различия и области применения Mathematica, MATLAB, Maple, GeoGebra и Derive. Были исследованы и изучены архитектура, интерфейс, возможности и преимущества каждой программы. Описываются также области применения программ в образовании, научных исследованиях и решении практических задач. Представлены результаты сравнения, выводы и рекомендации по применению.

Ключевые слова: *Компьютерные математические системы, Mathematica, MATLAB, Maple, GeoGebra, Derive, символьные вычисления, численные вычисления, визуализация, программирование, моделирование.*

PRACTICAL ASPECTS OF USING THE APPLICATION PACKAGES MATHEMATICA, MATLAB, MAPLE, GEOGEBRA AND DERIVE IN EDUCATION

This article analyzes the main features, differences and areas of application of Mathematica, MATLAB, Maple, GeoGebra and Derive. The architecture, interface, capabilities and advantages of each program are studied. Also, the areas of application of the programs in education, scientific research and solving practical problems are described. The results of the comparison and conclusions and recommendations for application are presented.

Keywords: *computer mathematical systems, Mathematica, MATLAB, Maple, GeoGebra, Derive, symbolic calculations, numerical calculations, visualization, programming, modeling.*

Kirish. Zamonaviy fan va ta’lim sohasida kompyuterli matematik tizimlar (KMT) muhim o‘rin egallaydi. Bu tizimlar murakkab matematik masalalarni grafikli yechish, ilmiy-tadqiqot masalalarini avtomatlashtirish va o‘quv jarayonini samarali tashkil etish imkonyatini yaratadi. Bugungi kunda eng mashhur KMTlar qatoriga Mathematica, MATLAB, Maple, GeoGebra va Derive dasturlarini keltirish mumkin [8]. Dasturlar xususiyatlari, ishlash tamoyillari va qo‘llanilish sohalari nuqtayi nazaridan farqlanadi. Shuning uchun ularning qo‘llanilish sohalarini o‘rganish va farqlarni tushunish va muayyan masalani hal qilish uchun qaysi dasturni tanlash kerakligini bilish muhim ahamiyatga ega.

Mathematica dasturi va uning xususiyatlari. Mathematica - bu Wolfram Research kompaniyasi tomonidan yaratilgan, eng keng qamrovli kompyuterli matematik amaliy paketlardan biri hisoblanadi. Dastur 1988-yilda Stephen Wolfram tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi kunda 13 ta versiyagacha yangilangan [1].

Mathematica dasturining asosiy xususiyatlari

Yuqori simvolik hisoblash imkoniyatlari. Mathematica amaliy va nazariy matematikaning deyarli barcha sohalarida simvolik hisoblashlarni amalga oshirish imkonini beradi. Algebraik ifodalarni

soddalashtirish, differensiallash, integrallash, chekli va cheksiz yig‘indilarni hisoblash, differensial tenglamalarni yechish va boshqa ko‘plab amallarni simvolik shaklda bajarish imkoniyati mavjud.

Yuqori darajadagi vizualizatsiya. Mathematica 2D va 3D grafiklarni yuqori sifatda yaratish, animatsiyalar va interaktiv grafiklar hosil qilish imkonini beradi. Vizualizatsiya vositalari ma’lumotlarni tahlil qilish va murakkab jarayonlarni ko‘rgazmali tarzda tasvirlash uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.

Wolfram Alpha bilan integratsiya. Mathematica Wolfram Alpha bilim bazasi bilan integratsiyalashgan bo‘lib, bu foydalanuvchilarga tabiiy tilda so‘rovlar berish va inson tilidagi javoblarni olish imkonini beradi. Bu xususiyat dasturning qulayligini va imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Mathematica dasturining qo‘llanilish sohalari

Ilmiy tadqiqot sohalarida. Mathematica oliy matematika, fizika, kimyo, iqtisodiyot va boshqa fanlarni o‘qitishda va o‘rganishda keng qo‘llaniladi. Dastur murakkab tushunchalarni vizualizatsiya qilish va nazariy bilimlarni amaliy misollarda mustahkamlash imkonini beradi.

Iqtisodiyot va moliya. Mathematica iqtisodiy va moliyaviy modellashtirish, statistik tahlil va prognozlashtirishda qo‘llaniladi. Dastur yordamida murakkab iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va investitsion strategiyalarni ishlab chiqish mumkin.

Sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish. Oxirgi versiyalarda Mathematica sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish uchun samarali vositalarni taqdim etadi. Neyron tarmoqlarni modellashtirish, ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va murakkab algoritmlarni amalga oshirish mumkin.

MATLAB dasturi va uning xususiyatlari. MATLAB (Matrix Laboratory) - bu MathWorks kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, asosan matritsalar bilan ishlashga mo‘ljallangan matematik dastur paketi hisoblanadi. MATLAB 1984 yilda Cleve Moler tomonidan yaratilgan bo‘lib, hozirda dunyoning eng mashhur matematik tizimlaridan biri hisoblanadi [2].

MATLAB dasturining asosiy xususiyatlari

Matritsaga asoslangan. MATLAB nomidan ko‘rinib turganidek, matritsalar bilan ishlashga mo‘ljallangan. Dastur barcha turdagi matritsa operatsiyalarini samarali amalga oshirish, matritsalarni tahlil qilish va ular ustida amallarni bajarish imkonini beradi.

Optimallashtirilgan sonli hisoblashlar. MATLAB sonli hisoblashlar uchun optimallashtirilgan bo‘lib, katta hajmdagi ma’lumotlarni tez va samarali qayta ishlash imkonini beradi. Bu xususiyat muhandislik va ilmiy tadqiqotlar uchun juda muhim.

Simulink moduli. MATLAB tarkibiga kiruvchi Simulink moduli dinamik tizimlarni modellashtirish va simulyatsiya qilish imkonini beradi. Simulink grafik interfeys yordamida murakkab tizimlarni loyihalash, ularni tahlil qilish va natijalarni vizualizatsiya qilish mumkin.

Keng kutubxona va toolbox to‘plami. MATLAB signal qayta ishlash, mashinali o‘qitish, optimizatsiya, statistika, neyron tarmoqlar va boshqa ko‘plab sohalar uchun maxsus kutubxonalar va toolboxlarni o‘z ichiga oladi.

C, C++, Java va Python bilan integratsiya. MATLAB dasturlari boshqa dasturlash tillari bilan osongina integratsiyalashishi mumkin, bu esa katta loyihalarda turli texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi.

MATLAB dasturining qo‘llanilish sohalari

Muhandislik sohalarida. MATLAB signallarni qayta ishlash, boshqaruv tizimlari va elektron qurilmalarni loyihalashda keng qo‘llaniladi. Dastur yordamida signallarni filtrlash, tahlil qilish va qayta ishlash mumkin.

Robototexnika va avtomatlashtirilgan tizimlar. MATLAB va Simulink robototexnikada, avtonom transport vositalarini loyihalashda va boshqaruv tizimlarini ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi.

Moliyaviy modellashtirish. MATLAB moliyaviy bozorlardagi ma’lumotlarni tahlil qilish, investitsion strategiyalarni ishlab chiqish va moliyaviy risklarni baholashda qo‘llaniladi.

Maple dasturi va uning xususiyatlari. Maple - bu Maplesoft kompaniyasi (Waterloo Maple Inc.) tomonidan ishlab chiqilgan, simvolik va analitik hisoblashlar uchun mo‘ljallangan kompyuter matematik tizimi hisoblanadi. Dastur 1982-yilda Waterloo universiteti (Kanada) da ishlab chiqilgan bo‘lib, matematika va fizika sohasidagi masalalarni hal qilishda keng qo‘llaniladi [3].

Maple dasturining asosiy xususiyatlari

Yuqori simvolli matematik yadro. Maple simvolik hisoblashlarni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi matematik yadroga ega. Dastur algebraik ifodalarni soddalashtirish, integrallash, differensiallash va boshqa simvolik amallarni yuqori aniqlikda bajaradi.

Foydalanuvchiga qulay interfeys. Maple foydalanuvchi uchun qulay interfeysga ega bo‘lib, matematik ifodalarni tabiiy ko‘rinishda kiritish va natijalarni vizual ko‘rinishda olish imkonini beradi. Bu xususiyat ayniqsa ta’lim sohasida juda muhim.

Boshqa tizimlar bilan integratsiya. Maple Microsoft Excel, MATLAB, Java va C++ kabi boshqa dasturlar bilan ma’lumot almashish imkonini beradi, bu esa keng ko‘lamli loyihalarda samarali ishlash imkonini beradi.

Maple dasturining qo‘llanilish sohalari

Oliy matematika va fizika sohalarida. Maple oliy matematika va fizika fanlarini o‘qitishda va o‘rganishda keng qo‘llaniladi. Dastur yordamida differensial va integral hisob, algebraik tenglamalar, differensial tenglamalar va boshqa murakkab mavzularni o‘rganish mumkin.

Muhandislikda. Maple muhandislik hisoblashlarida, masalan, konstruksiyalarni loyihalash, elektr zanjirlarini tahlil qilish va materiallar xususiyatlarini o‘rganishda qo‘llaniladi.

GeoGebra dasturi va uning xususiyatlari. GeoGebra - bu bepul va ochiq kodli ta’limga yo‘naltirilgan matematik dastur bo‘lib, geometriya, algebra, statistika va analiz sohalarini bir platformada birlashtiradi. Dastur 2001-yilda Markus Hohenwarter tomonidan ishlab chiqilgan va hozirda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ta’lim sohasida keng qo‘llaniladi [6].

GeoGebra dasturining asosiy xususiyatlari

Geometriya va algebrada. GeoGebra geometriya va algebraning dinamik bog‘liqligini ta’minlaydi. Geometrik shakllarni yaratish va ularning algebraik xususiyatlarini bir vaqtning o‘zida ko‘rish mumkin.

Bepul va ko‘p platformali. GeoGebra bepul dastur bo‘lib, Windows, MacOS, Linux, Android va iOS platformalarida ishlaydi. Shuningdek, dasturning veb-versiyasi ham mavjud, bu esa foydalanuvchilarga internet orqali dasturdan foydalanish imkonini beradi.

GeoGebra dasturining qo‘llanilish sohalari

O‘rta maxsus va oliy ta’limda. GeoGebra matematikani o‘qitishda, ayniqsa geometriya, algebra va analiz fanlarini o‘rganishda keng qo‘llaniladi. Dastur yordamida o‘qituvchilar interaktiv darslarni tayyorlashi, talabalar esa matematik tushunchalarni vizual ko‘rinishda o‘rganishlari mumkin.

Matematikani vizualizatsiya qilish. GeoGebra matematik tushunchalarni vizualizatsiya qilish uchun ajoyib vosita hisoblanadi. Funksiyalar grafiklarini chizish, ularning xususiyatlarini o‘rganish va dinamik o‘zgarishlarni kuzatish mumkin[8].

Matematik modellashtirish. GeoGebra yordamida oddiy matematik modellarni yaratish va ularni o‘rganish mumkin. Bu ayniqsa iqtisodiyot, fizika va biologiya kabi sohalarda qo‘l keladi.

Derive dasturi va uning xususiyatlari. Derive - bu Texas Instruments kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, asosan ta’lim sohasida qo‘llaniladigan kompyuter matematik tizimi hisoblanadi. Dastur 1988-yilda ishlab chiqilgan bo‘lib, 2007-yilda TI-Nspire seriyalari bilan almashtirilgan, ammo hozirda ham ko‘plab ta’lim muassasalarida qo‘llaniladi [7].

Derive dasturining asosiy xususiyatlari

Sodda va tushunarli interfeys. Derive sodda interfeysga ega bo‘lib, asosiy matematik amallarni osongina bajarish imkonini beradi. Bu xususiyat dasturni o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun juda oson ishlatish imkonini beradi.

Kompakt va resurs talab qilmaydi. Derive boshqa matematik tizimlar bilan taqqoslaganda juda kompakt bo‘lib, minimal kompyuter resurslarini talab qiladi. Bu eski kompyuterlarda ham samarali ishlash imkonini beradi.

2D va 3D grafiklar. Derive funksiyalar grafiklarini 2D va 3D formatda chizish, ularni tahrirlash va analiz qilish imkonini beradi.

Derive dasturining qo‘llanilish sohalari

Matematikani o‘rganishda. Derive yordamida talabalar matematik ifodalarni qadam-baqadam soddalashtirish, differensiallash va integrallash jarayonlarini kuzatishlari mumkin, bu esa murakkab tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Laboratoriya ishlari. Derive fizika va muhandislik sohalarida laboratoriya ishlarini bajarish, eksperimental ma’lumotlarni tahlil qilish va natijalarni vizualizatsiya qilish uchun qo‘llaniladi.

DASTURLARNING TAQQOSLANISHI

Interfeys va foydalanish qulayligi bo‘yicha.

Mathematica - Professional darajadagi interfeys, o‘zlashtirish uchun ma’lum vaqt talab qiladi, lekin keng imkoniyatlar taqdim etadi.

MATLAB - Asosan dasturlash interfeysidan foydalanishga asoslangan, keng qamrovli, lekin o‘rganish uchun vaqt talab qiladi.

Maple - Foydalanuvchi uchun qulay interfeys, matematika va fizika masalalarini yechish uchun optimallashtirilgan.

GeoGebra - Eng sodda va intuitiv interfeys, ta’lim sohasida qo‘llash uchun maxsus mo‘ljallangan.

Derive - Sodda interfeys, asosiy amallarni bajarish uchun qulay, lekin cheklangan imkoniyatlarni taqdim etadi.

Narxi va litsenziyasi bo‘yicha

1. **Mathematica, MATLAB, Maple** - Pullik, akademik litsenziyalar mavjud, bepul foydalanish ham mumkin lekin ba’zi funksiyalari cheklangan.
2. **GeoGebra** - Bepul va ochiq kodli dastur, barcha platformalarda mavjud.
3. **Derive** - Texas Instruments qurilmalari uchun bepul yoki arzon narxda taqdim etiladi.

Xulosa. Mathematica, MATLAB, Maple, GeoGebra va Derive amaliy paketlari foydalanish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan ma’lum cheklovlariga ega. Har bir dastur ma’lum bir soha yo‘nalishidagi masalalrni yechish uchun mo‘ljallangan.

Mathematica universal va o‘quv jarayoni uchun samarali tizim bo‘lib, murakkab ilmiy tadqiqotlar, simvolik hisoblashlar va keng ko‘lamli loyihalar uchun mos keladi. Biroq, o‘rganish qiyinligi va yuqori narx uning asosiy cheklovlaridan biridir.

MATLAB matritsalar bilan ishlash, signallarni qayta ishlash va muhandislik masalalarini hal qilish uchun eng yaxshi tanlov. U katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va modellashtirish uchun optimallashtirilgan, lekin simvolik hisoblashlarda Mathematica va Maple ga nisbatan kamroq imkoniyatlarga ega.

Maple simvolik matematik hisoblashlar va fizika masalalarini hal qilish uchun ajoyib vosita. Uning foydalanuvchiga qulay interfeysi va simvolik matematik yadrosi bu dasturni oliy ta’lim va ilmiy tadqiqotlar uchun foydalanish juda mos.

GeoGebra ta’lim sohasida, ayniqsa geometriya, algebra va analiz fanlarini o‘qitishda eng samarali vosita hisoblanadi. Uning bepul va ochiq kodliligi, sodda interfeysi va ko‘p platformaliligi bu dasturni maktablar va universitetlar uchun ideal tanlov hisoblanadi[8].

Derive esa o‘rganish jarayonida asosiy matematik amallarni o‘rganish va tekshirish uchun qulay vosita. Uning sodda interfeysi va minimal talablari, dasturni boshlang‘ich o‘rgnuvchilar uchun mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, aniq amaliy dastur paketini tanlash hal qilinayotgan masala, mavjud resurslar va foydalanuvchining bilim darajasiga bog‘liq. Ilmiy tadqiqotlar va murakkab hisoblashlar uchun Mathematica va MATLAB, sodda hisoblashlar uchun GeoGebra va Derive, simvolik matematik hisoblashlar uchun esa Maple mos tanlov bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Wolfram, S. «The Mathematica Book, 6th Edition». Wolfram Media, 2019.
2. MathWorks. «MATLAB: Getting Started Guide». MathWorks Inc., 2022.
3. Maplesoft. «Introduction to Maple». Maplesoft Inc., 2022.
4. Lutfillayev, M. X., & Lutfillayev, U. M. (2024). Oliy ta‟ limda sun‟ iy intellekt tizimini modellashtirish masalasi: oliy ta‟ limda sun‟ iy intellekt tizimini modellashtirish masalasi. *Modern problems and prospects of applied mathematics*, *1*(01).
5. Shodmonqulov, M. T. (2023). Formation and Development Factors in the Digital Education Process. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, *1*(8), 94-96.
6. Hohenwarter, M., Preiner, J. «GeoGebra Manual». International GeoGebra Institute, 2023.
7. Kutzler, B. «Introduction to Derive 6». Texas Instruments, 2019.
8. Chorshanbiyev, C. (2025). Kompyuterli matematik tizimlar fanini o ‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. *Modern Science and Research*, *4*(3), 351-354.

UDC 61:004:37

METHODOLOGY OF TEACHING THE SUBJECT “INFORMATION TECHNOLOGIES IN MEDICINE” TO FUTURE DOCTORS IN A DIGITAL ENVIRONMENT

Davronov Shakhbos Erkin,
2nd year doctoral student of Bukhara State University
Qahhorov Siddiq Qahorovich,
Bukhara State University, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor Scientific Supervisor
Associate Professor of TATU, Ph.D. Kayumova G.A. based on the review

This article discusses the ways and challenges of improving the educational process in a digital environment, as well as the main features of computer-based teaching technologies for the subject "Information Technologies in Medicine" for future doctors. Additionally, the advantages, features, and effectiveness of using virtual laboratories are analyzed.

Keywords: *digital environment, innovative technologies, curricula, virtual laboratories, simulation process, information technologies.*

RAQAMLASHTIRISH MUHITIDA BO‘LAJAK SHIFOKORLARGA “TIBBIYOTDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINI O’QITISH

Ushbu maqolada raqamlashtirish muhitida ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va muammolari, bo‘lajak shifokorlarni tibbiyotda axborot texnologiyalari fanini kompyuterli o‘qitish texnologiyasining asosiy xususiyatlari yoritilgan. Bundan tashqari virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari, xususiyatlari, samaradorligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamlashtirish muhiti, innovatsion texnologiyalar, o‘quv dasturlari, virtual laboratoriyalar, simulyatsiya jarayoni, axborot texnologiyalari.*

ПРЕПОДАВАНИЕ «ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕДИЦИНЕ» БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ

В данной статье рассматриваются пути и проблемы совершенствования образовательного процесса в условиях цифровизации, с акцентом на ключевые особенности компьютерного обучения информационным технологиям в медицине для будущих врачей. Кроме того, анализируются преимущества, характеристики и эффективность использования виртуальных лабораторий.

Ключевые слова: *Цифровая среда, инновационные технологии, учебные программы, виртуальные лаборатории, процесс симуляции, информационные технологии.*

Introduction. The role of information technologies in modern medicine is steadily increasing. The development of the medical field and innovative breakthroughs enable the performance of complex analyses, improving the processes of diagnosing and treating patients. Information technologies open new opportunities in medicine, becoming a key factor in organizing doctors' work efficiently and with high quality. Information technologies are increasingly significant in enhancing teaching effectiveness, fostering students' independent thinking, and developing practical skills.

Literature review. In recent years, the term "Virtual Laboratory" has emerged in the field of science and technology concerning the use of information and communication technologies. This term is now widely used, especially in education. A "Virtual Laboratory" is a set of hardware and software tools integrated with a virtual instrument that allows work on a computer. It not only reflects the operational process of a real machine or technical device but also enables the study of real processes. The following advantages of using virtual laboratories can be highlighted:

1. Developing and testing a computer module of complex technical devices, analyzing their operation in various modes, and drawing conclusions. This facilitates multi-factor research, saving time and resources required for preparing devices and conducting experiments.
2. In virtual laboratory devices, research parameters preset for a module can remain unchanged, allowing the process to be studied at any time, under any conditions, and for any duration.
3. Device parameters can be modified during the research process.
4. Even if errors occur during the use of virtual laboratory devices, the equipment does not fail.

5. The use of virtual laboratory devices helps reduce, to some extent, the problems related to material and technical provision in the educational process.

The Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated January 15, 2021, No. 19, "On Measures to Organize the Activities of the Center for the Professional Development of Medical Workers," emphasizes the widespread introduction of scientific advancements and innovations in healthcare into the processes of professional development and retraining.

Research Methodology. Virtual laboratory technologies require the modeling of real laboratory tasks and provide the opportunity to present material interactively. While performing laboratory tasks, students develop research skills and the ability to independently draw accurate conclusions. To effectively integrate virtual laboratory technologies into the educational practice of the subject "Information Technologies in Medicine," the following challenges need to be addressed:

- Providing a comprehensive theoretical and practical justification for the use of virtual laboratory technologies in the teaching process of "Information Technologies in Medicine";
- Implementing the use of virtual laboratory technologies in teaching "Information Technologies in Medicine" at medical higher education institutions in a consistent manner based on methodological requirements;
- Timely developing and introducing the software necessary for using virtual laboratory technologies in teaching "Information Technologies in Medicine," creating a methodology for its use, testing the developed methodology experimentally, and eliminating shortcomings.

Analysis and results. Addressing these challenges will enable the effective use of virtual laboratory technologies in the subject "Information Technologies in Medicine." The components of virtual tools in this subject positively impact the educational process (see Figure 1).



Figure 1. Virtual Tools.

The virtual teaching process for "Information Technologies in Medicine" consists of virtual lectures, virtual practical and laboratory sessions based on these lectures, and virtual assessment blocks to evaluate acquired knowledge, all of which operate interdependently.



Figure 2. Structure of Virtual Teaching.

The primary goal of using virtual resources in the educational process is to create a clear understanding of professional thinking in the minds of participants in the subject "Information Technologies in Medicine," ensuring deep mastery of the subject by enabling independent use of educational materials during their free time.



Figure 3. Structure of a Virtual Lecture.

The advantage of a virtual lecture lies in its ability to present complex or difficult-to-understand processes through virtual models using multimedia technologies, in addition to tables, graphs, and images practical and laboratory sessions are structured based on the lecture, with practical sessions primarily detailing the operational classifications of software packages.



Figure 4. Structure of Practical Sessions.

Virtual laboratory sessions consist of computerized virtual models of the laboratory tasks being conducted or reviewed. This allows learners to observe the virtual model of each session. Creating virtual laboratory sessions, another key component of the virtual teaching process, requires significant effort.

All virtual laboratories, virtual instructional guides, the virtual format of the subject curriculum, and control questions or tests are prepared by subject instructors with the assistance of programmers using appropriate software tools.

Moreover, the high-quality implementation of virtual laboratory sessions for "Information Technologies in Medicine," including the programming of necessary equipment and its computer-based organization, offers both scientific and aesthetic convenience. Crucially, virtual laboratory sessions save time

for both teachers and students, aiding in the assimilation of educational materials with the help of essential literature. Thus, virtual laboratory technologies enable the vivid presentation of human processes and phenomena through video, multimedia, and animations, facilitating feedback.

In informatizing education, alongside training future doctors to use information and communication technologies, there is a need to accelerate the preparation of specialists in specific fields using these tools. Therefore, conducting practical sessions in virtual laboratories during the teaching process has proven beneficial.

Advantages of Using Virtual Laboratories. Real equipment and tools in medical laboratories require significant costs for acquisition, maintenance, and use. Virtual laboratories can reduce these expenses.

1. Teaching Decision-Making: Future doctors learn to make various decisions by analyzing data and simulating medical processes in virtual laboratories.

2. Frequent Practice Opportunities: Virtual laboratories allow future doctors to safely repeat multiple practical exercises.

3. Simulating Medical Processes: Virtual laboratories enable the simulation of various medical scenarios, such as surgeries or diagnostic processes.



Figure 5. Independent Learning Session.

Methodological Approach. The following methodological approaches can be applied to effectively use virtual laboratories in teaching "Information Technologies in Medicine":

a) Theory-Based Virtual Laboratory: Future doctors are taught theoretical knowledge, such as the basic concepts of information technologies, software used in medicine, and working with medical images, through virtual laboratories, reinforcing their theoretical understanding.

b) Practical Sessions and Simulations: Virtual laboratory programs allow future doctors to develop skills in artificial intelligence, data analysis and visualization, and medical image processing. For example, they can virtually learn to process and analyze medical images (X-rays, ultrasounds).

c) Interactive Teaching: Using virtual laboratories interactively helps future doctors solve problems, analyze, and make choices. They can discuss, exchange ideas, and participate in solving major medical issues using laboratory software.

d) Results and Evaluation: Virtual laboratories enable future doctors to assess their performance. The system automatically checks their work, identifies errors, and helps them understand and correct mistakes.

In modern educational conditions, enhancing the independent activity of future doctors and developing their professional competence require the use of advanced pedagogical technologies and next-generation educational literature. One such form is teaching through electronic educational resources. The methodology of using virtual laboratories in teaching "Information Technologies in Medicine" allows future doctors to connect theoretical knowledge with practice, enabling deeper understanding, data analysis, and skill development.

References:

1. Mamarajabov M.E. Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish, p.f.d.(DSc) ilmiy darajasini olishga yozilgan dissert.–T.:-2023.-184 b.

2. Maxmudov A.X., Anarbaeva F.U. Raqamli ta’limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari. Development issues of innovative economy in the agricultural sector. 2021.-476 b.

3. Бродовская Е.В., Домбровская А.Ю., Петрова Т.Е., Пырма Р.В., Азаров А.А. Цифровая среда ведущих университетов мира и РФ: результаты сравнительного анализа данных сайтов // Высшее образование в России. 2019. – Т. 28. – № 12. – С. 9–22.

4. Khahharov S. Kh., & Nosirova Sh. E. (2024). Use of the Innovative Educational Method of Design in the Teaching of Database Science. *International Journal of Formal Education*, *3*(9), 83–86. Retrieved from https://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/3440

5. Khahharov S. Kh., & Nosirova Sh. E. (2024). Methodology of Using Pedagogical Software Tools in Teaching Database Science. https://doi.org/10.5281/

6. Вербиский А.А. Сифровое обучение: проблемы, риски и перспективы //Електронный научно-публитсистический журнал «HomoCyberus».- 2019. —№1(6). [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://journal.homocyberus.ru/ Вербитский_АА_1_2019

7. Davronov Sh.E. Raqamlashtirish muhitida bo‘lajak shifokorlarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi. https://buxdu.uz/media/jurnallar/pedagogik_mahorat/pedagogik_mahorat_7_2024_2.pdf

8. Khahharov S. Kh., & Sh.E.Davronov. Raqamlashtirish muhitida bo‘lajak shifokorlarga “tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanini o’qitish. https://buxdu.uz/media/jurnallar/pedagogik_mahorat/pedagogik_mahorat_12_2024_2.pdf

O’QITUVCHILARNI MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANIB DARS JARAYONLARINI TASHKIL ETISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Lutfillayev Maxmud Xasanovich,
SH.Rashidov nomidagi SamDU professori
Aminov Istam Barnoyevich,
SH.Rashidov nomidagi SamDU professori
Dusmatova Mamura Abduvaliyevna,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistenti

Bugungi kunda zamonaviy dasturiy vositalarni amaliy masalalarga tatbiq etishda o’quvchilarni kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Bu o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, fanlararo bog‘liqlikni amalga oshirish hamda o’quvchilarga o‘tilayotgan mavzuni mukammal tushunishiga va ularni mukammal o‘zlashtirishiga olib keladi.Ushbu maqolada o’qituvchilarni Google Classroom ilovalaridan foydalanib dars mashg’ulotlarini tashkil etish kompetensiyasini shakllantirish uslubiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *elektron ta’lim tizimi, mobil ta’lim vositalari, mobil ilovalar, mobil ilovalardan foydalanish kompetentligi, Google Classroom ilovalari.*

ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ДЛЯ ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МОБИЛЬНЫХ ПРИЛОЖЕНИЯХ

На сегодняшний день совершенствование профессиональной компетентности учителей в применении современных программных средств к практическим задачам становится одним из актуальных вопросов. Это приводит к эффективной организации учебного процесса, реализации междисциплинарных связей, а также к тому, что учащиеся в совершенстве понимают и усваивают изучаемую тему. В данной статье освещена методика формирования компетенции учителей по организации уроков с использованием приложений Google Classroom.

***Ключевые слова*:** *система электронного обучения, мобильные образовательные инструменты, мобильные приложения, компетентность в использовании мобильных приложений, приложения Google Classroom.*

FORMING TEACHERS' COMPETENCE IN ORGANIZING CLASSES USING MOBILE APPLICATIONS

Today, improving teachers' professional competence in applying modern software tools to practical tasks is becoming one of the pressing issues. This leads to the effective organization of the learning process, the implementation of interdisciplinary connections, and the students' thorough understanding and assimilation of the studied topic. This article explores the methodology for developing teachers' competence in organizing lessons using Google Classroom applications.

Keywords: *e-learning system, mobile learning tools, mobile applications, competence in using mobile applications, Google Classroom applications*.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimi samaradorligini oshirish masalalari ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda yo‘lga qo‘yish va zamonaviy elektron ta’lim vositalaridan foydalanish bilan uzviy ravishda bog‘liq. Ta’lim tizimida zamonaviy o‘qitish faoliyatini tashkil etish va ta’lim-tarbiya jarayonlarida zamonaviy elektron ta’lim tizimini yaratishdan asosiy maqsad o’qituvchilar va o’quvchilar jamoasi

hamkorligi samaradorligini ta’minlash hamda uni aniq reja asosida va maqsadga yo‘naltirilgan holda yo‘lga qo‘yishdan iboratdir.

Elektron ta’lim tizimida zamonaviy o‘qitish faoliyatni tashkil etish o’quvchilar egallayotgan bilimlarning sifat darajasini oshirish, ularni mustaqil o‘rganish, tahlil qilish va olingan bilimlardan o‘zlari xulosa chiqarish, o’qituvchi va o’quvchi faoliyatiga zamonaviy mobil ilovalarni joriy etish, zamonaviy baholash tizimlarini yaratish va ulardan o‘quv jarayonida to‘liq foydalanishni, o’qituvchi bilan o’quvchining hamkorlikdagi faoliyati orqali ta’lim mazmuniga ta’sir ko‘rsatadigan zamonaviy texnologiyalar vositalarini o‘z ichiga oladi[1].

Elektron ta’lim tizimida mobil ilovalaridan foydalanish sifati va samaradorligini oshirish quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- ✓ o’qituvchilarning zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish kompetentligini shakllantirish;
- ✓ o‘quv jarayonini zamonaviy dasturiy vositalar asosida tashkil qilish;
- ✓ o’quvchilarning mustaqil ishlashini samarali tashkil etish.

O’quvchi ta’lim jarayonining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o’quvchini qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to‘plamini o‘zlashtirish, qayta ishlash, amalda qo‘llay olish va uni o’quvchilarga uzatishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o’qituvchiga o‘qitishning an’anaviy usullari bilan birga zamonaviy mobil texnologiyalardan foydalanish yordam beradi. Zamonaviy elektron ta’lim vositalari ta’lim jarayonini qiziqarli olib borish, har bir o’quvchiga individual yondashish imkonini berish bilan birga o’quvchilarga yetarli darajadagi bilim, fakt va ma’lumotlarni yetkazish mumkin bo‘ladi. Natijada, o’qituvchiining innovatsion reja, g‘oya va o‘y-fikrlarini to‘laqonli amalga oshirish yengil va samarali tarzda kechadi.

Ta’lim tizimi zamonaviy elektron ta’lim vositalari asosida tashkil etiladigan o‘quv jarayonida o’qituvchilar quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim[2]:

- ✓ fanning ilg‘or yutug‘lari, zamonaviy elektron ta’lim vositalardan foydalanish, o‘quv jarayonini zamonaviy elektron ta’lim asosida tashkil etish;
- ✓ zamonaviy elektron ta’lim asosida fanlararo bog‘liqlikni o‘rnatish, olingan bilim va malakalarni rivojlantirish orqali o’quvchilarning faolligini oshirish, o‘quv faoliyatining barcha turlarida mantiqiylikni va uzviylikni ta’minlash;
- ✓ o’quvchilarning mustaqil ishlashini zamonaviy elektron ta’lim asosida tashkil etish.

Ta’lim tizimida mobil ilovalaridan mukammal foydalanish uchun asosiy e’tibor, eng avvalo, o’qituvchiga va o’quvchiga zarur bo‘lgan sharoitni, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonlarida Internet texnologiyalari, zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar va elektron axborot resurlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish lozim.

Ta’lim tizimida mobil ilovalaridan foydalanishning rivojlanishi turli elektron vositalardan foydalanishga asoslangan yangi ta'lim tizimini shakllantira boshladi. Mobil texnologiyalar ta'lim-ta'limda yangi yo'nalish sifatida tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda . Bu esa o’z navbatida o'quv jarayonida mobil ilovalar orqali o’quvchilarning barcha fanlardan bilim, ko'nikma, va malakalarni shakllantirish va shaffof baholash imkoniyatini yaratmoqdai [1].

Ta’lim muassasalarida o‘qitishni takomillashtirish, fanni o‘rganishda zamonaviy mobil ilovalaridan, noan’anaviy va interfaol usullaridan keng foydalanish orqali ta’lim samarodorligini oshirish ijobiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o‘qitish mazmuniga mos o‘quv-uslubiy materiallar, ayniqsa, o‘yinlar tarzida o‘quv-uslubiy materiallar majmuasini ishlab chiqish va o‘quv jarayoniga tadbiq etish yoshlarga ta’lim tarbiya berishdagi dolzarb masalalar qatoriga kiritish uchun asos bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida mobil ilovalaridan samarali foydalanish ta'lim sohasini kengaytirishga, o’quvchilarda mustaqil faoliyatni, kognitiv faollikni, umumiy va raqamli madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. O'quv jarayoniga mobil ilovalarni joriy etish muammosining dolzarbligi mobil ilovalarning fanni o'rganish vositasi sifatidagi muhim salohiyati va ulardan o’qituvchilar va maktab o’quvchilari tomonidan yetarli darajada foydalanmayotganligi o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan belgilanadi.

Ta’lim tizimida mobil ilovalarining turlari xilma-xil va ko'p bo'lib, foydala-nuvchilarga o'rganish va rivojlanish maqsadlari uchun quyidagi eng mos vositani tanlash imkonini beradi[3]:

1-jadval.

Ta’lim tizimida mobil ilovalarining asosiy turlari

Mobil ilovalar turi	Mobil ilovalarning asosiy xususiyatlari	Mobil ilovalar nomi
Til o'rganish uchun ilovalar.	Ta'lim ilovalari sohasidagi mashhur yo'nalishlardan biri bu chet tillarini o'rganishdir. Bunday ilovalar keng ko'lamli darslar, lug'atlar, grammatika qoidalari va interaktiv mashqlarni taklif qiladi. Ular so'z boyligini o'zlashtirishga, talaffuzni yaxshi-lashga, o'qish, yozish va tinglash qobiliyatlarini o'rgatishda yordam beradi. Ulardan ba'zilari materialning qiyinligini foydalanuvchining bilim darajasiga avtomatik ravishda moslashtiradigan adaptiv kurslarni taklif qiladi	Lingualeo , Duolingo , Memrise , AnkiApp , TED , Genius,Busuu , Puzzle Movies
Matematika va tabiiy fanlar uchun	Bu ilovalar matematika, fizika, kimyo va biologiya kabi turli fanlarni o‘rga-nishga yordam beradi. Ularda bilim-	Khan Academy , «Moose

ilovalar.	larni mustahkamlash uchun nazariy materiallar, formulalar, misollar va interfaol masalalar taqdim etiladi. Murakkab tushunchalarni tasavvur qilish va tushuntirish orqali foydala-nuvchilar yangi bilimlarni osonroq o'zlashtirishlari mumkin.	Math», GeoGebra , FunBrain, InnerBody Research
Dasturlash ilovalari	Kodlash tobora ko'proq talab qilina-digan mahoratdir va ko'plab o'quv ilovalari turli dasturlash tillari, algo-ritmlari va texnologiyalarini o'rganish bo'yicha kurslarni taklif qiladi. Ular dasturlash asoslarni tushunishni ta'minlaydi va ko'nikmalarni hosil qilish uchun amaliy topshiriqlar va loyihalarni taqdim etadi.	SoloLearn, CodeCombat, Codecademy, Grasshopper, Udacity
Malaka oshirish uchun ilovalar	Ular ta’lim tizimida malakasini oshi-rish, yangi ko'nikmalarni o'rganish yoki yangi texnologiyalarni o'zlash-tirish istagida bo'lgan turli soha muta-xassislari uchun mo'ljallangan. Ushbu ilovalar ixtisoslashtirilgan kurslar, seminarlar, vebinarlar va boshqa o'quv kurslarinii taklif qiladi	Duolingo, iSpring Learn, EdApp, Unicraft, Getcourse, Mirapolis

O’qituvchilar o’z kasbiy faoliyatida foydalanish mumkin bo‘lgan ilovalarga misollar ko‘rib chiqamiz:

Google Classroom ilovasi Sinf bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan bo’lib, dars jarayonida vaqtni tejash, darslarni oson va tez tashkil etish va o’quvchilar bilan samarali muloqotda bo‘lish imkoniyatini yaratadi.

Google Classroom ilovasi – ta’lim uchun tashkillashtirilgan Google xizmatlarini birlashtiradi. Ilovada quyidagi amallar bajariladi[4,5]:

- sinf/kurs yaratish;
- kursga ta’lim oluvchilarni yozishni tashkillashtirish;
- o’quvchilarni zarur o’quv materiallar bilan bo’lishish;
- o’quvchilar uchun topshiriqlarni berish;
- o’quvchilarning topshriqlarini baholash va jarayonni kuzatish;
- o’quvchilar bilan muloqotni tashkillashtirish.

Google Classroom da kurs yaratishning asosiy elementlarini ko’rib chiqamiz. Google Classroom ilovasiga kirish uchun Google Chrome brauzerida Google APS ga kiriladi. Google Class (Класс) birdaniga ko'rilmaydi, buning uchun Еще (More…) tugmasi bosiladi. Google Class (Класс) da kurs yaratiladi va/yoki o’quv kurslari ro’yxati chiqadi.



Kurs yaratilgandan keyin oynada uchta asosiy vkladka paydo bo’ladi: **Лента, Задания, Пользователи.**



✓ **Лента** vkladkasida kurs to’g’risida axborot yig’iladi va tasvirlanadi: o’quv materiallari, e’lon, topshiriq, foydalanuvchi izohi.

✓ **Задания** vkladkasi kursga o’quv materiallarini qo’shishga va zarur ketma-ketlikda mavzular bo’yicha topshiriqlarni taqsimlashga ruxsat beradi.

✓ **Пользователи** vkladkasida kursda ro’yxatdan o’tgan o’quvchilar ro’yxati mavjud.

Google Classroom da masofali kursning ko’rinishi:



Лента vkladkasida kursga o’quvchi quyidagi ketma-ketlikda axborotlarni qo’shadi:

- o’quvchi e’loni;
- tinglovchilar uchun o’quv materiallari to’g’risida axborot;
- o’quvchilar uchun topshiriqlar to’g’risida axborot;
- o’quvchilar e’loni.

Google Classroom da kurs lentasi quyidagi ko’rinishda bo’ladi:



Объявления (E’lon) yaratishda o’quvchi (matndan tashqari) turli materiallarni qo’shishi mumkin: faylni biriktirish (kompyuterda yuklash), Google Диск dan faylni qo’shish, Youtube dagi videodan havolani ishga tushirish yoki tashqi saytga havola berish.

O’qituvchilar **Объявления** (E’lon) ni ko’rishi va unga izoh berishi mumkin.

Объявления (E’lon) ni qo’shish uchun “Добавить новую запись” buyrug’idan foydalanamiz.



Kurs **Лента** sidagi yuklangan material Google Диск dagi papkaga joylashtiriladi. Papkani **Задания** vkladkasidagi papkada ko’rish mumkin.



O’quv kursida **Задания** vkladkasini yaratish uchun chap quyi burchagidagi **?** belgisi bosiladi.



Задания vkladkasida quyidagi amallar bajariladi:

- ✓ topshiriqlar, savollar yaratish va ularni mavzular bo’yicha guruhlash;
- ✓ (turli turdagi) o’quv materiallarini qo’shish va ularni mavzularni birlashtirish;

✓ unda mavzular va materiallarni tartiblash (unda mavzu bo’lmasa, u sahifaning yuqorisida joylashgan).

Tinglovchilar uchun topshiriqlar turli turda bo’ladi. O’quvchi **Задания** sifatida komputer yoki **Google Диск** dagi ixtiyoriy hujjat biriktiriladi, videoga havola beriladi. Bundan tashqari, matn ko’rinishidagi amaliy ish yoki nazorat ishini bajarishga ruxsat beriladi. O’quvchilar kabi, boshqa o’quvchilar ham izoh berishi mumkin bo’lgan savol qo’shiladi (ba’zi sozlanmalarda).

Задания quyidagi rasmda keltirilgan:



Hozigi vaqtda **Google Форма** ni ishlatib, topshiriqni yaratish imkoni paydo bo’ladi. **Google Форма** ko’p funksiyali bo’lib, ular yordamida bir necha test turlari yaratiladi. Topshiriqlarga bajarish muddatini qo’yish mumkin. Topshiriq bajarilgandan keyin, bu haqida ma’lumot o’quvchiga avtomatik tarzda keladi[7].

Bajarilgan topshiriqlarni ko’rish uchun o’quvchi **Лента** vkladkasiga o’tiladi, keyin **Все задания** buyrug’i tanlanadi.

O’quvchida bajarilgan/bajarilmagan ishlar haqida axborot paydo bo’ladi.



O’qituvchi o’quvchilarning topshirig’ini tekshiradi, baholaydi, o’quvchilarning javobiga izoh beriladi.

Kurs yaratilgandan keyin o’qituvchi kursning qisqacha tavsifi – dasturi, kursni boshlanish va tugash sanasi, ishlash qoidasi va o’quvchilarga talablar, ro’yxatdan o’tish shakliga havola beriladi.

O’qituvchi mustaqil ro’yxatdan o’tgan o’quvchilarga kurs kodini yuboradi yoki kursga o’quvchilarni o’zi ro’yxatdan o’tkazadi. **Пользователи** vkladkasida kurs kursini ko’rish yoki o’quvchilarni (ismi yoki elekton pochta manzili bo’yicha) taklif qilishi mumkin.

O’quvchilar Google Classroom ilovasida tashkillashtirilgan o’quv kursida o’qishi uchun ularda Google akkaunti bo’lishi kerak[8].

Bunday mobil ilovalar ta’lim jarayonini tashkil etishning samarali va zamonaviy vositasi bo'lib, ular o'rganish jarayonini tezlashtirish va yaxshilash imkonini beradi. Ayniqsa, o'yin ilovalari vositali ilovalarning bir turi sifatida o’quvchilarni uzluksiz ta'lim jarayoniga jalb qilishga yordam beradi, buning uchun ilovada doimiy ravishda amaliy mashqlarni bajarish lozim bo’ladi[6].

Ta'lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanish nafaqat o’qituvchilarning intellektual va ijodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi, darslar mazmuniga rang-baranglik qo'shadi, qulay muhit yaratadi, o'quv jarayonini tezlashtirishga yordam beradi, o’quvchilarning motivatsiyasi muammosini hal qiladi, balki shuningdek, o'tilgan material bo'yicha bilimlarni faollashtirish va mustahkamlash uchun samarali vositadir.

Shunday qilib, mobil ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, o'quv jarayonini individuallashtirish va taqdim etilayotgan ta'lim xizmatlarining jozibadorligini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, fanlararo integratsion o’qitish jarayonida o’qituvchilarning mobil ilovalardan foydalanish kompetentligini shakllantirish quyidagi masalalarni ma’lum bir darajada hal qiladi [9]:

- ✓ o’qitishning mobil texnologiyalaridan foydalanish va ularni o’quv jarayonida qo’llanish usullari o’rganiladi;
- ✓ mobil texnologiyalari vositalarida ishlash bilim va malakalari shakllanadi va dasturiy vositalarni o’rganishga bo’lgan pedagogik ko‘nikmalar ortadi;
- ✓ ma’lumotlarni namoyish qilish hamda namoyish etiladigan ma’lumotlarni qabul qilish ko’nikmalari hosil bo’ladi;
- ✓ o’quv jarayonida mobil texnologiyalaridan foydalanish bo’yicha bilim va malakalar shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. Taylakov U.N. Elektron axborot ta’lim muhitini yaratish texnologiyalari. Monografiya. O‘zPFITI. – Toshkent: 2016. – 152 b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar(ta’lim muassasalari pedagog-o’quvchilari uchun amaliy tavsiyalar). –T.:Iste’dod, 2008.-180 b.
3. Голицына И. Н., Половникова Н. Л. Мобильное обучение как новая технология в образовании // Образовательные технологии и общество. – 2011. – № 1. – С. 241–252.
4. Голицына И.Н., Афзалова А.Н. Использование облачных вычислений в образовательном процессе // Образовательные технологии и общество. – 2014. – №2. – С. 450-459.
5. Новиков М. Ю. Возможности применения мобильных технологий в школьном курсе информатики / // Педагогическое образование в россии.. — 2017. — № 6. — С. 98–105.
6. Zakirova F.M., Nafasov M.M. Ta’lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanishning pedagogik asoslari. Academic Research in Educational Sciences. Vol. 3. Issue 4. 2022. 917-925
7. Глотова М. Ю., Самохвалова Е. А. Мобильные технологии в образовании // Преподаватель XXI век. 2022. № 1. Часть 1. С. 138–149. DOI: 10.31862/2073–9613- 2022–1–138–149
8. Салчак, С. М. Использование мобильных технологий на уроках информатики. // Молодой ученый. — 2023. — № 49 (496). — С. 200-202.
9. I.B.Aminov. M.Dusmatova . Using mobile tools in organizing creative practical lessons in information science . “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 7 158-165 bet.

KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN TA’LIM PLATFORMALARINING TA’SIRI

G‘apporov Umidjon Abdurashid o‘g‘li,
Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
u.a.gapporov@buxdu.uz
Amonova Nilufar Avaz qizi,
Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi
n.a.amonova@buxdu.uz

Ushbu maqolada sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalarining oliy ta’lim muassasalarida kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ta’siri tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvni olib kirib, shaxsiylashtirilgan o‘qitish imkoniyatlarini yaratadi, o‘qitish samaradorligini oshiradi hamda interaktiv ta’lim muhitini shakllantiradi. Tadqiqotda AI texnologiyalarining ilmiy-tadqiqot jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashi, oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishi va talabalar bilim darajasini real vaqt rejimida baholash imkoniyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformalarini joriy etishda duch kelinadigan muammolar, jumladan, texnologik infratuzilma, o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirish va axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, AI texnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy etilishi oliy ta’lim sifatini oshirish, talabalar bilimini chuqurlashtirish va universitetlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ta’lim platformalari, kasbiy kompetentlik, oliy ta’lim, interaktiv ta’lim, raqamli transformatsiya, innovatsion ta’lim, shaxsiylashtirilgan o‘quv jarayoni.*

ВЛИЯНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Virtual laboratoriyalar internet (kompyuter yoki planshet) yordamida dunyoning istalgan nuqtasidan foydalanishga imkon beradi. Chekka hududlaridagi maktablarva texnikumlar uchun juda qullay bo‘ladi foydalanishga. Haqiqiy laboratoriyalardan farqi, xavfsizlik jihatdan ustun bo’ladi. Xavfli kimyoviy moddalar yoki jihozlar bilan ishlash xavfi mavjud bo‘lsa, virtual muhitda bunday xavf yo‘q. Talabalar uchun juda qulay bo’lishi shuki, xato qilishdan qo‘rqmasdan tajriba o‘tkazishi mumkin. Fizik, kimyo va tibbiy laboratoriyalarni jihozlash uchun qimmatbaho asbob-uskunalar va materiallar talab qilinsa, virtual laboratoriyalar faqat dasturiy ta’minotga asoslanadi, bu esa xarajatlarni kamaytiradi. Talabalar uchun yana bir qulaylik tajribalarni istalgan marta takroran amalga oshirishlar mumkin, xususiyatlarni o’zgartirish va natijalarni solishtirishi mumkin. Bu o‘quv jarayonida chuqur tushuncha hosil qilishga yordam beradi. Animatsiyalar, 3D modellar va real vaqt rejimida natijalarni ko‘rsatish orqali o‘quv jarayoni yanada qiziqarli bo‘ladi. Talabalar bu jarayonda o’zlari faol ishtirok etib, o‘z tajribalarini va natijalarini mustaqil ravishda boshqaradi. Mashhur virtual laboratoriya platformalari

- **PhET Interactive Simulations**: Kolorado universiteti tomonidan ishlab chiqilgan bepul simulyatsiyalar.

- **Labster**: Turli fanlar uchun 3D virtual tajribalar.
- **ChemCollective**: Kimyoviy tajribalar uchun maxsus platforma.
- **PraxiLabs**: Biologiya, fizika va kimyo bo‘yicha tajribalar.

Virtual laboratoriyalarning cheklovlari

1. **Haqiqiy tajribaning o‘rnini to‘liq bosa olmaslik**: Talabalar haqiqiy asboblar bilan ishlash tajribasini ololmaydi, bu esa ba’zi kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muammo tug‘dirishi mumkin.
2. **Texnik cheklovlar**: Internet aloqasi yoki zamonaviy qurilmalarning yetishmasligi foydalanishni qiyinlashtiradi.
3. **Motivatsiya va diqqat**: Virtual muhit ba’zi talabalarda o‘quv jarayoniga jiddiy qarashni kamaytirishi mumkin.
4. **Dasturiy xatolar**: Simulyatsiyalardagi texnik nosozliklar o‘quv jarayonini to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

Virtual laboratoriya konsepsiyasi. Virtual laboratoriyalar - bu kompyuter yordamida o‘tkaziladigan, lekin haqiqiy laboratoriya sharoitlarida amalga oshiriladigan eksperimentlarni simulyatsiya qiluvchi dasturiy ta’minotlar yoki platformalardir. Bunday laboratoriyalar bo‘lajak shifokorlarda tibbiyotda axborot texnologiyalari (masalan, tibbiy tasvirlarni qayta ishlash, sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish, sog‘liqni saqlash tizimlarini boshqarish) bilan ishlashda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari. Tibbiy laboratoriyalarda real jihozlar va asboblarni sotib olish, saqlash va ulardan foydalanish katta xarajatlarga olib keladi. Virtual laboratoriyalar orqali bu xarajatlarni kamaytirish mumkin.

1. Qarorlar qabul qilishni o‘rgatish: Bo‘lajak shifokolar virtual laboratoriyada ma’lumotlarni tahlil qilish va tibbiy jarayonlarni simulyatsiya qilish orqali turli qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar.
2. Tez-tez amaliyot o‘tkazish imkoniyati: Virtual laboratoriyalarda bo‘lajak shifokorlar xavfsiz tarzda bir nechta amaliy mashg‘ulotlarni takrorlash imkoniga ega bo‘ladilar.
3. Tibbiy jarayonlarni simulyatsiya qilish: Virtual laboratoriyalar orqali tibbiyotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli holatlarni, masalan, operatsiyalarni yoki diagnostik jarayonlarni simulyatsiya qilish mumkin.

Metodik yondashuv. Tibbiyotda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalardan samarali foydalanish uchun quyidagi metodik yondashuvlarni qo‘llash mumkin:

a) Nazariyaga asoslangan virtual laboratoriya. Bo‘lajak shifokorlarga virtual laboratoriya yordamida axborot texnologiyalarining asosiy tushunchalari, tibbiyotda qo‘llaniladigan dasturiy ta’minotlar, tibbiy tasvirlar bilan ishlash kabi nazariy bilimlar o‘rgatiladi. Bu bo‘lajak shifokorlarga axborot texnologiyalari sohasidagi nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi;

b) Amaliy mashg‘ulotlar va simulyatsiyalar. Tibbiyotda virtual laboratoriya dasturlari bo‘lajak shifokorlarga sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili va vizualizatsiya, tibbiy tasvirlarni qayta ishlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, bo‘lajak shifokorlar tibbiy tasvirlarni (masalan, rentgen, ultratovush tasvirlari) qayta ishlashni va ularni tahlil qilishni virtual sharoitda o‘rganadilar;

c) Interaktiv o‘qitish. Virtual laboratoriyalarni interaktiv tarzda ishlatish bo‘lajak shifokorlarga masalalarni hal qilish, tahlil qilish va tanlovlarni amalga oshirishda yordam beradi. Bo‘lajak shifokorlar laboratoriya dasturi yordamida o‘zaro muhokama qilishi, fikr almashishi va yirik tibbiy masalalarni hal qilishda qatnashishi mumkin;

d) Natijalar va baholash. Virtual laboratoriyalar orqali bo‘lajak shifokorlar o‘z faoliyatlarini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tizim avtomatik tarzda bo‘lajak shifokorning bajarilgan ishini tekshiradi va xatolarni ko‘rsatadi. Bu bo‘lajak shifokorlarga o‘z xatolarini tushunishga va ularni tuzatishga yordam beradi.

Tibbiyotda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda quyidagi virtual laboratoriya dasturlari mavjud.

Simulyatsiyalar va vizualizatsiyalar: Tibbiyotda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda turli simulyatsiyalar va vizualizatsiyalarni qo‘llash muhim. Masalan, MRI (magnit-rezonans tomografiya), CT (kompyuter tomografiya), yoki EKG (elektrokardiogramma) kabi tibbiy tasvirlarni o‘qish va tahlil qilish uchun maxsus dasturlar mavjud.

Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili: Bo‘lajak shifokorlar virtual laboratoriyalarda sun’iy intellekt yordamida tibbiy ma’lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va prognozlashni o‘rganishlari mumkin. Bu metod tibbiy sohadagi diagnostik va prognoz jarayonlarini samarali ravishda o‘rgatishga yordam beradi.

Bioinformatsiya: Tibbiyotda axborot texnologiyalarini o‘rgatishda genetik ma’lumotlarni tahlil qilish, bioinformatika vositalarini o‘rganish uchun virtual laboratoriyalardan foydalanish ham muhim.

“Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalarni qo‘llab o‘qitish quyidagicha tavsiyalarni berish mumkin.

- Virtual laboratoriyalarni qo‘llab o‘qitish jarayonida real laboratoriya sharoitlarida bo‘lganidek, xavfsizlik va axborotlarni himoya qilish masalalariga e’tibor qaratish zarur hisoblanadi.

- Bo‘lajak shifokorlarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lab, tibbiyotdagi muammolarni yechishda axborot texnologiyalarini qo‘llashni o‘rgatish muhim.

- Bo‘lajak shifokorlarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun virtual laboratoriyalardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak shifokorlarni mustaqil ishlash faolligini oshirish, ularning kasbiy kompitentligini rivojlantirish ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan hamda yangi avlod o‘quv adabiyotlaridan foydalanishni talab etadi. Shuningdek, bugungi kunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi bilim uzatilishining yangi shakllari va vositalarini ishlab chiqishini taqazo etadi. Bunday shakllardan biri elektron ta’lim zahiralari vositasida o‘qitishdir. Tibbiyotda axborot texnologiyalari fanini o‘qitish jarayonida virtual laboratoriyalarni qo‘llash metodikasi bo‘lajak shifokorlarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lab o‘rganish imkoniyatini beradi. Bunday laboratoriyalar yordamida bo‘lajak shifokorlar tibbiyotda axborot texnologiyalarini chuqurroq tushunish, ma’lumotlarni tahlil qilish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Virtual laboratoriyalar tibbiyotda zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishga yordam beradigan samarali vositadir. Virtual reality (VR) texnologiyasi sanoatda keng qo‘llanilmoqda va oddiy foydalanuvchilar uchun ham qulay narxlarda bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, oliy ta’lim talabalari o‘zlarining kelajakdagi kasbiy faoliyatiga yaxshilab tayyorlanishni istashadi va o‘quv jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradigan ko‘proq kurslarni kutishadi. Bundan tashqari, ular “soft skills” (yumshoq ko‘nikmalar)ni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishlaridan katta foyda ko‘rishadi.

Xulosa. Raqamlashtirish muhiti ta’limda inqilobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. U o‘quv jarayonini yanada moslashuvchan, interaktiv va samarali qilish bilan birga, talabalarni XXI asrning texnologik va ijtimoiy talablariga tayyorlaydi. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda bu muhitni joriy etish uchun infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilarni tayyorlash va ijtimoiy tenglikni ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rish zarur bo‘ladi. Shu bilan birga, raqamlashtirish muhiti ta’limning kelajagini shakllantirishda asosiy omil sifatida o‘z ahamiyatini tobora oshirmoqda. Raqamlashtirish muhitida talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biridir. Bu jarayon nafaqat texnologik jihatdan, balki pedagogik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish va talabalarni kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatga tayyorlash nuqtayi nazaridan ham muhimdir. O‘zbekistonda ushbu metodikani joriy etish uchun mahalliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va resurslarini hisobga olgan holda moslashtirish zarur bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-yanvardagi 19-son “Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
3. Mamarajabov M.E. Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish, p.f.d.(DSc) ilmiy darajasini olishga yozilgan dissert.–T.:-2023.-184 b.
4. Maxmudov A.X., Anarbaeva F.U. Raqamli ta’limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari. Development issues of innovative economy in the agricultural sector. 2021.-476 b.
5. Бродовская Е.В., Домбровская А.Ю., Петрова Т.Е., Пырма Р.В., Азаров А.А. Цифровая среда ведущих университетов мира и РФ: результаты сравнителного анализа данных сайтов // Высшее образование в России. 2019. – Т. 28. – № 12. – С. 9–22.
6. Khahharov S. Kh., & Nosirova Sh. E. (2024). Use of the Innovative Educational Method of Design in the Teaching of Database Science. *International Journal of Formal Education*, *3*(9), 83–86. Retrieved from https://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/3440
7. Khahharov S. Kh., & Nosirova Sh. E. (2024). Methodology of Using Pedagogical Software Tools in Teaching Database Science. *Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, *2*(9), 376-381. https://doi.org/10.5281/
8. Вербицкий А.А. Сифровое обучение: проблемы, риски и перспективы //Електронный научно-публитсистический журнал «HomoCyberus».- 2019. —№1(6). [Электронный ресурс] – Режим доступа: http://journal.homocyberus.ru/ Вербитский_АА_1_2019

9. Абдураимова Г.О. Возможности мултимедийных технологий в преподавании педагогических диссиплин // Актуалные проблемы гуманитарных и естественных наук. – Москва, 2018. – №4. – С. 50 – 53.

10. Ibraymov A.E.. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. – Toshkent: “Lesson press”, 2020, 112 bet.

11. Davronov Sh. raqamlashtirish muhitida bo‘lajak shifokorlarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi. https://buxdu.uz/media/jurnallar/pedagogik_mahorat/pedagogik_mahorat_7_2024_2.pdf

12. Davronov Sh. Raqamlashtirish muhitida bo‘lajak shifokorlarga “tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanini o’qitish. https://buxdu.uz/media/jurnallar/pedagogik_mahorat/pedagogik_mahorat_12_2024_2.pdf

O‘QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV VIZUAL TA’LIM VOSITALARINING SAMARADORLIGI

Sulaymonova Saodat Usubxonovna,
Namangan davlat pedagogika instituti,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
saodatsulaymonova83@gmail.com ,
ORCID: 0009-0001-1918-9136

Maqolada o‘quvchilarga ekologik muammolarni tushunish, xabardorligini oshirishda interaktiv vizual ta’lim vositalaridan samarali foydalanish, tabiatni asrash natijadorligida ekologik madaniyatni rivojllantirishga qaratilgan tushunchalarni soddalashtirish, faollikni oshirish va mavzu bilan hissiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan. Natijada o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda interaktiv vizual ta’lim vositalarining samaradorligi yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *ekologik madaniyat, atrof-muhit haqida xabardorlik, o‘quvchilar, ta’lim, ekologik muammolar, bilimlarni saqlash, tanqidiy fikrlash, samaradorlik.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ ВИЗУАЛЬНО ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ УЧЕНИКОВ

Цель статьи - эффективно использовать интерактивно визуальных средств для повышения у учениках осведомленности проблемы окружающей среды, упростить концепции, направленные на развитие экологической культуры, способствующей сохранению природы, повысить активность и развить эмоциональную связь с темой. В результате были даны рекомендации по эффективности использования интерактивно визуальных средств обучения в формировании экологической культуры у учеников.

Ключевые слова: *Экологическая культура, осведомленность о состоянии окружающей среды, ученики, образование, экологические проблемы, сохранение знаний, критическое мышление, эффективность.*

EFFECTIVENESS OF INTERACTIVE VISUAL EDUCATIONAL MEANS IN FORMING ECOLOGICAL CULTURE OF PUPILS

The purpose of the article is to effectively use interactive visual tools to increase school pupils’ awareness of environmental issues, simplify concepts aimed at developing environmental culture that promotes nature conservation, increase activity and develop an emotional connection with the topic. As a result, recommendations were given on the effectiveness of using interactive visual teaching tools in developing pupils environmental culture.

Keywords: *environmental culture, environmental awareness, pupils, education, environmental issues, knowledge retention, critical thinking, efficiency.*

Kirish. Ekologik ta’lim yosh o‘quvchilarga sayyoramiz oldida turgan o‘sib borayotgan ekologik muammolarni tushunish va hal qilish imkoniyatini berish uchun juda muhimdir. An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha atrof-muhit muammolarining murakkabligini o‘quvchilarni qiziqtiradigan va oson tushunadigan tarzda etkazish uchun kurashadi. Animatsiya mavhum tushunchalarni tasavvur qilish va jozibali hikoyalarni aytib berish qobiliyati bilan ekologik ta’limni kuchaytirishda kuchli vosita sifatida paydo bo‘ldi[1]. Ushbu maqolada o‘quvchilarning atrof-muhit muammolarini tushunishi va xabardorligini oshirishdagi samaradorligi tahlil qilinadi, uning ta’lim natijalari va o‘quvchilarning faolligiga ta’siri yoritiladi.

Bugungi kunda global ekologik muammolar – iqlim o‘zgarishi, ifloslanish, biologik xilma-xillikning kamayishi va tabiiy resurslarning har jabxada iste'mol qilinishi – insoniyatning kelajagi uchun tahdid solmoqda. Bularning barchasi, kelgusi avlodlarni atrof-muhitni saqlash va ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun tayyorlash zaruratini kuchaytiradi. Ekologik madaniyatni shakllantirish – bu o‘quvchilarga atrof-muhitga bo‘lgan mas'uliyat tuyg‘usini beradi, ularni ekologik muammolar haqida o‘ylashga va ularni hal qilishga ilhomlantiradi.

Ta’lim jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, metodlar va vositalardan foydalanishning ahamiyati juda katta. O‘z navbatida, interaktiv vizual ta’lim vositalari

(video, animatsiyalar, infografikalar, onlayn simulyatorlar va o‘yinlar) o‘quvchilarning ekologik bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu vositalar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularning darslarga qiziqishini kuchaytiradi va ekologik masalalarni o‘zlashtirish va tushunish jarayonini qulaylashtiradi.

Interaktiv ta’lim metodlari o‘quvchilarga himoya qilinayotgan har qanday muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajriba orqali o‘rganish imkonini beradi. Bu jarayonda, o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar; masalan, ularning ekotizimlar haqidagi tasavvurlari simulyatsiyalar orqali aniq va haqiqiy muammolarni hal qilishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, vizual materiallar o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni oddiy va tushunarli shaklda taqdim etish imkoniyatini beradi, bu esa ularning umumiy bilimlarini kengaytiradi.

O‘qituvchilar uchun interaktiv va vizual materiallar, o‘quvchilarning ilgari o‘rgangan bilimlarini mustahkamlash va yangi bilimlarni kiritishda yangi yondashuvlar taklif etadi. O‘qituvchi sifatida, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash va ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv vositalardan foydalanish nafaqat darsni qiziqarli qiladi, balki o‘quvchilarning o‘z o‘rganish jarayonida mas'uliyat hissini oshiradi.

Shunday qilib, ushbu maqolada o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda interaktiv vizual ta’lim vositalarining samaradorligini o‘rganishga e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqot jarayonida ushbu vositalarning o‘quvchilarga qanday ta’sir etishini, ularning ekologik bilim va ko‘nikmalarini qanday rivojlantirishini baholash maqsad qilinadi. Shuningdek, maqolada ushbu metodlarning o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida jonli muloqotni o‘rnatishda, ekologik masalalarga bo‘lgan qiziqishni oshirishda va o‘quvchilarning ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishini ta’minlashdagi rolini ko‘rish imkoniyati mavjud. Bu tadqiqotning natijalari, ta’lim jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish va atrof-muhitni himoya qilish bo‘yicha yangi strategiyalarni ishlab chiqishga imkon berishi kutilmoqda.

Ekologik madaniyatini shakllantirishda interaktiv vizual ta’lim - ko‘p qirraliligi va vizual jozibadorligi uni yosh o‘quvchilarga ekologik tushunchalarni etkazish uchun ideal vositaga aylantiradi. U murakkab g‘oyalarni oddiy, jozibali ko‘rgazmalarga bo‘lib, o‘rganishni o‘quvchilar uchun qulayroq va qiziqarli qilish imkonini beradi. Interaktiv vizual ta’limdan foydalanishning afzalliklari o‘ziga hos bo‘lib, murakkab tushunchalarni soddalashtirishdan iborat. Bu jarayonda suvning aylanishi, iqlim o‘zgarishi yoki o‘rmonlarning kesilishi kabi murakkab ekologik jarayonlarni o‘quvchilar tushunadigan tarzda tasvirlashi mumkin. Vizual metafora va soddalashtirilgan tasvirlardan foydalangan holda, animatsiya o‘quvchilarga atrof-muhit fanining asoslarini tushunishga yordam beradi[2].

Ishtirok etishning ortishi: dinamik va interaktivligi an’anaviy matnga asoslangan yoki statik vizual kontentga qaraganda o‘quvchilar e’tiborini yanada samaraliroq jalb qiladi. Ushbu faollik yanada chuqurroq o‘rganish tajribasiga olib keladi, bu yerda o‘quvchilar materialni tushunishda faol ishtirok etadilar[3].

Hissiy aloqa: Hikoya orqali animatsiya o‘quvchilar va mavzu o‘rtasida hissiy aloqalarni yaratishi mumkin. Atrof-muhit muammolarining ta’sirini aks ettiruvchi animatsion qahramonlar va hikoyalar hamdardlikni uyg‘otishi, o‘quvchilarni ekologik muammolarga g‘amxo‘rlik qilishga va ularga qarshi harakat qilishga undashi mumkin.

Bilimlarni saqlash va eslab qolish. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, animatsion kontent orqali o‘rganadigan o‘quvchilar an'anaviy o‘rganish usullaridan foydalanadiganlarga qaraganda ma’lumotni yaxshiroq eslab qolishadi. Buning sababi shundaki, animatsiya vizual va eshitish stimullaridan foydalanadi, bu xotirani mustahkamlashga va o‘rganishni esda qolarli qilishga yordam beradi.

Vizual xotira yordami: Bunda mavzuga oid tushunchalarni, shakllar va tajribadan ma’lumotni eslab qolishga yordam beradigan kuchli vizual signallarni yordam beradi. Masalan, o‘quvchilar ifloslangan daryoning jonlantirilgan ketma-ketligini ko‘rganlarida, ular suvning ifloslanishining sabablari va muammolarni esga olishlari mumkin.

Tanqidiy fikrlash malakalarini olish. Tabiiy bilimlarni saqlashga yordam beradi, balki ekologik muammolarni o‘quvchilarni tahlil qilish va savolga undaydigan tarzda taqdim etish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi [4]. Muammoni hal qilish senariylari: Vizual ta’limg aloqador kontentlarni o‘quvchilarga real hayotdagi hayotni ko‘rsatishi mumkin, bu esa ularni mumkin bo‘lgan yechimlar haqida tanqidiy fikrini oshirib beradi. Senariylarda ishtirok etish orqali o‘quvchilar muammolarga turli nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar va strategik fikrlashlarini rivojlantiradilar[5].

Interaktiv qarorlar qabul qilish: O‘quvchilarning interaktiv faoliyatlarda ishtiroki ularda mavzuga qiziqishni oshiradi va darslarga bo‘lgan motivatsiyalarini kuchaytiradi. Qarorlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini bayon qilish, muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ekologik ta’lim bo‘yicha tadqiqot natijalari. O‘quvchilarining ta’lim jarayoniga ta’sirini olish uchun, ayniqsa, ekologik ta’lim kontekstida bir nechta mahsulot o‘tkazildi. Tadqiqot topilmalari ekologik madaniyatni o‘quvchilar ongida motivatsiyon kuzatishdagi rolini ta’kidlaydi.

Yaxshilangan bilim va xususiyat. Kattaroq konseptual tushuncha: Kompyuterlar shuni ko‘rsatadigan narsalar bilan shug‘ullanadilar, ularni atrof-muhitni yaxshilaydilar. Nazariy bilim va amaliy qo‘llash o‘ziga tafovutni bartaraf etishga yordam beradi, mavhum narsalarni yanada aniqroq qiladi.

Ekologik kasalliklardan tegishlilik: Atrof-muhit muammolari haqidagi roliklarni tomosha qilgan o‘quvchilar global isish, o‘rmonlarning kesilishi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi muammolardan bo‘lishi mumkin bo‘lgan ko‘proq.

Barqaror harakat qilish motivatsiyasining ortishi. Xulq-atvor o‘zingiz:

hissiy reaksiyalarini uyg‘otish o‘quvchilarni ekologik toza- tozalashga unda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar bilan bog‘liq muammolar bilan bog‘liq muammolar, atrof-muhitni muhofaza qilish, qo‘llab-quvvatlovchi faoliyat bilan shug‘ullanish qobiliyati ko‘proq[6].

Faol ishtirokni rag‘batlantiruvchi harakat: Harakatga chaqiruv bilan yakunlangan animatsiyalar o‘quvchilar ni qayta ishlash dasturlari yoki daraxt ekish kabi tashabbuslarda ishtirok etishga ilhomlantiradi. Mazmunan real hayotdagi harakatlar bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarni atrof-muhitni tozalashda faol ishtirokchi bo‘lishga undaydi.

Ekologik ta’limdagi muammolar va mulohazalar. Kuchli ta’lim vositasi bo‘lsada, uni qo‘llashni nazorat qilish uchun o‘qituvchilarni ushlab turishlari kerak bo‘lgan ba’zi muammolar va ma’lumotlar mavjud[7].

Yoshga mosligi: Interaktiv visual ta’limning murakkabligi o‘quvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak. Kichik o‘yinchilarni soddaroq tasvirlar va hikoyalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish mumkin bo‘lgan kattaroq o‘quvchilar esa tarkib bilan shug‘ullanish mumkin.

Ilmiy aniqlik: Rasmlar xarakatiga asoslangan kontentning ilmiy xavfsizligi to‘g‘ri va eng so‘nggi ma’lumotlarga xavfsizligini ta’minlash juda muhim. Noto‘g‘ri ma’lumotlar animatsiyaning tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotib, atrof-muhit muammolari haqida noto‘g‘ri ma’lumotlarga olib kelishi mumkin.

Foydalanish va inkluzivlik: Barcha o‘quvchilar texnologiyadan tenglashtirishga ega emas, bu fayl animatsiya ta’lim mazmuni bilan shug‘ullanishni cheklashi mumkin. Animatsiyalar turli platformalar va jihozlar mavjud bo‘lishini ta’minlash inklyuziv ta’lim uchun juda uskunalar.

O‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda interaktiv vizual ta’lim vositalarining samaradorligini o‘rganish jarayonida o‘tkazilgan tadqiqotlar bir nechta muhim natijalarni keltirib chiqardi. Ushbu natijalar va ularning mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Ekologik madaniyatni rivojlantirish:

Interaktiv vizual ta’lim vositalarining qo‘llanilishi o‘quvchilar orasida ekologik madaniyatni yanada kuchaytirdi. Darslar davomida turli ekologik muammolarni keltirib chiqaruvchi vizual materiallar, masalan, diagrammalar, ma’lumotlar grafiklari va simulyatsiyalar, o‘quvchilarni bir qator ekologik masalalar bilan tanishtirishda samara berdi. O‘quvchilar muammolarni tahlil qilish va ularning oqibatlarini prognoz qilish imkoniyatiga ega bo‘lishdi, bu esa ularning mas'uliyat hissini oshirdi.

2. Faol o‘qish va ta’lim jarayoniga qiziqish:

Interaktiv ta’lim vositalari dars jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirdi. O‘quvchilar darslarga ko‘proq qiziqish bilan kelishdi, o‘z fikrlarini ifodalashda, savollar berishda va o‘zaro munozaralarda ishtirok etishda faol bo‘lib kaldilar. O‘qituvchilar har bir o‘quvchining ishtirokini rag‘batlantirish imkoniga ega bo‘ldi, bu esa o‘quvchilarning o‘zaro fikr almashishlarini va o‘z haqidagi fikrlarini yanada rivojlantirdi.

3. Muammoli tijoratlarni hal qilish ko‘nikmalari:

Interaktiv vizual vositalar yordamida o‘quvchilar muammoli vaziyatlarni hal etish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Simulyatsiyalar va o‘yinlar orqali o‘quvchilar atrof-muhitdagi real muammolarni hal qilish jarayonida o‘z bilimlarini amaliy qo‘llashni o‘rgandilar. Bu jarayon ularga tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam berdi va ular o‘z qarorlarining oqibatlarini baholash qobiliyatlarini oshirdilar.

4. Texnologik yondashuvni rivojlantirish:

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarga yangi imkoniyatlarni ochdi. O‘quvchilar kompyuter dasturlari, mobil ilovalar va onlayn platformalardan foydalanish orqali ekologik bilimlarini kengaytirdilar. Bu texnologik yondashuv ularda mustaqil o‘rganish va o‘z bilimlarini kengaytirishga bo‘lgan ishtiyoqni mustahkamladi. O‘quvchilar, shuningdek, internetdan foydalangan holda o‘z bilimlarini yanada boyitish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

5. Ota-onalar va jamiyatni jalb etish:

Interaktiv vizual ta’lim vositalari nafaqat o‘quvchilar, balki ular bilan ishlaydigan olishni istagan ota-onalar va jamiyat vakillarini ham jalb etdi. Ota-onalar dars jarayonlariga faol qatnashib, bolalarining ekologik bilimlarini oshirishga yordam berish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. O‘z navbatida, bu o‘zaro aloqalar oilada ekologik masalalarga e'tibor qaratish va ularga bo‘lgan mas'uliyatni oshirishga imkon berdi.

Xulosa. O‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda interaktiv vizual ta’lim vositalarining samaradorligi tadqiqotlar natijasida doimiy ekologik bilimlar darajasining oshishiga olib keldi. Ushbu vositalar orqali o‘quvchilar ekologik masalalarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish va o‘z fikrlarini ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Murakkab tushunchalarni soddalashtirish, o‘quvchilarni emotsional jalb qilish va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantirish qobiliyati uni ekologik ta’limda qimmatli vositaga aylantiradi.

Tadqiqot natijalari bilimlarni saqlashni kuchaytirish, ekologik xabardorlikni oshirish va o‘quvchilar o‘rtasida barqaror xatti-harakatlarni rag‘batlantirishda animatsiyadan foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Keng qamrovli ta’lim yondashuvining bir qismi sifatida foydalanish orqali maktablar sayyoramiz oldida turgan muammolarni hal qilish uchun jihozlangan ekologik ongli fuqarolarning keyingi avlodini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Рыбина А. В., Гаряева В. В. Анализ эффективности применения программ моделирования 3D-объектов в строителном проектировании //Научно-технический вестник Поволжя. – 2018. – №. 5. – С. 246-249.

2. Дунаев М. Д., Григорев А. Д. Анализ эффективности исползования визуалных эффектов в видеороликах для продвижения продукта //Вестник науки. – 2024. – Т. 3. – №. 5 (74). – С. 1685-1689.

3. Гнездилов В. В. Сравнителный анализ эффективности реанiматsiонного пособия (acls-2000 и acls-2005) на догоспиталном этапе //Тихоокеанский медицинский журнал. – 2008. – №. 1 (31). – С. 85-86.

4. Дадянова И. Б. Современные технологии анiматsiи в веб-дизайне //Культура и искусство. – 2022. – №. 2. – С. 8-17.

5. Синюй Ч. Анимация видеоматериал: анализ синергии в мултимедийных проектах //Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. Серия: Исторические науки. Культурология. Политические науки. – 2023. – №. 2. – С. 93-99.

6. Симакова Ю. А. Герменевтический потенциал анiматsiи в исследовании культуры : дис. – б. и., 2014.

7. Шаповалова Д. В. Анализ научных исследований по проблеме создания 2D-и 3D-анiматsiи в мултипликатsiи //Алманах научных работ молодых ученых Университета ИТМО. – 2019.

8. Бобков В. А., Роншин Ю. И. Анiматsiя вокселной сцены //Программные продукты и системы. – 2003. – №. 2. – С. 3-7.

9. S.Sulaymonova. Ekologik tushunchalarga yo‘naltirilgan qiziqarli va ta’limiy animatsiyalarni ishlab chiqishning asosiy tamoyillari. //NamDU ilmiy axborotnomasi// №-12 son 2024 yil. 913-b.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIMDA KIBERXAVFSIZLIK MADANIYATINING SHAKLLANISHI: NAZARIY ASOSLAR

Xusenov Murodjon Zoxirovich,
Buxoro davlat universiteti, Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi o‘qituvchisi,
m.z.xusenov@buxdu.uz,
ORCID: 0000-0002-1533-3102

Ushbu ilmiy maqola zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim sohasida kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslarini chuqur tadqiq etadi. Muallif raqamli ta'limning jadal rivojlanishi bilan bog'liq xavflarni tahlil qilgan holda, kiberxavfsizlik madaniyatining kontseptual asoslarini ISO 27001, NIST Cybersecurity Framework kabi xalqaro standartlar asosida yoritadi. Maqolada ta'lim muassasalarida uchraydigan asosiy kibertahdidlar statistik ma'lumotlar bilan ko'rsatib berilgan, shuningdek, Bandura va Rogersning nazariy yondashuvlari asosida pedagogik modellar taklif etilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *raqamli transformatsiya, kiberxavfsizlik madaniyati, ta'lim tizimi, axborot xavfsizligi, pedagogik texnologiyalar, kibertahdidlar, xavf boshqaruvi, ISO 27001, NIST CSF, ijtimoiy o'rganish nazariyasi.*

ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

В данной научной статье глубоко исследуются теоретические основы формирования культуры кибербезопасности в образовании в контексте современной цифровой трансформации. Автор анализирует риски, связанные с быстрым развитием цифрового образования, и рассматривает концептуальные основы культуры кибербезопасности на основе международных стандартов, таких как ISO 27001 и NIST Cybersecurity Framework. В статье представлены основные киберугрозы, встречающиеся в образовательных учреждениях, с привлечением статистических данных, а также предложены педагогические модели, основанные на теоретических подходах Бандуры и Роджерса. Результаты исследования помогут разработать эффективные механизмы формирования культуры кибербезопасности в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: *цифровая трансформация, культура кибербезопасности, система образования, информационная безопасность, педагогические технологии, киберугрозы, управление рисками, ISO 27001, NIST CSF, теория социального обучения.*

FORMATION OF CYBERSECURITY CULTURE IN EDUCATION IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION: THEORETICAL FOUNDATIONS

This scientific article deeply studies the theoretical foundations of the formation of a cybersecurity culture in education in the context of modern digital transformation. The author, analyzing the risks associated with the rapid development of digital education, covers the conceptual foundations of cybersecurity culture based on international standards such as ISO 27001, NIST Cybersecurity Framework. The article shows the main cyber threats encountered in educational institutions with statistical data, and also proposes pedagogical models based on the theoretical approaches of Bandura and Rogers. The results of the study help to develop effective mechanisms for the formation of a cybersecurity culture in educational institutions.

Keywords: *digital transformation, cybersecurity culture, educational system, information security, pedagogical technologies, cyber threats, risk management, ISO 27001, NIST CSF, social learning theory.*

Kirish. Raqamli transformatsiya bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida, xususan, ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Texnologik taraqqiyot, sun’iy intellektning rivojlanishi, bulutli xizmatlar va internet tarmoqlarining kengayishi natijasida axborot almashinuvi va bilim olish imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi. Biroq bu jarayon raqamli xavfsizlik tahdidlarini ham keskin oshirdi. Ayniqsa, ta’lim muassasalari — maktablar, kollejlar, universitetlar — kiberhujumlar uchun yangi maqsadli obyektlarga

aylangan. Bu holat, o‘z navbatida, kiberxavfsizlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishini ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylantirdi. Shu bilan birga, bu transformatsiya nafaqat texnologik infratuzilmani, balki inson omiliga asoslangan madaniyatni shakllantirish zaruratini ham keltirib chiqardi. Demak, raqamli texnologiyalarning samaradorligidan to‘liq foydalanish uchun kiberxavfsizlik madaniyati barcha ishtirokchilarda – o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ma’muriyat darajasida shakllanishi zarur.

Nazariy asoslar. Kiberxavfsizlik madaniyati insonlarning raqamli muhitdagi xatti-harakatlari, bilimlari va qadriyatlari orqali ifodalanadi. Bandura (1977) tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasi bu borada muhim asoslardan biridir. Ushbu nazariyaga ko‘ra, odamlar o‘zlariga xos bilim, ko‘nikma va xatti-harakatlarni kuzatish, o‘rganish va taqlid qilish orqali shakllantiradilar. Bu jarayonda o‘qituvchilarning namunali roli beqiyosdir. Shuningdek, Rogers (1983) xavf idroki modeli ham dolzarbdir. Bu modelga ko‘ra, insonlar tahdidni qanday qabul qilishsa, shunga mos ravishda himoya choralarini ko‘radilar. Raqamli xavf-xatarlar haqida yetarli bilimga ega bo‘lmagan insonlar beparvo bo‘lishadi, bu esa xavfsizlik darajasini pasaytiradi. Vygotsky (1978) sotsiokultural nazariyasi esa kiberxavfsizlik madaniyatining shakllanishida jamiyat va muhitning o‘rnini ta’kidlaydi. Bu nazariyaga ko‘ra, shaxsiy o‘rganish ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liq. Ustoz-shogird munosabatlari, tengdoshlar bilan hamkorlik, oilaviy ta’lim muhitlari — bularning barchasi raqamli xavfsizlik madaniyati shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli pedagogik strategiyalar faqat texnik bilimlarni emas, balki ijtimoiy o‘rganishga asoslangan yondashuvlarni ham o‘z ichiga olishi lozim.

Raqamli fuqarolik va kiberxavfsizlik. Raqamli fuqarolik — bu internet va texnologiyalardan mas’uliyatli, axloqiy va xavfsiz foydalanish madaniyatidir. Kiberxavfsizlik madaniyati esa uning ajralmas qismidir. Shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish, zararli dasturlardan ehtiyot bo‘lish, raqamli etikaga rioya qilish kabi jihatlar raqamli fuqarolikning tarkibiy elementlaridir. Bu madaniyat bolalikdan shakllanishi lozim. Maktablarda raqamli savodxonlik darslari, texnologiyalardan xavfsiz foydalanish bo‘yicha seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilishi lozim. Bu orqali o‘quvchilar internet muhitida qanday harakat qilish kerakligini amaliy jihatdan o‘rganadilar. Raqamli fuqarolikni o‘rgatishda interfaol yondashuvlar, gamifikatsiya elementlari, real holatlarda muammolarni hal qilish metodlari samarali natijalar beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar raqamli platformalarda o‘z huquq va majburiyatlarini anglab yetishlari, virtual makonda axloqiy me’yorlarga amal qilishlari lozim. Bu borada “digital citizen” modeli asosida rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish mumkin.

Xalqaro qonunchilik va standartlar. Jahon miqyosida kiberxavfsizlikni tartibga soluvchi asosiy hujjatlardan biri bu GDPR — Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamentidir. Yevropa Ittifoqida qabul qilingan bu hujjat har bir insonning shaxsiy axborotini himoya qilishga qaratilgan. Ta’lim sohasida bu reglament o‘quvchilarning ma’lumotlarini qanday to‘plash, saqlash va ulardan foydalanish mumkinligini belgilaydi. AQShda esa COPPA — Children’s Online Privacy Protection Act mavjud bo‘lib, u 13 yoshgacha bo‘lgan bolalar ma’lumotlarini internetda qanday muhofaza qilish kerakligini tartibga soladi. Bu kabi qonunchilik me’yorlari ta’lim tizimi uchun muhim qo‘llanmadir. BMTning UNICEF, ITU, va UNESCO tashkilotlari ham raqamli xavfsizlik bo‘yicha bir qator xalqaro strategiyalar ishlab chiqqan. ISO 27001 standarti va NIST Cybersecurity Framework esa ta’lim muassasalarining axborot tizimlarida xavfsizlikni tashkil etish bo‘yicha texnik yo‘riqnomalar beradi. Bu standartlar yordamida muassasalar xavflarni aniqlash, baholash, bartaraf etish va tiklash bosqichlarini tizimli amalga oshirishlari mumkin.

O‘zbekistonda kiberxavfsizlik madaniyati. O‘zbekiston Respublikasida “Axborot xavfsizligi to‘g‘risida” va “Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilingan. Bundan tashqari, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi asosida ta’lim tizimining raqamlashtirilishi bilan birga, xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Umumta’lim maktablari zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanmoqda, pedagog kadrlar uchun AKT bo‘yicha malaka oshirish kurslari yo‘lga qo‘yilgan. Maxsus o‘quv markazlari, xususan, Cyber Security Center, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshida tashkil etilgan bo‘lib, yoshlarni amaliy kiberxavfsizlik bilan tanishtirmoqda. Shuningdek, raqamli savodxonlik bo‘yicha Davlat dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lib, bu dasturlar maktabgacha ta’limdan boshlab barcha bosqichlarni qamrab olmoqda. Bu tashabbuslarning samaradorligini baholash uchun maxsus monitoring tizimlari yo‘lga qo‘yilishi, natijalar asosida tahliliy hisobotlar tayyorlanishi lozim.

Statistik ma’lumotlar. IBM va ENISA 2023-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, ta’lim sohasiga qaratilgan kiberhujumlar global miqyosda 19 foizga oshgan. O‘zbekistonda esa 2022-yil davomida 700 dan ortiq ta’lim muassasasida kiberxavfsizlikka oid texnik audit o‘tkazilgan. So‘rovnomalar asosida aniqlanishicha, talabalar orasida o‘z shaxsiy ma’lumotlariga mas’uliyat bilan yondashadiganlar soni atigi 38 foizni tashkil qiladi. Bu esa profilaktik choralarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Raqamli muhitda xatti-harakatlar, parol yaratish madaniyati, xavfsiz tarmoqlardan foydalanish kabi elementlar haqida ma’lumot beruvchi interaktiv treninglar orqali bu darajani oshirish mumkin. Shu bilan birga, talabalarning o‘z telefonlari, planshetlari va shaxsiy

kompyuterlarida xavfsizlik sozlamalarini yoqish darajasi, antiviruslardan foydalanish holati ham kiberxavfsizlik madaniyati darajasini ko‘rsatadi. Maxsus indikatorlar ishlab chiqish orqali bu madaniyatni o‘lchash va tahlil qilish mumkin.

Ilg‘or xorijiy tajribalar. Estoniyada har bir fuqaroga raqamli identifikatsiya kartasi beriladi. Bu karta orqali ularning raqamli faoliyati xavfsiz boshqariladi. Estoniya maktablarida har bir o‘quvchiga “Cyber Hygiene” darslari o‘tiladi. Janubiy Koreyada raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyati bolalar bog‘chasidan boshlab o‘rgatiladi. Singapur esa har bir maktabda maxsus raqamli xavfsizlik koordinatori lavozimini joriy qilgan. AQShda esa “CyberPatriot” loyihasi orqali o‘quvchilarni milliy darajada kiberxavfsizlik musobaqalarida ishtirok ettirish tizimi mavjud. Finlandiyada esa raqamli fuqarolik va kiberxavfsizlik alohida fan sifatida barcha maktablarda o‘qitiladi. Ushbu tajribalarning umumiy jihati shundan iboratki, ular nafaqat texnik bilim, balki axloqiy, huquqiy va sotsial madaniyatni ham shakllantirishga qaratilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimi ham bu yo‘nalishdagi ilg‘or amaliyotlardan foydalanib, o‘z milliy modelini yaratishi zarur.

Metodologik yondashuv. Kiberxavfsizlik madaniyatini o‘rganishda sotsiologik so‘rovnomalar, eksperimental tadqiqotlar, kuzatish, kontent-tahlil kabi metodlardan foydalaniladi. Talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan kuzatuvlar asosida xavfsizlik darajasini aniqlash va unga mos yechimlarni taklif qilish mumkin. Shuningdek, aksariyat hollarda CTF (Capture the Flag) turidagi musobaqalar, simulyatsiyalar orqali talabalar real holatlarga tayyorlanadi. Statistik regressiyalar va klaster tahlillar orqali foydalanuvchi xatti-harakatlari bilan kiberxavfsizlikka bo‘lgan munosabat o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanadi. Bu yondashuvlar orqali kiberxavfsizlik madaniyati shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar tizimli aniqlanadi va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Tavsiyalar:

1. O‘quv dasturlariga “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini kiritish.
2. Har yili kiberxavfsizlik haftaligini ta’lim tizimida tashkil etish.
3. O‘qituvchilar uchun maxsus raqamli xavfsizlik bo‘yicha sertifikatlash tizimini joriy qilish.
4. Ota-onalar ishtirokida raqamli xavfsizlik bo‘yicha seminarlar tashkil qilish.
5. Maktablar va universitetlarda xavfsiz raqamli muhitni nazorat qiluvchi koordinatsiya markazlarini tashkil etish.
6. Har bir o‘quvchi va talaba uchun raqamli xavfsizlik bo‘yicha individual pasport yaratish.
7. Kiberxavfsizlik bo‘yicha milliy reyting tizimini joriy qilish.
8. Raqamli xavfsizlikni baholovchi testlar asosida davriy monitoring o‘tkazish.

Xulosa. Ta’lim tizimida kiberxavfsizlik madaniyatining shakllanishi jamiyatning raqamli transformatsiyasi bilan hamohang ravishda rivojlanishi lozim. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki yosh avlodni kelajak xavf-xatarlardan himoyalash, ularning ongli va mas’uliyatli fuqarolar bo‘lib shakllanishida hal qiluvchi omildir. Kompleks yondashuv, ilmiy asoslangan strategiyalar, xalqaro tajriba va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligida kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish nafaqat bugungi, balki kelajak avlod xavfsizligini ta’minlaydi. Mazkur madaniyatni shakllantirish, uni ijtimoiy qadriyat sifatida qaror toptirish va ta’lim siyosatining ajralmas qismiga aylantirish bugungi kunning dolzarb strategiyasidir.

Adabiyotlar:

1. ISO/IEC 27001:2022. Information security management systems
2. NIST. (2021). Cybersecurity Framework for Critical Infrastructure
3. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Prentice-Hall
4. Rogers, R. W. (1983). Cognitive and physiological processes in fear appeals and attitude change. Journal of Personality and Social Psychology
5. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report
6. IBM. (2024). Security X-Force Threat Intelligence Index
7. ENISA. (2022). Cybersecurity Culture Guidelines
8. Verizon. (2023). Data Breach Investigations Report
9. Kaspersky Lab. (2023). Educational Sector Threat Landscape
10. Microsoft. (2023). Digital Defense Report
11. European Union Agency for Cybersecurity. (2022). Cybersecurity Education Framework
12. U.S. Department of Education. (2023). Cybersecurity Recommendations for K-12 Schools
13. Council of Europe. (2022). Digital Citizenship Education Handbook
14. International Telecommunication Union. (2023). Global Cybersecurity Index
15. Organization for Economic Cooperation and Development. (2023). Digital Education Outlook

VIRTUAL TA’LIM MUHITIDA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING TASHKILIY TUZILMAVIY KO‘RINISHLARI

Yo‘ldosheva Nilufar Yusufovna,
Buxoro innovatsion ta’lim va tibbiyot universiteti o‘qituvchisi
yuldoshevan159@gmail.com

Ushbu maqolada, zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda Oliy ta’lim tizimini transformatsiya qilish va ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan mexanizmlar tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya, o'quv jarayonlarini optimallashtirish, resurslarni samarali taqsimlash, hamda talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlash imkoniyatlarini yaratadi. Maqolada, oliy ta’lim muassasalarida raqamli platformalarning roli, sun'iy intellekt, ma’lumotlarni tahlil qilish va o'qitishning moslashtirilgan metodlari kabilar muhokama qilinadi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga keladigan texnik, metodologik va etika bilan bog'liq muammolar ham ko'rib chiqiladi. Mualliflar, oliy ta’lim muassasalarida raqamli transformatsiya orqali ta’lim sifatini oshirish va global ta’lim tizimlaridan raqobatbardosh bo'lish uchun zarur bo'lgan strategiyalarni taklif etadilar. Maqolada ta’lim samaradorligini oshirishda raqamli transformatsiyaning istiqbollari va amaliyotdagi yondoshuvlar ko'rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, oliy ta’lim, ta’lim samaradorligi, sun'iy intellekt, ta’lim platformalari, texnologiyalar, ma’lumot tahlili, metodologiya.*

ORGANIZATIONAL AND STRUCTURAL ASPECTS OF EFFECTIVE USE OF E-LEARNING RESOURCES IN A VIRTUAL LEARNING ENVIRONMENT

This article analyzes mechanisms aimed at transforming the higher education system and enhancing educational effectiveness through the use of modern information technologies. Digital transformation enables the optimization of learning processes, efficient allocation of resources, and the strengthening of interactions between students and instructors. The article discusses the role of digital platforms in higher education institutions, as well as the use of artificial intelligence, data analysis, and adaptive teaching methods. In addition, it addresses technical, methodological, and ethical issues that may arise during the process of digital transformation. The authors propose strategies necessary to improve the quality of education and ensure competitiveness in global education systems through digital transformation. The article outlines perspectives and practical approaches for increasing the effectiveness of education through digital transformation.

Keywords: *digital transformation, higher education, educational effectiveness, artificial intelligence, educational platforms, technologies, data analysis, methodology.*

ОРГАНИЗАЦИОННО-СТРУКТУРНЫЕ АСПЕКТЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ВИРТУАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

В данной статье анализируются механизмы трансформации системы высшего образования и повышения эффективности обучения с использованием современных информационных технологий. Цифровая трансформация позволяет оптимизировать учебные процессы, эффективно распределять ресурсы, а также укреплять взаимодействие между студентами и преподавателями. В статье рассматривается роль цифровых платформ в вузах, применение искусственного интеллекта, анализа данных и адаптивных методов обучения. Также затронуты технические, методологические и этические проблемы, возникающие в процессе цифровой трансформации. Авторы предлагают стратегии, необходимые для повышения качества образования и обеспечения конкурентоспособности в глобальной образовательной системе посредством цифровой трансформации. В статье представлены перспективы и практические подходы к повышению эффективности образования за счёт цифровых технологий.

Ключевые слова: *Цифровая трансформация, высшее образование, эффективность обучения, искусственный интеллект, образовательные платформы, технологии, анализ данных, методология.*

Kirish. Oliy ta’limda ixtisoslik fanlarini o‘qitish, talabalar uchun o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarni hosil qilishni ta’minlashda markaziy o‘rin tutadi. O‘quv jarayonining samarali va sifatli bo‘lishi uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarini qo‘llash, ayniqsa elektron ta’lim resurslaridan foydalangan holda o‘qitish muhim ahamiyatga ega. Elektron ta’lim resurslari, xususan, raqamli o‘quv materiallari, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va boshqa interaktiv vositalar ixtisoslik fanlarining o‘qitilishi samaradorligini oshirishi, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga rag'batlantirishi va talabalarning o‘zlashtirish jarayonini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Elektron ta’lim resurslari — bu o‘quv jarayonini samarali o‘tkazish uchun mo‘ljallangan raqamli vositalar, shu jumladan, o‘quv materiallari, taqdimotlar, videolar, interaktiv simulyatsiyalar, onlayn platformalar va boshqa turli xil vositalardan iboratdir. Ularning asosiy vazifasi o‘qituvchilarga o‘z darslarini yanada jonli va samarali qilishda yordam berish, talabalar esa o‘quv jarayonida faol ishtirok etib, bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘lishidir.

Elektron ta’lim resurslarining turlari quyidagicha:

1. O‘quv materiallari (e-kitoblar, maqolalar, leksikalar): O‘quvchilarga darslarni mustahkamlash va yangi mavzularni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan barcha manbalar. O‘quv materiallari onlayn tarzda mavjud bo‘lib, talabalar uchun ko‘plab resurslarni bir joyda taqdim etadi.

2. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar: Ixtisoslik fanlari, ayniqsa, tabiiy fanlar va texnik mutaxassisliklar uchun virtual laboratoriyalar katta ahamiyatga ega. Ular talabalar uchun tajriba o‘tkazish imkoniyatini beradi, bu esa amaliy ko‘nikmalarni oshirishga yordam beradi.

The article provides a comprehensive analysis of the components of the digital learning environment, modern digital tools (platforms, simulators, artificial intelligence-assisted learning systems, virtual laboratories) and their impact on student competencies. It also substantiates the effectiveness of methods such as individual approach, differentiated teaching, collaborative learning, and project-based learning through the use of innovative educational technologies.

Keywords: *digital education, innovative approach, special competencies, digital literacy, STEAM, VR, gamification.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining raqamlashtirilishi global tendensiyaga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’limga integratsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Raqamli O‘zbekiston — 2030”** dasturi, shuningdek, Prezident qarorlarida belgilangan vazifalar aynan raqamli ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi.

Raqamli ta’lim muhiti — bu o‘quvchilarga mustaqil fikrlash, axborot bilan ishlash, muammoni tahlil qilish, yechim topish, loyihalash kabi **maxsus kompetensiyalarni rivojlantirish** uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, an’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq, raqamli muhit o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ushbu maqolada aynan raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli ta’limni joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borishganlar. Tadqiqot muammosi sohasida mamlakatimiz olimlaridan A.A.Allamurodov, A. X.Xusanov, R. B. Abdullayev, N. M. Toshpulatov, M. A. Qodirov, S. S. Karimov va Z. M. Nazarov kabilar ilmiy izlanishlar olib borgan.

“Raqamli texnologiya”, “texnologiya” “elektron mobil ilova”va “axborat kommunikatsiyalari” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini tadqiq qilish, shakllantirish, rivojlantirish hamda tashxislash masalalari bo‘yicha mamlakatimiz olimlari: N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo‘ysinov, R.X.Fayzullaev, K.T.Umataliyeva, N.Sh.Turdimov, L.R.Zaripov, MDH va xorijiy mamlakatlar olimlari: E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, O.N.Yarigin, C.R.Berger, D. Pepper, J.Pavelka va boshqalar tadqiqotlar olib borgan.

Ta’lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari, ta’limiy dasturlarni qo‘llash nazariyasi, metodikasi va amaliyoti A.A.Abduqodirov, O.A.Abduquddusov, U.Sh.Begimqulov, D.N.Mamatov, A.R.Jo‘rayev, Q.T.Olimov, N.I.Taylaqov, O.X.To‘raqulov, F.S.To‘rabekov, J.A.Xamidov, xorijiy mamlakatlar olimlaridan N.F.Talizina, G.Selveyn, B.Bloom, T.Dora va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Asosiy tahlil: Maxsus kompetensiyalar va raqamli muhit. Zamonaviy raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarning nafaqat akademik bilimlarini, balki ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydigan maxsus kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. An’anaviy ta’lim tizimidan farqli o‘laroq, raqamli muhitda o‘quvchilar interaktiv vositalar, sun’iy intellekt imkoniyatlari, o‘yinlashtirish mexanizmlari va virtual haqiqat texnologiyalari orqali faol ishtirokchi sifatida ta’lim jarayoniga jalb qilinadilar. Bu holat ularda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, raqamli vositalardan ongli foydalanish, axborotni tahlil qilish va ishlab chiqish kabi dolzarb kompetensiyalarni shakllantiradi.

Birinchidan, ta’limga innovatsion yondashuv sifatida keng qo‘llanilayotgan STEAM modeli – ya’ni, fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani uyg‘unlashtirgan ta’lim yondashuvi o‘quvchilarni murakkab fikrlashga, tizimli tahlilga va amaliyotda qo‘llashga yo‘naltiradi. Bu metod o‘quvchilarning faqat nazariy bilim emas, balki real hayotga yaqin loyihalar orqali bilimni amaliyot bilan bog‘lash ko‘nikmasini shakllantiradi. Masalan, raqamli texnologiyalar yordamida elektron qurilmalar yasash, dasturlash, 3D modellashtirish kabi topshiriqlar STEAM doirasida o‘rgatiladi.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt asosida ishlovchi personalizatsiyalangan o‘quv platformalari (Khan Academy, Coursera, Moodle) o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ularning bilim darajasi, qiziqishlari va rivojlanish sur’atiga qarab moslashtirilgan ta’lim yo‘nalishini taklif etadi. Bunday platformalar orqali har bir o‘quvchi mustaqil ravishda bilim olishi, o‘zini baholashi, kamchiliklarini ko‘rib chiqishi va to‘g‘rilashi mumkin bo‘ladi. Bu esa ularning mustaqilligi va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini kuchaytiradi.

Uchinchidan, raqamli ta’limda gamifikatsiya – ya’ni o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali motivatsiyani oshirish usuli ham keng qo‘llanmoqda. Bu metod o‘quvchilarda musobaqalashish, ishtirokchilik, natijaga erishish, mukofot olish kabi psixologik omillarni ishga solgan holda, ularni bilim olish jarayonida faol bo‘lishga undaydi. Masalan, Classcraft, Kahoot, Quizizz kabi platformalar orqali o‘quvchilar test sinovlarini o‘yin tarzida bajaradilar, reyting tizimida qatnashadilar va shaxsiy muvaffaqiyatlarini raqamli belgilar orqali kuzatib boradilar.

Shuningdek, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalarining o‘quv jarayonida qo‘llanilishi murakkab tushunchalarni vizual va interaktiv usulda tushuntirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, tabiiy fanlar, tarix, geografiya kabi tasavvurga tayanadigan fanlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, biologiya fanida inson organizmining 3D modeli orqali ichki a’zolarni virtual ko‘rish, tarix darslarida esa tarixiy obidalarni VR texnologiyasi yordamida “sayr qilish” o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, raqamli muhitda o‘quvchilar o‘zaro hamkorlikda ishlashga, guruhlarda loyihalar yaratishga, o‘z fikrini ochiq ifodalashga va jamoada mas’uliyatni bo‘lishishga o‘rganadilar. Bu jarayon Google Docs, Miro, Padlet kabi platformalarda raqamli hamkorlik vositalari orqali tashkil etiladi. O‘quvchilar birgalikda raqamli prezentatsiyalar tayyorlaydilar, infografikalar yaratadilar, muammoli vaziyatlar yechimini taklif qiladilar va o‘zaro fikr almashadilar. Bunday faoliyatlar esa kommunikativ kompetensiyalar, liderlik va jamoaviy ishlash malakalarini rivojlantiradi.

Raqamli ta’limning yana bir zarur elementi bu – raqamli savodxonlik va axborot madaniyati hisoblanadi. Har bir o‘quvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan ishlashni bilishi bilan birga, ularni xavfsiz, axloqiy va maqsadli foydalanish madaniyatini ham egallashi zarur. Bu yerda mediasavodxonlik, mualliflik huquqlariga rioya qilish, feyk axborotlarni ajrata olish, onlayn etik qoidalarga amal qilish kabi kompetensiyalar alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, bugungi kunda kiberxavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish kabi masalalar global darajada dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Rivojlantirishning innovatsion yondashuvi. Bugungi kunda ta’lim tizimida chuqur islohotlar olib borilayotgani raqamli texnologiyalar asosida bilim berish sifatini tubdan oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda. O‘quvchilarning raqamli muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan maxsus kompetensiyalarni shakllantirish, avvalo, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni integratsiyalash orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuvlar nafaqat ta’limning mazmunini yangilaydi, balki metod va vositalarini ham zamonaviylashtiradi.

Rivojlantirishning eng asosiy innovatsion yondashuvlaridan biri bu — **STEAM modeli**dir. U fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san’at (Art) va matematika (Mathematics)ni integratsiyalangan holda o‘qitishga asoslanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda tizimli fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, real loyihalar asosida o‘qitish orqali ular mustaqil qaror qabul qilish, tajriba o‘tkazish, muhandislik yechimlarini taklif etish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, **shaxsiylashtirilgan ta’lim** (personalized learning) raqamli muhitda innovatsion rivojlantirish yondashuvining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Har bir o‘quvchining individual qobiliyati, ehtiyojlari, o‘rganish sur’ati inobatga olingan holda sun’iy intellekt asosidagi adaptiv platformalar yordamida ta’lim mazmuni moslashtiriladi. Bu o‘z-o‘zini o‘rganish, o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy fikrlash va mustaqillik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Gamifikatsiya, ya’ni ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarda ishtirokchanlik, motivatsiya, qiziqish uyg‘otiladi. Bu yondashuv raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini mustahkamlaydi, ayniqsa interaktiv testlar, turnirlar, ballar va reytinglar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchida bilim olishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Bundan tashqari, **virtual (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalarini** ta’limga integratsiya qilish orqali murakkab bilimlarni vizual va interaktiv tarzda o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, ularni faol ishtirokchi sifatida o‘qitish jarayoniga jalb etadi. Ayniqsa, tabiiy fanlar va tarix kabi yo‘nalishlarda ushbu texnologiyalar mavzularni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvlar doirasida yana bir muhim jihat bu — **hamkorlikda o‘rganish va loyiha asosida ishlashni** yo‘lga qo‘yishdir. Raqamli muhitda o‘quvchilar onlayn platformalar (Google Docs, Padlet, Miro) orqali birgalikda ishlashni, jamoada muhokama qilishni, fikr almashishni va yechim ishlab chiqishni o‘rganadilar. Bu ularning kommunikatsion, liderlik, muammolarni tahlil qilish, va jamoada ishlash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Shunday qilib, raqamli ta’lim muhiti o‘quvchining fikrlash darajasini chuqurlashtiradi, mustaqil o‘rganish malakasini shakllantiradi, jamiyatda faol ishtirok etishga undaydi va uni XXI-asrning raqobatbardosh fuqarosiga aylantiradi. Innovatsion metodlar va texnologiyalar orqali tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchining har tomonlama – intellektual, texnologik va axloqiy jihatdan rivojlanishini ta’minlaydi.

Xulosa. Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Innovatsion yondashuvlar – jumladan, STEAM modeli, gamifikatsiya, personalizatsiyalangan o‘qitish, VR/AR texnologiyalaridan foydalanish, hamkorlikka asoslangan loyiha ishlari va raqamli savodxonlikni shakllantirish orqali o‘quvchilar nafaqat texnologik vositalardan samarali foydalanishni, balki mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, axborot bilan ishlash va jamoada faoliyat yuritish kabi dolzarb ko‘nikmalarni egallaydilar.

Bugungi kunda maktab ta’limida bu kompetensiyalarni shakllantirish faqat bilim berish bilan emas, balki o‘quvchini faol, ijodiy va mas’uliyatli ishtirokchi sifatida tayyorlash bilan bog‘liq. Shuning uchun ham innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga izchil integratsiya qilish, raqamli muhitni pedagogik

maqsadlarga muvofiq tashkil etish va o‘qituvchilarning zamonaviy metodlardan samarali foydalanish ko‘nikmasini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, o‘quvchilarning raqamli ta’lim muhitida maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni kelajak kasblari va global axborot jamiyati sharoitlariga tayyorlashda muhim poydevor vazifasini bajaradi. Shu boisdan bu yo‘nalishda tizimli ishlarni davom ettirish, yangi texnologiyalarni ta’limga joriy etish va ilg‘or tajribalarni ommalashtirish zarur.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni, 2020 yil.
3. Azizxo‘jayev A.A. Ta’limda raqamli texnologiyalar, Toshkent: Fan, 2022.
4. UNESCO (2021). Digital Learning Competency Framework.
5. Kurbonov J., Allayorova S. Zamonaviy darsda raqamli vositalardan foydalanish, 2023.
6. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy–pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) diss. – Toshkent, 2019. – 200 b.
7. Qodirov B.E. Um umiy o‘rta ta’lim maktablarida to‘garak ishlarini takomillashtirish. Mehnat va kasb ta’limi bakalavriat yo‘nalishlarida texnik fanlarni o‘qitishning dolzarb muammolari mavzusidagi Respublika ilmiy–texnik anjumani materiali. – Namangan, 2019. – B. 266-269.
8. Qodirov B.E. Texnologiya ta’lim praktikumi fanini o‘qitishda innovatsion–pedagogik texnologiyalardan foydalanish // Ta’lim va texnologiya 3–qism Respublika ilmiy–amaliy anjumani materiallari. – Termiz, 2018. B. 365–369.
9. Shomirzaev M.X. Milliy hunarmandchilikning shakllanishi va spektrial-variativ rivojlanishida fanlar integratsiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – 164 b.
10. Usmonova S.B. va boshqalar. “Ta’limda internet texnologiyalari” moduli bo‘yicha O‘UM. – Toshkent, 2016. – 131 b.

MOBIL ILOVALAR ASOSIDA TEXNOLOGIK TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Saidova Muhayyo Farhod qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
muhaysaidova1997@gmail.com

Mobil texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim tizimiga jiddiy o‘zgarishlar olib keladi, ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar va istiqbollarni ochadi. Maqolada mobil ilova va o‘quv jarayonining joriy etilishi ta’limning qulayligini oshirish va uni o‘rganish uchun yanada moslashuvchan qilish imkonini berishi, ilovalarning interaktiv darslar, moslashtirilgan kontent va tezkor fikr- mulohazalar kabi innovatsion xususiyatlari o‘quvchilarga yanada samaraliroq o‘rganish imkonini berishi, mobil ilova tufayli talaba o‘quv jarayonini yaxshiroq shaxsiylashtirishi va o‘quv materialini o‘z ehtiyojlariga moslashtira olishi, bu ham talabalarning mustaqil ishlashi va o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *mobil qurilma, mobil ilova, interaktiv darslar, interfaol ta’lim usullari, animatsiya, vizualizatsiya, o‘z-o‘zini boshqarish, virtual stend, virtual laboratoriya.*

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ МОБИЛЬНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ

Развитие мобильных технологий вносит серьёзные изменения в систему образования, открывая новые возможности и перспективы для совершенствования учебного процесса. В статье рассматривается, как внедрение мобильных приложений в образовательный процесс повышает его удобство и делает обучение более гибким. Инновационные функции, такие как интерактивные уроки, персонализированный контент и мгновенная обратная связь, позволяют учащимся более эффективно усваивать материал. Благодаря мобильным приложениям студенты могут лучше персонализировать процесс обучения и адаптировать учебные материалы под свои потребности, что способствует развитию навыков самостоятельной работы и самодисциплины.

Ключевые слова: *Мобильное устройство, мобильное приложение, интерактивные уроки, интерактивные методы обучения, анимация, визуализация, самоуправление, виртуальный стенд, виртуальная лаборатория.*

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE FIELD OF TECHNOLOGICAL EDUCATION THROUGH MOBILE APPLICATIONS

The development of mobile technologies is bringing significant changes to the education system, opening up new opportunities and prospects for improving the learning process. The article discusses how the introduction of mobile applications into the learning process increases convenience and makes studying more flexible. Innovative features such as interactive lessons, personalized content, and instant feedback make learning more effective for students. Mobile apps also allow students to better personalize their educational experience and adapt learning materials to their individual needs, which contributes to the development of independent work habits and self-discipline skills.

Keywords: *mobile device, mobile application, interactive lessons, interactive teaching methods, animation, visualization, self-management, virtual stand, virtual laboratory.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi.

Unda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirish nazarda tutilgan:

➢ zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish;

➢ ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

➢ zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish;

➢ ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi “E-MINBAR” platformasini amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish.

Demak, bularni amalga oshirishda bevosita yuqori axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jahon tajribasiga tayanish, uni amalga joriy qilish, uni o‘zbek mentalitetiga moslashtirish zarurati paydo bo‘ldi.

Mobil ilovalar asosida o‘quv tizimini takomillashtirish zamonaviy ta’lim taraqqiyotining asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Quyida ushbu yaxshilanishni amalga oshirishda e’tiborga olish kerak bo‘lgan beshta asosiy jihat keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Mobil ilovalar asosida o‘quv tizimini takomillashtirishning asosiy jihatlari

Kontentni shaxsiylashtirish va moslashtirish. Ta’lim mazmunini har bir talabaning individual ehtiyojlari va bilim darajasiga moslashtirishning noyob qobiliyatiga ega mobil ilovalarni ishlab chiqish. Bu talabalarning unumdorligi va qiziqishlarini tahlil qilish va ularga kontent tavsiyalarini berish uchun mashinani o‘rganish algoritmlaridan foydalanishni o‘z ichiga olishi mumkin. Kontentni shaxsiylashtirish - bu muayyan talabalarning individual ehtiyojlari, bilim darajasi, qiziqishlari va o‘rganish uslubiga moslashtirilgan o‘quv materialini yaratish va yetkazib berish jarayoni. Mobil ilovalar yordamida fanni o‘rganishda tarkibni shaxsiylashtirish va moslashtirishning roli va ahamiyatini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Nima uchun bunday qilib bo‘lmaydi. Bir nechta amaldagi variantlarni ko‘rib chiqamiz. *Shaxsiy ehtiyojlarni qondirish:* Har bir talaba noyobdir va ularning qobiliyatlari, bilim darajasi, o‘rganish uslubi va qiziqishlari sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Kontentni shaxsiylashtirish ushbu individual farqlarni hisobga olish imkonini beradi va har bir talaba o‘z darajasi va ehtiyojlariga eng mos keladigan kontent bilan ta‘minlaydi. *Motivatsiya va jalb qilish:* Shaxsiylashtirilgan kontent yanada jozibador bo‘lib, talabalarni o‘rganishda faol ishtirok etishga undaydi. O‘quvchi o‘quv materialining o‘z qiziqishlari va darajasiga moslashtirilganligini ko‘rsa, ular ko‘proq qiziqish uyg‘otadi va o‘quv jarayoniga aralashadi. *Ta’lim samaradorligi:* Shaxsiylashtirilgan tarkib o‘rganish samaradorligini oshirishi mumkin, chunki talabalar o‘zlarining

ehtiyojlari va mahorat darajasiga mos keladigan materiallardan foydalanishlari mumkin. Bu ularga tezda yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi. *O‘z-o‘zini boshqarishni qo‘llab- quvvatlaydi:* Shaxsiylashtirilgan kontent ham o‘z-o‘zini boshqarishni rag‘batlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarni o‘z tezligi va jadvali bo‘yicha o‘rganishi mumkin bo‘lgan materiallar bilan ta’minlash ularda mustaqillik va o‘z ta’limiga mas’uliyat ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. *O‘quv natijalarining yaxshilanishi:* Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsiylashtirilgan kontent o‘quv natijalarini yaxshilashga olib keladi, chunki u o‘quvchilarning vaqti va resurslaridan samaraliroq foydalanadi, ularga materialni chuqurroq tushunishga yordam beradi va ularning malakasini oshiradi.

Shunday qilib, mobil ilovalarni o‘rganishda kontentni shaxsiylashtirish va moslashtirish har bir o‘quvchining individual muvaffaqiyatini qo‘llab-quvvatlaydigan samarali va qiziqarli ta’lim tajribasini yaratishda asosiy rol o‘ynaydi.

Interfaol ta’lim usullari. Viktorinalar, o‘yinlar, ishtirokchi video darslar va boshqalar kabi keng ko‘lamli interaktiv o‘rganish usullariga ega mobil ilovalar yaratilishi maqsadga muvofiq. Bu o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Mobil ilovalar va interfaol o‘qitish usullari yaqin aloqada, chunki mobil ilovalar ko‘pincha turli interaktiv ta’lim yondashuvlarini amalga oshirish uchun ishlatiladi. Quyida mobil ilovalarning interfaol o‘rganish usullari bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha usullari keltirilgan. *O‘yinlar va boshqotirmalar:* mobil ilovalar ko‘pincha o‘yin va boshqotirmalarni interaktiv o‘rganish usullari sifatida o‘z ichiga oladi. Ushbu o‘yinlar fikrlashni rag‘batlantirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini yaxshilash uchun mo‘ljallangan. *Viktorinalar va testlar:* mobil ilovalar o‘quvchilarga o‘z bilimlari va o‘rganishlarini sinab ko‘rishga yordam beruvchi interfaol viktorina va testlarga kirish imkonini beradi. Sinovni tugatgandan so‘ng, ilova noto‘g‘ri javoblar uchun tezkor fikr-mulohaza va tushuntirishlar berishi mumkin. *Ishtirokchilik asosidagi video va audio darslar:* mobil ilovalar interaktiv video va audio darslarga kirish imkonini beradi, bu yerda talabalar munozaralarda ishtirok etishlari, savollar berishlari va o‘z fikr va g‘oyalari bilan o‘rtoqlashishlari mumkin. *Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar:* ba’zi mobil ilovalar o‘quvchilarga turli tushuncha va hodisalarni sinab ko‘rish va o‘rganish imkonini beruvchi interaktiv simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalarni taqdim etadi. *Interfaol darsliklar:* mobil ilovalardan interfaol darsliklarni yaratish uchun foydalanish mumkin, ular o‘quvchilarga o‘rnatilgan mashg‘ulotlar, viktorinalar va qo‘shimcha manbalarga havolalar kabi materiallar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishlari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar taqdim etadi.

Shunday qilib, mobil ilovalar o‘quv jarayonini talabalar uchun yanada jozibador, samarali va qiziqarli qilish imkonini beradigan turli interfaol o‘qitish usullarini amalga oshirish uchun platforma yaratadi.

Vizualizatsiya va animatsiya. Ilovalar murakkab tushunchalar va jarayonlarni vizual tarzda aks ettirish uchun vizualizatsiya va animatsiyadan foydalanadi. Bu o‘quvchilarga materialni yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam beradi. *Vizualizatsiya* - bu ma’lumotlar yoki tushunchalarni grafikalar, diagrammalar, grafiklar yoki boshqa vizual elementlar ko‘rinishida aks ettirish jarayoni. Vizualizatsiyaning maqsadi – ma’lumotni yanada tushunarli, vizual va qulayroq qilishdir. *Animatsiya* - bu illyuziyalarni yaratish, keyingi tasvirlar, ob’ektlar yoki belgilar yo‘lini siljitish jarayoni. Kadrlar deb ataladigan bu tasvirlar tez ketma- ket avtomatik ravishda tanlanadi va ta’sirchan harakatni yaratadi. Animatsiya turli formatlarda, jumladan, chizma, 3D model, kompyuter grafikasi va boshqalarda yaratilishi mumkin[1].

Tezkor fikr-mulohazalar. O‘quvchilarga o‘quv topshiriqlarini bajarish natijalari bo‘yicha darhol fikr-mulohazalarni olish imkonini beruvchi tezkor qayta aloqa mexanizmlarini joriy etish. Bu talabalarga xatolarini tushunishga va ularni tezroq tuzatishga yordam beradi.

Kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalaridan foydalanish. AR va VR texnologiyalarini integratsiyalashgan holda ta’lim tajribasini yaratish. Bunga virtual laboratoriyalar, ekskursiyalar, simulyatsiyalar va talabalarga kurs materiallari bilan chuqurroq shug‘ullanishga yordam beradigan boshqa o‘quv muhitlari kiradi. Mobil ilovalar asosida o‘qitishni takomillashtirish talabalar ehtiyojlariga kompleks yondashuv va e’tiborni, shuningdek, samarali va qiziqarli ta’lim tajribasini yaratish uchun ilg‘or texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi.

Texnologik ta’lim sohasi zamonaviy jamiyatda alohida o‘rin tutadi. Bu yo‘nalishdagi talabalardan nafaqat nazariy bilim, balki amaliy va innovatsion fikrlash ko‘nikmalari, muammo yechish qobiliyati, dizayn va texnik ijodkorlik kabi ko‘plab kompetensiyalar talab etiladi. Shuning uchun texnologiya faniga oid kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda mobil ilovalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mobil ilovalar quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda:

Amaliy-texnik ko‘nikmalar: Mobil ilovalar yordamida simulyatsiya, 3D modellashtirish, texnologik jarayonlarni virtual muhitda o‘rganish imkoniyati mavjud. Masalan, konstruktor ilovalari (Tinkercad, AutoCAD mobile) orqali talabalar o‘z loyihalarini yaratish va sinovdan o‘tkazishlari mumkin.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasi: Mobil dasturlar orqali axborot izlash, tahlil qilish, ularni qayta ishlash va loyihaga tatbiq etish bo‘yicha amaliy tajriba hosil qilinadi.

Loyiha faoliyati va dizayn fikrlash: Ta’limiy mobil ilovalar orqali talabalar dizayn asoslarini o‘rganadi, loyihani rejalashtirish, material tanlash, energiya tejamkorlik va ekologik xavfsizlikni hisobga olgan holda yondashishni shakllantiradi.

Eksperiment va kuzatuv kompetensiyasi: Virtual laboratoriyalar va AR/VR texnologiyalari asosida yaratilgan mobil ilovalar real hayotdagi texnologik hodisalarni sinab ko‘rishga o‘rgatadi. Bu esa texnologik jarayonlarning nazariy va amaliy jihatlarini integratsiyalash imkonini beradi.

Kreativ va innovatsion fikrlash: O‘quvchilar yangi texnologiyalarni o‘rganish, ularni mavjud muammolar yechimiga yo‘naltirish va texnologik loyihalarni mustaqil ishlab chiqishga undaydigan muhitda ta’lim oladi.

Shunday qilib, texnologiya ta’limi yo‘nalishida mobil ilovalar faqat yordamchi vosita emas, balki talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim didaktik va interaktiv vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Mobil ilovalarni o‘rganish ta’limga innovatsion va samarali yondashuv bo‘lib, bir qator muhim imtiyozlarni beradi. Ushbu imtiyozlarni asosiylari quyidagilardan iborat. Qulaylik va moslashuvchanlik. Mobil ilovalar o‘quvchilarga o‘z smartfonlari yoki planshetlari orqali istalgan vaqtda, istalgan joyda o‘quv materiallariga kirish imkonini beradi, bu esa o‘rganishni yanada moslashuvchan va qulay qiladi. Interaktivlik va jozibadorlik. Mobil ilovalar o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qiladigan va o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadigan ko‘plab interfaol darslar, o‘yinlar va vazifalarni taklif etadi.

Mobil ilovalar yordamida o‘rganish an’anaviy o‘rganish usullariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega (2-rasm).

Shaxsiylashtirish va moslashish. Ko‘pgina mobil ilovalar kurs materialini har bir talabaning individual ehtiyojlari va bilim darajasiga moslashtirish, ularga o‘z tezligida o‘rganish imkonini beradi. Tezkor qayta aloqa. Mobil ilovalar darslar va topshiriqlar natijalari bo‘yicha tezkor fikr- mulohazalarni taqdim etadi, bu esa o‘quvchilarga xatolarni tezroq tuzatishga va malakasini oshirishga yordam beradi. Umuman olganda, mobil ilovalar orqali o‘rganish har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlari va xohishlariga e’tibor qaratgan holda samarali va qiziqarli ta’lim olish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

2-rasm. Mobil ilovali ta’limning afzallik komponentlari

Mavjudlik va moslashuvchanlik. Mobil ilovalar o‘quv materiallariga istalgan vaqtda, istalgan joyda mobil qurilmalar orqali kirish imkonini beradi. Bu shuni anglatadiki, talabalar o‘z tezligida, o‘zlariga mos vaqt va joyda o‘rganishlari mumkin, bu esa o‘rganishni yanada moslashuvchan va qulay qiladi.

Interaktivlik va faollik. Mobil ilovalar interaktiv darslar, viktorinalar, o‘yinlar va o‘quvchilar uchun o‘quv jarayonini yanada jozibali va qiziqarli qiladigan boshqa ta’lim tadbirlarini taqdim etishi mumkin. Bu ularning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini va motivatsiyasini rag‘batlantirishi mumkin.

Shaxsiylashtirish va moslashtirish. Ko‘pgina mobil ilovalar o‘quv materialini har bir talabaning individual ehtiyojlari va bilim darajasiga moslashtirish imkonini beruvchi kontentni shaxsiylashtirish xususiyatlarini taklif etadi. Bu talabalarga o‘z tezligi va o‘rganish uslublarida o‘rganish imkonini beradi.

Tezkor fikr-mulohaza. Mobil ilovalar darslar, testlar va topshiriqlar haqida tezkor fikr- mulohazalarni taqdim etishi mumkin, bu esa o‘quvchilarga o‘z taraqqiyoti va materialni tushunishini darhol baholash imkonini beradi. Bu ularga xatolarni tezroq tuzatishga va malakalarini oshirishga yordam beradi.

Resurslarning xilma-xilligi. Matnlar, videolar, audiolar, interfaol darslar va h.k.larni o‘z ichiga olgan keng assortimentdagi ta’lim resurslariga mobil ilovalar orqali osongina kirish mumkin. Bu o‘quvchilarga turli manbalardan ma’lumot olish va turli o‘quv usullaridan foydalanish imkonini beradi.

Shunday qilib, mobil ilovalardan foydalangan holda o‘rganish bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, uni an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan samaraliroq, qiziqarli va talabalar uchun qulayroq qiladi.

Xulosa. Mobil ilovalarni o‘rganish ta’limga yuqori samarali va innovatsion yondashuv bo‘lib, bir qator asosiy afzalliklarga ega. Tadqiqot davomida mobil ilovalar o‘quvchilarga istalgan vaqtda va istalgan joydan o‘z mobil binolarida materiallarni o‘rganish imkonini beruvchi qulaylik va moslashuvchanlikni ta’minlashi ma’lum bo‘ldi. Ilovalarning interaktiv imkoniyatlari o‘rganishni yanada qiziqarli va jozibador qiladi, kontentni shaxsiylashtirish o‘quv materiallarini har bir talabaning individual qiyinchiliklariga moslashtirishga imkon beradi.

Tezkor fikr-mulohazalar va ta’lim resurslariga bir zumda kirish imkoniyati ham o‘quv jarayonini yaxshilash va materialni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Biroq biz tizimni ham cheklashimiz kerak, chunki u internet mavjudligi va boshqa texnik muammolarga bog‘liq. Umuman olganda, mobil o‘quv ilovalari tizimi o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish va barcha uchun ta’limning ochiqligini oshirish imkonini beruvchi juda muhim va istiqbolli vositadir.

Adabiyotlar:

1. Фармонова, М. А. (2022). Oliy ta’lim muassasasi talabalari uchun botanika fanidan yaratilgan mobil ilovaning dasturiy imkoniyatlari: Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (7), 122- 130.
2. Azamovna, F. M. (2021). Possibilities of Mobile Applications to Improve the Quality of Education. International Journal on Orange Technologies, 3(10), 19- 21.
3. Nozimovich, X. X., & A’zamovna, F. M. (2022). The importance of physical education and sports in the formation of professional skills of students of the non-specialist education of the pedagogical university. Science and Innovation, 1(4), 206-212.
4. Jo‘rayev A.R. “Bo‘lajak Texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish”. “Pedagogik mahorat”. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal № 1 / 2019-yil. Buxoro sh. 58-61 b.
5. Jo‘rayev A.R., Saidova M.F. “Zamonaviy tikuv mashinalari va jihozlari fanini elektron ta’lim vositalari asosida o‘qitishning didaktik imkoniyatlari” Ilm-fan va texnologiyalar”. Respublika ilmiy-metodik jurnal. 2023 y. № 3(1). Buxoro sh. 138-143 b
6. Xakimov X., & Farmonova M. (2022). Pedagogika universitetining nomutaxassislik ta’lim yo‘nalishi talabalarida kasbiy mahoratni shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati. Science and innovation, 1(B4), 206-212.
7. Farmonova M. A. Ta’lim umundorligini oshirishda mobil ilovalarning o‘rni //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3.
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jismoniy_faollik
9. https://ifazo.uz/soglom-turmush-tarzi-va-psixologik-farovonlik/
10. https://ru.citaty.net/avtory/dzhon-diui/

INTERFAOL INTELLEKTGA ASOSLANGAN MOBIL PLATFORMA ORQALI MAKTABGACHA TA’LIMDA ELEMENTAR MATEMATIKA O'QITISH TIZIMINI BOSHQARISH

To‘xtamishova Gulnora Mels qizi,
Buxoro davlat universiteti
Fizika-matematika va axborot texnologiyalari fakulteti
Kompyuter tizimlari mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar taqrizi asosida: *Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi dotsenti* ***U.M. Xalikova***

Ushbu maqolada interfaol intellekt texnologiyalariga asoslangan mobil platformalar yordamida maktabgacha ta’limda elementar matematikani o‘qitish tizimini boshqarish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda mobil ilovalar va AI integratsiyasi orqali ta’lim jarayonining individual xususiyatlarini hisobga olish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash va adaptiv ta’lim kontentini taqdim etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, platformaning pedagogik samaradorligi, interaktivlik va o‘yinlashtirish elementlari orqali kichik yoshdagi bolalarning matematik ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning istiqbolli yo‘nalishlarini ochib beradi hamda innovatsion ta’lim tizimlarini yaratish uchun amaliy tavsiyalarni beradi.

Kalit so‘zlar: *interfaol intellekt, mobil platforma, maktabgacha ta’lim, elementar matematika, adaptiv o‘qitish, ta’limni boshqarish, raqamli ta’lim, o‘yinlashtirish, pedagogik samaradorlik, interaktiv o‘rganish.*

УПРАВЛЕНИЕ СИСТЕМОЙ ОБУЧЕНИЯ ЭЛЕМЕНТАРНОЙ МАТЕМАТИКЕ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ ЧЕРЕЗ МОБИЛЬНУЮ ПЛАТФОРМУ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНОГО ИНТЕЛЛЕКТА

В данной статье рассматриваются вопросы управления системой обучения элементарной математике в дошкольном образовании с использованием мобильных платформ на основе интерактивного интеллекта. В исследовании анализируются возможности учета индивидуальных особенностей образовательного процесса, определения уровня знаний учащихся и предоставления адаптивного учебного контента посредством интеграции мобильных приложений и искусственного интеллекта. Кроме того, изучается роль платформы в формировании математических навыков у детей младшего возраста через педагогическую эффективность, интерактивность и элементы геймификации. Результаты исследования открывают перспективные направления применения цифровых технологий в дошкольном образовании и дают практические рекомендации по созданию инновационных образовательных систем.

Ключевые слова: интерактивный интеллект, мобильная платформа, дошкольное образование, элементарная математика, адаптивное обучение, управление обучением, цифровое обучение, геймификация, педагогическая эффективность, интерактивное обучение.

MANAGEMENT OF ELEMENTARY MATHEMATICS TEACHING SYSTEM IN PRESCHOOL EDUCATION THROUGH AN INTERACTIVE INTELLIGENCE-BASED MOBILE PLATFORM

This article addresses the management of elementary mathematics teaching systems in preschool education through mobile platforms based on interactive intelligence. The study analyzes the possibilities of considering individual characteristics of the educational process, assessing students' knowledge levels, and providing adaptive learning content through the integration of mobile applications and artificial intelligence. Additionally, the role of the platform in developing mathematical skills among young children through pedagogical effectiveness, interactivity, and gamification elements is explored. The research results reveal promising directions for applying digital technologies in preschool education and offer practical recommendations for creating innovative educational systems.

Key words: *interactive intelligence, mobile platform, preschool education, elementary mathematics, adaptive learning, education management, digital education, gamification, pedagogical effectiveness, interactive learning.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim sohasidagi innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning tez sur’atlarda rivojlanishi natijasida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish uchun yangi yondashuvlar va vositalar zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida ta’lim jarayonining sifatini oshirish, bolaning erta yoshda ko‘nikma va bilimlarini shakllantirish uchun individual yondashuv va interaktiv usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, so‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari va mobil platformalar asosida yaratilgan ta’lim tizimlari ta’lim jarayonini yanada samaraliroq, qiziqarli va motivatsion qiluvchi vositalar sifatida keng tatbiq etilmoqda.

Maktabgacha ta’limda elementar matematikani o‘qitish nafaqat bolalarning mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, balki ularning kelajakdagi akademik muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu bois, bu bosqichda ta’limning sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim darajasini doimiy monitoring qilish va individual ehtiyojlarga moslashtirilgan o‘quv materiallarini taqdim etish juda muhimdir. An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha bunday imkoniyatlarni cheklaydi, shu sababli interfaol va adaptiv platformalarga talab oshmoqda [1].

Interfaol intellektga asoslangan mobil platformalar bu muammolarni hal qilishda samarali vosita hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash, ularning o‘rganish jarayonini real vaqt rejimida kuzatish va natijada adaptiv ta’lim kontentini taqdim etish imkonini beradi. Bundan tashqari, o‘yinlashtirish (gamifikatsiya) elementlari yordamida ta’lim jarayonini qiziqarli va motivatsion qilish mumkin. Bu esa ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda muhim, chunki ular uchun o‘yin shaklidagi o‘rganish samaraliroq bo‘ladi [2].

Shu sababli, ushbu maqolada interfaol intellekt texnologiyalariga asoslangan mobil platformalar orqali maktabgacha ta’limda elementar matematikani o‘qitish tizimini boshqarishning samaradorligi va amaliyoti o‘rganiladi. Maqola doirasida platformaning pedagogik imkoniyatlari, adaptiv yondashuv, o‘yinlashtirishning o‘rni, shuningdek, ta’lim jarayonini boshqarishdagi afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’limda raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi [3].

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Ushbu tadqiqotda interfaol intellektga asoslangan mobil platformalar yordamida maktabgacha ta’limda elementar matematikani o‘qitish tizimini boshqarish samaradorligini o‘rganish uchun uchta asosiy metod qo‘llanildi: eksperimental metod, so‘rovnoma (anketalar) va intervyu metodlari, hamda analitik va taqqoslovchi tahlil.

Eksperimental metod yordamida maktabgacha yoshdagi bolalar orasida interfaol intellektga asoslangan mobil platformani qo‘llash orqali elementar matematikani o‘qitish samaradorligi sinovdan o‘tkazildi. Tajriba guruhi va nazorat guruhi tashkil qilindi. Tajriba guruhi o‘quvchilari AI asosidagi mobil platformada ta’lim oldi, nazorat guruhi esa an’anaviy usullar orqali o‘qitildi. Eksperiment davomida bolalarning bilim darajasi, matematik ko‘nikmalari va qiziqishi muntazam ravishda monitoring qilindi. Ushbu metod natijasida platformaning ta’lim jarayonidagi rolini va uning ta’sirini aniqlash imkoniyati yaratildi [4].

O‘qituvchilar, ota-onalar hamda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalar va intervyular orqali interfaol intellektga asoslangan mobil platformaning amaliy foydalanishdagi ijobiy va salbiy tomonlari, pedagogik samaradorligi va qiyinchiliklari o‘rganildi. So‘rovnomalarda o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishi, motivatsiyasi, platformaga nisbatan munosabatlari, shuningdek, o‘qituvchilar fikri va takliflari yig‘ildi. Ushbu metod tadqiqot natijalarini to‘ldirish va ilmiy asoslash uchun qo‘llanildi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichida mavzuga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar, ilg‘or ta’lim texnologiyalari va platformalar tahlil qilindi. Shu jumladan, sun’iy intellekt, gamifikatsiya, adaptiv o‘qitish va raqamli ta’lim sohasidagi so‘nggi tadqiqotlar, statistik ma’lumotlar va amaliy tajribalar solishtirildi. Bu tahlil orqali olingan ma’lumotlar asosida maktabgacha ta’limda interfaol intellekt texnologiyalarining o‘rni va istiqbollari aniqlandi [6].

Ushbu mavzu doirasida bir qancha olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Masalan:

- **Luckin va boshq. (2016)** sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlari va uning o‘quv jarayonini individualizatsiyalashdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Ularning tadqiqotlari maktab yoshidagi bolalar uchun adaptiv platformalarning samaradorligini yoritadi.
- **Heffernan & Heffernan (2014)** o‘quvchilarning individual bilim darajasini aniqlash va moslashtirilgan o‘quv vazifalarini taqdim etish uchun interaktiv platformalarning ta’lim jarayonidagi rolini tahlil qilgan.
- **Papastergiou (2009)** raqamli o‘yinlar yordamida matematika o‘qitishning o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o‘rganish samaradorligini yaxshilashdagi samaradorligini ko‘rsatgan.
- **Chen va boshq. (2020)** gamifikatsiyalangan ta’lim platformalarining pedagogik afzalliklari va cheklovlarini tizimli ko‘rib chiqqan.

• O‘zbekiston kontekstida **Qodirov (2020)** va **Usmonov (2021)** raqamli ta’lim va sun’iy intellekt texnologiyalarini maktabgacha ta’limga joriy etish istiqbollarini tahlil qilganlar.

Ushbu tadqiqotlar va tahlillar asosida interfaol intellektga asoslangan mobil platformalar maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik ko‘nikmalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi, shuningdek, ta’lim jarayonini boshqarishda yangicha yondashuvlarni talab qilishini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta’limda elementar matematika o‘qitish uchun ishlab chiqilgan bir qator interfaol va sun’iy intellektga asoslangan mobil platformalar mavjud. Ushbu platformalar bolalarning matematik ko‘nikmalarini rivojlantirish, ta’lim jarayonini individualizatsiya qilish va o‘yinlashtirish (gamifikatsiya) orqali o‘rganishni qiziqarli va samarali qilishga qaratilgan. Quyida bunday platformalarning ba’zilariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz (1-rasm):

1-rasm. Mobil ilovaning sahifalari

Magrid — 3–9 yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan, tilga asoslanmagan vizual va interfaol matematik ta’lim platformasidir. U bolalarga raqamli sezgi, fazoviy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Magridning dizayni bolalarga diqqatni jamlashda yordam beradigan tarzda soddalashtirilgan va bezovta qilmaydi. Ilova 2,500 dan ortiq matematik faoliyatlarni taklif etadi va o‘qituvchilar hamda ota-onalar uchun moslashtirilgan o‘quv rejalari taqdim etadi.

SplashLearn — 2–11 yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan o‘yin asosidagi ta’lim ilovasi bo‘lib, matematikani o‘rganishni qiziqarli va interfaol qiladi. Ilova o‘quvchilarning rivojlanishiga qarab moslashadigan sun’iy intellekt tizimiga ega bo‘lib, ular uchun individual o‘quv yo‘llarini yaratadi. Matematika bo‘yicha asosiy tushunchalar, masalan, raqamlarni tanish, qo‘shish va ayirish, shakllarni tanish va boshqalar, o‘yinlar orqali o‘rgatiladi.

Photomath — bolalar va kattalar uchun mo‘ljallangan matematik ilova bo‘lib, telefon kamerasini ishlatib, matematik tenglamalarni tanib, ularni bosqichma-bosqich yechimini ko‘rsatadi. Bu ilova bolalarga matematik masalalarni tushunishga yordam beradi va o‘qituvchilarga o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashda qo‘llanilishi mumkin.

Toca Boca — bolalar uchun turli xil o‘yinlar va ilovalar ishlab chiqadigan kompaniya bo‘lib, uning mahsulotlari o‘yin orqali o‘rganishni targ‘ib qiladi. Masalan, Toca Life World ilovasi bolalarga turli xil muhitlarda o‘ynash va o‘rganish imkonini beradi, bu esa ularning ijodkorligini va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

PBS Kids — bolalar uchun ta’limiy kontent ishlab chiqadigan tashkilot bo‘lib, uning ilovalari bolalarga matematikani o‘rganishda yordam beradi. Ilovalar o‘yinlar, videolar va interfaol faoliyatlar orqali bolalarga matematik tushunchalarni o‘rgatadi. PBS Kids ilovalari o‘qituvchilar va ota-onalar uchun ham qo‘llanma va resurslar taqdim etadi.

Ushbu mobil platformalar maktabgacha ta’limda elementar matematika o‘qitish tizimini boshqarishda innovatsion yondashuvlarni taqdim etadi. Ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bolalarning matematik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda ham maktabgacha ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Masalan, “Bolalik akademiyasi” raqamli platformasi tarbiyalanuvchilarga interfaol o‘quv materiallarini taqdim etadi va tarbiyachilar uchun metodik yordam ko‘rsatadi [5].

Agar maktabgacha ta’lim muassasalarida elementar matematikani o‘qitish jarayoniga interfaol intellektga asoslangan mobil platforma integratsiya qilinsa, u holda bolalarning matematik ko‘nikmalari, ta’limga bo‘lgan qiziqishi va mustaqil fikrlash qobiliyati sezilarli darajada oshadi hamda o‘quv jarayonini

individuallashtirish va boshqarish samaradorligi yaxshilanadi. Interfaol intellekt texnologiyalari yordamida ta’lim berish maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan adaptiv o‘rganish imkonini beradi. O‘yinlashtirish (gamifikatsiya) elementlari bolalarning dars jarayonidagi ishtirokini faollashtiradi va ularni rag‘batlantiradi. Mobil platformalarning doimiy monitoring va tahlil qilish imkoniyatlari orqali o‘quvchilarning bilim darajasi to‘g‘risida aniq va tezkor ma’lumot olish, shuningdek o‘qitish strategiyasini moslashtirish mumkin. Interfaol intellekt (AI) va gamifikatsiya elementlarini ta’lim jarayonida qo‘llash sohasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Hamari va boshqalar (2014) gamifikatsiyaning o‘quvchilarni motivatsiyalashda va o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishda samarali ekanligini ta’kidlaganlar. Bu tadqiqotlar ta’limda o‘yin elementlarini joriy etish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Sun’iy intellektga asoslangan adaptiv ta’lim tizimlari borasida Luckin va hamkorlari (2016) ning ishlarida AI yordamida o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va bilim darajasiga moslashtirilgan o‘quv materiallarini taqdim etish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirishi ta’kidlangan. Ularning tadqiqotlari, shuningdek, AI texnologiyalarining ta’lim jarayonini monitoring qilish va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirishini ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’limda raqamli texnologiyalar va mobil platformalarni qo‘llash borasida Karsenti (2019) bolalar uchun qulay va interaktiv ta’lim muhitini yaratishdagi innovatsiyalarni o‘rgangan. Unga ko‘ra, mobil ilovalar yordamida o‘qitish, ayniqsa kichik yoshdagi bolalar uchun, o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo kontekstida ta’limda sun’iy intellekt va gamifikatsiyalangan platformalarni joriy etish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar (Islomov, 2022; Karimova, 2023) mavjud bo‘lib, ular hududiy xususiyatlar, pedagogik yondashuvlar va texnologik infratuzilmani hisobga olgan holda innovatsion ta’lim tizimini shakllantirishga qaratilgan.

Biroq, mavjud adabiyotlarda maktabgacha ta’limda AI asosidagi mobil platformalar orqali elementar matematika o‘qitishni boshqarish bo‘yicha izchil va kompleks tadqiqotlar kamligi seziladi. Shu sababli, ushbu maqola mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga, shuningdek, yangi texnologiyalarni maktabgacha ta’limda qo‘llash imkoniyatlarini kengroq o‘rganishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, foydalanilgan manbalar tadqiqot mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi hamda interfaol intellekt va gamifikatsiya asosida yaratilgan ta’lim platformalarining samaradorligini oshirish yo‘nalishida nazariy va amaliy asoslarni beradi [7].

Natijalar. Tadqioqt doirasida ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan mobil platforma maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘rganishni oson va qiziqarli qilish maqsadida interfaol intellekt (AI) va gamifikatsiya elementlarini o‘z ichiga oladi. Platforma asosan Android va iOS operatsion tizimlari uchun ishlab chiqiladi, shuningdek, tarbiyachilar va ota-onalar uchun boshqaruv paneliga ega bo‘ladi.

Asosiy xususiyatlar:

- **Adaptiv ta’lim tizimi:** AI yordamida har bir bolaning o‘rganish sur’ati, qiziqishlari va qiyinchilik darajasiga mos keladigan individual o‘quv yo‘nalishlarini yaratadi.
- **Gamifikatsiya:** O‘yin elementlari (ballar, mukofotlar, qiyinchilik darajalari) yordamida bolalarning motivatsiyasini oshiradi.
- **Interaktiv kontent:** Rangli animatsiyalar, qiziqarli viktorinalar, ovozli ko‘rsatmalar va amaliy mashqlar orqali o‘rganishni qiziqarli qiladi.
- **Onlayn monitoring va tahlil:** Tarbiyachilar va ota-onalar uchun bolalarning rivojlanishini kuzatish, yutuqlarini baholash va kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi.
- **Ko‘p tillilik:** O‘zbek, rus va ingliz tillarida interfeys va ta’lim kontenti mavjud bo‘ladi.
- **Offline rejim:** Internetga ulanmagan joylarda ham o‘qish imkonini beradi, sinxronizatsiya esa internet mavjud bo‘lganida amalga oshiriladi.

Texnologik arxitektura quyidagilarga asoslanadi:

- **Frontend:** React Native yoki Flutter — multiplatforma mobil ilovalar yaratish uchun zamonaviy kross-platforma ramkalar.
- **Backend:** Node.js yoki Python (Django, Flask) — server qismi uchun API va ma’lumotlar bazasi bilan ishlashni ta’minlash.
- **Ma’lumotlar bazasi:** PostgreSQL yoki MongoDB — foydalanuvchilar, o‘quv materiallari, natijalar va tahlillarni saqlash uchun.
- **AI modullari:** Python asosida TensorFlow yoki PyTorch kutubxonalari yordamida adaptiv o‘quv tizimini yaratish; o‘quvchi natijalarini tahlil qilish uchun mashina o‘rganish algoritmlari.
- **Bulutli xizmatlar:** Amazon Web Services (AWS) yoki Google Cloud Platform (GCP) — serverlarni joylashtirish, ma’lumotlarni saqlash va AI xizmatlarini boshqarish uchun.
- **Xavfsizlik:** Ma’lumotlarni shifrlash (SSL/TLS), foydalanuvchi autentifikatsiyasi va ruxsatnomalar.

Dasturiy ta’minot va integratsiya quyudagicha bo‘lishi rejalashtirilgan:

- Mobil ilova AI modullari bilan real vaqtda ishlash uchun RESTful API yoki GraphQL protokollari orqali bog‘lanadi.
- Ota-ona va tarbiyachilar uchun web boshqaruv paneli ishlab chiqiladi, u yerda platforma natijalari va tahlillarini ko‘rish mumkin.
- Ilova dizayni bolalar uchun qulay va intuitiv bo‘lishi uchun UX/UI mutaxassislari tomonidan ishlab chiqiladi.

O‘quv kontenti quyidagicha ishlab chiqiladi:

- **Elementar matematika bo‘yicha dastur:** Sonlar, shakllar, o‘lchovlar, oddiy arifmetik amallar kabi asosiy mavzularni qamrab oladi.
- **Adaptiv modullar:** Har bir bola uchun AI individual qiyinchilik darajasiga moslashtirilgan topshiriqlar beradi.
- **O‘yinlashtirish:** Har bir mavzu o‘yinga o‘xshash topshiriqlar, viktorinalar va masalalar orqali o‘tiladi.

Pedagogik yondashuv.

- **Montessori va STEAM tamoyillari asosida:** Bolaning mustaqil faoliyati, qiziqishini rag‘batlantirish va ko‘p yo‘nalishli o‘rganishni ta’minlash.
- **Formativ baholash:** O‘quv jarayonida doimiy ravishda baholash va tahlil, shunda tizim moslashuvchan tarzda o‘zgartiriladi.
- **Ota-ona va tarbiyachilarni jalb qilish:** Ular uchun o‘quv jarayonini kuzatish va maslahatlar beruvchi modul mavjud.

Sinov va takomillashtirish.

- Platforma dastlab kichik guruhda sinovdan o‘tkazilib, foydalanuvchilarning fikrlari va natijalari asosida yangilanadi.
- Tizimda yuzaga kelgan muammolar, qiyinchiliklar va foydalanuvchi ehtiyojlari asosida doimiy ravishda optimallashtirish ishlari olib boriladi.

Munozara. Ushbu tadqiqot natijalari interfaol intellekt asosidagi mobil platformaning maktabgacha ta’limda elementar matematika o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasi gamifikatsiya elementlari yordamida sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Bu holat ilgari olib borilgan ko‘plab ilmiy ishlar bilan mos keladi. Masalan, Hamari va boshq. (2014) gamifikatsiya ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish va motivatsiya berishda samarali ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Sun’iy intellekt yordamida adaptiv o‘qitish tizimlari o‘quv jarayonini individuallashtirish va samaradorligini oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi (Luckin et al., 2016).

Biroq, tadqiqotda aniqlangan ayrim cheklovlar ham mavjud. Jumladan, platformaning interaktivlik darajasi va o‘yinlashtirish elementlari maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yanada takomillashtirilishi zarur. Bu esa Kelajakdagi tadqiqotlarda yoshga moslashtirilgan dizayn va o‘quv kontenti yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratish kerakligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, platformaning samaradorligini baholash uchun uzoq muddatli monitoring va kattaroq namunaviy guruhlar bilan tadqiqotlar olib borish muhimdir. Shu bilan birga, ota-onalar va pedagoglarning fikrini kengroq o‘rganish orqali platformaning pedagogik va amaliy jihatlari yanada rivojlantirilishi mumkin [8].

Xulosa qilib aytganda, interfaol intellekt va gamifikatsiyalangan mobil platformalar maktabgacha ta’limda elementar matematika o‘qitishni samarali boshqarishda istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Bu texnologiyalar ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va raqamli ta’limni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Kelajakda ushbu sohada ko‘proq ilmiy tadqiqotlar olib borilishi, shuningdek, amaliyotga joriy etilishi ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda interfaol intellektga asoslangan mobil platformalarning maktabgacha ta’limda elementar matematika o‘qitish jarayonini boshqarishdagi o‘rni va samaradorligi o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, AI texnologiyalari yordamida yaratilgan mobil ilovalar o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim kontentini moslashtirish imkonini beradi, bu esa o‘quv jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi. Gamifikatsiyalangan yondashuv bolalarning matematik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ularning motivatsiyasi va qiziqishini kuchaytiradi.

Platformaning interaktiv va adaptiv imkoniyatlari o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga jalb qilish, ularning fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi. Shu bilan birga, maktabgacha ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish o‘qitish jarayonining boshqarilishini osonlashtiradi, o‘qituvchilarga esa individual yondashuvni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan ba’zi cheklovlar va kamchiliklar — masalan, platformaning dizayni va interaktiv elementlarini kichik yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlariga yanada moslashtirish zarurati — kelajakdagi tadqiqotlarda e’tiborga olinishi lozim. Shuningdek, platformaning samaradorligini yanada kengroq va uzoq muddatli sinovlardan o‘tkazish, shuningdek ota-onalar va pedagoglarning fikrini keng qamrovda o‘rganish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, interfaol intellekt va gamifikatsiyaga asoslangan mobil ta’lim platformalari maktabgacha ta’limda elementar matematika o‘qitishni yanada samarali, qiziqarli va individuallashtirilgan qilishda istiqbolli vosita hisoblanadi. Bu texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish, raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish hamda bolalarning erta yoshdan boshlab bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhim imkoniyatlarni yaratadi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish va amaliyotga joriy etish orqali maktabgacha ta’lim sifatini yanada oshirish va innovatsion ta’lim tizimini barpo etish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? — A literature review of empirical studies on gamification. *Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences*, 3025–3034. https://doi.org/10.1109/HICSS.2014.377

2. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence unleashed: An argument for AI in education. *Pearson Education*. https://doi.org/10.1017/CBO9781107415324.004

3. Karsenti, T. (2019). Mobile learning in early childhood education: Promoting cognitive and social development. *Journal of Early Childhood Research*, 17(1), 3–12. https://doi.org/10.1177/1476718X18808112

4. Islomov, N. (2022). Application of artificial intelligence in preschool education: Opportunities and challenges. *Central Asian Journal of Education*, 4(2), 45–53.

5. Karimova, S. (2023). Gamification technologies in preschool mathematics education in Uzbekistan. *International Journal of Educational Technology*, 9(1), 78–88.

6. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: Defining gamification. *Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference*, 9–15. https://doi.org/10.1145/2181037.2181040

7. Woolf, B. P. (2010). Building intelligent interactive tutors: Student-centered strategies for revolutionizing e-learning. *Morgan Kaufmann*.

8. UNESCO. (2021). Digital technologies in early childhood education: A guide for teachers and parents. UNESCO Publishing.

TA’LIMDA SUN’IY INTELEKTDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Shodiyeva Yulduz Adizjonovna,
BuxDU Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi o’qituvchisi.

Ushbu maqolada ta’lim jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo‘llashning asosiy afzalliklari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt tushunchasi va uning ta’lim sohasida roli ko‘rib chiqiladi. Keyin individualizatsiya, o‘quvchilarni faollashtirish, baholash va mulohaza, o‘qituvchilarga ko‘mak, resurslarni optimallashtirish hamda kirish imkoni kabi jihatlar batafsil yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt; ta’lim; individualizatsiya; adaptiv o‘qitish; avtomatlashtirilgan baholash; o‘qituvchi yordami; kirish imkoniyati.*

ADVANTAGES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION

This article provides a theoretical and practical analysis of the main advantages of using artificial intelligence (AI) technologies in the educational process. The concept of artificial intelligence and its role in the field of education are examined. Furthermore, aspects such as individualization, student engagement, assessment and feedback, teacher support, resource optimization, and accessibility are discussed in detail.

Keywords: *artificial intelligence; education; individualization; adaptive learning; automated assessment; teacher support; accessibility.*

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАНИИ

В данной статье теоретически и практически анализируются основные преимущества использования технологий искусственного интеллекта (ИИ) в образовательном процессе. Рассматриваются понятие искусственного интеллекта и его роль в сфере образования. Далее подробно освещаются такие аспекты, как индивидуализация, активизация учащихся, оценивание и обратная связь, поддержка преподавателей, оптимизация ресурсов и обеспечение доступа.

Ключевые слова: *искусственный интеллект; образование; индивидуализация; адаптивное обучение; автоматизированное оценивание; помощь преподавателю; доступность.*

Kirish. XXI asrda o‘qitish va o‘qish jarayonlari raqamli inqilob ta’sirida tubdan o‘zgarib bormoqda. Sun’iy intellekt (SI) — mashinalarga inson kabi “o‘ylash”, o‘rganish va qaror qabul qilish imkonini beruvchi algoritmik yondashuvlar majmuasi — dunyoning turli mamlakatlarida ta’lim tizimini transformatsiya qilmoqda. Ta’limda SI dasturlari yordamida o‘quv materiallarini shaxsiy ehtiyojga moslashtirish, baholashni avtomatlashtirish va o‘qituvchining pedagogik ishini yengillashtirish mumkin. Shu bois, pedagogika va informatikani bog‘lovchi integrativ tadqiqotlarda SI texnologiyalarining imkoniyatlari va cheklovlari o‘rganilmoqda.

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, SI asosidagi o‘qitish modellari talabalar motivatsiyasini oshirish, o‘qituvchilarga qayta aloqa vaqtini qisqartirish va o‘rganish natijalarini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi (Luckin va boshq., 2016; Holmes va boshq., 2019). Ushbu maqola maqsadi — SI texnologiyalarini ta’limda qo‘llashning asosiy afzalliklarini chuqur tahlil qilish va amaliy misollar yordamida ko‘rsatish.

Metodlar. Sun’iy intellekt tushunchasi va ta’lim sohasi

Sun’iy intellekt (SI) — bu inson aqliga xos bo‘lgan funksiyalarni, masalan, o‘rganish, fikrlash, muammo hal qilish, qaror qabul qilish, tilni tushunish va hatto ijodkorlikni mashinalar orqali amalga oshirishga qaratilgan texnologiyalar majmuasidir. Sun’iy intellekt kompyuterlar, dasturiy ta’minotlar va boshqa qurilmalar yordamida inson faoliyatini taqlid qiladi va turli sohalarda qo‘llanilmoqda.

Sun’iy intellektning asosiy yo‘nalishlari:

Mashinali o‘rganish (Machine Learning) – SI o‘z tajribasidan o‘rganib, natijalarni takomillashtirishga imkon beradi.

Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing) – inson tili bilan ishlash, matnni tushunish va javob berish.

Kompyuter ko‘rishi (Computer Vision) – tasvir va videoni tahlil qilish orqali muhitni anglash.

Ekspert tizimlar – inson mutaxassisi kabi qarorlar qabul qiluvchi tizimlar.

Robototexnika – sun’iy intellekt asosida ishlaydigan harakatlanuvchi qurilmalar.

Sun’iy intellektning afzalliklari:

Tezlik va aniqlik – katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish.

Doimiy ishlash – charchamasdan va tanaffussiz faoliyat yuritish.

Moslashuvchanlik – turli muhit va shartlarga tez moslasha olish.

Sun’iy intellekt mohiyati. SI — kompyuter tizimlariga murakkab masalalarni hal qilish, qaror qabul qilish va o‘rganish qobiliyatini beruvchi ilmiy-texnik soha. Mashina o‘rganishi (machine learning), chuqur o‘rganish (deep learning), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), kompyuter ko‘rishi (computer vision) singari metodologiyalar SI ekotizimini tashkil etadi.

SI va ta’lim aloqasi. Sun’iy intellekt (SI) va ta’lim sohasi o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, SI texnologiyalari zamonaviy ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. An’anaviy ta’limdan farqli ravishda, sun’iy intellekt individual yondashuvni ta’minlab, o‘quv jarayonini yanada samarali va moslashuvchan qilishga xizmat qiladi.

Individualizatsiya va shaxsiy yondashuv.

SI har bir o‘quvchining bilim darajasi, o‘rganish uslubi va qiziqishlariga qarab moslashtirilgan o‘quv rejalarini yaratishga imkon beradi. Bu esa o‘quvchilarning o‘z tempida o‘qishiga va chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Adaptiv o‘qitish tizimlari

SI asosida ishlab chiqilgan dasturlar o‘quvchining natijalarini tahlil qiladi va unga mos yangi topshiriqlarni taklif qiladi. Bu o‘quv jarayonining moslashuvchanligini oshiradi.

Avtomatlashtirilgan baholash

Sun’iy intellekt testlarni, yozma ishlanmalari va hatto insho kabi murakkab topshiriqlarni avtomatik baholay oladi. Bu esa o‘qituvchilarning yukini kamaytiradi va tezroq fikr-mulohaza olish imkonini beradi.

O‘qituvchilar uchun yordamchi vosita

SI o‘qituvchilarga ma’lumotlarni tahlil qilish, dars rejasini tuzish va o‘quvchilarning rivojlanishini kuzatish imkonini beradi. Bu esa dars sifatini oshiradi.

Ta’limga kengroq kirish imkoni

Sun’iy intellekt texnologiyalari geografik joylashuvdan qat’i nazar, har kimga sifatli ta’lim olish imkonini beradi. Onlayn platformalar, tarjima tizimlari va ovozli yordamchilar bunga misoldir.

Ta’limda SIni qo‘llash bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi: ma’lumot yig‘ish va tahlil qilish, adaptiv kontent yaratish, avtomatlashtirilgan baholash, mulohaza taqdim etish va o‘qituvchi ishini qo‘llab-quvvatlash. Ushbu jarayonlar «intellektual ta’lim tizimlari» (Intelligent Tutoring Systems, ITS) va «adaptiv o‘quv muhitlari» (Adaptive Learning Environments) orqali amalga oshiriladi.

SI asosida ta’lim jarayonini individualizatsiya qilish

Zamonaviy ta’limda har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos yondashuv — muvaffaqiyatning muhim omillaridan biridir. Sun’iy intellekt (SI) bu borada katta imkoniyatlar yaratib, o‘quv jarayonini individualizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Individualizatsiya — bu har bir o‘quvchining o‘ziga xos bilim darajasi, o‘rganish uslubi va qiziqishlariga mos holda ta’lim jarayonini tashkil etishdir. Bu yondashuv orqali o‘quvchining faolligi, motivatsiyasi va samaradorligi oshadi.

Talabaning o‘rganish profili. SI texnologiyalari har bir o‘quvchining oldingi bilim darajasi, o‘rganish tezligi va qiziqishlariga asoslangan “o‘rganish profili” tuzadi. Bu profil real vaqtda yangilanadi va o‘quvchiga eng mos kontentni taklif etadi. Masalan, Knewton platformasi har bir o‘rganuvchining zaif jihatlarini aniqlab, mos mashqlarni tavsiya qiladi.

Adaptiv o‘quv yo‘llari. Adaptiv yo‘llar orqali talaba har bir modulni o‘z tezligida o‘tadi. Agar biror konseptda tushunmovchilik bo‘lsa, tizim shu mavzuga oid qo‘shimcha misollar va izohlar taqdim etadi. Shunday qilib, individual yondashuv an’anaviy barcha guruhga bir xil dars o‘tish usulidan samaraliroq natijalar beradi (Pane va boshq., 2017).

O‘quvchilarni faollashtirish va motivatsiya

Interaktivlik va o‘yinlashtirish. SI modullari gamifikatsiya elementlarini — ball, darajalar, mukofotlar — joriy etadi. Bu o‘quvchilarni rag‘batlantirib, ularning qatnashuv darajasini oshiradi. Carnegie Learning kompaniyasining SI asosidagi matematika o‘quv dasturi o‘yin elementlari tufayli talabalar motivatsiyasini 20 % ga oshirganligi ma’lum (Carnegie Learning, 2018).

Real vaqtda mulohaza. Si tizimlari avtomatik baholash va mulohaza berish imkoniyatiga ega. Quizlet va Duolingo kabi platformalarda talaba javob bergan zahoti xatolarni ko‘rsatish, to‘g‘ri yondashuvni tushuntirish orqali mustaqil o‘rganishni mustahkamlaydi. Bu pedagogga ham dars rejasini individuallashtirishda yordam beradi.

Avtomatlashtirilgan baholash va mulohaza

Test va insholarni tekshirish. So‘nggi yillarda NLP metodlari asosida insholarni baholash tizimlari (Automated Essay Scoring, AES) keng tarqaldi. ETSning e-rater dasturi grammatik va semantik xatolarni aniqlab, xulosaviy mulohaza beradi (Attali & Burstein, 2006).

Turli formatdagi baholash. SI yana rasm, video va kodli topshiriqlar bo‘yicha ham baholash imkonini yaratadi. Misol uchun Codota va GitHub Copilot dasturlari talabaning kod yozish ko‘nikmalarini real vaqtda tahlil qiladi va optimallashtirish bo‘yicha takliflar beradi.

O‘qituvchini qo‘llab-quvvatlash.

Zamonaviy ta’lim jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari o‘qituvchilarning ishini yengillashtiruvchi va ularning samaradorligini oshiruvchi muhim vositaga aylanmoqda. SI yordamida dars materiallarini yaratish, topshiriqlarni avtomatik baholash, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta’limni tashkil etish mumkin. Bundan tashqari, SI ma’muriy ishlarni tezlashtirib, o‘qituvchining asosiy vazifasiga – o‘qitishga ko‘proq vaqt ajratishiga imkon yaratadi. Shuningdek, SI o‘qituvchining malakasini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berishi va yangi pedagogik usullarni taklif qilishi mumkin. Muhimi, sun’iy intellekt o‘qituvchini almashtirmaydi, balki unga yordam beradi.

Dars rejasini yaratish. SI tizimlari o‘qituvchiga mos dars rejasini tuzishda yordam beruvchi tavsiyalar beradi. Brightspace Insights kabi vositalar ma’lumotlar tahlili asosida dars samaradorligini oshirish uchun analitik ko‘rsatkichlar taqdim etadi.

Masofaviy hamkorlik va monitoring. O‘qituvchi Slack yoki Microsoft Teams ichida o‘quvchilarning faoliyatini kuzatib boradi, progress-ga oid signalizatsiya orqali zaif ishtirokchini aniqlashi mumkin. Bu esa tezkor pedagogik aralashuvni ta’minlaydi.

Resurslarni optimallashtirish va iqtisodiy samaradorlik

Infratuzilma va moddiy xarajatlar. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va virtual laboratoriyalar yordamida an’anaviy sinf jihozlariga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi. Masalan, virtual reallik laboratoriyalari kimyo tajribalarini tajriba uskunalarisiz o‘tkazishga imkon beradi, bu esa xarajatlarni 30–40 % ga qisqartiradi (Radianti va boshq., 2020).

*Ta’limni masshtablash.*MOOC (Massive Open Online Courses) platformalari SI texnologiyalarini integratsiya qilib, millionlab foydalanuvchilarga sifati bir xil o‘qish imkonini yaratadi. EdX va Coursera kurslarida SI asosidagi kuzatuv va baholash tizimlari qo‘llanishi, kurs sifatini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Ta’limga kirish imkoniyati va inklyuzivlik

Moslashtirilgan yordam. Epilepsiya, diqqat yetishmovchiligi yoki jismoniy cheklovlarga ega talabalar uchun SI yordamida o‘qish sharoitini moslashtirish mumkin. Matnli audiotasvir (text-to-speech), avtomatik subtitrlar va vizual yordamkor modullar inklyuzivlikni oshiradi.

Geografik chegaralanmagan ta’lim. SI asboblar bilan jihozlangan onlayn makon butun dunyo bo‘ylab ta’lim olish imkonini beradi. Bu rivojlanayotgan mamlakatlardagi yoshlarni ham sifatli darslarga bog‘laydi.

Natijalar va munozara.

Amaliy misollar va tadqiqotlar

Carnegie Learning Mathia: adaptiv matematika platformasi talabalarning yechimlarini real vaqtda tahlil qilib, turli strategiyalarni taklif etadi va natijada standart test ballarini 15 % ga oshirgan (Carnegie Learning, 2018).

Duolingo: til o‘rganishda gamifikatsiya va SI asosidagi adaptiv o‘qitish yordamida foydalanuvchini 30 kun ichida boshlang‘ich darajadan o‘rtacha A2 darajaga yetkazadi (Vesselinov & Grego, 2012).

Coursera va EdX: SI yordamida kurs tarkibini takomillashtirish va talabalar qiyinchilik darajasini tahlil etish orqali bitiruv darajasini 50 % dan ortiq oshirgan (Yuan & Powell, 2014).

Kelajak istiqbollari va cheklovlar

Etik va maxfiylik masalalari. Talabalar ma’lumotlarini yig‘ish va tahlil qilish jarayonida shaxsiy ma’lumotlarni himoya masalalari dolzarb. GDPR va boshqa qonunlarga muvofiq “ma’lumotlarni minimal yig‘ish” va “foydalanishga rozilik” tamoyillari kuzatilishi shart.

Pedagogik cheklovlar. SI hech qachon inson pedagogining empatiyasi va kontekstual tushunchasini to‘liq almashtira olmaydi. Shu bois, “gibrid” yondashuv — SI va an’anaviy ta’lim uyg‘unligi — samarali hisoblanadi.

Kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlari. Affective computing — o‘quvchining emotsiyalarini tahlil qilib, motivatsiya darajasini oshirish.

Explainable AI — SI qarorlarini tushuntirish mexanizmlarini pedagoglar uchun soddalashtirish.

Metakognitsiya va SI — o‘quvchini o‘z o‘rganishini kuzatish va boshqarishni qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar.

Xulosa va tavsiyalar. Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish bir qancha nazariy va amaliy afzalliklarni taqdim etadi: individualizatsiya, motivatsiya, avtomatlashtirilgan baholash, o‘qituvchiga yordam, resurs va xarajatlarni optimallashtirish hamda inklyuzivlikni ta’minlash. Global misollar SI vositalarining yuqori samaradorligini isbotlab, MOOC va adaptiv o‘qitish modellariga bo‘lgan talabni oshirdi. Shu bilan birga, etik, maxfiylik va pedagogik cheklovlar masalalari kelajak tadqiqotlari uchun muhim maydon yaratadi. Gibrid yondashuvni rivojlantirish hamda Explainable AI va affective computing singari yangi trendlarni integratsiya qilish orqali ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Attali, Y., & Burstein, J. (2006). Automated Essay Scoring with e-rater® V.2. ETS Research Report Series.
2. Carnegie Learning. (2018). Impact Study: Mathia Platform Outcomes. Carnegie Learning White Paper.
3. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign.
4. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. Pearson.
5. Pane, J. F., Steiner, E. D., Baird, M. D., & Hamilton, L. S. (2017). Continued Progress: Promising Evidence on Personalized Learning. RAND Corporation.
6. Imomova Shafoat Mahmudovna, Norova Fazilat Fayzulloyevna. Ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish// Miasto Przyszłości, Vol. 32 (2023), C.47-49.
7. Imamova Shafoat Mahmudovna. A Simulation trainer's educational competence in the process of forming students' professional competence// International journal on integrated education Volume 6, Issue 9, Sep- 2023 P.75-77.
8. Imomova Shafoat Mahmudovna. Matematik tizimlarda talabalarning kasbiy kompetentligini imitasion-trenajyor asosida rivojlantirishning pedagogik shartlari // Ilm-fan va texnologiyalar №2(1), 2023, C. 19-23.
9. Imomova Shafoat Mahmudovna. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlar// Educational Research in Universal Sciences. VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 14, 2023, C.1075-1081
10. Imamova Sh.M. Methodology of Development of Programming Skills in Mathematical Systems in Students Based on Computer Simulation Trainers// Naturalista campano Volume 28 Issue 1, 2024, -pp. 551-557.

MA’NAVIYAT VA TARBIYA

UO‘K 37.091.12:37.091.3

TALABALAR MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI JARAYONINING TARKIBIDA FUQAROLIK-VATANPARVARLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Abdullayeva Malika Ravshanbekovna,
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Mazkur maqolada talabalar ma’naviy-axloqiy tarbiyasi jarayonining tarkibida fuqarolik-vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish, talabaning ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish orqali jamiyatning ma’naviy-axloqiy kompetentsiyasini yuksaltirish haqidagi fikrlar bayon qilingan. Talabalarda fuqarolik va vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar muhim ahamiyat kasb etishi va bugungi talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tushunchasiga qanday mazmun yuklanayotganligini aniqlash haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *talabalar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, kasbiy pedagogik faoliyat, fuqarolik pozitsiyasi, ma’naviy-axloqiy manfaatlar, sadoqat, muhabbat, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ma’naviy-axloqiy kompetentsiya.*

РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКО-ПАТРИОТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ КАК ЧАСТЬ ПРОЦЕССА ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ

В статье изложены идеи о развитии гражданско-патриотической компетенции в составе процесса духовно-нравственного воспитания студентов, а также о повышении духовно-нравственной компетентности общества через развитие соответствующих компетенций у студентов. Рассматривается важная роль социально-гуманитарных наук в формировании у студентов гражданских и патриотических качеств, а также анализируется, какое значение сегодня придается понятию воспитания студентов в духе патриотизма.

Ключевые слова: *студенты, духовно-нравственное воспитание, патриотизм, профессионально-педагогическая деятельность, гражданская позиция, духовно-нравственные интересы, преданность, любовь, саморазвитие, духовно-нравственная компетенция.*

DEVELOPMENT OF CIVIC-PATRIOTIC COMPETENCE AS PART OF THE PROCESS OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS

This article presents ideas about the development of civic and patriotic competence as part of the moral and ethical education process of students, and the enhancement of society's moral and ethical competence through the development of students' own competencies. It discusses the important role of social and humanitarian sciences in fostering civic and patriotic qualities in students and explores the meaning attributed to the concept of educating students in the spirit of patriotism today.

Keywords: *students, moral and spiritual education, patriotism, professional pedagogical activity, civic stance, moral and spiritual interests, devotion, love, self-development, moral and ethical competence.*

Kirish. Uchinchi ming yillikning boshida O‘zbekistonning ma’naviy hayotidagi eng dolzarb muammolardan biri – bu an’anaviy ma’naviy qadriyatlar va g‘oyalarni tiklash bo‘lib, ular orasida fuqarolik va vatanparvarlik asosiy tamoyillar bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son qarori bilan tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida [4], 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy – ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida [5], 2021-yil 26-martdagi PQ5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari [6], Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori [8], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-80-son 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida”gi Farmonlarida [7] talaba yoshlarni ma’naviy kamoloti, ma’naviy yetuklik darajasini oshirish xususida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilangan.

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalari – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jabhalar tubdan o‘zgarayotgan bir paytda, aynan ana shu qadriyatlar moddiy kuchga aylanib, milliy qadriyatlar va an’analarni tiklashga xizmat qiladi. Uchinchi Uyg‘onish davri poydevorini qurayotgan O‘zbekiston xalqi uchun ta’lim-tarbiya, odob-axloq, aql-zakovat, bilim va ma’naviyat katta kuch va ma’naviy manbadir. Chunki ma’naviy-axloqiy fazilatlar azaldan beqiyos quvvat, baxt, tinchlik, bunyodkorlik, ahillik, ma’naviy poklanish mezoni, qalbni yuksaltiruvchi ne‘mat hisoblanadi. Chunki u millatni, xalqni, komillikka yetaklovchi yuksak fazilatlar va axloqiy mezonlar asosida yashashga, nafs va g‘aflat asiriga aylanib qolmaslikka, ezgulik yo‘lida doimo hushyorlikga chaqirgadi. Insonning kelgusi hayoti qanday bo‘lishi ko‘p jihatdan uning vatanparvarlik ruhidagi tarbiyasiga bog‘liq. XXI asr boshidagi O‘zbekiston oliy ta’limining asosiy vazifalaridan biri - vatanparvarlikning mazmunni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi rolini tiklash orqali talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda yoshlar orasida vatanparvarlik tarbiyasi milliy muammolar ichida eng dolzarblaridan biriga aylangan. Talabalarni fuqarolik-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi oliy ta’lim muassasalari faoliyatidagi eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanib, aynan talabalik davrida yoshlar faqat kasbiy jihatdan emas, balki shaxs sifatida ham rivojlanadi. Yangi, rivojlangan jamiyatda aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega, zamonaviy, tarixiy dunyoqarashi keng, mamlakatdagi voqealarga vijdonan va teran baho bera oladigan kadrlarni hayotga tayyorlash masalasi dolzarblik kasb etadi.

Vatanparvarlik tarbiyasi jarayoni Vatanning tarixi, mahalliy sharoitlari, milliy psixologiya, madaniyat, qahramonlik-an’analari, avlodlar tajribasi va urf-odatlarini hisobga olgan holda olib borilishi lozim. Vatanparvarlik – bu muhim ijtimoiy qadriyat bo‘lib, jamiyatning ma’naviy-axloqiy birligini, davlatchiligini mustahkamlovchi omildir. Talabalarda mamlakat tarixi, madaniyati, davlatchiligiga faol va qiziqishli munosabatni rivojlantirish - milliy o‘ziga xoslik va umuminsoniy tamoyillar birligida vatanparvarlik tarbiyasining maqsadidir. Bu vazifalarni amalga oshirishda oliygoh professor - o‘qituvchilarning ixtiyorida dars mashg‘ulotlari ham, darsdan tashqari faoliyat ham mavjud.

Agar biz yuqori ma’naviy g‘oyalar, vatanparvarlikni shakllantiruvchi qadriyatlardan yuz o‘girsak, bu yoshlarni axloqiy inqirozga olib keladi. Televizion ko‘rsatuvlar, radio, kitob, jurnal va gazetalarda tarqalayotgan salbiylik va zo‘ravonlik oqimi, shubhasiz, yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa yoshlar madaniyatning yemirilishi, axloqiy tanazzul, tilning qo‘pollashuvi, tajovuzkorlik va bag‘rikenglikning yo‘qolishiga olib keladi. Qadriyatlar ko‘pincha oddiy, sodda darajagacha pasayadi – inson qadri pul bilan o‘lchanmaydi, balki qanchalik ma’naviy boyligidadir.

Natijalar va ularning muhokamasi. Buyuk nemis shoiri Gyotening so‘zlari bilan aytganda:

“Pulni yo‘qotish – hech narsa emas, sog‘liqni yo‘qotish – bir narsani yo‘qotish, sharafni yo‘qotish – ko‘p narsani yo‘qotish, jur’atni yo‘qotish – hammasini yo‘qotish. Undan ko‘ra dunyoga kelmagan afzal.”[9.]

Bugungi yoshlarning ba’zilari matbuot, internet va televideniyedagi zo‘ravonlik, axloqsizlik va vatanparvarlikka zid xatti-harakatlarni o‘zlashtirmoqda. Bu esa jamiyatda ma’naviyatsizlikni yuzaga keltiradi, bu hol esa insoniyatni falokatli oqibatlarga olib keladi. Ma’naviy jihatdan yetilmagan shaxsda ezgulik, rahm-shafqat, olijanoblik, adolat, fuqarolik va vatanparvarlik tushunchalarini sindirish qiyin.

Tarixda barcha xalqlarda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan, Vatanni himoya qilish esa sharafli va faxrli ish hisoblangan. Vatanimizning o‘tmishi bunga yaqqol guvohlik beradi – davlatparvarlik g‘oyasi jamiyat barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri bo‘lgan. Masalan, davlatining qudratini butun dunyoga taratishni, xalqiga xizmat qilishni Jalolliddn Manguberdi, Amir Temur va Pahlovon Mahmud kabi buyuk shaxslar ma’naviy burch deb bilganlar. Buyuk sarkarda va davlat arboblari boshqaruvidagi o‘ziga xos sharafi, nomi har doim yoshlarda kuch va g‘ururni uyg‘otgan.

Vatanparvarlik – inson qalbidagi eng chuqur tuyg‘ulardan biri bo‘lib, u asrlar davomida shakllangan. Bu – o‘z Vataniga, xalqiga sadoqat va muhabbat, ularning o‘tmishi va bugunidan faxrlanish, ularni himoya qilishga tayyorlikdir.

O‘zbek mutafakkirlari vatanparlikni quyidagicha ta’riflaganlar:

1.Alisher Navoiy**.** Navoiy o‘z asarlarida vatanparvarlikni milliy birlik, xalqni sevish va unga xizmat qilish sifatida ta’riflaydi. Uning "Xamsa" asarida vatanparvarlik tuyg‘usi va xalqni ulug‘lash mavzulari markaziy o‘rin tutadi.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur**.** Bobur o‘zining "Boburnoma" asarida vatanparvarlikni o‘z yurtini sevish, uning ravnaqi yo‘lida kurashish sifatida ifodalaydi. U o‘zining yurtga bo‘lgan muhabbatini va unga xizmat qilish zaruratini ta’kidlaydi.

3. Abdurauf Fitrat**.** Fitrat o‘zining adabiy va ilmiy faoliyatida vatanparvarlikni milliy ma’rifat, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish orqali ifodalaydi. U o‘zbek tilini va adabiyotini rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan.

4. Mahmudxo‘ja Behbudiy**.** Behbudiy o‘zining pedagogik va adabiy faoliyatida vatanparvarlikni yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularga vatan sevgisini singdirish orqali ifodalaydi. U o‘zbek xalqining kelajagi yoshlar qo‘lida ekanligini ta’kidlaydi.

5. Abu Nasr Forobiy**.** Forobiy o‘zining falsafiy qarashlarida vatanparvarlikni insonning o‘z vataniga bo‘lgan mas'uliyatini anglash va uni rivojlantirishga intilish sifatida ta’riflaydi.

«Vatanparvarlik – bu shunchaki Vatanga muhabbat emas. Bu undan ham ko‘proq. Bu – insonning o‘zini Vatandan ajralmas qismi deb bilishi, uning baxtli va og‘ir kunlarini birga his etishidir.»

Tolstoy fikricha, vatanparvar inson – bu Vatanni faqat g‘alaba va shon-sharaf davrida emas, balki sinovli, og‘ir pallalarda ham o‘zini unga aloqador deb biladigan va uni rivojlantirishga bor kuchini sarflaydigan odamdir. Uning axloqiy-diniy ta’limoti esa – zulmga zo‘ravonlik bilan javob bermaslik va har bir inson tomonidan yaxshilikni ko‘paytirish g‘oyasiga asoslangan.

Vatanparvarlik xalqning mentalitetida asosiy belgilaridan biri bo‘lib, davlatning ma’naviy tayanchidir. «Vatanparvarlik» so‘zi o‘zida ijobiy axloqiy yukni saqlaydi. Qadim zamonlardan buyon yunon va rim faylasuflari uni jamiyat a’zolarining axloqiy burch tizimida muhim deb bilganlar. Ular uchun Vatanga bo‘lgan burch faqat uni harbiy himoya qilish emas, balki davlat boshqaruvida faol ishtirok etishni ham anglatganlar.

Misol uchun, mashhur Sokrat nafaqat faylasuf va pedagog, balki jang maydonida o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib qo‘mondonini qutqarib qolgan jasur jangchi bo‘lgan. Qadimgi yunonlar va rimliklar o‘z qahramonlari bilan faxrlangan, ularning xotirasini ehtirom bilan saqlagan. Biroq o‘z xalqiga xiyonat qilganlar mamlakatdan haydalgan, huquqlaridan mahrum bo‘lgan va ular jamiyatdan chetda qolib, hayotlarini iztirobda o‘tkazgan.

Vatanparvarlik har doim sharaf, jasorat va sadoqat bilan bog‘langan. Bugungi kunda esa jamiyatda boylik – jasorat, foyda – sadoqat, manfaat esa – sharaf o‘rnini egallamoqda. So‘nggi voqealar shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy tabaqalanish va ma’naviy qadriyatlarning qadrsizlanishi jamiyat ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, madaniyat, san’at va ta’lim orqali tarbiyaviy ta’sir kuchsizlashmoqda. Oqibatda ko‘plab fuqarolar orasida an’anaviy vatanparvarlik ongining susayishi kuzatilmoqda. Ob’yektiv va sub’yektiv jarayonlar milliy masalani keskinlashtirib yubordi. Ba’zi hollarda vatanparvarlik millatchilikka aylanish holatlarini ham ko‘rish mumkin.

Jamiyat ongida loqaydlik, egoizm, individualizm, kinoya, asossiz tajovuzkorlik, davlat va ijtimoiy institutlarga nisbatan hurmatsizlik keng tarqalmoqda. Bunday sharoitda oliy ta’lim darajasida vatanparvarlik tarbiyasini tizimli hal qilish – jamiyatni birlashtirish va davlatni mustahkamlashning muhim yo‘li bo‘lib qolmoqda.

“Vatanparvarlik” atamasi ensiklopedik lug‘atda har qanday ijtimoiy tashkilotning qudratli kuchi sifatida talqin qilinadi. Bu kuch yemirilgan taqdirda – tabiiy yo‘l bilanmi yoki sun’iy tarzda – o‘sha tashkilot halokat yoqasiga keladi.

Bugungi yoshlar Jaloliddin Manguberdi, yoki Amir Temur bo‘lib o‘ynamaydi, ular Rambo va terminatorlarga ergashmoqda – bu esa ideallar almashuvi va soxta qadriyatlarning yoshlar ongiga singdirilishidan dalolat beradi.Talabalar o‘rtasidagi muloqot va qiziqishlar iste’molchilikka asoslangan oddiy xulq-atvor modeli bilan chegaralangan. Afsuski, bunda ma’rifatli, madaniyatli, ziyoli insonning asosiy motivlari – boshqalarga qiziqish, jamiyat va mamlakatdagi jarayonlarga befarq bo‘lmaslik, hamdardlik, muloqotga ochiqlik va hamkorlik – ya’ni shaxsning chinakam ma’naviyati aks etmayapti.

Hozirgi kunda shaxsiy ongning ijtimoiy motivlardan ustunligi kuzatilmoqda. Bu bir tomondan salbiy tendensiya bo‘lsa, boshqa tomondan – shaxsning o‘zini anglash va o‘zini ro‘yobga chiqarish (samoaktualizatsiya) jarayonining tabiiyligini ko‘rsatadi. Ammo bu jarayon yoshlarni oddiy egoistlarga aylantirib yubormasligi uchun ularning fuqarolik va vatanparvarlik qadriyatlariga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish zarur. Chunki sifatli ta’lim – bu faqat intellektual emas, balki ijtimoiy, emotsional, jismoniy va ma’naviy darajalarni ham qamrab oluvchi ta’limdir. Bunday ta’lim nafaqat malakali mutaxassisni, balki o‘z Vatani oldida mas’uliyatli fuqaro va vatanparvarni tayyorlashga qaratilgan.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi jamiyatda Vatan, vatanparvarlik, fuqarolik, qahramonlik an’analari, burch, sharaf, qadr-qimmat va o‘z tarixini bilish kabi abadiy qadriyatlarga nisbatan munosabat tubdan o‘zgarmoqda.

Oliy ta’lim muassasalari faqat mutaxassis tayyorlovchi emas, balki shaxsni tarbiyalovchi va ijtimoiylashtiruvchi institut sifatida ham salbiy tendensiyalarga qarshi turmog‘i, talabalarda vatanparvarlik va fuqarolik faolligini shakllantirishga hissa qo‘shmog‘i lozim. Bunga tarixda o‘zini halol, fidokor xizmatlari

bilan ko‘rsatgan davlat arboblari, olimlar va mutafakkirlar misolida erishiladi – bu jarayon ta’lim orqali ham, ta’limdan tashqari faoliyat orqali ham olib borilishi kerak.

Talabalarda fuqarolik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar va psixologik-pedagogik fanlar muhim rol o‘ynaydi. Bu fanlar orqali kelajakdagi mutaxassislar to‘liq fuqarolik hayotiga tayyor bo‘lishlari uchun bilim, amaliy ko‘nikma, qadriyat yo‘nalishlari, dunyoqarash va tarixiy xulqiy namunalarni egallashlari ta’minlanadi.

So‘nggi yillarda jamiyatda vatanparvarlik tushunchasining mazmuni kengaymoqda – endi bu tushuncha nafaqat davlatga muhabbat va uning manfaatlariga xizmat qilishni, balki har bir fuqaroning, har bir insonning qadrlanishini ham anglatadi.Shu munosabat bilan biz bugungi talabalar vatanparvarlik tushunchasiga qanday mazmun yuklayotganini aniqlashga qaror qildik.

Xulosalar. Yuqoridagi barcha dalillar bugungi kunda talabalar orasida fuqarolik-vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish nihoyatda dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Biz fuqarolik-vatanparvarlik kompetensiyasini quyidagicha tushunamiz:

- davlatning hayotida o‘zining ajralmas o‘rnini anglash, mamlakat manfaatlari yo‘lida fidoyilikka tayyorlik, o‘z xalqining tarixiga, Vataniga bo‘lgan muhabbat, sadoqat va hurmatni namoyon qilish;
- uni rivojlantirish va gullab-yashnashiga hissa qo‘shishga intilish;
- Vatanining yutuqlari va madaniyati bilan faxrlanish;
- milliy madaniyat va tarixiy xususiyatlarni asrashga intilish, xalq manfaatlarini himoya qilish;
- Vatan oldidagi fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarni ado etishga tayyorlik;
- mamlakatdagi voqealarga o‘ta vijdonan munosabatda bo‘lish, ularga javobgarlikni o‘z zimmasiga olish, o‘z yurtidagi ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish;
- O‘zbekiston xalqining birligi va yaxlitligiga ishonch.

Bo‘lajak mutaxassislarning fuqarolik-vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish bizning tajribamizda "Umumiy pedagogika" "Tarbiyaviy ishlari metodikasi" va "Kasbiy ta’lim metodikasi" kabi fanlar doirasida amalga oshiriladi. Ushbu fanlarni o‘qitish quyidagi vazifalarni hal qilishni nazarda tutadi:

- Talabalarda O‘zbekiston tarixiga qiziqish va hurmat, o‘z viloyati, universiteti, oilasi va yaqinlariga sadoqatni shakllantirish;
- “Katta” va “kichik” Vatanning taqdiri uchun javobgarlik hissini tarbiyalash, o‘z mamlakati va yurtini o‘zgartirishda faol ishtirok etishga tayyorlikni rivojlantirish;
- Talabalarni avlodlar tomonidan qoldirilgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, milliy madaniyat, xalqiy qadriyatlar va an’anaviy urf-odatlar bilan tanishtirish;
- Talabalar tomonidan milliy ramzlar, muqaddas qadriyatlar va qahramonlarga hurmat bilan qarashni shakllantirish;
- Kelajakdagi mutaxassislarda fuqarolik jihatdan shakllanishga intilish va xalq va davlatga munosib xizmat qilish zaruratini rivojlantirish.

Talabalarda fuqarolik-vatanparvarlik kompetensiyasining rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida biz sotsiologik so‘rov o‘tkazdik. Talabalarga bir necha vatanparvarlikka xos fazilatlar taklif etildi, ularni shaxsiy ahamiyat darajasiga qarab joylashtirish so‘raldi.Ko‘pchilik respondentlar uchun vatanparvarlik — bu Buyuk Vatan urushi qahramonlariga va bugungi kunda mamlakatni himoya qilayotgan odamlarga hurmat bilan qaraydigan, ularga o‘xshashga intiladigan insondir. Ikkinchi o‘rinda – ona yurti uchun chegarasiz va fidokorona muhabbat, uchinchi o‘rinda esa – Vatanini, davlat manfaatlarini himoya qilish istagi joy oldi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 11.09.2023-yildagi PF-158-sonli Farmoni. https://www.lex.uz/uz/docs/-6600413.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019- yil 8 - oktyabr PF-5847-son Farmoni. httrs://lex.uz/doss/4415478

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son Qarori. https://lex.uz/docs/-3864155

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy – ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son Qarori. https://lex.uz/docs/4320700.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/-5344692

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-80-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida”gi “Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 - yil 31- dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/-4676839

9. Gyote, Iohann Volfgang von. "Faust" (Erkin Vohidov tarjimasi) "Yangi asr avlodi" nashriyoti. - T.:2015-yil

10. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik.: “Nodirabegim” nashriyoti, – T.: 2021. – 598 b.

11. Salayeva M.S., Sodiqova U.B. Oila pedagogikasi. Darslik.: “Bookmany print” nashriyoti, – Toshkent 2023. – 172 b.

UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA TIZIMIDA SAN’AT OMILINING O‘RNI

Boboyeva Zulfiya Akbarjonovna,
Farg'ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Mazkur maqolada san’at va ma’naviy tarbiya uzluksiz tarbiya tizimining ajralmas qismi bo‘lib, u insonni nafaqat estetik go‘zallikni, balki axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni ham tushunishga va qadriga yetishga o‘rgatishi, san’at, musiqaning, she’riyatning, tasviriy san’atning va drama san’atining tarbiyaviy ahamiyati bolalar va yoshlarning fikrlashini, his-tuyg‘ularini va xatti-harakatlarini shakllantirishi xususida fikr yuritilgan. San’at va ma’naviy tarbiya o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchli uzluksiz ma’naviy tarbiyani shakllantirishishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *ma’naviy tarbiya, uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi, ma’naviy ijtimoiy qadriyatlar*.

РОЛЬ ИСКУССТВА В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ

В статье рассматривается тот факт, что художественно-духовное образование является неотъемлемой частью системы непрерывного образования, которая учит человека понимать и ценить не только эстетическую красоту, но и нравственные и духовные ценности, а также воспитательное значение искусства, музыки, поэзии, изобразительного искусства и драмы в формировании мышления, чувств и поведения детей и молодежи. Установлено, что связь между искусством и духовным образованием формирует прочное, непрерывное духовное образование.

Ключевые слова: *духовное образование, система непрерывного духовного образования, духовные и социальные ценности.*

THE ROLE OF THE ART FACTOR IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS SPIRITUAL EDUCATION

This article discusses the idea that art and spiritual education are an integral part of the continuous education system, which teaches a person to understand and appreciate not only aesthetic beauty, but also moral and spiritual values, and the educational significance of art, music, poetry, fine arts and drama in shaping the thinking, feelings and behavior of children and youth. It is determined that the connection between art and spiritual education forms a strong continuous spiritual education.

Keywords: *spiritual education, continuous spiritual education system, spiritual and social values*.

Kirish. Yangi O‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillardan biri – san’atdir. San’at, nafaqat estetik qadr-qimmatni, balki axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Yangi O‘zbekistonda uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi doirasida san’atning o‘rni va roli o‘ta muhimdir, chunki bu tizim milliy va umumbashariy qadriyatlarni, shuningdek, insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilishga qaratilgan. San’atning ma’naviy tarbiyada o‘rni qadimdan mavjud bo‘lgan. O‘zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosi, san’at orqali xalqning ruhiy va axloqiy qiyofasini shakllantirib kelgan. O‘zbekistonning tarixiy o‘tmishi va madaniy merosi juda boy va rang-barang, u san’at va adabiyot, musiqa va arxitektura, teatr va rassomchilik kabi ko‘plab sohalarda o‘z ifodasini topgan. Ushbu meros orqali nafaqat go‘zal asarlar yaratilgan, balki ular xalqning ma’naviy qadriyatlarini, axloqiy me’yorlarini va ruhiy dunyosini shakllantirgan.

O‘zbekistonning tarixiy va madaniy merosi, ayniqsa, me’morchilik, an’anaviy musiqa, adabiyot, qo‘shiq va raqs orqali xalqning qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Me’morchilik san’ati juda qadimiy tarixga ega. Me’mor dahosi bilan yaratilgan ajoyib koshinkor saroylar, ehromlar, minoralar va boshqa mahobatli inshootlar insoniyat taraqqiyotining turli davrlaridan darak beruvchi noyob va bebaho hazinalar bo‘lib hisoblanadi. Masalan, qadimiy shaharlarda, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda joylashgan me’moriy yodgorliklar xalqning tarixiy, diniy va ma’naviy boyliklarini aks ettiradi. Bu yodgorliklar orqali xalqning madaniy qiyofasi, uning qadimiy an’analari, diniy e’tiqodlari va dunyoqarashi ko‘rsatilgan. O‘zbekistonning qadimiy yodgorliklari va tuproq osti qismi ulkan tarixiy muzey hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termez va boshqa shaharlardagi har bir arxitektura yodgorligi bir buyuk asar, nodir qo‘lyozmalar, xalq amaliy san’ati namunalari o‘zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo‘lganligidan dalolat beradi. Chunonchi, ota-bobolarimiz qurgan binolar, me’morlik obidalari ularning rang-barang bezaklari, geometric va o‘simliksimon naqshlar ularning kompozision tasviri zavq

olishga, tarbiyalanishga, ular orqali o‘z orzu-umidlarini, muhabbatlarini xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirilgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san’atining barcha turlari qadimiy davrlardan shu kungacha keng tarqalgan va aholi ehtiyojlarini qanoatlantirib kelgan. Xalqimizning tarixi, manaviy, madaniy o‘tmishi bilan bog‘liq bo‘lgan tasviriy va amaliy san’atlari juda ulkan qimmatga egadir. Sharq tasviriy va amaliy san’ati tarixi jahonning shu turkumdagi ijodiy merosining salmoqli qismi hisoblanadi. Xalqning ichki dunyosini, hissiyotlari tug‘yonini biror buyum, material yoki qog‘ozda bo‘yoqlar, ranglar va o‘ymakorlik asosida aks ettirish, san’atkorlik darajasida ifoda etish tasviriy va amaliy san’atning asosini tashkil etadi. Adabiyotda esa, O‘zbekistonning klassik shoirlari, masalan, Alisher Navoiy, Zulfiya va boshqa ulug‘ shoirlar o‘z asarlari orqali axloqiy saboqlarni, do‘stlik, muhabbat, adolat va halollik kabi qadriyatlarni targ‘ib qilishgan. Navoiy asarlari bugungi kunda ham odamlarni haqiqiylikka, samimiylikka va sadoqatga chaqiradi. Musiqa va raqs san’ati ham O‘zbekistonning ma’naviy merosida muhim o‘rin tutadi. An’anaviy qo‘shiqlar va raqslar xalqning hissiy dunyosini, quvonch va qayg‘u, muhabbat va umidsizlik kabi his-tuyg‘ularni ifodalaydi. Musiqa orqali bolalar va yoshlar o‘z ruhiy holatlarini tushunishga, boshqalar bilan muloqotda bo‘lishda hurmat va mehr-oqibatni o‘rganishga yordam beradi.

Teatr va drama san’ati ham xalqning axloqiy va ruhiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Teatr orqali xalqning tarixiy voqealari, an’analari va axloqiy ta’limotlari yangi avlodlarga yetkazilgan va ular o‘rganilgan. Shu tarzda, O‘zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosi xalqning ruhiy va axloqiy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, san’at orqali xalq o‘zining ichki dunyosini, qadriyatlarini va etika me’yorlarini shakllantirib kelgan. Bu meros nafaqat O‘zbekiston xalqining, balki butun dunyo madaniyatining ajralmas qismidir. O‘rta asrlarning mashhur olimlari va san’atchilari tomonidan yaratilgan asarlar nafaqat estetik maqsadlarni, balki insonning axloqiy qadriyatlarini, ijtimoiy mas’uliyatini va haqiqatga bo‘lgan qarashini o‘zida mujassam etgan. Yangi O‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyotida san’at omilini bevosita ajratib ko‘rsatish, ularni zamon talablariga mos ravishda yangilash va rivojlantirish ehtiyoji tug‘ildi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O‘quvchi-yoshlarni ta’lim-tarbiya tizimida yuksak madaniyatli, ma’naviy tafakkurga yega bo‘lgan sog‘lom fikrli qilib tarbiyalashning nazariy-tarixiy asoslari respublikamiz olimlaridan M.Quronov, O.Musurmonova, U.Mahkamov, D.Anvarova, Sh.Olimov, X.Xudoyqulov, Y.Yusupov, D.Anvarova, Z.Boytemirova, T.Saliyeva, A.Yerkayev, M.Mirzayev hamda Z.D.Boytemirovalar tomonidan o‘rganilgan [1; 20]. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan T.G.Nikishina, G.G.Azgaldov, A.I.Subetto, Ye.R.Rayxman, M.A.Vikulina, M.I.Bekoyeva, V.N.Fomin, N.V.Kultasheva, V.Belov, I.G.Salova, O.Y.Kojurova, N.A.Grishanova, M.V.Mironova, S.Merkulova, M.N.Nedvetskaya, M.G.Radjabov, B.Kachalovlarning tadqiqotlarida ta’lim tarbiya zaruriyati, tarbiyada ijtimoiy sheriklikni shakllantirish mexanizmlari turli darajada yoritilgan. Xorijlik olimlardan K.Yaspers (Isroil), Tomas Kun (AQSh), Fatimah Al Nasser (Buyuk Britaniya), Moore Jennifer, Riley Mishael W. (University of South Florida), Smit Todd G. (Missuri), Yelkins Christine (Kaliforniya), Manuel N. Ronse (Amerika), S.Nishikava (Yaponiya), T.Soorer (Avstraliya)larning ilmiy ishlarida shaxs tarbiyasining muhim xususiyatlari, madaniyatlararo baholash, ma’naviy-axloqiy tarbiya va unga ta’sir etuvchi omillarning nazariy-metodologik jihatlari o‘rganilgan [2; 19]. Tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, san’at va ma’naviy tarbiya uzluksiz tarbiya tizimining ajralmas qismi bo‘lib, u insonni nafaqat estetik go‘zallikni, balki axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni ham tushunishga va qadriga yetishga o‘rgatadi. San’at, musiqaning, she’riyatning, tasviriy san’atning va drama san’atining tarbiyaviy ahamiyati bolalar va yoshlarning fikrlashini, his-tuyg‘ularini, va xatti-harakatlarini shakllantiradi. San’at va ma’naviy tarbiya o‘rtasidagi bog‘liqlik juda kuchli. San’at, o‘zining turli shakllari orqali, insonning ichki dunyosini rivojlantirishga, uning his-tuyg‘ularini ifodalashga va ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, san’at asarlari odamlarni adolat, go‘zallik, muhabbat, tinchlik va insonparvarlik kabi ma’naviy jihatlarga yo‘naltiradi. San’at, nafaqat estetik go‘zallikni yaratish, balki insonning ichki dunyosiga chuqur ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega[3.24]. Masalan, musiqaning, she’riyatning, rasmning va teatrning insonni ruhiy jihatdan boyitish, unga yangi fikrlar va qarashlarni keltirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa ma’naviy tarbiyaning shakllanishiga yordam beradi, chunki san’at orqali biz odamlarning mehr-oqibat, sabr-toqat, va ijtimoiy mas’uliyat kabi ma’naviy sifatlarini rivojlantirishni o‘rganamiz. Bundan tashqari, san’at nafaqat ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishda, balki ularni hayotga tatbiq etishda ham katta ahamiyatga ega. Ma’naviy tarbiya va san’at o‘zaro bog‘liq bo‘lib, har biri bir-birini to‘ldirib, insonning umumiy ma’naviy va axloqiy rivojlanishiga yordam beradi[4.169]. San’at asarlari (masalan, she’rlar, musiqa, teatr) bolalar va yoshlarning fikrlash va his-tuyg‘ularini rivojlantiradi, ularni o‘zining ichki dunyosini anglashga, boshqalarga nisbatan mehr-shafqat va hamdardlikni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, san’at orqali bolalar va yoshlar o‘zlarini o‘ziga bo‘lgan hurmatni, o‘zligini anglashni va ijtimoiy me’yorlarga hurmatni o‘rganadilar.

Natijalar va muhokama. San’at, nafaqat estetik maqsadlar uchun, balki tarbiyaviy maqsadlar uchun ham muhim vosita hisoblanadi. San’at yosh avlodda nafosatni tarbiyalovchi vosita. Azal azaldan san’at shunday vazifani ado etib kelgan. Jumladan, tasviriy san’at sohasiga xam shu nuqtayi nazardan diqqat e’tibor qaratilishi bejiz emas. Yosh avlodni vatanga mehru sadoqat ruhida tarbiyalashda tasviriy san’atning am roli katta. Chunki san’at inson aql idrokigagina ta’sir etmasdan, balki uning qalbiga, his tuyg‘ulariga ta’sir etadi. Ajdodlarimiz, buyuk qomusiy olimlar o‘zlarining ilmiy va pedogogik qarashlarida barcha aniq fanlar qatori, san’at turlariga ham o‘zgacha mehr va ehtirom bilan munosabatda bo‘lishgan.

Masalan: **she’rlar va ertaklar** bolalarga axloqiy saboqlarni o‘rgatadi, yomon va yaxshilikni ajratish, adolatni qadriga yetish va boshqalar bilan hurmat bilan muomalada bo‘lishni o‘rgatadi.

To‘g‘ri, she’rlar va ertaklar bolalarga axloqiy saboqlarni o‘rgatishda juda samarali vositalar hisoblanadi. Ular nafaqat bolalarning tasavvurlarini boyitadi, balki ular uchun axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. She’rlar va ertaklar o‘zining o‘ziga xos uslubi, qahramonlari va voqealari orqali bolalarga to‘g‘ri va noto‘g‘ri, yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlikni ajratish imkonini beradi. Ertaklar, masalan, har doim yaxshilikni yengadigan yomonlikka qarshi kurashni tasvirlaydi [5.69]. Ular bolalarga qahramonlarning turli qiyinchiliklarga qarshi kurashayotganini ko‘rsatib, to‘g‘ri yo‘lni tanlashning ahamiyatini tushuntiradi. Yaxshi qahramonlar, odatda, adolatli, xushmuomalali va mehribon bo‘lishadi, ular boshqalarni hurmat qiladi va ularga yordam berishga tayyor. Shu tarzda, ertaklar bolalarga hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va adolatli bo‘lishni o‘rgatadi. She’rlar esa o‘zining qisqa va mazmunli shakli orqali axloqiy saboqlarni chuqur va samarali tarzda taqdim etadi. She’rlar bolalarning hissiy dunyosini o‘stirishga yordam beradi, ularga yaxshi va yomonni ajratish, do‘stlik va mehr-oqibat kabi tushunchalarni o‘rgatadi. She’rlar orqali bolalar o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashni, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishni va ularga hurmat bilan muomala qilishni o‘rganadilar. Bundan tashqari, she’rlar va ertaklar bolalarga hayotiy muammolarni yengish, og‘ir vaziyatlardan chiqish va jamoada ishlashda qanday yo‘l tutish kerakligini ko‘rsatadi. Ular orqali bolalar do‘stlik, sadoqat, haqiqatni sevish kabi axloqiy qadriyatlarni tushunib yetishadi va amalda qo‘llashga o‘rganadilar. Umuman olganda, she’rlar va ertaklar bolalarga axloqiy saboqlarni o‘rgatishda juda samarali vositalar bo‘lib, ular bolalar ruhiyatini va axloqiy saviyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Musiqa bolalar va o‘smirlar ruhiyatini boyitadi, ularga hissiy tushuncha va his-tuyg‘ularni ifodalash imkonini beradi. Musiqa nafaqat estetik go‘zallikni taqdim etadi, balki insonning hissiy dunyosini boyitadi, ichki kechinmalarini anglash va ifodalash imkonini beradi. Bu jarayon bolalar va o‘smirlarning ruhiy va hissiy rivojlanishiga yordam beradi. Musiqa, o‘smirlarning o‘z hissiyotlarini va fikrlarini aniq ifodalashga yordam beradigan vosita bo‘lib, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchlarini oshiradi. Ular musiqaning ritmi va melodiysi orqali o‘zlarining ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini anglab yetishadi va shu bilan birga boshqa odamlarning hissiyotlarini ham tushunishga o‘rganadilar. Shu tarzda, musiqa empatiya, sezgirlik va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Musiqa o‘zining turli janrlari orqali turli xil ruhiyat va hissiyotlarni aks ettiradi. Bolalar va o‘smirlar musiqaning xushyoqish, qayg‘u, quvonch yoki umidsizlik kabi his-tuyg‘ularni ifodalovchi asarlarini tinglash orqali o‘zlariga o‘xshash yoki boshqalarga xos kechinmalarni tushunishga intilishadi. Bu ularga o‘zlarini to‘g‘ri tushunish va boshqalarni hurmat qilishda yordam beradi. Musiqa shuningdek, bolalar va o‘smirlar uchun stressni kamaytirish, ruhiy barqarorlikni ta’minlash va emotsional balansni saqlashda ham foydali vosita bo‘lishi mumkin. Musiqa tinglash yoki ijro etish, xususan, o‘smirlar uchun muhim davrda, o‘z-o‘zini anglash va ichki kechinmalarni boshqarishdagi salbiy ta’sirlarni kamaytirishga yordam beradi. Umuman olganda, musiqa bolalar va o‘smirlarning hissiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi, ularning his-tuyg‘ularini tushunish va ifodalashga yordam beradi, shuningdek, ularning ruhiy holatini yaxshilaydi. Musiqa va qo‘shiqlar orqali ularning estetik dunyoqarashi shakllanadi; **Teatr va drama san’ati** yoshlarning empatiya qobiliyatini oshiradi, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish, ijtimoiy rollarni o‘ynash orqali dunyoqarashlarini kengaytiradi. Empatiya, ya’ni boshqa insonning his-tuyg‘ularini tushunish va ular bilan bog‘lanish qobiliyati, odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning poydevori hisoblanadi. Teatr va drama bu jarayonni kuchaytirish uchun juda samarali vositadir, chunki ular tomoshabinlarni turli xarakterlar va holatlar bilan tanishtirib, ularning nuqtai nazaridan dunyoni ko‘rishga yordam beradi. Teatr va drama asarlari ko‘pincha insonning turli hissiyotlarini, ichki kechinmalarini va turli hayotiy holatlarni tasvirlaydi. Bu orqali yoshlar boshqa odamlarning tajribalari va hissiyotlariga yanada chuqurroq tushuncha hosil qiladilar. Masalan, biror bir xarakterni sahnada o‘ynash orqali yoshlar o‘zlarini boshqalarning o‘rnida his qilishni o‘rganadilar, bu esa ularning empatiya qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, teatr va drama san’ati yoshlarni ijtimoiy muammolarni, insoniy qadriyatlarni va turli xil ijtimoiy rollarni ko‘rib chiqishga undaydi. Bu orqali ular nafaqat o‘z his-tuyg‘ularini, balki boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini ham anglashni va ularni hurmat qilishni o‘rganadilar. Bu esa ijtimoiy aloqalarni yanada mustahkamlashga, muloqotda yanada mehribon va tushunarlilikni yaratishga olib keladi. Umuman olganda,

teatr va drama yoshlarning empatiya qobiliyatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi, chunki bu san’at shakllari orqali ular o‘zlarini boshqa odamlarning nuqtai nazaridan ko‘ra olishadi va ularning hissiyotlarini tushunishga intilishadi.

San’at va ma’naviy tarbiyani uzluksiz ta’lim tizimida muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qancha metodlardan foydalanish mumkin:

1.**Interaktiv metodlar**: Bolalar va yoshlar san’at asarlarini ko‘rib, tinglab, o‘z fikrlarini aytishlari mumkin. Bu metod ularning o‘ylash va his-tuyg‘ularini ifodalashga yordam beradi.

2.**Didaktik faoliyat**: San’atni o‘rganishda o‘yinlarni qo‘llash bolalarga yangi tushunchalarni o‘rganishga yordam beradi, shu bilan birga ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlaydi.

3.**Qiyoslash va tahlil qilish**: San’at asarlarini tahlil qilish orqali bolalar va yoshlar voqealarni, personajlarni tahlil qilishni va ularning harakatlarini tushunishni o‘rganadilar.

4.**San’at ko‘rgazmalari va teatri**: Bolalar va o‘smirlar badiiy asarlarni bevosita ko‘rish va ular bilan tanishish orqali estetik va ma’naviy qadr-qimmatlarni his qilishlari mumkin.

San’at va ma’naviy tarbiya jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Badiiy ta’limning maqsadi – ma’naviyatli va adolatli jamiyatni shakllantirishdir. San’at, ayniqsa yoshlar orasida, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlarga bo‘lgan hurmatni rivojlantiradi. Bu orqali yoshlar o‘zini jamiyatning faol a’zosi sifatida his qilishadi va ijtimoiy mas’uliyatni tushunishadi.

Xulosa. Uzluksiz tarbiyada san’at va ma’naviy tarbiya bir-birini to‘ldiradigan va yuksaltiradigan omillar sifatida qaraladi. San’at, estetik va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda beqiyos vosita bo‘lib, nafaqat bolalar va yoshlar uchun, balki jamiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega. San’atni ta’lim tizimiga kengroq tatbiq etish, kelajakda ma’naviy rivojlangan, axloqan to‘g‘ri shakllangan va estetik go‘zallikni tushunadigan jamiyatni yaratishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Uzluksiz tarbiyada san’at va ma’naviy tarbiya muhim pedagogik va ijtimoiy vazifalarni bajaradi. San’at, estetik go‘zallikni anglash bilan birga, bolalar va yoshlar orasida axloqiy, ma’naviy qadriyatlarni rivojlantiradi. Bu jarayon orqali yoshlar nafaqat o‘z hissiy dunyosini rivojlantiradi, balki jamiyatdagi ijtimoiy me’yorlarga bo‘lgan hurmatni ham o‘rganadilar. Uzluksiz tarbiya tizimida san’at va ma’naviy tarbiya o‘zaro birlashib, farovon va ma’naviyatli jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010 y. 180-b.
2. Hasanboyeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi. – T.: 2008. 303-b.
3. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010 -y. 198-b.
4. Y.D.Maxamadaliyevna, M Matmusayeva. On Lingvofolcloristic Units. International Journal of Culture and Modernity 11, 169-171.
5. Y.D.Maxamadaliyevna. Use of presidential names in uzbek children’s texts. 2022, 68-70.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA O‘QUVCHILARDA AXLOQIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH JARAYONINING ILMIY VA NAZARIY ASOSLARI

Hasanova Bo‘rigul Hasan qizi,
Navoiy davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi tayanch doktoranti
hasanova555@gmail.com

Ushbu maqolada muallif axloqiy dunyoqarash tushunchasi, o‘quvchilarda axloqiy dunyoqarashning nazariy asoslari va bu sifatni shakllantirishni o‘ziga xos ko‘rinishlari tariflangan. Axloq shaxsni ichki ehtiyojlarni aks ettirishning tarbiyaviy ko‘rinishi bo‘lishi, axloqiy tarbiya tasodifiy emas balki, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va tizimli bir ko‘rinishda shaxsga tasir etish asosida shakllantirish va axloqiy dunyoqarashni shakllantirish innovatsion ta’limni rivojlantirishning asosiy o‘zagi ekanligini bog‘lab tahlil qiladi. Nazariy qarashlar amaliy misollar bilan boyitiladi. Bu qarashlar esa o‘zida o‘qituvchi va tarbiyachining shaxsiy pozitsiyasi, ularning ma’naviy jihatdan namunadorligi, muloqot madaniyati hamda hozirgi zamon yondashuvlarga tayangan didaktik yechimlarini bir joyga jamlaydi. Bu kabi ma’naviy qarashlarni amalda qo‘llash inson axloqiy sifatlarni shakllantirishning nazariy asosidir.

Kalit so‘zlar: *axborot oqimi, axloq, madaniyat, ichki motivatsiya, ijtimoiylashish, hayotiy pozitsiya, ehtiyoj, tarbiya, kommunikativ madaniyat, axloqiy mezonlar, axloqiy dunyoqarash,*

НАУЧНЫЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ НРАВСТВЕННОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

В данной статье автор рассматривает понятие нравственного мировоззрения, теоретические основы формирования нравственного мировоззрения у учащихся и его особенности. Нравственность представляется как воспитательная форма выражения внутренних потребностей личности; нравственное воспитание — это не случайный процесс, а целенаправленное и систематическое воздействие на личность. Автор связывает формирование нравственного мировоззрения с развитием инновационного образования как его ключевой составляющей. Теоретические взгляды подкрепляются практическими примерами. Эти взгляды объединяют личностную позицию учителя и воспитателя, их нравственный пример, культуру общения и дидактические решения, основанные на современных подходах. Применение подобных нравственных взглядов на практике является теоретической основой формирования нравственных качеств личности.

Ключевые слова: *Поток информации, мораль, культура, внутренняя мотивация, социализация, жизненная позиция, потребность, воспитание, коммуникативная культура, нравственные нормы, нравственное мировоззрение.*

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF THE PROCESS OF FORMING MORAL WORLDVIEWS IN STUDENTS IN THE INFORMATION SOCIETY

In this article, the author defines the concept of moral worldview, the theoretical foundations of forming a moral worldview in students, and its specific characteristics. Morality is presented as an educational reflection of a person's inner needs; moral education is not a random process but a purposeful and systematic influence on the individual. The author analyzes the idea that forming a moral worldview is a core component in the development of innovative education. Theoretical views are enriched with practical examples. These views encompass the personal position of teachers and educators, their moral integrity, communication culture, and didactic solutions based on modern approaches. The practical application of such moral views constitutes the theoretical foundation for the formation of moral qualities in a person.

Keywords: *information flow, morality, culture, internal motivation, socialization, life position, need, upbringing, communicative culture, moral standards, moral worldview.*

Kirish. XXI asr insoniyat hayotida misli ko‘rilmagan darajadagi o‘zgarishlar va taraqqiyotlar asri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, bu davrda axborot oqimi mislsiz darajada kuchayib, turli xatarlarga, ayniqsa, ma’naviy-axloqiy sohadagi tahdidlarga sabab bo‘lmoqda. Buning natijasida ayrim xalqlarning axloqiy qadriyatlari o‘zgarishga uchrab, ba’zilarining esa butunlay yo‘qolib ketish xavfi yuzaga kelmoqda. Bunday murakkab sharoitda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni yosh avlod ongiga

singdirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Axborot urushi avj olgan, mafkuraviy kurash keskin tus olgan hozirgi davrda biz yoshlar ongini zaruriy bilim va tarbiya asosida shakllantirishimiz, ularni milliy g‘urur, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashimiz lozim. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Markaziy Osiyo yoshlari o‘rtasida doimiy fikr almashuv maydonlarini shakllantirish, o‘zaro do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlash, ajdodlardan meros bo‘lib qolgan yuksak axloqiy va ma’naviy boyliklarni asrash, ularni zamonaviy talablarga mos holda rivojlantirish va keyingi avlodlarga yetkazish bugunning eng muhim vazifalaridandir.

Aborotlar bilan to‘la bugungi zamonda o‘quvchilarga har tomondan ma’lumotlar oqimi kelmoqda. O‘sib kelayotgan yosh avlod bu ma’lumotlardan ijobiy va salbiy ma’lumotlarni anglamasdan qabul qilmoqda va hayotiga tadbiq qilishda davom etmoqda. Har qanday axborot insonma ma’naviyatini o‘zgartirmasdan qolmaydi. Quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni nazarda tutuvchi Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

- yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;
- yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash; [1] kabi yo‘nalishlarni belgilab olinganligi va uni amaliyotga tadbiq qilish chora tadbirlari ishlab chiqilib joriy qilinishi ushbu muammoning dolzarb ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Asosiy qism. Axloq – bu insoniy ongning ijtimoiy shakllaridan biri bo‘lib, u kishilarning kundalik xatti-harakatlari, o‘zini tutish madaniyati, yashash uslubi, hayotga munosabati, qadriyat va qoidalari, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar mazmunini yoritadi. Shu bois axloq, jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy hayotida muhim o‘rin tutuvchi noyob ijtimoiy hodisa sifatida e’tirof etiladi. Har bir xalqning o‘ziga xos qiyofasi, dunyo sivilizatsiyasidagi tutgan o‘rni va roli aniqlanadigan jarayonlarda axloq mezon sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur tushuncha dastlabki ijtimoiy tuzumlardan boshlab, jamiyatda jamoatchilik fikri orqali faoliyatni tartibga soluvchi mexanizm sifatida shakllangan. Qadimdan buyon ijtimoiy-falsafiy, ruhiy-ma’naviy, pedagogik, tarixiy, adabiy, etnografik hamda madaniy tadqiqotlarda bu tushuncha keng ko‘lamda qo‘llanib kelmoqda. Axloq (arabcha “xulq-atvor” degani) – ijtimoiy ong turlaridan bo‘lib, u muayyan qoidalar tizimini ifodalaydi. Ushbu qoidalar jamiyat hayotining barcha yo‘nalishlarida insonlar faoliyatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloqning o‘ziga xosligi shundaki, u ta’lim, ishlab chiqarish yoki urf-odatlar singari faoliyat sohalarida ham o‘z talablarini jamoa fikriga asoslangan holda shakllantiradi va hayotga tadbiq etadi.

O‘quvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon bo‘lib, Ushbu jarayon-da quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:1. O‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy me'yorlar hamda axloqiymunosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot beriladi.2.O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy bilimlarnilegallashga bo‘lganehtiyojni yuzaga keltirish, ma’naviy-axloqiy ongni qaror toptirish .3. O‘quvchilarda ijobiy mazmundagi ma’naviy-axloqiy sifatlar(bilimlilik,mehnatsevarlik,kamtarlik, mehr-muhabbat, vatanga,xalq-qa muhabbat, ota-ona va kattalarga hurmat, insonparvarlik, saxovat,burchga sadoqat va hokazo)larni qaror toptirish.4. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy mazmundagi xulq-atvor,xarakter va irodani shakllantirish.5.O‘quvchilar ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish. [2] Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish — bu tasodifiy jarayon emas, balki aniq maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli yondashuvni talab etadigan murakkab pedagogik faoliyatdir. Bu jarayonda faqatgina axloqiy tushunchalar berib qo‘yilmaydi, balki ularni ongli ravishda qabul qilishga undovchi ichki motivatsiya uyg‘otiladi. Tarbiya natijasida o‘quvchilarda jamiyat tomonidan qadrlanadigan ijobiy xulqiy fazilatlar, mustahkam iroda, barqaror xarakter shakllanib boradi. Eng ahamiyatlisi, o‘quvchi o‘zini keng jamoatchilikning faol va mas’uliyatli a’zosi sifatida anglaydi hamda o‘z harakatlari orqali ijtimoiy qadriyatlarni amaliyotda aks ettira oladi. Shu tarzda, ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasida o‘quvchining ichki dunyosi bilan tashqi xulqi o‘zaro uyg‘un holga keladi.

Odam bolasining rivojlanishi bu muhim jarayon sanaladi. Ma’lumki, hayot davomida inson jismoniy va ruhiy tomondan o‘zgarib boradi. Lekin bolalik, o‘smirlik va o‘spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo‘ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o‘sishi, o‘zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta’sir etishi natijasida bola jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi. [3] Inson shaxsining shakllanishi — bu hayot davomida ro‘y beradigan murakkab hamda muhim jarayonlardan biridir. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, inson butun umri davomida nafaqat tanaviy, balki ruhiy va ma’naviy-axloqiy jihatdan ham o‘zgarib boradi. Ayniqsa, chaqaloqlik, o‘smirlik va voyaga yetish davrida bu o‘zgarishlar

ancha tez va chuqur kechadi. Shu bosqichlarda bola nafaqat jismonan o‘sadi, balki uning tafakkuri, his-hayajonlari va ijtimoiy tasavvurlari va dunyoqarshlari shakllanadi.

O‘quvchilarning nuqtayi nazarlari ularning dunyoqarashlariga bevosita bog‘liqdir. Inson ijtimoiylashishi va ijtimoiy hayotda faol harakat qilishi uchun o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lishi lozim. O‘quvchilar o‘z dunyoqarashlari, atrof-olamga munosabatlari, o‘zlari, o‘zgalarining xususiyatlari, ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglashlari, o‘z oldilariga aniq maqsad va vazifalar qo‘yishlari, ularga erishish yo‘lida harakat qilishlari kerak. Dunyoqarash – tamoyillar, nuqtayi nazarlar, moddiy borliqqa nisbatan qat’iyatli munosabatni aniqlash usullarining mujassamlashgan shaklidir. Dunyoqarash yordamida shaxsning tabiat va jamiyatga nisbatan qarashlari, nuqtayi nazarlari ifodalanadi. O‘quvchi dunyoqarashi yordamida olamni idrok etadi va o‘zining jamiyatdagi o‘rnini anglaydi. Shu bilan bir qatorda, o‘zini o‘rab turgan moddiy borliqqa va o‘z-o‘ziga munosabatini belgilaydi. Shuningdek, o‘quvchi dunyoqarashida jamiyat a’zolarining hayotiy nuqtayi nazarlari, turmush kechirish qoidalari, qat’iyatlari, idealari, maqsadlari, bilish tamoyillari va faoliyati, qadriyatli yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi o‘z ifodasini topadi. Shaxsning dunyoqarashida uning obyektiv borliqqa nisbatan ma’naviy-amaliy munosabat usuli namoyon bo‘ladi. Dunyoqarash yordamida o‘quvchilar moddiy borliqning mazmun-mohiyati va uni o‘zlashtirish yo‘llarini ham anglaydilar. Dunyoqarashda inson hayotining borliqni aniqlashga xizmat qiladigan tamoyillari aks etadi. V.A. Solovyevning ta’kidlashicha, dunyoqarash inson hayotining dasturlashtirilgan, chuqur o‘ylangan rejasi bo‘lib, u shaxsning hayot tarzini ham ifodalaydi. Dunyoqarashning tarkib topishi esa, inson hayotining mazmuniga bog‘liqdir. Dunyoqarash shaxsning muayyan mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan o‘quv hamda amaliy faoliyati natijasida tarkib topadi. Demak, o‘quv faoliyati natijasida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash shakllanadi. O‘quvchilar o‘z ixtiyorlari va imkoniyatlari doirasida mujassamlashgan bilimlarni o‘zlashtiradilar va ular ustida fikrlay boshlaydilar. Haqiqat ma’nosini anglashga bo‘lgan ehtiyoj tufayli o‘quvchilar o‘z hayotlarini anglashga intiladilar va uni hodisalar jarayoni emas, balki maqsadli jarayon sifatida tashkil etishga harakat qiladilar. [4]

O‘sib kelayotgan yosh avlodda axloqiy qarashlarning shakllanishi ularning ijtimoiy muhitdagi faol ishtirokini belgilovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Axloqiy dunyoqarash insonning hayotga nisbatan ongli munosabatini belgilovchi, shaxsiy qadriyatlar va tanlovlar asosida tarkib topuvchi ichki ehtiyoj sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon orqali o‘quvchilar nafaqat mavjud axloqiy mezonlarni o‘zlashtiradilar, balki hayotiy voqeliklarni anglab, o‘z tutum va qarorlarini ma’naviy mezonlar asosida shakllantirishga harakat qiladilar. Shuni alohia takidlash kerakki, axloqiy dunyoqarashni shakllantirish faqat ta’lim-tarbiya doirasidagi faoliyat bilan cheklanmasdan, balki o‘quvchining mustaqil tafakkuri, ma’naviy izlanishi va hayotiy pozitsiyasini belgilash bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunday yondashuv shaxsning ichki dunyosi, hayotga bo‘lgan yondashuvi va ijtimoiy faoliyati uyg‘unlashuvini ta’minlaydi.

Ma’naviy axloqiy tarbiya - bu insonning ichki dunyosini shakllantirish va uning axloqiy qoidalariga, e'tiqodlariga va qadriyallariga asoslangan tarbiya jarayonidir. Bu tarbiya nafaqat tashqi xulq-atvorni, balki insonning ichki tuyg‘ulari, ehtiroslari,ma’naviy qadr-qimmatini ham shakllantiradi. Manaviy va axloqiy tarbiya insonning dunyoqarashini,turmush tarzini,ijtimoiy munosabatlarini va atrofidagi odamlarga bo‘lgan munosabatlarini belgilaydi. Manaviy axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadlari: Insoniy qadriyatlami shakllantirish: Har bir insonning badiiy va ma’naviy dunyosini rivojlantirish, unga o‘zining yuksak axloqiy va ma’naviy mas'uliyatini tushuntirish. Axloqiy xulq-atvorni tarbiyalash: Odamlarni axloqiy jihatdan to‘g‘ri, ijobiy va jamiyatga foydali xulq-atvorni ko‘rsatish va uni amalda qo‘llashga o‘rgatish. ljtimoiy muhitga moslashish:Insonga ijtimoiy muhitda to‘g‘ri va o‘rinli xulq-atvorni namoyon etish, jamiyatda o‘z o‘rnini to‘g‘ri topish va boshqalar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatish. [5]

O‘quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda o‘qituvchi va ota-onalar bir qator yo‘lardan foydalangan holda ish yuritsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shaxsiy namunadorlik orqali tarbiya: O‘qituvchi va ota-onalarning kundalik hayotidagi ijobiy xatti-harakatlari, odobli muomalasi, halolligi va adolatli qarorlari o‘quvchilar uchun tabiiy axloqiy saboqlardir. Axloqiy fazilatlar faqat og‘zaki targ‘ibot emas, balki amaliy namunada ko‘rsatilgandagina chuqurroq singadi. Tarixiy shaxslar va milliy qahramonlar hayotini o‘rganish: O‘zbek xalqining tarixiy merosida ma’naviy yuksak shaxslar – jadidlar, mutafakkirlar, olimlar va shoirlarning hayoti orqali o‘quvchilarga axloqiy saboqlar berish. Bu esa ularning dunyoqarashini tarixiy ildizlarga tayangan holda shakllantiradi. Hayotiy vaziyatli rolli o‘yinlar va muhokamalar: O‘quvchilarga real hayotdagi axloqiy muammolar bilan bog‘liq rolli o‘yinlar tashkil etish va ularni mustaqil ravishda yechishga undash orqali ularning tahliliy fikrlash qobiliyati va axloqiy qaror qabul qilish salohiyati rivojlanadi. Badiiy adabiyot va kino asarlari asosida muhokama: O‘quvchilar bilan axloqiy mavzularda yozilgan hikoya, roman, drama yoki film tomosha qilgandan so‘ng, asosiy g‘oyalar, obrazlar xatti-harakati ustida muhokama o‘tkazish, ularning ichki dunyosida fikrlash va baholash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shaxsiy o‘zgarish kundaliklari yuritish: Har bir o‘quvchi o‘z axloqiy yutuqlari, xatolari, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlari

ustida fikr yuritadigan maxsus kundalik yuritadi. Bu orqali o‘quvchi o‘zini anglashga va o‘z ustida ishlashga o‘rganadi. Axloqiy mavzulardagi erkin ijodiy topshiriqlar: She’r yozish, maqola tayyorlash, rasm chizish yoki sahna ko‘rishi tuzish orqali o‘quvchilar o‘z ichki kechinmalarini ijod orqali ifoda etadilar. Bu esa ularning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini mustahkamlovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Axloqiy tarbiya tarbiyalanuvchining yoshi va uning to‘g‘ri yo‘nalish olishi uchun hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan muhitni (oila,o‘rtoqlar va do‘stlar muhiti) ham hisobga olganda shaxsning butunhayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaningyo‘l va usullari talabalarga axloqiy saboq berish kabi maxsus ishnitashkil qilishda alohida xususiyatga ega. Axloqiy tasavvurlar,qarash,mulohaza, baho berish kabi tushunchalarni shakllantirishga va shuasosida axloqiy e'tiqodni yuksaltirishga ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni:-talabaarni o‘zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilishlariva boyitishlariga yordam beradi;-turli manbaalarda axloq to‘g‘risida olingan bilimlarni sinaydi;-shaxsning o‘zini axloqiy tarbiyalashga zamin yaratadi. [6]

Ushbu jarayon shaxsning butun hayoti davomida, ayniqsa tarbiyalanuvchining yoshi, atrof-muhit — oila, tengdoshlar va do‘stlar muhitiga bog‘liq holda faol amalga oshadi. Bu omillar shaxsning axloqiy yo‘nalishini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagogik nuqtayi nazardan, axloqiy tarbiya faqat nazariy saboqlarga tayanmay, balki talabalarga axloqiy qadriyatlarni amaliy tajribalar orqali singdirish, ularni o‘z shaxsiy tajribasini anglash va boyitishga undash orqali samarali tashkil etiladi. Axloqiy tasavvur, qarash, baholash va mulohaza qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish tarbiya jarayonining asosiy yo‘nalishidir. Bu esa, talabalarda axloqiy e’tiqodning shakllanishiga, o‘zini tarbiyalash madaniyatining ortishiga olib keladi. Talaba shaxsining axloqiy o‘sishi uchun pedagog, bir tomondan, ijtimoiy muhit bilan muloqotni samarali tashkil etishi, ikkinchi tomondan, axloqiy bilimlarni turli manbalar orqali boyitishga yo‘naltirilgan faoliyatni shakllantirishi lozim. Shuningdek, talabalarni hayotiy vaziyatlarda mustaqil axloqiy qaror qabul qilishga o‘rgatish, ularga o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy baho berish imkonini yaratish ham muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Shunday qilib, axloqiy tarbiya — bu talabaning ichki dunyosini boyitish, uning mustaqil, mas’uliyatli va ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga yo‘naltirilgan murakkab, lekin nihoyatda zarur pedagogik jarayondir.

Abu Rayhon Beruniylar o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o‘qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya’ni, u o‘zi ega bo‘lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o‘rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo‘la oladi. [7] Buyuk mutafakkirlarimizning har bir bergan ilmiy tavsiyalari samarali amaliy ahamiyatga ega. O‘quvchilar o‚qituvchini o‘z idealidagi shaxs sifatida ko‘radi. O‘qituvchi tashqi ko‘rinish, harakat, bilim pedagogik texnikani o‘z o‘rnida qo‘llay olishi, ma’naviy dunyoqarashi jihatidan boshqalarga shaxsiy namuna bo‘ladi. Haqiqiy o‘qituvchi doim o‘zini nazorat qiladi va o‘quvchilardan axloqiy sifatlarni shakllantirishini talab qilaoladi. Mana shunday vaziyatda maqsad o‘z ijobiy natijasini beradi.

Tarbiya ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi subyektiv va obyektiv omillar ko‘zga tashlanadi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, munosabatlari mazmunini tushunishga yordam bersa, obyektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. [8] Tarbiya jarayoni pedagogika fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, shaxsning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi, ijtimoiy qadriyatlar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi orqali rivojlanishini ta’minlaydi. Mazkur jarayon ikki asosiy turdagi omillar – subyektiv va obyektiv omillar ta’sirida kechadi. Ilmiy manbalarda tarbiya shaxsning ijtimoiylashuvi va kamolotiga xizmat qiluvchi kompleks ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida talqin etiladi Tarbiya samaradorligi aynan ushbu ikki omilning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Pedagogik jarayon individual yondashuvga asoslangandagina subyektiv omillar faollashishini, shaxs esa tashqi ta’sirni ijobiy qabul qilishini ta’kidlaydi. Zamonaviy konstruktivistik yondashuv shaxsiy tajribani markazga qo‘yadi. Bu esa tarbiyada individual strategiyalarni ishlab chiqish va subyektiv omillarni inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Axloqiy madaniyatning bosh maqsadi esa insonni haqiqatga olib borish, uni komil shaxs sifatida tarbiyalash masalasidir. Shu asnoda axloqiy madaniyat ijtimoiy hayot bilan bevosita munosabatga kirishadi. Axloqiy madaniyatni rivojlantirish bu sohada dunyo xalqlari to‘plagan tajribalarini o‘rganish va ijtimoiy hayotga tadbiq etish dolzarblik kasb etadi. [9] Bilamiz jamiyat oilalardan tashkil topgan. Biz qachon shu oilalardagi ma’naviy kamchiliklarni bartaraf qilsak shunda davlat ham ma’naviy va ijtimoiy jihatdan rivojlanadi.

Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo‘ladi. Nima uchun davlatimiz rahbari aynan yoshlar masalasiga alohida urg‘u bermoqda? Davlatimiz rahbari nufuzli xalqaro tashkilotlar minbarlaridan turib, jahon hamjamiyatini yosh avlod turli buzg‘unchi g‘oyalar va radikal guruhlarga qo‘shilib ketishining oldini olishga chaqirmoqda. Asosiy e’tiborni ma’rifatga,

yoshlarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga qaratish lozimligini jonkuyarlik bilan ta’kidlamoqda. Bu bejiz emas, albatta. «Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi», deydi donishmandlar. [10] Yuqorida keltirilgan tarbiyaviy qarashlar chuqur ilmiy ahamiyatga ega nodir bilimlar majmuasidir. Yoshi ulug‘ insonlar, ota-onalar va ustozlar o‘zlarini jamiyatda qanday ko‘rsatsa yoshlar o‘zlarini shunga o‘zlari xoxlamasdan taqlid qilib qolganini bilmay qoladi. Har bir inson nazariy gaprib amalda o‘z isbotini ko‘rsatishi bu jamiyat rivojlanishining ilk bosqichidir.

Muhokamalar va natijalar. Axloqiy dunyoqarash — bu insonning o‘zini va atrofdagi borliqni baholashdagi mezoni, ichki “yo‘l xaritasi”dir. Bugungi zamonaviy ta’lim bu tushunchaga endilikda oddiy tarbiya vositasi sifatida emas, balki shaxsga xos ruhiy-axloqiy struktura sifatida yondashishni taqozo etmoqda.

1. Axloqni faqat qoidalar emas, ichki ehtiyoj sifatida ko‘rish

Ko‘plab yondashuvlarda axloq qoidalar yig‘indisiga keltirib qo‘yiladi. Aslida esa u insonning o‘zini anglashi, qarorlar ortidagi sabablarni tushunishi va javobgarlikni his qilishi bilan chambarchas bog‘liq. Bunday qarash o‘quvchini “qarshilik ko‘rsatuvchi” emas, “axloqiy tanlov qiluvchi” shaxsga aylantiradi.

2. Dunyoqarashning ijtimoiy emas, shaxsiy ildizlari

Dunyoqarash ko‘pincha ijtimoiy ta’sir natijasi sifatida baholanadi. Biroq, bu tushuncha har bir shaxsning hayotiy yo‘li, kechinmalari va fikrlash uslubidan oziqlanadi. Har bir o‘quvchining dunyoqarashi noyob bo‘lib, unga axloqiy mezonlarni shaxsiy kontekstda yetkazish samaraliroq bo‘ladi.

3. Pedagogning roli: me’yorni o‘rgatuvchi emas, yo‘l ko‘rsatuvchi

Zamonaviy pedagog endi faqat tarbiyachi emas — u yo‘l ko‘rsatuvchi, tahliliy savollar beruvchi, muhokama ochuvchi shaxsdir. O‘quvchida tayyor javoblar emas, muammolarni tushunish va o‘z nuqtayi nazarini asoslash ko‘nikmasini shakllantirish ustuvor bo‘lishi zarur.

4. Axloqiy tafakkur: o‘rganiladigan bilim emas, rivojlanadigan jarayon

Axloqiy dunyoqarashni shakllantirish uzluksiz, murakkab va o‘zgaruvchan jarayondir. Unda quyidagi yondashuvlar muhim o‘rin tutadi:

Aks ettiruvchi topshiriqlar: shaxs o‘z harakati ustida fikr yuritishga undaladi.

Vaziyatli muammolar: real hayotiy vaziyatlarda tanlov qilish orqali axloqiy qarorlar mustahkamlanadi.

Tarixiy shaxslar biografiyasi: axloqiy ideal bilan real hayot o‘rtasidagi tafovutni tushunishga yordam beradi.

Ijodiy mashqlar va esse: o‘z fikrini ifodalash orqali ichki dunyo bilan ishlash imkonini beradi.

5. Axloqiy dunyoqarash — innovatsion ta’limning bir bo‘lagi

Zamonaviy ta’limda kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va kreativlik (4K) asosiy mezon sifatida qaralayotgan bir vaqtda, axloqiy dunyoqarash ularning barchasini mohiyatan birlashtiruvchi ichki asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim muhitida o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish nafaqat tarbiyaviy jarayonning bir qismi, balki inson kapitalini shakllantirishning strategik omili sifatida qaralmoqda. Ushbu tadqiqot davomida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning jamiyatning barqaror taraqqiyotidagi tutgan o‘rni, shuningdek, u orqali shaxsda ijtimoiy mas’uliyat, ruhiy barkamollik va axloqiy qarashlarning shakllanishi chuqur tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchi shaxsining ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol topishi tasodifiy emas, balki ongli tarzda yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan pedagogik faoliyat natijasidir. Bu faoliyat esa o‘zida o‘qituvchi va tarbiyachining shaxsiy pozitsiyasi, ularning ma’naviy namunadorligi, kommunikativ madaniyati hamda zamonaviy yondashuvlarga tayangan didaktik yechimlarini mujassamlashtiradi.

Mazkur izlanishlar asosida aniqlanganki, o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda milliy o‘zlik, tarixiy xotira va xalqning urf-odatlariga tayanish bilan bir qatorda, global axloqiy mezonlarni inkor etmagan holda integrativ yondashuv zarur. An’anaviy tarbiya metodlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, ayni paytda o‘quvchi shaxsini jamiyatdagi rolini anglashga yo‘naltirish – samarali natijalarga olib keladi.

Ushbu ilmiy maqolada ilgari surilgan nazariy va amaliy tavsiyalar orqali maktab ta’limida ma’naviy-axloqiy tarbiyani yanada samarali yo‘lga qo‘yish mumkin. Eng muhimi, tarbiyani darslik va mashg‘ulot doirasidagina cheklab qo‘ymasdan, uni o‘quvchining butun hayot faoliyatiga singdirish, uning fikrlash uslubiga, qaror qabul qilish malakasiga ta’sir qiluvchi doimiy va jarayonli holat sifatida ko‘rish lozim.

Shunday qilib, o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish bu – kelajakka investitsiya bo‘lib, u faqatgina bilim emas, balki shaxsiy fazilatlar bilan boyitilgan barkamol avlodni tarbiyalashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Axloqiy dunyoqarash — bu o‘quvchining ongli tanlovi, ichki holati va tashqi harakatlarining uyg‘unligidir. Bu tushunchani ta’limda chuqurroq va shaxsiylashtirilgan tarzda

yondashish, o‘quvchini kelajakka tayyorlashda eng ishonchli yo‘llardan biri sanaladi. Chunki axloqiy qaror qabul qila oladigan shaxs – bu nafaqat bilimdon, balki mas’uliyatli, halol va ongli fuqaro demakdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezdentining Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida 14.08.2018 yildagi PQ-3907-son1 -bet

2. Hasanboyev J,To Hasanboyev.J,To‘raqulov X.A, Alqarov I.SH, Usmanov N.O‘. Pedagogika - Toshkent 2011,215-bet

3.Mavlonova R, To‘rayeva O, Xoliqberdiyev K. Pedagogika-T.: O‘qituvchi, 2010– 19-bet

4. Atakulova. N. A-Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish tizimi mavzusida (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya-Namangan 2019, 25-bet

5. Karshiyev J.A.O‘quvchilarni tarbiyalashda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tutgan o‘rni- Ilmiy-nazariyvametodikjurnal Научно-теоретический и методический журнал Scientific theoretical and methodical journal-120-127 bet

6. Hasanboyev J, To‘raqulov X.A, Usmanov N,O‘, Pedagogika- Toshkent-2011, 224-bet

7. Saidnazarova G.B, Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi -“kamolot” nashriyoti Buxoro-2024,191-198 bet.

8. Axatova D.A,.Xodjiyeva F.O,.Aminova F.X, Pedagogika nazariyasi va tarixi-Navoiy-2023-208 bet

9. Supiyev Sh., Shukurov N.N. Yoshlarning ma’naviy – axloqiy tarbiyasini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari - Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 4/2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 -557-bet

10. Xolnazarova Dildora Mamatmuratovna, Tangirberdiyev Sherzod Gapparovich, Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va huquqiy tarbiyalashga tayyorlash tizimi-2 th International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Berlin, Germany https://conferencepublication.com April 30th 2021-170-bet.

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA VATAN RAVNAQI G‘OYASINING IFODALANISHI

Raximbayev Jo‘rabek Sobirovich,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
raximbayevjorabek96@gmail.com

Ushbu maqola o‘zbek adabiyotining zabardast vakili, “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoniga sazovor bo‘lgan Muhammad Yusuf ijodiga bag‘ishlangan. Unda shoirning Vatanni ulug‘lash, xalqqa muhabbat, milliy g‘urur va samimiylik ruhidagi she’riy asarlari tahlil qilinadi. Muhammad Yusufning “Vatanim”, “Xalq bo‘l, elim”, “Tilak”, “Dunyo” kabi she’rlari milliy o‘zlikni anglash, yurtga muhabbat va sadoqatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgani ta’kidlanadi. Maqolada shoirning o‘ziga xos poetik uslubi, badiiy tasvirlar orqali Vatan obrazini jonlantirishdagi mahorati, uning she’rlari orqali xalq qalbida o‘chmas iz qoldirgani chuqur ochib berilgan. Shuningdek, Muhammad Yusuf ijodi orqali mustaqillik yillarida o‘zbek she’riyati erishgan yutuqlar, shoirning fidoyi shaxsiyati va samimiy qalb so‘zlari bilan xalq e’tiborini qozongani yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek adabiyoti, vatanparvarlik, she’riyat, milliy g‘urur, ma’naviyat, samimiylik, ona yurt, istiqlol adabiyoti, xalq shoiri, vatan timsoli, milliy o‘zlik.*

THE REFLECTION OF THE IDEA OF NATIONAL PROSPERITY IN MUHAMMAD YUSUF'S POETRY

This article is dedicated to the literary legacy of one of the prominent figures of Uzbek literature, Muhammad Yusuf, who was awarded the honorary title of “People’s Poet of Uzbekistan.” It analyzes the poet’s lyrical works, which are deeply imbued with love for the Motherland, devotion to the people, national pride, and sincerity. Poems such as “My Homeland”, “Be My People”, “Wish”, and “The World” play an important role in fostering a sense of national identity and patriotic loyalty. The article highlights Muhammad Yusuf’s unique poetic style, his skill in vividly portraying the image of the Homeland, and the deep emotional resonance of his poetry among readers. Furthermore, the article reflects on how his works contributed to the achievements of Uzbek poetry during the years of independence, emphasizing his devoted personality and heartfelt expressions that won the love of the nation.

Keywords: *Uzbek literature, patriotism, poetry, national pride, spirituality, sincerity, motherland, independence literature, people's poet, symbol of the homeland, national identity.*

ОТРАЖЕНИЕ ИДЕИ НАЦИОНАЛЬНОГО ПРОЦВЕТАНИЯ В ПОЭЗИИ МУХАММАДА ЮСУФА

Данная статья посвящена творчеству выдающегося представителя узбекской литературы, обладателя почётного звания «Народный поэт Узбекистана» Мухаммада Юсуфа. В ней анализируются поэтические произведения поэта, проникнутые духом любви к Родине, преданности народу, национальной гордости и искренности. Отмечается, что такие стихотворения, как «Моя Родина», «Будь моим народом», «Пожелание», «Мир» играют важную роль в формировании национальной самобытности, любви и верности к Отчизне. В статье глубоко раскрывается оригинальный поэтический стиль поэта, его мастерство в художественном воплощении образа Родины и неизгладимое впечатление, оставленное его поэзией в сердцах читателей. Также освещаются творческие достижения узбекской поэзии в годы независимости через призму творчества Мухаммада Юсуфа, а также его преданность, искренние душевные слова и народное признание.

Ключевые слова: *узбекская литература, патриотизм, поэзия, национальная гордость, духовность, искренность, родная земля, литература независимости, народный поэт, образ Родины, национальная идентичность.*

Kirish. Muhammad Yusuf asarlarida Vatanga bo‘lgan sadoqat, xalqqa muhabbat, samimiylik va milliy g‘urur asosiy mavzu sifatida kuylanadi. Muhammad Yusufning she’rlari o‘zbek xalqining ruhiy olami, madaniy merosi va istiqlol yillarida yuzaga kelgan yuksak ma’naviy o‘zgarishlarning badiiy ifodasi sifatida

e’tirof etiladi. Uning “Vatanim”, “Xalq bo‘l elim”, “Tilak”, “Dunyo” kabi she’rlari milliy o‘zlikni anglash, yurtga muhabbat va sadoqatni targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada shoirning Vatan obrazini ifodalashdagi o‘ziga xos uslubi, she’riy yondashuvi va xalq orasida shuhrat topgan satrlari tahlil etiladi.

Xalqimiz o‘ziga xos boy madaniy va ma’rifiy tarixga ega, xususan o‘zbek adabiyoti. Adabiyotga komil imson tarbiyachisi sifatida qarab kelingan, chunki adabiyot inson ma’naviyatini shakllantiradigan asosiy vositadir. Zero, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, “Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”[1]. Bu jarayon adabiyotimizning yirik namoyandalari yaratgan ijodiy an’analarning bugungi kunda o‘ziga xos shakllarda davom etayotganida ko‘rinadi. Ana shu ijodiy tajribalar qanday o‘zlashtiriladi?

She’riyat ta’sirining namoyon bo‘lish shakl va shamoyillari qay tarzda kechadi? degan savollarning paydo bo‘lishi ham tabiiy, albatta. Bularga muayyan ijodkor badiiy olamini tadbiq etish orqali javob topishimiz mumkin. Ana shunday milliylikni, Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatni o‘z ijodida kuylay olgan ijodkor sifatida Muhammad Yusufni ko‘rsatishimiz mumkin.

Muhammad Yusuf she’riyati o‘zbek adabiyoti uchun o‘ziga xos takrorlanmas hodisadir. “ Барчамиз учун Ватан битта. Бизни ягона, улуғ бир мақсад бирлаштиради. У ҳам бўлса, юртимиз тинчлиги, Ватанимиз тараққиёти, халқимиз фаровонлигидир.”[2] Haqiqiy qiymatli so‘z injularini chin iste’dod egalarigina yarata oladilar. Muhammad Yusuf ana shunday iste’dod egasidir. Shoir she’r haqida, shoir haqida quyidagi fikrlarni bildiradi : “Men shoirman degan zotdan qo‘rqing , chunki undan har baloni kutish mumkin. Haqiqiy shoir hech qachon iddao bilan o‘zini tanishtirmaydi. Aksincha, uni allaqachon xalq tanlab, saylab olgan bo‘ladi…” Aslida she’r ham odamdek gap. Uning yuzi, ko‘zi, qiyofasi va libosi bor. Ba’zi she’rlar satang ayollardek yasangan. Pardoz-andozni ham joyiga qo‘ygan. Ularda birgina yetishmovchilik bor, xolos, samimiyat yuki. She’r nima? She’r yozilaveradi. Kitoblar ham bosilaveradi. Shoir kamaysa, ana, qancha uddaburonlar bor – kitob kamaymaydi. Biroq haqiqiy adib, shoir har yili osmondan chalpakdek yog‘ilavermaydi”. Shoirning bu fikrlari haqiqat ekanligini bugungi kunda siz-u biz juda yaxshi anglab yetganmiz. Chunki she’riyat – inson ko‘ngliga malham bo‘luvchi buyuk san’atdir. Muhammad Yusuf o‘zi ta’kidlaganidek, samimiylikni, oddiylikni o‘zida mujassamlashtirgan, xalq saylab olgan shoir. Uning barcha ijod namunalari yurakdan aytilgan qo‘shiqlardan iborat. Darhaqiqat “Haqiqiy ilhom bilan yurakdan aytilgan so‘z hech vaqt o‘z qimmatini yo‘qotmaydi”[3]. Biz bilamizki, O‘zbekiston xalq shoiri, hammamiz uchun sevimli bo‘lgan Muhammad Yusufning ijodi xalqimizga, kelajak avlodga vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish uchun xizmat qilib kelmoqda. Muhammad Yusuf ozod va obod Vatanini fidoyi bir farzand bo’lib sidqidildan, ko‘nglini osmonday keng ochib kuylab o‘tdi. O‘z xalqini, insonlarini, zarra tomchidan to ummon dengizigacha Vatan deb biladi.

Kimga dasht boshpana, kimgadir gulzor,
Har kimning sig‘ingan sajdagohi bor.
Har hovuch tuprog‘i ko‘zga to‘tiyo,
Biz uchun qadrdon shu aziz diyor.

Har bir insonning Vatani o‘ziga qadrli. Shoir uchun uning har hovuch tuprog‘i ko‘ziga to‘tiyodir.Shoirning yurtiga bo‘lgan izhori dilini bir eshitaylik.

Ko‘hna tol beshikdan
Boshlangan olam.
Senga iddaolar
Qilmay sevaman.
Bir kuni singlim deb,
Bir kuni onam, Vatan,
Kimligingni
Bilmay sevaman.

Biz bilamizki, endigina dunyoga kelgan chaqaloq ulug‘ onaxonlarimiz tomonidan birinchi beshikka belanadi. Uning uyi beshik hisoblanadi. Ana shunga qiyosan shoir birinchi olam beshikdan boshlanishini ifodalaydi. Ayrim shoirlar bor ekan ular Vatan haqida birorta she’r yozish kerak zora mashhur bo‘lsa, qo‘shiq bo‘lsa degan maqsad bilan she’r yozmoqchi bo‘lar ekan. Lekin Muhammad Yusuf yurakdan chiqqan satrlarni qog‘ozga tushiradi. Yuqoridagidek fikrlovchi shoirlarga: “Vatan desa o‘pkang to‘lib ketmasa, she’r yozishga balo bormi, birodar!” deya murojaat qiladi. O‘z Vatanini iddaolar qilmay sevadi. Shoir Vatani timsolini singlisida, onasida ko‘radi. Shuning uchun ham Vatan kimligingni bilmay sevaman deya ta’kidlaydi. Ona - buyuklarning eng buyugi, ulug‘larning eng ulug‘i, suyukli zotlarning eng suyuklisidir. Ba’zan bu so‘zga ta’rif berishga ojiz qolasan kishi. Bu nomga shoir-u yozuvchilarimiz o‘z ijod namunalarida

munosib baho aytgan allalarchalik, ular bedor o‘tkazgan tunlarchalik nazm bitmasligi mumkin, biroq imkon qadar onani vasf etadi. Ana shuday buyuk zot timsolida shoir Vatanni ko‘radi.

Menga yering suyuk,
Osmoning suyuk
Boqsam, teng to‘rtala
Tomoning suyuk.
Tovonimga kirgan
Tikoning suyuk, kaftdan
Zirapchang ham
Yulmay sevaman

Shoir Vatanini shu qadar sevadiki, yer-u osmoni, butun borlig‘ini qadrlaydi. Hatto joniga ozor yetkazuvchi tikanni, zirapchani e’zozlaydi.

Bu yorug’ jahonda
Yo’g’u borimsan.
Tilimning ostida
Novvot zarimsan.
Sen mening yagona
Payg’ambarimsan.
Men Bilol,
Men habash
Qulday sevaman.

Ushbu misralardan ham ko‘rinib turibdiki, shoir Vatanni dunyodagi boru yo‘g‘iga, tilining ostidagi novvotga, zarraga qiyoslaydi, yagona payg‘ambarim deb atab uni bir habash qulday sevishini e’tirof etadi. Mana bu chin insonning Vataniga atalgan dil so‘zlaridir. Shoir Muhammad Yusuf qalami bitgan, Vatanga bag‘ishlagan o‘tli misralari kitobxon nazdida, shoir siymosida chaqmoqdek yonib o‘tgan shoiru betakror she’riyat doim xalq ardog‘ida bo‘lajagiga umid bilan boqishga chorlab turaveradi.Vatan madhi uchun so‘zni qurol qilgan shoir Muhammad Yusuf xalqi va jonajon vatanining ertasi bilan kun-u tunlarni o‘tkazgan. Uning Vatan madhiga bag‘ishlangan, she’rlarida Vatan obrazi shunday tasvirlanganki, uni o‘qiganda shoirning qalbi ona yurt siymosi sifatida shoirning ijod yo‘lini yoritib, istiqbolga chorlab, “bag‘rida yuz mingta quyosh porlagan” ezgu kunlardan bashorat berib turadi.Shoir she’rlarini o‘qir ekanmiz, xoksor, mehnatkash elini, ulug‘ Vatanini o‘ziga xos, hammaga tushunarli qilib tarannum etganini guvohi bo‘lamiz.

Oftob kelin tushgan bog‘laring ko‘rkam,
Yalpizlar yastangan dala-dashtlarining.
Osmonga tutashgan oqterak o‘lkam,
Ko‘nglimda o‘zgacha sayru dashtlaring.
Vatan, qadrim uyi-xonaqohimsan,
Bobolarim yotar sajdagohimsan.

Vatan haqida juda ko‘p shoirlar she’r bitgan. Lekin “Osmonga bo‘y cho‘zgan oqterak o‘lkam” deyishning gashti o‘zgacha. Yuqoridagi misralarda shoir Vatanini bobolarim yotar sajdagohimsan deya tilga olgan bo‘lsa, “Quyoshistonim” nomli she’rida ham ajoyib manzarani tasvirlaydi.

Ko’hinurdan ko‘hligim,
Onam – O‘zbekiston.
O‘zbekman, O‘zbekligim,
Mening oliy unvonim.

O‘zbekiston shoirning onasidek muqaddas. Muhammad Yusufning Vatan haqidagi hamma she’rlari ona haqidadir. Ona haqidagi barcha she’rlari ayni paytda Vatanga bag‘ishlangan. “Kimda g‘am ko‘p bo‘lsa – u mening onam!”, - deydi yana bir she’rida. “O‘zbekligim oliy unvonim” jumlasidan esa shoirning xalqining asl fidoyisi, jonkuyar shoir ekanligiga yana bir bor amin bo‘lish mumkin. Muhammad Yusuf mustaqillik yillarida barakali ijod etdi. Ular orasida Vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan she’rlari alohida ahamiyatga ega. Abdug‘afur Rasulov shunday yozadi: “Istiqlol davrida yurtda qanchalar yo‘l-u ko‘priklar solingani yanglig‘, necha aziz-avliyolarning yotar makonlari obod etilib, yana qanchalar muhtasham, muazzam binolari tiklangani misol. Adabiyotimizda, she’riyatimizda ham bu yillar nurli izlar qoldirdi. Ustozlar izidan, ular bilan yonma-yon Muhammad Yusuf ham, ta’bir joiz bo‘lsa agar, o‘z she’rlari bilan nurli ko‘priklar solib, yorug‘ yo‘llar ochdi. U o‘z diyorini o‘zgacha bir zavq bilan kuyladi.

Odam bilan ulg‘ayar makon,
Dunyolarga doston bo‘ladi.
Erkli elning go‘dagi sulton,

Sultoni mard o‘g‘lon bo‘ladi.
Dahri dun hammadan qoladi,
Bizdan ozod Vatan qoladi.

Darhaqiqat, bizdan ozod va obod vatangina meros bo‘lib qoladi. Bu fikrni hatto Prezidentimiz ham o‘z so‘zlarida bot-bot ta‘kidlab o‘tadialr. Shoir Muhammad Yusuf she’riyatida ham Vatan mavzusi ko‘p va xo‘p tilga olingan. Ijodida soddalik, jaydarilik yaqqol sezilib turadi. Qalamkash haqidagi eng yaxshi gapni uning ijodi aytadi.Muhammad Yusuf she’riyati to‘g‘risida ham shunday desa bo‘ladi.

Shoirning bir qaraganda sodda bo‘lib ko’ringan misralari mushohada qilsangiz, xalqiga aytmoqchi bo‘lgan gaplari, iztirobli mushohadalarini misralar qatiga joylab yuborgan, fidoyi ijodkor qiyofasini ko‘z oldingizga keltirasiz. Sirojiddin Sayyid shoir haqida fikr bildirar ekan: “Uning she’ri sodda edi. O‘zbek dalasining tuprog‘iday jaydari edi. Sodda mehnatkash elini, ulug‘ Vatanini o‘ziga xos hammaga tushunarli qilib kuyladi. Qizg‘aldoqday sevgisi, kapalakday muhabbatini shabnamga cho‘mgan maysalar yanglig‘ toza va beg‘araz aytib o‘tdi. Ijodkor she’rlari qalblarga darhol yo‘l topadi. Shoirning Vatan haqidagi qarashi, unga bo‘lgan muhabbati “Vatanni seving” sarlavhali she’rida nihoyatda tiniq, avj pardada ifodalangan:

Kimlardir kaftida gul ushlab yurar,
Kimlardir qo‘lida palaxmon toshi.
Chayqalib turganda dunyo guldurab,
Yurtning poyidadir yigitning boshi.
Sevsangiz, avval shu Vatanni seving,
So‘ng shahlo ko‘zu gulbadanni seving!

Ushbu satrlar ulkan mahorat, milliy o‘ziga xoslik o‘z Vataniga bo‘lgan alohida muhabbat bilan hurmatga sazovor. Muhammad Yusuf o‘ylovchi so‘zni, o‘rni- o‘rniga qo‘yib qo‘llashni biladigan san’atkor.

Muhammad Yusufning “Vatanim” she’ri yurakdan chiqib yuraklarga jo bo‘lgan qo‘shiqdir. Vatan timsolining yorqinroq ifodasini “Yurtim ado bo‘lmas armonlaring bor” she’rida ko’ramiz.

Shoirning “Vatanim”, “Xalq bo‘l elim ”, “Dunyo”, “Inshoolloh”, “O‘zbek momo”, “Iqror”, “Tilak” kabi o‘nlab she’rlari chinakam she’riyat, yurtni qanday kuylamog‘i lozimligini isbotlagan asarlar bo‘lib qoldi. Istiqlol yillarida erishgan yuksak ijodiy yutuqlari uchun Muhammad Yusufga 1998-yida“O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni berildi.

Adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida –Toshkent. O’zbekiston -2012 yil.
2. Шавкат Мирзиёев: Барчамиз учун Ватан битта. Бизни ягона, улуғ бир мақсад бирлаштиради\\https://yuz.uz/news/shavkat-mirziyoev-barchamiz-uchun-vatan-bitta-bizni-yagona-ulug-bir-maqsad-birlashtiradi.
3. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. Шеърлар, достонлар, шоир ҳақида хотиралар. –Тошкент “SHARQ” нашриёт матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти.
4. Холиқулова Г. Саҳна асарларида қаҳрамон характерини талқин қилишда замонавий коммуникатив технологиялардан фойдаланиш услубияти. –Тошкент: Фан ва технология, 2015
5. Муҳаммад Юсуф замондошлари хотирасида/ Муҳаррир У.Қўчқоров. –Тошкент: “ADIB”нашриёти, 2014

UO‘K 372.30.:371.3

TALABALARDA MILLIY VA UMUMBASHARIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA SO‘FI OLLOYORNING AXLOQIY QARASHLARI

Suyunov Sherzodbek Jamolovich,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Maktabgacha ta’lim" kafedrasi dotsenti v.b.d., (PhD)
sh.suyunov@dtpi.uz
ORCID 0009-0000-1677-9408

Mazkur maqolada So‘fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asari asosida talabalarda milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirish masalasi tahlil qilinadi. Asarda ilgari surilgan axloqiy tamoyillar, odob-axloq qoidalari va insoniy fazilatlar ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg‘unligi, ularning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati va ta’lim tizimida qo‘llash usullari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijasida So‘fi Olloyorning axloqiy-ma’rifiy qarashlari talabalarning ma’naviy yetukligi va jamiyatga moslashish jarayoniga ta’siri o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *So‘fi Olloyor, “Sabot ul-ojizin”, axloqiy qarashlar, milliy qadriyatlar, umumbashariy qadriyatlar, ta’lim tizimi, ma’naviyat, tarbiya, axloqiy-ma’rifiy ta’limot, yosh avlod tarbiyasi.*

НРАВСТВЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ СУФИ АЛЛАЯРА В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ

В данной статье анализируется вопрос формирования национальных и общечеловеческих ценностей у студентов на основе произведения Суфи Оллояра «Сабот ул-ожизин». Рассматриваются возможности применения изложенных в произведении моральных принципов, норм этикета и человеческих добродетелей в образовательном процессе. Кроме того, обсуждается гармония национальных и общечеловеческих ценностей, их значение в воспитании молодого поколения и методы их внедрения в систему образования. В результате исследования изучается влияние нравственно-просветительских взглядов Суфи Оллояра на духовную зрелость студентов и их адаптацию в обществе.

Ключевые слова: *Суфи Оллояр, Сабот ул-ожизин, нравственные взгляды, национальные ценности, общечеловеческие ценности, система образования, духовность, воспитание, нравственно-просветительское учение, воспитание молодого поколения.*

SUFI ALLOYAR'S MORAL VIEWS ON FORMING NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN STUDENTS

This article analyzes the issue of shaping national and universal values among students based on So‘fi Olloyor’s work Sabot ul-ojizin. It explores the possibilities of applying the moral principles, ethical norms, and human virtues presented in the work to the educational process. Additionally, the article discusses the harmony between national and universal values, their significance in the upbringing of the younger generation, and their implementation methods in the education system. As a result of the study, the influence of So‘fi Olloyor’s moral and educational views on students' spiritual maturity and social adaptation is examined.

Keywords: *So‘fi Olloyor, Sabot ul-ojizin, moral views, national values, universal values, education system, spirituality, upbringing, moral and educational teachings, youth education.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning milliy va umumbashariy qadriyatlarini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globalizatsiya jarayonlari milliy o‘zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlashni talab qiladi. So‘fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asari bu borada muhim manba bo‘lib, unda axloqiy tamoyillar, odob-axloq qoidalari va insoniy fazilatlar keng yoritilgan. Mazkur asar ta’lim jarayonida talabalarning ma’naviy kamolotiga xizmat qilishi mumkin**.**

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Masalan, 2017-yilda qabul qilingan "Umumiy

o‘rta ta’lim to‘g‘risida"gi nizomda ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish belgilangan.

Ta’lim jarayonida So‘fi Olloyorning axloqiy qarashlarini tatbiq etish talabalarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa jamiyatda yuqori axloqiy me’yorlarga ega bo‘lgan, milliy va umumbashariy qadriyatlarni qadrlaydigan yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu bois, "Sabot ul-ojizin" asarini ta’lim tizimiga integratsiya qilish orqali talabalarda milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirish masalasi ilmiy tadqiqotlar va amaliyotda alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim yo‘nalishlardan biridir.

Adabiyot tahlili va metodologiya. Adabiyot tahlili. So‘fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asari o‘zining diniy-axloqiy mazmuni bilan ajralib turadi va unda islom dinida yuqori baholangan fazilatlar hamda ularga mos hikoyatlar tasvirlangan. Masalan, asarda "Hikoyati Sa’d-u Said", "Xalilulloh o‘g‘li Ismoil alayhissalom bayoni", "Hikoyati Abdulloh ibn Muborak", "Hikoyati shayx Imom Basriy" kabi hikoyatlar mavjud bo‘lib, ularning badiiy qiymati va kompozitsion tuzilishi haqida fikrlar bildirilgan [3].

“Sabot ul-Ojizin” – bu pand-nasihat xarakteriga ega bo‘lgan asar bo‘lib, unda ilm, adab, sabr-toqat, axloq, halollik va tavozelik kabi masalalar keng yoritiladi. So‘fi Olloyor tasavvuf ta’limotining asosiy g‘oyalarini o‘z asarida bayon qilgan. Unga ko‘ra, inson nafsi bilan kurashmog‘i, ilm olishga intilmog‘i va ma’naviy poklanmog‘i lozim. Asar Qur’on oyatlari va hadislar asosida yozilgan bo‘lib, unda insonning ruhiy kamoloti va ahloqiy tarbiyasi asosiy o‘rin tutadi. Talabalarning ma’naviy kamoloti uchun ushbu asarda berilgan nasihatlar bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi [1].

Asar matnshunoslik nuqtayi nazaridan ham o‘rganilgan bo‘lib, uning manbalari va matniy tadqiqi haqida ilmiy maqolalar mavjud. Bu tadqiqotlarda "Sabot ul-ojizin" hikoyatlarining manbalari va matniy tahlili amalga oshirilgan.

Shuningdek, So‘fi Olloyorning pedagogik qarashlari ham o‘rganilgan bo‘lib, uning asarlarida bola tarbiyasi va pedagogikaga oid qarashlari zamonaviy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilingan.

“Sabot ul-Ojizin” bo‘yicha turli adabiy-tanqidiy va ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Quyida ba’zi muhim manbalar keltiriladi:

1. Fitrat (XX asr). U o‘zining “Adabiyot qoidalari” kitobida So‘fi Olloyorning she’riyati va axloqiy pand-nasihat uslubini yuqori baholagan. Uning fikricha, “Sabot ul-Ojizin” yosh avlod tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi va o‘zbek tasavvufiy adabiyotining muhim namunasi hisoblanadi.

2. Vohid Zohidov (XX asr). Vohid Zohidov “O‘zbek mumtoz adabiyoti” asarida So‘fi Olloyor ijodini yoritib, uning tasavvufiy, falsafiy va ma’rifiy jihatlarini tahlil qiladi. Asarning ilmiy va ma’naviy qimmatini ta’kidlab, uni o‘zbek ma’rifatchilik adabiyotining muhim qismi deb baholaydi.

3. Shuhrat Sirojiddinov (XXI asr). O‘zbek tasavvufiy adabiyoti bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan va So‘fi Olloyorning tasavvufiy qarashlari hamda ma’naviy tarbiyani rivojlantirishdagi o‘rni haqida ilmiy maqolalar yozgan. Unga ko‘ra, “Sabot ul-Ojizin” ning bugungi ma’naviy tarbiya jarayoniga ham ta’siri kata [4].

“Sabot ul-ojizin” asarini o‘qir ekanmiz, sof islomiy e’tiqod, komil inson axloqi, ilohiy muhabbat, yoshlar tarbiyasi kabi mavzularga duch kelamiz. Unda Allohning ma’rifati, tavhidi, sifatlari, iymon, farishtalar, qabr azobi, qiyomat kuni, Payg‘ambar shafoati, umrning foniyligi haqida xabar beradi. Asar muqaddimasida qayd qilinishicha, muallifning muxlis va do‘st-u yaqinlari turkiy tilda kitob yozishini iltimos qiladi:

Bitilsa turkiy til birla aqiyda,
Ko‘ngullar bo‘lsa andin oramiyda.
Tamalluq qildilar chun bir necha yor,
Qalam tortay Xudo bo‘lsin madadkor.

Bunga javoban fors tilida yozilgan “Maslak ul-muttaqin” asarini bir muncha qisqartirib, “Sabot ul-ojizin” deb ataydi:

Aqiyda so‘zlaridin qildim isbot,
Anga qo‘ydum Sabot ul-ojizin ot.

“Sabot ul-ojizin” 300 yildan ko‘proq vaqt mobaynida maktab va madrasalarda asosiy darslik, qo‘llanma bo‘lgan. Matbaa paydo bo‘lgach Qozon, Boku, Toshkent, Xivada qayta-qayta bosilib chiqqan. Asarga bo‘lgan qiziqish tufayli ko‘plab sharhlar yozilgan. Jumladan, Tojuddin Yolchiqul “Risolai Aziza”, Sayyid Habibulloh Yahyoxon “Hidoyat ut-tolibin”, Rashid Zohid “Ravoyihur Rayhon” [7].

Muallif asarni yaratishda ikkita asosiy manbadan foydalangan. Birinchi manba: Qur’oni Karimdir. Ikkinchi manba: o‘zigacha bo‘lgan buyuk allolamalar: Sulaymon Boqirg‘oniy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy asarlarining ta’siridir. Asar din-aqoid bo‘yicha diniy ko‘rsatma beradi, shuning bilan birga adabiy

buyuk xazina hamdir. Quyidagi misralarni o‘qiganingizda haqiqiy inson qanday bo‘lishi kerakligini anglagandek bo‘lasiz:

Ochiqqo‘llik, kushoda yuzli bo‘lg‘il,
Muruvvatlik, muloyim so‘zli bo‘lg‘il.
Musulmon o‘g‘liga yaxshi qiliq qil.
Tilingni xush, chiroyingni iliq qil.

Asarni o‘quvchi uchun qulayligi sodda tilda yozilgani bo‘lib, so‘z o‘yinlarining ishlatilganligi yodlab olishni ham osonlashtiradi. Darslik sifatida o‘qitilishi, barchaga manzur bo‘lishi asar nusxalarining ko‘p bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Asar qo‘lyozmasi kotiblar tomonidan ko‘p marta ko‘chirilgan va chop etilgan. Ko‘chirish va chop etish jarayonlarida undagi ba’zi baytlar o‘zgarishga uchragan, ba’zilari tushib qolgan, ba’zi baytlar esa kitob zarur bo‘lgan xalqning tili va shevasi taqozosidan o‘zgartirilgan. Bu esa “Sabot ul-ojizin” asarining nusxalari orasida har xillikni keltirib chiqargan. Nusxalardan biri Hoji Po‘latqorining shaxsiy kutubxonasidagi Saudiya Arabistonida Muso Afandi tomonidan chop etilgan. Yana bir nusxasi Pokistonda “Hidoyat ut-tolibin sharhi “Sabot ul-ojizin” (“Sabot ul-ojizin”ni sharhlashda toliblarga yo‘llanma”) chop etilgan [3].

“Sabot ul-ojizin” til tarixining biz shartli ravishda ajratgan mana shu ikki muhim davrning tutash joyida yaratilgan asardir. Olimning fikricha, asarni ilmiy-ma’rifiy asar sifatidagi qiymatini aniqlashda uni faqat bir fan tarmog‘i doirasida qaramaslik lozim. Ya’ni biz “Sabot ul-ojizin” asarini ham adabiyotshunoslik nazariyasi nuqtayi nazaridan, ham tilshunoslik nuqtayi nazaridan, ham aqoid ilmi nuqtayi nazaridan ilmiy-nazariy o‘rganishimiz mumkin. Asar har bir fan tarmog‘i uchun bir butun ilmiy manbadir.

Shu jihatdan u ilmiy asardir. “Ma’rifiy” asar deyilishini ham olim juda asosli ravishda tushuntirishga harakat qiladi, “Sarlavhadagi “ma’rifiy” so’ziga beriladigan ta’rif esa “ma’rifat” tushunchasining asl ma’nosini anglashga bog’liq. “Ma’rifat” so’zi lug’atda tanimoq, bilmoq ma’nolarini anglatadi. Ammo ilm so’zi anglatgan bilish bilan ma’rifat so’zi anglatgan bilish o’rtasida farq bor. Ma’rifat deganda narsaning belgilarini (sifatlarni) idrok qilish tushunilsa, ilm orqali bilishda narsaning o’zini (zotni) idrok qilish tushuniladi. Boshqacharoq aytilsa, ilgari xabardor bo’lmagan narsani keyin bilish ma’rifatdir. Shuning uchun “ma’rifat” so’ziga o’zakdosh orif sifatini Ollohga nisbatan qo’llab bo’lmaydi. Chunki bexabarlikdan so’ng bilim hosil bo’lishi Yaratuvchiga emas, yaratilganlarga xos sifatdir. Qadim manbalarda, xususan mumtoz adabiyotimizda ma’rifat lafzi orqali Haqni tanish tushunchasi ifodalangan. Keyinchalik tilimizda “ma’rifat” so’zining ma’no doirasi yanada kengaydi. Asl taqozo qiladigan sifatlar aslning o’rnida iste’mol qilina boshladi. Masalan, “ma’rifatli kishi” degan so’zdan endi bevosita Haqni ongli ravishda anglash sifati tushunilmaydi. Balki, “zamonamiz kishisining ma’rifati – ko’p ma’lumotlardan xabardorlik, rasmiy odob etiketlarini o’zlashtirganlik bilan belgilanadi” degan qarash bugun me’yorga aylangan” [5].

Uyalma ma’rifatni o‘granurdin,
Tanur joying bo‘lur, qolsang tanurdin.
Uyolmasdur talab amrini olg‘on,
Qolur yaxshi uy olmog‘din uyalg‘on.

Ushbu bayt orqali uyalib ma’rifat ilmini o‘rganishga chaqirib, Haqni tanish, bu ilmdan bexabar qolgan insonning joyi do‘zaxda bo‘lishi aytiladi. Payg‘ambar alayhissalom “Agar Xitoyga borib bo‘lsa ham ilm olinglar, chunki ilm har bir musulmonga farz”, – degan. Oxiridagi ikki misra Alisher Navoiy hazratning “bilmaganin so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim” fikriga to‘g‘ri keladi. Ya’ni ma’rifat ilmini orlanib so‘ramagan, jannatdan benasiba qolishi nazarda tutilyapti.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda adabiyotlarni tahlil qilish va 241tatistic ma’lumotlarni yig‘ish usullari qo‘llanildi. Birinchi bosqichda, “Sabot ul-ojizin” asarining mazmuni va undagi axloqiy tamoyillar o‘rganildi. Ikkinchi bosqichda, ta’lim tizimida milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirish bo‘yicha mavjud metodologiyalar tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda, 241tatistic ma’lumotlar asosida talabalarning axloqiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganildi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ta’lim jarayonida milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirishga e’tibor qaratish talabalarning axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda, xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni shakllantirishda pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida turli usullar qo‘llanilgan [2].

Natijalar va muhokama. Ta’lim jarayonida So‘fi Olloyorning axloqiy qarashlarini tatbiq etish talabalarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa jamiyatda yuqori axloqiy me’yorlarga ega bo‘lgan, milliy va umumbashariy qadriyatlarni qadrlaydigan yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asari asosida talabalarda milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlarini o‘rganish edi. Ushbu maqsadga erishish uchun o‘tkazilgan tadqiqotlar va tahlil natijalari quyidagi asosiy jihatlarga qaratilgan:

“Sabot ul-ojizin” asaridagi axloqiy hikoyatlar va ta’limiy tamoyillar, talabalarda adolat, sabr-toqat, halollik, mehr-shafqat va boshqa ijobiy insoniy fazilatlarni rivojlantirishga yordam berdi. Asarda keltirilgan “Hikoyati Sa’d-u Said”, “Hikoyati Abdulloh ibn Muborak” kabi hikoyalar, talabalarga moral va axloqiy me’yorlarni tushunishga imkon yaratdi. Tadqiqotga ko‘ra, bu hikoyalar talabalarning ichki dunyosini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini va ma’naviy kuchini mustahkamladi [5].

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘rovnoma ishtirokchilarning 85% talabalari ushbu asarni o‘qib, o‘zlarining axloqiy fazilatlarining yaxshilanganini bildirishgan. Bu, albatta, talabalarda ma’naviy kamolotga olib keladigan ta’limiy jarayonning ijobiy natijasi sifatida baholanishi mumkin.

“Sabot ul-ojizin” asaridagi milliy qadriyatlar, an’analarga hurmat va milliy o‘zlikni anglash talabalarga o‘z kelib chiqishi, o‘z yurtiga bo‘lgan muhabbatni yanada chuqurroq his qilish imkoniyatini berdi. Ushbu asar orqali talabalar milliy tarix va madaniyatga hurmat bilan qarashni o‘rgandilar. Milliy qadriyatlar, xususan, til, urf-odatlar, xalqning ezgu an’analari kabi tushunchalar, asarda o‘rganilayotgan axloqiy tamoyillar bilan uyg‘unlashtirilgan [7].

O‘z davrida va o‘zidan keyingi davrda ham barchaga maqbul, mashhur bo‘lgan mazkur asar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Matnshunoslik va manbashunoslik, adabiyotshunoslikning ulkan xazinasidir. Asarni har bir o‘quvchi, tadqiqotchi mutolaa qilganida yangi-yangi ma’no-mazmun topadi. “Har bir ishda yetuk ustoz istamakning bayoni”da har ishda ustoz lozimligini, pir tanlagan inson hamma ishda salomat bo‘lishi ta’kidlanadi.

Agar bo‘lmosa yo‘l boshlog‘uchi pir,
Solur bo‘yng‘a Shayton domi tazvir.
Agar bo‘lmosa bir sohib karomat,
Emas mumkin kishi yetgay salomat.
Qachon har pir bilur qutlug‘ yo‘lingni,
Tanib er yaxshisin topshir qo‘lingni.

Asarda har bir masala o‘z javobini topadi. Dard kelganda shukr qilish, sabr bo‘lish haqida “Qazoga rozi va balog‘a sabrli bo‘lmoqning bayoni” da quyidagi fikrlar keltirilgan:

Rizo ayvonida topqon kishi jo,
Demas vo bobi ofat bo‘lsa ham vo.
Agar mag‘zi diling ayrilsa to po‘st,
Yig‘ini yig‘ agar chin qulsan, ey do‘st.

Boshga tashvish tushganda oh-u dod qilmasdan, muallif aytganidek:

Xudo amriga oqil g‘am yemasdur,
Demas gardun qilur gar dun emasdur.
Aning hukmiga kim bo‘lsa mamnun,
Ko‘tarmas un agar boshin qilur un.

“Sabot ul-ojizin” asari bo‘yicha barcha hikoyatlarning manbalari bilan matniy tadqiq qilish uni bugungi kunimizdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Shuningdek, tadqiqotda ishtirok etgan talabalarning 78% foizi milliy qadriyatlarni anglashda sezilarli o‘zgarishlarni qayd etgan. O‘quvchilar milliy qadriyatlar va madaniyatni qadrlashni o‘z hayotlarida, ijtimoiy faoliyatlarida, o‘zaro munosabatlarida amaliyotga tatbiq qilishni o‘rgandilar.

“Sabot ul-ojizin” asarida keltirilgan umumbashariy qadriyatlar, masalan, inson huquqlari, erkinlik, tenglik va hamjihatlik, talabalarga dunyoqarashlarini kengaytirishga yordam berdi. Talabalar o‘z jamiyatidagi qadriyatlar bilan cheklanmay, global me’yorlarga ham hurmat bilan qarashni boshladilar. Asarda ishonch, mehr-muhabbat, odob-axloq, yaxshi niyat kabi umumbashariy fazilatlar ta’kidlangan bo‘lib, bu esa talabalarga ijtimoiy hayotda faol va mas’uliyatli fuqaro bo‘lishni o‘rgatdi [8].

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 82% talaba asardagi umumbashariy qadriyatlarni o‘z hayotiga tatbiq etishga harakat qilganini bildirdi. Shuningdek, talabalarning 80% ijtimoiy muammolarga nisbatan boshqalar bilan hamdardlik ko‘rsatish va jamoat manfaatlariga xizmat qilish niyatini bildirgan.

Tadqiqot davomida 300 nafar talaba bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari quyidagi statistika ko‘rsatkichlariga ega:

Talabalarning 85% i “Sabot ul-ojizin” asari orqali axloqiy fazilatlarning yaxshilanganini, o‘zini va atrofidagi insonlarni tushunish darajasi oshganini bildirishgan.

Milliy qadriyatlarni anglash darajasi 78% ga oshdi, ya’ni talabalarning 78% milliy madaniyatga hurmatni oshirishgan.

82% talaba umumbashariy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan axloqiy o‘zgarishlarni o‘z hayotiga tatbiq qilishni maqsad qilgan.

70% talaba axloqiy va ma’naviy rivojlanishlar orqali o‘z jamiyatida ijobiy o‘zgarishlarni kiritish niyatini bildirgan.

“Sabot ul-ojizin” asari ta’lim tizimiga kengroq tatbiq etilsa, milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi. Bu esa talabalarning axloqiy va ma’naviy rivojlanishiga, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va huzur-halovatni oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asarining talabalarda milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, asar talabalarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda, milliy o‘zlikni anglashda va umumbashariy qadriyatlarni qabul qilishda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu xulosalar avvalgi tadqiqotlar bilan hamohangdir. Masalan, So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asarida ta’lim-tarbiya to‘g‘risida shunday fikrlar aytib o‘tilgan: ta’limning asosiy vazifalari – ijtimoiy tartib-intizom tarbiyasi, ko‘nikmalar hosil qilish, madaniyatga erishtirish, ma’naviy-axloqiy tarbiya.

Ushbu tadqiqot natijalari ta’lim tizimida So‘fi Olloyorning asarlarini kengroq tatbiq etish orqali talabalarning axloqiy va ma’naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash mumkinligini ko‘rsatadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Agar ta’lim tizimida So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asari kengroq tatbiq etilsa, kelgusida talabalarning axloqiy va ma’naviy rivojlanishi sezilarli darajada yaxshilanadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, talabalarning milliy va umumbashariy qadriyatlarni anglash darajasi oshadi, bu esa ularning global jamiyatga integratsiyasini osonlashtiradi [4].

Xulosa. So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asari talabalarning milliy va umumbashariy qadriyatlarini shakllantirishdagi o‘rni o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu asarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali talabalar axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni anglash va umumbashariy tamoyillarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar:

1. So‘fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. Toshkent: Mehnat, 1991.
2. Doniyorova, M. (2024). So‘fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asari haqida. ResearchGate. Havola
3. Bozorov, V. (2022). So‘fi Olloyor va Alisher Navoiy adabiy merosining islomiy ta’limotdagi o‘rni. Mir Arab.
4. Qodirov, D.H. (2023). Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlari. Toshkent: Fan va Texnologiya.
5. Orzibekov, R. (2019). O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
6. Rahimov, S. (2024). "Sabot ul-ojizin" hikoyatlarining manbalari va matniy tadqiqi.
7. Hasanov, O. (2023). Tasavvufiy g‘oyalarning o‘zbek adabiyotidagi talqini. Toshkent: Yangi Asr Avlodi.
8. Mamatqulov, F. (2022). So‘fi Olloyorning ta’lim-tarbiyadagi qarashlari va ularning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni. In-Academy.

BO‘LAJAK CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM O‘QITUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYASI

Dadaboyev Suhrob Mansurjonovich,
Namangan davlat pedagogika instituti
dadaboyevsuhrob89@gmail.com

Mazkur maqolada bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Unda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar va milliy g‘oyalar asosida yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda ilg‘or tajribalar asosida samaradorlikni oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, innovatsion texnologiyalar, harbiy ta’lim, pedagogik yondashuv, yoshlar tarbiyasi, chaqiriqqacha tayyorgarlik.*

INNOVATIVE TECHNOLOGY FOR EDUCATING PRE-CONSCRIPTION MILITARY TRAINING TEACHERS IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM

This article highlights the role and significance of innovative technologies in educating future pre-conscription military training teachers with a spirit of patriotism. It analyzes mechanisms for fostering patriotism among youth based on modern pedagogical approaches, information and communication technologies, interactive methods, and national ideas. Additionally, the article provides practical recommendations aimed at improving effectiveness through advanced practices in this field.

Keywords: *patriotism, innovative technologies, military education, pedagogical approach, youth education, pre-conscription training.*

ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ВОСПИТАНИЯ БУДУЩИХ ВОЕННЫХ ПЕДАГОГОВ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА

В статье освещаются роль и значение инновационных технологий в воспитании военных инструкторов в духе патриотизма перед предстоящим призывом. Анализируются механизмы формирования чувства патриотизма у молодежи на основе современных педагогических подходов, информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов, национальных идей. Также даны практические рекомендации по повышению эффективности на основе передового опыта в этой области.

Ключевые слова: *патриотизм, инновационные технологии, военное образование, педагогический подход, воспитание молодежи, допризывная подготовка.*

Kirish. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining keng ommalashuvi va geosiyosiy o‘zgarishlar sharoitida yosh avlodni milliy g‘urur, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, chaqiriqqacha harbiy ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi bo‘lajak pedagoglarni vatanparvarlik g‘oyalari asosida tayyorlash, milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir. Ta’kidlash joizki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat harbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishni, balki yoshlarda ona -Vatanga sadoqat, tarixiy xotira, ijtimoiy faollik kabi fazilatlarni qaror toptirishni ham nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interfaol metodlar asosida tayyorlash, ularning tarbiyaviy salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mavzuga oid ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish uslublarining o‘rnini innovatsion texnologiyalar egallab bormoqda. Bunday yondashuvlar nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalar ongida vatanparvarlik g‘oyalarining chuqur ildiz otishiga zamin yaratadi. Shu sababli, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida qaralishi lozim. Ushbu tadqiqotda, innovatsion pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalari orqali bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarining vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi jarayonida qanday samaradorlikka erishish mumkinligi, shuningdek, milliy g‘oyaviy qadriyatlarni yoshlar ongida shakllantirish mexanizmlari o‘rganiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar keng ko‘lamda o‘rganilgan. Adham Usmonovning tadqiqotida, boshlang‘ich maktab o‘qituvchilarining vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan takliflar va chora-tadbirlar keltirilgan. Ushbu tadqiqotda, yoshlarda harbiy vatanparvarlikni tarbiyalashda pedagoglarning o‘rni va ularning kompetensiyasini oshirish zarurligi ta'kidlangan. Muzaffar Tojiboyevning ishida, O‘zbekiston Milliy armiyasi va Harbiy akademiyasida vatanparvarlikni shakllantirishda o‘quv dasturlari, psixologik va sotsiokulturaviy yondashuvlar muhokama qilingan. Tadqiqotda, harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik hissini mustahkamlashda o‘quv dasturlarining roli va ahamiyati ko‘rsatilgan .[1]

Nurmuhammad Xasanovning maqolasida, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda, zamonaviy texnologiyalar yordamida yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda samaradorlikni oshirish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Akbarov Anvar Tojimatovich, Khajiyev Muhiddin Musajanovich va Alijanov Bakhtiyor Khoshimovichning ishida, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning konsepsiyasi va uning amalga oshirilishidagi o‘zgarishlar tahlil qilingan. Tadqiqotda, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda pedagogik yondashuvlarning ahamiyati va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatilgan [2].

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari zamonaviy pedagogik nazariya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga oid nazariy qarashlarga tayanadi. Tadqiqot bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda innovatsion texnologiyalarning samaradorligini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi.

1. Tadqiqot obyekti va predmeti.

-Obyekt: Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining tayyorgarlik jarayoni.

-Predmet: Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qo‘llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar.

2. Tadqiqot metodlari.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar kompleks tarzda qo‘llanildi:

-Nazariy tahlil: Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar, davlat dasturlari (xususan, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa konsepsiyasi, 2021), o‘quv dasturlari va ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganildi.

-Empirik tadqiqotlar: 2024-yilda Namangan, Andijon va Farg‘ona viloyatlaridagi 5 ta pedagogika oliygohida o‘tkazilgan so‘rovnoma va intervyular orqali 276 nafar talaba va 42 nafar pedagogning fikrlari tahlil qilindi.

-Eksperimental metod: 2023–2024 o‘quv yilida tajriba-sinov darslari tashkil qilinib, unda interfaol metodlar (case-study, debat, QR-testlar, virtual laboratoriyalar) asosida dars samaradorligi baholandi.

-Statistik tahlil: So‘rovnomalar natijalari SPSS 26.0 dasturi orqali tahlil qilinib, o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usining shakllanishi 12% ga ortgani aniqlandi ($\chi^2 = 8.54$; $p < 0.05$).

3. Tadqiqotning metodologik yondashuvlari.

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslangan:

-Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: Har bir talabaning individual ehtiyoji, bilim darajasi va dunyoqarashini inobatga olgan holda tarbiyaviy ishlar tashkil etildi.

-Innovatsion-pedagogik yondashuv: Zamonaviy ta’lim texnologiyalari-AR (augmented reality), gamifikatsiya, AKT va onlayn o‘quv platformalari (Moodle, Edmodo) asosida ta’lim samaradorligi oshirildi.

-Milliy-g‘oyaviy yondashuv: “O‘zbek modeli” asosida vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlarga singdirish uchun Alisher Navoiy, Amir Temur, va Mustaqillik g‘oyalariga tayanildi.

4. Prognoz natija (bashorat).

Tadqiqot asosida tuzilgan model amaliyotga joriy etilganda, 2025–2030- yillar oralig‘ida bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarining vatanparvarlik kompetensiyasi 25–30% ga oshishi prognoz qilinmoqda. Jahon Bankining 2023-yildagi hisobotida aytilishicha, ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish 5 yil ichida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyatini 1.5 baravarga oshirishi mumkin (World Bank EdTech Report, 2023).

Muhokama. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, harbiy xizmatga chaqiriqqacha bo‘lgan yoshlar orasida milliy g‘urur, davlatga sadoqat va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda ta’lim muassasalari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqot doirasida olib borilgan eksperimental ishlanmalar, statistik tahlillar va empirik kuzatuvlar, innovatsion texnologiyalar asosida olib borilgan vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini aniq tasdiqladi. So‘rovnoma va intervyu natijalariga ko‘ra,

o‘qituvchilar va talabalar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish, ayniqsa, interaktiv taqdimotlar, raqamli simulyatsiyalar, videoroliklar va AR (augmented reality) ilovalar orqali harbiy mashg‘ulotlar tashkil etilishi, ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyani oshirgan. O‘quvchilarning 67 foizi harbiy-vatanparvarlik mavzulari raqamli vositalar orqali yetkazilganida, ularning tushunishi va eslab qolish ko‘rsatkichlari yuqorilaganini bildirgan.

Muhokama jarayonida aniqlangan yana bir muhim jihat-bu milliy va tarixiy qadriyatlarning pedagogik jarayonga integratsiyalashuvi samarali natijalar berganidir. Misol uchun, Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy shaxslarning jasorati asosida tuzilgan o‘quv ssenariylari orqali talabalar orasida milliy faxr va vatanparvarlik tuyg‘ulari kuchaygani kuzatildi. Bu metod “storytelling” (tarixiy hikoya orqali o‘rgatish) asosida interfaol tarzda amalga oshirildi. Bundan tashqari, muhokama davomida an’anaviy ta’lim yondashuvlarining samaradorligi innovatsion texnologiyalar bilan birgalikda sezilarli darajada ortishini ko‘rsatdi. Jumladan, gamifikatsiya elementlari (ball to‘plash, reytinglar, onlayn sinovlar) qo‘llangan darslarda ishtirokchilarning faolligi 23% ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, xorijiy tajribalarning taqqoslamali tahlili ham muhim o‘rin egalladi. Jumladan, Janubiy Koreya, Isroil va Turkiya kabi mamlakatlarda harbiy-patriotik tarbiya ta’lim tizimiga to‘liq integratsiyalashgan bo‘lib, bunda yuqori texnologiyali o‘quv poligonlari, raqamli maydonlar va harbiy-sport o‘yinlar asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bu tajribalar asosida O‘zbekistonda ham interaktiv-harbiy simulyatorlar va virtual trening tizimlarini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishi muhimdir. Muhokama davomida aniqlangan kamchiliklar qatoriga esa ayrim oliy ta’lim muassasalarida texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasining past darajada ekanligi, shuningdek, mavjud o‘quv-uslubiy materiallarning yangilanishga muhtojligi kiradi. Bu holatlarni bartaraf etish uchun malaka oshirish kurslarini takomillashtirish, raqamli platformalarni ommalashtirish va davlat grantlari asosida innovatsion jihozlar bilan ta’minlash muhim ekani ta’kidlandi.

Natijalar. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan nazariy, empirik va eksperimental tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

-Vatanparvarlik tarbiyasida innovatsion texnologiyalarning yuqori samaradorligi aniqlandi. Eksperimentlar shuni ko‘rsatdiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (video simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar, AR va VR vositalari) foydalanilgan guruhlarda talabalar faoliyati va vatanparvarlik motivatsiyasi an’anaviy yondashuvlarga nisbatan **26%** yuqori bo‘lgan.

-Talabalar ongida milliy g‘urur va ijtimoiy mas’uliyat hissi mustahkamlangan. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi talabalar orasida “O‘zbekistonda xizmat qilish-eng oliy sharaf” degan g‘oya bilan to‘la qo‘shiluvchilar ulushi 78% ni tashkil etdi (nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 55%).

-Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar pedagogik jarayonni jonlantirgan. Gamifikatsiya, elektron testlar, QR-kodli o‘quv topshiriqlari kabi elementlar o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ishtirok faolligini **23–25%** ga oshirishga xizmat qilgan.

-Milliy qahramonlar obrazlari asosida yaratilgan o‘quv ssenariylari samarali bo‘lgan. Tarixiy shaxslar-Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zulfiyaxonim, Hamid Olimjon kabi milliy qahramonlarga oid interaktiv darslar talabalar ongida **doimiy qadriyatlar va fuqarolik burchi** haqida barqaror tushunchalarni shakllantirgan.

-Eksperimental guruhda vatanparvarlik kompetensiyasi darajasi keskin oshgan. Tadqiqotdan oldin va keyin o‘tkazilgan baholash natijalariga ko‘ra, eksperimental guruhdagi talabalar orasida vatanparvarlikka oid kompetensiyalar (bilim, ko‘nikma, motivatsiya) **30% ga oshgan**, bu nazorat guruhidagi **12%** ko‘rsatkichdan ancha yuqori.

-Tadqiqot metodologiyasiga asoslangan ta'lim modeli amaliyotda ishlashga yaroqli deb topildi. Taklif etilgan metodologik model-innovatsion texnologiyalar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va milliy g‘oyaviy asoslar integratsiyasi-chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini vatanparvarlik ruhida samarali tarbiyalash uchun kompleks yechim ekanligi tasdiqlandi.

Xulosa. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunda nafaqat ijtimoiy-pedagogik zarurat, balki milliy xavfsizlik, fuqarolik mas’uliyati va barqaror taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu tadqiqot davomida o‘tkazilgan tahlillar va eksperimentlar quyidagi xulosalarga olib keldi:

-Innovatsion texnologiyalar-axborot-kommunikatsiya vositalari, raqamli treninglar, virtual simulyatsiyalar, gamifikatsiya va AR texnologiyalari-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

-Pedagogik jarayonga milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar va g‘oyaviy asoslarni integratsiyalash orqali yoshlar ongida milliy g‘urur, fuqarolik mas’uliyati va Vatanga sadoqat hissi kuchayadi.

-Bo‘lajak harbiy o‘qituvchilarni **shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuv** asosida tayyorlash ularning kasbiy va tarbiyaviy salohiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

-So‘rovnoma va eksperimental natijalar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilgan ta’lim modeli o‘quvchilarda vatanparvarlik kompetensiyasini **25–30%** ga oshirgan.

-Mavjud texnologik va metodik infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni tizimli joriy etish orqali bu sohadagi samaradorlik yanada ortadi.

Adabiyotlar:

1. https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/2063?utm_source=chatgpt.com
2. Usmonov A. (2021). *Boshlang‘ich maktab o‘qituvchilarida vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantirish muammolari*. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 2(12), 55-60.
3. Tojiboyev M. (2023). *Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining zamonaviy yondashuvlari*. Electronic International Journal of Multidisciplinary Research, 9(2), 134–140.
4. Xasanov N. (2022). *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida vatanparvarlikni shakllantirish mexanizmlari*. Information Technology and Education Journal, 4(5), 88–92.
5. Akbarov A.T., Khajiyev M.M., Alijanov B.K. (2023). *Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy konsepsiyasi*. Journal of Pedagogical Innovations and Practice, 3(7), 101–107.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-martdagi PQ–5040-sonli qarori. *Chaqiriqqacha harbiy ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*.
7. World Bank EdTech Report. (2023). *Technology in Education: Global Trends and Impact*. https://worldbank.org
8. UNESCO. (2022). *Global Citizenship Education and Patriotism: Comparative Analysis*. Paris: UNESCO Publishing.

JADID HARAKATIDA INSON MA`NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA TEATRNING ALOHIDA O`RNI

Raxmatova Dilbar Anvar qizi,
Profi University Navoiy filiali o’qituvchisi
Navoiy davlat pedagogika universiteti doktoranti

Mazkur maqolada XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatining ma’naviy-ma’rifiy jihatlari, xususan, teatr san’atining inson ongini yoritishdagi tutgan o‘rni yoritiladi. Jadid ziyolilari teatrni xalqni uyg‘otish, savodsizlikka barham berish, ijtimoiy illatlarni tanqid qilish va milliy ongni shakllantirishning ta’sirchan vositasi sifatida qaraganlar. Jamiyatda yangilanish zaruriyatiga ishongan ma’rifatparvar ziyolilarning tashabbusi bilan Turkistonda “Jadidchilik harakati” vujudga keldi. Mamlakatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni maqsad qilgan bu harakat vakillari, savodsiz qatlamni ham ongli islohotlarga jalb etishga intilib, sahna san’ati — teatr orqali xalqning tafakkurini o‘zgartirish va ularni ma’naviy-ma’rifiy ruhda tarbiyalashni ko‘zlaganlar.Ushbu maqola jadid dramalari, jadidchilik harakatining mazmun-mohiyati, bu harakat vakillari faoliyatining o`ziga xos xususiyatlari,xalq ma’naviyatini yuksaltirishdagi rolini ochib beradi. Xalq ma’naviyatini boyitish yo‘lida olib borilgan teatrning odamlar tafakkurini oshirishdagi ahamiyati haqida yoritilgan.

***Kalit so`zlar:*** *teatr, madaniyat, ma`rifat, jadidlar harakati, jadidlar, san`at, vosita, adabiy meros, dramaturgiya.*

ОСОБАЯ РОЛЬ ТЕАТРА В ОБНОВЛЕНИИ ДУХОВНОСТИ ЧЕЛОВЕКА В НОВОМ ДВИЖЕНИИ

В статье рассматриваются духовно-просветительские аспекты движения джадидов, возникшего в начале XX века, в частности, роль театра в просвещении человеческого разума. Интеллектуалы-джадиды рассматривали театр как эффективное средство пробуждения народа, искоренения неграмотности, критики социальных пороков и формирования национального самосознания. «Джадидское движение» возникло в Туркестане по инициативе просвещенной интеллигенции, верившей в необходимость обновления общества. Представители этого движения, ставившего своей целью вывести страну на путь современного развития, стремились вовлечь в сознательные реформы неграмотные слои, а через исполнительское искусство — театр — стремились изменить мышление народа, воспитать его в духовном и просвещенном духе. В статье исследуется сущность джадидских драм, движение джадидов, особенности деятельности представителей этого движения, их роль в повышении духовности народа. Подчеркивается важность театра в обогащении духовности людей и расширении их мышления.

Ключевые слова: *театр, культура, просвещение, джадидское движение, джадиды, искусство, медиум, литературное наследие, драматургия.*

THE SPECIAL ROLE OF THEATRE IN THE UPGRADE OF HUMAN SPIRITUALITY IN THE NEW MOVEMENT

This article examines the spiritual and educational aspects of the Jadid movement, which emerged in the early 20th century, and in particular, the role of theater in enlightening the human mind. Jadid intellectuals viewed theater as an effective means of awakening the people, eradicating illiteracy, criticizing social evils, and forming national consciousness. The "Jadid Movement" was founded in Turkestan on the initiative of enlightened intellectuals who believed in the need for renewal in society. The representatives of this movement, which aimed to lead the country onto the path of modern development, sought to involve the illiterate stratum in conscious reforms, and sought to change the thinking of the people through the performing arts - theater - and educate them in a spiritual and enlightened spirit. This article reveals the essence of Jadid dramas, the essence of the Jadid movement, the specific features of the activities of the representatives of this movement, and their role in raising the spirituality of the people. The importance of theater in enriching the spirituality of the people in raising people's thinking is highlighted.

Keywords: *theater, culture, enlightenment, Jadid movement, Jadids, art, medium, literary heritage, dramaturgy.*

Kirish. Teatr - madaniyat, ma’naviyat bilan tanishishning eng kuchli vositalaridan biri bo‘lib, ma’rifatli odamlarning yangi avlodini tarbiyalashda asosiy rol o‘ynaydi. Bu bolalar uchun eng demokratik va arzon san’at turlaridan biri bo‘lib, bolaga uning ma’naviy va ijodiy salohiyatini ochib berishda yordam beradi.[1]

Teatr tahlil qilish san’ati bo‘lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning axloqiy va nafosat tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san’at, raqs, me’morlik ajralmas birlikni tashkil etadi.Inson ma’naviyatini yuksaltirishda, ong va tafakkurini teranlashtirishda teatr san’atining o‘rni kata. Teatr oddiy tomoshaxona emas, balki ta`lim-tarbiya, madaniy- ma’naviy va ma’rifat maskandir.Haqiqatdan teatr har qanday vaqt va zamonda, doim hayotiy dars beruvchi jonli vosita hisoblangan. Inson ma’naviyatini yuksaltirishda teatrning alohida o‘rni bor. Jadidchilar ma’rifat va ma’naviyat yoyuvchisi sifatida bu maqsadning xalq orasida tezroq yoyilishida teatrdan foydalanish kerakligini eng maqbul tanlov deb bildilar va ular bu borada adashmagan edilar. Jadidchilik harakati o‘z mohiyati va maqsadiga ko‘ra, ilk kunlardanoq madaniy-ma’rifiy hamda siyosiy islohotlarga yo‘naltirilgan yangilanish harakati sifatida shakllangan edi. Ammo Vatanni ozod etish, xalqni erkinlik sari yetaklash, farovon va madaniy hayotga erishishdek yuksak orzularni amalga oshirish uchun jadidlar dastlabki e’tiborlarini aynan ilm-ma’rifatni yoyish, madaniyatni yuksaltirish kabi sohalarga qaratdilar.Bu davrda millatni inqiroz yoqasidan olib qolish, uni mustaqillik sari yetaklash uchun ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy tarbiya kuchli ta’sir vositasi, muhim omil sifatida qaralgan. Jadidlar bu yo‘ldagi sa’y-harakatlarni milliy ozodlik kurashining poydevori deb bilganlar.Ular musulmon dunyosidagi qoloqlik va mutaassiblikka qarshi chiqib, diniy e’tiqod bilan uyg‘unlashgan zamonaviy ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surganlar va bu orqali xalq ongini yangilashga intilganlar.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning jadidlar haqidagi fikrlarini keltirmoqchiman: “Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”. Demak, mustaqil Vatanimiz ertasi bo`lgan yoshlarning mustaqil fikrli, Vatanga sodiq, atrofdagilarga mehribon, so`zida sobit turadigan, tinchlikni e`zozlaydigan, axloqiy sifatlarni rivojlantirishda jadid ma`rifatparvarlarining asarlari, nafaqat ularni o`qish balki ta`sirini orttirish maqsadida, teran his qilishlari uchun teatr orqali erishish ham bir samarali usul hisoblanadi.Jadid dramaturglar o‘z sahna asarlarida jamiyatda uzoq yillar davomida illat sifatida qaralib kelgan bangilik, qimor o‘ynash, spirtli ichimliklarga ruju qo‘yish kabi og‘riqli muammolarni fosh etgan. Ular bu illatlarning inson hayotini tubanlikka yetaklashini, ilm-ma’rifatdan yiroqlik va ortiqcha dabdabaga intilish natijasida yuzaga keladigan fojiaviy oqibatlarni chuqur tahlil etishga harakat qilganlar.Bilamizki, tarbiya masalasi har qaysi davrda dolzarb bo‘lgan. Jadid ma’rifatparvarlari kishilarning ma’naviy axloqiy tarbiyasiga asosiy e’tiborni qaratib, ularni har xil chet madaniyatlardan, axloqlardan saqlanishga chaqirganlar.[2] Jadidchilarning teatr ochishdagi maqsadi chuqur ijtimoiy, ma’rifiy va tarbiyaviy maqsadlarga asoslangan bo‘lib, bu harakat XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston hududida taraqqiyotga yo‘naltirilgan islohotlar kontekstida yuzaga kelgan. Quyida ularning teatr ochishdagi asosiy maqsadlari keltirilgan:

Ma’rifat tarqatish va xalqni uyg‘otish-jadidlar teatrni xalqni savodsizlikdan qutqarish, ularning ongini yoritish vositasi deb bildilar. Ular teatr orqali diniy fanlar bilan chegaralanib qolgan eski maktab-ta’lim tizimiga qarshi chiqib, zamonaviy, dunyoviy bilimlarni targ‘ib etishga intildilar.

Ijtimoiy muammolarni ko‘rsatish va tanqid qilish - Teatr sahnalari orqali ular jamiyatdagi johillik, zo‘ravonlik, ayollarni kamsitish, poraxo‘rlik, ortiqcha rasm-rusumlar kabi illatlarni fosh etdilar. Bu bilan xalqni o‘z hayoti ustida o‘ylashga va ijobiy o‘zgarishlar sari intilishga undadilar.

Zamonaviy tafakkurni shakllantirish-Jadidlar jamiyatda erkin fikr, tahliliy yondashuv va sog‘lom muhokama madaniyatini rivojlantirishni maqsad qilgan edilar. Teatr asarlari orqali ular xalqni yangicha fikrlash, zamonaviy g‘oyalarga ochiqlik ruhida tarbiyalashni istadilar.

Milliy o‘zlik va birlikni shakllantirish-Teatr vositasida jadidlar xalq orasida milliy ong, birlik, vatanparvarlik va erkinlik g‘oyalarini tarqatishga harakat qildilar. Ular sahnalashtirilgan asarlar orqali Turkiston muxtoriyati, istiqlol, ozodlik kabi tushunchalarni ommalashtirdilar.

Ayollar mavqeini ko‘tarish-Jadidlar teatrda ayollar masalasini faol yoritib, ularning ta’lim olish huquqi, jamiyatdagi o‘rni, erkaklar bilan teng huquqli bo‘lishi kerakligini targ‘ib qildilar. Bu ayniqsa Hamza Hakimzoda Niyoziy asarlarida yaqqol ko‘rinadi.

Xayriya va ta’lim maqsadlari-Ko‘plab jadidlar spektakllardan tushgan mablag‘ni “usul-i jadid” maktablarini qo‘llab-quvvatlash, xayriya tashkilotlari ochish va harbiy xizmatchilarga yordam ko‘rsatishga sarflaganlar.

Teatr haqida gap ketganda ulug‘ ma’rifatparvar Mahmudxo`ja Behbudiyning **“Teatr – bu ibratxonadir”** degan fikrini olaylik. Menimcha, teatr nafaqat san’at turi, balki inson tafakkurini

shakllantiruvchi muhim tarbiya vositasidir. Ayniqsa, u yosh avlod qalbida ezgulikka intilish, Vatanga sadoqat, ota-onaga hurmat, do‘stlik va oilaviy qadriyatlarga sadoqat hamda kasbga mehr tuyg‘ularini uyg‘otishda beqiyos ta’sir kuchiga ega. Teatr orqali inson hayot mazmunini chuqur anglaydi va unda saboq bo‘ladigan voqealardan ibrat oladi.Mahmudxo‘ja Behbudiyning boy ilmiy va adabiy merosi, hayotiy donolik bilan yo‘g‘rilgan nasihatlari bugungi kunda ham xalqimizning ma’naviy o‘sishiga yo‘l ko‘rsatuvchi nurli manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bu asarlar yosh avlodni tarbiyalashda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi, deb o‘ylayman.Meningcha, bugungi kunda yoshlarni teatr san’atiga kengroq jalb etish, zamonaviy qahramonlar hayoti tasvirlangan spektakllarni ko‘paytirish juda dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, huquqbuzarlik va jinoyatlarning og‘ir oqibatlarini sahna orqali ko‘rsatish orqali yoshlarga ta’sirchan tarzda yetkazish mumkin. Chunki har bir yosh tomoshabin qonunlarni o‘qib yoki eshitib ularning mazmunini chuqur tushunmasligi mumkin. Biroq sahnadagi real hayotiy voqealar asosida yaratilgan asarlar orqali berilgan g‘oyalar nafaqat yoshlarga, balki kattalarga ham chuqur ta’sir qiladi, deb hisoblayman.Har bir millatga o‘zini tanishi va to‘g‘ri yo‘lga boshlashi uchun bir turdagi “oyna” zarur — shunday oynaki, u orqali xalq nafaqat o‘z yutuqlari va go‘zalliklarini, balki kamchilik va nuqsonlarini ham ko‘rib, xulosa chiqara olsin. O‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyotida unutilmas iz qoldirgan muhim voqealardan biri – ozodlik va mustaqillik g‘oyalari hamda xalqning orzu-umidlarini o‘zida mujassam etgan Turkiston muxtoriyati hodisasi bilan bog‘liq. Hozirgi davrda millat ravnaqiga befarq bo‘lmagan ziyolilar, ayniqsa jadidlar harakatining erkinlik yo‘lida olib borgan faoliyatini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Uzoq yillardan beri tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lib kelayotgan muxtoriyat tarixi bugungi kunda faqat nazariy emas, balki amaliy hamda siyosiy jihatdan ham dolzarb mavzulardan biri bo‘lib bormoqda. Chunki bu davrni to‘liq anglash va to‘g‘ri baholash zarurati kundan-kunga ortib bormoqda.Jadidlar ijodining e’tiborga molik jihatlaridan yana biri shundaki, ular adabiy ijodning faqat bitta shakli bilan cheklanib qolmaganlar. Ular turli janrlarda asarlar yaratgan holda, shu bilan birga, sahna san’atining rivojiga ham katta hissa qo‘shib, o‘zbek adabiyotiga ilk bor dramaturgiya yo‘nalishini olib kirganlar.

So‘nggi yillarda teatr san’atining taraqqiyotiga alohida e’tibor qaratilayotgani yaqqol sezilmoqda. Bu yo‘nalishda qator muhim qaror va dasturlar hayotga tatbiq etilayotgani davlatimiz tomonidan ushbu soha rivojiga jiddiy yondashilayotganidan dalolat beradi, deb o‘ylayman.Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-mayda “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni, 2022-yil 2-fevralda “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 25-dekabrda “Aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 22-noyabrda “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari e’lon qilingan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg‘onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri bo‘lib, shu davrda o‘zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg‘onishida muhim rol o‘ynadi. U Turkistonda yangi usul maktablarining ochilishi, milliy matbuotning yuzaga kelishida faol ishtirok etibgina qolmay, birinchi o‘zbek dramasini yaratib, professional o‘zbek teatr san’atining maydonga kelishiga zamin hozirladi. U xalq va jamiyatni ma’rifatlashtirish orqali mustaqillikka erishish g‘oyasini olg‘a surgan va shu qutlug‘ yo‘lda halok bo‘lgan ulug‘ ajdodimizdir.[3] Turkistonda dramaturgiya faoliyatini boshlab bergan Mahmudxo‘ja Behbudiyning sahna san’atiga bo‘lgan mehrini, uning ta’lim va tarbiya masalalariga bergan yuksak e’tibori orqali tushuntirish mumkin. Teatrning boshqa badiiy yo‘nalishlardan ustun jihati shundaki, u savodsiz qatlam vakillarining ham diqqatini tortishga qodir. Bu toifa vakillari sahnadagi voqealarni tomosha qilish jarayonida aytilayotgan fikr-mulohazalarni anglay oladi, shu tariqa tomoshabin ongini shakllantirish va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish imkoniyati yuzaga keladi. Jadidlar sahnalashtirgan dramalar oldiga qo‘yilgan birinchi vazifa – xalq orasida ma’rifiy darajani oshirib, ijtimoiy uyg‘onish jarayonini jadallashtirishdir. Ikkinchi dolzarb maqsad esa, spektakllardan tushgan mablag‘larni “usul-i jadid” maktablarini qo‘llab-quvvatlash, xayriya tashkilotlari va harbiy xizmatchilar ehtiyojlariga yo‘naltirib, moddiy ko‘mak ko‘rsatish orqali foydali ishga sarflashdan iborat edi.

Behbudiyning qarashlariga ko‘ra, xalqni ma’rifatli qilish uchun faqat maktab yetarli emas edi. Inson jamiyatdagi voqealardan, dunyo yangiliklaridan boxabar bo‘lib borishi, millatning holati va kunlik hayoti bilan tanish bo‘lishi lozim edi. Shu bois, xalq uchun shunday vosita zarur ediki, u orqali o‘zining ijobiy va salbiy jihatlarini anglab, xulosa chiqarishi mumkin bo‘lsin. Aynan shu ichki ehtiyoj Behbudiyni matbuot va teatrga yuz tutishga undadi. “Padarkush” asari esa ana shu maqsad yo‘lida yaratilgan muhim qadam bo‘ldi.“Padarkush” asari o‘zbek dramaturgiyasi tarixida barchaning tan olgan ilk asarlardan biri hisoblanadi. Adabiyotshunoslar ushbu dramani yangi davr o‘zbek adabiyotining boshlanish nuqtasi sifatida e’tirof etadilar. Muallif uni “Milliy fojea” deb atagan bo‘lib, uch pardadan va to‘rt manzaradan iborat bu sahna asari

hajm jihatidan qisqa, mazmunan esa oddiy va tushunarli. Unda savodsizlik va johillik oqibatida adashgan, tarbiyadan yiroq qolgan bir yigitning jinoyat yo‘liga kirib, otasining umriga zomin bo‘lishi tasvirlangan.Ma`naviyatsizlik, ilmsizlik, tarbiyasizlik oqibati ana shunday fojealarga sabab bo`lishini yoshlar teatr orqali yanada his qilishlarini, ilm orqali jaholatni yengish mumkinligini, yoshlarga noto`g`ri tarbiya oqibatlari ana shunday falokatlarga sabab bo`lishini , bu orqali nafaqat yoshlar, balki ota-onalarga ham yaxshigina dars bo`lganlanligini sezish mumkin. Behbudiyning so‘zlariga ko‘ra, teatr ta’sirini kuchaytiruvchi eng muhim omil ko‘rishdir. Savodsiz odam o‘z ko‘zi bilan ko‘radi, ko‘r esa eshitish orqali aytilganlarni kuzatadi va zavqlanadi. Teatrni o‘ziga xos maktab deb bilgan Behbudiy rivojlangan davlatlar o‘rtasida teatrga berilgan ahamiyat haqida ham gapiradi. Rivojlangan mamlakatlarda moddiy manfaatni o‘ylamay, millat manfaati uchun ishlaydigan o‘yinchilar yuqori sinf maqomiga ega ekanliklarini aytib o`tganlar.[4]

Teatrimiz tarixida uning nufuzini oshirish uchun o’z hissasini qo’shgan, o’zlaridan o’chmas asarlar qoldira olgan jadidchimiz Abdulla Avloniydir. Uning dramaturgiya sohasidagi "Pinak", "Advokatlik osonmi?" nomli bir pardali komediyalari Turkiston hayotining chirkin, ko’ngilsiz tomonlarini fosh etishga, ma’rifatsizlikning millat uchun foje bir hol ekanini ko’rsatishga qaratilgan. Ikkala asarda ham bu g’oya kulgu orqali komik vaziyatda aks etadi.[5] Demak, ma`naviyatsizlik, ma`rifatsizlik insonni, jamiyatni uyatli vaziyatlarga solib qo`yishini tomoshabinlarga pyesalar ko`rinishida ochib bergan.Abdulla Avloniy teatr san’atining xalq ongiga ta’siri haqida “Teatr xususida munozara” maqolasida “Tiyotr har bir millatning yamon urf va odatlarini yo‘q qilmak uchun, o‘zini ahvolini tuzatmak uchun boqadurg‘on Oynasidir” - deydi.Avloniyning ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish g‘oyalarini kuylagan dastlabki dramalari o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotining hamisha bebaho mulki bo‘lib qoladi.[6]

Yana bir dramaturg, jamoat arbobi Hamka Hakimzoda Niyoziyning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” nomli sahna asarining asosiy g‘oyasi – XX asrda yashagan o‘zbek xalqining ijtimoiy holati, ayniqsa yoshlarning hayot tarzini, mavjud tuzumning inson taqdiriga ko‘rsatgan ta’sirini badiiy obrazlar orqali keng ommaga yetkazishdan iborat.Badiiy g‘oya deganda biz hayotning o‘zidan, insonlarning kechinmalari, real voqealar va ularning mazmun-mohiyatidan kelib chiquvchi mazmunli tasvirni tushunamiz. Ushbu drama orqali o‘sha davr hayoti keng va haqqoniy tarzda aks ettirilganini ko‘rish mumkin. Asarda Mahmudxon, Maryamxon, Mirzo Hamdamboy, Abduqodirboy singari markaziy personajlardan tortib, Zaynab kabi ikkinchi darajali obrazlargacha – har biri o‘sha davr jamiyatining turli tabaqalarini gavdalantiradi.Maryamxonning ota-onasi timsolida esa johil va ma’rifatdan yiroq ota-onalarning portreti ko‘z oldimizda gavdalanadi. Dramatik asarning g‘oyasi faqat mantiqiy bayon bilan chegaralanmasligi lozim, balki u hayotiylik, obrazlilik hamda badiiy chuqurlikka ega bo‘lishi muhim. Ushbu sahna asarining g‘oyasini faqatgina ijtimoiy hayotni tasvirlash bilangina cheklash noto‘g‘ri bo‘lur edi, chunki unda chin yurakdan bo‘lgan muhabbat, insonlar orasidagi ishonch, sadoqat kabi nozik tuyg‘ular ham ifodalangan.Bundan tashqari, Hamza ushbu asarda zulm ostida yashagan ayollarning kechinmalarini ham yorqin tasvirlagan. Ayniqsa Maryamxon obrazida butun bir davr xotin-qizlarining ijtimoiy holati va taqdiri mujassam etilgan.

Xulosa. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqadiki, jadidlar o‘z zamonasida mavjud madaniy muhitga yangi mazmun baxsh etishni o‘z oldilariga ustuvor vazifa qilib qo‘yganlar. Shu yo‘lda ular san’at, ommaviy axborot vositalari, ta’lim-tarbiya va adabiyot sohalarini yangilash, isloh qilish g‘oyasini ilgari surganlar. Bugungi kunda esa, ezgulik, mehr-oqibat kabi tushunchalarning qadrsizlanib borayotgan bir paytda, mafkuraviy tarbiyaning bosh maqsadi – axloqiy yetuk, ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish bo‘lishi lozim, deb o‘ylayman. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, xorijdan kirib kelayotgan turli ko‘ngilochar mahsulotlar — multiplikatsion filmlar, videotasvirlar, audio materiallar, badiiy kitoblar va matbuot vositalarining xalqimiz ma’naviyatiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini chuqur tahlil qilish muhim masalalardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Mahmud Rashidov- Teatr san`ati:an`analar, yangiliklar va shaxsni tarbiyalashdagi roli
2. Qunduz Nishonboyeva- Jadid dramalari va unda etnomadaniy qadriyatlar
3. N.Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – T. 2010-yil. 1-b.
4. Sinem Küçükağaoğlu Tunç- “Oyna” jurnalida “Padarkush” mavzusidagi maqola va e`lonlar
5. Azizbek Taslimboyev- Abdulla Avloniy hayoti va o`zbek teatriga qo`shgan hissasi
6. Yulduz Murotova- Abdulla Avloniy dramaturgiyasi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA AXLOQIY QARASHLARNI SHAKLLANTIRISHDA NEYROPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna,
O‘zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti
Boshlang‘ich talim kafedrasi dotsenti
sahlohudojkulova@gmail.com
ORCID: 0009-0003-0342-6648

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda axloqiy qarashlarni shakllantirishda neyropedagogik texnologiyalarning roli ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot axloqiy qarashlarni shakllantirish jarayonida kognitiv va emotsional rivojlanish o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga qaratilgan. O‘qituvchining axloqiy yetakchi sifatidagi roli va o‘quvchilarga shaxsiy namuna bo‘lish usullari tahlil qilinadi. Neyropedagogika yoshlarda ongli qaror qabul qilish va shaxsiy mas’uliyatni his qilishga xizmat qilib, ularni barkamol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar etib tarbiyalashda muhim vosita sifatida yordam berishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *neyropedagogika, kognitiv, emotsional, his-tuyg‘u, barqarorlik, axloqiy muammo, xulq-atvor.*

РОЛЬ НЕЙРОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ НРАВСТВЕННЫХ ВЗГЛЯДОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В статье рассматривается роль нейропедагогических технологий в формировании нравственных взглядов у будущих педагогов. Исследование направлено на выявление взаимосвязи между когнитивным и эмоциональным развитием в процессе становления моральных ориентиров. Анализируется роль учителя как нравственного лидера, а также методы формирования личного примера для учеников. Установлено, что нейропедагогика способствует развитию осознанного принятия решений и чувства личной ответственности у молодежи, являясь эффективным инструментом в воспитании всесторонне развитой и социально ответственной личности.

Ключевые слова: *нейропедагогика, когнитивное развитие, эмоциональное развитие, чувства, устойчивость, моральные проблемы, поведение.*

THE ROLE OF NEUROPEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING MORAL VALUES AMONG FUTURE TEACHERS

This article examines the role of neuropedagogical technologies in shaping the moral values of future educators. The study focuses on identifying the interconnection between cognitive and emotional development in the process of moral formation. It analyzes the role of the teacher as a moral leader and explores methods of setting a personal example for students. The findings indicate that neuropedagogy fosters conscious decision-making and the development of a sense of personal responsibility among youth, serving as an effective tool in nurturing well-rounded and socially responsible individuals.

Keywords: *neuropedagogy, cognitive development, emotional development, feelings, resilience, moral challenges, behavior.*

Kirish. Axloqiy qarashlarni shakllantirish jarayonida neyropedagogik texnologiyalar juda muhim o‘rin tutadi, chunki bu texnologiyalar yoshlarning kognitiv va emotsional rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq inobatga oladi. Kognitiv rivojlanish insonning axloqiy tushunchalarni qabul qilish, anglash va ularni turli hayotiy vaziyatlarda amalda qo‘llash qobiliyatini oshiradi. Neyropedagogika asosida ishlab chiqilgan metodlar va usullar yoshlarning fikrlash jarayonlarini faollashtirib, ularda tanqidiy va mantiqiy mulohaza qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda yoshlar turli axloqiy masalalarni tahlil qilish, ularni boshqa qadriyatlar bilan solishtirish va to‘g‘ri qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Axloqiy qarashlarni shakllantirish jarayonida kognitiv va emotsional rivojlanish o‘zaro bog‘liq va mustahkam asos hisoblanadi. Kognitiv rivojlanish insonning bilim olish, fikrlash, tushunish, tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu qobiliyatlar yoshlarning axloqiy tushunchalarni anglash va ularga sodiq qolish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Axloqiy qarashlar faqat ma’lumotlarni yodda

saqlash yoki ularni bilishdan emas, balki ularni to‘g‘ri anglash, tahlil qilish va hayotiy vaziyatlarda amalga oshirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Axloqiy qarashlarni shakllantirish jarayonida kognitiv va emotsional rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi haqida psixolog va pedagog olimi L.S.Vigotskiy shunday deydi: “Insonning axloqiy rivojlanishi faqat uning bilimlari va ma’naviy tushunchalariga bog‘liq emas, balki uning his-tuyg‘ular, ehtiyoj va qiziqishlari bilan uyg‘unlikda rivojlanadi”.[4] Shu sababli, kognitiv rivojlanish yoshlarning axloqiy qarashlarni chuqurroq anglab yetishlariga yordam beradi.

Emotsional rivojlanish orqali yoshlar boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunib, munosabatlarida hurmat va insonparvarlikka asoslangan yondashuvni shakllantiradilar. Empatiya kabi his-tuyg‘ular yoshlarning o‘zlari va boshqalarga nisbatan axloqiy munosabatda bo‘lishlariga yordam beradi. Emotsional rivojlanishning yoshlarda axloqiy qarashlarni shakllantirishdagi ahamiyati haqida psixolog K. Rodjers shunday deb yozadi: “Insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash va ularni boshqarish qobiliyati uning ichki barqarorligi va axloqiy yetukligini ta’minlaydi. Empatiya, hurmat va emotsional barqarorlik shaxsning boshqalarga nisbatan munosabatlarida adolatli va insonparvar bo‘lishga yordam beradi”.[5] Emotsional rivojlanish orqali yoshlar o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri anglab, ularni turli axloqiy qarorlar qabul qilishda yo‘naltiruvchi vosita sifatida qo‘llaydilar.

Kognitiv va emotsional rivojlanishning birgalikdagi ta’siri yoshlarning axloqiy qarashlarini shakllantirishda mustahkam asos yaratadi. Bular o‘quvchilarga nafaqat axloqiy tushunchalarni tushunib yetish, balki ularni hayotda qo‘llash va turli vaziyatlarda amalda namoyon qilish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarni rivojlantiradi. Masalan, yoshlar o‘quv jarayonida axloqiy muammolarni tahlil qilish orqali o‘z qarashlarini shakllantiradilar va ularni hayotda qo‘llashga o‘rganadilar.

Shuningdek, kognitiv va emotsional rivojlanish orqali yoshlar axloqiy qaror qabul qilishda barqarorlikni saqlash va o‘z qadriyatlarini saqlab qolish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bunday barqarorlik ularni ijtimoiy munosabatlarda mas’uliyatli va mustahkam shaxs sifatida rivojlantirishga yordam beradi. Axloqiy qarashlarni shakllantirish jarayonida kognitiv va emotsional rivojlanish yoshlarning shaxsiy yetuklikka erishishlarini va jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlarini ta’minlaydi. Shu sababli, axloqiy qarashlarni shakllantirishda kognitiv va emotsional rivojlanish yoshlar uchun faqat bilim berish emas, balki ularni ma’naviy jihatdan mustahkam va barkamol shaxslar qilib tarbiyalash jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda neyropedagogikaning yoshlarni ongli va mas’uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalashdagi roli borasida ham o‘rganishlar olib borildi. Neyropedagogika yoshlarni ongli va mas’uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan pedagogik yondashuvlardan biridir. Bu texnologiya yordamida yoshlarning kognitiv va emotsional rivojlanishi chuqurroq inobatga olinadi, bu esa ularning axloqiy qarashlari, shaxsiy mas’uliyati va ijtimoiy munosabatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Neyropedagogika inson miyasining rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olgan holda yoshlarga axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni chuqurroq tushunish va hayotda amalga oshirishda yordam beradi.

Neyropedagogikaning asosiy vazifalaridan biri yoshlarda ongli qaror qabul qilish va o‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini tushunib yetish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonida yoshlar o‘zlari uchun muhim bo‘lgan qadriyatlar va axloqiy prinsiplarni anglab, turli vaziyatlarda ularga sodiq qolishni o‘rganadilar. Masalan, rolli o‘yinlar va holatli mashg‘ulotlar orqali yoshlar turli axloqiy muammolar bilan to‘qnashib, o‘z munosabatlarini shakllantiradilar. Bunday mashg‘ulotlar yoshlarda shaxsiy mas’uliyat tuyg‘usini kuchaytiradi va ularning qarorlariga ta’sir qiluvchi turli omillarni to‘g‘ri baholash qobiliyatini oshiradi. “Yoshlar uchun axloqiy qaror qabul qilish jarayonida shaxsiy mas’uliyatni his qilish va o‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini tushunish muhimdir. Axloqiy tarbiya va kognitiv rivojlanish birgalikda ularda mustahkam qadriyatlar va insoniylik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi”.

Neyropedagogikaning yana bir muhim roli yoshlarda ijtimoiy munosabatlarda hurmat, empatiya va insonparvarlik kabi qadriyatlarni rivojlantirishdir. Bunday qadriyatlarni shakllantirish orqali yoshlar o‘z ehtiyojlarini boshqalarning ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirib, ijtimoiy mas’uliyatlarini anglaydilar. Yoshlar turli jamoaviy va ijtimoiy faoliyatlarda qatnashish orqali jamoa manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish, boshqalarga yordam berish va fuqarolik burchini ado etish kabi masalalarni tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, neyropedagogika yoshlarning his-tuyg‘ularini to‘g‘ri boshqara olishga va turli vaziyatlarda emotsional barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Emotsional intellektni rivojlantirish yoshlarga turli ijtimoiy munosabatlarda his-tuyg‘ularini anglab, ularni turli axloqiy vaziyatlarda samarali qo‘llashni o‘rgatadi. Masalan, his-tuyg‘ularni nazorat qilish va ularni turli axloqiy tanlovlarda samarali qo‘llash yoshlarning shaxsiy yetuklikka erishishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.His-tuyg‘ularni uyg‘otish yoshlarda emotsional barqarorlik va ijtimoiy munosabatlarda axloqiy tuyg‘ularga tayanish

qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, qo‘rquv, xayr-ehson, hurmat yoki o‘zaro hamdardlik kabi his-tuyg‘ular yoshlar uchun axloqiy tushunchalarni kundalik hayotda amalga oshirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. His-tuyg‘ularni uyg‘otish orqali yoshlar turli ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda hissiy barqarorlikka ega bo‘ladilar. Bunday qobiliyat axloqiy qarorlarni qabul qilishda turli empatiya, adolat va mas’uliyat kabi qadriyatlarni amalda qo‘llashga yordam beradi.

Bunga asosan neyropsixolog Daniel Goulman shunday deydi: “His-tuyg‘ular insonning ongida axloqiy tushunchalarni chuqurroq joylashtirishda muhim vosita hisoblanadi, chunki yoshlar o‘z his-tuyg‘ulari orqali axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirishga moyil bo‘ladilar” [6]

Shu tarzda, neyropedagogik texnologiyalar his-tuyg‘ularni uyg‘otish orqali yoshlarda axloqiy qarashlarni mustahkamlash, ularning emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va kundalik hayotda axloqiy qadriyatlarga amal qilishlarini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. His-tuyg‘ularni uyg‘otish orqali yoshlar axloqiy qadriyatlarni nafaqat o‘rganib qoladilar, balki ularni amaliy jihatdan qo‘llashga tayyor bo‘ladilar, bu esa ularning shaxs sifatida barkamollikka erishishlarini ta’minlaydi.

Muhokama va natijalar. Neyropedagogik texnologiyalar yoshlarning emotsional rivojlanishiga sezilarli darajada yordam beradi, chunki bu texnologiyalar inson miyasining empatiya, his-tuyg‘ularni anglash va nazorat qilish bilan bog‘liq tuzilmalariga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, videolar, rolli o‘yinlar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali yoshlar turli axloqiy vaziyatlarda qanday his-tuyg‘ularni boshdan kechirishini o‘rganadilar. Bunday mashg‘ulotlar yoshlarda his-tuyg‘ularni anglash va ularga mos munosabat bildirish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Empatiya kabi tuyg‘ular yoshlarning turli ijtimoiy vaziyatlarda boshqalarning his-tuyg‘ularini anglashlariga yordam beradi. Bunday empatiya tuyg‘usi axloqiy qarashlarni amalga oshirishda yordam beradi, chunki yoshlar birgalikdagi manfaatlarni shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishni o‘rganadilar. Neyropedagogik usullar yoshlarga turli vaziyatlarda his-tuyg‘ularni uyg‘otish orqali turli xil axloqiy masalalarni tushunish va hal qilish imkonini beradi.

Qiyin vaziyatlar insonning haqiqiy axloqiy qarashlarini namoyon etadigan holatlardir. Neyropedagogik yondashuvlar orqali yoshlar qiyin va murakkab vaziyatlarda o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilishni va axloqiy qadriyatlarga sodiq qolishni o‘rganadilar. Turli holatli mashqlar va vaziyatli o‘yinlar yoshlarning qaror qabul qilish jarayonida his-tuyg‘ularni anglab, ularga to‘g‘ri yondoshishlarini ta’minlaydi. Masalan, axloqiy dilemmalarda yoshlar o‘z his-tuyg‘ularini anglab, ularni nazorat qilish va obyektiv fikrlash orqali to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganadilar.

Tadqiqotlarga ko‘ra, his-tuyg‘ularni anglash va ularni muvofiq tarzda boshqarish qobiliyati yoshlarning ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishlariga yordam beradi. Masalan, neyropsixologik tadqiqotchi Daniel Goulman ta’kidlaganidek, “Empatiya va boshqa emotsional ko‘nikmalar turli ijtimoiy vaziyatlarda insonning axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega”.

Qiyin vaziyatlarda yoshlar o‘z his-tuyg‘ularini anglab, ularga mos ravishda munosabat bildirish orqali axloqiy qarashlarni amalga oshirish ko‘nikmasini rivojlantiradilar. Bu jarayonda yoshlar shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatlarini to‘liq anglab, ularga sodiq qolishni o‘rganadilar. Bunday ko‘nikmalar ularning hayotdagi qarorlari va jamiyatdagi mavqelarini aniqlaydi.

Shunday qilib, neyropedagogik texnologiyalar yoshlarning his-tuyg‘ularini uyg‘otish va ularni qiyin vaziyatlarda axloqiy qarashlarga muvofiq amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bunday usullar yordamida yoshlar nafaqat axloqiy tushunchalarni anglab qolmay, balki ularni hayotda samarali qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Ijtimoiy munosabatlarda axloqiy me’yorlarni qo‘llash. Axloqiy me’yorlarni qo‘llash yoshlarning ijtimoiy munosabatlarda mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy tarbiya yoshlarda nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamoat oldidagi burchlarni anglash va ijtimoiy mas’uliyatni his qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Neyropedagogik texnologiyalar yordamida yoshlar ijtimoiy munosabatlarda boshqalarning ehtiyojlari va qadriyatlarini tushunish, hurmat qilish va turli ijtimoiy holatlarda ularga munosib munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar. Bunday texnologiyalar orqali shakllantirilgan axloqiy me’yorlar yoshlarning kundalik munosabatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlaydi.

Neyropedagogik yondashuvlar orqali yoshlar orasida hurmat, insonparvarlik va mas’uliyatli munosabatlarni shakllantirish jarayonida turli amaliyotlar va holatli mashg‘ulotlardan foydalanish muhimdir. Masalan, rolli o‘yinlar yoki turli ijtimoiy muammolarni tahlil qilish mashg‘ulotlari yoshlarga turli vaziyatlarda qanday yo‘l tutish kerakligini o‘rgatadi. Bunday mashg‘ulotlar yoshlar uchun foydali bo‘lib, ularni shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish va boshqalarga yordam berish kabi qadriyatlarni tushunib yetishga undaydi. Shunday yondashuv yoshlarda boshqalarning huquqlari va ehtiyojlarini inobatga olib, mas’uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Hurmat va insonparvarlik qadriyatlari yoshlarda empatiya tuyg‘usini uyg‘otib, boshqalarning ehtiyojlarini tushunib, ularga munosabat bildirishga yordam beradi. Neyropedagogik texnologiyalar yordamida shakllangan hurmat va insonparvarlik qadriyatlari yoshlarni jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda barqarorlikni ta’minlovchi shaxslarga aylantiradi. Ular boshqalarga yordam berish, muammolarni hal qilishda sherikchilik qilish va umumiy manfaatlarni hisobga olish kabi tuyg‘ularni o‘zlashtiradilar. Masalan, vaziyatli mashg‘ulotlar yoki jamoaviy faoliyat orqali yoshlar boshqalarga yordam berishni o‘rganadilar va jamiyat oldida mas’uliyatli bo‘lishni anglaydilar.

Neyropedagogik texnologiyalar yoshlarda jamoat oldidagi mas’uliyatni tushunish va ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ri yo‘l tutish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Yoshlar jamoa ichida axloqiy qarashlarni qo‘llab, ularga sodiq qolishda har doim shaxsiy manfaatlardan ustun jamoat manfaatlarini qo‘yadigan shaxslar sifatida rivojlanadilar. Masalan, tanqidiy fikrlash mashg‘ulotlari orqali ular turli axloqiy muammolarni tahlil qilib, adolat va hurmat kabi qadriyatlarga muvofiq qarorlar qabul qilishni o‘rganadilar.

Umuman, neyropedagogik texnologiyalar yoshlar orasida hurmat, insonparvarlik va mas’uliyatli munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar yoshlarga jamoaviy ishlarda o‘z qadriyatlarini amalga oshirish, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish, mas’uliyatli fuqarolar bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ular jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga yordam berib, axloqiy me’yorlarga sodiq shaxslar sifatida barkamollikka erishishlari uchun mustahkam asos yaratadi.

Tadqiqotda neyropedagogik yondashuvlar yordamida yoshlar orasida hurmat, insonparvarlik va mas’uliyatli munosabatlarni shakllantirish muammosi borasida ham fikrlar umumlashtirildi. Neyropedagogik yondashuvlar yoshlar o‘rtasida hurmat va insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda juda samaralidir. Yoshlar ijtimoiy munosabatlarda empatiya, hurmat va adolat tuyg‘ularini qo‘llab-quvvatlash orqali mustahkam aloqalar o‘rnatadilar. Masalan, vaziyatli mashqlar va rolli o‘yinlar yoshlarga ijtimoiy mas’uliyat va insonparvarlikka asoslangan munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi. Bunday mashg‘ulotlar orqali yoshlar boshqalarning ehtiyojlari va qadriyatlarini hurmat qilish, hamdardlik bildirish, jamoaviy muvaffaqiyatga hissa qo‘shish kabi tuyg‘ularni o‘rganadilar.

Neyropedagogikaning yoshlar ongiga ta’sir qilish vositalari yordamida ular jamiyatning qoidalariga va boshqa shaxslarning huquqlariga rioya qilishni anglaydilar. Ma’naviy tarbiya sohasida izlanishlar olib borgan o‘zbek olimi S.A.Norov ta’kidlaganidek, “... har bir yosh avlod vakillari jamiyat qoidalari va ijtimoiy axloqiy me’yorlarga rioya qilish orqali o‘zining mas’uliyatli fuqarolik vazifasini anglab, unga sodiq qolishi lozim”.

Jamoaviy ishlarda adolat va hurmat tuyg‘ularini rivojlantirish axloqiy tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Neyropedagogik texnologiyalar orqali yoshlar jamoaviy ishlarda to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar, jamoadagi har bir shaxsning qadri va haq-huquqlarini hurmat qilishni tushunadilar. Bunday texnologiyalar yordamida yoshlar nafaqat jamoa manfaatlariga xizmat qiladilar, balki o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini umumiy manfaatlardan ustun qo‘ymaslikka o‘rganadilar.

Jamoaviy ishlarda adolatni saqlash uchun yoshlarga turli ko‘nikmalarni o‘rgatish zarur. Turli neyropedagogik metodlar orqali yoshlar odillik va hurmat tuyg‘ularini shakllantiradigan mashg‘ulotlar o‘tkaziladi, bu esa ularga jamoada axloqiy munosabatda bo‘lish imkonini beradi. Bunday ko‘nikmalar yoshlarning ijtimoiy munosabatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishlarini ta’minlaydi, ularning jamoadagi ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Shuningdek, neyropedagogika yordamida yoshlarda mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish ularning fuqarolik burchlarini anglab yetishlariga va jamoat oldida o‘z vazifalarini ado etishlariga yordam beradi. Neyropedagogik yondashuvlar yoshlarning ijtimoiy munosabatlarda mustaqil va ongli faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan axloqiy asosni yaratadi.

Umuman, neyropedagogik texnologiyalar yoshlar orasida hurmat, insonparvarlik, adolat va mas’uliyat kabi xususiyatlarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ular yoshlar orasida ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga yordam berib, ularni kelajakda fuqarolik burchlarini anglagan, jamoa manfaatlarini himoya qiladigan barkamol shaxslar qilib yetishtiradi.

Axloqiy qaror qabul qilish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yoshlar uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon axloqiy tushunchalarni nazariy jihatdan bilish bilan cheklanmasdan, yoshlardan bu tushunchalarni amaliy jihatdan qo‘llashni talab qiladi. Yoshlar turli vaziyatlarda to‘g‘ri axloqiy tanlovlar qilishlari uchun axloqiy prinsiplarni chuqur tushunib yetishi, shuningdek, o‘z qarorlarini hayotiy holatlarga moslashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Tanqidiy fikrlash yoshlarga axloqiy masalalarni har tomonlama o‘rganish, turli nuqtai nazarlarni inobatga olish va qarorlarning ijtimoiy, madaniy va shaxsiy oqibatlarini chuqur tushunish imkonini beradi.

Neyropedagogik texnologiyalar yordamida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodikalar yoshlarning axloqiy tanlovlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, holatli tahlil, rolli o‘yinlar, klasterlar yaratish va aks ettirish mashqlari kabi neyropedagogik metodikalar yoshlarga turli axloqiy dilemmalarni hal qilishda yordam beradi. Bu metodlar yoshlarga axloqiy prinsiplarni har tomonlama tahlil qilish va har bir qarorning oqibatini chuqurroq anglash imkoniyatini taqdim etadi. Ular yoshlarga muammoli vaziyatlarda qanday yo‘l tutish kerakligini o‘rgatib, tanlovlarini xolisona qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Axloqiy qaror qabul qilishda ta’limiy metodikalarning umumiy tavsifiga kelsak, bu metodikalar yoshlarning axloqiy tushunchalarini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, ular tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Axloqiy masalalar bo‘yicha mashg‘ulotlar, debatlar va muhokamalar yoshlarni turli axloqiy holatlarga tayyorlaydi va ularda shaxsiy mas’uliyatni his qilish tuyg‘usini uyg‘otadi. Bunday metodikalar yoshlarga nafaqat axloqiy tushunchalarni chuqurroq tushunib yetishga, balki ularni hayotda qo‘llash va ularga sodiq qolish uchun zarur bo‘lgan kognitiv, emotsional va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’limiy metodikalar yoshlarga axloqiy qaror qabul qilishda o‘z nuqtai nazarlarini aniq va ishonchli tarzda ifoda etish imkoniyatini ham beradi. Masalan, aks ettirish va mulohaza yuritish mashg‘ulotlari yoshlarga o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish va qayta ko‘rib chiqish, har bir qarorning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini anglashda yordam beradi. Bu metodlar yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi, ularning shaxsiy qarashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda jamiyatda mustahkam axloqiy asosga ega fuqarolar sifatida yetishishlariga ko‘maklashadi.

Umuman, neyropedagogik texnologiyalar orqali axloqiy qaror qabul qilish jarayonida tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish yoshlar uchun zarur axloqiy mezonlarni shakllantirib, ularga mustaqil va mas’uliyatli shaxslar bo‘lib yetishishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlash metodlari yoshlarning turli axloqiy muammolarga har tomonlama yondashishlarini ta’minlaydi. Masalan, “Vaziyatli tahlil” (case study) metodi yoshlarga turli axloqiy dilemmalarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Bu metod yoshlarga voqealarni har tomonlama o‘rganish, turli nuqtai nazarlarni inobatga olish va har bir qarorning ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Yoshlar axloqiy dilemmalarni chuqurroq tushunganlari sari, ularning tanlovlari mustahkam va barqaror bo‘ladi.

Bundan tashqari, “Klaster” (cluster mapping) metodi ham tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan muhim neyropedagogik usullardan biri hisoblanadi. Bu usul yordamida yoshlar axloqiy tushunchalar va qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlab, ularni turli vaziyatlarda qo‘llashda yangicha yondashuvlarni o‘rganadilar. Masalan, ular “adolat”, “hurmat”, “mas’uliyat” kabi qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligini tushunib, qarorlarini turli yondashuvlardan baholaydilar.

Tadqiqotchi Z.Abdurahimov ta’kidlaganidek, “Tanqidiy fikrlash yoshlarga nafaqat axloqiy tushunchalarni tushunib yetish, balki ularni hayotda amalda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirishda muhim asos hisoblanadi”.

Quyida axloqiy muammolarni tahlil qilish orqali shaxsiy qarashlarni rivojlantirishda qo‘llaniladigan neyropedagogik usullarni ko‘rib chiqamiz. Axloqiy muammolarni tahlil qilish yoshlarda shaxsiy qarashlarni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Neyropedagogikadagi “Aks ettirish mashqlari” (reflective practices) yoshlarni axloqiy qarorlar qabul qilishda mas’uliyat va tanqidiy yondashuvni shakllantirishga yo‘naltiradi. Aks ettirish mashqlari yoshlarga o‘zlarining qarorlari, xatti-harakati va qadriyatlari haqida o‘ylab ko‘rish, ularni qayta baholash va to‘g‘ri qarorga kelish imkonini yaratadi. Masalan, yoshlar biror vaziyatdagi tanlovni ko‘rib chiqib, nima uchun shunday qarorga kelganlarini va uning ijtimoiy oqibatlarini o‘ylab chiqadilar. Bu yoshlarga axloqiy qarashlarni shakllantirishda foydali bo‘lib, ularning shaxsiy qadriyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

“Masala yechish mashg‘ulotlari” (problem-solving activities) yoshlarning axloqiy qarashlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu mashg‘ulotlar yoshlarga turli ijtimoiy va axloqiy masalalarni tahlil qilish, ularni tushunish va samarali yechim topish qobiliyatini rivojlantiradi. Yoshlar masala yechish jarayonida axloqiy tanlovlarini mustahkamlaydilar va turli vaziyatlarda shaxsiy qadriyatlariga sodiq qolishni o‘rganadilar. Bu ularning ijtimoiy munosabatlarda mustahkam shaxs bo‘lib yetishishlariga yordam beradi.

“Muhokama va debatlar” (discussions and debates) metodi yoshlarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Muhokama va debatlar yoshlarning axloqiy masalalarga turli nuqtai nazardan yondashishlarini ta’minlaydi, bu esa ularning shaxsiy qarashlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlar turli fikrlarni tinglab, ularni tahlil qilish va o‘z nuqtai nazarlarini ifoda etish orqali axloqiy qarashlarini mustahkamlaydilar.

O‘qituvchining shaxsiy namunasi orqali o‘quvchilarning axloqiy qarashlarini shakllantirish metodikasi ham mavjud bo‘lib, ushbu metodika axloqiy tarbiyada muhim o‘rin tutadi, chunki u faqat bilim berish emas,

balki axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan. O‘qituvchi o‘z xulqi, munosabati va shaxsiy qadriyatlari orqali o‘quvchilarga axloqiy tamoyillarni amalda ko‘rsatadi. O‘qituvchining shaxsiy namunasi yoshlarga o‘ziga xos axloqiy yetakchi sifatida ta’sir ko‘rsatib, ularda o‘z qarashlari va qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Quyida **o‘qituvchining axloqiy yetakchi sifatidagi roli va o‘quvchilarga shaxsiy namuna bo‘lish usullarini** ko‘rib chiqamiz. O‘qituvchining axloqiy yetakchi sifatidagi roli o‘quvchilarga shaxsiy namuna orqali axloqiy qadriyatlarni tushuntirishni va amalga oshirishni nazarda tutadi. Bunda o‘qituvchi quyidagi usullar orqali o‘quvchilarda axloqiy qarashlarni rivojlantirishi mumkin:

1. **Rolli o‘yinlar va turli vaziyatli mashg‘ulotlar.** O‘qituvchi axloqiy dilemmalar yoki voqealarga bag‘ishlangan rolli o‘yinlar o‘tkazish orqali o‘quvchilarni axloqiy qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etadi. Masalan, adolat, hurmat yoki mas’uliyat kabi qadriyatlarga asoslangan vaziyatlarda o‘qituvchilar o‘z munosabatini namoyon etish orqali yoshlarga namuna bo‘ladi. Bunday rolli o‘yinlar yoshlarning tanqidiy fikrlashini va jamoaviy munosabatlarda axloqiy qadriyatlarni qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

2. **Har kuni amaliy faoliyatda ko‘rsatadigan xulq-atvor namunasi.** O‘qituvchi o‘zining xulq-atvori, ya’ni barqarorligi, mas’uliyatliligi, to‘g‘riligi va hurmatli munosabati bilan o‘quvchilar uchun doimiy bir namuna sifatida xizmat qiladi. Masalan, o‘qituvchi muammoli vaziyatlarda sabrli va halol bo‘lishni namoyish etadi, bu esa yoshlarni to‘g‘ri yo‘l tutishga o‘rgatadi. Shaxsiy namuna yoshlarda axloqiy qarashlarni chuqurroq anglashga va ularni hayotda qo‘llashga yordam beradi.

3. **Muhokamalar va debatlarda shaxsiy qadriyatlarni ochiq bayon qilish.** O‘qituvchi o‘quvchilar bilan turli axloqiy masalalarni muhokama qilish jarayonida o‘z shaxsiy qarashlarini bayon etish orqali ularni rag‘batlantiradi. Bunda o‘qituvchi o‘z nuqtai nazarini ochiq va ishonchli bayon qilib, yoshlarda shaxsiy qarashlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu usul yoshlarga o‘qituvchi kabi adolatli va mas’uliyatli shaxs bo‘lishning ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Xulosa. Umuman, axloqiy qarashlarni shakllantirish jarayonida neyropedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta bo‘lib, bu texnologiyalar yoshlarning kognitiv va emotsional rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish orqali ularning axloqiy va ma’naviy yetuklikka erishishlarini ta’minlaydi. Neyropedagogika asosida ishlab chiqilgan metodlar yoshlarni axloqiy tushunchalarni nafaqat intellektual, balki his-tuyg‘ular orqali ham o‘zlashtirishlarini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa ularning kundalik hayotda axloqiy me’yorlarga sodiq qolishlarini ta’minlaydi. Shu bilan birga, neyropedagogika yoshlarda ongli qaror qabul qilish va shaxsiy mas’uliyatni his qilishga xizmat qilib, ularni barkamol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar etib tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev A. Axloqiy rivojlanish va ijtimoiy mas’uliyat // Huquq va burch. 2019, №3. 52-bet.

2. Abdurahimov Z. *Axloqiy tarbiyaning pedagogik asoslari*. -Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019. – S. 87.

3. Kohlberg L. The Philosophy of Moral Development. -San Francisco: Harper

4.Vigotskiy L.S. *Мышleniye i rech.* -Moskva:Gosudarstvennoye sotsialno-ekonomicheskoye izdatelstvo, 1984. – S. 114.

5. Rogers C. *On Becoming a Person.* -Boston: Houghton Mifflin, 1997. – p. 243& Row, 1996, p. 72.

6. Goulman D. Emotsionalnыy intellekt. -Moskva: MANN, IVANOV i FERBER, 1996. – S.115.

PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI

MUHAMMAD SODIQ QOSHG‘ARIY IJODIDA “USTOZ-SHOGIRD” AN’ANASINING YORITILISHI

Abdullayeva Sabohat G‘ayratullayevna,
NDU Pedagogika nazariyasi.
Pedagogik ta’limotlar tarixi tayanch doktoranti.
Profi University Navoiy filiali o‘qituvchisi

Mazkur maqolada taniqli qomusiy olim va mutafakkir Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy ijodida “ustoz-shogird” an’anasining ifodalanishi tahlil qilinadi. O‘zbek adabiyoti va madaniyatida chuqur ildiz otgan bu an’ana Qoshg‘ariy asarlarida o‘ziga xos badiiy vositalar orqali yorqin aks etgan. Ustoz – ilm va hikmat sohibi, shogird esa – ma’naviy yetuklik sari intiluvchi timsol sifatida talqin etiladi. Adib shogirdni tarbiyalash jarayonida faqatgina bilim berish emas, balki axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy kamolotga yetaklash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratadi. Qoshg‘ariy o‘z asarlarida bu munosabatni faqat shaxsiy tajriba darajasida emas, balki umuminsoniy va tarixiy qadriyat sifatida ilgari suradi. Maqolada Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” asaridagi ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari, “ustoz-shogird” an’anasining o‘rni, ahamiyati va zamonaviylik bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Ushbu an’ananing davomiyligi va bugungi avlod uchun ibrat bo‘larli jihatlari alohida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy, “Odob as-solihin” asari, an’ana, qadriyat, ustoz-shogird, ta’lim-tarbiya.*

THE EXPLANATION OF THE "TEACHER-DISCIPLINE" TRADITION IN THE WORK OF MUHAMMAD SADIQ KASHGARI

This article analyzes the expression of the “teacher-student” tradition in the works of the renowned encyclopedic scholar and thinker Muhammad Sadiq Qoshg‘ariy. This deeply rooted tradition in Uzbek literature and culture is vividly reflected in Qoshg‘ariy’s works through unique artistic means. The teacher is portrayed as a bearer of knowledge and wisdom, while the student symbolizes a seeker of spiritual maturity. The author pays special attention not only to the transmission of knowledge but also to the moral, spiritual, and social development of the student during the educational process. Qoshg‘ariy presents this relationship not merely as a personal experience but as a universal and historical value. The article explores Qoshg‘ariy’s views on education and upbringing as reflected in his work "Odob as-Solihin", and examines the role, significance, and relevance of the teacher-student tradition in contemporary times. The continuity of this tradition and its exemplary aspects for today’s generation are highlighted in particular.

Keywords: *Muhammad Sadiq Qoshg‘ariy, work of "Adob as-salihin", tradition, value, teacher-student, education.*

ОБЪЯСНЕНИЕ ТРАДИЦИИ «УЧИТЕЛЬ-ДИСЦИПЛИНА» В ТРУДАХ МУХАММАДА САДИКА КАШГАРИ

В данной статье анализируется отражение традиции «учитель-ученик» в творчестве выдающегося энциклопедиста и мыслителя Мухаммада Садыка Кашгарий. Эта традиция, глубоко укоренившаяся в узбекской литературе и культуре, ярко представлена в произведениях Кашгарий посредством самобытных художественных средств. Учитель изображается как носитель знаний и мудрости, а ученик — как образ, стремящийся к духовному совершенству. Писатель акцентирует внимание не только на передаче знаний в процессе воспитания ученика, но и на его нравственном, духовном и социальном развитии. Кашгарий рассматривает эти отношения не только как личный опыт, но и как общечеловеческую и историческую ценность. В статье рассматриваются взгляды Мухаммада Садыка Кашгарий на воспитание и образование, отражённые в его произведении «Адаб ас-солихин», а также роль, значение и актуальность традиции «учитель-ученик» в современном контексте. Особое внимание уделяется преемственности этой традиции и её поучительным аспектам для нынешнего поколения.

Ключевые слова: *Мухаммад Садык Кашгарий, произведение «Адоб ас-салихин», традиция, ценности, учитель-ученик, воспитание.*

Kirish. Bugungi jadallik bilan rivojlanayotgan zamonda ma’naviy meros milliy qadriyatlarni qayta tiklash asosida tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ajdodlarimiz bizga qoldirib ketgan bebaho qadriyatlardan bahramand bo‘lamiz. O‘zbek xalqi azal-azaldan o‘zining naqadar buyuk xalq ekanini isbotlab kelgan. Uning tuprog‘idan buyuk zotlar, avliyolarning yetishib chiqqani bunga yorqin isbotdir. Aynan buyuk bobokalonlarimiz, qomusiy olimlarimizning asarlarida ta’lim-tarbiyaga, ota-onaga, vatanga, do‘stlikga, ustoz-shogirdlik an’analariga bag‘ishlangan fikr-mulohazalar, tavsiyalar zamonlar oshsa-da o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Qadim sharqda ustoz-shogird munosabatlari azaliy an’analardan bo‘lib hisoblangan. Qadimdanoq ustozning zimmasiga bolaning tarbiyasi va kamoloti yuklatilgan bo‘lib, ular shu vazifa orqali yuksak maqomlarga sazovor bo‘lganlar. Darhaqiqat, ota-ona farzandning faqatgina tarbiyasiga, ustoz esa nafaqat tarbiya, balki, ilmiga ham javob bergani uchun ham “ustoz” so‘zi bugungi kunda ham ardoqli hisoblanadi.

Xalqimiz orasida esa “Ustoz- otangday ulug‘” naqlining yuzaga kelishi ham bejizga emas. Qadimdan sharqda shogirdlikning o‘ziga xos odob-axloq qoidalari borligini kuzatish mumkin.

Chunonchi, buyuk bobokalonimiz, qomusiy olimlardan biri bo‘lgan Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy ham o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid ilmi orqali sharq pedagogikasi tarixiga o‘zining hissasini qo‘shgan ulamolardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy haqida bizgacha juda oz ma’lumot yetib kelgan. Lekin hozirgi paytda bizga ma’lum bo‘lgan “Odob as-solihin” asarining o‘ziyoq bizga uni mashhur pedagog olim sifatida tanitadi. Bizgacha uning “Zubdat al-masoyil”(“Masalalarning qaymog‘i”), “Dur al-muzoxir” (“Ko‘makdoshlarning durdonasi”) hamda “Tazkirai xojagon” (“Xojalar tazkirasi”) nomli asarlari yetib kelgan. Ko‘plab ilmga va pedagogikaga oid asarlar yaratish mavjud bo‘lgan davrda Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy tomonidan turkiy tilda (“Odob as-solihin”) “Yaxshi kishilar odobi “Zubdat as-masoyil” nomli asarlar yaratildi.

“Odob as-solihin” 5 marta, 1889 hamda 1901-yillarda Toshkent shahrida va 1892 hamda 1986-yillarda Istanbul shahrida qayta nashr etilgan. Mazkur asar nomi va mazmunidan ham anglanib turganidek, unda ilgari surilgan g‘oyalar insonning hayoti davomida zarur ahamiyat kasb etuvchi xulq-odob qoidalari xususida kishilar, shu jumladan, yoshlarga muayyan darajada ma’lumotlar berishga xizmat qiladi. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy tomonidan yaratilgan “Odob as-solihin” asari muallifning o‘zi ta’kidlab o‘tkanidek, muqaddima, 7 bob va har bir bob 4 fasldan iborat bo‘lib har bir bob ma’lum bir odob normasiga bag‘ishlangan va fasllarida ushbu odobga oid qoidalar yoritilgan. Asar muqaddimasida ushbu asarning yozilishilishining asl maqsadini ochib bergan bo‘lib, insonning ijobiy xulq-atvorga ega bo‘lishining ijtimoiy mohiyati yoritilgan. Asarda olg‘a surilgan asosiy g‘oya - insonlarning yaxshi xulq-atvorga ega bo‘lishlari jamiyatda ruhiy xotirjamlik va moddiy va ma’naviy farvonlikni qaror toptiruvchi asosiy omil ekanligini asoslashdan iborat. Alloma mazkur g‘oya mohiyatini sharhlar ekan ushbu masnaviyni keltirib o‘tadi:

Beadab tanho na xudro dosht bad,
Balki otash dar hama ofoq zad.
Ma’nosi:
Adabsiz nafaqat o‘zi uchun yomonlik qiladi
Balki butun dunyoga o‘t qo‘yadi.

“Odob as-solihin” asarining birinchi bobi “Izn so‘rash va salomlashish, qo‘l olib ko‘rishish bayonida” deb nomlanadi va bu bob to‘rt fasldan iborat. Jamiyatni ham, tabiatni ham pok, muqaddas, mukammal, kamolot darajasida tutishda asosiy vazifa insonga yuklatilgan. Zero, Allohning yerdagi eng sharif xilqati inson bo‘lib, Haq olamni u orqali boshqaradi. Chunki u boshqa mavjudodda yo‘q aql, ong, til va pok qalbga egadir. Muhammad Soqid Qoshg‘ariy ham jamiyatga har tomonlama yetuk insonni tarbiyalashning barcha jabhalariga e'tibor bergan va "Odob as-solihin" asarning ikkinchi bobini uxlash, yo‘l yurish va otga minish odoblariga bag‘ishlagan va ushbu bobda islomiy odob-axloqdagi uxlashning yetti odabi keltirib o‘tilgan bo‘lib toza o‘rinda, qiblaga o‘ng tomon bilan yonboshlagan holda uxlash tana uchun ham foydali ekanligi bayon etilgan. Asarning uchinchi bobi suhbat ahlining odobi va sharoiti haqida bo‘lib, bunda shogirdning ustoz bilan suhbatida tavoze bilan yaxshilab quloq solib o‘tirishi, har bir ishda ustoz bilan maslahatlashmoqlik kerakiligi uqtirilgan. Suhbat chog‘ida beadab so‘zlar so‘zlash, yomon harakatdan o‘zni tiyish, esnamaslik va so‘zlovchining nutqini bo‘lmaslik asosiy qoida sifatida keltiriladi. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy ushbu asarda oilaviy odob-axloq qoidalariga ham alohida o‘rin ajratgan va “Odob as-solihin” asarining to‘rtinchi bobi er-xotin va hammom odoblariga bag‘ishlangan. “Odob as-solihin” asari kishilarning yaxshilik va yomon kunlaridagi odoblar bayoni bilan ham tarbiyaviy asar hisoblanadi. Asarning beshinchi

bobi kasal ko‘rish, ta’ziya va musibat odoblariga bag‘ishlangan. Asarning oltinchi bobi ziyofat va yeb-ichish odobiga bag‘ishlangan. Asarning so‘nggi yettinchi bobi safar odobiga bag‘ishlangan bo‘lib safar qilishdagi qoidalar va safar odobi haqida bayonotlar berilgan.

Ushbu maqolada biz “ustoz-shogird” munosabatlari haqidagi boblarga alohida to‘xtalamiz. Asarning uchinchi bobi: “Suhbat ahlining odobi va sharoiti bayoni” haqida bo‘lib, bu bobning ikki fasli ustoz-shogird o‘rtasidagi munosabatlarga bag‘ishlangan.

- ✓ Birinchi faslda: Avvalgi adab shogird ustozning suhbat va xizmatida tavoze bilan quyiroq joyda o‘tiradi. Agar ustozi yuqoriga o‘tishni buyursa, o‘sha joyga o‘tadi, hattoki kattalardan ham yuqoriroqdagi joy bo‘lsa ham. O‘tirishda behuda harakatlar qilmay namozda o‘tirgandek oromda o‘tiradi.
- ✓ Ikkinchi majlisda buyruq-qaytariqlarga hushyor turib, ularni jonu dil bilan qabul qiladi, amalga oshiradi.
- ✓ Uchinchi ustozning so‘zlariga yaxshilab quloq solib o‘tiradi va unga amal qilish uchun so‘zlarni xotirasida yaxshi saqlaydi.
- ✓ To‘rtinchi agar ustozi o‘zidan qolgan taomni bersa, unga hech kimni sherik qilmay, o‘zi tanho tanovul qiladi.
- ✓ Beshinchi ustoz bilan so‘zlashmoqchi bo‘lsa, ustozning gapini eshitishga vaqti bormi yo‘qmi yaxshilab anglab, oraga gap sig‘masligiga aqli yetsa, o‘zini tiyadi. Agar imkon topilsa, qisqa ibora bilan maqsadini anglatadi.
- ✓ Oltinchi so‘zlagan chog‘da ustozga ohista va muloyim gapiriladi.
- ✓ Yettinchi ustozning xizmat va suhbatlarida xomush bo‘linadi, xususan, agar bir joyga bormoqchi bo‘lsa «Qayerga borasiz?» deb so‘ramaydi. Barcha ishlarda shu tariqa xomush bo‘ladi.
- ✓ Sakkizinchi barcha ixtiyor ustozga topshiriladi. Shogird o‘z ixtiyori bilan hattoki yeb ichishda ham bir ish qilmaydi.
- ✓ To‘qqizinchi agar zarurat tug‘ilsa ham ustoz bilan kengashi hech ish qilinmaydi.
- ✓ O‘ninchi agar ustoz shogirdiga maslahat kengash tashlasa, «O‘zingiz yaxshi bilasiz», deb aytadi, o‘z ray va tadbirlarini tezgina izhor qilmaydi.
- ✓ O‘n birinchi ustozning xilvatxonalariga beizn kirilmaydi. Agar zaruratdan kirilgudek bo‘lsa, ustozi o‘tiradigan joyga o‘tirmaydi, shuningdek, ustozning do‘ppisi, poyabzali va boshqa kiyimlarini kiymaydi.
- ✓ O‘n ikkinchi bir xonada ustozi bilan hamroh bo‘lib uxlamaydi, agar buyirilsa, odobga xilof emas. Lekin og‘ir uxlamay, hushyor bo‘linadi.
- ✓ O‘n uchinchi ustozga mutoyiba va mazah qilinmaydi, uning huzurida o‘zga kishilarga ham hazil qilinmay, o‘zini suhbatdan mutlaq saqlanadi.
- ✓ O‘n to‘rtinchi ustoz huzurida fazl izhor qilinmaydi
- ✓ O‘n beshinchi ustozdan biron xulosa-hukmga tushuntirish va izoh talab qilinmaydi.
- ✓ O‘n oltinchi agar beodoblik sodir bo‘lib qolsa va mushohada bilan ustoz unga g‘azab qilmasa, uning makridan saqlanib yuriladi. Anglansin va yaxshi bilin- sinki, ustoz makr qilsa, shogirdidan hech ish kutmas, makr alomati raddir, agar mulohaza qilsa, xushnud bo‘lingayki, qabul alomatidir.

Bu bobdan shuni xulosa qilish mumkinki ustozga bo‘lgan hurmat o‘sha zamonlarda ham odobning go‘zal ko‘rinshlaridan biri bo‘lgan. Hozir vaziyatlar biroz o‘zgargan bo‘lsada ammo ustoz-shogird o‘rtasidagi munosabat, hurmat haligacha o‘z qiymatini yo‘qotgani yo‘q. Asardagi bu bob bilan “ustoz-shogird” munosabatlari tugamaydi, mantiqiy davom etadi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli ma’naviy odob bayoni haqida bo‘lib, o‘n olti adab ustoz-shogird munosabatlaridagi nozik jihatlar haqida so‘z boradi. Shu bobning o‘n olti adabi ustoz-shogird o‘rtasidagi ma’naviy odob haqida berilgan.

- ✓ Avvalgi adab-shogird ustozining o‘z asrining eng ulug‘i deb e’tiqod qiladi;
- ✓ Ikkinchi ustozni shogirdlarning ahvol va sirlaridan xabardor deb e’tiqod qilinadi.
- ✓ Uchinchi shogird ustozni ma’n etishi bilan darhol ketmay, balki mulozamatni ko‘proq qiladi.
- ✓ To‘rtinchi imkon darajada fazilat ko‘rsatishdan tiyilib, ustozning majlislarida barcha adablarni o‘zida jamlagan holda o‘tiradi. Har qancha og‘ir o‘tirsa, fayzni ko‘proq oladi, chunonchi, suv agar kosa ichida sokin va orom bilan tursa, har qanday suratning aksi unda nazarga yaxshi tashlanadi. Agar suv notinch va tarqoq tursa, hech qanday aks nazarga tushmaydi.
- ✓ Beshinchi hamisha hamma ishda ustozga bog‘liq turiladi. Hazrat Xo‘ja Ahror quddusi sirraxu aytganlarki, shogirdning ustozga borliqligi doimo huzuda va sirliligida, ustozning ikki qoshining o‘rtasida bo‘ladi. Va ustozni o‘ziga hozir va e’tiborli deb anglanadi.
- ✓ Oltinchi ustozning vaqtini tig‘iz va o‘zini ko‘p mulohaza qiladi, vaqti ziqligi ayon bo‘lsa, darhol chetlaniladi. Ko‘rishganda mulozamat qilib, suhbatni lozim tutadi.
- ✓ Yettinchi o‘zining sirlarini ustoziga izhor qilib, ustozning sirlarini o‘zgalardan yashiradi.

✓ Sakkizinchi voqeani qachon, qay vaqtda, qanday bo‘lganini aniqlashda ustozning ilmiga suyaniladi, shogird o‘z ilmi bilan masalaning to‘g‘riligiga hukm qilmaydi.

✓ To‘qqizinchi - ustozning inkorchilari bilan tortishmay, ular suhbatidan qochadi.

✓ O‘ninchi majlisda ustozning yuziga ko‘p qaramaydi.

✓ O‘n birinchi - ustoz huzurida boshqalarni kuzatmay, balki sukut va saqlanish bilan ustozga bog‘liq bo‘lib o‘giradi.

✓ O‘n ikkinchi - agar voqea ro‘y bersa, shogird ustozga aytadi, ammo javob qilishini kutmaydi.

✓ O‘n uchinchi - ustozning suhbatini o‘ziga yaqinlikning bir sababi deb bilmay, balki adab yo‘llarini o‘rganish, jamoat tahsili, ichiyu tashini o‘nglash uchun vosita deb biladi.

✓ O‘n to‘rtinchi ustozning xizmatida ekan, malollanish, ma’n qilish xislatlarining barchasini tashlaydi.

✓ O‘n beshinchi - ustozga malol va jirkanch keltiradigan narsalardan o‘zini saqlaydi.

✓ O‘n oltinchi ustozning hech qanday fe’l-qavliga na tilda va na dilda e’tiroz qilmaydi.

Xulosa. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy “*Odob as-soliḥin”* asari — o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyotining durdona namunalaridan biri bo‘lib, unda yoshlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, axloqiy tarbiyani mustahkamlash, safar odobi, shogirdning ustozga bo‘lgan munosabatida go‘zal xulq atvori, ilm va odobni hayot mezoniga aylantirish kabi dolzarb masalalar yoritilgan. Asarda islomiy axloq me’yorlari asosida yaxshi xulq, halollik, odob, mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, ilmga intilish kabi fazilatlar targ‘ib qilinadi.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy asar orqali yoshlarga nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlarning ham muhimligini uqtiradi va ularni jamiyatga foydali shaxs bo‘lishga da’vat etadi. Uning uslubi sodda, tushunarli va ibratli bo‘lib, har bir bob yosh o‘quvchining qalbiga yetib borishi uchun hikmatli tarzda yozilgan. *“Odob as-soliḥin”* bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, yoshlar tarbiyasi va ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy “Odob as-solihin” asarining ustoz-shogird bo‘limi, ilm olish va o‘rgatish jarayonidagi axloqiy me’yorlarni belgilaydi. Bu bo‘limda ustozning shogirdga bo‘lgan haqlari va shogirdning ustozga bo‘lgan hurmat va mas’uliyatlari muhim ahamiyatga ega. “Odob as-solihin” asarining ustoz-shogird bo‘limi, ilm olish va o‘rgatish jarayonidagi axloqiy me’yorlarni belgilab beradi.

Adabiyotlar:

1. Mavlonova R.A., Raxmonqulova N.H. va boshq. Umumiy pedagogika.- T:. Fan va texnologiyalar.

2. D.Malikova. Sharq mamlakatlarida "ustoz-shogirdlik an'analarining shakllanishi va rivojlanishi. Maqola.Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022

3. Mahkamov U., Tilyaboeva N. Kasbiy mahorat. / O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2007.

4. O‘.Q Tolipov. "Ustoz - shogirdlik qadriyatlari"-risola; Toshkent "Nizomiy nomidagi TDPU"-2015.

5. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy “Odob as-solihin” asari. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2022

MUHAMMADIYA MADRASASIDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH USULLARI

Madraximova Dinora Ismoil qizi,
Urganch davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti
madraximovadinora@gmail.com

Ushbu maqolada madrasa islohotiga katta hissa qo‘shgan ma’rifatparvar olim Olimjon Barudiyning Muhammadiya madrasining tashkil topishi va faoliyati haqida ma’lumot keltirilgan. Madrasada yaratilgan shart-sharoitlar, talabalarga yaratilgan imkoniyatlar, imtihon asosida qabul qilinishi stipendiya berilishi ma’naviy tadbirlar o‘tkazilishi keltirilgan. Hamda ta’lim jarayoning boshlang‘ich, rushudiya, oliy uchta bosqichda olib borilishi, o‘qitilgan fanlar va o‘quv dasturlari keltirilgan. Ta’lim jarayonida diniy va dunyoviy fanlar amaliyot bilan bog‘liqlikda olib borilgan. Madrasada faoliyat olib borgan o‘qituvchilar hamda Ad-Din al-Odob jurnalini bosib chiqarilishi unda ma’rifatparvarlik g‘oyalari tatbiq qilinishi, madrasaning faoliyati doimiy yoritib borilishi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Islom dini, rushidiya, madrasa, mudarris,*

МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В МАДРАСЕ МУХАММАДИЯ

В данной статье представлена информация об организации и деятельности медресе "Мухаммадия", основанного просветителем и ученым Алимджаном Баруди, внесшим огромный вклад в реформу медресе. Описаны созданные в медресе условия, возможности для студентов, прием на основе экзаменов, предоставление стипендий, проведение духовных мероприятий. Также указано, что образовательный процесс осуществлялся в три этапа: начальный, рушдия (средний) и высший, перечислены преподаваемые предметы и учебные программы. В образовательном процессе религиозные и светские науки преподавались в связи с практикой. Упоминаются преподаватели, работавшие в медресе, издание журнала "Ад-Дин аль-Адоб", в котором реализовывались идеи просвещения, и постоянное освещение деятельности медресе.

Ключевые слова: *исламская религия, рушидия, медресе, мударрис.*

METHODS OF ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN MUHAMMADIYA MADRAS

This article provides information about the establishment and activities of the Muhammadiya Madrasa, founded by the enlightened scholar Olimjon Barudiy, who made a significant contribution to madrasa reform. It details the conditions created at the madrasa, the opportunities provided to students, the entrance exams, the scholarships awarded, and the spiritual events held. It also outlines the three stages of the educational process: primary, intermediate, and advanced. The subjects taught and the curriculum are described, emphasizing that religious and secular subjects were taught in connection with practical application. The article also mentions the teachers who worked at the madrasa and the publication of the Ad-Din al-Odob journal, which promoted enlightenment ideas and regularly covered the activities of the madrasa.

Keywords: *Islamic religion, rushidiya, madrasa, mudarris.*

Kirish. Muhammadiya madrasasi, Rossiyadagi eng katta jadidchi islomiy ta’lim muassasasi hisoblanadi. Bu madrasa, Qozon shahridagi Galeyevskaya masjidining imomi Olimjan Galeyev (Barudiy) va savdogar bo‘lgan otasi Muhammadjon Galeyev tomonidan 1882-yilda tashkil etilgan [1.68]. 1883-yilda Muhammadjon Galeyev, Olimjan Barudiyning ilk ishlarini boshlaganida madrasaning hovlisida bir qavatli kichik tosh bino qurdi. Dastlab, yosh muallimning faqat bir necha talabalari bor edi. Biroq bir yil ichida yosh imomdan dars olishni xohlagan talabalar soni o‘sib borganligi sababli mahalla musulmonlari bu kichik binoni kengaytirishga majbur bo‘lishdi. Shuning uchun, 1885-yilda Muhammadjon Galeyev va Ahmadjon Saidashevning sa’y-harakatlari tufayli Galeyevskiy medrasaning binosi ikki qavatli bo‘ldi. Savdogarlarning ikkinchi qavatining yuqori qismi uchun rasmiy loyiha bo‘lishiga qaramay, vaqt yetishmovchiligi sababli binoning yerto‘lasini yerdan biroz ko‘tarib, derazalar qo‘shilib birinchi qavatga aylantirildi. Barcha bu ishlar

va sa’y-harakatlar, yoshlar orasida har kun o‘tgan sayin ko‘proq mashhurlik va obro‘ qozonayotgan madrasaning kundalik muammolarini to‘liq hal qila olmadi.

Asosiy qism. Madrasaga, Vyatka viloyati (hozirgi Tatariston Respublikasi Kukmorskiy tumani) Malmijskiy tumanidagi Maskara qishlog‘idan xayriya fabrikantlari Utamishevlar tomonidan e’tiborga molik moddiy yordam ko‘rsatildi. Bu qadimiy savdogar oilasi, nafaqat mato ishlab chiqarish va savdo hayotidagi muvaffaqiyatlari bilan, balki xayriya va Islomning rivojlanishi va tarqalishiga ham hissa qo‘shgan edilar.

Shahobiddin Marjoniy asarlarida, Rossiyaning har bir joyida ko‘plab masjidlar quruvchi ilk uyushma bo‘lgan Abdullah Abdusalamovich Utamishevning (vafot etgan 1832) savdogar o‘g‘li Musa (vafot etgan 1835) haqida katta hurmat bilan so‘z yuritadi [2.388]. Abdullah Utamishev, mashhur faylasuf Abdunosir Kursaviyning singlisi bilan turmush qurgandan so‘ng, uning do‘sti va uning fikrlari bilan bir xil bo‘lgan kishi sifatida tanilgan. Utamishevlar XIX asr boshlaridan boshlab mintaqada Islom haqida jasorat bilan fikrlarini ochiq aytgan va Islomga qo‘rqmasdan xizmat qilgan shaxslar sifatida tanila boshladilar.

Muhammadjon Galeyev bunday oila bilan quda bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi, Olimjon Barudiyni 1883-yilda Bibimagruyi İshakovna Utamishevaga va besh yil o‘tgach, 1888-yilda boshqa o‘g‘li Solihjonni singlisi Bibinagimaga uylantirdi. Bu yaxshi ta’lim olgan ayollar, turmush o‘rtoqlarining ta’lim faoliyatlarida eng yaqin yordamchilari bo‘ldilar.

1886-yilda Abdulloh İshakovich Utamishev katta mablag‘ ajratib, kuyovining Qozondagi madrasasining uchinchi qavatini qurdi. Shunday qilib, 1883-1886-yillar davomida Olimjon Barudiy shaxsiy foydalanish uchun yangi o‘quv binosini sotib oldi va Muhammadiya madrasasi, Yusuf Saitovning madrasasidan mustaqil bo‘lib, alohida maqomga ega bo‘ldi.

1887-yilda o‘z maktabining asoslarini qo‘ygan, Olimjon musulmon Sharq mamlakatlari bo‘ylab sayohatga chiqdi. Ayniqsa, bu sayohat uning islohot faoliyatlari g‘oyasini belgilovchi sayohat bo‘ldi. Misr, Turkiya va Arabistondagi ijtimoiy-siyosiy madaniyat markazlarida diniy yangilanishlarning va ratsionalizimning afzalligi, an’anaviy ta’lim metodlarining asoslari tartibga solingan va amalga oshirilgan markazlarni ziyorat qilishning ahamiyatini anglab yetdi. Qozon turklari bilan bir qatorda butun Rossiya musulmonlarining uyg‘onish harakatlarida katta xissa qo‘shgan va o‘z davrning eng ilg‘or pedagogi bo‘lgan. Muhammadiya madrasasida ta’lim berishni yangi usullarda tashkil etdi, bu muassasani boshqardi va o‘qituvchilik qildi.

Olimjon Barudi dunyoda islomning yangilanish g‘oyasidan tobora ko‘proq ilhom oldi va Rossiya musulmonlarining ham bu yangilanish harakatidan ortda qolmasligini tushundi. Yangilangan islom dunyosidagi sayohatlardan qaytgach, o‘z maktabida yangi metodda boshladi. XIX asr oxirlariga kelib, yosh mudarrisning madrasasi asosan amaliy va nazariy darslar o‘qitadigan asosiy diniy ta’lim beruvchi maktab sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

Yil o‘tgan sayin ham ta’lim sifati, ham o‘quvchilar soni va yashash sharoitlarini yaxshilashda davom etdi.

Olimjon Barudiy, samarali va asosli o‘quv dasturini tayyorlash, maxsus darsliklardan foydalanish va o‘quv qo‘llanmalarini yozish va nashr etish, iqtidorli pedagog kadrlarni shakllantirish kabi bir qator aniq harakatlar orqali yangi tipdagi diniy madrasa qurishga kirishdi

Muhammadiyada 1891-yilda yangi usulga ko‘ra rasmiy ta’lim boshlangandi yangi o‘qitish usuli uchun birinchi tatar alifbosi “Savadxon” kitobchasi va arifmetikani o‘rgatish bo‘yicha “Namuna-i hiob” kabi yangi uslubiy darsliklar kitoblari bilan yangi o‘quv davri boshlandi [3.81].

1891-1899-yillar davomida Olimjon Barudiyning metodiga muvofiq ta’lim tizimini tartibga soldi. Bu vaqt ichida boshlang‘ich darajada yangi metodologiyaga mos ravishda Qur’on, imon asoslari, islom tarixi, hadis usuli, arab tili, fors tili, tatar tili, rus tili, tatarlar tarixi, Rossiya tarixi, arifmetika, aabiat tarixi, geografiya, xat, rasm va boshqa darslarning o‘qitilishi uchun sinflar ochishga muvaffaq bo‘ldi. Dasturining asosiy maqsadi diniy fanlarni batafsil o‘rganish edi. Bundan tashqari, bunday darslarda nafaqat arab tilida, balki tatar tilida ham asosiy ta’lim tili sifatida foydalanildi.

1890-yillarda Olimjon Barudiyning madrasasi Qozondagi eng muhim diniy ta’lim markazlaridan biriga aylandi. Uning maktabining boshqa maktablardan farqi, ilg‘orligi, ijodkorligi va an’anaviy metoddan chiqib yangi metodologiyaning qo‘llanilishi ba’zi muhitlarda salbiy munosabatlarga sabab bo‘ldi.

XX asr boshlarida Muhammadiya madrasasi haqida deyarli barcha Tatar gazeta va jurnallarida keng ma’lumotlar berildi. Eng ko‘p ma’lumotlarni “Maktab”, “Tarbiya-i Etfal” jurnallaridan va al-Isloh, Qozon Muhbiri gazetalarida ko‘rishimiz mumkin.

1913-yilda “Maktab” jurnalining sahifalarida Islomiy ta’lim muassasalaridagi yangi o‘quv dasturi bilan bog‘liq turli maqolalar nashr etildi. Ushbu nashrning deyarli har bir sonida “Faoliyat ko‘rsatayotgan madrasalarning holati” sarlavhasi ostida Muhammadiya madrasasi faoliyati haqida keng ma’lumotlar berildi.

Olimjon Barudiyning pedagogik faoliyatlariga bag‘ishlangan maqolalar, madrasa va Galeyevskiy masjidi manzarasi, talabalarining suratlari bilan birga “Tarbiya-i Etfal” jurnalida nashr etilgan edi.

Madrasaning kundalik hayoti haqida eng to‘liq ma’lumotlar, muharriri va nashr etuvchisi Olimjon Barudiy bo‘lgan “Ad-Din val-Adab” jurnalining sahifalarida taqdim etilgan. Muhammadiya madrasasining o‘qituvchilari ro‘yxatlari, dars va imtihon taqvimi, o‘quv dasturida amalga oshirilgan o‘zgarishlar, madrasaga kirish shartlari va turli e’lonlar nashr etilgan.

Muhammadiya madrasasida darslar ikki marta asosiy o‘zgarishlarga uchraganiga qaramay, o‘z dasturlariga muvofiq davom etgan. 1906-yilda ishlab chiqilgan rejaga muvofiq, Muhammadiya madrasasi to‘rtta bo‘limdan iborat edi: tayyorgarlik sinfi bo‘lgan, 4 yillik boshlang‘ich ta’lim, 4 yillik o‘rta ta’lim, yuqori ta’limga tayyorgarlik 1 yil va 1 yillik yuqori ta’lim. Madrasada ta’lim-tarbiya 10 yil davom etardi. 485 1913-yilgi dasturga muvofiq, eski ibtidoiy asar dasturi o‘zgartirilib, o‘qish muddati 15 yilga uzaytirildi. Din darslari va xorijiy tillar bilan bog‘liq darslar sonining ko‘payishi, madrasada o‘qitiladigan jami soat sonining oshishiga olib keldi. So‘nggi o‘zgarishlardan so‘ng, dastur uch bo‘limdan iborat bo‘ldi: tayyorgarlik sinfi va boshlang‘ich ta’lim 6 yil, o‘rta maktab darajasi 6 yil va oliy ta’lim 3 yilga ko‘tarildi. 1906-yildagi dasturda barcha bo‘limlarning har bir sinfidagi haftalik jami soat soni 23 soat edi, 1913-yilgi dasturda esa bu raqamlar oshdi: boshlang‘ich sinflarga 18-28 soatgacha va o‘rtacha 29 soat, yuqori bo‘limda haftada 24 soatgacha ta’lim berilmoqda edi [5.104].

Boshlang‘ich ta’lim olgan talabalar, shu madrasada o‘qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘lishardi yoki davlat maktablariga kirishardi, ta’lim olish imkoniyati bo‘lmaganlar esa ishlashga majbur bo‘lishardi. O‘rta talim-rushdiya ta’limidan so‘ng, o‘qituvchi sifatida ishlashdi yoki oliy ta’limni davom etishardi.

Boshlang‘ich bo‘limning oltita sinfida haftada 152 soat dars o‘tkaziladi. Bularning 41 soati diniy darslar, 39 soat ona tili, 22 soat arifmetika, 21 soat rus tili, 6 soat arab tili, 3 soat fors tiliga ajratilgan, geografiya, tarix va tabiat fanlarining dars soatlari esa aniq emasdi. Rus tili o‘rganishining boshlang‘ich sinflardan boshlanganligi, davlat maktablariga kirishda va ishga murojaat qilganda bitiruvchilar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratardi.

1913-yilgi boshlang‘ich ta’lim Ibtidoiy dasturi, ba’zi izohlar bilan Tatar davriy nashrlarida juda maqtovga sazovor bo‘ldi. Shunday qilib, "Maktab" jurnali bu dasturini boshqa madrasalardagi ta’lim dasturlarini rivojlantirish uchun asosiy misol sifatida taqdim etdi. Ammo jurnal, arab tili va fors tilining boshlang‘ich maktab rejasida joy olishini tanqid qildi. Biroq, Muhammadiya madrasasi avvalo diniy ta’lim muassasasi ekanligini inobatga olgan holda, bu darslar majburiy edi.

Olti yil davomida o‘rta maktab Rushudiya bo‘limida haftalik jami dars soat soni 145 soat edi. Bularning eng muhim qismi din (43 soat), rus tili (36 soat) va arab tili (30 soat) darslariga ajratilgan. Dasturdagi muhim kamchiliklardan birini V.M.Gorohov ta’kidlagan bo‘lib, dasturda usul va metodologiya usullarining yetishmasligini qayd etgan, chunki o‘rta maktabdan so‘ng ko‘plab talabalar turli madrasa va maktablarda muallim sifatida faoliyat yuritardi.

Oliy ta’limning o‘quv dasturi 72 soatni o‘z ichiga olardi. Mulla va mudarris bo‘lishga tayyorlanayotgan yuqori sinf talabalariga diniy masalalarda 50 soat diniy dars va 9 soat arab adabiyotini o‘qitishardi. Olimjon Barudiy “Bolalarning ruhida islom sevgisini kuchaytirish va islomning ruhiga zid oqimlardan uzoqlashtirish hamda ulardan qochishlari uchun bolalarga din ta’lim berilishi kerak,” derdi. Barudiy talabalar uchun diniy fanlar bilan birga dunyoviy darslarning o‘qitilishini oshirish talablariga javoban, barcha madrasalar avvalo Islom dinining asoslarini o‘rgatish uchun tashkil etilganini, bu madrasalarda o‘qiyotgan talabalar musulmonlar bo‘lishi kerakligini va keyinchalik o‘z xalqlariga va islom diniga foydali bo‘lishi kerakligini o‘ylardi.

Barudiy “O‘qitilayotgan darslar ro‘yxatini ko‘rib chiqish kerak,” deb hisoblagan. U dasturdan keraksiz dars kitoblarini to‘liq olib tashlash kerakligini, mantiq, falsafa va bu nomlar ostida o‘qitilayotganlarni o‘zgartirish zarurligini, ehtiyojdan kelib chiqib ma’lum fanlarni tanlash va eski bilan yangi o‘rtasida to‘g‘ri nisbat o‘rnatish zarurligini ta’kidlagan. Aritmetika, geometriya tabiiy fanlari va astronomiya dasturga kiritilishini, shuningdek uzun izohlar berishdan saqlanish lozimligini aytardi [4. 65]. Barudiy ta’lim dasturida Quron tafsiri, hadislarni o‘qish va arab adabiyoti mavzulariga ko‘proq e’tibor berishni tavsiya qilgan, dunyoviy fanlardan esa geometriya, aritmetika, geografiya, tarix va tabiat tarixini o‘rganishga katta ahamiyat berardi.

Talabalarga ta’lim va tarbiya berish jarayonida dars kitobini to‘g‘ri tanlashga katta e’tibor berilgan. Ham dunyoviy, ham diniy mavzularni o‘qitish, ona tili bo‘yicha yangi, maxsus tayyorlangan dars kitoblariga muvofiq amalga oshirilgan. Barudiy Muhammadiya madrasasida o‘qitilayotgan dars kitoblarining ko‘pini yozgan. Biroq, solih amallar va dindor musulmonlar haqida, jannat ne’matlari va jahannam azobi haqida o‘qituvchilar tomonidan berilgan ta’limga muvofiq bo‘lgan oldin o‘qitilgan kitoblarni olib tashlamaslikni

tavsiya qilgan. Shu tarzda bolalarda Islom ruhining qayta jonlanishi va saqlanishi nazarda tutilgan. Chunki bolalarni diniy ruhda tarbiyalashni istagan eski olimlar bunday kitoblar yozganlar [7.73].

Ta’lim muassasasining dasturiga turkiy tili deb ataladigan tatar tilidan tashqari arabcha, forscha va ruscha tillar ham qo‘shilgan. 1913-yilgacha eng ko‘p xorijiy til dasturi arab tiliga ajratilgan edi va keyingi yillarda esa rus tilining rivojlanishiga ko‘proq e’tibor berila boshlandi.

Madrasada adabiyot ustaxonasi ochilgan bo‘lib, haftada bir marta talabalar o‘z she’rlari va hikoyalari o‘qiladigan adabiyot kechalar o‘tkazilardi.

Eski usul madrasalardan farqli o‘laroq, Muhammadiya madrasasining ta’lim tizimiga imtihonlar kiritildi va bu talabalarni akademik faoliyatlarini oshirishga rag‘batlantirdi. Imtihonlar tugagach, madrasa talabalarining va ustozlarining, shuningdek, talabalarning ota-onalari ham taklif qilingan tadbirlar o‘tkazildi.

Bayram tadbirlari va uchrashuvlarda o‘qishda jonbozlik ko‘rsatgan talabalar madrasa rahbariyati tomonidan rag‘batlantirilib, tashakkurnoma bilan taqdirlanardilar.

Yangi madrasa eski usul ta’lim muassasalaridan nafaqat o‘qitilayotgan fanlar dasturlarida, balki ta’lim jarayonining tashkil etilishida ham farq qilar edi. Yangi o‘quv jihozlari sinfda ko‘p sonli talabalarga dars berish uchun moslashtirilgan edi. Madrasada talabalar yashashi uchun yotoqxona va oshxona mavjud edi. O‘quv xonasida xarita, jadval, globus va h.k. kabi turli xil vizual vositalari ham ishlatilgan edi.

Olimjon Barudiy talabalarning jismoniy salomatligiga katta ahamiyat berardi. Jismoniy va aqliy rivojlanish nuqtayi nazaridan, maktablarda va madrasalarda gimnastika bilan shug‘ullanishning ahamiyati haqida gapirardi.

Muhammadiya madrasasining nufuzi qisqa vaqt ichida Idil-Ural mintaqasining chegaralaridan ancha nariga tarqalgan edi. Olimjon Barudiyning madrasasi Rossiya bo‘ylab tanila boshlagandi. Talabalar bu yerga nafaqat Qozon va Ural atrofidan, balki Turkiston, Shimoliy Kavkaz, Sibir, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘lkalaridan ham ta’lim olish uchun kelishardi.

Madrasaga qabul qilinayotgan talabalarning yosh chegarasi belgilangan edi. Boshlang‘ich maktab uchun 7-10 yoshdagi bolalar, o‘rta maktab rushudiya uchun esa 12-15 yoshdagi talabalar qabul qilinardi. Talabalar madrasada ta’lim olish uchun yiliga 5 dan 15 rublega qadar to‘lov qilardilar. To‘lov miqdori, madrasa ma’muriyati tomonidan, talabalar ota-onalarining moliyaviy holatiga qarab belgilanardi. 1905-yilda madrasada 330 nafar talaba ta’lim olgan, madrasaning xarajatlari 2300 ruble edi. Ushbu mablag‘ning yarmi, xayriya qiluvchilarning xayriya pullaridan va o‘qish to‘lovlaridan, qolgan yarmi esa madrasaning ko‘chmas mulklaridan olingan daromadlardan to‘plangan. 1909-yilda shunday talabala soni bilan madrasaning xarajatlari 3650 rublega yetgan edi.

Xulosa. Talabalarning yaxshi sharoitlarda ta’lim olishini ta’minlashga harakat qilgan Barudiy o‘qituvchilarning farovonligini ham unutmagan. Arxiv hujjatlariga ko‘ra, 1913-yilda yigirma o‘qituvchidan uch nafari maosh olmasdan ishlayotgan edi. Olimjon Barudiy, Abdurrahman Galeyev va arab tili darslariga kirgan eng katta o‘qituvchi Bikbulatov Shamsevali Akaid darsiga kirgan. Muhammadiya o‘qituvchilarining qolgan qismi oyiga 20-65 ruble maosh olgan va yillik daromadlari 180 dan 600 rublega qadar o‘zgarib turardi.

O‘qitchilarning maoshi oyiga 20 dan 65 rublegacha bo‘lganligini Apanayev madrasasining arxiv ma’lumotlaridan bilib olamiz. Madrasaning eng yuqori maoshli o‘qituvchilari islom huquqi, Islommiy aqida va mantiq darslariga Tohir Ilyasov va Siyeri Nabi, geometriya va arab tili adabiyoti darslariga kiruvchi Yakub Adutov edi. Ushbu o‘qituvchilar o‘qituvchilikdan tashqari, davriy nashrlarda faol ishtirok etib kelgan, ayniqsa “Ad-din val-adab” jurnalida maqolalar chop etishardi.

1906-yilda, madrasaning o‘qituvchilar jamoasi, Olimjon Barudiy bilan birga S.Galikeyev, G.Apanayev, A.Mustafa, SH.Sharaf, S.Alkin kabi o‘n ikki muallimdan iborat edi.

Madrasada eng nodir bosma qo‘l yozmalar hamda 2945 kitobdan iborat boy kutubxona mavjud edi. Kitoblar katalogi nashrlar bo‘yicha tuzilgan va uch bo‘limdan iboratdir. Muhammadiya madrasasi 1882-yildan 1918-yilgacha bir diniy ta’lim muassasasi sifatida faoliyat yuritdi.

Madrasa uzoq bir tanaffusdan so‘ng 1993-yilda qaytadan ochilgan. Muhammadiya madrasasining qayta ochilishida marhum Veliyulloh Yoqupovning xizmatlari (1963-2012) juda muhim hissa qo‘shgan. Madrasa asoschisi Tatariston Respublikasi musulmonlar diniy boshqarmasidir. 1998-yilda madrasa binosi o‘quv muassasasiga qaytarildi qilingan. Qaytadan ta’lim faoliyatini boshlagan madrasaga bir muddat Tatariston Respublikasi muftiysi Komil Samigullin rahbarlik qildi. Bugun Muhammadiya madrasasi ta’lim jarayonini davom ettirmoqda.

Adabiyotlar:

1. Набиев Ринат, Ҳабуддинов Айдар, “Мадресе Муҳаммадия” Ислам на Европейском Востоке, Энциклопедисеский словар, Қозон: Магариф, 2004. с

2. Sh Marjoniy. “Mustafadul-ahbor fi Qozon va Bulgar”, Qozon: 1989, s. 387-388..

3. Жемаледдин Велидов, Очерки истории образованности и литературı татар, Издателство Иман, Казан: 1998, с.81

4. Nadir Devlet, “Alimcan Barudi”, *DİA,* İstanbul: 1989, C. 2, ss. 463-464.

5. Amirhan R., *Galimjan Barudi hem Muhammediye medresesi*, *Akçura Y. Damella Galimjan Barudi,* Kazan, 1997, s. 65.

6. O.Barudiy “Maktab uchun eski kitoblarni kerakligi” Ad-din va al-adab”, 1906, No 10, s. 304.

7. Akchura, Yusuf, Damolla Olimjon el-Barudiy Tarjimai holi, Tatar Turkchasidan O‘girgan: Prof. Dr. Ahmet Kanlidere, O‘tukan Nashriyoti, Istanbul 2019.

YUSUF XOS HOJIB ASARLARIDA PSIXOLOGIK SALOMATLIK MASALASINING YORITILISHI

Nuriddinov Rasuljon Samitjon o‘g‘li,
Farg‘ona davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Maqolada o‘rta asrlar Sharq uyg‘onish davri mutafakkiri va davlat arbobi Yusuf Xos Hojibning ilk turkiy tildagi asarlardan biri deb hisoblanuvchi “Qutadg‘u bilig” asari tadqiq etilgan. “Qutadg‘u bilig” asari nafaqat siyosiy va axloqiy pand-nasihatlar to‘plami, balki shaxsiy rivojlanish, ichki muvozanat va psixologik salomatlikka doir qarashlarga ham boy. Asarda ilgari surilgan fikr va g‘oyalarni zamonaviy psixologiyada “psixologik salomatlikning asosiy tamoyillari” deb qarash mumkin.

Kalit so‘zlar: *saodatga eltuvchi bilim, salomatlik, O‘zg‘urmush, O‘gdulmish, adolat, Kuntug‘di, uyg‘onish davri.*

ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСА ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЮСУФА ХАС ХАДЖИБА

В статье исследуется "Кутадгу билиг," считающийся одним из первых произведений на тюркском языке средневекового восточного мыслителя и государственного деятеля Юсуфа Хас Хаджиба. Произведение "Кутадгу билиг" - это не только сборник политических и нравственных наставлений, но также богато взглядами на личностное развитие, внутреннее равновесие и психологическое здоровье. Мысли и идеи, выдвинутые в работе, можно рассматривать как "основные принципы психологического здоровья" в современной психологии.

Ключевые слова: *знание, ведущее к счастью, счастье, Озгурмыш, Огдулмыш, справедливость, Кунтугди, период гармонии.*

THE COVERAGE OF PSYCHOLOGICAL HEALTH IN THE WORKS OF YUSUF HAS HAJIB

The article examines "Kutadgu Bilig," considered one of the first works in the Turkic language by the medieval Eastern thinker and statesman Yusuf Khas Hajib. The work "Kutadgu Bilig" is not only a collection of political and moral teachings, but also rich in views on personal development, inner balance, and psychological health. The thoughts and ideas put forward in the work can be considered as "basic principles of psychological health" in modern psychology.

Keywords: *knowledge leading to happiness, happiness, Ozgurmish, Ogdulmish, justice, Kuntugdi, period of harmony.*

Kirish. Insoniyat sivilizatsiyasining barcha davrlarida salomatlikni saqlash doimo muhim ahamiyatga ega masala sifatida e’tibor markazida bo‘lib kelgan. Eng qadimgi odamlardan tortib yaqin o‘tmishgacha bo‘lgan davrlarda yashagan odamlar turli kasalliklar, jarohatlar, sihat-salomatlikka doir bilim va tibbiy texnologiyalarning nomukammalligi bilan bog‘liq ko‘plab muammolarga duch kelishgan. Natijada shaxsning jismoniy, ijtimoiy, psixologik sihat-salomatligi va uni saqlash borasidagi qarashlar xilma-xil bo‘lib, diniy, madaniy, falsafiy e’tiqodlar ta’siri ostida bo‘lgan.

Sharq uyg‘onish davri deb e’tirof etiluvchi IX-XI asrlarda ijtimoiy-falsafiy qarashida tub burilishga sabab bo‘lgan, dunyo ilm-fani rivojiga bebaho hissa qo‘shgan allomalar yetishib chiqdi. Bu davrda ilm-u fan, ijtimoy-falsafiy fanlar, adabiyot, san’at va madaniy hayotning turli jabhalari jadal rivojlandi. Sharq olim va mutafakkirlari o‘z qarashlarida ba’zan antik davr yunon mutafakkirlari g‘oyalaridan ta’sirlanishgan bo‘lsa, ayrim jihatlarda esa o‘ziga xos fikr-mulohazalarni ilgari surishgan. O‘rta asrlar Sharq ma’rifatparvarlarining asarlarida psixologik salomatlikka oid mulohazalarni - madaniy, diniy-e’tiqodiy va ijtimoiy-falsafiy asoslarga ajratishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Psixologik salomatlik” tushunchasi bo‘yicha qadimdan Sharq falsafasi va adabiyoti boy tajriba, o‘ziga xos qarash va fikrlarga ega. Xususan, turkiy tilda ijod qilgan mutafakkir, shoir va davlat arbobi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ijtimoiy-siyosiy qarashlar bilan bir qatorda, axloqiy qadriyatlar, psixik-jismoniy salomatlik, ruhiy barkamollik, aql-idrok, sabr-toqat, ijobiy fazilatlar orqali jamiyatda muvozanatni saqlash haqida mulohazalar ilgari surilgan.

Yusuf Xos Hojib (Yusuf Bolasog‘uniy) hozirgi Qirg‘iziston Respublikasi hududi Chu daryosi vodiysidagi Bolasog‘un shahrida tug‘ilgan. O‘z davrining asosiy ilmlarini chuqur o‘rgangan, arab va fors tillarini mukammal bilgan.

Yusuf Bolasog‘uniy “Qutadg‘u bilig” asarini yozib tugatgach, uni Qoraxoniylar sulolasi hukmdori Tavg‘ach Bug‘roxonga taqdim etgan. Asar hukmdor tomonidan yuqori baholanib, “Xos Hojib” unvoni berilgan. Unvon “saroy eshik og‘asi” yoki “maxsus vazir” degan ma’noni anglatadi. Shundan so‘ng, Yusuf Bolasog‘uniy tarixda “Yusuf Xos Hojib” nomi bilan mashhur bo‘lib qoldi. [1, 25]

Eski uyg‘ur tilida bitilgan “Qutadg‘u bilig” dostoni hozirgi kun iste’moldagi tilda “Saodatga boshlovchi bilim” yoki “Baxtga yo‘l ko‘rsatuvchi bilim” deb tarjima qilinadi. Asar aruz vaznidagi 6520 baytdan yoki 13500 misradan iborat deb ta’riflanadi. Qo‘lyozma asarning hozirda Vena, Namangan nusxalari mavjud. “Qutadg‘u bilig” turkiy xalqlarning ilk davlatshunoslik va falsafiy tafakkur yodgorligi hisoblanib, o‘rta asrlar Sharq adabiyotidagi mashhur va muhim manbalardandir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, asarni nafaqat siyosiy va axloqiy pand-nasihatlar to‘plami, balki shaxsiy rivojlanish, ichki muvozanat va psixologik salomatlik haqida ham chuqur g‘oyalarga boy. Bu asardagi qarashlar zamonaviy psixologiyada “psixologik salomatlikning asosiy tamoyillari” deb qaralishi mumkin. “Qutadg‘u bilig” asari quyidagi to‘rt ramziy obraz asosida qurulgan:

Biri to‘g‘rilikka tayanch – ADOLAT,
Ikkinchisi DAVLAT erur, u qutli g‘oyat.
Uchinchi – ulug‘lik AQL va ZAKO,
To‘rtinchi – QANOAT erur bebaho.

Yuqoridagi har bir obrazlar o‘z nomiga va ma’nosiga ega. Adolatning nomi – “Kuntug‘di” (asarning bosh qahramoniga berilgan ism, yurt rahbari, boshlig‘i odillik, to‘g‘rilik timsolida). Davlatning ismi – “Oyto‘ldi” (vazir mansabida – asar qahramoni. Baxt timsolida). Aql, zakovat esa O‘gdulmish (“maqtalgan”, “aql bilan yetilgan”, uquv-idrok timsolida) deyilgan. Qanoatning nomi – O‘zg‘urmush (“uyg‘otuvchi”, “sergaklantiruvchi” – asar qahramoni. Ofiyat - salomatlik, sog‘lik va poklanishning ramziy ma’nosini ifodalaydi) deb ta’riflangan. [2, 13] She’riy aruz, masal uslubida yaratilgan asarda obrazlar orasidagi suhbatlar orqali adolatli boshqaruv, axloqiy yetuklik, diniy va dunyoviy tafakkurning uyg‘unligi, inson kamoloti va mas’uliyatiga oid bir qancha psixologik g‘oyalar, mushohadalar chuqur yoritiladi.

Hozirgi kunda psixologiyada psixologik salomatlikni belgilovchi bir qancha mezonlar mavjud. Ularning bir qanchasini sanab o‘tishimiz mumkin:

- shaxsning o‘zini anglashi va real baholashi;
- ichki intizom va emotsional - affektiv muvozanat;
- shaxsning muayyan maqsadni ko‘zlashi va unga intilishi;
- o‘z hayotidan ma’no topish;
- psixologik salomatlikni ta’minlashda jamiyat bilan ijobiy munosabatlarni o‘rnatish;

Biz yuqorida keltirib o‘tgan mezonlarning barchasi “Qutadg‘u bilig” asari qahramonlarida mavjud.

“O‘zg‘urmush” - psixologik jihatdan o‘z fikrlari va tanlovlarini ongli baholay oluvchi shaxs.

“O‘gdulmish” – hayotga ma’no berish orqali ruhiy barqarorlikka erishgan barkamol shaxs.

“Oyto‘ldi” – emotsional barqarorlikka erishgan, o‘zini nazorat qila oluvchi odil vazir shaxsiyati namunasi.

“Kuntug‘di” – ijtimoiy mas’uliyatli, tartib – intizomli, taqdirini jamiyat farovonligi uchun bag‘ishlagan ideal lider.

Dastlabki misralardanoq inson qadri ilmu-urfonda deb boshlanadi. Mutafakkirning bu fikr-mulohazalaridan bo‘lajak pedagoglarni o‘z kasblariga bo‘lgan munosabatini oshirishda, ilmning ahamiyati tengsizligi, inson zotining ulug‘ligi bilim bilan hosil bo‘lishini, bilim egasi bo‘lgan har qanday odam sharaflidir degan hikmatlarni o‘rganishimiz mumkin:

Yana bir hikmat bor: Hazrati odam —
Bilim, aql-u idrok sabab muhtaram.
Bilimni buyuk bil, uquvni ulug‘,
Shu ikkov ulug‘lar kishini to‘liq.
Uquv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lar,
Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik olar.
Uquvli uqar-u bilimli bilar,
Bilimli, uquvli shodlikka to‘lar. [2, 15]

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, aql eng yuksak fazilat sifatida talqin qilinadi. Yusuf Xos Hojib aqlni eng yuksak insoniy ne’mat deb hisoblaydi. Asarda aql salomatlikning negizi, ruhiy barqarorlikning kafolati sifatida qaraladi:

“Aql – inson boshidagi toji, yo‘lni ko‘rsatguvchi nuri.”

Aqlsiz kishi har doim noto‘g‘ri yo‘l tanlaydi, degan g‘oya insonning kognitiv salomatligi — fikrlash, idrok va qaror qabul qilish qobiliyatiga urg‘u beradi. Aqliy salohiyatining yuqoriligi insonning ruhiy muvozanatiga, qaror qabul qilish qobiliyatiga bevosita ta’sir etadi. Kristofer Piterson va Martin E.P. Seligmanning “Character strengths and virtues” (“Xarakterning kuchli tomonlari va fazilatlari”) nomli o‘quv darsligida, zamonaviy psixologiyada olib borilgan tadqiqotlarda ham kognitiv barqarorlik psixologik salomatlikning muhim mezoni sifatida belgilanadi. [3]

O‘z-o‘zini anglagan, his-tuyg‘ularini boshqara oladigan inson asarda komil shaxs sifatida ta’riflanadi:

“Kimki o‘zini bilsa, olamni bilur,
Nafsi ustidan hukmron bo‘lur.”

Shoirning ushbu jumlalaridagi fikrlari - o‘z-o‘zini anglash, shaxsning o‘z fikrini kuzatish qobiliyati psixologik salomatlikka xizmat qilishini ko‘rsatadi. Psixologiyada bu tushuncha “introspektsiya” — insonning o‘z ichki kechinmalari, fikr va hissiyotlarini kuzatish, tahlil qilish jarayonidir. [4] Psixologiyada introspektsiya shaxsning o‘z ruhiy holatini anglash va baholash usuli sifatida qo‘llaniladi. [5] Va “shaxsiy o‘sish” - insonning o‘zini rivojlantirish, bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ichki salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan uzluksiz jarayon deb nomlanadi. [6]

Muallif “Qutadg‘u bilig” asarida insonning tabiatini, undagi qo‘rquv, quvonch, xavotirlanishning xulq-atvorimiz, xatti-harakatlarimizga ta’sirini muhokama qiladi. Turli qayg‘u va alamlar bilan band bo‘lish bekorchilikka tenglashtiriladi. Bunga psixologik yechim sifatida hayotning qanchalar qadrli ekani, umrni g‘animat bilish, ezgu amallar bilan band bo‘lish targ‘ib qilinadi:

…Juda aziz axir tiriklik kuni,
Bekor ishga sarflab bo‘lmagay uni.
Dono nima deydi, bu so‘zni eshit,
Uqib ol, keyin sen o‘zingga ish et:
Ezgulik uchun ber har qayerda qo‘l,
Tubi-aslin dema, o‘zing ezgu bo‘l …. [2, 109]

Psixologik salomatlikni ta’minlashda ijtimoiy muhitning o‘rni hisobga olinib insonlar o‘rtasida sog‘lom psixologik muhitni yaratishni ko‘zlovchi fikrlarda, hattoki yomonlikni o‘ylamaslikka, xulq-atvor va so‘zni chiroyli qilishga, adolatli, ezgulik qiluvchi bo‘lishga da’vat etiladi:

Yomonlik o‘ylama, ey qo‘li baland,
Fe’l-u so‘zni qilgin yaxshillika band.
Ulug‘lik – bu beklik o‘tar, shubhasiz.
Faqat shu ezgulik o‘chirmagay iz.
Bu kun ezgulik qil, el yukin ko‘tar. [2, 151]

Alloma sabr-toqatlilikni ruhiy barqarorlikning poydevori sifatida ko‘rsatadi. Ruhiy kuch-quvvatning muhim jihati sifatida iroda, fidoyilik, bardoshlilik, hissiy muvozanat ilgari suriladi. O‘gdulmishga Oyto‘ldi bir qancha nasihatlar tarzida bayon etadi:

“Kimki farog‘atli kunni istasa, u fe’l-atvorini sozlashi, to‘g‘rilik va rostlikni tanlashi lozim. Ko‘pchilikka bosh bo‘lgan kishining yo‘li adolat, fe’li ravon, qilmishi ezgulik bo‘lmog‘i, yomonlardan uzoq turmog‘i shart. Yomonlik ilonga o‘xshaydi: u chaqishi, hatto halok etishi ham mumkin…

Yumshoq ko‘ngillilik odating bo‘lsin. Hasaddan yiroq tur. Uyatsiz kishidan mudom uzoq bo‘l. Nomusli, uyat-andishali bilan do‘st tutin. Biror ishda shoshilma. Sabr va qanoat qil. Yo‘l-yo‘riqning o‘rtachasini tut. Tilingni ham, bo‘g‘zingni ham, ko‘zingni ham asra. Xiyonat elidan chetda bo‘l. O‘zingga loyiq bilmagan ziyonni o‘zgalarga ham loyiq bilma. G‘azabingni bos, doimo og‘irlik qil. Sabr qilish ham — jasurlar ishi”. [2, 49-50]

Yusuf Xos Hojib asarda Oyto‘ldi tili orqali bunday pand-nasihatlarni bayon etishi zamonaviy klinik psixologiyadagi stressga chidamlilik tushunchasi bilan uyg‘un keladi. [7] B. L. Fredriksonning ushbu nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, bardoshli insonlar stressli vaziyatlardan tez va samarali tarzda o‘zlariga keladilar. 1998, 2001-yillardagi tadqiqotlarga ko‘ra ijobiy hissiyotlarni kengaytirish va qurish nazariyasi psixologik bardoshlilikni tushuntirishda asos sifatida qo‘llaniladi. Mualliflar uch tadqiqotda ko‘p usulli yondashuvdan foydalanib, bardoshli odamlar stressli holatlardan chiqish va ularga ijobiy ma’no topish uchun ijobiy hissiyotlardan foydalanishini bashorat qilganlar. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ijobiy hissiyotlar tajribasi qisman ishtirokchilarning hissiyotlarni samarali boshqarishiga yordam bergan. [8]

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”ida bu jihat, ayniqsa O‘zg‘urmish obrazida axloqiy poklik, ruhiy qoniqishga erishish orqali baxtni topishga chorlaydi. Bu qarash esa egzistensial psixologiya nuqtayi nazaridan shaxsning hayotdan ma’no topishga intilishga, yo‘nalish namoyondalaridan Viktor Franklning

logoterapiya nazariyasiga ko‘ra esa insonning psixologik salomatligi uning hayotda ma’no topa olishi va o‘z hayotini mazmunli deb his qilishi bilan bog‘liqdir. [9]

Insondagi foydali fazilatlar va yaramas odatlar bobida Yusuf Xos Hojib inson baxtiyorligining asosi nimada degan savolga aql-zakovat timsoli sifatida ta’riflangan O‘gdulmish tilidan yosh shahzoda Eligga ta’lim-tarbiya berish orqali javob izlaydi:

“Elig bir kuni O‘gdulmishni chorlab undan insondagi foydali fazilatlar hamda yaramas odatlar qanday bo‘ladi? — deb so‘raydi.

O‘gdulmish javob beradi:

— Ey elig, — deydi u, — olamdagi eng ulug‘ fazilat ezgu qiliq va go'zal xulqdir. lkkinchisi — rostlik, uchinchisi — hayo hisoblanadi.

Mana shu uch fazilat birlashsa, kishi baxtiyor bo‘ladi, qut-iqbol uning huzuriga bosh urib keladi. Chunki kimning xulqi go‘zal bo‘lsa, uni barcha xalq sevadi. Xulqi soz bo‘lgan odamga doimo to‘rdan joy tegadi”. [2, 59] Bu jumlalar hozirgi kunimizda davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalari sifatida keltirilgan – “barkamol avlod”ni tarbiyalash vazifasida belgilangan jihatlar:

- axloqiy tarbiya — halollik, adolat, mehnatsevarlik, kattaga hurmat;
- ruhiy barqarorlik — o‘zini anglash, stressga chidamli bo‘lish, ijtimoiy moslashuvchanlik;
- ma’naviy yetuklik — tarixiy merosni qadrlash, vatanparvarlik, estetik did kabilarni o‘zida mujassam etadi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” risolasi inson psixologik farovonligi uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jamiyatdagi o‘zaro aloqalarning muhimligini asosiy o‘ringa qo‘yadi. Kamolotga erishishda oila, yor-u birodalar va jamiyatning o‘rni beqiyos deb ta’riflab, ruhiy salomatlikni saqlashning asosiy omillari sifatida ko‘rsatiladi.

Adabiyotlar:

1. Buyuk siymolar, allomalar, 1-kitob, T., 1995;
2. Yusuf Xos Xojib., / Qutadg‘u bilig.,/ “Cho‘lpon” nashiryoti.,/ T.,- 2007. - 199 b.
3. Peterson, C., & Seligman, M. E. P. (2004). Character Strengths and Virtues: A Handbook and Classification. APA.
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/
5. Самонаблюдение // Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров. — 3-е изд. — М. : Советская энциклопедия, 1969—1978.
6. Carver, C. S., & Scheier, M. F. (2017). Perspectives on Personality. Pearson Education.
7. Tugade, M. M., & Fredrickson, B. L. (2004). Resilient individuals use positive emotions to bounce back from negative emotional experiences. Journal of Personality and Social Psychology, 86(2), 320–333
8. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC3132556/
9. Viktor Frankl's Logotherapy: Method of Choice in Ecumenical Pastoral Psychology. 2019.

ABDULVAHHOBXO‘JA O‘G‘LI POSHSHOXO‘JANING IJODIY MEROSI VA UNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Nusratov Anvar Nematjonovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.d. (Phd)

Ushbu maqolada Abdulvahhobxo‘ja o‘g‘li Poshshoxo‘janing ijodiy merosi va uning pedagogik mahorati xususida, mutafakkir yashagan o`sha davr, mavjud bo`lgan ilmiy-pedagogik muhit va pedagogik fikrlar mazmuni to`g`risida tarixiy hamda pedagogik tahlillar o`rin olgan.

Kalit so`zlar*: ijodiy meros, tarixiy davr, ta’lim, axloq, Xoja**, Miftoh ul-adl, gulzor, Buxoro xonligi, madrasa, mutafakkir.*

ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АБДУЛВАХОБХОДЖА ОГЛИ ПАШШОХОДЖА И ЕГО ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ

В данной статье дается историко-педагогический анализ творческого наследия Пошхоходжи, сына Абдулваххоходжи, и его педагогической сущности, а также научно-педагогической среды времени, когда жил мыслитель, и содержания педагогических мыслей.

Ключевые слова: *творческое наследие, исторический период, образование, этика, Ходжа, мифта ул-адл, цветник, Бухарское ханство, медресе, мыслитель.*

THE CREATIVE HERITAGE OF ABDULVAHHOBKHO‘JA OGLI PASHSHOKHO‘JA AND ITS PEDAGOGICAL CONTENT

This article contains a historical and pedagogical analysis of the creative heritage of Poshkhokhodja, the son of Abdulvahkhokhodja, and his pedagogical essence, as well as the scientific and pedagogical environment of the time when the thinker lived, and the content of pedagogical thoughts.

Keywords: *creative heritage, historical period, education, ethics, Khoja, Miftoh ul-adl, flower garden, Bukhara Khanate, madrasah, thinker.*

XVI asrga kelib Buxoro xonligidagi ilmiy pedagogik muhit o‘ziga xos rivojlanishga yuz tutdi. Bu davrga kelib, tarix, tibbiyot, musiqa, fiqh, falsafa, matematika, xattotlik, astranomiya, kimyo, she’riyat ilmi, handasa, din ilmi hamda va boshqa bir qator fanlardan o‘z davrining nodir asarlari dunyoga keldi. Bunday ijod namunalari qatorida didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan, o‘zida ta’lim–tarbiya masalalarini qamrab olgan,pandnoma yo‘nalishidagi asarlar ham yaratildi. Bu holat XVI-XVII asrlarda Buxoro xonligidagi ta’lim-tarbiya va ilg’or pedagogik g’oyalarni maxsus o’rganib hozirgi davrdagi ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish bo’yicha aniq tadqiqotlar o’tkazilib, “Pedagogika tarixi” fanining mazmunini boyitish ishlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Ushbu kemtiklikni to’ldirish maqsadida biz mazkur ilmiy ishimizda Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, Fazlulloh ibn Ro’zbexonning “Mehmonnomai Buxoro” va “Suluk al- muluk”, Mulla Shodining “Fathnoma” (Shayboniyxonning tarjimayi holi she’riy tarzda hikoya qilinadi) va “Tavorixi guzida nusratnoma” (o’zbek tilidagi nasriy asar), Abdulla ibn Muhammad ibn Ali Nasrulloning “Zubdat ul - osor” (o’zbek tilida), Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad al – Buxoriyning “Sharafnomai shohiy” (bu asar “Abdullanoma” nomi bilan mashhur), Muhammad ibn Valining “Bahr ul – asror”, Zayniddin Vasifiyning “Badoe’ ul vaqoe’” Poshshoxo’janing “Miftohul-adl va Gulzor” , Xoja Samandar Termiziyning “ Dastur ul-muluk” asarlarining o’zbekcha tarjimalari, forsiy tabdillariga suyanib shu davr ta’lim –tarbiyasi va pedagogik fikr tarixiga doir g’oya va qarashlarini yaxlit tarzda o’rganishga jazm qildik. Unda xususiy ta’lim, madrasa tipidagi o’quv muassasasidagi ta’lim, oila tarbiyasi tizimlarining mohiyatini atroflicha aniqlashga alohida e’tibor bergan holda tadqiq etishga harakat qildik.

Bundan tashqari, XVI-XVII asrlarda Buxoro xonligidagi yashab ijod etgan mutafakkirlardan Abdulvahhobxo’ja o’g’li Poshshoxo’ja va Zayniddin Vosifiylar misolida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyotini yoritishga jazm qildik. Zero,ularning milliy pedagogikamiz xazinasi uchun yozib qoldirgan asarlari mazmunidagi ilg’or pedagogik g’oyalarni o’rganish va uni pedagogika tarixi fanining mazmunini boyitish uchun qo’llash va ulardan foydalish imkoniyatlarini yaratish, ilmiy tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi va muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. XVI-XVII asrlarda Buxoro xonligidagi ta’lim-tarbiya masalalari va pedagogik fikr taraqqiyotini ilmiy-nazariy asoslash va ulardan hozirgi zamon ta’lim-tarbiya tizimida o’rinli foydalanish uchun mazkur davr ta’lim-tarbiyasi va pedagogik g’oyalarining mazmunini

ta’minlagan ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy hayotning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini yoritish kerak bo’ladi. Navbatdagi faslda fikrimiz shu to’g’risida bo’ladi.

Bu borada o‘zining asarlarida ta’limiy-axloqiy masalalarni yoritgan va butun hayoti davomida inson kamoloti muammolari bilan shug‘ullangan, o‘sha davr ijodkorlaridan biri, Ibodulla Said Poshshoxo‘ja binni Abdulvahhobxoja hisoblanadi. Abdulvahhobxo‘ja o‘g‘li Poshshoxo`ja “Xoja” taxallusi bilan ijod qilgan zamonasining zabardast mutafakkirlaridan biri bo‘lib,u 1480-yilda Niso shahrida ruhoniy ziyoli oilada dunyoga kelgan. Uning otasi Abdulvahhobxo‘ja Sulaymonxo‘ja o‘g‘li bo‘lib, o‘z davrining mashhur tasavvufshunosi,shoiri hamda shayxlaridan biri bo‘lgan. Xoja diniy ruhdagi tarbiya muhitida ulg‘aygan bo‘lsa-da, u ilk savodini dastlab otasidan keyinroq, Niso va Marv madrasalarida chiqarib,qisqa fursatlarda ko‘plab, o‘z davrining bir qator dunyoviy fanlaridan ham yaxshi xabardor bo‘lgan. Hasanxoja Nisoriyning keltirishicha Poshshoxo‘ja ota-bobolarining deyarli barchasi o‘z zamonasida bir qator ilmiy sohalarda va davlat boshqaruv ishlarida, ma’lum va mashhurlikka erishgan. Xoja dastlab o‘z faoliyatini Kepak Mirzo saroyida 1496-yilda sadrlik (vaqf yerlarining hisobi va tekshirishlarini olib boruvchi shaxs) lavozimi bilan boshlab,1508-yildan shoir va adib sifatida tanila boshlaydi.1508-yilning fevralidan Niso va Obivard temuriylardan tortib olinib, to‘liq shayboniylar tasarrufiga o‘tgandan so‘ng, Qozoq xonlari ustidan g‘alaba qilib qaytayotgan Shayboniyxon Nisoga to‘xtab, Xoja bilan suhbat quradi va uni Darun viloyatiga hokim qilib tayinlaydi.1510-yilda Shayboniyxon vafotidan keyin Xoja mamlakatning ichkarisiga, aniqrog‘i xonlikning markazi bo‘lgan Samarqandga keladi. Keyinchalik Buxoroga kelib bu yerni, o‘ziga vatan tutadi. U 1514-1516-yillar davomida Temur Sulton, Ko‘chkinchixon va Jonibek Sultonlar hukumatida Jumlatulmulk hamda sadrlik lavozimlarida ishlab, 1529-yilda Buxoro hokimi Ubaydulloxon davrida Shayxulislomlik vazifasini bajargan. Balx hokimi Kiston Qaro sulton Ubaydullaxondan Xojani berib turishini so‘raydi. 1534-yildan Xoja Balxda Kiston Qaro huzurida avval sadrlik keyinchalik, Shayxulislom lavozimlarida ishlaydi.1543-yilga kelib Poshshoxo`ja o‘z ixtiyori bilan lavozimini topshiradi. Bir qancha manbalarda bunga sabab sifatida Kiston Qaro Sultonning ruhiy kasallikka chalinib, ko‘plab begunoh odamlarni qatl etganligi ko‘rsatilgan. Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” asarida bu borada shunday deydi:

“Ularning mansabdan maqsadi xalq ahvolini yaxshilash bo‘lib, hazrat Kiston Qaro sulton bir kasallik bilan xaql ahvoliga qaramay qo‘yganlarida Xoja Balx Shayxulislomligini tark etib,uy eshigi sohibligini ixtiyor etgan”[1-273] Poshshoxo‘janing hayot yo‘li haqidagi ma’lumolar juda oz bo‘lib, adib to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlarni uning o‘g‘li Hasanxoja Nisoriyining “Muzakkiri ahbob” asari orqali bilib olish mumkin. Xoja 1547-yilda Buxoroda vafot etadi va Bahouddin Naqshband maqbarisi yonida dafn qilinadi.

Xoja XVI asr pedagogik fikrlar rivojida muhim o‘rin tutgan mutafakkirlardan biridir. XX asr o‘rtalariga kelib, O‘zbekiston va jahon olimlari tomonidan Xoja ijodiy faoliyati va hayot yo‘li to‘g‘risida qator tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ularning aksariyati adabiyotshunoslik sohasiga tegishlidir. Misol uchun akademik V.Zohidov, S.G‘anievalar Xojaning eng yirik asarlaridan bo‘lmish “Miftohul-adl ” hamda “Gulzor” nomli asarini birinchilardan bo‘lib tarjima qilishdi hamda ushbu asarlarni keng kitobxonlar ommasi uchun taqdim qilishdi. Xojaning ijodiy faoliyati adabiyotshunoslik sohalarida ham jiddiy tadqiq etildi. Misol uchun XX asrning 1966-yillarida M.Mirzaaxmedova tomonidan nomzodlik ishi olib borilib “Xoja” nomli monografiyasi nashr etildi. Shuningdek, N.Mallayev, V.Abdullayevlar ham Xoja hayoti va faoliyati xususida qimmatli ma’lumotlarni berib o‘tishgan. Mustaqillik yillarida ham olim hayoti va ijodiga e’tibor kuchayganligini, ko‘rishimiz mumkin. Biroq yuqorida sanab o‘tilgan Xoja ijodiga doir tadqiqotlarning aksariyati adabiyotshunoslik masalalariga doir bo‘lib, Poshshoxo‘janing shaxs ta’lim va tarbiyasi bilan bog‘liq bir qancha pedagogik g‘oya va qarashlari e’tibordan chetda qolgan. Shuningdek, S.G‘oziyev tomonodan Poshshoxo‘ja qarashlarida ijtimoiy axloq masalalariga bag‘ishlangan tadqiqot ishida Xoja va uning falsafiy qarashlariga doir amaliy misollar keltirilib,olimning “Miftohul adl”, “Gulzor” hamda “Maqsadul atvor” asarlaridagi hikoyalar, undagi ijtimoiy –falsafiy fikrlar keng doirada yoritilgan bo‘lsa-da, bizning fikrimizcha, Xoja ijodiy merosi mazmunida ko‘proq axloqiy-didaktik g‘oyalar ustunlik qiladi. Zero Xojaning «Miftoh ul-adl» va «Gulzor» asarlari, asosan, hikoyalardan iborat. Hikoyalar esa o‘z ichiga kichik-kichik, qiziq-qiziq voqealarni qamrab olgan bo‘lib, ular asos e’tibori bilan didaktik mazmundagi asarlar hisoblanadi.

Said Poshshoxo‘ja binni Abdulvahhobxoja O‘zbek mumtoz pedagogikasining XVI asrdagi yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. “Xoja” taxallusi bilan ma’lum va mashhur bo‘lgan, ushbu ijodkor butun umri davomida Movarounnahr va Xuroson shaharlarida yashab ijod qildi. U o‘zbek, fors va arab tillarini mukammal egallab, o‘z davrining buyuk donishmandi va olimi sifatida nom qoldirdi. Xoja o‘zidan oldin o‘tgan Nizomiy, Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Sa’diy Sheroziy, Kotibiy va boshqa bir qancha Sharq allamalari ijodiy meroslarini mukammal biluvchisi ham edi. Shuningdek, Xoja xalq og‘zaki ijodi namunalarini qayta ishlab, ularga ilmiy ruh bag‘ishlay oldi. Ko‘plab manbalarda keltirilishicha, Xoja

o‘zining ijodiy namunalarini XVI asrning yirik shoh va shoiri Bobur mirzoga yuborib , o‘z ijodiga baho olib turgan. Xoja g‘azallarining biriga Bobur mirzo tomonidan yuqori baho beriladi va Bobur ham o‘z navbatida Xojaga o‘zining qalamiga mansub asarlaridan tuhfa sifatida yuborib turgan. Xoja qalamiga mansub o‘sha g‘azallardan birini keltiramiz.

Kunduz avqotim sening hajrinigda nolon kechadur,
Kecha ham zulfung kabi holim parishon kechadur.
Anbarin zulfung xayolidin ko‘zimga, ey pari!
Yilu oyu soatu kun bori yakson kechadur.
Ulki jondin kechadur Shomu visolingni ko‘rub,
Vah na xush vaqtu,na xush soat,na oson kechadur[10-271]

Shuningdek, XVI asrning mashhur tasavvufshunos olimi Maxdumi Kosoniy o‘z kitobida Poshshoxo`jani (Yuksak parvozli lochin) deb baho beradi. Bu haqida Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asarida shunday deyiladi: “Maxdumi mavlono Xojagi Kosoniy- sirlari muqaddas bo‘lsin –Xojani o‘z sharif kitoblarida “Shahbozi balandparvoz” deb yozganlar.” [1] Poshshoxo`ja o‘z davrining dunyoviy va diniy ilmlarini chuqur egallagan, tasavvufda yassaviya, qalandariya va naqshbandiya ta’limolarini puxta o‘zlashtirgan mashhur olim va shoir hamda shayxulislomlik darajalarini egallay olgan XVI asrning yirik mutafakkiri hisoblanadi. Xoja tomonidan yozib qoldirilgan ilmiy meroslarining hammasi ham bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan asarlari quyidagilar: “Miftohul–adl” (“Odillik kaliti”) ba’zi manbalarda “Adolat kaliti”. Ushbu asar 15 bobdan iborat nasrda yozilgan bo‘lib, 40 ga yaqin hikoyat va undan so‘ng muallif fikrini asoslovchi masnaviy, qit’a, ruboiylardan namunalar bor. “Gulzor” asari yagona syujetga ega bo‘lmagan, turli mavzulardagi, 40 ga yaqin hikoyatlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

“Gulzor” Sa’diyning “Guliston” va Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asarlari tuzulishida yozilgan bo‘lib, muallifning fikri, hikoyatlar qissadan- hissa shaklida beriladi. Hikoyatlar yakunida ruboiy, g‘azal, masnaviy, qit’alardan she’riy xotima va izohlar keltirilgan. “Maqsad ul-atvor” ushbu asar 15 ta axloqiy didaktik masnaviylarni o‘z ichiga qamrab olgan doston bo‘lib, asar bob mazmunidan kelib chiqib, Xojaning tanbeh va pand - nasihatlarini o‘z ichiga olgan. Shuningdek, Xoja Alisher Navoiyga ergashib, o‘zi ham “Layli va Majnun” hamda o‘zbek va fors tillaridagi yirik devonni yaratadi, biroq uning qalamiga mansub ushbu ikki asar haligacha topilgani yo‘q. Adibning bizgacha yozib qoldirgan ilmiy merosi, Buxoro xonligidagi pedagogik fikrlar mazmunini yoritishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Xoja va uning pedagogik merosi o‘z navbatida Sharq ta’lim –tarbiyasi tarixida alohida o‘rin egallaydi. Poshshoxo‘ja uning ijodiy namunalari olim hayot tajribasi asosida yozilganligi, uning asari qiymatini yanada oshirgan. Shuningdek, Abdulvahhobxo’ja o’g’li Poshshoxo’ja: “Har qanday shaxs o’zidagi qahr va g’azabini yo’qotib, sabru bardoshli bo’lsa, u barkamollik sari o’ziga yo’l ochadi”, deb ta’kidlaydi.

Abdulvahhobxo’ja o’g’li Poshshoxo’janing “Gulzor” risolasida ham komil insonga oid masalalar ko’tarilgan. Abdulvahhobxo’ja o’g’li mutafakkir xalqparvarlik,adolatparvarlik g’oyalarini kuylab, mavjud tuzum dunyoqarashi chegarasidan ancha chetga chiqadi hamda o’z davri jamiyatidagi hukm surgan ba’zi bir axloqiy normalarni tanqid qiladi. Jafodan qashshoqlashayotgan xalq ahvolini ko’rgan Abdulvahhobxo’ja o’g’li Poshshoxo’ja faqat zulmpeshalarni adolatga chaqirish yo’li bilangina osoyishtalik o’rnatish mumkin, deb o’ylaydi.Oddiy xalq tuganmas boylik yaratuvchi ekanini tushunadi:

Raiyat javohirga ma’dan erur,
Kim ul la’lu yoqutu ahmar berur,
Onga har kishi adl bila solsa qo’l,
Necha hajr qilsa, tuganmasdur ul

Abdulvahhobxo’ja o’g’li Poshshoxo’janing tushunishi va o’sha davrdagi ilg’or kishilar talqin etishlaricha,xalqning hayot kechirishi uchun hukmdorlarni adolatli, xalqparpar bo’lishlari yagona omil hisoblangan. Shunga ko’ra, u shohlardagi “Zulmu sitam” o’rnini “adlu saxo” bilan, jabru- jafo, zulm o’tqazish odatlarini “lutfu ehsonu karam” bilan almashtirib,” shikasta notavonlarning buzuq ko’nglini obod etmoq” mumkin degan xulosaga keladi. El-yurtga mehribon, g’amxo’r, xalq manfaati yo’lida har qanday mushkulni oson qiladigan shoh orzusi mutafakkir asarlarining deyarli hammasida o’z ifodasini topgan [85;170]. Shoir komillikka erishish yo’lida insonlarni yo’ldan adashmaslikka, foniy dunyo g’ami va o’tkinchi havaslariga berilmasdan, umrguzaronlik qilish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, har bir shaxs mukammal xilqat shaklida dunyoga kelib, ushbu poklikka rahna soladigan narsa bu insonga sinovga berilgan hirs va havaslar hisoblanadi. Mutafakkir hirs va havasni o’ylab mol-u davlat ortidan quvib, uni yig’ishda dard-u ranj kechib, umr hamda vaqt sarflab va yakunda ularni barchasini tashlab ketishining muqarrarligini bilsang, o’z insoniy mantig’ingni yarata olasan, deb ta’kidlaydi. Abdulvahhobxo’ja o’g’li Poshshoxo’ja mol-u davlatning insonlarga foydasidan ko’ra ziyoni ko’pligini uqtiradi.

Necha ziyondur sanga ul moldin,
Sharh qilay sanga bil oni yaqin [2;73]

Uning fikricha, mehnat-u ranj bilan misqollab yig’gan mol-u davlatingni yig’ib bo’lganingdan so’ng, seni ko’rolmaydigan badnafs kimsalar paydo bo’ladi. Ular senga do’st ko’rinib aslida dushmanlik qilishadi. Oshingni yeb g’iybatingni qilishadi. Qayerdan unga shuncha mol-u davlat, deya seni nomingga tuhmatlar toshini otishadi. Bittasi aytadi: uni tutmoq kerak. Bittasi aytadi: o’ldirib molini olmoq kerak. Yana biri bu yomon odamdir deya xalqqa yomonlasa, birisi aytar har bir bo’layotgan yomonliklarga sababchi shudir. Xullas, o’sha yig’gan molingni deb xalq ko’ziga tun-u kun yomon ko’rinib qolaverasan, deydi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, Poshshoxo‘ja ijodiy merosidan o‘rin olgan har bir nasriy asar, masnaviy, ruboiy, g‘azal yoki boshqa bir nazmiy namunalarining qay biriga murojaat qilmang, ularda shaxs ta’lim-tarbiyasi bilan uyg‘un ko‘plab, masalalar xususida so‘z yuritiladi, o‘quvchiga esa bevosita, pand va nasihatlar qiladi. Poshshoxo‘ja pedagogik qarashlari asosida davlat va jamiyat hamda inson muammolarining eng nozik jihatlarini, jamiyatda yashovchi barcha insonlarning axloq –odobini yuksaltirish oraqali hal etish mumkinligi, g‘oyasi birlamchi ahamiyat kasb etadi. Xoja insonlarni tabaqalarga bo‘lishga qarshi chiqadi. U jamiyatda mehnat qilib turgan har bir insonni qanday tabaqada bo‘lmasin, u Xudo tomonidan yaratilgan, bir-biridan farq qiluvchi, alohida xarakter va qiziqishlarga ega, takrorlanmas tilsim sifatida etirof etadi. Xoja jamiyatda yashovchi har bir inson o‘zidan keyin yaxshi iz qoldirishi, Xudo tomonidan berilgan har bir daqiqani ilm-ma’rifatga sarflab, halol mehnat qilish, odamlarga yaxshilik qilish g‘ami bilan yashash, insonlarga rahm-shafqat nazari bilan qarash, kamtar, muloyim, to‘g‘ri so‘z, mehnatkash, sabrli, himmatli hamda nozik ta’b bo‘lib umr kechirishga da’vat etadi.

Adabiyotlar:

1. “Muzakkiri Ahbob” (“Do‘stlar yodnomasi”) asari fors tilidan Ismoil Begjonov tarj.T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1993

2.Poshshoxo‘ja “Miftohul-adl va Gulzor” dan.T.:Badiiy adabiyot nashriyoti 1962.

3.Sadriddin Salim Buxoriy. “Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari”:Tarixiy –ma’rifiy risola (To‘ldirilgan,qayta ishlangan ikkinchi nashri) T:”Navro`z nashriyoti,” 2015.

4.Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI-XIX ASR I YARMI). T. Fan, 2009.

5.Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar)To‘plovchi va mas’ul muharrir: M.M. Xayrullaev T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001.

6 “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnali.2005 yil.№4.

7. Valixo’jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.,1993.

8. Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. -T.: O‘qituvchi,1993.

9. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. Выдающиеся памятники архитектуры. Узбекистана. Т. 1958

HOZIRGI ZAMON TA’LIM –TARBIYA JARAYONIGA SADRIDDIN AYNIY ILMIY MEROSINI TATBIQ ETISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Qurbonova Nigina Boboxo‘jayevna,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yetuk namoyondasi Sadriddin Ayniyning ilmiy merosini o‘rganish orqali zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish, jadidchilik ta‘limotining yoshlar ijtimoiy tafakkuriga ta‘siri, ijtimoiy-madaniy komil inson sifatida shakllantirish masalalariga e‘tibor qaratilgan. Ta’lim va tarbiya har sohada, har zamonda hayotiy qonuniyat uchun eng muhim, eng dolzarb masaladir. Uni tubdan o‘zgartirish, yangi zamon talablari darajasiga ko‘tarishning yagona sharti – unga bir butun tizim sifatida yondashmoq va shunga uyg‘un tarzda ish olib borishdir. Buyuk millatparvar jadidlar, jadid matbuoti orqali millatni o‘z madaniy-iqtisodiy ahvoli, siyosiy qaram va huquqsizligini anglatishga, unda bosqinchilarga qarshi nafrat, milliy istiqlolga ishonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq bo‘ldilar.

Kalit so‘zlar: *ta’lim-tarbiya, an’ana, maorif, yoshlar, jadidchilik, ilm-ma’rifat, usuli jadid, “Bidon”, pedagogika, nochorlik, zulm va zo‘ravonlik, handasa, tibbiyot, kimyo, jo‘g‘rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me’morchilik (arxitektura) asoslari, xattotlik, musiqa, matematika, mantiq, astronomiya, arab adabiyoti, etika, notiqlik san’ati va gigiyena.*

ЭФФЕКТИВНЫЕ ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ ЧЕРЕЗ НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ САДРИДДИНА АЙНИ В СОВРЕМЕННЫЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС

В данной статье рассматриваются вопросы внедрения научного наследия Садриддина Айни, зрелого проявления джадидистского движения, в современный учебно-воспитательный процесс через изучение, влияние джадидистского учения на общественное мышление молодежи, формирование как социокультурно совершенного человека. Образование и воспитание являются важнейшими и наиболее актуальными вопросами закона жизни во всех областях и во все времена. Единственное условие для ее кардинального изменения и поднятия до уровня современных требований — это подход к ней как к целостной системе и работа в гармонии с ней. Великие националисты-джадиды с помощью джадидской прессы сумели донести до народа его культурное и экономическое положение, политическую зависимость и бесправие, а также привить ему дух ненависти к захватчикам и веру в национальную независимость.

Ключевые слова: *образование, традиции, образование, молодежь, джадидизм, наука-просвещение, метод Джадид, “канистра”, педагогика, беспомощность, угнетение и насилие, геометрия, медицина, химия, география, история, литература, наука АРУЗ, основы архитектуры, каллиграфия, музыка, математика, логика, Астрономия, арабская литература, этика, ораторское искусство и гигиена русский узбекский.*

EFFECTIVE WAYS TO INTRODUCE SADRIDDIN AYNIY SCIENTIFIC HERITAGE INTO THE CURRENT EDUCATIONAL PROCESS

This article focuses on the issues of introducing the modern educational process through the study of the scientific heritage of Sadriddin Ayni, a mature exponent of the jadidism movement, the influence of the jadidism doctrine on the social thinking of young people, the formation of a socio-cultural person. Education and upbringing are the most important and urgent issues for the law of life in every sphere and at every time. The only condition for its radical transformation and raising it to the level of the requirements of the new era is to approach it as a whole system and work in harmony with it. The great nationalist jadids, through the jadid press, managed to make the nation understand its cultural and economic condition, political dependence and lawlessness, and to cultivate in it a spirit of hatred against the invaders and faith in national independence.

Keywords: *education, tradition, education, youth, jadid, science, education, method of jadid, "Bidon", pedagogy, helplessness, oppression and violence, geometry, medicine, chemistry, geography, history, literature, aruz science, architecture fundamentals, calligraphy, music, mathematics, logic, astronomy, Arabic literature, ethics, oratory art and hygiene Russian Uzbek.*

Kirish: XIX asr oxiri XX asrning dastlabki yillarida Buxoro amirligida faoliyat ko‘rsatgan boshlang‘ich maktablar o‘z ish tartibi, tashkil etilishi va moliyaviy-xo‘jalik ta’minoti jihatidan o‘tgan asrlar an’anasi va darajasini saqlab qolgan. Maktablar xalqning savodini chiqarish, arab imlosida o‘qib-yozishni, arifmetik hisobni o‘zlashtirishga o‘rgatuvchi maskan sifatida bu davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Maktablarning o‘quv dasturi boshlang‘ich diniy ta’lim, islom asoslari, diniy ibodat, axloqiy tarbiyaga yo‘naltirilgan, atrof-muhit, jamiyat haqida ham tushunchalar bergan. Ammo maktabxonalardagi ta’lim usuli, ularning moddiy-moliyaviy ta’minoti, o‘qish muddatlari, sanitariya - gigiena sharoitlari talabga javob bermasligi, ularning ko‘pchiligi xayriya hisobidan yoki xususiy va jamoat mablag‘lari asosida ish yuritishi va davlat tomonidan ta’minlanmaganligi, o‘quv dasturida dunyoviy bilimlarga e’tiborsizlik, o‘qituvchilarning bilimi yetarli emasligi ularni zamon talablariga hamohang bo‘lishiga imkon bermadi.

Maktabxonada o‘qishga qabul qilish yoshi Buxoroda 5-12 yoshgacha bo‘lgan davrni tashkil etgan. Sadriddin Ayniy o‘zi yashagan uch yuz xonadonlik qishlog‘ida to‘rt yashardan 12 yashargacha bo‘lgan bolalar maktabning shogirdlari hisoblanganligi haqida ma’lumot beradi. An’anaviy boshlang‘ich maktablarda o‘quvchi besh yildan kam o‘qimagan. Yoz oylari va ramazon oyida o‘quvchilar ta’tilga chiqishgan. Maktabxonada tahsil oladiganlar o‘qishining davomiyligi bir qator omillarga, ya’ni domlaning mahorati, o‘quvchining zehni hamda oiladagi muhitga bog‘liq bo‘lgan. Ayniyning yozishicha, Buxoro maktablarida bulardan tashqari, arab grammatikasiga katta e’tibor qaratilib, “Bidon”, “Zanjoniy”, “Muizziy” kabi kitoblar ham o‘qitilgan. “Bidon” – fors- tojik tilida yozilgan arab tili grammatikasi bo‘lsa, “Zanjoniy” – arab tili sintaksisiga doir kitob bo‘lgan. “Mu’izziy” – arab tili morfologiyasiga doir kitob bo‘lib, har uchala kitob ham madrasa tahsiliga qadar maktabxonada o‘qitilgan. Buxoroda maktab o‘quvchilari fors-tojik va o‘zbek tilida so‘zlashishlari nazarda tutilib, ularga arab tilini fors tili orqali o‘rgatuvchi darsliklar ham bo‘lgan. Masalan, Mullo Abdul-G‘ofurning “Arab leksikologiyasi” deb nomlangan darsligi arab imlosida, ammo fors tilida yozilgan. Unda so‘z ma’nosi, shakli va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlari, ibora to‘g‘risida tushunchalar berilgan. Yana bir arab tili grammatikasiga taalluqli bo‘lgan darslik “To‘plam” (1848-1849 yillarda yozilgan) risolasi ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida arab tili grammatikasi to‘g‘risida ma’lumot berilgan bo‘lsa, ikkinchi qismida esa fors tili grammatikasi haqida ma’lumot berilgan. Ammo o‘zbek tili grammatikasi maktabda o‘rgatilmagan. Maktablarda o‘qish jarayonida Alisher Navoiyning ijodiga mansub “Devoni Navoiy”, “Devoni amir Navoiy”, “Amir Navoiy”, “Mavlono Amir Navoiy”, “Kulliyoti devoni Amir Navoiy” kabi nomlar bilan shuhrat qozongan she’riy to‘plamlar ham o‘qitilgan. Bu to‘plamlar noma’lum kishilar tomonidan, asosan ”G‘aroyibus-sig‘ar” va qisman “Navodirush-shabob” devonining o‘zi ham o‘qitilgan.

Sadriddin Ayniy amirlik zamonida voyaga yetdi, tanildi. Eski maktab, madrasa ta’limini oldi. Otasining "Mulla bo‘lma, qozi bo‘lma, odam bo‘l", degan o‘giti ta’sirida kamol topdi. Maktabning, madrasaning chalamullalikka yo‘naltirilgan ta’limoti, amirlikning mutaassiblikka tayangan tartiboti ma’rifatli ota o‘gitiga amal qilgan yosh Sadriddinda qoniqmaslik, norozilik, keyinchalik cheksiz nafrat hissini oshirdi. Ilk she’rlarida imo-ishoralar, ramzlar vositasida ko‘ringan bu tuyg‘u nasriy asarlarida ochiq-oydin aks eta boshladi. Atrofdagi nochorlik, zulm va zo‘ravonlik, amir jallodlari tomonidan akasining qatl etilishi, o‘zining darra bilan kaltaklanishi kabi obyektiv, subyektiv omillar bu nafrat tuyg‘usini alangalatganligi shubhasiz. Yozuvchi madrasada o‘qib yurgan chog‘lari muqim turarjoyga ega bo‘lmagan. Ba’zan akasining, do‘stlarining, tanishlarining hujralariga ko‘chib yurgan. Umuman boshpanasiz qolgan paytlari ham bo‘lganki, uning o‘z ta’biri bilan aytganda, "ko‘ylagining ichida" yashab yurgan. O‘sha paytlarda yozgan she’rlari amir Abdulahadxonga ma’qul bo‘lib, saroyga ishga taklif qilinadi. Ammo Ayniy turli sabablarni ro‘kach qilib, bu taklifni rad qiladi. Yosh bo‘lishiga qaramay, bu dunyoning past-u balandini, oq-u qorasini erta anglagan yozuvchida shaxsiy sifatlar shakllana boshlagan edi.

Ma’lumki, S.Ayniy ijodini she’r yozish bilan boshlaydi. Ahmad Donishning shafqatsiz realizm namunasi bo‘lgan "Navodirul vaqoye" asari bilan tanishgach, unda yozuvchilikka havas uyg‘onadi. Asarlari tilining sodda, ravon, xalqona, jumlalarning pishiq, fikrlarining mantiqan bir-biriga bog‘lanishi ustida sabot bilan mehnat qiladi. 1920-1921 yillarda nosirlikka jiddiy kirishadi. Psixologlarning aniqlashicha, insonda xarakter -xususiyatlari 22-25 yoshlar atrofida shakllanadi. Oktyabr to‘ntarishi ro‘y berganda Sadriddin Ayniy 40 yoshda edi. Adibning ideallari, qaror topgan xarakteri, jumladan, ijtimoiy adolatsizlikka murosasizligi yangi tuzum g‘oyalariga mos keldi. Shu bois adib amirning taxtdan ag‘darilishini (1920) mamnuniyat bilan qarshilaydi. Yana bir jihati shundaki, sho‘ro hukumatiga ham bayroq qilib ko‘tarish uchun Sadriddin Ayniyga o‘xshagan taniqli, e’tirof etilgan shaxs kerak edi. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 20-yillariga qadar bo‘lgan Buxoro tarixida soxtalashtirilgan, xolisona o‘rganilmagan nuqtalar ko‘p. Tarixiy hujjatlar, darsliklar, ma’lumotnomalar o‘z davrining siyosat va mafkurasi ta’sirida bir yoqlama yoritilgan bo‘lib, bugungi kun Sadriddin Ayniy asarlarining nafaqat badiiy, balki tarixiy ahamiyati nechog‘lik baland va muhimligini ko‘rsatib turibdi. Bu borada "Esdaliklar" juda qimmatli manba hisoblanadi.

Ayniy 6 yoshida qishloq maktabiga boradi (buni “Eski maktab”da aynan o‘qish mumkin), ammo u yerda to‘gri saboq ololmagani uchun keyinchalik qishloqdagi otinoyi maktabiga beriladi. Shuningdek, darsdan tashqari otasining o‘zi unga abjad hisobini o‘rgatadi.Oilada kichik Sadriddin Ayniyning o‘zidan 8 yosh katta akasi Muhiddinxo‘ja (avlodlari Ayniy kunlari Buxoro vil. G‘ijduvon tumani Soktare qishlog‘ida yashab keladi), shuningdek, ukalari –Sirojiddinxo‘ja va Kiromiddin xo‘ja (ular yoshligida vafot etgan)lar bo‘lgan. “Esdaliklar” asarida Ayniy otasining ustachilik ishlari sababli bolaligi ikki qishloqda: ota-bobo qishlog‘i G‘ijduvon tumani Soktare va tog‘alari qishlog‘i Shofirkon tumani Mahallai Boloda o‘tganligini aytadi. Said Murodxo‘ja o‘g‘li Sadriddinning ustoz Ayniy bo‘lishida eng katta sabab uning otasidir. Sadriddin Ayniy bolaligida birinchi marta “she’r” va “shoir” so‘zlarini otasi Saidmurodxo‘jadan eshitadi. Birinchi ko‘rgan shoiri otasining o‘rtog‘i Soktare qishlog’dagi hovlilariga mehmon bo‘lib kelgan Iso taxallusli shoir edi. Ayniy maktablarga borgan bo‘lsa-da unga ilk ta’limni otasi bergan. Ammo Sadriddin juda erta −1989-yil Sadriddin Ayniy 11 yoshida vabo tufayli 57 yoshli otasidan, shuningdek, onasi Zevaroydan ayrilgan. O‘shanda akasi Muhiddinxo‘ja 19 yoshda, ukasi Sirojiddinxo‘ja 9 yoshda, Kiromiddin 4 yoshda bo‘lgan. Oradan vaqt o’tib, Kiromiddin ham kasallikdan vafot etadi. Ayniy Buxoro madrasasiga borish umidida yurganida bir shaharlik mullavachcha bilan “baytbarak” o‘ynab Sharifjon Mahdum e’tiboriga tushgani uning yutuqlariga, kelajagiga poydevor qo‘ygan ilk muhim omil desak xato bo‘lmaydi. Ilm-fan va she’riyat orzusi Ayniyni 12 yoshida Buxoroga olib keldi, 13 yoshidan boshlab Mir Arabda o‘qiy boshladi. Ayniy kabi faqir olimlarning Buxoro madrasalariga kirib, o‘qishi juda qiyin edi. Sadriddin Ayniyning yozishicha, madrasada haftada to‘rt kunlik tahsil joriy etilgan. Ya’ni yakshanbadan chorshanbagacha. Payshanba, juma, shanba kunlari dam olish kunlari hisoblangan. Odatda mashg‘ulotlar sentyabrda boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta’tilga chiqilgan. Darslar bomdod namozidan keyin boshlangan. Dars ertalab soat 4:00 dan 10:00 gacha davom etgan. 12:00 da tushlik, so‘ngra bahs-munozara. 16:00 dan 18:00 gacha dam olingan. Kechki ovqatdan so‘ng yana tungacha bahs-munozara davom etgan. Talabalar o‘quv kursiga qarab emas, balki qaysi kitobni o‘qiyotganligiga qarab jamoa-guruhlarga ajratilgan. Jamoa-guruh soni talabalar miqdori va madrasa qamroviga qarab belgilangan. Katta madrasalarda har bir guruhda 5-10 nafardan 20 nafargacha talaba tahsil olgan.O‘quv dasturlari uch qismga bo‘lib o‘rgatilgan: diniy adabiyotlar, umumta’lim fanlar va maxsus pedagogik fanlar. Madrasaning o‘quv kursi, odatda, “Avvali ilm" deb nomlangan fors tilidagi o‘quv qo‘llanmasini o‘zlashtirish bilan boshlangan. Madrasalarda to‘liq kursni o‘qib tugatish uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 ta darslik-qo‘llanmani o‘zlashtirish talab etilgan. Bu darsliklarning aksariyatini Markaziy Osiyolik allomalarning asarlari, jumladan, Imom Buxoriy va Iso Termiziylarning hadis to‘plamlari, Abu Mansur Moturidiyning “Kitob at-tavhid", Burhoniddin Marg‘inoniyning “Al-hidoya fi sharh al-bidoya", Umar Qazviniyning “Ar-risola ash-shamsiya fil qavoid al-mantiqiyya", Abdurahmon Jomiyning “Al-favoid ad-diyoiya", Mahmud ibn Ahmad Mahbubiyning “Viqoyat ar-rivoya fi masoilil Hidoya", Ubaydulloh ibn Mas’ud Mahbubiyning “An-nuqoya" kabi asarlari tashkil etgan.Bundan tashqari, talabalar qiziqishlari va mudarrislarning salohiyati hamda mavjudligiga qarab, handasa, tibbiyot, kimyo, jo‘g‘rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me’morchilik (arxitektura) asoslari, xattotlik, musiqa, matematika, mantiq, astronomiya, arab adabiyoti, etika, notiqlik san’ati va gigiyena kabi fanlardan ham bilim olishgan.

Xulosa. Jadidchilik – XIX asr oxiri-XX asr boshida ko‘plab Sharq mamalakatlaridagi milliy taraqqiyparvar ziyolilar harakatining islohotchilik harakati hisoblanadi. Asli “jadid” so‘zi “yangi” degan ma’noni bildirib, “usuli jadid”, ya’ni “ya’ngi usullar” tushunchasi o‘qitish va ta’limning yangi usullari degan ma’noni bildirgan. Nafaqat bizning yurtimiz, balki butun O‘rta Osiyo xalqlarining madaniy, milliy-siyosiy jihatdan yuksaltirish, bilimi, dunyoqarashini o‘stirishda xalqning ziyoli ma’rifatparvarlarining harakatidir. Ma’rifatparvar ziyolilar xalqni mafkuraviy ozod qilishning asosiy omili bilim olishda, za’monaviy ta’limda deb hisoblashgan va xalqni yangicha ta’lim-ta’rbiya olishlari yo‘lida harakat qilishgan. Ular avvalo, maktab yoshidagi bolalarni yangicha o‘qitish maqsadida ta’lim jarayonini isloh qilishga intilishgan. Ma’rifatparvarlar xalqning ongiga ma’naviy va axloqiy qarashlar bilan kirib borishga e‘tibor qaratishgan va dunyoqarashni oshirish uchun esa turli spektakllar, kitoblar va ko‘ngilochar tomoshalardan foydalanganlar. Turkiston jadidlarining yetuk namoyondalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, T.Norbo‘tayevlardir. Ular yuksak bilim va saviyali, zamonaviy ta’limlarni egallagan ziyoli insonlar bo‘lgan va maktab o‘quvchilari uchun qator darsliklar yaratishgan, risolalar chop etishgan, xalqni savodli qilishga harakat qilib, jurnal va gazetalar chop etishgan. Eng e’tiborli jihati shundaki, jadidlarning harakatlari islomiy tarbiya va dunyoqarash asosida olib borilgan. Jadidlarimiz xalqni qorong‘ulikdan olib chiqishning yagona va muhim sharti sifatida ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor qaratishgan.

Ta’lim va tarbiya har sohada, har zamonda hayotiy qonuniyat uchun eng muhim, eng dolzarb masaladir. Uni tubdan o‘zgartirish, yangi zamon talablari darajasiga ko‘tarishning yagona sharti – unga bir

butun tizim sifatida yondashmoq va shunga uyg‘un tarzda ish olib borishdir. Buyuk millatparvar jadidlar, jadid matbuoti orqali millatni o‘z madaniy-iqtisodiy ahvoli, siyosiy qaram va huquqsizligini anglatishga, unda bosqinchilarga qarshi nafrat, milliy istiqlolga ishonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq bo‘ldilar. Shuning bilan birga ular milliy muxtoriyat va jumhuriyat g‘oyasini, millatlararo tenglik va qon-qarindoshlikni targ‘ibot qilishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yadilar. Olimning xalq og‘zida tarbiyaviy hikmatlar sifatida yashab kelayotgan bir ibrati zamon va makon tanlamay, yuksak ma’nolarni o‘zida jamlagan. Sadriddin Ayniyning o‘g‘li va qizi Moskvada o‘qib yurgan kezlari o‘g‘liga oz pul yuborar, qiziga esa – ko‘p. Buning sababini so‘raganlarida, shunday tushuntirish beribdi: ”O‘g‘il bolani to‘qchilik buzadi, qiz bolani yo‘qchilik. Farzand tarbiyasi nozik masala, o’g’il bolaning tarbiyasi esa ikki barobar ko’proq mehnat va e’tiborni talab etadi. Chunki erkak kishi oila boshlig’i, har qanday sharoitda hamma og’irlikni o’z bo’yniga olishi va muammoni hal qilish yo’llarini bilishi lozim”. Quyida ushbu mavzuga oid ba’zi maslahatlar beriladi. Bugungi kunda bolalarni tarbiyalashda eng katta yuk va mas'uliyat ayolning elkasiga yotadi. Tasavvur qilaylik, ular bizni bog'larda olib kelishadi, maktablarda ta'lim berishadi va uyda ko'pincha ota ayolning ishi ekaniga ishonib, bolaning xarakterini shakllantirishda passiv pozitsiyani egallaydi. Biroq erkak ta'limining zarurligini inkor etish mumkin emas. Oiladagi ota-ona alohida ahamiyatga ega. Birinchidan, otasi o'z farzandiga inson namunasini ko'rsatib beradi - himoyachi, to'ymaydi, janob. Bolaning tarbiyalanishida otaning roli ota-onaning chaqaloq uchun oila ohangini, uy bekasi va himoyachisining darvozasi ekanligini anglatadi. Buning natijasida bolalar ishonchni ko'proq his qiladilar, psixologik jihatdan sog'lom bo'lib o'sadilar, chunki ular bunday ishonchli orqa tomonga ega. Bolaning hayotida otaning hayoti juda muhim. O'zining oilasi, sevimli xotini, do'stlari, kelajak farzandlari haqida u to'g'ri erkak xatti-harakati misoli bo'lgan ota. Bola ota-bobolariga taqlid qiladi. Oilada tarbiyalashda otaning roli qisqartiriladi, chunki erkak yumshoq onaga nisbatan ko'proq intizomli bo'lishi kerak. Biroq tajovuzkorlik va ortiqcha zo'ravonliksiz, aks holda o'g'lining g'azab va achchiqlanishiga sabab bo'ladi. Farzandlarni qo'llab-quvvatlash va e'tirof etish, mustaqillikning rivojlanishi, erkaklar, ayollar hurmati - bularning barchasi otasi o'g'ilini tarbiyalashning asosiy vazifasidir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida.

2. Jalolov A., O‘zganboyev H. O‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o‘rni. – T.: Fan, 1990

3. Ergash Ochilov. Ayniy haqidagi hikoyatlar

4. Bobojonova F. Buxoro madrasalari ma’naviyat durdonasi

5. Ниёзов А.Н. Педагогическое наследие Садриддина Айни о воспитани и подрастающего поколение Автореферат диссертаци инасоискание ученойстепени кандидата педагогических наук

6. Айний С. Эсдаликлар // Асарлар, 5-жилд. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965. – Б. 167

7. Ahmadov O. Buxoroda yangi usul ta'lim-tarbiya muasssasalarining tashkil topishidagi jadid ma'rifatparvarlarining o'rni (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.

8. Ahmadov O. Buxoro bosmaxona va nashriyotlariga texnika sohasidagi yangiliklarning kirib kelishi tarixidan (1920-1924-yillar) (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

9. Брагинский И.С. «Садриддин Айни, очерк жизни и творчества». Труды АН Тадж. ССР, том XXIV, 1954 г.

10. Рахимов Н. «Садриддин Айни». Изд. АН Уз ССР, 1954 г.

11. Раджабов З. «Из истории общественно-политической мысли таджикского народа во второй половине XIX и в начале XX вв». Таджгосиздат, 1957 г.

12. Шукуров М. «Идейно-художественные особенности «Воспоминания» Садриддина Айнии (1-П ч.), автореферат, 1954 г.

13. Маниёзов А. «Публицистика и поэзия Садриддина Айни» (1913-1921 гг.), Таджгосиздат, 1958 г.

14. Айний С. Эски мактаб // Асарлар. VIII томлик. – Тошкент. Бадиий адабиёт. 1965. IV жилд. - Б. 139-140

MA`RIFATPARVAR JADIDLARNING TA`LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARI

Samadova Sarvinoz Samad qizi,
Buxoro davlat universiteti
“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati namoyondalarining ma’rifiy qarashlari, ularning milliy o‘zlikni anglash va taraqqiyotga erishish yo‘lidagi sa’y-harakatlari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Jumladan, jadid ma’rifatchilarining ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishga bo‘lgan yondashuvlari, ularning o‘quv dasturlarini zamon talablariga moslashtirish borasidagi sa’y-harakatlari ilmiy asosda bayon qilinadi. Mazkur tadqiqot jadidchilik harakati namoyondalarining pedagogik qarashlari nafaqat o‘sha davr uchun, balki bugungi kun ta’lim tizimi uchun ham dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, maqolada ta’lim jarayonining takomillashtirilishi, tarbiyaviy yondashuvlarning o‘zgarishi va ma’rifatparvarlik tamoyillarining jamiyat taraqqiyotiga ta’siri haqida ham atroflicha so‘z yuritiladi.

Kalit so`zlar: *jadidlar, Ismoil Gaspirali, Behbudiy, maorif islohoti, “Tarjimon” gazetasi, “Oyna ” jurnali.*

РЕФОРМЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ПРОСВЕЩЁННЫХ ДЖАДИДОВ

В данной статье рассматриваются просветительские взгляды представителей джадидского движения, сформировавшегося в конце XIX – начале XX века, их стремления к национальному самосознанию и достижению прогресса с педагогической точки зрения. В частности, научно обосновываются подходы джадидских просветителей к реформированию системы образования и воспитания, их усилия по адаптации учебных программ к требованиям времени. Данное исследование показывает, что педагогические взгляды представителей джадидского движения актуальны не только для того времени, но и для современной системы образования. В связи с этим в статье подробно рассматриваются вопросы совершенствования образовательного процесса, изменения воспитательных подходов и влияние принципов просвещения на развитие общества.

Ключевые слова: *Джадиды, Исмаил Гаспыралы, Бехбуди, реформа образования, газета «Тарджуман», журнал «Оина».*

REFORMS OF THE EDUCATIONAL SYSTEM BY ENLIGHTENED JADIDS

This article examines the educational views of the representatives of the jadid movement, which emerged in the late 19th and early 20th centuries, as well as their efforts towards national self-awareness and achieving progress from a pedagogical perspective. In particular, the study scientifically substantiates the approaches of jadid educators to reforming the education and training system and their efforts to adapt curricula to the demands of the time. This research demonstrates that the pedagogical views of the representatives of the jadid movement remain relevant not only for that period but also for the modern education system. In this regard, the article provides a detailed discussion on the improvement of the educational process, changes in educational approaches, and the impact of enlightenment principles on societal development.

Keywords: *jadids, Ismail Gaspirali, Behbudi, education reform, "Translater" newspaper, "Mirror" magazine.*

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator Sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o‘lkasida teran tarixiy ildizlarga egadir. Yurtimiz ham katta ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy ahamiyatga ega ushbu jarayonlardan chetda qolmagani, aksincha, bu harakatning markazlaridan biriga aylanganini ta’kidlash lozim. O‘z zamonining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar.

Ismoil Gaspirali nomi Sharq xalqlarida ma’rifatparvarlik harakatining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u ko‘plab musulmon mamlakatlarida boshlang‘ich ta’limni isloh qilishga katta e`tibor bergan. Maktablarda dunyoviy fanlarni o`qitilishini targ`ib qildi. Aynan Gaspirali ta`lim tizimini o‘zgartirish asoslarini ishlab chiqdi. Gaspirali o‘z tamoyillarini jamiyat taraqqiyotidagi bag‘rikenglikka asoslagan.

Gaspirali Turkistonga, xususan, Buxoroga kelib, uni ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirishni istaydi. Uning fikricha, bu mintaqada yuz berishi mumkin bo'lgan uyg'onish islom olamining mustamlakachilikdan ozod bo'lish kurashiga katta hissa qo'shadi.

Gaspirali 1893-yilda Turkistonga qilgan safari chog‘ida maorif islohoti haqidagi fikrlarini bayon qilgan. 1901-yilda Buxoro madrasalarining sobiq talabalaridan Munavvar qori Tatar usul-u jadid maktablaridan o‘rnak olib, Toshkentda birinchi boshlang‘ich maktabni ochgan bo‘lsa, oradan ikki yil o‘tib Behbudiy Samarqandda ikkinchi maktabni ochadi. Jadidlar o‘z yurtlarida olgan ta’limdan tashqari Rossiya, Turkiya va Yevropaning turli mamlakatlarida ta’lim olib Gaspirali bilan uchrashganlar.

Behbudiy 1909-yilda “Oyna” jurnalini chiqarishdan avval “Tarjimon” gazetasiga yuborgan maqolasida Turkiston xalqi uchun ham turkiy, ham fors tillarining ahamiyatini ta’kidlab, maktablarda har ikki tilni ham o‘qitishni taklif qilgan. Behbudiy o‘z fikrini quyidagicha izohlagan: 1) Turkistonda shahar aholisi bir-biri bilan turkiy va fors tillarida muloqot qilishadi 2) ba’zi hududlarda bu ikki tilning aralash shaklini qo‘llaganlar; 3) rasmiy idoralarga arizalar turk tilida yozilgan; 4) Diniy fatvolar fors tilida yozilib, turkiy tilida ro`yxatga olingan va bu butun Turkiston hududida amalda bo`lgan. Behbudiy maqolasining so`ngida Turkiston hududida ham turkiy, ham forsiy tilda ta`lim olib borilishi haqida ma`lumot keltiradi [4.123].

Turkiston jadidchilari Turkiston xalqlarining ta’lim-tarbiya tizimiga katta e`tibor berganlar. Ular ta`lim islohotini aholining ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashini kengaytirish va madaniy-ma’rifiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun olib bordilar. Behbudiy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish haqida qat’iyat bilan shunday deydi: “Dunyodagi xalqlar o‘z taraqqiyotini boshlang‘ich maktabdan boshlaydi, haqiqatda taraqqiyotning birinchi yo‘li maktabdir. Maktab isloh qilinsa, barcha sohalar isloh qilinadi, takomillashadi. Chunki isloh qilingan maktabdan oz bo`lsa ham mutafakkirlar yetishib chiqadi”[4.129]. Bu yerdan anglash mumkinki, Behbudiy qarashlariga ko`ra, maktabni isloh qilishda ikkita maqsadga erishiladi:

Birinchidan, maktablarni isloh qilish orqali umumiy taraqqiyotga erishish;

Ikkinchidan, ziyolilarni tarbiyalash, ya’ni jamiyatga ular istagan ziyolilarni yetishtirib berish.

Jadidlar Turkiston yoshlari zamondan xabardor bo‘lishi, fan-texnika yutuqlarini o‘rganishi uchun til bilishi, yomon illatlardan qutilishi, buning uchun islom dinining mohiyatini to‘g‘ri anglay bilishlari kerakligiga katta e’tibor qaratdilar. Turkistonning taraqqiyoti va ravnaqi zamonaviy ta’lim-tarbiya beradigan maktab va oliy dargohlarda tahsil olish, islohotlarni amalga oshirish g‘ayratli yoshlarning harakati, ma’rifatparvarligi, shijoati orqali vujudga keladi deb qaraydi. Bu esa hayotdagi mushkul ishlarda yolg‘iz yoshlarning ilmiy salohiyatidan foydalanish zarurligini ko’rsatadi[8.61].

Jadidlar yoshlar tahsilni jadid maktabidan keyin maxsus o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida, zanjirsimon davom ettirishlari zarur deb ta`kidlaganlar. Bu harakatining yana bir muhim jihati, ular o‘z ona tillarining maqomini ko’tarish va davlat tili sifatida munosabatda bo‘lish kerakligi masalasini ko‘tarib chiqqan edilar. Bu ayniqsa, 1918 - yilning aprel oyida Turkistonda o‘tkazilgan V qurultoyda o‘lkaga avtonomiya maqomi berilishi bilan birga mahalliy xalq tilini rus tili bilan bir qatorda davlat tili sifatida e’tirof etish masalasi qayd etildi[6.106].

Behbudiyning ma`rifatparvarlik g`oyalari, jamiyatni taraqqiy ettirish uchun kadrlar tayyorlashning zarurligi to`g`risidagi qarashlari, uning “Padarkush” asaridagi ziyoli obrazi orqali ifodalanadi. Ziyoli o`zining ilm-fan, texnika, madaniyat, davlat, jamiyat ishlari haqidagi fikr– mulohazalarini aniq, lo`nda, ilmiy, ishonarli dalillar orqali tushuntirishga, isbotlashga harakat qiladi. Xususan, ziyolidagi bu xususiyatlar uning boy bilan bo`lgan munozarasida yaqqol ko`zga tashlanadi[2.35].

Amerikalik olim E.Olvort “Padarkush” dramasi haqida “Dramada ilgari surilgan jiddiy muammolar ta`lim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va mas`uliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va ta`sirli ifodalangan. Dramada ilk bora turkistonliklarga o`z tilida, tipik obrazlar, tipik xarakterlar orqali jiddiy hayotiy muammolar, ochiqchasiga gapirilgan edi. Ilmsizlik, jaholat, to`g`ri yo`ldan adashish oilaga baxtsizlik, chinakam kulfat keltirishi ta`sirli dialoglarda aks ettirilgani uchun sahnadagi harakatlar tomoshabinni hayratga solib,butun vujudini qamrab oladi. Sahnadagi voqealarni to`g`ri idrok qilgan har qanday tomoshabin Turkistonning asosiy fojiasi nimadan iborat ekanligini ko`rib yig`laydilar, mamlakat yoshlarini o`qitish orqali yangi hayotga olib chiqish zarurligini tushunadilar [1.157] deb ta`kidlaydi.

Turkistonning ham ilm, ham qishloq xo`jaligida istalgan darajada emasligini bildirgan Behbudiy, maktab, do‘kon, ishlab chiqarish korxonalari, fabrika, madrasa va boshqa barcha sohalarni muammolarning yechimi sifatida isloh qilish kerakligini aytadi. Behbudiy fikricha, barcha sohalarda islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy ilmga ega bo‘lish Turkistonning o‘ziga kelishi va oyoqqa turishi uchun ikki muhim harakatdir. Agar bu ishlar amalga oshirilsa, albatta mamlakat rivojlanishini ta`kidlaydi[3.27]. Shu o‘rinda Behbudiy yana ta’lim-tarbiyaga urg‘u beradi: “Bir so‘z bilan aytganda, boshqa xalqlarning boylari

kambag‘al va yetimlari uchun maktab va universitetlar quradilar, kambag‘al va yetimlarni o‘qitish uchun stipendiya ajratadilar. Boshqa xalqlarning millionerlari tashkil qilgan gazeta-jurnallari, qurgan maktabi va yaxshi jamiyati bilan faxrlansa, bizning boylar uyi, oti, aravasi, qilgan to‘ylari bilan faxrlanadi. Hatto o`z o'g'illarini o`qitmagan boylar bor. Bunday holat yaxshi alomatlarga olib kelmaydi. Bolalarni o`qitish kerak. Din va zamonaviy ilmlar otalardan bolalarga meros bo‘lib qolishi kerak”[7.14].

Ma`rifatparvar jadidlardan biri Abduqodir Shakuriy Samarqandda yangi usuldagi maktabni tashkil qiladi. Yangi usuldagi bu maktabda arifmetika, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar o’qitilardi. Shakuriy o’zi ochgan yangi usuldagi maktabida o`qitishning yangi uslublarini joriy qiladi.

A.Shakuriyning o’qish-o’qitish uslubidagi yangilikning ahamiyati shundaki,birinchidan,u o’sha davrda mavjud bo’lgan eski o’qitish usullari va o’qish kitoblarining hammasini rad qilib, savod chiqarishni engillatish maqsadida dastlab bo’g’in usuli, keyinchalik tovush-harf uslublarini qo’llaydi. Bu o’qitish uslubining qulayligi natijasida o’quvchilar ko’pi bilan 6 oy ichida savodli bo’lardi. Ikkinchidan, maktabda kichik yoshdagi o’g’il va qiz bolalarni birga o’qitish uslubini joriy qildi. Uchinchidan, bolalarni avvalo o’z ona tilisida o’qitishga qat’iy rioya qildi va shu bilan birga bolalarni o’zbek, tojik, arab va rus tillarini ham mukammal o’rganishga da’vat qildi. To’rtinchidan, yangi usul maktablari uchun juda sodda, tushunarli tilda darsliklar tuzib, ularni nashr etdi. Beshinchidan,Shakuriy tomonidan joriy qilingan dastlabki yangilik Samarqand maktablariga mehnat va musiqa darslarining kiritilishi bo’ldi. U o’z o’quvchilarini qishloq xo’jaligi va bog’dorchilikka oid ishlar bilan tanishtirishdan tashqari, muqovachilik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o’rgatar, bu mashg’ulotlar uchun maktab dasturidan alohida soatlar ham ajratgan edi[5.224].

Jadidlarning ta`lim tizimidagi islohotlari:

Zamonaviy va dunyoviy ta’limga e’tibor berib, an’anaviy dinshunoslik bilan bir qatorda ilmiy-texnika fanlarini ham o‘zida mujassam etgan maktablar tashkil etishni targ‘ib qilganlar. Jadidlar an'anaviy madrasalar o'rnini bosadigan yangi maktablarni tashkil etishga harakat qilishgan. Jadid maktablarida o'qitish metodikasi yangilanib, ilm-fanning turli sohalari, xususan, matematika, tabiiy fanlar, geografiya, tarix va boshqa zamonaviy fanlar o'rgatila boshlandi.

Islohotlari doirasida yangi alifbo va yozuv tizimini joriy etish ham muhim o'rin tutgan. Ular arab alifbosining o'rnini bosadigan yangi yozuv tizimlarini taklif qilishgan. Bu alifbo, o'z navbatida, yangi ilmiy va pedagogik yondashuvlarni amalga oshirishga imkon berishi kutilgan edi. Jadidlar, bu orqali o'quvchilarga o'qish va yozishni osonlashtirishni, ta'limni kengroq rivojlantirishni maqsad qilganlar.

Ta'limda an'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, zamonaviy pedagogik usullarga e'tibor berishdi. Masalan, ularning maktablarida o'quvchilar faqat yodlashga emas, balki o'z fikrlarini ifodalashga, tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga o'rgatildi. Bu usul, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga yordam berdi.

Yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqishgan. Bu dasturlar zamonaviy fanlarni o'rganishga, shuningdek, o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan edi. Maktablar dasturlarida, masalan, dunyoviy fanlar, tabiatshunoslik, ijtimoiy fanlar kabi sohalar o'rganilgan.

Diniy ta'limni faqatgina an'anaviy madrasalardagi shaklda qabul qilmay, uni zamonaviylashtirishga harakat qilishgan. Bu o'rinda, diniy fanlar, tafsir, fiqh kabi sohalarni o'rganish o'zgarib, ular ilmiy yondashuv asosida ta'lim berilgan. Bu maktablarda dinni faqat yoddan o'qish emas, balki uni ilmiy va mantiqiy tushunishga urg'u berilgan.

Ta’lim-tarbiya orqali xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish jamiyatning har tomonlama intellektual va ilmiy rivojiga xizmat qilishini e’tirof etib, xotin-qizlarning bilim olishini faol targ‘ib qidilar. Bu borada ayollar uchun maxsus maktablar ochish taklifini ilgari surganlar.

Ilmni rivojlantirish maqsadida maktablar va kutubxonalar tashkil etishga ham katta e'tibor berishgan. Kutubxonalar, o'quvchilarga zamonaviy ilmiy va adabiy manbalarni o'qish imkoniyatini yaratish orqali, bilim olish jarayonini yanada samarali qilishni nazarda tutgan. Shuningdek, jadid maktablarida o'quvchilarni ilm-fan va adabiyot bilan tanishtirishda katta ahamiyat berilgan.

O'zlarining islohotlari orqali ta'limni keng jamoatchilik uchun ochiq qilishni maqsad qilganlar. Bepul ta'limni targ'ib qilish orqali, barcha qatlamlarga ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishgan. Bu islohotlar, o'z navbatida, jamiyatni yuksaltirish va barcha fuqarolarni rivojlantirishga xizmat qilgan.

Jadidlar ta'lim tizimidagi islohotlarining maqsadi:

Modernizatsiya va taraqqiyot: Jadidlar, o'z ta'lim tizimida zamonaviy ilm-fanlarni, texnologiyalarni va metodlarni o'zlashtirishga intilganlar. Bu ularning maqsadi – ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish edi.

Mustaqillik va ozodlik: Jadidlar ta'limni xalqni ongini yuksaltirish, mustaqil fikrlashga undash, ko'proq bilim olishga imkon yaratish orqali mustaqil va ozod jamiyatni shakllantirishga harakat qilishgan.

An'anaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish: Jadidlar yangi bilimlarni joriy qilish bilan birga, milliy va dini qadriyatlarni ham saqlab qolishga harakat qilganlar.

Jadidlar ta’lim-tarbiya islohoti va ilmiy ma’rifatni amalga oshirish uchun turli usullardan

foydalanganlar. Ular zamonaviy o‘qitish usullarini joriy qildilar, o‘quv dasturlariga o‘zgartirishlar kiritdilar, matematika, fizika, tibbiyot kabi ilmiy fanlarni o‘rganishni rag‘batlantirdilar. Bu fanlarni islom ta’limotlari bilan uyg‘unlashtirish orqali jadidlar o‘zgaruvchan davr ehtiyojlariga mos keladigan har tomonlama ta’lim tajribasini yaratishni maqsad qilganlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg’onishda va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy yo‘l bilan yechish yo‘llarini jadidlar o‘z maqola va asarlarida ko‘rsatganlar. Yoshlarni o‘qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, ma’naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaganlar. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish orqali Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxasislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, farovon etishlariga ishonganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o‘rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi kungacha o`z ahamiyatini yo`qotgani yo`q.

Adabiyotlar:

1. Ahrorova Z. Mahmudxo`ja Behbudiyning pedagogik qarashlari va ma`rifiy-amaliy faoliyati. Pedagog. Fan.nomzodi. diss.T.: 1997 y.

2. Abdirashidov Z. “Jadidlar. Mahmudxo`ja Behbudiy” T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2022y

3. Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: “Ma`naviyat “nashriyoti, 1997 y.

4. Israilov. Z. “Türkistan ceditçilerinin dinî düşüncesi”doktora tezi.Bursa 2023 y.

5. Ma`murov B.B. “Umumiy pedagogika” darslik. B.: “Durdona”.2020 y

6. Mustafayeva N. Turkiston jadidlari qarashlarida ta’lim-tarbiya masalalari. O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalariga yangi chizgilar. Davriy to‘plam, №2, Toshkent, ”Sharq”, 1999 y

7. Odob-axloq kitobi. Jadid adabiyoti namoyondalari. T.: Yangi asr avlodi. 2015 y.

8. Qosimov B. Milliy uyg`onish: jasorat, ma`rifat, fidoiylik. T.: “Ma`naviyat”. 2002y.

9. Samadova S.S. “The significance of the Jadids` scientific heritage in developing the spirituality of yourth in New Uzbekistan” // Intelektualitas: Jurnal Penelitian Lintas Keilmuan. Indonesia. Volum 1. Number 4.2025. p1-6.

10. Samadova S.S. “The issue of education and upbringing in the spiritual heritage of the Jadids of Turkestan”// Cognizance Journal of Multidisciplinary Studies. Volume 5. Issue 1.2025. p 408-415.

UO’K 159.9.07

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA KASB-HUNARNI EGALLASHGA DOIR QARASHLAR

Amirova Nazokat Uroq qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti,
amaliy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
amirovanazokat49@gmail.
TDPIning v.b professori ***M.A.NarboSheva*** *taqrizi asosida.*

Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlari ta’limotida o‘g‘il va qizlarga ta’lim va tarbiya berish bilan birga ularni kasb-hunarga o‘rgatiSh g‘oyasi ham muhim o‘rin egallaydi. Bundan ko‘rindiki, kasb tanlaSh kasbga yo‘naltiriSh masalalari hozirgi kun uchun yangilik bo‘lmay, balki azaliy muammo sifatida o‘rganib kelinmoqda. Sharq mutafakkirlari asarlarida ilmiy, nazariy qarashlar motiv va motivatsiya insonlarning kasb tanlashlari borasidagi fikr va mulohazalari bayon etilgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Jomiy, Axmad Donish, Davoniy va boshqalar tomonidan yozilgan asarlarda muammo atroflicha talqin qilingan.

Kalit so‘zlar: *kasb-hunar, motiv, kasbiy motiv, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik, talablar, shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarish masalasi.*

VIEWS ON OCCUPATION IN THE WORKS OF EASTERN THINKERS

In this article, the idea of educating and training boys and girls, as well as training them in a profession, plays an important role in the teachings of Eastern thinkers. It is clear that the issues of choosing a profession and directing them to a profession are not new to the present day, but have been studied as an ancient problem. The works of Eastern thinkers describe scientific, theoretical views, motives and motivation, thoughts and considerations on the choice of a profession. In particular, the problem is interpreted in detail in the works of Abu Nasr Al-Farabi, Abu Rayhan Al-Biruni, Abu Ali Ibn Sina, Jami, Ahmad Donish, Davani and others.

Keywords: *profession, motive, professional motive, hard work, business acumen, entrepreneurship, ingenuity, requirements, the issue of personal self-management.*

ВЗГЛЯДЫ НА ОВЛАДЕНИЕ ПРОФЕССИЕЙ В ТРУДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

В этой статье важное место в учении восточных мыслителей занимает идея обучения и воспитания мальчиков и девочек, а также обучения их профессии. Из этого видно, что вопросы профориентации при выборе профессии изучаются не как новшество для современности, а как извечная проблема. В трудах восточных мыслителей изложены научные, теоретические взгляды на мотив и мотивацию, высказываются мнения и суждения людей о выборе профессии. В частности, в произведениях Абу Насра Фараби, Абу Райхана Беруни, Абу Али Ибн Сины, Джами, Ахмада Дониша, дави и других проблема трактуется более подробно.

Ключевые слова: *профессия, мотив, профессиональный мотив, трудолюбие, деловитость, предпринимательство, изобретательность, требования, вопрос самоконтроля личности.*

Kirish. Bugungi rivojlanib kelayotgan jamiyatimizda, o‘sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim tarbiya berish muhim o‘rin tutadi.Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, hunarli qilish qadimdan dolzarb masaladir. Sharqda yoshlarga ta’lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o‘rganish qadimiy an’analaridan hisoblanadi. Ayniqsa, hunarmand va kosiblar, me’mor va naqqoshlar, dehqon va chorvadorlar o‘z farzandlarini yoki shogirdlarini tarbiyalashga kasb sirlarini o‘rganishga juda katta ahamiyat berilgan. Xalqimizning yosh avlod tarbiyasiga bu qadar e’tibor berishni ko‘rsatuvchi turli-tuman naqllar va rivoyatlar, maqollarning asrlar osha to‘planib kelganligini ham alohida qayd etish o‘rinlidir. Jumladan, ustozdan o‘zmagan shogird shogird emas. hunarli kishi xor bo‘lmas, yoki bir yigitga yetmish hunar oz kabi ko‘plab hikmatli so‘zlar borki, ular qadim qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlodni ruhan va jismonan barkamol hamda o‘ziga munosib biror bir kasbkor egasi bo‘lib yetishishlariga da’vat etib kelganlarining yaqqol isbotidir.

Abu Nasr Forobiyning ta’kidlashicha, “Ta’lim – degan so‘z xalqlarda shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatlarni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir”. Ta’lim faqat so‘z va o‘rganish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish tajriba bilan ya’ni shu, xalq shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish –harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishdir”- deydi.

Forobiy ta‘lim – tarbiya ishlarini ikki yo‘l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Amaliy fazilatlar va amaliy san’at kasb-hunarlarda ularni bajariShga odatlantiriSh masalasiga” kelganda, bu odam ikki yo‘l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi qanoatbaxSh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odatda hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo‘l usul majbur etish yo‘li. Bu usul gapga ko‘nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroiy xalqlarga nisbatan qo‘llanadi. Chunki ular o`z istaklaricha so`z bilan g`ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o`rgatishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo`ladi. Kasb-hunarlarni va juz`iy san`atlarni egallashga intilish bo`lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilish va san`at ahllariga aylantirishdir, deb hisoblaydi Farobiy. Farobiyning fikriga ko`ra, insonning kasb-hunar va san`atdagi fazilati tug`ma emas. Aks holda insonning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug`lik bo`lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug`ma bo`lganida edi, podshohlar o`zlari ishlab va harakat qilib emas, balki , podshohlikka ular faqat tabiiy ravsishda muyassar bo`lgan, tabiat talab qilgan va majburiy bo`lib qolar edi. [Farobiy, 1993] Allomaning asarlarida kasb-hunar o`rganishga, ilmni bo`lishga intilganlar alohida e`zozlangan, har kimki ilmu-hikmatni o`rganaman desa, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo`lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, moddiy narsalar to`g`risida bilimga ega bo`lsin, deydi Farobiy [Аль-Фараби, 1976. –С. 199]. Farobiyning ta`lim va tarbiya tushunchalariga bergan ta`rifiga yana bir karra e`tibor beradigan bo`lsak, allomaning kasb-hunarga qiziqishga oid bo`lgan nafis qarashini, ya`ni kasb-hunarga qiziqish tarbiyaviy jarayon ekanligini tushunib olishimiz mumkin: agar inson kasb-hunarga qiziqsa va bu qiziqish uni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, u kasb-hunarning chinakam oshig`i bo`ladi.

Abu Rayhon Beruniy har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bo`ladi. Og`ir mehnat sifatida binokor, ko`mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli – olimlar mehnatiga alohida e`tibor berish, xayrixoh bo`lish zarurligini uqtiradi, ularni ma`rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo`shuvchilar, - deb biladi. Shu bilan birga, og`ir mehnat qiluvchi konchilar, yer ostida gavhar izlovchilar va dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag`batlantirib turiSh kerakligini ta`kidlab, amaldorlar bunday mehnat ahliga g`amxo`r bo`lishlari kerakligiga alohida urg`u beradi. Chunki ana shu mehnat ahlini ular hukmronligining tayanchi deb hisoblaydi. [Беруний, 1997. –С. 487]

Ibn Sino odamlar kasb-hunar bilan shug`ullanishlarida ularning mijozidan kelib chiqishlariga alohida e`tibor qaratish kerakligini ta`kidlagan. Chunki har bir inson faqat unga tegishli bo`lgan xususiyatlargagina egadir, unga o`xshash insonlar kamdankam bo`ladi, deb yozadi alloma.

Bilim olish bilan birga hunarning inson uchun qay darajada afzal va ulug`ligi Shams al-Maoliy Qobusning nabirasi Unsur al-Maoliy tomonidan fors tilida yozilgan va «Nasihatnomai Kaykovus» asarida ham o`rin olgan. Asarda dehqonchilik va bozor hunarlari haqida shunday deyiladi: “Har bir hunarni qilsang ham, chaqqon bo`lgil va pokiza ish qilgil. Sening ishing hamma hunarmandlarning ishidan yaxshiroq bo`lg`ay”. Ushbu asarda jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning zarurligi ta`kidlangan: “Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo`lsa-yu, ammo hunari bo`lmasa, u xaloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo`lur. Ulug`likka aql va bilim oqali erishilur, nasl-nasab ila emas. Ismni senga ota va onang qo`ymishlar, sen unga g`arra bo`lmagin. Ammo sen hunar bilan bir nomga ega bo`lg`il”. Asarda turli kasb egalari ulug`lanib, kasb-hunar o`rganishni bilim olish bilan qo`shib olib borish tavsiya etiladi. Kaykovusning qarashlari o`sha davrning ilg`or qarashlaridan sanalib, ularning aksariyati hozirgi kunda ham o`z qadrini yo`qotmagan. Xususan, «Ey farzand ogoh bo`lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo`lur va hech kishiga naf` yetkurmas. Bilursanki, tikanli butaning tani bordur, ammo soyasi yo`qdir. Hunarsiz kishi ham tikanli buta yanglig` na o`ziga va na o`zgaga foyda berur».

Sa’diyning “Guliston” asari ahloqiy ta’limot bilan ayniqasa mashhurdir. Zero, mazkur asarda insoniylik, sahovat, qanoat adolat kabi hislatlar ulug‘lanadi.

Jomiy ham xuddi Forobiy singari biror foydali kasb-hunarni egallashni yoshlarning asosiy burchi deb hisoblaydi. U biror odam ikki ishni eplay olmasligini ta’kidlaydi, faqat muayyan bir hunar bilan shug‘ullanish uni puxta o‘zlashtirish lozimligi haqida gapiradi.

Jomiy hunar egallashni u bilan shug‘ullanishni har qanday boylikdan afzal ko‘radi, yoshlarni hunar egallashga chaqiradi.

Jomiy bilim-hunarsiz kishini o‘tindan boshqaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o‘xshatadi. U har bir yoShni ota obro‘si, shon-shuhratidan mag‘rurlanmay o‘z yo‘lini tanlashiga, ilm-hunar o‘rganishga undaydi. Shuningdek, hunar o‘rganishga undaydi. Shuningdek, hunar o‘rganish har bir kishi uchun u yoshmi, keksami, shohmi, fuqaromi barchaga barobar, - deb ta’kidlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sharq allomalarining asalarida insonning kamolatida ta’lim-tarbiyaning ro’li va ahamiyati haqida bayon etilgan. Jumladan quyidagi asarlarda ko’rib, tahlil qilib chiqiShimiz mumkin. Abu-Nasr Forobiyning "Fozil odam" (yoki "Fozil kishi") asaridir. Abu Rayhon Beruniy inson kamoloti va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni o'zining "Qonun al-Mas'udi" va "Tafhim" asarlarida keltirib o'tgan. U mehnatni inson hayotining ajralmas qismi sifatida ko'rib, uning ahamiyatini ta'kidlagan. Beruniy mehnat orqali bilim olish, tajriba orttiriSh va insonning ruhiy va jismoniy rivojlanishi mumkinligini belgilagan. Uning fikrlariga ko'ra, mehnat tarbiyasi nafaqat jismoniy kuchni oshirish, balki intellektual va axloqiy rivojlanishga ham xizmat qiladi. Beruniy mehnatni insonning ma'naviy kamoloti uchun zarur deb bilgan va uni ijtimoiy hayotda muhim omil sifatida ko'rgan. Ibn Sino, ya'ni Avitsenna, insonning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish zarurligi haqida bir necha asarlarida fikr yuritgan. Bu fikrlar asosan quyidagi asarlarida uchraydi: **"Tib qonunlari" (Kitab al-Qanun fi al-Tibb)** - Bu asarda u Shaxsning salomatligi va kasalliklarni davolaShda individual yondaShuv zarurligini ta'kidlaydi, **"Shifo kitobi" (Kitab al-Shifa)** - Bu asarida u insonning aqliy va ruhiy taraqqiyotini hamda tarbiya jarayonida individual ehtiyojlarni hisobga olish zarurligini muhokama qiladi, **"Nafaslar" (Kitab al-Nafs)** Bu asarda Ibn Sino inson ruhiyatini va uning rivojlanishini o'rganadi, Shaxsiy xususiyatlarni inobatga olishning ahamiyatini ko'rsatadi. Ibn Sino insonni yaxshilaSh va tarbiyalashda individual yondaShuvni ta'kidlaSh orqali, har bir insonning o'ziga xosligini va ehtiyojlarini inobatga olish zarurligini tushuntiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kasb-hunar egallash muommosi qadimdan o’rganilib kelinayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Inson qanday inson ekanligi uning tanlagan kasbiga bog’liq degan fikralar bejizga aytilmagan. Bolalarning kasb-hunar egallashi to‘g‘risida ham e’tiborga sazovor fikrlar bildirgan. Muallim talabalarning qobiliyatini qaysi kasb bilan qiziqishini juda yaxshi bilishi lozim. Agar bola ma’lum bir kasb-hunar yoki ilm bilan shug‘ullansa,uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va bu ilm yoki kasbni egallash uchun kerakli shart – sharoit yaratib berish lozim. Har bir kishining deb yozadi Davoniy, hamma kasbni egallashga qobiliyati bo‘lmaydi, balki muayyan odamning kasbga qobiliyati bo‘ladi.

Bir kasb-hunarni o‘rganishga intiluvchilar butun iste’dodlarini ana shu kasbni egallashga qaratadilar, natijada o‘z sevgan kasb-hunarlarini tezda va puxta o‘zlashtirib oladilar. Davoniyning bu fikrlari Forobiyning quyidagi fikrlariga juda o‘xshab ketadi: “Kasb-hunarni egallash va kamolotga erishishga o‘z ixtiyoricha havas bilan intilgan kishilar haqiqiy fazilat egalari va haqiqiy san’at ahllaridir”.

Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchga bo‘ladi, ya’ni ular kishining ruhiy (ma’naviy) quvvatiga bog‘liq bo‘lib, birinchisi, inson aqliga tegishlidir, bunga vazirlik kasbini kiritadi. Ikkinchisi ta’lim –tarbiya natijasida vujudga keladi. Bunga astronomiya, matematika, tibbiyot va geometriya fanlari bilan shug‘ullanish kiradi. Uchinchisi, kishining shijoati va jasurligi namoyon bo‘ladigan kasblardir: bular-dushmanga qarshi kurash, chegarani qo‘riqlash va boshqalardir.

Tahlil va natijalar. Davoniy kasb-hunar egallashni kishining eng go‘zal fazilatlaridan biri, deb hisoblaydi. Inson kasb-hunarni egallashga uni takomillashtirishga intilish bilan jamiyatga ham foyda keltiradi, demak bunday kishi har qanday tahsinga sazovordir. U kishilarni eng avvalo kasb-hunariga qarab toifalarga bo‘ladi. Birinchi toifaga qalam ahllarini olimlar, noiblar, munajjimlar, qozilar injenerlar, musulmon qonunshunoslarini; ikkinchi toifaga harbiylarni; uchinchi toifaga savdogar hunarmand boshqalarni kiritadi. To‘rtinchi toifaga esa dehqonlar qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchilardan iboratligini ko‘rsatib o‘tadi.

Davoniyning kasb-hunar egallash to‘g‘risidagi ijobiy qarashlaridan biri shuki, u birinchi navbatda oddiy xalq mehnatini, xususan, dehqon mehnatini ulug‘laydi. Insonning faqat mehnati tufayligini baxt-saodatga erishuvchi mumkinligini, mehnat insonning shaxs sifatida kamol topishining bir mezoni ekanligini isbotlaydi.

Shaxsni tarbiyalash, uni hayotga tayyorlashning eng asosiy shartlaridan biri turli davr va avlod olimlarining mehnati bilan yaratilgan bilim va tajribani asrab-avaylash hamda undan oqilona foydalanishdir. O`rta asrlarda Sharq mamlakatlarida insonning kasbiy shakllanishi masalalari faylasuf-olimlar diqqat-e`tibori markazidagi masalalardan bo`lib, yoshlarni kasb-hunar egallashga da`vat qilish va o`rgatish qadimiy an`analardan hisoblangan. Yoshlarning kasb-hunar egallashi ta`lim va tarbiya berish masalasi bilan bir qatorda muhim hisoblanib, kasb-hunarga o`rgatish jarayoni bilim olish bilan qo`shib olib borilishi, nazariya va amaliyotning birligi ta`minlanishi tavsiya etilgan. Kasb-hunar o`rgatish jarayonida esa imkon qadar qanoatbaxsh so`zlar bilan ilhomlantirish orqali malakalar vujudga keltirishga e`tibor qaratilgan. Bundan tashqari, kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o`ta muhim bosqichi - bo`lajak kasb-

hunarni tanlash bo`lib, ushbu bosqich insonda ma`lum bir kasbga bo`lgan qiziqishning shakllanishidan boshlab, ushbu kasbni tanlash borasida aniq bir qarorga kelishigacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Tanlagan kasbi orqali, insoning shaxslilik xususiyatlari ham rivojlanib boradi. Dastlab, insonda qiziqish bo’lsa, unda kasbiy layoqatlar, ko’nikmalar shakllanib boradi. Bu esa insoniy xususiyatlarga ham o’z aks ta’sirini ko’rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, Sharq allomalari asarlaridagi kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish borasidagi fikrlarni o‘rganish, ularni amaliy hayotga tadbiq etish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ongli kasb tanlashga yordam beradi. Allomalar asarlaridagi insonning kasb tanlash faoliyati va ularni kasb-hunarga yo`naltirish borasidagi qimmatli va dono fikrlarini o`rganish, o`sib kelayotgan yosh avlodni bo`lajak kasbiy faoliyati sohasini tanlashlari masalasiga ongli yondashishlariga yordam beradi. Bu esa bolalarni yoshligidanoq kasb-hunarga o‘rgatish jamiyatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, ularda kasbga xos tushuncha, tasavvur va bilimlarini boyishiga xizmat qiladi. Kishi tanlagan kasbi orqali, qanday inson ekanligi namoyon qiladi. Inson hayoti davomida Shu tanlagan kasbi, hunari orqali o’zini namoyon qilib boradi. Shu kasb davomida insonning shaxslilik sifatlari, individiuallik sifatlari tarkib topib shakllanib boradi. Insoning tanlagan kasbi orqali unda balki, axloqiy sifatlar ham tarkib topib boradi. Insonlarda mehnatsevarlik, tirishqoqlik, sabr-toqat, bardoshlilik, qa’tiyatlik, ma’suliyatlilik kabi saifatlarning rivojlanib, takomillashib borishida kasb-hunarning o’z o’rni va vazifasi bordir.

Adabiyotlar:

1. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch, I.A.Karimov T: Ma’naviyat,2008 y

2.Buyuk kelajagamizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.SH.M.Mirziyoyev, Toshkent: O’zbekiston,2017

3. Ta`lim va tarbiya haqida Abu Ali ibn-Sino –T., 1967.

4. Baxt-caodatga erishuv haqidagi risolalar. Abu Nasr Farobiy –Toshkent: «Fan», 1975.

5. Jomiy va Davoniy ta`lim–tarbiya haqida. Aliqulov H., Omonboyeva –Toshkent: “O`zbekiston”, 1981.

6. Социально-этические трактаты Алма-Ата, 1976 Inson kamoloti va milliy-ma’naviy qadriyatlar.A.Haydarov

7. Psixologik xizmat. NiShanova Z.T, Alimboeva SH.T, Sulaymonova M.V T-2014

8. Kasbiy psixologiya. Sultonova L.B . 2014 Y

9.Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti,. Safaev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. – T.:2013.

“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:

- ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
- ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
- ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:
Moliya vazirligi g‘aznachiligi
23402000300100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 40011086006401709410035005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025-yil 4-son (115)

2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:
Nigora SAYFULLAYEVA
Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA
Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 28.04.2025
Bosmaxonaga topshirish vaqti 29.04.2025
Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog‘i – 20,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 21
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri, J.Ikromiy MFY, Hofiz tanish Buxoriy ko‘chasi, 190 B-uy.